



ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

2016-yil 2-son (96)

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

**Tarix. Falsafa. Sotsiologiya. Filologiya. Pedagogika.
Psixologiya. Iqtisodiyot.**

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan. Tarix, falsafa, sotsiologiya, filologiya, pedagogika va psixologiya yo'nalishlarida chop qilingan maqolalar doktorlik dissertatsiyalari himoyasida hisobga olinadi.

BOSH MUHARRIR:
BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARLARI:

A. R. XALMUXAMEDOV, f.-m. f. d., professor
A.J.XOLIQOV, k.f.d., dotsent
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M. X. ASHUROV - O'zFA akademigi
M. M. KAMILOV - O'zFA akademigi

B. J. AXMEDOV - f.-m. f. d., professor
A. S. BEGMATOV - fals.f. d., professor
T. M. MO'MINOV - O'zFA akademigi
X. I. IBRAGIMOV - ped.f.d., professor
X. T. MAMATOV - yu.f.d., professor
U.S. SALIXBAYEV - f.-m.f.d., professor
E. G' G'OZIYEV - psixol.f.d., professor
- «Zarafshon» gazetasi muharriri
F.I. TOSHEV
T. SH. SHIRINOV - tar.f.d., professor
M. Q. QURONOV - ped.f.d. professor
B. O. TO'RAYEV - fals.f.d., professor

**GUMANITAR FANLAR SERIYASI
TAHRIRIYAT HAY'ATI:**

M.D.DJURAKULOV - tar.f.d., professor
I. M. SAIDOV - tar.f.d., professor
O. M. G'AYBULLAYEV - fals.f.d., dotsent
N. SH. SHODIYEV - ped.f.d., professor
B. Y. YO'LDOSHEV - fil.f.d., professor
Sh. S. SAFAROV - fil.f.d., professor
D. I. SALOHIY - fil.f.d., professor
S. A. KARIMOV - fil.f.d., professor
M. Q. PARDAYEV - i.f.d., professor
M. M. MUXAMMEDOV - i.f.d., professor
B. X. TO'RAYEV - i.f.d., professor
Sh. R. BARATOV - psixol.f.d., professor
B. Q. QODIROV - psixol.f.d., professor
Z. Yu. MUQIMOV - yu.f.d., professor
J. Ya. YAXSHILIKOV - fals.f.d., professor

Koordinator:

A. Sh. YARMUXAMEDOV – f. - m.f.n.

Muharrirlar:

B. S. G'OYIBOV – t.f.n., dotsent
R. TOSHQUVATOVA – fals.f.n., dotsent
N. U. ARABOV – i.f.n., dotsent
H. BERDIYEV – fil.f.n., dotsent
N.NASRULLAYEVA – fil.f.n., dotsent

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun - 5583,
tashkilot, korxonalar uchun - 5584

MUNDARIJA/CONTENTS/СОДЕРЖАНИЕ

TARIX/HISTORY		
S.A.Djumanov	Mustaqillik yillarida tibbiy kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasidagi islohotlar tarixiga doir About the history of reforms in the sphere of training and advanced training of medical specialists during the years of independence	5
A.Abdullayev	Amudaryo bo'limida ijtimoiy-siyosiy va huquq-tartibot sohasida yuz bergan o'zgarishlar (XIX asrning oxiri XX asr boshlari) Changes in the systems of social-political and lawful orders in Amudarya region (the end of the XIX- th century and the beginning of the XX- th century)	8
R.B.Siddiqov	O'zbekiston – Xitoy madaniy-ma'rifiy aloqalariga oid(internet ma'lumotlari asosida) Cultural and educational cooperation between Uzbekistan and China (on the base of Internet material)	12
F.E. Toshboyev	Qadimgi Sug'dga chorvadorlar madaniyatining ta'siri xususida About the effect of cattle breeders' culture of ancient Sogd	15
Sh.A. Indiaminova	Sug'dda diniy munosabatlar (Xitoy yilnomalarining nashrlari asosida) The religion attitude in Sogd (on the base of Chinese chronicles)	18
A.J.Bodirov	O'rta Osiyoda o'tkazilgan rayonlashtirish davrida Zarafshon vohasi Zarafshon valley in the period of territorial division in Central Asia	21
F.Sh.Shamukaramova	Samarqand osori-atiqalarini o'rganish va saqlashda Vasiliy Vyatkinning xizmatlari Vasiliy Vyatkin's role in research and preservation of Samarkand monuments	26
U.Xudayarov	Sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonda o'tkazilgan aholi ro'yxatlari tarixi xususida About the census of Uzbekistan population in the period of Soviet government	32
SOTSIOLOGIYA/SOCIOLOGY		
T.Matibayev	Sharq ijtimoiy fikrida hamkorlik g'oyasi: nazariyadan amaliyotga The idea of cooperation from Oriental social point of view: from theory to practice	37
FALSAFA/PHILOSOPHY		
J.Y.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiyev, R.M.Karimova	Yoshlarning axloqiy-kasbiy buzilishi va uni bartaraf etish chora-tadbirlari The moral deformation of youth and the ways of its solution	40
N.E.Saliyeva	Yoshlar ideosferasi shakllanishi jarayonini o'rganishning dolzarbligi va ahamiyati The importance and significance of studying the process of youth ideosphere formation	47
H.A.Djurakulov	O'zbekistonda ekologik huquqiy ongning shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari The main directions of forming ecological thinking in Uzbekistan	50
F.A.Erkabayeva	O'lkamizda amaliy va tasviriy san'at evolyutsiyasi On the evolution of the fine arts and crafts of our land	53
S.D.Norqulov	Ijtimoiy ongning yaratuvchanlik xususiyatlari: ijtimoiy-falsafiy tahlil The creation of peculiarities of the public consciousness: social-philosophical analyses	57
I.Ch.Shermanov	«Moddiy ishlab chiqarish» va «ma'naviy ishlab chiqarish» tushunchalarini falsafiy kategoriya sifatida talqin etish muammolari The problems of interpretation of material and spiritual productions as philosophical categories	62

FILOLOGIYA/PHILOLOGY		
T.Valiyev	Kibernetik leksikografiya va til korpusi muammolariga doir About the cyber lexicography and problems of language system	67
A.G.Yuldashev	Idiomatik qo'shma so'zlarning kognitiv-semantik tahliliga doir Cognitive-semantic analysis of idiomatic compound words	70
H.A.Voxidova	Народные песни и мелодии в творчестве Гоголя Folk songs and melodies in Gogol's works	74
M.X.Эгамова	Особенности нарративных структур в цикле «Галатепинцы» М.Доста The peculiarities of narrative structures in the cycle of "Galatapenses" by M.Dost	77
A.C.Абдуллаева	Тематические уровни в романе И.С.Тургенева «Отцы и дети» Thematic levels in the novel "Fathers and children" by I.S. Turgenev	81
Yu.O.Ne'matova	Namangan viloyati oykonimlarining yasalish modellari xususida About oiconym formation modules of Namangan region	84
D.E.Jabborova	O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida Cho'lpon ijodiga ilk munosabatlar The first attitude to Chulpon' works in Uzbek literature study and critics	89
A. Shernazarov	Qashqadaryo viloyati tojik folklorini jamlash va tadqiq etish Selection and research of Tajik folklore in Kashkadarya region	92
D.P.Narzuллаева	Проблема национального своеобразия американской драмы в оценке англо-американского литературоведения The problem of national identity of American drama from the point of view of Anglo-American literature study	95
X.X.Berdiyev	Arxaik affiksli o'tovsozlik terminlari haqida About archaic affixes of yurta terms	99
PEDAGOGIKA/PEDAGOGICS		
I.M.Lutfillayev, M.A.Fayziyev	Педагогические аспекты разработки компьютерных имитационных моделей предметов высшего образования Pedagogical aspects of development of computer simulation model sof objects of higher education	105
A.I.Inatov	Ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlashda pedagogik takt Pedagogic tactic of supporting the quality of educational work	109
A.I.Inatov, A.N.Abdullayev	Innovatsiyaviy ta'lim va uning ilmiy-uslubiy jihatlari Innovation education and its scientific – methodical sides	112
D.M. Муратова	Развитие английской разговорной речи в многоязычной аудитории на материале Present Continuous Tense Development of English speaking in multilingual auditory on the material of Present Continuous Tense	117
N. Z. Abidova	Maktabgacha yoshdagi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining o'ziga xosligi The peculiarities of the speech of preschool age children with visual impairments	120
D.A.Shayzakova	O'quvchining erkin, ijodiy va har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi zamonaviy texnologiyalar Modern technologies leading to free, artistic and comprehensive development of students	124
F.Z.Yusupova	Mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish – ijodiy qobiliyatni o'stiruvchi omildir Correct organization of self-study as a factor of creative skills developing	129
A.A.Mустафокулов, X.A.Абдувалиев	Основные критерии качества образования The basic criteria of education quality	132
I.B.Mattiyev	Islom aqidalarida salomatlikni asrashga yo'naltirilgan qadriyatlar tizimi The system of values directed at health preserving in Islam	134

H.M.Ahmedova	О выдающемся художнике средневековья – Бехзада About the outstanding artist of middle ages – Behzad	137
PSIXOLOGIYA/PSYCHOLOGY		
A.M.Shonazarov	Umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligi Social-psychological and professional competence of the directors of secondary schools	142
Z.H.Qorayev	Ijtimoiy psixologik munosabat mezonlari tanlanishining o'ziga xosligi The peculiarities of choosing social psychological attitude requirements	145
M.I.Salaxutdinova, I.Yu.Madatov	Qo'rquv va fobiya paradokslari Paradoxes of fear and phobia	147
З.А.Абидова	Критерии, показатели и качества толерантной личности Criteria, indicators and qualities of tolerant personality	150
G.B.Amirova	O'quvchi yoshlarda ustanovkalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari Social-psychological peculiarities of personality formation in young students	153
F.A. Akramova, R.Sh.Toshkuvatova	Yoshlarni oilaga tayyorlash omillari va psixologik xususiyatlari The sources and psychological features of preparing young people for creating family	156
U.A.Butayeva	Pedagogik kompetensiyani diagnostika qilish imkoniyatlari Possibilities of the diagnostics pedagogical competency	162
IQTISODIYOT/ECONOMICS		
O.M.Ruzibayev	Milliy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni The ways of increasing of the efficiency of small business and private entrepreneurship in the national economics	167
S.Q.Qurbonov	Innovatsion rivojlanish sharoitida qishloq mehnat bozorida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmini o'ziga xos xususiyatlari The features of economic mechanism of increasing labor force competitiveness in the countryside labor market in the terms of innovation development	169
G'.Sh.Qaxorov	Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida ish bilan bandlik Employment in conditions of innovative economy	174
B.S.Boltayev	Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnatni tashkil qilish orqali xizmat sifatini oshirishning asosiy yo'nalishlari The main ways of improving quality of services by improving the organization of labor in personal service establishments	177
A.S.Djurayev	Oliy ta'lim muassasalarida rahbar kadrlarni ta'lim menejmenti bo'yicha malakasini oshirishning metodologik asosi Methodological basis of the professional development of executives higher educational establishments	182
O'QITISH METODIKASI/TEACHING METHODOLOGY		
B.M.Boboqulov, Sh.Sharifov, S.Boboqulov	Oliy ta'limda boshqaruv tizimining ta'lim sifati va samaradorligiga ta'sir etuvchi omillari The factors influencing on the quality and effectiveness of high education management system	186
N.Shodiyev, R.Musinova	Boshlang'ich matematika ta'limi jarayonida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash Moral educating of pupils in the process of primary stage of teaching mathematics	189
Universitetimiz hayotidan—University life		193

UDK: 9(575.1):61(09)

**MUSTAQILLIK YILLARIDA TIBBIY KADRLAR TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR TARIXIGA DOIR****S.A.Djumanov***Samarqand davlat universiteti katta ilmiy xodimi, E-mail: sanjar.djumanov@bk.ru*

Annotatsiya. Mustaqillik yillarida tibbiy kadrlar tayyorlash borasida keng miqyosdagi tadbirlar amalga oshirilib, bu borada salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi. Jumladan, ushbu sohani zamon talablari darajasida isloh qilish tadbirlari olib borildi. Mazkur maqola mustaqillik yillarida tibbiy kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilgan tadbirlar va ularning natijalariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: patronaj hamshira, yangi texnologiyalar, Sog'lom bola yili, oliy hamshiralik ishi, ortopediya.

Ma'lumki, tibbiyot sohasining taraqqiyotini shu sohada xizmat qiluvchi malakali kadrlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Shu sababdan ham O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab boshqa sohalarida bo'lgani singari ushbu tizimni rivojlantirish va zamonaviy bilimlarni puxta egallagan tibbiyot kadrlarini tayyorlash vazifasini kun tartibidagi asosiy masalalar qatoriga kiritdi. Avvalo, shuni aytish lozimki, mustaqillikkacha bo'lgan davr mobaynida ham tibbiyot sohasiga kerakli bo'lgan kadrlar tayyorlanar, ammo ularning aksariyat qismi zamon talablariga mos bilim va ko'nikmalarni yetarlicha egallamagan edi. Ta'limning boshqa sohalarida bo'lgani singari, tibbiyot sohasida ham nazariya bilan amaliyot uyg'unligi mavjud emas edi. Xususan, eng zamonaviy tibbiyot asbob uskunalarining mavjud ekanligidan xabardor bo'lgani holda, ularni bir bora qo'llay olmagan shifokorlar ko'pchilikni tashkil etardi. Shu sababdan ham malakali kadrlar joylarda yetishmasdan, borlari ham ko'pincha viloyat markazlarida o'z faoliyatlarini olib borar edilar. Tor doiradagi ixtisosliklar bo'yicha yetarlicha kadrlar tayyorlanmas, asosan, umumiy mutaxassisliklar bo'yicha o'qitilgan kadrlar esa joylardagi faoliyatlari davomida o'zlari uchun zarur bo'lgan ixtisosliklarni qaytadan o'rganishga majbur bo'lar edilar. Bu esa aholining aksariyat qismi qishloqlarda istiqomat qiluvchi O'zbekiston sharoitida o'ta nomaqbul holatlarni yuzaga keltirardi.

Bundan tashqari, masalaning eng og'ir jihati shundan iborat ediki, tibbiyot sohasida mehnat qilayotgan va tayyorlanayotgan kadrlarning aksariyat qismi mahalliy aholi vakillaridan iborat bo'lsa-da, ular uchun zarur bo'lgan o'quv qo'llanmalar va adabiyotlarning asosiy qismi rus tilida nashr etilardi. Rus tiliga sobiq ittifoq miqyosidagi muloqot tili va ilmiy til, xususan, meditsina tili maqomini berishga zo'r berilardi. Ruslashtirish siyosati tarixining bu yo'nalishini Rossiya imperiyasi Turkistonni istilo qilgan va uning vorisi hisoblangan sobiq sovet mustabid tuzumi davridan izlash lozim bo'ladi. Istilochilar barcha sohalar qatori ilm-fanni ham o'z manfaatlariga bo'ysundirib, qat'iy tarzda ruslashtirish siyosatini olib borgan edilar. Jumladan, bunday holatni Samarqand shahrida faoliyat yuritgan Samarqand tibbiyot instituti klinikasi misolida ham ko'rish mumkin edi. 1926-yilda qurilishi boshlanib, 1930-yilda Samarqand tibbiyot institutining tashkil qilinishi munosabati bilan institut klinikasi maqomini olgan ushbu muassasada faoliyat yuritgan yetakchi mutaxassislar tarkibi asosan, yevropa millatiga mansub kadrlardan tashkil topgan edi. Xususan, 1930-1960-yillar mobaynida mazkur muassasada A.A. Kozirov, A.V. Savelev, S.F. Tatarenchik, A.V. Polyakov, R.S. Kuznetsov, S.P. Zavadskiy, L.M. Krasnopol'skiy, V.L. Raznovskiy, A.L. Kankrov, I.D. Churayev, N.I. Kornetov, V.S. Pyaternevlar yetakchi kadrlar sifatida faoliyat olib borganlar. Bundan tashqari, tibbiyot fanining dolzarb muammolariga bag'ishlangan aksariyat ilmiy tadqiqot ishlari bo'yicha ham shu holatni kuzatish mumkin edi. Jumladan, prof. S.P. Zavadskiy, prof. T.S. Mnotsakanov, prof. L.M. Krasnopol'skiy, dots. P.I. Denisova-Sushevskaya, prof. B.E. Pankratev, dots. V.F. Medvedko, prof. A.V. Polyakov, O.L. Kornetova, V.I. Levinson-Gofman, I.YA. Churayev, M.A. Travinskiy, S.F. Tatarenchik, S.K. Chengeri kabi mutaxassislar mazkur muassasada tibbiyot fanining turli yo'nalishlarida ilmiy tadqiqot olib borganlar [1]. Ular tomonidan bajarilgan ilmiy ishlar ham o'z navbatida rus tilida bayon etilgan. Bu holatni ba'zi ilmiy tadqiqot ishlarining nomidan ham anglash qiyin emas edi. Jumladan, Viloyat ko'z kasalliklari amaliyotchi vrachi M.S. Soliyev 1970-yilda «Крилоvidная плева в Узбекистане» mavzusida, 1976-yilda D.M. Bobodo'stov esa «Материалы по лечению гнойных заболеваний слезного мешка по данным лечебных учреждений некоторых областей Узбекистана» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalarini yoqlashgan edi [2]. Bu ro'yxatni yana ko'plab davom ettirish mumkin edi. 1960-1990-yillarda ham ba'zi o'zgarishlar bilan mana shunday holat davom etib keldi. Bunday holat esa o'z navbatida rus tilini mukammal egallay olmagan

yoshlar uchun katta zo'riqishni keltirib chiqarar edi. Shu va boshqa omillar mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu sohada keng miqyosdagi islohotlarni boshlashni kun tartibiga qo'ydi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakat iqtisodiy hayotining talab darajasida emasligi hamda moddiy qiyinchiliklar islohotlar sur'atiga to'siq bo'lgan omillardan biriga aylandi. Ammo, hukumatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida olib borgan tadbirlari mazkur muammolarning asta-sekinlik va izchillik bilan yechilishiga olib keldi. Ayniqsa, 1997-yilda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va uning amaliyotga joriy etilishi bu sohadagi ishlarning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keldi.

Bu borada Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti kafedralarida mutaxassisliklar bo'yicha o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Salomatlik – 2, «Ayollar va bolalar sog'lig'ini mustahkamlash qo'shma loyihalari» bo'yicha ham umumiy amaliyot shifokorlari hamda patronaj hamshiralarning uzluksiz ta'lim jarayonlari bilan tanishtirishlari amalga oshirildi [3].

1998-yilga kelib respublika miqyosida yangidan tashkil etilgan «Ona va bola skriningi» markazlari tarmog'i yanada kengaytirildi. Ushbu markazlarda faoliyat ko'rsatayotgan tibbiyot xodimlarining kasb malakasini yetarli darajada yuksaltirish tadbirlari ham hukumat diqqat e'tiboridagi masalalardan biri bo'lib keldi. Jumladan, Sog'liqni saqlash vazirligining 1999-yil 8-apreldagi 232-sonli «Ona va bola skriningi» Davlat dasturining O'zbekiston Respublikasida bajarilishi to'g'risida»gi buyrug'iga muvofiq, yangi tashkil etilgan skrining markazlarining mutaxassislari Akusherlik va Ginekologiya ITI, Pediatriya ITI va Endokrinologiya ITI lar huzurida tashkil etilgan o'z sohasi mutaxassisliklari bo'yicha o'qitildi. Respublika Skrining markazi mutaxassislari Rossiya Federatsiyasining Neonatal Skrining markazida o'qib keldilar[4]. Amalga oshirilgan tadbirlar sohani yetarli darajada malakaga ega bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash imkoniyatini berdi. Natijada, birgina Nukus shahridagi skrining markazining o'zida 1999-yil davomida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi homilador ayollar va yangi tug'ilgan chaqaloqlar pilotlik skriningidan o'tkazildi, 6232 ta yangi tug'ilgan chaqaloqlar tug'ma gipoteriozga tekshirildi va 9 ta bemor aniqlanib, dispanser hisobiga olindi [5].

2006-yilga kelib ham tibbiy ta'lim tizimini kengaytirish va uni zamon talablari darajasiga olib chiqish borasida yirik miqyosdagi tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, mazkur yilda tibbiy ta'lim tizimini kengaytirish, soha rivoji uchun malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida Marg'ilon shahrida 360 o'quvchiga, Guliston shahrida esa 540 o'quvchiga mo'ljallangan tibbiyot kasb-hunar kollejlari ishga tushirilganini alohida qayd etishimiz zarur [6]. Mamlakatda zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan qishloq vrachlik punktlari va ixtisoslashtirilgan markazlarda deyarli barcha aholi tibbiy ko'rik va ultratovush tekshiruvidan o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari har oyda muntazam ravishda «Tug'ish yoshidagi ayollar, bolalar va o'smir qizlarni sog'lomlashtirish haftaligi» o'tkazilib borildi. Bu esa o'z navbatida tibbiyot bo'yicha qo'shimcha kadrlarni talab qildi. Jumladan, 2010-yilda «...12 mingdan ortiq patronaj hamshiralari, 8 mingdan ziyod pediatr, neonatolog, akusher va tibbiyot hamshirasi xotin-qizlar va bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha yangi texnologiyalar asosida ta'lim olib, o'z malakasini oshirdi» [7].

Tibbiyotdagi ilmiy faoliyatlar ham kun tartibidagi masalalardan biriga aylandi. Ilmiy muassasalarda o'tkazilgan tadqiqotlar sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan muhim vazifalarni hal etishga qaratildi. Jumladan, 2010-yilga kelib, Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi tashkilotlarda maxsus davlat ilmiy –tekshirish dasturlari ishlab chiqilda va muhokamadan o'tkazilib, raqobatbardosh loyihalar tanlab olindi. 2009 yilda 158 ta amaliy, 17 ta fundamental grant ilmiy dasturlari, 24 ta innovatsion ish, 21 ta tashkilotlararo yirik loyihalar hamda 3 nafar yosh olimlar tomonidan fundamental ilmiy ishlar, shu bilan birga 4 ta xalqaro ilmiy grant dasturlari bajarildi. Ko'rsatilgan ilmiy dasturlarni bajarishda 7 ta tibbiyot oliy o'quv yurtlari, uning ikkita filiali bilan birga 27 ta ilmiy tekshirish institut va ilmiy amaliy markazlar hamda ilmiy muassasalar ishtirok etdi. 2009 yilda O'zbekistonlik olimlar tomonidan grantlar bo'yicha 10 ta monografiya, 37 ta uslubiy qo'llanma, 583 ta ilmiy maqola, shu jumladan ularning 168 tasi chet ellarda chop etildi [8].

Tibbiy kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilgan tadbirlar o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. Jumladan, ixtisoslashtirilgan markazlar misolida olib qaraganda, 2010-yilda Respublika onkologiya ilmiy markazida mamlakat aholisiga markazning 119 nafar shifokori, 324 nafar o'rta tibbiyot xodimi, 170 nafar kichik tibbiy xodim hamda 15 nafar dorixona xodimi tibbiy yordam ko'rsatdi. Shulardan 17 nafari fan doktorlari – professorlar, 51 nafari esa tibbiyot fanlari nomzodlari edi [9]. 2014-yilda esa respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida 8 nafar fan doktori, 28 nafar fan nomzodi ilmiy tadqiqot olib borish bilan birgalikda bemorlarga

maslahat xizmati, shifokor endokrinologlarni esa ilm-fan yangiliklari, zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish jarayoniga jalb etildi[10]. Respublika travmatologiyasi va ortopediyasi fani hamda amaliyoti sohasida esa 2015-yilga kelib, 1277 nafar mutaxassis faoliyat ko'rsatdi. Ulardan 17 nafari fan doktori, 100 ga yaqini fan nomzodi, 648 nafari toifali mutaxassislardan tashkil topdi. Qo'shimcha tarzda oliy ma'lumotli tibbiyot hamshiralari tayyorlashni tashkil etishning mutlaqo yangi tizimi shakllantirildi. Mamlakat tibbiyot institutlari Sharite (Germaniya), Garvard (AQSH), Manchester (Buyuk Britaniya), Vena (Avstriya) universitetlari klinikalari, Yaponiya, Janubiy Koreya hamda boshqa davlatlardagi yirik gospitalar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ydi [11].

2015-yilda O'zbekistondagi tibbiyot muassasalarida 320 mingga yaqin hamshiralar faoliyat ko'rsatdi. Ular sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'ini, shuningdek, shoshilinch tez tibbiy yordam va boshqa ixtisoslashgan muassasalarda zamonaviy texnologiyalar asosida ish yuritdi. Aholiga tibbiy yordamni yanada takomillashtirishda hamshiralarning ishtiroki muhimligi hisobga olinib, 2015-yilning sentabr oyiga qadar Toshkent tibbiyot akademiyasi va boshqa tibbiyot institutlarining «Oliy hamshiralik ishi» bo'limlarida anesteziologiya va reanimatsiya, xirurgiya, akusherlik va menejment yo'nalishlari bo'yicha uch ming nafardan ziyod oliy ma'lumotli bakalavr hamshira tayyorlandi. 80 nafarga yaqin talaba esa magistrlik darajasiga ega bo'ldi [12].

Biroq, hukumat tomonidan keng miqyosda olib borilgan bu boradagi islohotlarga qaramasdan, ayrim obyektiv sabablarga ko'ra ba'zi muammolar ham saqlanib qolganligini ko'rish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Salomatlik-3 loyihasini amalga oshirish byurosi xodimlaridan iborat ishchi guruhi tomonidan 2015-yilda 7 ta viloyatning ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, 64 ta tuman tibbiyot birlashmalari va tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarida olib borilgan tekshiruvlari aksariyat viloyatlarda davolash profilaktika muassasalarini malakali tibbiyot xodimlari bilan ta'minlashda muammolar borligini ko'rsatgan. Jumladan, Naman-gan, Samarqand, Sirdaryo, Jizzax, Andijon, Navoiy viloyatlarining ayrim tumanlarida kadrlar masalasi dolzarbligicha qolgan. Asosan, anestiziolog-reanimatolog, akusher-ginekolog, pediater, nevrolog, oftalmolog, funksional va laboratoriya diagnostikasi bo'yicha mutaxassislar, rentgenolog, UTT diagnostikasi bo'yicha mutaxassislarga zarurat sezilgan. Buning natijasida, «Salomatlik-3» loyihasi doirasida olib kelingan tibbiy asbob-uskunalaridan to'liq foydalanilmasligi holatlari uchragan [13]. Bu esa o'z-o'zidan mahalliy mutasaddi shaxslarning ushbu sohadagi javobgarligini oshirishni va mamlakat hududlarining malakali kadrlar bilan ta'minlanganligi borasida qat'iy tarzda monitoring tizimini olib borishni taqozo etadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston miqyosida sovet mustamlakachiligi yillarida tayyorlangan tibbiy kadrlardan farqli o'laroq, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, tibbiyotning eng so'nggi yangiliklarini mukammal egallagan hamda ularni amaliyotda qo'llay oladigan tibbiyot kadrlari salmog'i oshib bordi. Xususan, tayyorlanayotgan kadrlar uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan o'quv qo'llanmalar va adabiyotlarning davlat tilida nashr etilishi va bu boradagi olib borilgan izchil siyosat natijasida mahalliy yoshlar eng so'nggi zamonaviy texnologiyalar asosidagi davolash usullari bayon qilingan aksariyat adabiyotlar bilan ona tilida tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Sovet mustamlakachiligi tuzumi davridagi umumiy ixtisoslikni egallagan mutaxassislardan farqli o'laroq, mustaqillik yillarida tor ixtisosliklar bo'yicha kadrlar tayyorlanishi yo'lga qo'yildi. Bu esa ular faoliyatidagi samaradorlikning oshishiga olib keldi. Bundan tashqari, nazariyani amaliyot bilan uyg'unlashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Bu esa zamonaviy tibbiyotimiz uchun zarur bo'lgan malakali kadrlar salmog'ining kundan kunga oshishiga zamin yaratdi.

Adabiyotlar

1. Самарқанд тиббиёти тарихи. 1-китеб. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 196.
2. Самарқанд тиббиёти тарихи. 1-китеб. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 273-275.
3. Соатова И. Давр талаби: аҳолига сифатли тиббий хизмат кўрсатиш / Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. Здравooхранение Ўзбекистана. 2010 йил, 2-апрел. – № 13. – Б. 2.
4. ЎЗР МДА, 37-фонд, 1-рўйхат, 4529-йиғма жилд, 4-варақ.
5. ЎЗР МДА, 37-фонд, 1-рўйхат, 4529-йиғма жилд, 4-варақ.
6. Инсон манфаатларини таъминлаш, ижтимоий ҳимоя тизимини такомиллаштириш – устувор вазифамиздир / Президент И.А. Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 14 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси /

- Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. Здравоохранение Узбекистана. 2006 йил, 12-декабр. – № 50. – Б. 2.
7. Каримов И.А., Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир // – Т. 19. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 123.
 8. Соатова И. Давр талаби: аҳолига сифатли тиббий хизмат кўрсатиш / Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. Здравоохранение Узбекистана. 2010 йил, 2-апрел. – № 13. – Б. 2.
 9. Наврўзов С. Ўзбекистонда онкология хизматининг тараққиёти / Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. Здравоохранение Узбекистана. 2010 йил, 19-сентябр. – № 36. – Б. 7.
 10. Исмоилов С. Эндокринология ривож мустақиллик йилларида / Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. Здравоохранение Узбекистана. 2014 йил, 29-август. – № 34. – Б. 3.
 11. Санаев Ф., Жонихонов М. Фаровон турмуш, бахтли ҳаёт, соғлом авлод / Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. Здравоохранение Узбекистана. 2015 йил, 6-ноябр. – № 45. – Б. 2.
 12. Соатова И. Узлуксиз таълимни ривожлантириш истикболлари / Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. Здравоохранение Узбекистана. 2015 йил, 18-сентябр. – № 37. – Б. 3.
 13. Соатова И., Шукров Ш. Қатъий назорат ва маъсулиятни оширмоқ зарур / Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. Здравоохранение Узбекистана. 2015 йил, 9-октябр. – № 40. – Б. 6.

С.Джуманов

**ОБ ИСТОРИИ РЕФОРМ В СФЕРЕ
ПОДГОТОВКИ И УСОВЕРШЕН-
СТВОВАНИЯ МЕДИЦИНСКИХ КАДРОВ
В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ**

В годы независимости в сфере подготовки медицинских кадров были осуществлены мероприятия, которые привели к ощутимым достижениям. В статье освещена тема реализованных мероприятий в сфере подготовки медицинских кадров и их результаты.

Ключевые слова: патронаж медсестр, новые технологии, год здорового ребёнка, работа медсестр высшей квалификации, ортопедия.

S.Djumanov

**ABOUT THE HISTORY OF REFORMS
IN THE SPHERE OF TRAINING AND
ADVANCED TRAINING OF MEDICAL
SPECIALISTS DURING THE YEARS OF
INDEPENDANCE**

During the years of Independence in the sphere of training of medical specialists there were organized numerous activities leading to effective results. The article enlightens the theme of implemented activities in the sphere of training of medical specialists and their results.

Keywords: nurse patronaj, new technologies, the year of a healthy child, the work of high medical nursery, orthopedy.

UDK: 9(575.1):34

**AMUDARYO BO‘LIMIDA IJTIMOY-SIYOSIY VA HUQUQ-TARTIBOT SOHASIDA
YUZ BERGAN O‘ZGARISHLAR
(XIX asrning oxiri XX asr boshlari)**

A.A. Abdullayev

Nukus davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, E-mail: ndpi_tarix@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Rossiya imperiyasi bosqinidan keyin Amudaryo bo‘limida amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy, huquq-tartibot sohasida amalga oshirilgan tadbirlar haqida so‘z yuritiladi. Amudaryo bo‘limi ikki uchastkaga bo‘linib boshqarilgan. Aholi yashaydigan joylarning avvaldan saqlanib keliyotgan nomlari bilan birga, avval ularda bo‘lmagan joylarni, ovullarni raqamlar bilan belgilash amaliyotga kiritilgan. Bo‘limda harbiylashtirilgan boshqaruv tizimi tashkil etilganiga e’tibor qaratilgan. Sud jarayonida ishtirok etishi mumkin bo‘lgan sud-huquq tizimi amaldorlarining vazifalariga aniqlik kiritilganligi ham yoritilgan. O‘lkada rus ma’muriyati talablariga qarshi bo‘lganlar uchun aynan shu davrda turmaxona va qamoqxonalarni tashkil etilganligiga ahamiyat berilgan.

Kalit so‘zlar: viloyat, bo‘lim, gerb, uchastka, raqam, harbiy qism, huquq, sudya, prokuror

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Amudaryo bo‘limining boshqaruv tizimida o‘zgarishlar yuz bera boshladi.

Amudaryo bo'limi tashkil etilgan paytda «Turkiston general gubernator»ligi tarkibiga kiritilgan bo'lsa, keyinchalik Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritildi. Sirdaryo viloyatining darajasi, Rossiya imperiyasining guberniyalari maqomiga tenglashtirildi va unga o'ziga xos ravishda ramziy belgi – gerb berildi. Sirdaryo viloyatining gerbi, Amudaryo bo'limining ham gerbi bo'lib hisoblangan. Gerbni tasdiqlash bilan viloyat va bo'limning Rossiyaga qaramligi yana bir bor tasdiqlangan. 1878-yil 5-iyulda podsho saroyida shaxsan Aleksandr II tomonidan tasdiqlangan.

Amudaryo bo'limi uchastkalarga, bo'lislikka, ovul va qishloq jamoalarga bo'linib boshqarildi. Soliq tizimiga o'zgartirishlar kiritildi.

Bo'lim 2 uchastkaga bo'lindi: Sho'roxon – bo'limining janubiy qismidagi yerlarni, Chimboy – Amudaryoning quyi qismidan g'arbda Talliqqacha bo'lgan hududni o'z ichiga oldi.

Ko'chmanchilik yillar davomida davom etib kelayotgan qoraqalpoq, qirg'iz va qozoq xalqlariga xos bo'lgan hodisa edi. O'lkadagi rus ma'muriyati buni «daydilik» deb atadi va unga qarshi kurash olib bordi. Odamlarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishi, shuningdek, o'z bo'lisidan tashqarida, boshqa joylarda ko'chib yurish huquqi bekor qilindi [1].

Rus ma'muriyati muqimlikni, ya'ni muqim bir joyda yashashni joriy qildi. Bu esa o'z navbatida aholini siyosiy tomondan nazorat qilishni, soliq tizimini to'liq amalga oshirishni, bo'lis, ovul va qishloqlarni boshqarishni, muntazam nazorat qila olishni ta'minladi.

Ayrim ovul va hududlar shu yerga xos saqlanib kelinayotgan nomlar bilan atalgan bo'lsa, imperiya bosqinidan keyin ayrim ovullar raqamlar bilan belgilandi. 1886-yilga kelganda, Sho'roxon uchastkasi 6 ta bo'lislikdan: Sho'roxon, To'rtko'l, Shabbaz, Biybazar, Mingbuloq, Tamdidan iborat bo'lgan.

Sho'roxon bo'lisi – Aq-qamish – Aq bashli, Sho'roxon va Kaltaminor ovullaridan, To'rtko'l bo'lisi Xuzlinirek, To'rtko'l, Ulli-yab, Saribiy, Shabbaz, Shimam, Xan-yabdan ovulidan, Biybazar bo'lisi Biybazar, Qalandarxona ovulidan iborat bo'lgan. Mingbuloq bo'lisi birinchi, ikkinchi, uchinchi ya'ni – 1, 2, 3; Tamdi bo'lisi birinchi, ikkinchi, uchinchi ya'ni – 1, 2, 3, raqamlari bilan belgilana boshlangan [2].

Chimboy uchastkasidagi bir qator bo'lisliklardagi ovullar nomlari e'tiborga olinmagan va har bir ovul raqamlar bilan belgilangan.

Chimboy uchastkasi hududi asosan Nukus, Qo'ng'iro't, Talliq, Nao'pir, Chimboy, Kegeyli, Ishim, Ko'k-ko'l va Dao'kara bo'lisliklaridan iborat bo'lgan. Nukus bo'lisligi birinchi, ikkinchi, uchinchi to'rtinchi ya'ni – 1, 2, 3, 4 deb raqamlangan 4 ta ovuldan; Qo'ng'iro't esa shu yuqorida aytib o'tilgandek birinchi, ikkinchi ya'ni – 1, 2 deb raqamlangan 2 ta ovuldan; Talliq bo'lisi birinchi, ikkinchi, uchinchi ya'ni – 1, 2, 3 deb raqamlangan 3 ta ovuldan; Nao'pir birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi ya'ni – 1, 2, 3, 4, 5 deb raqamlangan 5 ta ovuldan; Chimboy bo'lisi birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi, oltinchi, yettinchi ya'ni – 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 deb raqamlangan 7 ta ovuldan; Kegeyli bo'lisi birinchi ya'ni 1 deb raqamlangan 1 ta ovuldan; Chimboy shahri birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi, oltinchi ya'ni – 1, 2, 3, 4, 5, 6 deb raqamlangan 6 ta ovuldan; Ishim bo'lisi birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi beshinchi, oltinchi ya'ni – 1, 2, 3, 4, 5, 6 deb raqamlangan 6 ta ovuldan; Ko'k-ko'l bo'lisi birinchi, ikkinchi ya'ni – 1, 2 deb raqamlangan 2 ta ovuldan; Dao'kara bo'lisi birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi ya'ni – 1, 2, 3, 4 deb raqamlangan 4 ta ovuldan iborat bo'lgan.

Shunday qilib, Amudaryo bo'limi Rossiya imperiyasiga qaram bo'lib qolgandan keyin joylar va hududlarning nomlanishiga ma'lum darajada o'zgartirishlar kiritilgan ovullar raqamlar bilan belgilangan. Afsuski odamlarning yashash joylarining bunday raqamlar bilan belgilanishi hatto hozir ham ko'pchilik joylarda saqlanib qolmoqda. Markaz-1, Markaz-2, kichik tuman-21, kichik tuman-22, 1-ko'cha, 2-ko'cha va hokazo (A.A.)

Shu bilan birga, sud-huquq, tartibot sohasida ham o'zgarishlar amalga oshirildi.

Imperiya bosqini davri hisobotlari, ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, o'lkadagi uchastka boshliqlari va yordamchilari harbiylardan tashkil etilgan. Har bir uchastkaga harbiy askarlar joylashtirilgan. Petro-Aleksandrovskdan alohida, maxsus harbiy bo'lim, ichki qamoqxona, undan tashqari turmaxona, qamoqqa olish bo'linmasi bo'limlari tashkil etilgan.

Xususan, Rossiya imperiyasi harbiy boshqarmasi va idorasining harbiy qismidan Petro – Aleksandrovskka 6-Turkiston o'qchi polki, 4-Orenburg kazak polki, Petro-Aleksandrovsk uyezd harbiy boshqarmasi, Nukusda 4-Orenburg kazak polkining yuz askari muqim joylashtirilgan [3].

Bo'lim boshlig'i bo'limni fuqaroviy boshqaruvida uyezd boshlig'i huquqlari bilan tenglashtirilgan, lekin mahalliy ma'muriyat va xalq sudiga nisbatan ancha kengaytirilgan huquqlarga ega bo'lgan.

Bo'lim boshlig'iga bo'limdagi muqim joylashib olgan harbiy qismlarni boshqarishda diviziya boshlig'i huquqlari berilgan. Bo'limdagi barcha harbiy qismlarning harakatlarini ham nazorat qilish borasida esa, Garnizon boshlig'i vazifasi, majburiyatlari va huquqlari berilgan [4].

O'lkada dunyoviy sudlar tashkil etildi. Sud jarayonining olib borilishini tartibga keltirish masalasida Rossiya imperiyasi Adliya vaziri kotibi, keyinchalik Rossiya imperiyasining bosh prokurori, Rossiya podshosining haqiqiy yashirin maslahatchisi N.V. Muravyov bir qator takliflar kiritgan.

Sudda sudya, prokuror, himoyachi va sud maslahatchilari ishtiroki ta'minlanishi shartligini ko'rsatgan. Sud raisi sud jarayonini boshqarishi, sud tartibni saqlashi, ishni qonun tantanasi va haqiqatni ochish uchun yo'naltirishi, suddagi barcha jarayonlarga nisbatan ko'proq javob beradigan shaxs ekanligini ta'kidlagan.

Himoyachi – sudning adolatli qaror qabul qilishi uchun xalaqit emas, yordam berishi, shu bilan birga sudlanuvchining shaxsiy vakiligina bo'lib qolmasdan, balki, sudning ijtimoiy jamoatchi arbobi sifatida ishtirok etishi, ayblanuvchini jazodan «oqlash» yoki ozod etish uchun harakat qilishi, nima bo'lishidan qat'iy nazar, hech qanaqa mablag'ga ahamiyat bermasdan, ortiqcha harakatlarsiz, o'z bilimini namoyish etishi kerakligini ta'kidlagan.

Sud maslahatchilari – o'zining aktiga muvofiq sud jarayonida aybdorni oqlamasdan, aybsizni sababsiz qoralamasdan o'ziga xos ravishda «sudyalari bo'lib» maslahatda qatnashish ko'rsatilgan [5].

1898-yil yozilgan Turkiston general-gubernatorligining ma'ruzasida, sud bo'limi muammolariga 1886-yil nashr etilgan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom»da asosiy e'tibor qaratilgan. Ma'muriyatning o'lkada yo'l qo'ygan eng katta kamchiligi sifatida, «rus sudi va qonunlaridan mahalliy aholining to'liq ajratib qo'yilganligi, shu bilan birga aholining xalq sudlariga bo'ysunganligi, o'lkada tashkil etilgan rus sudlarining mahalliy sharoitga yetarsiz darajada ko'nikayotganligi» ko'rsatilgan.

O'lkada rus ma'muriyati 1886-yilgi nizomga ko'ra tashkil etilgan dunyoviy sudlar mahalliy aholining xalq sudlaridan ustunligini ko'rsatishga harakat qilgan.

Joylarda sudlarning va ularga tegishli organlarning alohida ish olib borishi, sud hokimiyatining bo'linganligi, sud palatasi darajasidagi apellatsiya, oliy apellatsiyalar instansiyasining yo'qligi, okrug sudlarining yetishmaganligiga e'tibor qaratilgan.

Rus sudlariga mahalliy aholi vakillarining murojaati uchun imkoniyat berish kerakligi, rus sudiga nisbatan mahalliy aholining hurmatini oshirishga erishishi zarurligi tavsiya etilgan [6].

O'lkani zabt etish jarayonida o'lkada olib borilgan siyosat, huquq tartibot ishlari natijasida xalqni bo'ysundirishning har xil siyosiy psixologik usullari qo'llanilgan.

Rossiya imperiyasining o'lkada olib borgan siyosatiga qarshi bo'lganlar uchun, ularning «o'lchov» va «talabi»ga javob bermagan mahalliy aholi uchun turmaxona va qamoqxona tashkil etilgan.

XIX asrning 80-yillarida Petro-Aleksandrovska turmaxona qurilgan. 1908-yil 9-yanvarda Petro-Aleksandrovska turmaxonasini komissiya tekshirib, uning mahbuslarni saqlashga to'g'ri kelishini aytadi.

Turmaxona tashqaridan harbiy qorovullar bilan kecha-yu kunduz qorovullangan. Tartibni nazorat qiluvchi nazoratchilar 6 ta bo'lib bittasi katta, qolgan beshtasining mansabi kichkina bo'lgan.

Turmaxona sig'imligi 50 odamga rejalashtirilgan bo'lsa ham, 1906-yil 51 odam, 1907-yil 72 odam, 1908-yil 81 odam qamoqda saqlangan bo'lib, mahbuslar tomonidan 1905-yil 197 rubl, 60 kopeek, 1906-yil 536 rubl, 50 kopeek, 1907-yil 219 rubl, 20 kopeek, 1908-yil 366 rubl, 10 kopeek ishlab topilgan. Ammo hamma vaqt ham mahbuslarga shaxsiy narsalarini va pullarini berish va olish vaqtida tilxat olinmagan. Turmaxona devonxonasi uchun yiliga 100 rubl ajratilgan. Yildan yilga mahbuslar soni ko'payib borgan. Barcha mahbuslar bir joyda saqlangan. Ayol mahbuslarga joy yetishmaganligi uchun yorug'roq bir kishilik (kartser) xonada bir nechta ayollar saqlangan. Vafot etgan mahbuslar turma nazoratchisining ishtirokisiz turmaxonadan 8 verst uzoqlikdagi joyga ko'milgan. Janjal chiqargan mahbuslarni qorong'i xonaga (1 kishilik kartser)ga qamab qo'ygan. Petro-Aleksandrovska qamoqxonasida 30 odamga rejalashtirilgan bo'lsa ham, 1906-yil 36 kishi, 1907-yil 52, 1908-yil 41 kishi qamoqda saqlangan [7].

XIX asrning oxiriga kelib, Rossiya Bosh turma boshqarmasining taklifiga binoan Rossiya Vazirlar qo'mitasi Orol dengizidagi 230 kv. verst hududni egallagan «Nikolay» va 130 kv verst hududni egallagan «Borsa kelmas» orollarida koloniyalar qurishni qo'llab-quvvatlagan. U yerda Rossiya imperiyasini tan olmaganlar, unga bo'ysunmagan –«jinoyatchilarni» saqlash, ulardan baliqchilikni rivojlantirishda foydalanish mumkinligini va bu mehnat o'lim jazosi bilan tengligiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Turkiston general gubernatorligi hududidan qamoqqa olinganlar va surgun qilinganlar uchun Kaspiy dengizi atrofidagi orollarda ham koloniyalar tashkil etilgan. Bunday koloniyalarning tashkil etilishi ularni «jinoyatchilarni» Sibirga surgun qilishdan arzon tushishi va ular mehnatining foydali ekanligiga alohida urg'u berilgan [8].

Mavzuga tegishli hujjatlar tahlillari shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda qamoqda saqlanayotgan mahalliy aholi soni ortib borgan [9].

1898-yil 2-iyunda qabul qilingan, 1899-yil 14-mayda kuchga kirgan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqida nizomi»ga asosan, Toshkent sud palatasi tashkil etilgan bo'lib, boshqa viloyatlar kabi Amudaryo bo'limi sud tizimi ham to'g'ridan to'g'ri unga bo'ysungan. Toshkent sud palatasi bir necha shtatlarga ega bo'lgan va ular yordamida Amudaryo bo'limidagi sud tizimini ham nazoratda ushlab turgan. Toshkent sud palatasi Amudaryo bo'limidagi jinoiy ishlarni – davlatga qarshi, inson hayotiga, ma'naviy masalalar, dunyoviy sudlarning, qarorlari, urush-janjal, kontrabanda, bosqinchilik masalalari, okrug sudlari hukmlariga apellyatsiya shikoyatlari kabilarni nazorat qilgan. Shu bilan birga, fuqarolik ishlari bo'yicha okrug sudlari qarorlari ustidan apellyatsiya shikoyati, meros ishlari, zayom va boshqa veksellar masalalari, oila va nikoh muammolari, bolalarni olib saqlash va boshqalarni ham o'z nazoratidan chetda qoldirmagan [10].

1897-yil Amudaryo bo'limi dunyoviy sudi tomonidan 234 ta [11] fuqarolik ishlari va 188 ta [12] jinoiy ishlarni ko'rib chiqqan, 11 turdagi fuqarolik ishlari, 12 xil turdagi jinoiy ishlar bo'yicha qaror va hukmlar qabul etilgan. Fuqarolik ishlarining ko'pchiligini ko'chmas mulk, qarzlarni to'lash majburiyati va boshqalar tashkil etgan. Jinoiy ishlarning ko'pchiligini hukumatning faoliyati, boshqaruv tartibi va nizomlariga qarshi harakatlar tashkil qilgan.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishganidan keyin Vatan tarixini, shu jumladan sud-huquq tizimi tarixini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'lkani boshqarish bo'yicha Turkiston general-gubernatorligi vakillarining o'lka haqida yozgan kitoblari, hisobotlari va fikr-mulohazalari, bo'limda yuz bergan voqelikni o'rganishda asosiy manbalardan biri sifatida yordam berdi. Rossiya imperiyasi ma'murlari tomonidan o'lkada tizimli ravishda olib borilgan tadbirlar, o'lkada siyosiy va huquq-tartibot tizimini o'rnatish va mustahkamlashda muhim rol o'ynagan va bu jarayon takomillashib borgan.

Adabiyotlar

1. Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. Родоплеменная структура и расселение в XIX – начале XX века. – М.: Изд-во Академ Наук СССР, 1950. –С.154.
2. Таўмуратов Н. Қарақалпақстанда тәртіб қорғаў ұйымларының тарийхы. (1873-2010 жж.) – Нукус: Илим, 2011. – С. 13-14.
3. Военно статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. Составитель генерального штаба полковник В. Лобочевский. Издания штаба Туркестанского военного округа. – Ташкент: Эл. пар. типо-лит. штаба Туркестанского военного округа, 1912. – С.30-31.
4. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть II // Составитель К.Г. Гиршфельдом и А.С.Галкиным. – Ташкент: 1903. Часть II. – С.214.
5. Всеподданейший доклад министра юстиции стат секретаря Н.В.Муравьева о деятельности министерства юстиции за истекшее десятилетие. 1994-1904 г. С – 35. общ.59.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi. Bundan keyin O`zRMDA.I-1-jamg'arma, 31-ro`uxat, 539-yig'ma jild, 10-varaq.
7. К.К. Пален. Тюремное дело. С.Петербург. Сенатское типография. 1910. общ. С–142.
8. Туркестанские ведомости. 14 (26) март 1893 года. № 20.
9. Обзор Сыр-Дарьинской области. За1910 г.Т. Электро типография канцелярии Туркестанского генерал губернаторства. 1912 С.143.
- 10.O`zRMDA. I-129-jamg'arma, Toshkent sud palatasi 1899-1918yy.1-3-varaq.

11.O`zRMDA. I-127-jamg`arma, 1-ro`yxat, 134-yig`ma jild, 97-97-orqasi, 98-varaqlar. 71, 74, 82-varaqlar.

12.O`zRMDA. I-127-jamg`arma, 1-ro`yxat, 134-yig`ma jild, 99,99-o.,100.-varaqlar.

А. Абдуллаев

**ПРОИСХОДИВШИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В
СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИХ
И ПРАВОВЫХ ПОРЯДКОВ В
АМУДАРЬИНСКОМ РЕГИОНЕ (КОНЕЦ XIX
ВЕКА И НАЧАЛО XX ВЕКА)**

В данной статье говорится о происходивших изменениях в системе социально-политических и правовых порядков, проводимых Российской империей в Амударьинском регионе. Амударьинским отделом управляли, разделив его на 2 участка. Населённые пункты были названы различными названиями, которые были сохранены годами, но после завоевания Российской империей края, некоторые места и селения были отмечены цифрами и были введены на практике. Обращено внимание на военизированную систему управления отделом. Освещены и конкретизированы задачи чиновников судебно-правовой системы в судебном процессе. Обращено внимание на то, что именно после завоевания края Российской империей были построены тюрьмы и арестные дома для тех людей, которые были против политики завоевания.

Ключевые слова: Область, отдел, герб, участок, военная часть, права, судья, прокурор

A. Abdullaev

**CHANGES IN THE SYSTEMS OF
SOCIAL-POLITICAL AND LAWFUL
ORDERS IN AMUDARYA REGION
(THE END OF THE XIX –TH
CENTURY AND THE BEGINNING OF
THE XX- TH CENTURY)**

The article demonstrates the changes in the systems of social-political and lawful orders embedded by the Russian Empire in Amudarya region. Amudarya region was governed by its dividing into two sections. Settlements were named with different names kept for years but after the Russian Empire had conquered the region some places and villages were marked with numbers and used in practice. It is paid attention to militarized system of ruling over the region. There were taken up and concretized tasks of officials of judicial-lawful system in judicial trial. It is mentioned that just after the Russian Empire had conquered the region there were built prisons and prison houses for those people who were against conquering policy.

Keywords: region, section, emblem, lot, military section, rights, judge, prosecutor

UDK: 510:584.4+378(09)

**O‘ZBEKISTON – XITOIY MADANIY-MA’RIFIY ALOQALARIGA OID
(internet ma’lumotlari asosida)**

R.B.Siddiqov

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, E-mail:ravsi@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi madaniy-ma’rifiy aloqalarini rivojlanishi masalalariga bag‘ishlangan. Alohida e’tibor oily ta’lim, xitoy tili va madaniyatini o‘rganishdagi hamkorlikning tahliliga qaratilgan. Maqola internet ma’lumotlari asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: strategik sheriklik, oily ta’lim, xitoyshunoslik, xitoy tili va madaniyati, Konfutsiy instituti.

Globalashuv davrida davlatlararo o‘zaro manfaatli aloqalarning rivojlanishida madaniy-ma’rifiy soha muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu o‘rinda Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasidagi ta’lim sohasidagi hamkorlikning rivojlanib borayotganligini alohida ta’kidlash kerak. O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqalarga 1991-yil 27-dekabrda asos solingan bo‘lib shu kuni Xitoy O‘zbekistonning mustaqilligini tan oldi. Ikki davlat o‘rtasida 1992-yil 2-yanvarda diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Hozirgi kunda o‘zbek-xitoy hamkorlik aloqalari siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarida keng ko‘lamda va jadal rivojlanib bormoqda.

O‘zbek va xitoy xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Qadimiy Movarounnahr va Chin yurti o‘rtasidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalar choy, paxta, ipak, qog‘oz va boshqa mahsulotlarning butun dunyoga tarqalishida muhim o‘rin tutgan. O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi barcha sohalaridagi o‘zaro manfaatli aloqalar

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ikki davlat munosabatlarida yangi sahifani ochib berdi. Bugungi kunda ikki davlat o'rtasidagi aloqalar do'stlik, hamkorlik va teng sheriklik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma hamda strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya ruhida barcha sohalarida rivojlanmoqda. O'zaro manfaatdorlikka asoslangan hamkorlik munosabatlari o'tgan 24 yil mobaynida izchil rivojlanib borayotganligini alohida ta'kidlash kerak.

O'zbekiston va Xitoy xalqaro maydonda ikki mamlakat manfaatlariga oid eng muhim masalalarda bir-birini siyosiy qo'llab-quvvatlab, BMT, ShHT singari xalqaro tuzilmalar doirasidagi hamkorlikni tobora kengaytirib kelmoqda.

O'zbekiston Xitoy bilan munosabatlarni barcha sohalarida rivojlantirish, ayniqsa, energetika, transport, savdo, telekommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarida hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdordir [1].

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik hamkorlikning ustuvor maqsadli vazifalari, shuningdek, ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiya, moliyaviy va gumanitar sohalarida ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga oid istiqbolli masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatlarimiz o'rtasida madaniyat, ta'lim, fan va texnika sohalaridagi hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashda 1998-yilda ta'sis etilgan "O'zbekiston -Xitoy" va 2007-yilda tashkil qilingan "Xitoy Xalq Respublikasi – Markaziy Osiyo mamlakatlari" do'stlik jamiyatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi madaniy aloqalar oxirgi yillarda rivojlanib kengayib bormoqda [2].

O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi va Xitoy Madaniyati vazirligi o'rtasida imzolangan 2011-2013-yillarga mo'ljallangan hamkorlik to'g'risidagi dastur madaniyat sohasidagi aloqalar rivojiga katta hissa qo'shdi. 2012-2013-yillarda Xitoyda O'zbekiston madaniyati, tarixi va san'atiga bag'ishlangan yigirmadan ortiq tadbir o'tkazildi. Ikki mamlakat madaniyat va san'at namoyondalarining qator o'zaro tashriflari amalga oshirildi. Keyingi yillarda O'zbekiston va Xitoy madaniy aloqalari O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi va Xitoy Madaniyati vazirligi o'rtasida imzolangan 2014-2017-yillarga mo'ljallangan hamkorlik to'g'risidagi dastur asosida rivojlanib bormoqda. Xitoy Xalq Respublikasida O'zbekistonning boy ma'naviyati va noyob tarixiy merosiga katta hurmat hamda qiziqish bilan qaraldi. Bu yerda muntazam, ravishda o'tkazib turiladigan yirik tadbirlar Xitoy jamoatchiligini O'zbekistonning o'ziga xos ko'p qirrali qadimiy madaniyati, tarixi va san'ati bilan tanishtirishga xizmat qilmoqda [3].

Ikki davlat o'rtasidagi madaniy-gumanitar yo'nalishidagi aloqalarda ta'lim alohida o'ringa ega bo'lib jadal rivojlanib bormoqda. Ta'lim sohasida davlatlar va idoralararo, jumladan, o'zbek va xitoy tillarini o'rganish doirasida talaba va stajyorlar almashish tobora ko'paymoqda. Ma'lumki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida" ta'lim va yuqori malakali kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor berilgan [4].

Yuqori malakali xitoyshunos mutaxassislarni tayyorlashda xitoylik hamkorlar bilan birgalikda Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti, O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti hamda Samarqand Davlat universiteti samarali faoliyat olib bormoqda.

2005-yilda Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti hamda Xitoyning Lanchjou universiteti hamkorligida tashkil qilingan Toshkentdagi Konfutsiy nomidagi Xitoy tili va madaniyati institutida har yili 350 dan ziyod tinglovchi saboq olmoqda. Institut tashkil qilinganidan buyon kurslarda 2,5 mingdan ziyod talaba yoshlar, ilmiy xodimlar va tijoratchilar xitoy tili va madaniyatini o'rgandilar [5].

O'zbekistonda xitoy tili va madaniyatiga bo'lgan katta qiziqishni inobatga olgan holda Xitoy Xalq Respublikasi raisi Si Szinpinning 2013-yil sentabr oyida O'zbekistonga tashrfi doirasida Samarqandda yana bir Konfutsiy institutini tashkil qilish to'g'risida shartnoma imzolandi. 2014-yilning dekabr oyida institut dastlabki tinglovchilarni qabul qildi. Ushbu maskanda yuqori malakali pedagoglar zamonaviy pedagog va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda xitoylik mutaxassislar bilan hamkorlikda xitoy tilini yoshlarga o'rgatmoqdalar [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2014-yil 19-20-avgustda Xitoy Xalq Respublikasiga qilgan davlat tashrfi ikki davlat munosabatlarining rivojlanishida muhim tarixiy voqea bo'ldi. Tashrif yakunlariga ko'ra ikki davlat rahbarlari tomonidan keng qamrovli 2014-2018-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi va XXR o'rtasida strategik sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish dasturi qabul qilindi [7].

Ushbu dastur ikki davlat o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalarni yangi pog'onaga ko'tarilishiga turtki bo'ldi. 2014-yil 3-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti tarkibida xitoyshunoslik fakultetining tashkil etish to'g'risida (PQ-2228-son)

qarori qabul qilindi. Qarorga binoan 2014-2015-o'quv yilida xitoyshunoslik fakulteti bakalavriat yo'nalishi xitoy filologiyasi – 34 kishi, jahon siyosati – 25 kishi, mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik – 25 kishi qabul qilindi. Barcha yo'nalishlarda zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ilg'or o'qitish usullarini joriy etish asosida Xitoy tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti sohasida chuqur bilimlarga ega bo'lgan va xitoy tilini erkin biladigan yuqori malakali xitoyshunos mutaxassislarni tayyorlash boshlab yuborildi. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda fakultetning o'quv jarayoni va ilmiy-metodik ishlarini tashkil qilish uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'quvchilar va talabalarning chet ellardagi oliy ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tishlari uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan mablag' ajratish ko'zda tutildi [8]. Ayni paytda fakultetda bakalavr yunalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha 325 nafar talaba tahsil olmoqda. Ularning 310 nafari bakalavr, yana 15 nafari magistrlar hisoblanadi. Fakultetda xitoy tili va adabiyoti, xitoy iqtisodiyoti, xitoy siyosati va uning xalqaro munosabatlardagi o'rni kafedralari faoliyat ko'rsatib kelyapti.

Talabalarga 60 nafardan ortiq professor-o'qituvchi xitoy adabiyoti, madaniyati, tarixi va iqtisodiyoti bo'yicha bilim bermoqda. Ularning 4 nafari xitoylik mutaxassislar bo'lsa, aksariyat qismi Xitoyda malakasini oshirib qaytgan o'qituvchilar hisoblanadi [9].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mamlakatni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida ta'lim sohasidagi 2014-yilda amalga oshirilgan muhim ishlar qatorida Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti tarkibida xitoyshunoslik fakultetining tashkil qilinganligini alohida ta'kidlab o'tganligi ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalarni katta ahamiyatga ega ko'rsatadi [10].

Ikki davlat o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalarni rivojlantirishdan Xitoy davlati ham manfaatdor ekanligini va barcha sharoitlarni yaratib berayotganligini ta'kidlash kerak.

XXR hukumati 2014-2015-o'quv yilida ikki yoqlama shartnoma asosida hamda ShHT doirasida o'zbekistonlik talaba va stajyorlarga 120 ta grant ajratdi. Shu bilan birga Konfutsiy instituti tinglovchilalarining 50 tasi Lanchjou universitetida tahsil oldi. Shuni ta'kidlash joizki, XXRda O'zbekistonga bo'lgan qiziqish yildan yilga ortib bormoqda. 2010-yilning iyun oyida Xitoy Millatlar Markaziy universiteti rus tili va Markaziy Osiyo xalqlari tillari fakultetida o'zbek tili bo'limi ochildi. 2012-2013-o'quv yilidan boshlab Pekin chet tillar universitetida o'zbek tilini o'rganish yo'lga qo'yildi. 2013-yil 15-may kuni Shanxay shahrida Xitoyda birinchi marta Shanxay universiteti huzuridagi ShHT Jamoat diplomatiyasi ilmiy tadqiqot instituti negizida O'zbekiston tadqiqotlari va ta'lim almashuvlari markazi ochildi. Ushbu markaz olimlari O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatini chuqur o'rganish bilan shug'ullanadi [11].

Xullas, O'zbekiston va Xitoy munosabatlarida madaniy-ma'rifiy sohadagi hamkorlikni o'zaro manfaatdorlik asosida va keng ko'lamda rivojlanib borayotganini ta'kidlashimiz lozim. Albatta, ikki davlat o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy sohadagi aloqalarni yuksaltirish potentsiali va imkoniyatlari to'liq foydalanilmoqda deyishga hali erta, ayniqsa ilm-fan, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida hamkorlikni yanada faollashtirish maqsadga muvofiq bo'lardi. Kelajakda barcha yo'nalishlarda o'zaro manfaatli aloqalarni kengaytirish ikki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi muqarrar.

Adabiyotlar

1. Кобзева О.П., Джалилов О.З. Узбекистан и Китай на возрождающемся Шелковом пути. – Ташкент: 2015. – С. 55-68.
2. Узбекистан – Китай: новые горизонты стратегического партнерства <http://gorchakovfund.ru/news/12275/>
3. O'sha joyda
4. Баркамол авлод - Ўзбекистоннинг таракқиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарк, 1997. – Б 59.
5. Узбекско-китайские отношения. <http://www.mfa.uz/ru/cooperation/countries/61/>
6. В Самарканде открыли институт Конфуция. www.12news.uz/news/2014/12/
7. Узбекско-китайские отношения. <http://www.mfa.uz/ru/cooperation/countries/61/>
8. <http://www.Lex.uz/Pages/GetAct.aspx?Lact-id=2456008>
9. Ҳаёт ҳақиқатлари. <http://m.xdp.uz/oz/view-point/?ID=17905>
10. Халқ сўзи. 2015 йил 17 январ
11. Узбекско-китайские отношения. <http://www.mfa.uz/ru/cooperation/countries/61/>

P. Сиддиқов	R.Siddiqov
КУЛЬТУРНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ	CULTURAL AND EDUCATIONAL COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA
(на основе материалов интернета)	(ON THE BASE OF INTERNET MATERIAL)
Статья посвящена вопросу развития связи в области культуры и образования между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой. Особое внимание уделено проблеме сотрудничества в сфере высшего образования и изучению китайского языка и культуры в Узбекистане.	This article is devoted to the problem of development of cultural and educational relationships between Republic of Uzbekistan and Republic of China. Special attention was given to the problem of cooperation in sphere of high education and learning Chinese language and culture in Uzbekistan.
Ключевые слова: стратегическое партнерство, высшее образование, китаеведение, китайский язык и культура, институт Конфуций.	Keywords: strategic partner, high education, sinology, the Chinese language and culture, Confucius institute.

UDK:323.573.

QADIMGI SUG'DGA CHORVADORLAR MADANIYATINING TA'SIRI XUSUSIDA**F.E. Toshboyev***Jizzax pedagogika instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sug'd hududiga chorvadorlar ko'rsatgan ta'siri, vohada o'rganilgan, bronzadan to ilk o'rta asrlargacha bo'lgan ko'chmanchilarga mansub mozor-qo'rg'onlar materiallari asosida tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: Gujalyi, Mo'minobod, Lavondoq, Oqjartepa, Siyob, Dashti Asht, Mironqul, Mohandaryo, chorvadorlar, mozor-qo'rg'onlar, Obelchenko, Andronova jamoalari

Qulay tabiiy sharoit tufayli insoniyat paleolit davridayoq makon tutgan Zarafshon vohasida yashagan ajdodlarimizning insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi beqiyos. Zarafshon daryosining o'rta qismidagi keng vodiya dehqonchilik qilish uchun juda unumdor alyuvial – prolyuvial yotqiziqlar vujudga kelgan. Quyi qismi esa janubi-g'arbiy Qizilqumga tutash murakkab kompleksni tashkil qiladi. Bu holat Sug'd vohasida juda qadimdan ajdodlarimizning turli xo'jalik sohasidagi dastlabki yutuqlariga sabab bo'lgan.

Bronza davridan buyon Yevro Osiyo dashtlarida ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi Andronov jamoalarining O'rta Osiyo dehqonchilik vohalariga ommaviy kirib kelishlari, ba'zi aholi guruhlarining o'troqlashib borishi kuzatiladi. Bu holat qadimgi Sug'd hududi uchun ham xarakterlidir. Bu jarayon vohada, yangidan yangi yerlarni o'zlashtirib, aholi gavjum – obod maskanlarga aylanishida, iqtisodiy hayotning jonlanib, ijtimoiy-siyosiy va etno-madaniy aloqalarning kuchayuvda muhim ahamiyat kasb etgan.

Vohada o'rganilgan, bronza davriga oid ko'plab chorvadorlarga mansub mozor-qo'rg'onlarda dasht-Andronova jamoalariga xos xususiyatlar kuzatiladi. Masalan, Panjikent shahri yaqinida joylashgan Dashti Qozi mozor-qo'rg'onlaridagi qabrlarda murdalarning ko'pchiligi chap tomoniga yonboshlatib, oyoqlari bukilgan holda boshi g'arbga qaratilib dafn etilgan [1]. Qabrlarda jasad bilan birga, sopol idishlar, turli xildagi bezak buyumlari, oxra, hamda ko'mir kukuni va bo'lakchalari qayd qilingan. Sopol idishlar qo'lda yasalgan bo'lib, ularning ko'pchiligi tuvaksimon shaklda, turli xil, uchburchak, archasimon shakldagi kertik va tarnovchasimon bezaklardan iborat. Bu sopol idishlar Qozog'istondagi Andronova madaniyatining so'nggi bosqichlari va Tozabog'yob sopol idishlariga o'xshashdir. Antropologik xususiyatiga ko'ra ikkita marhumning Andronova jamoalariga mansubligi aniqlangan [1]. O'z navbatida bu yerdan dehqon jamoalar madaniyatiga mansub sopollar ham topilgan.

Urgut yaqinidagi, miloddan avvalgi XII-XI asrlarga oid, Mo'minobod mozor-qo'rg'onlaridagi marhumlarning dafn etilishi va sopol idishning yasalişida andronova madaniyati, alikul bosqichining so'ngi etaplariga xos bezak va shakllar aks etgan. Ayollar bezaklarida esa, asosan, Andronova madaniyatining Tozabog'yob bosqichiga oid materiallar bilan yaqin o'xshashlik kuzatiladi [2]. Samarqand shahri yaqinidagi Chaqqa qabristonidan topilgan sopol idishlardan birining yasalişhi va

unga berilgan naqshlarda Kojamberdi tipidagi sopol idishlarga, ikkinchi idishning yasalihi va bezalishida esa Tozabog'yob va Andronova madaniyatining Orsk-Oqto'ba guruhidagi yodgorliklardan topilgan idishlar bilan o'xshashlik kuzatiladi [3]. Zarafshon quyi qismidagi Gujalyi, Katta va Kichik Tuzkon hamda Mohandaryo o'zanlaridagi chorvadorlarning qisqa muddatli yashash joylaridan topib o'rganilgan sopol buyumlarning Andronova jamoalariga tegishli materiallar bilan qariyb bir xilligi, chorvador qabilalarning shimoliy dasht mintaqalaridan, O'rta Osiyo dehqonchilik vohalariga, bronza davridanoq kirib kelganligi to'g'risidagi ilmiy farazni yana bir bor tasdiqlaydi. Bu esa akademik A.A.Asqarov ta'biri bilan aytganda, "chorvador turkiy tilli dashtliklarning Zarafshon vodiysining Sug'diyzabon qadimgi dehqonchilik madaniyati jamoalari bilan ilk bor aralashib, qorishib yashay boshlaganliklaridan dalolat beradi" [4].

Dashtdan kirib kelgan aholi sekin-asta o'troqlashib, mahalliy aholi bilan turli xildagi madaniy aloqalar natijasida yaqinlashib, qorishib borishi vohada ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etnik hayotning yanada jonlanishiga sabab bo'lgan. Turli xil xo'jalik vakillarining madaniy aloqalari faol kechganligini, ayniqsa, 1994-2000-yillarda o'rganilgan Galasherik qabristoni materiallari o'zida yaxshi namoyon qiladi. Akademik A.A.Asqarov ushbu mozorlarda o'rganilgan materiallarni tahlil qilib, "Bu joy turli etnik guruhlar vakillarining qabristoni bo'lsa kerak", deb va yana "Bu joydan topilgan ashyoviy dalillar uch xil etnik guruhlariga tegishli bo'lib, ular o'rtasida uzoq asrlar davom etgan iqtisodiy va madaniy aloqalar haqida guvohlik beradi", degan fikrni bildiradi [4].

Yevro Osiyo dashtlaridan ko'p sonli chorvador aholi kirib kelishining eng yirik to'liqlaridan biri antik davrda, ayniqsa, miloddan avvalgi I ming yillikning so'nggi choragida kuzatilgan. Ushbu davrda kirib kelgan yuechji, usun, xun va boshqa qabilalarining ba'zi guruhleri Sug'dning dehqonchilik vohalari atrofida chorva uchun qulay joylarida ham qolib ketgan va bu yerlarni makon tutishgan. Aynan shu paytda, chorvadorlarning Sug'dga, nafaqat O'rta Sirdaryo bo'yi, balki Sirdaryo quyi oqimi – Qizilqum orqali kirib kelishi ham kuzatilgan. Uzlusiz sodir bo'ladigan bu jarayonlar o'troq aholi va ko'chmanchilar o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada faollashtirgan. Bu davrga oid arxeologik materiallar O'rta Sirdaryo bo'yining turli madaniyat vakillari uchun kontakt makoni vazifasini o'taganligini ko'rsatadi[5].

O.V.Obelchenko Zarafshon vohasidagi chorvadorlarga mansub ko'plab mozor-qo'rg'onlarni o'rganib, Sug'dga dasht madaniyatining ta'siri ayniqsa antik davrda – milod boshlarida nihoyatda kuchli ta'sir ko'rsatganligini asoslab, ularning qabr tuzilishi, dafn marosimlari va ashyoviy buyumlar tahliliga ko'ra xronologik jihatdan uchta guruhga bo'lgan [6]. Ulardan birinchi guruhga mansub mozor-qo'rg'onlar miloddan avvalgi VII-III asrlarga oid bo'lib, ko'plari yog'och bilan yopilgan, oddiy gruntli qabrlardir. Marhumlar boshi g'arb tomonga qo'yib, tagiga qamish to'shab (ba'zan boshiga qamishdan yostiq qo'yilgan) holda dafn etilgan. Shuningdek, qabrga qizil rang sepish, bo'rlari tayoqcha, siniq boshli sopol idish, qurbonlik toshi, qilich va xanjarlar (Lavandak) qo'yilishi kuzatiladi[6].

Ikkinchi guruhi miloddan avvalgi II-I asrlarga mansub bo'lib, bu qabrlar shimol-janub yo'nalishida g'arbiga biroz og'dirilgan tarzda qazilgan. Marhumlar ko'proq janubi-g'arbiy yo'nalishda dafn etilib, shimoliy devordan lahadga tuynuk qo'yilgan. Ularda yorma qabrlar ko'pchilikni tashkil etib, g'arbiy uzun devor tagidan yorma qazilgan va zina qoldirilgan. U ayvondan qamish va ohaktosh bo'laklari bilan ajratilgan.

Uchinchi guruh esa milodning I–VII asrlariga mansub bo'lib, bu davrga kelib, yorma ayvondan xom g'isht bilan ajratilgan. Qurollar kam uchraydi. Marhumlar oldingi (janubi-g'arbiy) yo'nalishda dafn etilib, ko'proq gilamga o'xshash to'shamaga yotqizilgan. Yorma oldingilarga o'xshasada, endi tushuvchi o'radan pastda joylashgan. Shu paytgacha yorma bilan ayvon o'rasi bir xil tekislikda joylashgan edi. Qabrlarga qo'yilgan buyumlar ham oldingiday – qo'yniing old oyog'i, turli xil shakldagi ko'zalar, qurollar, ba'zan tuxum ham uchraydi. Barcha guruhdagi dafn marosimlarida olov izlari kuzatiladi. Marhumlar yakka va juft holda dafn etilib, ko'pmartalik qabrlar va groblar ham mavjud. Jasadlar asosan, uzala chalqancha yotqizilib, bukchaytirilgan va oyoqlari tizzasidan yig'ilib, ikki tomonga yotqizilgan tarzda dafn etilgan [6]. Ushbu mozor-qo'rg'onlar Sug'd vohasiga ko'chmanchilarning kirib kelishi, o'troqlasha borishi va aholining chorvador dasht qabilalari bilan aloqalari haqida ma'lumotlar beradi.

O.V.Obelchenko Sug'd mozor-qo'rg'onlarining vujudga kelishini Orolbo'yi va Quyi Sirdaryo orqali siljigan sarmatlar bilan bog'laydi. Zarafshon o'rta qismidagi Sazag'on, Mironqul va Oqjartepa kabi mozor-qo'rg'onlarning moddiy madaniyat namunalarida O'rta Sirdaryo bo'yi hududi orqali siljigan yuechji, usun va xun qabilalarining ta'siri ko'proq seziladi [7]. Masalan, 1964-1965-yillarda o'rganilgan III-IV asrlarga mansub, Mironqul (jami 17 ta o'rganilgan) mozor qo'rg'onlarida

marhumlar buyra yoki kigizga yotqizilgan. Ularning boshi asosan shimol yoki shimoli-sharqqa qaratib ko'milgan. Har bir qabrda sopol idishlar temir xanjar, pichoq, kamar to'qalar va boshqalar uchraydi [8]. Bu esa ushbu qabrlarga chorvador urug' jamoalariga mansub kishilar dafn etilganligidan guvohlik beradi.

Zarafshon vohasi mozor-qo'rg'onlari moddiy manbalaridagi umumiy yaqinlik Sirdaryo bo'yi yodgorliklari misolida o'rganilib klassifikatsiyalangan sopol idishlarda ham kuzatiladi [9]. Voha mozor-qo'rg'onlaridagi kulollik idishlari o'z yasalishi va shakliga ko'ra, Ustrushonadagi Shirinsoy, G'ulbo [10] Farg'ona vodiysidagi Kugay-Qorabuloq madaniyatiga oid Qorabuloq, Jangail, Isfara [11]. Shuningdek, janubiy Ural atroflaridan ochib o'rganilgan chorvadorlar qabrlarida o'rganilgan idishlar bilan yaqin muqoyasaviy o'xshashlikka ega [12]. Milodiy eramiz boshlarida Qovunchi madaniyatining ta'siri markaziy Sug'dning mahalliy tub aholisi shaharlarigacha kirib boradi. O'rganilgan manbalar, Qovunchi (Sirdaryo bo'yi) madaniyatini bu davrda O'rta Osiyo bo'yicha ustuvor bo'lganligini ko'rsatmoqda.

A.Asqarov Qovunchi madaniyati sopollarining umumiy ta'rifini quyidagicha keltiradi: "Qovunchi madaniyatining aksariyat ko'pchilik sopol idishlari xum va tuxumsimon xumchalar, dastasi hayvon figurali krujka va xurmachalar Burg'uliq keramikasi bilan genetik jihatdan bog'lanmagan. Qovunchi madaniyatining xum va xumchalari bo'g'zi ostida uchburchak, ilon izi, sxematik hayvon sifat rasmlar va xoch shaklidagi tamg'alar uchraydi. Xum va xumchalarning yelkasi nishab, tashqariga qayrilgan, gardishi yumaloq yoki uchburchaksimon shaklda yakun topgan. Yelka va bo'g'zini birlashtiruvchi dastasi ba'zida hayvon shaklida ishlangan. Uning qarama-qarshi tomonida trubasimon jo'mragi joylashgan. Qovunchi madaniyati xurmachalari va krujkalari jo'mraksiz, ammo dastalari hayvon shaklida ishlangan. Sopol idishlar tarkibida katta va kichik hajmdagi miskalar, flyagalar, tovalar, chiroqdondlar, qo'chqor boshli sopol qozon tagkursilari, qozon va idish qopqoqlari uchraydi [4]. Umuman olganda, Sug'dda o'rganilgan sopol idishlarning barchasining yasaliş texnologiyasi, shakli va sirtiga berilgan bezaklarida yuqorida ta'riflangan – Qovunchi madaniyatiga oid kulollik idishlariga xos xususiyatlar mavjud [9].

Moddiy manbalar tahlili O'rta Sirdaryo bo'yi hududida shakllangan Qovunchi madaniyati sohiblari birinchi va ikkinchi bosqichlar chegarasida janubga siljiganligini ko'rsatmoqda. Zarafshon vohasidagi shu davrga oid Kofir-qal'a, Talu-Barzu, Oqjartepa kabi yodgorliklarda Qovunchi madaniyatining tasiri ayniqsa kuchli seziladi.

Shunday qilib, Zarafshon vohasidan topib o'rganilgan ko'chmanchilarga mansub moddiy madaniyat namunalari bronza davridan boshlab to o'rta asrlarda ham chorvador aholining tinimsiz ravishda bu o'lkaga kirib kelganligi va o'troqlasha borganligini ko'rsatadi. Bu tarixiy jarayonlar qadimiy yozma manbalarda ham o'z aksini topgan. Zarafshon vohasining o'zlashtirila boshlanishidan to uning aholi gavjumlashgan obod vohaga aylanishigacha bo'lgan davrda, vaqtlar mobaynida kirib kelib, o'troqlasha borgan va voha atrofida istiqomat qilgan ko'chmanchi chorvador xalqlarning ham o'rni bo'lgan. Bu chorvador aholini esa Quyi va O'rta Sirdaryo bo'yi orqali kirib kelgan va dehqonchilik uchun qulay joylarda o'troqlasha borgan. Biroq, Sug'd hududida o'rganilgan moddiy madaniyat namunalari bu yerda (dehqonchilik uchun tabiiy sharoitning qulayligi sababli), chorvadorlarning xo'jalik yuritish shaklini ertaroq o'zgartirganligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Исаков А., Потемкина Т.М. Могильник племен эпохи бронзы в Таджикистане// СА. 1989.–№1. –С. 145-167.
2. Аскаров А.А. Раскопки могильника эпохи бронзы в Муминабаде // ИМКУ – Тошкент: 1968. – №8. – Б. 56-62.
3. Жўракулов М., Аванесова Н., Амиркулов Б. Зарафшон воҳасининг ибтидоий маданияти. – Самарқанд: 1994. – Б. 107-111.
4. Аскаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2015. –Б. 230,229, 277, 312.
5. Массон В.М. Культурогенез древней Центральной Азии. – СПб: Санкт Петербургский Государственного Университет, 2006. – С.208.
6. Обельченко О.В. Культура античного Согда. – М.: Наука, 1991. – С.76.
7. Обельченко О.В. Могильник Акжартепе //ИМКУ. 1962. – № 3. – С.67.
8. Обельченко О.В. Миранькульские погребение // ИМКУ.1969. – №8. – С. 80-90.

9. Левина Л.М. Керамика Нижний и Средней Сырдарьи первого тысячелетие н.э. – М.: 1971.– С. 212, 65.
10. Гайдукевич В.Ф. Могильник близ Ширинсая в Узбекистане//СА. – М.: 1952. – №26. – С. 347.
11. Горбунова Н. Г. Некоторые особенности формирования древних культур Ферганы// СА. –Л.: 1984.– № 25. – С. 101.
12. Пшеничнюк А.Х. Культура ранних кочевников Южного Урала. – М.: 1983. – С. 144. XI, 10 жадвал.

Ф. ТОШБОВ
О ВЛИЯНИЕ СКОТОВОДЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ ДРЕВНЕГО СОГДА

Автор данной статьи анализирует влияние кочевников древнего Согда с эпохи бронзы до раннего средневековья на основе изученных материалов Согдийских могильников.

Ключевые слова: Гужайли, Муминобод, Лавандак, Акжартепа, Сияб, Дашти Ашт, Миронкул, Моҳандарё, скотоводы, курганы, Обельченко, Андроновская община

F. TOSHBOEV
ABOUT THE EFFECT OF CATTLE
BREEDERS' CULTURE OF ANCIENT
SOGD

The author of the article tried to enlighten the influence of the cattle-breeders on Sogd, basing on the material of the grave tombs from the bronze age until the middle ages in this valley.

Keywords: Gujayli, Muminobod, Lavondak, Akjartepa, Siyab, Dashti Asht, Mironkul, Mohandaryo, cattle-breeders, grave tombs, Obelchenko, the group of Androva

UDK:9(51):529.0

SUG'DDA DINIY MUNOSABATLAR
(Xitoy yilnomalarining nashrlari asosida)

Sh.A. Indiaminova

SamDU tadqiqotchisi, E-mail: sh.indiaminova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoning yirik madaniy vohasi hisoblangan Sug'd va uning atroflarida yashagan aholining diniy qarashlari xususida ma'lumot beriladi. Maqola xitoy yilnomalari nashrlari asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Samarqand, Kesh, Kabudon, Desi, ibodatxona, arablar bosqini, diniy bag'rikenglik .

Sug'd tarixining bir qator xususiyatlari, jumladan, ushbu mintaqadagi diniy munosabatlar masalasi ham o'rta asrlar davrida yaratilgan xitoycha "Bey shi" (386-618 yillar), "Suy shu" (581-618 yillar), "Tan shu" (945 y.) yilnomalarida o'z aksini topgan. Ushbu yilnomalarda Sug'd (Zarafshon va Qashqadaryo vohalari) mintaqasida mavjud mulklar Samarqand, Kesh, Naxshab, Kabudon, Kushoniyada mavjud diniy qarashlar xususida ba'zi ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ularni ilmiy jihatdan o'rganish hamda asliyatga mosligini aniqlash nafaqat Sug'd hududida balki Markaziy Osiyo mintaqasida yashagan xalqlarning diniy qarashlarini o'rganishda muhim va ayni kunda dolzarbdir.

Ushbu manbalar o'sha davrdagi Sug'd konfederatsiyasining ijtimoiy-siyosiy hayoti haqidagina emas, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha nisbatan to'liqroq tasavvur berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Xitoy yilnomalarida Sug'd tarkibidagi ma'muriy birliklardan Samarqand (Kan), Buxoro (An, Ansi), Kesh/Shahrisabz (Shy, Shi), Nasaf / Qarshi (Nashebo, Nashebolo), Maymurg' (Mi), Ishtixon (Sao), Kushoniya (Xe) mulklarining geografik joylashuvi, tabiati, aholisi, ularning iqtisodiy va siyosiy hayoti hamda diniy qarashlarining ayrim qirralari xususida so'z yuritiladi [5, 77-88]. Xitoyliklar milodning boshlarida va ilk o'rta asrlarda o'z davlatlarining ma'muriy bo'linishini o'rganish orqali unga chegaradosh bo'lgan hududlarda yashovchi xalqlarning e'tiqodlari xususida ham yozib qoldirganlar.

Xususan, Sug'dning yirik mulki bo'lgan Samarqand to'g'risida quyidagicha ma'lumot keltiriladi: - "Kan (Samarqand)da ibodatxonada turadigan tuzuklar (majmuasi) bor. (Biron bir) jazoni belgilashda ushbu tuzuklar (majmuasi)ni olib, unga asoslangan holda hukm chiqaradilar. ... Qarorgohda ajdodlar ibodatxonasi bor, ular oltinchi oyda qurbonlik keltirishadi. Boshqa hukmdorlar

qurbonlik keltirishda yordamga kelishadi. Buddaga sig'inishadi. ... [2, 271; 281]. Bundan ko'rinadiki, Samarqand Sug'dning markazi sifatida mintaqa hayotida muhim mavqega ega bo'lib, bu yerda mamlakat qonunchiligini aks ettiruvchi qonunlar majmuasi saqlanadigan maxsus ibodatxona mavjud bo'lgan hamda ushbu joyda diniy masalalar bilan birga ijtimoiy hayotga oid boshqa masalalar ham ko'rib chiqilgan. Bir so'z bilan aytganda Samarqanddagi ushbu ibodatxona jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Samarqanddagi ushbu hukmdor saroyi qoshidagi ajdodlar ruhiga qurbonlik qilinadigan ibodatxonada qurbonlik marosimiga qatnashish orqali viloyat hokimlari markazga sodiqliklarini isbotlaganlar [3, 315]. Shunday ekan, diniy qarashlar siyosiy ahamiyat kasb etgan. Yilnomadagi Samarqand aholisining Budda diniga sig'inishi masalasida ham turlicha qarashlar mavjud.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Sug'dda budda dini bilan bog'liq ba'zi tarixiy ma'lumotlar ham borki, ularda Hindiston bilan aloqalar bayon etiladi. Sug'dning o'zida buddaviylik kam tarqalgan. Faqat tasviriy san'at namunalari uning belgilari ko'zga tashlanadi. Panjikent devoriy suratlaridagi Maytrei tasviri va Buddaning o'tirgan holatini beruvchi terrakota shakli sof buddaviy namunalardan farqlanib, ularda sug'diy va buddaviy an'analari sintezini kuzatish mumkin. O'rta Osiyodagi buddaviylik dini hind madaniyati taraqqiyotida "ko'pri" vazifasini o'tab, madaniy aloqalarni rivojiga katta hissa qo'shgani alohida ahamiyatga ega. Ushbu davrga kelib buddaviylik dini bu ikki mintaqada o'rtasidagi nafaqat diniy madaniyat balki dunyoviy madaniyatning ham keng quloch yozishiga sabab bo'lgan. Panjikent va Ustrushonaning markazi bo'lgan Bunjikat devoriy suratlar o'rganilganda hind mifologiyasi bilan bog'liq ko'plab alomatlar ko'zga tashlanadi [1, 49].

VI/1 va XX/1 bino devorlarida alohida hollarda turgan hayvonlarning tasviri aks ettirilgan. Bu hayvonlar buqa, sher va shoqol sifat maxluqlar. Bu, so'zsiz, bizga arab-fors adabiyotida "Kalila va Dimna" deb nomlangan mashhur hind ertaklari to'plami "Panjatatra" dagi voqealarni eslatadi. O'zi chizgan devoriy suratni "Panchatatra" dagi voqealar bilan bog'lamoqchi bo'lgan rassom "Panjatatra" ni bilgan. Sug'dda bu doston ma'lum bo'lgan. Zarafshon vohasi bo'ylab joylashgan Panjikent, Afrosiyob, Varaxsha qadimgi shahar xarobalari vohada tasviriy san'at taraqqiy etgan markazlar hisoblanadi. Ayniqsa, Samarqand va Panjikent rassomchilik maktablari bir-biriga har tomonlama yaqindir. O'ziga xos aniqlik bilan aytish mumkinki, bu uchala markaz rassomlari bir-biridan ta'sir olgan holda ijod qilishgan. Masalan, Varaxshadagi "Sharqiy zal" bezaklari, uning chizilishi bir-biriga juda o'xshash, ularni yoki bir rassom chizgan yoki boshqasi nusxa ko'chirgan [9, 158-159].

Ta'kidlash lozimki, Sug'dda va Markaziy Osiyoda islom diniga qadar diniy bag'rikenglik bo'lganligi nafaqat xitoy yilnomalari asosida, balki mug' tog'i sug'diy hujjatlari orqali ham o'z tasdig'iga egadir. Jumladan, A-9 raqamli hujjatda bir guruh aholi brahmanizm diniga o'tganligi keltiriladi [4, 49].

Sug'dning Kesh mulkidagi din to'g'risida xitoy yilnomalarida ba'zi ma'lumotlar keltirilgan. Xususan: – *"Shu (Kesh), ayni paytda "Kyuysha" va "Gyeshuanna" deb ataladi. ... Keshda har bir qurbonlik keltirish marosimida mingtagacha qo'y so'yiladigan ibodatxona bor. Har bir urushga ketishdan oldin shu yerda ibodat amalga oshiriladi"* [8, 43].

Ushbu ma'lumot Veretragna (urush ilohi) haykalining Keshda bo'lganligidan darak beradi. Ushbu ma'lumot Sug'ddagi mulklarning urushdan g'alaba tilab o'z ilohlariga qurbonlik keltirishganligidan darak beradi. Gap shundaki, Sug'd mulklari o'zlarining markazga tobekliklarini hukmdor saroyidagi ibodatxonada bajariladigan qurbonlik marosimi – diniy amali bilan isbotlashgan. Bu ma'lumotlar Keshning bir muddat (650-655) Sug'dning markazi bo'lganligi bilan bog'liqdir.

Sug'dning Kabudon (Hozirgi Jomboy va Bulung'urning janubiy qismi) mulki to'g'risida Xitoy yilnomalarida ba'zi ma'lumotlar saqlanib qolgan. – *"O'rta Sao, G'arbiy Sao (Ishtixon)dan sharqda, Kan (Samarqand)dan shimolda joylashgan. Hukmdorining poytaxti Gadichjen shahri"* shaklidagi ma'lumotlardan [2, 313] uning boshqa yana bir nom ostida, ya'ni "Sao" yoki "O'rta Sao" tarzida ham tilga olingani ma'lum bo'ladi.

Xitoyliklarning "Bey shi" yilnomasida Sug'dning Kabudon mulkidagi diniy qarashlariga oid quyidagi ma'lumot diqqatga sazovor: – *"Sao hukmdorining qarorgohi Nami (Zarafshon) daryosidan bir necha li janubda joylashgan. Bu qadimgi Kangyuy yeri (Qang'). Bu hukmdorlikning boshqaruvchi xonadoni yo'q. ... Mulkda Desi ruhi bor, G'arbiy dengizdan (Kaspiy dengizi) sharqda joylashgan hamma hukmdorlikdagilar unga sig'inishadi. U oltin sajdagoh kabi tasavvur qilingan, uzunligi 15 futni tashkil etadi hajmda (4-4,5 metr). Har kuni beshta tuya, o'nta ot va yuzta qo'yni qurbonlik qilishadi. Ba'zida qurbonlik keltiruvchilar soni bir necha ming kishidan oshadi va hammasini tanovvul qila olishmaydi"* [2, 271-276].

Yuqorida keltirilgan “Desi ruhi” xususida turlicha fikrlar bildirilgan. Jumladan, O.I. Smirnovaning fikriga ko‘ra, xitoyliklarda *shen* deb nomlangan ushbu iloh Ishtixondan shimoliy-sharqda joylashgan hududlarning homiysi bo‘lib, uning haykali aynan qayerda bo‘lganligi noma‘lum. Xitoyliklarning Desi ruhi zahirida qaysi ilohni tasvirlashga harakat qilganliklari ham ma‘lum emas. Tadqiqotchining taxminiga ko‘ra, Desi turklarning *tös* (“shakl”, “qiyofa”) deb nomlangan sanamiga to‘g‘ri keladi [7, 104]. L.I. Rempel fikriga asoslangan holda A. Raimqulov, A. Aslanovlar Desi ruhi Vedar (Chelak) hududida ilk o‘rta asrlarda zardushtiylarning xudolaridan biri Desi sharafiga bag‘ishlab bunyod etilgan ulkan ibodatxona bo‘lgan va unda “yovuz ruhlarni haydovchi” ma‘budaning oltindan qo‘yilgan haykali qad ko‘targanligini keltirishadi [6, 154]. Desi ruhiga bunyod etilgan haykalni Vedar hududida deb hisoblash Vedar va Kabudonning bir-biriga yaqinligi sababli bo‘lsa kerak. Arablar va xitoyliklar O‘rta Osiyoda ham olovga va ham ilohlarga sig‘inish holatiga duch kelishgan. Bizningcha, arabchada *sanam*, fors-tojik tilida *but*, deb nomlangan haykal xitoychada *shen* deb nomlangan bu so‘z Desi haykaliga nisbatan ishlatilgan hamda xalqni turli ofatlardan qutqargan deb izohlash mumkin.

Ushbu ma‘lumot Kabudon o‘z davrida diniy markazlardan biri bo‘lganligidan va bu yerga ziyoratga kelganlar qurbonlik bilan kelganlaridan hamda Kabudonda ham xuddi Keshdagi kabi yirik ibodatxona bo‘lganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari Kabudonni ba‘zida Samarqand tarkibidagi bir mulk, ba‘zida esa alohida viloyat maqomida tilga olinishi, Kabudonning Sug‘dning chegara hududida joylashganligi, uning unumdor yeri va diniy markazlardan biri ekanligi hamda bu yerga turli hududlardan ko‘plab kishilarning ziyorat uchun kelishlari markaz Samarqandni Kabudonni boshqarishni o‘z qo‘liga olganligi borasidagi fikrni yanada kuchaytiradi.

Yuqorida keltirilgan “Desi” ruhiga nafaqat Kabudonda balki Sug‘dning Ishtixon mulkida ham e‘tiqod qilganliklari “Tan shu” yilnomasida keltiriladi. U quyidagicha mazmunda: “ *G‘arbiy Sao (Ishtixon) mulki, Suy sulolasi davridagi Sao mulkidir; janubda Shu (Kesh) va Bolan hukmdorliklari bilan chegaradosh. Sidixun (Ishtixon) shahridan boshqariladi. Shimoli-sharqda Yuydi shahridan o‘tib ketiladi, Desi ruhi ibodatxonasi bor. Aholisi unga sig‘inishadi. ...*” [2, 38].

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar asosida quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

– Sug‘d va uning atroflarida yashagan aholining diniy qarashlari to‘g‘risida xitoy yilnomalarida keltirilgan ma‘lumotlar tizimlili va qiziqarliligi bilan ajralib tursada, ular qo‘shimcha dalillarga muhtoj. Ushbu manbalar arxeologik dalillar va boshqa turkum yozma manbalar yordamida yanada aniqlik kasb etishi mumkin;

– Yilnomalardan Sug‘dda zardushtiyl, buddaviyl kabi diniy e‘tiqodlarning keng yoyilganligini hamda ushbu dinlarning vakillari boshqalariga nisbatan Sug‘dda anchayin ko‘p bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Sug‘diylarning o‘zaro muayyan uyushmaga uyushuvlarida ularning e‘tiqodiy jihatdan yaqinligi ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etgan;

– Xitoy yilnomalarida boshqa turkum manbalar orqali ma‘lum bo‘lgan shomonlik, brahmanizm, moniylik kabi diniy qarashlar xususida ma‘lumotlar yo‘q. Bunga sabab xitoyliklar Sug‘dni yaxshi bilmaganlar va bu yerga kelgan rohiblar ham bir marotaba bo‘lishgan. Shuning uchun ham mazkur diniy qarashlarning Sug‘ddagi holati xususida xitoy yilnomalari birlamchi manba bo‘la olmaydi;

– Yilnomalardagi ma‘lumotlarga e‘tibor qilinsa, Sug‘ddagi har bir mulkning o‘z ibodatxonasi va yirik ziyorat markazi bo‘lganligi anglashiladi. Bu arxeologik manbalar asosida ham o‘z tasdig‘iga ega. Shuning uchun ham Sug‘dni bosib olgan arablar bu hududlarni ziyoratgoh sifatida qabul qilishni xohlamaganliklari uchun ham bu yerlarga Kofirqal’a (Kofirqal’alar bir nechta bo‘lgan) nomi berilgandir.

Bir so‘z bilan aytganda ilk o‘rta asrlarda (islom diniga qadar) Sug‘ddagi diniy qarashlar, aholi orasida dinga bo‘lgan munosabat masalasida xitoy yilnomalarida keltirilgan ma‘lumotlar bu boradagi tadqiqotlar olib borishda ma‘lum yo‘nalishni belgilashda yordam berishi shubhasiz.

Adabiyotlar

1. Беленицкий А.М. Монументальное искусство Пенджикента. Живопись скульптура. - М.: Искусство, 1973. – С. 49.
2. Бичурин Н.Я. (Иакинф) Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М.-Л.: Изд. АН СССР. –Том II. – 1950. – 380 с.
3. Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Книга. 1. – Душанбе: Ирфон, 1989. – С. 315.
4. Исхоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 49.

5. Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: тексты и исследование. – Новосибирск: Наука, 1989. – С. 77-88.
6. Раимқулов А.А., Асланов А.П. Самарқанд воҳасининг ўрта аср рустоклари ва уларнинг локализация масалалари хусусида / ИМКУ. 2012. – №37. – С. 154.
7. Смирнова О.И. Места домусульманских культов в Средней Азии (по материалам топонимики) // СНВ. – М.: Наука, 1971. – Вып. X. – С. 104.
8. Хўжаев А. Хитой йилномалари / Ўзбекистон тарихи. (Хрестоматия). 2-жилд. 1-қисм. – Тошкент: Фан, 2014. – Б. 22-100.
9. Шишкин В.А. Варахша. – М.: АН СССР, 1963. – С. 158-159.

Ш.А. Индиаминова
РЕЛИГИОЗНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СОГДЕ
(на основе издание китайских хроник)

В данной статье проанализированы религиозные взгляды народов, обитавших в одной из культурных областей Центральной Азии - Согда и его изменениями в раннем средневековье.

Ключевые слова: Самарканд, Кеш, Кабудан, Дэси, храм, арабское нашествие, религиозная толерантность.

Sh.A. Indiaminova
THE RELIGION ATTITUDE IN SOGD
(on the base of chinese chronicles)

This article has analyzed religious views of people who had lived in one of cultural regions of Central Asia – Sogd and its changes in early middle century. The article is written on the base of Chinese chronics issue.

Keywords: Samarkand, Kesh, Kabudan, Desi, temple, Arabic invasion, religious tolerance.

UDK: 9(575.14)

O'RTA OSIYODA O'TKAZILGAN
RAYONLASHTIRISH DAVRIDA ZARAFSHON VOHASI
A.J.Bodirov

O'zRFA Tarix institutining mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Muallif sovet hukumatining XX asr 20-yillarini ikkinchi yarmida Zarafshon vodiysida amalga oshirgan rayonlashtirish siyosatini arxiv materiallarini o'rganish orqali tahlil qilgan. Tadqiqotda rayonlashtirish davrida Zarafshon vodiysida qishloq xo'jaligi, sanoat va ijtimoiy sohadagi ahvolni qanday holatda bo'lganligini ham yoritib berishga harakat qilgan.

Kalit so'zlar: ovul, volost, uyezd, okrug, rayonlashtirish, qishloq sho'rosi, qishloq jamoasi.

XX asrning 20-yillarini ikkinchi yarmida sovet hokimiyati tomonidan o'tkazilgan rayonlashtirish siyosati Zarafshon vohasini ham chetlab o'tmadi.

1925-yilning 29-yanvarida O'zbekiston SSRda ilk bor ma'muriy-hududiy tuzilishning o'tkazilishi natijasida dastlab 7 viloyat (Zarafshon, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Surxandaryo, Qashqadaryo, Xorazm), alohida Konimex rayoni va keyinchalik Tojikiston ASSR tashkil topdi. Bu paytda O'zbekiston SSR tarkibida 23 uyezd va 241 volost bo'lgan[1]. O'zbekiston SSR Markaziy revkomining qaroriga ko'ra Zarafshon vohasida Zarafshon (hozirgi Buxoro va Navoiy viloyati) va Samarqand viloyati hamda alohida Konimex rayoni tashkil etildi.

Zarafshon viloyati tarkibida 4 ta uyezd (Buxoro, G'ijduvon, Karmana, Nurota) va alohida Konimex rayoni bo'lgan. Uyezdlar 23 volostga bo'linib, viloyat markazi Buxoro shahri bo'lgan.

Samarqand viloyati 4 uyezd: Jizzax, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Xo'jand territoriyalaridan iborat bo'lib, bu uyezdlar 57 ta volost, 304 ta qishloq jamoasi (selskoe obshestva) va 1862 ta qishloq va ovullarni o'z tarkibiga oladi. Viloyatda bu vaqtda 100658 xo'jalikda 450891 nafar aholi istiqomat qilgan [2].

1926-yil 29-sentabrda O'zbekiston SSRda rayonlashtirish siyosatining o'tkazilishi natijasida O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasi 5-sessiyasining rayonlashtirish to'g'risidagi qarori qabul qilindi [3].

Bu qarorga muvofiq O'zbekiston SSRda mavjud bo'lgan 7 viloyat, 23 uyezd, 241 volost va 1163 qishloq jamoasi (selskoe obshestva) o'rniga yangi ma'muriy bo'linish o'tkazilib, 10 okrug, 87 tuman va 1720 qishloq sho'rosi (selskiy sovet) tashkil qilindi [1].

Zarafshon vohasida 3 ta Buxoro, O'rta Zarafshon va Samarqand okruglari va alohida Qozoq Konimex tumani (Beshrabot, Oytepa, Boymetantepa va Toshquduq volostlari bo'lgan) tashkil etildi [3].

I. Buxoro okrugi – markazi Eski Buxoro shahri, to'liq Buxoro va G'ijduvon uyezdlari asosida quyidagi 7 tumandan iborat bo'lgan:

1. Lenin (Shofrikent) (tuman markazi – Xoja Orif).
2. G'ijduvon (tuman markazi – G'ijduvon).
3. Vobkent (tuman markazi – Vobkent).
4. Romitan- Xayrabod (tuman markazi – Lag'laqa).
5. Buxoro (tuman markazi – Eski Buxoro).
6. Boxouddin (tuman markazi – Yangi Buxoro [Kogon]).
7. Qorako'l (tuman markazi – Qorako'l).

II. O'rta Zarafshon okrugi – muvaqqat markazi Karmana shahri va quyidagi hududlardan iborat 6 tuman tashkil topgan.

- 1) to'liq Karmana uyezdi.
- 2) Nurota uyezdining Qo'shrabot volostidan tashqari hududlari.
- 3) Jizzax uyezdining Sintob volosti.
- 4) Kattaqo'rg'on uyezdidan: a) Damariq, Jom, Joyisag'ir, Kalqo'rg'on, Mingariq, Nauqin, Payshanba, Chimboy, Yarboshi.

b) Xoja Ariq volostining So'g'at, Frunze (Chovli) qishloq sho'rosi, o'ng qirg'oq qismidan (Xoja Ariqning) Lenin (Ko'tarma) qishloq sho'rosi.

s) Sirg'ali volostining Ulug', To'rtkapa, Arabxona qishloqlari.

d) Kattaqo'rg'on shahri territoriyalari kiritilib, quyidagi tumanlardan iborat bo'lgan.

1. Nurota (tuman markazi – Nurota).
2. Karmana (tuman markazi – Karmana).
3. Xatirchi (tuman markazi – Xatirchi).
4. Narpay (tuman markazi – Mirbozor).
5. Qoradaryo (tuman markazi – Payshanba).
6. Damariq (tuman markazi – Kattaqo'rg'on shahri) [3].

III. Samarqand okrugi tarkibiga quyidagi hududlar kiradi: Jizzax uyezdi (Sintob volostidan tashqari), to'liq Samarqand uyezdi, Kattaqo'rg'on uyezdidan – Mitani rayoni, To'rtko'l, Yangiqo'rg'on volostlari butunligicha, Sirg'ali volostining Ulug', To'rtkapa, Arabxona qishloqlaridan tashqari hududlari, Xo'ja Ahror volostining Xo'ja Ahror arig'ining sharqiy tomonidagi qismi, Nurota uyezdining Qo'shrabot volosti.

Okrug quyidagi tumanlardan iborat bo'lgan:

- 1) Mitani (tuman markazi – Mitani);
- 2) Payariq (Chelak) (tuman markazi – Chelak)
- 3) Oqdaryo (Dahbed) (tuman markazi – Loyish)
- 4) Pastdarg'om (tuman markazi – Juma stansiyasi)
- 5) Bulung'ur (tuman markazi – Rostovsevo stansiyasi)
- 6) Yuqori Darg'om (tuman markazi – Samarqand shahri)
- 7) Yangi Qozonariq (tuman markazi – Urgut)
- 8) Jizzax (tuman markazi – Jizzax)
- 9) Yangi qo'rg'on (tuman markazi – Yangi qo'rg'on)
- 10) Zomini (tuman markazi – Zomini)

Okrugning umumiy maydoni – 16776 kv vyorst. Okrug markazi Samarqand shahri bo'lib, shahardan rayon markazlarigacha bo'lgan masofa 22 vyorstdan 150 vyorstgacha bo'lgan.

Okrug hududida 41 volost va 115 qishloq kengashlari bor edi. Rayonlashtirishni o'tkazishda okrugda 10 ta rayon va 171 ta qishloq kengashlari loyihalashtirildi, jumladan 4 ta tojik aholisi, 2 ta qirg'iz, 1 ta arab, 3 ta eroniy (forsiy), 1 ta rus va 5 ta aralash aholiga ega bo'lgan qishloq kengashlari, qolgan 155 tasi o'zbeklar yashaydigan qishloq kengashlari edi [4].

Samarqand viloyati rayonlashtirish komissiyasining 1926-yil 1-sentabrda bo'lib o'tgan yig'ilishida viloyatdagi qishloq sho'rosi (selsovet) va rayon ijroiya qo'mita (rayispolkom)larining shtat birligi masalasini ko'rib chiqadi. Rayonlashtirish komissiyasi okrug hududini 170 ta qishloq sho'rosi (selsovet)ga bo'lib, ulardagi haq to'lanadigan shtat birligini 2 kishidan: Qishloq sho'rosi (selsovet) raisi; sekretar (kotib) dan iborat tartibda belgilaydi [5]. Samarqand viloyati (okrugi)da rayonlashtirish

amalg oshirilgan davrdagi holat[6].

1-jadval

№	Rayonlar	Markazi	Qishloq sho'rosi (selskiy sovet)	Qishloq va ovullar soni	Xo'jaliklar soni
1	Yangi Qozonariq	Urgut	14	97	10487
2	Yuqori Darg'om	Samarqand shahri	26	126	1261
3	Past Darg'om	Juma stansiyasi	14	103	5829
4	Damariq	Kattaqo'rg'on shahri	12	96	3180
5	Qoradaryo	Payshanba	19	227	7083
6	Oqdaryo	Loyish	15	164	5165
7	Mitan	Mitan	13	151	5199
8	Payariq	Chelak	16	147	5937
9	Bulung'ur	Rostovsevo stansiyasi	28	223	13789
10	Yangi qurg'on	Yangi qo'rg'on	19	182	7397
11	Jizzax	Jizzax	13	101	4587
12	Zomin	Zomin	10	97	4512
	JAMI		199	1714	84516

Rayonlashtirishning amalga oshirish paytida Samarqand viloyati ma'muriy jihatdan 4 uyezd, 41 volost va 5 rayonga bo'lingan edi. Buning ustiga Xo'jand uyezd viloyatning boshqa hududlaridan alohida joylashgandi. Tabiiy-geografik sharoitlarning har xilligi, turli xil xo'jalik va maishiy sharoitlar, aholi o'sishining past darajasi, suvdan foydalanish masalasida aholi o'rtasida yuzaga keladigan bahs-janjallar, pochta aloqasining umuman yo'qligi va nihoyat aholi o'rtasida urug'-aymoqlar o'rtasidagi dushmanlik kayfiyatining haligacha mavjudligi, viloyat markazidan Xo'jand uyezdining uzoqligi oblastni ma'muriy va xo'jalik-iqtisodiy munosabatlar jihatidan boshqalariga katta zarari tegardi. Oblastning ishlab chiqaruvchi kuchlari o'zlarining qurbi etadigan darajada rivojlana olmasdilar, aholining sovet xo'jalik qurilishiga intilishlari keskin pasayib ketardi.

Ayni paytda okrugda o'tkazilgan rayonlashtirish quyidagi maqsadlarni ko'zda tutgan:

- sovet hukumatini aholiga yaqinlashtirish; ma'muriy boshqaruvga ketadigan mablag'larni qisqartirish; xo'jalik-iqtisodiy qurilish ishlarini chuqurlashtirish va kuchaytirish; viloyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini har tomonlama rivojlantirish; va nihoyat, dehqon ommasining mustaqilligini iloji boricha ko'proq yuzaga chiqarish va ularni sovet qurilishi ishlariga jalb qilish.

Viloyat komissiyasi rayonlashtirish ishlariga viloyat volostlarini ijtimoiy ishlab chiqarilgan reja asosida tekshirish bilan 1-apreldan kirishadi.

Tekshirish ishlari bir oylik muddatda tugatildi. Undan so'ng to'plangan ma'lumotlarni o'rganish va qayta ishlash hamda rayonlarni loyihalashtirish ishlariga kirishiladi [4].

Viloyat bo'yicha yer islohotiga jami 3573 xo'jalik jalb qilinadi, ulardan 28164,4 desyatina ortiqcha yer maydoni olib qo'yildi (shu jumladan, 183 xo'jalik tugatildi). Bu fond asosida yersiz va kam yerli xo'jaliklardan 7175 ta yangi xo'jalik tashkil qilindi. Bu xo'jaliklarga faqat 24482,57 desyatina yer maydoni taqsimlanmay qoldi. Bundan tashqari, yangi sug'oriladigan yerlarda rus posyolkalari tipidagi 180 uchastkali 11 ta yangi qishloq barpo etildi va ularning har biriga 82 hovlidan jami umumiy maydoni 5254 desyatina yer maydoni ajratildi. Buning ustiga viloyat bo'yicha bo'linmas yer fondiga umumiy yer maydoni 191,30 desyatina bo'lgan 5 ta sobiq sovxoz va 13949 desyatina yer maydoniga ega bo'lgan 94 yer uchastkalari o'tkazildi. Yer islohotini o'tkazishga jami 153709 rubl mablag' sarflandi.

Qayta tuzilgan 6811 xo'jalikda quyidagilar mavjud bo'lgan:

2-jadval

Ishchi inventarlar turi	Soni	musodara qilingan va majburan sotib olingan inventarlardan qaytarib berilgani
Otlar	1283	427

Ho'kizlar	2736	1429
Tuyalar	5	59
Eshaklar	1141	135
Omochlar	2307	326
Boronalar	1469	131

Yangi sug'oriladigan yerlarga ishlov berish uchun qishloq xo'jalik Bankidan: 530 dona ketmon, 526 dona o'roq, omochlarga tish 455 dona, yevropacha inventarlar -145 dona, beda urug'i-386 pud, ishchi qoramol 508 bosh, 160 kishining oziq-ovqatiga 2400 rubl, qoramollarni boqishga – 4950 rubl, boshloqli ekinlar urug'ini sotib olishga – 1480 rubl, chigit sotib olishga -1676 rubl 75 kopeek. Jami 73023 rubl 75 kopeek miqdorida mablag' berilgan. Bundan tashqari, qishloq xo'jalik Banki tomonidan qayta tuzilgan xo'jaliklarga quyidagilar tarqatilgan: 3245 dona ketmon, 3180 dona o'roq, 3398 dona omoch tishi, 12013 rubl 50 kopeek miqdorida bug'doy (1603 xo'jalikdagi oilalarga 5 puddan), ishchi qoramollarga 209471 rubl, 41 kopeek miqdorida g'alla. Yerni haydashga 2836 rubl, g'allaga 18195 rubl, ishchi qoramol sotib olishga 76162 rubl, urug'likka 43245 rubl 50 kopeek, yevropacha inventarlarga 1215 rubl. Jami 327991 rubl 21 kopeek miqdorida mablag' berilgan [4].

1926-yilning bahorida Yer bo'limining 31 traktorida yangi sug'oriladigan yer maydonidan 1154 desyatina va 10 ta traktor bilan paxta maydonining 479 desyatina qismi haydalgan. Bahorgi ekish kompaniyasiga 6057 pud urug' va 14000 pud oziq-ovqat ssuda tarzida berilgan [4].

Bu vaqtdagi Samarqand viloyati chorvachiligi quyidagi holatda bo'lgan. 1925- yildagi qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand viloyatida qoramollarning barcha turi 555755 boshni tashkil qilgan. Ulardan barcha yoshdagi otlar 57530 boshni, yirik shoxli qoramollar 176010 boshni, tuyalar 3485 boshni, eshaklar 37110 boshni, mayda tuyoqli qoramollar 214219 boshni, umumiy hisobda xo'jaliklar 144180 tani, aholisoni 492456 nafarni tashkil qilgan. Shunday qilib, qoramollar soni har bir xo'jalikka 5,3 boshdan va aholi jon boshiga 1,1 boshdan to'g'ri kelgan. Jumladan qoramoli yo'q xo'jaliklar soni 19,1% ni, oti yo'q xo'jaliklar 43 % ni, yirik shoxli qoramoli yo'q xo'jaliklar 26,3 % ni tashkil qilgan [4].

Qoramollarning ko'rsatilgan umumiy miqdoridan ot kuchiga ko'chirishda ishchi qoramollar miqdori bir xo'jalikka 1,07 va bir boshga 2,17 ekin maydoni to'g'ri kelgan. Ishchi qoramolning g'alla, yem-xashak bilan ta'minlanganligi butunlay past darajada, aniqrog'i, yiliga 11,8 pud bo'lib, sutkasiga 1,3 va dag'al yem-xashak (beda) bilan ta'minlanganligi bir ishchi qoramol boshiga yiliga 24,8 pudni tashkil qilgan. Bu holat g'alla, yem-xashak, suli, arpa, shuningdek, beda ekiladigan maydonlarning yetarli emasligi bilan izohlanadi.

Uyezdlar bo'yicha olib qaralganda, Jizzax uyezdi boshqalarga qaraganda ko'proq ta'minlangan. U yerda bitta xo'jalikka 10 boshdan qoramol to'g'ri kelgan. Bu mayda tuyoqli qoramol hisobiga bo'lgan. Sut beruvchi qoramol bilan ta'minlanganlik bir xo'jalikda 0,45 bosh qoramolga to'g'ri kelgan.

Qoramollar zotini yaxshilash maqsadida 14 ta xizmat ko'rsatish punkti tashkil etildi; ulardan Davlat byudjeti mablag'laridan 2 ta xizmat ko'rsatish punkti va 6 ta zootexnika punkti, mahalliy budjet mablag'lari hisobidan 6 ta xizmat ko'rsatish punkti tashkil etiladi[4].

Samarqand oblastining umumiy xo'jalik faoliyatida sanoat katta o'rin tutadi. Bir mexanik dvigatelga 16 ishchidan kam bo'lmagan yoki mexanik dvigatelsiz 30 ishchidan kam bo'lmagan 43 ta senz korxonalari ro'yxatga olingan. Quyida keltirilgan jadval xo'jalikning ushbu tarmog'i haqida ma'lumot beradi.

3-jadval

Sanoat tarmog'ining nomi	Korxonalar soni				Barcha korxonadagi ishchilarning bandligi miqdori	Yillik ish kuni (odam hisobiga)	Mahsulot qiymati (chervon hisobiga)
	Jami	Mexanik dvigatelli	Ot kuchi quvvati	Harakatdagi korxonalar			
Kulolchilik	2	-	-	2	38,1	5616	55099
Toshko'mir	1	1	716	1	130,2	136613	382497

Un tegirmoni	3	3	225	3	66,8	1764	992266
Vino-uzumchilik sanoati	7	2	96	5	187,4	53464	5528045
Pivo tayyorlash	1	1	225	1	177,4	14367	16188406
Sholi oqlash	1	1	25	-	-	-	-
Ichak ishlab chiqarish	1	-	-	1	10,9	2207	65095
Paxta tozalash	4	2	376	2	94	26501	5217690
Teri-ko'ncilik	2	1	90	2	57	13676	319486
Ipak qurti urug'ini saralash	2	-	-	2	54	15976	61544
Elektr energiyasini ishlab chiqarish va uzatish	1	1	55	1	8	5918	28241
Jami	25	12	1808	20	815,8	3185021	14268469

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, vino-uzumchilik va paxta tozalash sanoati boshqa tarmoqlarga qaraganda taraqqiy etgan. Birinchisi yalpi mahsulotning 38,7 % ini, ikkinchisi 36,5 % ini beradi. Sanoat mahalliy xomashyo bilan ishlaydi, mahsulotlar esa (vino-uzumchilik va paxta tozalash) mahalliy bozorlar, shuningdek, Rossiyaning ayrim bozorlarida sotiladi [4].

Samarqand okrugida savdo-sotiq munosabatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, u o'ziga xos ravishda tashkil topganini ko'rishimiz mumkin. Okrug hududida jami aholi ehtiyojlarini qondirish uchun 39 ta bozor faoliyat olib borgan bo'lib, ularning joylashuvi tumanlarning iqtisodiy-siyosiy holati, shart sharoitlaridan kelib chiqib turlicha bo'lgan. Masalan, Yangi Qozon Ariq tumanida Urgutda, Yuqori Darg'om tumanida – Jumabozor va Bog'izag'onda, Pastdarg'om tumanida Daud va Juma temir yo'l stansiyasida, Damariq tumanida – Jom, Chimboy va Kattaqo'rg'on shahrida, Qoradaryo tumanida Joyisag'ir, Ishtixon – Qoraqo'yli, Oqtepa va Payshanbada, Oqdaryo tumanida – Yangiqo'rg'on, Loyish va Dahbedda, Miton tumanida – Miton, To'sin, Oqtepa va Qo'shrabotda, Payariq tumanida – Juma, Oylovat, Garasha, Qorabdal va Chelakda, Bulung'ur tumanida 7 ta – Cho'yantepa, Oqtepa, Jomboy, Yakanshik, G'azara, Gukur va Rostovsevo stansiyasi (hozirgi Bulung'ur shaharchasi)da, Yangiqo'rg'on tumanida – Yangiqo'rg'on, Kushk, Usmat, Payshanba-Saugre, Sangzor va Kurapatkin temir yo'l stansiyasida, Jizzax tumanida – Ravot, Bog'don va Jizzax shahrida bozorlar faoliyat yuritgan [6].

Bu bozorlar shahar va qishloqlarni bir-biri bilan o'zaro bog'lab turgan hamda aholining asosiy oldi-sotdi joylari hisoblangan. Savdo aloqalari okrug doirasidagi tumanlar bilan chegaralanib qolmasdan, qo'shni okruglar bilan ham olib borilgan.

Bozorlardan tashqari okrug hududida 754 savdo shahobchalari bo'lib, ularning 13 tasi kooperativ, 5 tasi O'zbek savdoga qarashli, 19 tasi iste'molchilar kooperatsiyasiga, 2 tasi dehqonning paxtasini sotib olish punkti va 715 tasi xususiy bo'lgan. Shuningdek, Samarqand okrugining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Okrugda bu davrda 120 ta sovet maktabi, 276 ta eski maktab, 28 ta savodsizlikni tugatish maktabi, 7 ta qizil choyxona, 2 ta kutubxona va 2 ta partiya maktabi faoliyat yuritgan [6].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Markazning rayonlashtirish komissiyasi tomonidan XX asr 20-yillarining o'rtalarida O'rta Osiyoda o'tkazilgan ma'muriy-iqtisodiy rayonlashtirishi natijasida O'zbekistondagi ma'muriy-hududiy birliklarning nomlari, chegaralari o'zgartirildi. Rayonlashtirish siyosatining amalga oshirilishi oqibatida viloyatlar, uyezdlar, volostlar o'rniga okruglar, rayonlar (tumanlar) va qishloq sho'rosi (selskiy sovet) tashkil qilindi. Qishloq sho'rosi (selskiy sovet)ning vazifa va funksiyalari aniqlashtirildi.

Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan rayonlashtirish siyosati va uning o'lka xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga doir o'sha davr arxiv hujjatlari va manbalarining tahlili shundan dalolat beradiki, Zarafshon vohasida tuzilgan okruglar O'zbekiston SSR da tuzilgan okruglar orasida o'ziga xos mavqega va o'ringa ega bo'lgan okruglar ekanligidan dalolat beradi. Ana shu jihatlarni hisobga olgan holda Zarafshon vohasining sovet davri tarixini o'rganish bugungi kunda ham ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Ражабов. Қ. ва бошқ. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (энг қадимги даврлардан бугунги кунгача)/ Маъсул муҳаррир Р.Абдуллаев. – Тўлдирилган ва қайта ишланган бешинчи нашр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 173-174;187.

2. Список населенных мест Узбекской ССР. – Выпуск II. Самаркандская область. Изд. ЦСУ УзССР, 1925. – С.1-4.
3. Постановление 5-й сессии центрального исполнительного комитета Узбекской ССР Республики о районировании // Правда Востока, 18 октябрь 1926 г. – № 240 (1136).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni arxivining Samarqand viloyat bo‘limi (O‘zRPDA ning Samarqand VB), 215-fond, 1-ro‘yxat, 8-ish, 3-6,8,14-varaqlar.
5. Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro‘yxat, 455-ish, 37-varaq.
6. Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro‘yxat, 364-ish, 26-66,68-92- varaqlar.

A.Ж.Бодиров

**ЗЕРАВШАНСКАЯ ДОЛИНА
В ПЕРИОД ПРОВЕДЕНИЯ
РАЙОНИРОВАНИЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ**

В статье автор на основе изучения архивных материалов проанализировал политику районирования, проведенную советским правительством в Зеравшанской долине во второй половине 20-х годов XX века. Вместе с этим, в статье автор попытался осветить положение в сельском хозяйстве, промышленной и социальной сфере в Зеравшанской долине в тот период.

Ключевые слова: аул, волость, уезд, округ, районирование, сельский совет, сельское общество.

A.J.Bodirov

**ZARAFSHON VALLEY IN THE
PERIOD OF TERRITORIAL DIVISION IN
CENTRAL ASIA**

In the article the author deeply investigated the policy of territorial division in Zarafshon Valley by Soviet government in the second half of 20s in the XX century basing on archive materials. In the article the author has tried to illuminate social, industrial and agricultural condition of Zarafshon Valley during that period.

Keywords: aul (village in the Caucas and Central Asia), volost (small rural district), district, region, division into districts, village council, village society.

UDK: 94(575)1

**SAMARQAND OSORI-ATIQALARINI O‘RGANISH VA SAQLASHDA
VASILIY VYATKINNING XIZMATLARI**

F.Sh. Shamukaramova

O‘zRFA Tarix instituti katta ilmiy xodim-izlanuvchisi, E-mail: shferuza@yandex.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarixchi-sharqshunos, o‘lkashunos va arxeolog V.L.Vyatkinning Samarqand moddiy madaniyat yodgorliklarini o‘rganish va asrashdagi roli yoritilgan. Maqola O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanayotgan «V.L.Vyatkinning shaxsiy fondi»ning boy ma‘lumotlari hamda nashr etilgan adabiyotlarga asoslangan holda yozilgan.

Kalit so‘zlar: V.L. Vyatkin, Samarqand, Registon, Turkiston, Sherdor, Mirzo Ulug‘bek, Go‘ri Amir.

Mashhur arxeolog, manbashunos, tarixchi olim – Vasiliy Lavrentevich Vyatkinning hayoti va serqirra ilmiy faoliyati bevosita O‘zbekiston tarixi va arxeologiyasini o‘rganish bilan chambarchas bog‘liqdir.

XX asrning turli yillariga oid ilmiy nashrlardagi maqolalar[1] unga bag‘ishlangan bo‘lib, sharqshunoslik va arxeologiya tarixiga oid ishlarda uning nomi tez-tez tilga olinar[2]edi. Shuningdek, olimning ilmiy faoliyatiga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan[3]. Ammo hanuzgacha V.L. Vyatkinning serqirra ilmiy va hayotiy yo‘lini ochib beruvchi maxsus monografik tadqiqot mavjud emas. O‘z navbatida mazkur ish avval mavjud bo‘lgan tadqiqotlarni to‘ldirishga ham xizmat qiladi.

V.L. Vyatkin 1869-yilning 18-avgustida Yettisuv (Semirechye) viloyatining Verniy shahriga ko‘chib kelgan kazak oilasida tug‘ildi. 1894-yilda Toshkentdagi o‘qituvchilar seminariysini tamomlagach, bir muddat O‘sh shahrida o‘qituvchilik qildi va ayni vaqtda Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishga jadal kirishdi. Biroz fursat o‘tgach, Samarqandga kelib, umrining oxirigacha bu shaharga mehr qo‘ydi. Keyinchalik V.L.Vyatkinning nomi Samarqand va uning atrofi bilan bo‘g‘liq tarixni o‘rganish, tarixiy obidalarni muhofaza qilish va tavsiflash, qadimiy asori-atiqalar va qo‘lyozmalarni kolleksiya qilish bo‘yicha bajarilgan ishlarning ajralmas qismiga aylanib qoldi. O‘lkashunoslikka

qiziqqan Vasiliy Vyatkin 1877-yilda asos solingan Samarqand viloyati statistika komitetining a'zosi bo'ldi. Uning faol ishtiroki bilan 1896-yilning 21-iyulida Samarqandda "Muzeu Samarkandskogo statisticheskogo komiteta" ("Samarqand statistika komitetining muzeyi") ochildi.

V.L.Vyatkinning dunyoqarashi, asosan, Turkistondagi rus ziyolilari ta'sirida, shuningdek O'rta Osiyoning buyuk mutaffakirlari ishlarini o'rganish orqali shakllana bordi [4].

Turkiston o'lkasiga, uning boy tarixi va xalqiga chin yurakdan mehr qo'ygan V.L.Vyatkin bu yerda tarixiy fanlar va maorifning ravnaq qilishi uchun o'zining kuch-g'ayratini ayamadi. Ta'lim rivojida bosh omil sanalgan – hamma foydalanishi uchun qulay bo'lgan kutubxona yaratishga katta e'tibor qaratdi. Uning 1902-yilda "Russkiy Turkestan" gazetasi mushtariylarining Samarqand shahrida ommaviy kutubxonaning yo'qligi xususidagi arziga javob tariqasida yozgan maqolasida: "...Samarqandda muzey qurilishiga zarurat bordek ko'rinadi. ... Viloyatning Harbiy gubernatori xalq o'qishlari to'garagining ishiga va allaqachonlar pishib yetgan ommabop kutubxonaga bo'lgan talabga xayrixohlik bildirib, o'tgan yilning (1901-yil – *F.Sh.*) boshidayoq, general-gubernator oldiga shahar mablag'i hisobidan muzey binosini qurish uchun iltimosnoma bilan chiqqandi, ayni vaqtda ... qiroatxonasi bo'lgan va xalq kitobxonlari uchun zalga ega kutubxona qurilishiga ruxsat berish masalasi ham kiritilgan edi. Hozirgi paytda loyiha va smeta tasdiqlanish arafasida turibdi. Biz umid qilamizki, navbatdagi mavsumda inshoot qurilishi ochiladi" [5], – deb qayd etilgan.

V.L.Vyatkin o'z tadqiqotlarini Samarqanddagi ko'p sonli vaqf hujjatlarini o'rganishdan boshlab, asta-sekin boshqa yozma yodgorliklarni tadqiq etishga kirishdi. Shu o'rinda V.A. Shishkinning quyidagi mulohazasini keltirib o'tish joiz: "Maxsus tarixchi-sharqshunos ma'lumotini olmagan yosh Vyatkin, biror-bir ilmiy rahbarsiz, Samarqandga kelganiga ikki yil o'tmay, o'zining chuqur va serqirra bilimidan guvohlik beruvchi bir qator ilmiy ishlar turkumini nashr eta boshladi" [6].

Shunday qilib, tadqiqotchining o'lkashunoslikka oid «K istoricheskoy geografii Tashkentskogo rayona» [7] ("Toshkent rayonining tarixiy geografiyasiga oid") va «Materialy k istoricheskoy geografii Samarkandskogo vilayata» [8] ("Samarqand viloyati tarixiy geografiyasiga oid materiallar") kabi ishlari ilmiy jamoatchilik diqqatini tortdi. Bu ishlar ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan katta hajmdagi vaqf hujjatlaridan foydalanilgan holda yozilgan edi. Jumladan, V.V.Bartold V.L. Vyatkinning Samarqand tarixiy geografiyasiga oid yozilgan maqolasi xususida: "Nisbatan kichik hajmli bo'lsa-da, V.L. Vyatkinning maqolasi yangi boy materiallar jalb qilinishi jihatidan mukammal asar nomiga sazovordir" [9], – deb yozgan edi.

V.L.Vyatkin yozma manbalardan xabardor bo'lish va ular bilan ishlay olish eng muhim vazifalardan biri hisoblanishini va bu O'rta Osiyoni o'rganishda "rus tadqiqotchilari uchun tayanch nuqtasi" bo'lib qolishini bir necha bor ta'kidlagan edi. U mahalliy aholidan noyob qo'lyozmalarni sotib olinishi va ommaviy tarzda xorijga olib chiqib ketilayotganligini nihoyatda salbiy baholab: "Turkistondagi qo'lyozmalar soni asta-sekin kamayib bormoqda; qo'lyozmalar xorij kutubxonalari va havaskor kolleksionerlar uchun jadallik bilan sotib olinmoqda; ularning narxlari juda tez ko'tarilmoqda, chunki xorijliklar narx masalasida deyarli xasislik qilmaydi...

Nafaqat azaldan savodxonligi yuqori bo'lgan islom mamlakatlarida, balki hamma yerda xalqning ham tashqi, shuningdek ichki turmush tarzini aks ettiruvchi yozma yodgorliklar o'tmish haqidagi fanning serqirra jihatlari sanalib, – ba'zida xalq tarixiy hayotining u yoki bu sohasidagi yagona manba hisoblanadi. O'lkada haligacha saqlanib qolgan mavjud yozma xazinani chet elliklar tomonidan talon-taroj qilinishidan saqlash va ularni Toshkent ommaviy kutubxonasi uchun xarid qilish zarur" [10], – yozgan edi

V.L.Vyatkinning o'zi ham butun umri davomida katta hajmdagi sharq qo'lyozmalarini to'plagan edi. Uning vafotidan so'ng ular Davlat ommaviy kutubxonasi jamg'armalaridan o'rin olib, bu qo'lyozmalar 273 jildidan iborat bo'ldi [11].

V.L.Vyatkinning Samarqanddagi qadimiy me'moriy yodgorliklar bilan qiziqishi tufayli yana bir tarixiy fan yo'nalishi – tarixiy topografiyani chuqur o'rgandi.

1903-yilning 18-aprelida V.L.Vyatkin: "Musulmon manbalari asosida O'rta Osiyo tarixini, yo'l-yo'lakay me'morchilik san'ati tarixi yodgorliklari masalasini o'rgangan, eng asosiysi mahalliy xalqlarning og'zaki va yozma tilini biluvchi shaxs sifatida" [12] Samarqanddagi barcha yodgorliklarning nazoratchisi etib tayinlandi. Bu vazifaga inshootlar holatini nazorat qilish va ta'mirlash ishlarini tashkil etish ham kirar edi.

U xizmat faoliyatini dastlab Samarqanddagi tarixiy yodgorliklarning holati xususida Samarqand viloyati Harbiy gubernatori nomiga yozilgan axboroti [13] bilan boshlab yubordi. U mazkur murojaatnoma bilan bir vaqtning o'zida: 1) hokimiyatga, 2) Samarqand shahar xo'jalik

boshqarmasiga, 3) Imperator Arxeologiya Komissiyasiga va 4) xususiy sarmoyadorlarga “Turkiston o‘lkasi va Buxoro xonligi aholisi o‘rtasida Samarqand shahridagi qadimiy yodgorliklarni ta‘mirlash va tuzatish uchun maxsus fondni to‘ldirishga obuna ochish uchun rusxat berilishi” masalasini qo‘ydi. “Menimcha, – deb yozgan edi V.L.Vyatkin, – musulmonlarning “savob” ishga hayrixohliligi va shaxsiy saxovatpeshaligi, ularga tegishli bo‘lgan muqaddas qadamjolar – qadimiy yodgorliklarning holatini qo‘llab-quvvatlashni da‘vat etuvchi obuna varaqalarini aholi o‘rtasida ma‘muriyat va obro‘li shaxslar orqali tarqata olsak o‘zining ijobiy natijalarini berishi kerak” [14].

Bundan bir yil oldin, 1902-yilda V.L.Vyatkin mahalliy matbuot sahifalarida nashr etilgan maqolasida ham Samarqanddagi yodgorliklarning xaroba ahvolda ekanligini ta‘kidlab, rasmiy hokimiyatni ularni saqlash uchun mas‘uliyatli bo‘lishga chaqirgan va bu haqda: “...Biz madaniy-tarixiy jihatdan bebaho bo‘lgan qadimiyatning ajoyib yodgorliklar haqida qayg‘urishimiz lozim va bu hokimiyat zimmasida bo‘lishi kerak” [15], – deb yozgan edi.

Shahardagi me‘moriy yodgorliklarni o‘rganish va ularni saqlashni asosiy kasbiy vazifalaridan biri deb bilgan V.L.Vyatkin, Samarqand yodgorliklarining nazoratchisi vazifasini bajarish asnosida shahar va uning atrofida joylashgan barcha yodgorliklarni ro‘yxatga olib, ularning tarixini tuzib chiqdi. U o‘zining butun vaqtini yodgorliklar qayd etilgan manbalarni izchillik bilan o‘rganishga bag‘ishladi. Bu borada sharq tillarini bilish, vaqf hujjatlarini o‘rganish va mahalliy aholi bilan olib borilgan muloqat katta ahamiyat kasb etdi. Mazkur bilimlari tufayli u Turkistonning, xususan Samarqandning madaniy va tarixiy merosini munosib baholay oldi.

“O‘rta Osiyoning ajoyib o‘tmishiga oid Bibixonim – sobiq Jome‘ masjidi shunday g‘aroyib yodgorlikki, bunyod etilishida o‘z davrining san‘ati va mohir ustalarining mohorati jo etilgan, o‘zining ulug‘vorligi va qudrati bilan buyuk sarkarda Temurga xos bo‘lgan eng zalvorli va mahobatli inshootdir. Ammo Temurning bu ijod mahsuli tez orada batamom buzilish arafasida turibdi. Bizning nazarimizcha, avval Samarqand qadimiyatiga daxldor bo‘lgan: to‘rtta madrasaning uchasi Registon maydonini o‘rab turgan: 1) Temurning nabirasi, 823 (1420)-yilda mashhur astronom va tarixchi nomini olgan, Samarqand hukmdori Mirzo Ulug‘bek tomonidan bunyod ettirilgan madrasani; 2) Sherdor; 3) Tillaqori hamda ... 4) yana biri, shahar chetidagi chorbog‘dagi Nodir devonbegi deb nomlanuvchi, Xo‘ja Ahror mozorida joylashgan 1040 (1630-1631)-yilda qurilgan muhim yodgorliklarni ta‘mirlash va asrab qolishga diqqatni qaratish zarur. Temurning o‘zi tomonidan o‘limidan biroz avval qurdirilgan maqbara (Go‘ri Amir), bunyodkorlik ishlari asosan Samarqandda mujassam bo‘lgan mazkur hukmdorning betakror inshootlari sirasiga kiradi” [16].

O‘z maqolasida zudlik bilan ta‘mirga muhtoj bo‘lgan Samarqanddagi obidalar holatiga jiddiy qayg‘urgan Vasiliy Lavrentyevich iztirob bilan: “Vaqt o‘tib bormoqda; bizda zavq va hayrat uy g‘otgan osori-atiqalarning unsiz guvohlari nuramoqda va buzilmoqda; yoriqlari kengayib, yangi yoriqlar paydo bo‘lmoqda, tayanch ustunlari tushib, peshtoqlari to‘kilmoqda, g‘ishtlari ajrab chiqmoqda, me‘moriy chizgilari yo‘qolib bormoqda hamda ta‘mirlash bo‘yicha ishlar murakkablashmoqda” [17], deb ta‘kidlashga majbur bo‘lgan edi.

Tarixiy yodgorliklarning ayrim parchalari o‘g‘irlanib, oqibatda ular xorijdagi muzeylar va shaxsiy kolleksiyalarda paydo bo‘lib qolayotganini V.L.Vyatkin “vandalizm” deb atagan. Jumladan, XIX asrning 80-yillarida tarixiy ahamiyatga molik qadimiyat buyumlarni yig‘ish maqsadida Turkiston shaharlari bo‘ylab sayohat qilgan fransuz er va xotin Uyfalvlar Samarqandda bo‘lgan paytlarida tarixiy yodgorliklarning devorlaridan bolta yordamida rangli koshinlarni ko‘chirib olish uchun hali hech narsani anglab yetmagan o‘smirlarni yollashgan edi. Shundan so‘ng, koshinlar yettita qutiga joylashtirilib, Fransiya olib ketilgan [18]. Buning tasdig‘i sifatida V.L.Vyatkinning 1905-yilning 21-martida Samarqand viloyati Harbiy gubernatori nomiga yo‘llagan raportini keltirish mumkin. Hujjatda ta‘kidlanishicha, kechasi Samarqanddagi Go‘ri Amir dahmasining kirish eshigidagi koshin yozuvlarini noma‘lum kishilar ko‘chirganligi bayon qilingan [19].

Podsho ma‘murlari tomonidan Peterburgdagi Shtiglis muzeyida saqlash uchun Shohizinda ansambli binosidan koshinlarning ko‘chirib olinishini turkistonliklarning huquqlarini qo‘pol buzilishi va madaniy riyokorlik deb hisoblagan V.L.Vyatkin afsus bilan: “... Har kuni ziyoratchilarni uzoq joylardan o‘ziga jalb qilayotgan muqaddas qadamjolarni tahqirlash musulmonlarda qanday hislarni paydo qiladi? Bu hissiyotlarni qo‘zg‘atishga haqqimiz bormi? Oqibatda, bittasi eshigini, boshqasi maqbara toshini, uchinchisi gumbazlar ustidagi parchinni olib ketsa, to‘rtinchisi esa Temurlan dahmasini olib chiqib ketishni orzu qilib qolsa va oxir-oqibatda bu talon-tarojga hech narsa qolmagandagina chek qo‘yish mumkin bo‘ladi. Biz uchun uyatli bo‘lgan bunday ishga, ma‘muriyat nafaqat ko‘maklashadi, balki azaldan saqlanib kelinayotgan badiiy merosga bunday vahshiylarcha

munosabatga ruxsat berilmaydi, deb umid qilamiz” [20], deb yozgan edi.

Samarqand yodgorliklari nazoratchisi vazifasida ishlar ekan, olim muntazam ravishda har yili u yoki bu tarixiy binoni tuzatish va ta'mirlash uchun mablag' ajratilishini so'rab ma'muriy tashkilotlarga murojaat qilgan. Faqat bu bilan cheklanmay V.L.Vyatkin mahalliy tadbirkorlar va ustalar yordamidan ham foydalanar edi [21].

V.L.Vyatkinning yana bir murojaati uzoq va ko'p asrlik tarixga ega Mirzo Ulug'bek madrasasini qutqarish va saqlab qolishga qaratildi. M.Ye.Masson o'zining risolasida [22] ta'kidlaganidek, bu jarayon 1918-yildan emas, balki 1916-yildan boshlangan. 1916-yilning yanvarida V.L.Vyatkin Samarqand viloyati Harbiy gubernatoriga Mirzo Ulug'bek madrasasining binosi yomon ahvolda ekanligi xususida raport yozgan edi [23]. Raportda u “minorani tekshirib chiqish uchun komissiya tayinlash ..., bu komissiya minoraning mustahkamligini aniqlashi, uni biror moslama yordamida, yoki ust qismini qandaydir balandlikka qadar yechish chorasini orqali saqlab qolish imkoniyatlarini ko'rib chiqishi kerakligini”, so'ragan edi.

Mazkur raportning mazmunidan shu ma'lum bo'ladiki, 1916 yildayoq Mirzo Ulug'bek madrasasining shimoli-sharqiy minorasi qulab ketishi ehtimoli mavjud bo'lgan. V.L.Vyatkin sa'yi harakati bilan hozirgi kunga qadar Samarqanddagi Registon maydonidagi betakror manzaraning yaxlitligini tashkil etib turgan tarixiy yodgorlik saqlab qolingani edi.

Vasiliy Lavrentyevich Samarqandni juda yaxshi bilganligi tufayli biror bir tarixiy tadqiqot yoki arxeologik qazishmalar uning bevosita ishtirokisiz amalga oshirilmagan. Qolaversa, ularning aksariyati uning tashabbusi bilan tashkil etilgan edi. Olimning ishtirok etgan asosiy arxeologik obyektlaridan biri – 1904-yilda boshlangan Afrosiyobdagi qazishmalar bo'ldi. Bu V.V.Bartold rahbarligidagi O'rta va Sharqiy Osiyoni tarixiy, arxeologik, lingvistik va etnografik jihatdan o'rganish maqsadida tuzilgan Rus komitetining topshirig'iga binoan o'tkazilgan edi. V.V.Bartold Peterburgga qaytib ketgach esa, Afrosiyobdagi qazishma ishlari V.L.Vyatkin tomonidan amalga oshirilgan. Natijada olimning ko'p yillik izlanishlari mahsuli «Afrasiab – gorodishe bilogo Samarkanda» [24] (“Afrosiyob – qadim Samarqand shahristoni”) asari yaratildi.

Ammo V.L.Vyatkinga olamshumul shuhrat olib kelgan hamda – XX asr boshlarining eng buyuk kashfiyotlaridan biri deb sanalgan Mirzo Ulug'bek rasadxonasining topilishi va ochilishi bilan bog'liq izlanishlar bo'ldi. U rasadxonaning joylashgan o'rni haqidagi ma'lumotlarni izchillik bilan to'plab, ularni tahlil qildi. U bu haqda keyinchalik shunday yozgan edi: “Garchi Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarqand atrofida qurdirilgan rasadxona haqida ko'plab musulmon adiblari eslatib o'tgan bo'lsalar-da, Mirzo Bobur o'zining mashhur esdaliklarida hatto uning joylashgan o'rnini deyarli ko'rsatib o'tgan bo'lsa ham, so'nggi paytlarga qadar, bu yodgorlikka bo'lgan qiziqishning ortishiga qaramay, tavsifiga ko'ra muhtasham bo'lgan bu inshootning aynan qayerda joylashgani aniq ma'lum emas edi...” [25].

1908-yilda V.L.Vyatkin o'z davrining mashhur xattoti Zargaron mahallasidan bo'lgan Abusaid [26] (bir qancha vaqt V.L.Vyatkin uning xonadonidan qo'nim topgan edi – *F.Sh.*) yordamida XVII asrga oid butun bir savat vaqf hujjatlarini tartibga keltirib o'rganayotgan paytda ularning biridan “tali-i-rasad” (“rasadxona yoki rasadxona tepaligi”) jumlasini aniqladi. Vaholanki, XIX asr oxirlarida ham Mirzo Ulug'bek rasadxonasining joylashuvi xususida tadqiqotchilar tomonidan turli xil farazlar aytib kelinardi, ammo Vasiliy Lavrentyevich o'qigan mazkur vaqf yorlig'i bu masalaga uzil-kesil “nuqta” qo'ydi. Hujjatni sinchkovlik bilan o'rganib, u hozirda Obirahmat arig'i bo'yidagi Naqshi jahon nomi bilan ma'lum bo'lgan yerda rasadxona joylashganligini aniq belgiladi.

V.L.Vyatkin, o'zining Mirzo Ulug'bek rasadxonasi qazishmalari haqidagi 1912-yilda nashr etilgan hisobotida: “Rasadxona joylashgan yerning kashf etilishida bundan 250 yil muqaddam yozilgan va men tomonimdan topilgan vaqf hujjatidan minnatdor bo'lishimiz kerak. Unda tavsiflangan yer maydonlari chegaralari qatorida rasadxona tepaligi (“tal-i-rasad”) ham ko'rsatib o'tilgan bo'lib, hozirgi kunda bu aynan ko'rsatilgan Obirahmat arig'i va Naqshi jahon joylaridir. Mazkur hujjat rasadxona joylashgan yerni shu qadar aniq va mufassal ko'rsatib berdiki, hujjatda ko'rsatilgan tepalikni qidirib topish amalda qiyinchilik tug'dirmadi” [27], – deb yozgan edi.

Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilgach, V.L.Vyatkin o'zining boshqa vazifalari qatorida Samarqanddagi yodgorliklarni muhofaza qilish ishini davom ettirib, Turkomstaris (Turkomstaris - Turkiston ASSRning muzey ishlari va qadimiy yodgorliklari, san'ati va tabiatni saqlash ishlari bo'yicha komitet) tarkibiga kiruvchi Samkomstaris (Samkomstaris - muzey ishlari va qadimiy yodgorliklar, san'at va tabiatni saqlash ishlari bo'yicha Samarqand komiteti) raisi etib saylandi. Arxeologik, tarixiy-me'morchilik ekspeditsiyalari yoki biror-bir boshqa ilmiy maqsadda Samarqandga

kelgan tadqiqotchilar birinchi navbatda V.L.Vyatkinga murojaat qilishardi, chunki u Samarqand obidalari bo'yicha yetuk mutaxassis edi.

Aynan uning tashabbusi bilan 1918-yilda komissiya tuzilib, 1417-1420-yillarda Mirzo Ulug'bek tomonidan qurilgan madrasaning shimoli-sharqiy minorasiga "tez yordam" ko'rsatish maqsadida M.F. Mauer va B.N. Kastalskiylar kabi injenerlar uning tarkibiga kiritildi [28].

O'zbekiston Respublikasi Davlat arxivida saqlanayotgan V.L.Vyatkinning shaxsiy fondida [29] O'zbekiston uchun murakkab bo'lgan bir davrda Samarqanddagi Registon maydonining bugungi qiyofasini saqlab qolish uchun qay darajada amaliy va ilmiy sa'yi-harakatlar qilinganligiga guvohlik beruvchi ko'plab hujjatlar, bayonnomalar, xatlar, murojaatnomalar saqlanib qolgan. M.Ye.Masson yozganidek, "komissiya a'zolari Ulug'bek madrasasi ulkan ilmiy va badiiy ahamiyatga molik ekanligini va uning asosiy old qismi (fasadi) burchakdagi minorasiz nihoyatda ko'rimsiz bo'lib qolishini tiyran anglab yetgan edilar", chunki busiz ham 1870-yilda madrasaning to'rt minorasidan biri, keyinchalik boshqasi qulab tushgan edi. Komissiyaning ayrim majlislari to'g'ridan to'g'ri Registon maydonida bo'lib o'tar, deyarli har bir majlisda madrasa minorasini tezroq qutqarib qolish va uni to'g'rilash borasida qizg'in munozaralar bo'lardi. Ish jarayonlari 1918-1932-yillar davomida bajarilib, u muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Bu jahon tarixidagi ta'mirlash amaliyotining misli ko'rilmagan voqeligi ham edi.

Bevosita Samarqand bilan bog'liq xizmat vazifalari va ilmiy tadqiqot ishlari bilan bir qatorda V.L.Vyatkin Sredazkomstaris tomonidan bir necha bor arxeologik qazishmalar o'tkazish, mintaqadagi me'moriy yodgorliklarni o'rganish uchun o'z faoliyati vakolatlari doirasida O'zbekistonning turli mintaqalariga xizmat safariga yuborib turilgan [30]. Qayerda ishlamasin, u yana doimo o'zi uchun qadrdon bo'lgan Samarqandga qaytib kelardi [31].

1926-yilda Sredazkomstaris tugatilgach V.L.Vyatkin Samarqandda joylashgan Uzkomstarisning birinchi raisi etib tayinlandi.

V.L.Vyatkinning Samarqanddagi bebaho madaniy yodgorliklarni o'rganish va muhofaza qilish borasidagi xizmatlari beqiyosdir. U maxsus bilimga ega bo'lmay turib, oliy darajadagi iqtidorli tadqiqotchi, beqiyos tashkilotchi, ulkan tashabbuskor, o'z ishining beg'araz fidoyisi bo'la oldi. 1908-1909-yillarda Mirzo Ulug'bek rasadxonasining qoldiqlari topilishi munosabati bilan V.L.Vyatkin haqli ravishda akademik V.R.Rozen nomidagi oltin medalga sazovor bo'ldi. Olim faoliyatini e'tirof etishning eng asosiy mezonini bu uning Samarqand mahalliy aholisi orasida katta hurmatga loyiq bo'lganligidir.

Fe'l-atvoriga ko'ra V.L.Vyatkin o'ziga xos inson edi. Xususan, M.Ye.Masson o'z ishlarining birida N.P.Ostroumovning xotiralarini keltiradi: "... "Odamovi" Vyatkin ... qaysar, odam suymas, o'ta shaxsiyatparast. Boshqalardek, xuddi Nikolay Petrovichdek mahalliy aholidan eshitgan ertaklari, maqolalari va topishmoqlarini hamma bilan bo'lishishni xohlamaydi. Hammasini o'zi uchun saqlab qo'yadi. Kamiga yana juda tortinchoq. Jamoatchilik ichida o'zini tutib turolmaslikdan uyaladi. Ammo umuman olganda, u ko'p narsaning uddasidan chiqadigan yosh yigit"[32].

O'zbekiston tarixini chuqur o'rganish uchun birlamchi manbalarni bilish va o'qiy olishning qanchalik muhimligini anglab yetgan V.L.Vyatkin o'z vaqtida: "Tilni va arab yozuvini o'rganish kerak bo'ladi, tarixiy dalillarni qanday yoritishimizdan qat'iy nazar biz doimo birlamchi manbaga murojaat qilamiz... Madaniyat tarixini, turmush tarzi tarixini, jamiyat va jamoatchilik unsurlari tarixini yozish uchun baribir O'rta Osiyoning umumiy tarixini o'rganishimiz kerak bo'ladi. Tarixchi umuman barcha materiallarga suyanishi kerak, buning uchun esa tilni egallashi zarur"[33], deb yozgan edi. Olimning bu mulohazalari hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

M.Ye.Massonning shaxsiy arxivi ro'yxatini o'rganish chog'ida V.L.Vyatkinning ba'zi bir nashr etilgan va chop etilmagan ilmiy ishlari qo'lyozmalarini: 1) «K voprosam izucheniya uzbekov v Sredney Azii. XVI vek» ("O'rta Osiyodagi o'zbeklarni o'rganish masalasiga oid. XVI asr") mashinkada yozilgan, 150 varaq; 2) «Vasiki sidjiyat i utverjdeniye prodaj» ("Sijiyat vasiqasi va savdoni tasdiqlash")ning tarjima qo'lyozmasini 513 varaq hajmda topishga muvaffaq bo'ldik. Bu asarlar hozirgacha biron bir tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib tahlil etilmagan.

Vasiliy Laverentyevich Vyatkin o'zining sermazmun va kashfiyotlarga boy umrining 35 yilini O'rta Osiyo tarixiy fanlari rivojiga, olimlarning yangi avlodi tarbiyasiga baxshida etgan edi.

Vasiliy Vyatkin 1932-yilning 26-iyunida vafot etdi. Uning ilmiy va amaliy xizmatlari e'tirof etilib, u Samarqanddagi Registonga dafn etildi, ammo keyinchalik 1934-yilning 29-dekabrida uning jasadi o'zi tomonidan ochilgan Mirzo Ulug'bekning Samarqanddagi rasadxonasi hududiga ko'chirildi va o'sha yerga dafn etildi. Uning istagiga ko'ra, u to'plagan asori-atiqalar kolleksiyasi (qadimgi

terrakota buyumlar, ostodon parchalari, shishadan yasalgan idishlar, badiiy kulolchilik namunalari) V.L.Vyatkin uchun qadrdon bo'lgan Samarqand muzeyiga topshirildi.

Adabiyotlar

1. Бетгер Е.К. Список трудов Василия Лаврентьевича Вяткина // Труды ТашГУ. Ташкент, 1960. Вып. 172. С. 124–127; Шишкин В.А. Василий Лаврентьевич Вяткин (к тридцатилетию со дня смерти) // ИМКУ. – Ташкент, 1963. – Вып. 4. – С. 144-151.
2. Лунин Б.В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане. – Ташкент: Фан, 1958. – С. 88-91.
3. Аббасов А. В.Л. Вяткин – историк-источниковед, историк-археолог Узбекистана: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1969. – 47 с.
4. Аббасов А. В.Л. Вяткин – историк-источниковед, историк-археолог Узбекистана: ... – С. 4.
5. В.В. [Вяткин В.Л.] Из Самарканда (Кор. «Русск. Турк.») // Русский Туркестан. 1902. 13 февраля. – № 36.
6. Шишкин В.А. Василий Лаврентьевич Вяткин (к тридцатилетию со дня смерти) // ИМКУ. – Ташкент: Фан, 1963. – Вып. 4. – С. 144-151.
7. Вяткин В.Л. К исторической географии Ташкентского района // Туркестанские ведомости. 1900. – № 101.
8. Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаята // Справочная книжка Самаркандской области. – Самарканд, 1902. – Вып. VII. – С. 1-63.
9. Записки Восточного отделения Российского археологического общества (ЗВОРАО). 1903. – Т. XV. – С. 51-52.
10. В.В. [Вяткин В.Л.] Точка опоры // Туркестанские ведомости. 1902. – № 92.
11. Чабров Г.Н. В.Л. Вяткин – книговед // ОНУ. 1969. – № 11. – С. 72-73.
12. Письмо Туркестанского генерал-губернатора Археологической комиссии от 29/31 марта 1903 г. № 3756. Архив Археологической комиссии, д. № 693 – 1895 г. (В Институте археологии АН СССР) // Шишкин В.А. Василий Лаврентьевич Вяткин (К тридцатилетию со дня смерти) / ИМКУ. – Вып 4. – Ташкент, 1963. – С. 145.
13. O'zRMDA, P-1591-fond, 2-ro'uxat, 58-ish, 9-varaq.
14. O'zRMDA, P-1591-fond, 2-ro'uxat, 58-ish, 9 об.-varaq.
15. Вяткин В.Л. К вопросу о поддержании памятников древности в Самарканде // Туркестанские ведомости. 1902. – № 85.
16. Вяткин В.Л. К вопросу о поддержании памятников древности в Самарканде...
17. Ўша жойда.
18. [18] Тарих шохидлиги ва сабоқлари. – Тошкент: Шарк, 2001. – Б. 376.
19. [19] O'zRMDA, I-18-fond, 1-ro'uxat, 6218-ish – О похищении в усыпальнице «Гур-Эмир» неизвестными изразцов на коих изображена древняя надпись, 1-1об.-varaqлар.
20. O'zRMDA, P-1591-fond, 2-ro'uxat, 58-ish, 6-6 об.-varaqлар; Шишкин В.А. Василий Лаврентьевич Вяткин (К тридцатилетию со дня смерти) // ИМКУ ... – С. 147.
21. [O'zRMDA, P-1591-fond, 1-ro'uxat, 11-иш, 1-1об.-varaqлар.
22. Массон М.Е. Падающий минарет. – Ташкент, 1968.
23. O'zRMDA, P-1591-fond, 1-ro'uxat, 15-иш, 1-varaq.
24. Вяткин В.Л. Афрасиаб – городище бывшего Самарканда. Археологический очерк. Ташкент, 1927. – 65 с. и илл.
25. Вяткин В.Л. Отчет о раскопках обсерватории Мирза Улугбека в 1908 и 1909 годах. – Спб.: Типография Императорской Академии Наук, 1912.
26. Остонова Г.Ю. Вақф хужжатида Улуғбек расадхонаси ҳақида маълумот // ОНУ. 1994. – № 9-10. – С. 58-62.
27. Вяткин В.Л. Отчет о раскопках... – С. 76.
28. Массон М.Е. Падающий минарет. Ташкент: Узбекистан, 1968; Шамукарамова Ф. Из истории спасения минарета медресе Мирзо Улугбека // Ўзбекистон тарихи. 2006. № 1. С. 16–23.
29. O'zRMDA, P-1591-fond.
30. O'zRMDA, P-1591-fond, 2-ro'uxat, 7-ish, 1, 3, 4, 7, 8-varaqлар.

31. Arxiv hujjatlarining biriga ko'ra, V.L. Vyatkin o'zining asosiy xizmat va ilmiy ishlarini o'z uyida bajargan. Shu munosabat bilan unga Samarqand viloyat ijroiya qo'mitasi raisi tomonidan 20 kv. arshin miqdorida qo'shimcha uy-joy ajratilgan (Qarang: O'zRMDA, P-1591-fond, 2-ro'yxat, 7-ish, 2-varaq).
32. Массон М.Е. Рудник погибели. – Фрунзе: Кыргызстан, 1971. – С. 10-11.
33. Аббасов А. В.Л. Вяткин – историк-источниковед, историк-археолог Узбекистана... – С. 17.

Ф.Ш. Шамукарамова

**ЗАСЛУГИ ВАСИЛИЯ ВЯТКИНА
В ИЗУЧЕНИИ И СОХРАНЕНИИ
ПАМЯТНИКОВ САМАРКАНДА**

В данной статье отражены заслуги известного историка-востоковеда, краеведа и археолога Василия Лаврентьевича Вяткина в изучении и сохранении монументальных исторических памятников Самарканда. Статья подготовлена на основе личного фонда ученого, хранящегося в ЦГА РУз, его публикаций, а также опубликованной научно-исторической литературы о нем.

Ключевые слова: В.Л.Вяткин, Самарканд, Регистан, Туркистан, Шердор, Мирзо Улугбек, Гур-Эмир.

F.Sh. Shamukaramova

**VASILIIY VYATKIN' ROLE IN RESEARCH
AND PRESERVATION
OF SAMARKAND MONUMENTS**

The present article reflects the merits of V.L.Vyatkin, famous historian and orientalist, regional ethnographer and archaeologist, and his role in studying and preservation of the Samarkand monuments. The paper is written both on the basis of the rich archival material available in the personal V.L.Vyatkin's archival fund from the Central State Archives of the Republic of Uzbekistan, and on reviewing the previously published literature.

Keywords: V.L. Vyatkin, Samarkand, Registan, Turkistan, Sherdar, Mirzo Ulugbek, Gur-Emir.

UDK: 9 (575.1):312

**SOVET HOKIMYATI YILLARIDA O'ZBEKISTONDA O'TKAZILGAN
AHOLI RO'YXATLARI TARIXI XUSUSIDA**

U.Xudayarov

Samarqand davlat universiteti katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada Sovetlar davrida O'zbekistonda o'tkazilgan aholi ro'yxatlari va undan ko'zlangan asosiy maqsad nima ekanligi, shuningdek, aholi sonining ortib borishi, uning sabablari kabi jihatlarga e'tibor berilgan. Muallif O'zbekiston zaminida Sovetlar davrida o'tkazilgan aholi ro'yxatlari haqida to'xtalib o'tgan. Aholi ro'yxatlarini bir-biridan farqlari ularda aholi sonini aniqlashda qo'llangan turli xil metodlar haqida arxiv hujjatlari asosida ma'lumotlar keltirgan.

Kalitso'zlar: migratsiya, aholi ro'yxatlari, oilaviy holat, demografik belgilar, so'rovnomalar, aholi soni, milliy tarkib, kombinatsiya.

Aholi soni va uning tarkibi to'g'risidagi ro'yxat ma'lumotlari ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, xalqning farovonligi va madaniy saviyasini oshirish, yangi hududlarni o'zlashtirish rejalarini tuzishda mamlakat ixtiyoridagi tabiiy boyliklarning miqyoslarinigina emas, balkim odam resurslarini ham yaxshi bilishga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatda aholi qanday joylashganligi ishchi kuchlari qayerda ortiqcha, qayerda yetishmayotganligini, qayerda qancha do'kon, oshxona, kasalxona, sanatoriya, hammom borligini bilish, gazlama, kiyim-kechak, poyabzal ishlab chiqarish, bolalar bog'chalari, yaslilar va boshqa muassasalar qurishni rejalashtirish, o'qituvchi-pedagog xodimlar tayyorlash, klublar, teatrlar qurish, kitoblar bosib chiqarishni rejalashtirish uchun, aholi ro'yxatlari katta ahamiyatga ega. Aholi ro'yxatlari aholining kelgusi yillarda qanday ko'payishini bashorat qilish imkonini beradi va oilaning hozirgi ahvolini aks ettiradi.

Dunyo tajribasidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki aholini hisobga olish qadimgi Misrda, Eronda, shuningdek Rim imperiyasida eramizdan avvalgi VI asrdan boshlab mavjud bo'lgan[1, 4 b.]. Ammo, u paytdagi aholi hisobini hozirgi zamon aholi ro'yxati bilan tenglashtirish mumkin emas. Ushbu davrdagi hisob-kitoblar ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan. Masalan, soliq to'lash lozim bo'lgan yoki qo'lga qurol olish imkoniyatiga ega kishilarning sonini aniqlash uchun amalga

oshirilardi. Ushbu hisoblardagi ma'lumotlarda faqat erkaklar to'g'risida faktlar keltirilib, ulardan aholi haqida to'liq demografik ma'lumotlar olib bo'lmaydi.

O'zbekiston zaminida ham sovetlar davrida bir necha bor aholi ro'yxatlari o'tkazilgan, bugungi kunda ularda to'plangan ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish o'ta muhimdir. Sababi, bu masala bo'yicha yaratilgan ilmiy ishlar va adabiyotlarning asosiy qismi sovetlar davrida yaratilgan o'sha tuzum mafkurasi va g'oyasi asosida sug'orilgan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng N.Mahkamova [2], O.Atamirzayev, V.Gentshke, R.Murtazayeva [3] kabi olimlarimiz bu sohada sermahsul izlanishlar olib bormoqdalar, ammo qilinadigan ishlarimizning ko'lami juda keng. Yuqoridagilardan kelib chiqib biz ushbu maqolada mustabid tuzum davrida O'zbekistonda o'tkazilgan aholi ro'yxatlari, ularning tashkil etilishi, tashkiliy jarayonda qo'llanilgan ayrim o'zgarishlar va texnologik jarayonlar haqida qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Ta'kidlab o'tilganidek, aholi ro'yxatlari aholi to'g'risida eng to'liq axborotni berishi mumkin jumladan, 1920-yilning avgustida Sovet ittifoqida birinchi aholi ro'yxati o'tkazilganligi fakti bu tadbirning ahamiyatidan darak beradi, o'shanda aholi ro'yxati qishloq xo'jalik ro'yxati va sanoat korxonalarini qisqacha hisobga olish bilan o'tkazilgan edi. [4; 4] 1920-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati 1897-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatdan shu jihati bilan farq qilar ediki, uning so'rovnomasida nafaqat ona tili va millati balki savodxonlik darajasi hamda qaysi tillarda suhbatlasha oladi kabi qo'shimchalar kiritilgan edi [5; 3].

1926-yilning dekabridagi Butunittifoq aholi ro'yxati birinchi marta mamlakatning butun aholisini o'z ichiga qamrab olgan edi. [6; 3]. Shu ro'yxatni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish chog'ida mashhur statistiklar V.G.Mixaylovskiy bilan O.A.Kvitkin ishlab chiqqan ilmiy tamoyillar aholining mana shu va navbatdagi aholi ro'yxatlari uchun asos bo'lgan. 1926-yilgi ro'yxat ma'lumot olishning puxta o'ylangan usuli bilangina emas, balki aholining ijtimoiy tarkibi to'g'risida va oila haqida yig'ilgan ma'lumotlarning boyligi bilan ham ajralib turar edi. 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989-yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlarini o'rganish va tadqiq qilish bo'yicha yurtimizda ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar, jumladan, G.R.Asonov, I.R.Mullyadjanov, YU.V. Voronovskiy, T.S.Sepkovskaya, A.O'lmasov, N.Beknozov. T.X.Tashbayeva, M.D.Sovurovlar sermahsul ijod qilgan. Ammo, berilgan ma'lumotlar asosan sovetlar davrida tayyorlangan ularda bir qator mulohazali muammolar ham mavjud. Masalan, M. Vahobov 1926-yilgi ro'yxat natijalariga ko'ra O'zbekiston aholisi sonini 4445726 kishi [7,394], I.R.Mullyadjanov, YU.V. Voronovskiy, T.S. Sepkovskayalar 4660000 kishi [8, 14], G.R. Asonov 4600000kishi [9]. 1964-yilda nashr qilingan "Советский Узбекистан за 40 лет." statistik to'plamda 4460000 kishi [10], "Узбекистан за годы восьмой пятилетки (1966-1970 гг.)." qisqacha statistik to'plamida 4660000 kishi deb berilgan [11]. Demak, bu borada olimlarning fikrlari turlicha bo'lgan. Ammo, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivida saqlanayotgan ma'lumot bo'yicha 1926-yilda O'zbekiston aholisi Tojikiston ASSR bilan birgalikda 5274998 kishini tashkil qilib, O'zbekiston SSR hududida 4447555 kishi, Tojikiston ASSR hududida esa 827443 kishi yashayotganligi qayd qilingan [6; 3].

1926-yilgi aholi ro'yxati natijalariga ko'ra O'zbekiston SSRda yashayotgan aholining milliy tarkibi to'g'risida gap ketganda bu yerning tub yerli aholisi sifatida o'zbeklar bilan birgalikda O'rta Osiyo yahudiylari, eronli, qozoqlar, qoraqalpoqlar, qipchoqlar, qirg'izlar, quramalar, sartqalmiqlar, tojiklar, turkmanlar, turklar, Samarqand va Farg'ona turklari, uyg'urlar, yag'nob tojiklari kabi aholi ro'yxatga olingan. Yuqorida keltirilgan fikrimizni 1926 va 1939-yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati yakunlariga ko'ra O'rta Osiyoda yashayotgan respublikalar aholisi milliy tarkibining qiyosiy tahlilida ko'rish mumkin [8;15].

1926-yilga kelib O'zbekiston aholisi 1913-yilga nisbatan 6,7 foizga o'sib 294 ming kishi soniga ko'paygan. 1926 va 1939-yillar oralig'ida esa O'zbekiston aholisining umumiy soni 1780000 ming kishiga, shahar aholisining 475000 mingdan oshganini quyidagi ma'lumotdan bilib olish mumkin. [8, 18].

1-jadval

O'zbekiston aholisining umumiy soni va yashash hududlari

Yillar	Aholi soni	Shundan		Jami aholi foizda	
		Shahar aholisi	Qishloq aholisi	Shahar aholisi	Qishloq aholisi
1926-yil	4 660	1013	3647	22	78
1939-yil	6 440	1488	4952	23	77

Aholi ro'yxatlari tahlili o'sha davrda yaratilgan manbalarda millatlar haqidagi ma'lumotlar yetarli emasligini ko'rsatadi. Bor bo'lsa ham ularda respublikada asosiy ko'pchilikni tashkil qilgan millat vakillari haqidagi statistik ma'lumotlarga keng o'rin berilgan. Ularda O'zbekistonda 1926-yilda – 91 millat, 1939-yilda 100 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilganligi qayd qilingan. 1926-yilgi aholi ro'yxati ma'lumotlarida O'zbekiston SSR hududida 50,1 ming quramalar va 32,8 ming qipchoqlar ro'yxatga olingan. 1959-yilgi aholi ro'yxati o'tkazilgan vaqtda esa 105 nafar qipchoqlar ro'yxatga olingan bo'lib, ularning asosiy qismi o'zbek millati tarkibiga singib ketgan [8; 17]. 1937 yilning yanvarida yana bir bor aholi ro'yxati o'tkazilib uning tashkil etilishi qoniqarsiz deb topilgan. 1939-yilning yanvarida yangi ro'yxat o'tkazildi [12; 7]. 1939-yilgi aholi ro'yxati oldingilaridan ham yaxshi tashkil qilinib, ma'lumotlarning aniqligi va to'liqligi bilan ajralib turdi. Unda to'plangan ma'lumotlar 15 oy ichida tartibga keltirilib dastlabki natijalari e'lon qilindi. Ro'yxat tez va samarali yakunlanligi sababli hukumat tomonidan aholi ro'yxatida faol qatnashgan 149 kishini Sovet ittifoqining turli orden va medallari bilan mukofotlanishi uning ahamiyatidan darak berar edi [5; 5]. Ikkinchi jahon urushi boshlanganligi tufayli barcha ma'lumotlarni to'la-to'kis ishlab chiqish imkoni bo'lmadi.

Urushdan keyingi birinchi aholi ro'yxati 1959-yilda o'tkazildi [13; 3-26]. Uni o'tkazish uchun katta tayyorgarlik ishlari olib borildi. Hatto 1957-yilda o'tkazilgan butunittifoq statistiklarning yig'inida uni tashkil etish yo'llari, usullari va dasturi xususida gap bordi. Aholi ro'yxati munosabati bilan ittifoq bo'yicha yarim millionga yaqin kishilar targ'ibot va tashviqot ishlari bilan shug'ullandilar. Qariyb 650 ming kishi aholi ro'yxatini samarali tashkil etilishini ta'minlashga yo'naltirilgan shiorlar, varaqalar, kitoblar tarqatish ishlari bilan mashg'ul bo'ldilar. Mavzuga oid masalalar ommaviy axborot vositalari va televideniye orqali keng yoritilib borildi.

1959-yilgi aholi ro'yxati natijalari nafaqat sobiq SSSR aholisini, balki xorijiy davlatlar aholisini ham qiziqtirgan edi. Sababi, oldin o'tkazilgan ro'yxat bilan 1959-yilda o'tkazilgan ro'yxat oralig'i yigirma yilni tashkil qilib, ushbu yillar ichida Ikkinchi jahon urushi ham bo'lib o'tgan edi.

1939-1959-yilgi aholi ro'yxatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak ana shu 20 yil oralig'ida respublikamiz aholisi 1 mln 821 ming kishiga yani 28,2 fozga 1959-yildan 1970 yilgacha bu ko'rsatkich 3 mln 699 ming kishiga 45 foizga ko'paygan [8; 18].

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 1926-yildan 1970-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida O'zbekiston aholisi 7 milliondan ziyod kishiga yoki bo'lmasa 156,7 foizga ko'paygan. O'zbekiston aholisi sobiq ittifoq respublikalari orasida eng yuqori ko'rsatkichga ko'tarilib, 2,4 barobarga ortgan. Respublikamiz hududida ayrim millatlarning joylashishida ham ma'lum farqlar bo'lgan. Masalan, o'zbeklar Toshkent shahrida (37,1%), Toshkent viloyatida (42,6 %) va Qoraqalpoqiston respublikasida (30,3 %) aholining yarmidan kam. Qolgan barcha viloyatlarda o'zbeklar aholining asosan ko'pchiligini tashkil etgan. Xorazm (92,1%), Qashqadaryo (85,1%), Andijon (82,2%), Namangan (81,5 %) viloyatlarida o'zbeklarning salmog'i ayniqsa katta bo'lgan. Respublikamizda son va salmoq jihatdan ikkinchi o'rinda ruslar turgan, ular ko'proq shaharlarda (sanoat markazlarida) yashaganlar. 1970-yil ma'lumoti bo'yicha O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha ruslarning yarmidan ko'pi (57%), Toshkent shahri va Toshkent viloyatida, shuningdek Farg'ona (9,4), Buxoro (11,1 %), Samarqand (7,8 %) viloyatlarining shaharlarida yashaganlar. Respublikamizda boshqa millatlardan tatarlar deyarli hamma viloyatlarida, qozoqlar ko'proq Qoraqalpoqiston Respublikasi, Toshkent, Buxoro, Sirdaryo viloyatlarida, tojiklar Samarqand, Farg'ona, Namangan, Surxondaryo, Toshkent viloyatlarida istiqomat qilganlar [9; 122].

Arxiv manbalariga ko'ra, 1968-yilga kelib Sobiq ittifoq hududida har daqiqada o'rtacha 8 kishi tug'ilgan. Bu esa bir kunda ittifoq aholisi o'rtacha 6 ming kishiga ko'paydi degani. Shuningdek, har kuni 12 ming yigit-qizlar nikohdan o'tganlar. Ko'plab kishilar ish o'rinlarini almashishi va boshqa joyga ko'chib o'tishi natijasida ittifoq aholisining milliy va ijtimoiy tarkibi o'zgarib borgan. Yuqoridagi ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish uchun navbatdagi aholi ro'yxatini o'tkazish zarur edi [5, 3].

Navbatdagi aholi ro'yxati 1970-yilning yanvarida bo'lib o'tdi [14; 1-31]. Tashkiliy va metodik jihatdan u avvalgi ikki ro'yxatni eslatga ham, biroq ancha chuqur ma'lumotlar olindi. Ro'yxat mablag'larni tejash maqsadida jami aholini emas, balki uning 25 foizidan so'rash yo'li bilan olindi. Ro'yxat materiallarini ishlash paytida bir qancha texnik yangiliklar qo'llandi. Ya'ni uzoq muddatli demografik bashoratlarni ishlab chiqish uchun uning ma'lumotlaridan foydalanildi. 1970-yilgi aholi ro'yxati paytida ittifoqdosh respublikalar, o'lkalar, viloyat, tuman, shaharlar, shahar tipidagi aholi

turar joylari, qishloqlar, qishloq sovetlari aholisining milliy tarkibi, jinsi, yoshi, oilaviy holati, millati, tili, ma'lumoti, mashg'uloti kabi holatlarni o'rganishga bag'ishlangan eng to'liq ma'lumotlar olingan.

1970-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati paytida ittifoq bo'yicha 670 ming kishi ishtirok etdi. Shundan 540 ming nafari hisobchilar bo'lsa, 100 ming nafari instruktor-nazoratchilar edi. Yana 26 ming nafari davlat statistika boshqarmasi bo'lim boshliqlari va ularning o'rinbosarlari hamda 4 ming nafar shahar va tumanlar statistika bo'limlari xodimlari ishtirok etdilar. Ana shu aholi ro'yxatlarida qatnashganlar soni bo'yicha yurtimizning Samarqand viloyati misolida e'tiboringizni quyidagi ma'lumotlarga qaratmoqchimiz. 1959-yilda viloyat bo'yicha 2200 kishi ro'yxatga olishda qatnashgan. Ana shundan 500 tasi Samarqand shahrida faoliyat olib bordilar. 1970-yilgi aholini ro'yxatga olishda esa viloyat bo'yicha 3 mingta odam qatnashgan, ularning 2300 tasi hisobchilar edi [5; 7].

1979-yilning yanvarida navbatdagi aholi ro'yxati o'tkazildi. Unda savol-javob paytida qilingan yozuvlar maxsus o'qish qurilmalari yordamida EHMga kiritilib, magnit lentasiga yozib olindi. [15;11] Bu ham ana shu sohada qilingan yangiliklarning biri edi. O'zbekiston xalqlarinig keyingi yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatlaridagi ko'payishi sobiq ittifoq respublikalari ichida eng yuqori darajaga ko'tarildi [16;113].

Respublikaning eng ko'p sonli asosiy millati bo'lgan o'zbeklar bo'lib, ular aholining asosiy qismini tashkil etadi va O'zbekiston aholisida ularning salmog'i ro'yxatdan ro'yxatga ortib borgan. O'zbekistonda yashovchi qolgan barcha millatlar qariyb 20 yil ichida o'zlarining sonini ko'paytirganlari holda, respublika aholisida ularning salmog'i bir oz kamaygan. Bu o'rinda, ayniqsa, ruslar (13,5 foizdan 10,8 foizga), tatarlar (5,5 foizdan 4,2 foizga), yahudiylar (1,2 foizdan 0,6 foizga) tushib qoldi [17; 29]. Bu boshqa millatlarning respublika aholisidagi salmog'ining kamayishi, ular sonining o'smaganligi yoki kamayganligini ko'rsatmaydi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1970-1989-yillar oralig'ida O'zbekistonda yashovchi ruslar 180 ming kishi, tatarlar 82900 kishiga ko'paygan. O'zbek millatiga oid aholining umumiy aholi tarkibdagi ulushi 1970-yilda 65,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1989-yilga kelib 71,4 foizga ko'tarilgan. Yani 6 foizga oshgan.

Xullas, sovet hokimiyati yillarida O'zbekistonda olti marotaba aholi ro'yxati o'tkazildi Ammo, ro'yxatga olish yakunlarida to'plangan natijalar bo'yicha kelajakda aholining turar joy, ish o'rinlari, maktab, madaniy-maishiy binolar bilan ta'minlash borasida chora-tadbirlar amalga oshirilmadi. Natijada esa 1980-yillarga kelib respublikada inqirozli holat vujudga keldi. Odamlarni oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak bilan ta'minlashning o'zi ham muammoga aylanib qoldi. Respublikada eng ko'p sonli bo'lgan millat tili - o'zbek tilida nashr qilinadigan kitob, gazeta va jurnallarning soni respublika aholisi ehtiyojini qondirmadi. Xayriyatki, mustaqillikka erishganimizdan so'ng ana shunday holatlarga chek qo'yildi. Respublikada amalga oshirilib borilayotgan har bir islohotlar uzoqni ko'zlab, birinchi navbatda, aholining turmush farovonligini yaxshilash, mamlakatda yashayotgan turli millat vakillari manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lib ana shu maqsadda bir necha bor aholi ro'yxatlari o'tkazildi. Ushbu tadbirlarni o'tkazilishi va uning yakunlari bo'yicha kelajak rejalarining tuzulishi, albatta, mamlakat ravnaqiga katta hissa qo'shadi va uning dunyo mamlakatlari o'rtasida tutgan obro'-etiborini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar:

1. Асонов Г.Р. Дунё аҳолиси. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 4.
2. Социальная структура общества на территории Узбекистана: традиции и трансформации (конец XIX в. - 30-е годы XX в.) – Тошкент: Aloqachi, 2009. – С. 5-6.
3. Межнациональная толерантность в Узбекистане: история и современность. – Ташкент: Университет, 2004. – С. 70-81.
4. Волков А.Г. 1989 йилги Бутуниттифок аҳоли рўйхати. – Тошкент: Мехнат, Русча нашрдан таржима. 1988. – Б. 4-11.
5. Samarqand viloyat davlat arxivi. 1646 fond, 2 ro'yxat, 165 yig'ma jild, 3-5-7 varaqlar.
6. O'zR MDA fond № R 1619, ro'yxat № 11, 53 yig'ma jild 3 varaq.
7. Вахобов М.Г. Ўзбек социалистик миллати. – Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1960, – Б. 394, 481.
8. Мулладжанов И.Р., Вороновский Ю.В., Цепковская Т.С. Население Узбекской ССР. – Ташкент: Ўзбекистан. 1973. – С. 14-15-17-18; 112.
9. Асонов Г.Р. Аҳоли географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 73, 122.
10. Советский Узбекистан за 40 лет. Статистический сборник. – Ташкент: Ўзбекистан, 1964. – С. 11.

11. Ўзбекистан за годы восьмой пятилетки (1966-1970 гг.). Краткий статистический сборник. – Ташкент: Изд. ЦК КП Узбекистана, 1971. – С. 5.
12. O‘zR MDA fond № R 1619, ro‘yxat № 11, 53 yig‘ma jild 7 varaq.
13. O‘zR MDA fond № R 1619, ro‘yxat № 5, 293 yig‘ma jild 3-26 varaq.
14. O‘zR MDA fond № R 1619, ro‘yxat № 5, 419 yig‘ma jild 1-31 varaq.
15. Перепись населения Российской империи (1897). (Qarang: www.demoskop.ru).
16. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. – Тошкент: Шарк, 1999. – Б. 113.
17. Асонов Г.Р., Набихонов М. Ўзбекистон ССР нинг иқтисодий ва социал географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 29.

У. Худаяров

О ПЕРЕПИСИ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ПЕРИОД СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ

В научной статье кратко освещены переписи населения в Узбекистане и основной цели проведения переписи, а также вопросам роста и причин роста численности населения. Автор подробно изложил факты переписи населения в Узбекистане во времена Российской империи и Советской империи. Приведены очень ценные источники (факты) о различных методах проведения переписи населения и об ошибках и недостатках допущенных при проведении переписи населения.

Ключевые слова: миграция, списки населения, семейное положение, демографические отметки, вопросник, количество населения, этнический состав, комбинация.

U. Xudayarov

ABOUT THE CENSUS OF UZBEKISTAN POPULATION IN THE PERIOD OF SOVIET GOVERNMENT

In the scientific article special attention is given to the general census of population in Uzbekistan, to the main problems of making census of population as well as increase and reasons of population growth. The author demonstrated in details the facts of census of population in Uzbekistan in the period of government of the Russian Empire and the Soviet empire. There are presented valuable sources (facts) about different methods of census, mistakes and lacks found in census of population.

Keywords: migration, lists of population, marital status, demographic marks, questionnaire, quantity of population, ethnic content, combination.

UDK:316(5)

SHARQ IJTIMOIIY FIKRIDA HAMKORLIK G'OYASI: NAZARIYADAN
AMALIYOTGA**T. Matibayev***Sosiologiya fanlari nomzodi**Xalq deputatlari Toshkent shahar kengash Deputati*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunning muhim omili davlat va jamiyatning ijtimoiy hamkorlik g'oyasiga, fuqarolik jamiyatni shakllantirishda asos bo'lgan ma'rifiylikka va ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashga erishish to'g'risidagi orzu-istaklarni o'z ichiga olgan milliy g'oyaga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, O'rta Osiyoda sharq allomalarining ijtimoiy hamkorlikka oid qarashlari, fikrlari, ilmiy xulosalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy hamkorlik, fuqarolik jamiyat, komil inson, mutafakkirlar, qonuniylik, jadidlar, milliy qadriyatlar, xalqparvarlik, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, teng huquqlik, erkinlik.

Bugungi kunda ijtimoiy hamkorlik g'oyasi davlat va jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarini qamrab olmoqda, u fuqarolik jamiyatiga xos munosabatlarni shakllantirishning muhim omili bo'lib qolmoqda. Tabiiyki, ijtimoiy hamkorlik islohotlar strategiyasining yo'nalishlaridan biri sifatida davlat, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar tizimida alohida o'rin tutadi [1].

Ma'lumki, O'rta Osiyoda insonlar istiqomat qilishni boshlagandan buyon ijtimoiy hayot pok va tinch turmush tarziga asoslangan. Ular «o'rtasidagi munosabatlar ezgulik, yaxshilik, tinch-totuv yashash, farovonlikka intilish, yaqinlarga ko'mak berish, o'zini-o'zi boshqarish negizida barpo etilgan. Ushbu qoidalar faqat g'oya, ta'limot shaklida mavjud bo'lmasdan, qadimgi ajdodlarimizning turmush tarzida mujassamlangan» [2].

Fuqarolik jamiyatining ilk negizlari O'rta Osiyoda bundan uch ming yil avval mavjud bo'lgan zardushtiylik dini ta'limotlarida va uning muqaddas kitobi «Avesto»da o'z aksini topgan [3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, «Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz «Avesto»ning yaratilganiga 3000 yil bo'layapti. Bu nodir kitob bundan o'ttiz asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. «Avesto» ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi» [4].

«Avesto» diniy qoidalarini o'rnatish bilan birga, jamiyatda insonlarning o'zaro munosabatlari, yurish-turishini belgilovchi tub huquqiy va axloqiy g'oyalarni ham o'zida aks ettirgan. Zardushtiylik manbai inson farovonligini ta'minlash, komil insonni tarbiyalash, haqiqat, adolat, ezgulik va yaxshilik urug'ini sochish bilan bir qatorda, jamiyatni tanazzulga olib keladigan illatlarga, qora kuchlarga qarshi kurashni oliy maqsad qilib qo'yadi. U borliq dunyoning yaralish asoslarini yagona deb e'lon qilib, bu tizimga ko'rsatiladigan har qanday tazyiqni qoralaydi.

O'zbekistonga VIII asrning boshlaridan kirib kelgan islom dini va ta'limotining bosh g'oyasini inson va uning baxt-saodati tashkil etadi. Islom dinining muqaddas manbalarida jamiyat a'zolarining tengligi, hokimiyatning xalq manfaati yo'lida faoliyat ko'rsatishi, davlat boshqaruvida xalq ommasining fikrini inobatga olinishi, o'zini-o'zi boshqarish masalalari o'zining mujassam ifodasini topgan.

Qur'oni Karim va Hadisi sharifda jamiyatda insonlarning bir-biriga munosabati haqida ko'plab qaydlar mavjud. **“Biz sizlarni mukarram qilib yaratdik... Bir-biringizga do'st birodar qilib yaratdik”** – deyiladi. Shu bilan birga, Imom Buxoriy o'z asarlari va ta'limotida dinning axloqiy tomonlari va ta'sirini rivojlantirishga harakat qiladi. Uning butun musulmon dunyosida mashhur bo'lib ketgan asosiy asari “Al-Jome' as-sahih”da to'plangan hadislarining asosiy mazmuni islom dinida, Muhammad payg'ambarning kundalik faoliyatida axloqiy masalalarning nihoyatda muhim rol o'ynaganini isbotlaydi. Unda axloqning asosiy jihatlari – insonparvarlik, insoniylik, do'stlik,

hamkorlik, o'zaro yordam, sadoqat, mehribonlik, vijdonlilik, rahmdillik, poklik kabi xislatlar ota-ona, yor-birodar, qo'ni-qo'shni, bolalarga, mol-mulkka munosabat misollarida namoyon etiladi. Bir so'z bilan aytganda, Imom Buxoriy merosi musulmon mamlakatlarida islom dunyoqarashi va axloqi, insonparvarlikning keng tarqalishida katta ahamiyat kasb etdi.

Shunday qilib, islom ta'limotida inson kamoloti, adolat, ilmni egallash, fikr va e'tiqod erkinligi, bir-biriga ko'maklashish kabi fozil jamiyat g'oyalari mujassamlangan. Islom g'oyalarining keyingi taraqqiyotiga O'rta Osiyo mutafakkirlarining xizmati beqiyosdir.

Sharqda «Muallim us soniy» deb nom taratgan, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy (870-950) hozirgi davr uchun ham dolzarb bo'lgan, madaniy jamiyat va shahar ijtimoiy-siyosiy hayotining muhim tamoyillari – tenglik, erkinlik, ozodlik, kasb tanlash huquqi, tinchlik va osoyishtalik to'g'risidagi g'oyalarni ilgari suradi [5]. Forobiy ilk o'rta asr sharoitida birinchi bo'lib insonparvarlikka asoslangan ijtimoiy tuzum, davlatni boshqarish, insonlarni baxt-saodatga eltuvchi jamoa haqidagi ta'limotni olg'a surdi, barcha xalqlarning o'zaro yordam va do'stlik asosida yashashi xususida mulohaza yuritdi.

Yana bir ulug' donishmand Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048) ning ruhiy va moddiy ehtiyojlarning roli haqidagi fikri ham nihoyatda qimmatlidir. Mutafakkir jamiyat yuzaga kelishida kishilar moddiy ehtiyojining rolini alohida e'tirof etadi [6]. Beruniy inson va jamiyatning uyg'unligi, insonparvarlik, xalqparvarlik, insonning jamiyatdagi burchi, ijtimoiy adolat masalasini alohida tadqiq etgan mutafakkirlardan hisoblanadi.

Insonning jamiyatdan tashqarida mavjud bo'la olmasligini butun jahonda tibbiyot sohasida yetuk alloma sifatida tan olingan Abu Ali ibn Sino (980-1037) ham alohida ta'kidlagan. Inson o'ziga kerakli narsalarni faqat jamiyat yordamida qo'lga kiritishi mumkin [7]. Ibn Sino ta'kidicha, "O'zaro bog'liqlik va almashuv jarayonida insonlar bir-birlarini qandaydir muhtojlikdan xoli etadilar. Buning uchun insonlar o'rtasida o'zaro kelushuv zarur bo'lib, bu kelushuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o'rnatiladi" [8].

O'rta Osiyoda adolatli jamiyat, inson kamoloti va farovonligiga erishish, haqiqat va qonun ustuvorligini o'rnatishga qaratilgan g'oyalar «Temur tuzuklari»da mujassamlangan. Shuni muhimki, Amir Temur buyuk davlat arbobi sifatida nafaqat ushbu g'oyalarni ilgari surgan, shu bilan birga ularni hayotga tatbiq etishga muvaffaq ham bo'lgan [9]. Amir Temur «Kuch - adolatdadir» degan tamoyilga qat'iy amal qilgan. «Temur tuzuklari»da inson, jamiyat va davlat manfaatini uyg'unlashtirish, qonuniylik, haqiqat va adolatni ta'minlash, davlatni boshqarishda ko'pchilik fikrini inobatga olinishi to'g'risidagi g'oyalarning mujassamlanganligi beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy (1441-1501) fozil jamiyat va uning unsurlari to'g'risida boy ilmiy meros qoldirgan mutafakkirdir. Uning fozil jamiyat va ma'rifatli inson to'g'risidagi g'oyalari «Hayratul-abror», «Farhod va Shirin», «Sab'ai Sayyor», «Saddi Iskandariy», «Tarixi mulki Ajam», «Tarixi muluki Anbiyo va Hukamo» asarlarida mujassamlashgan. U insonni barcha mavjudotlardan ustun deb biladi. Navoiyning insonga muhabbati uning baxtli yashashi uchun munosib ijtimoiy muhit yaratish (ideal jamiyat qurish) zarurligini ham o'z ichiga oladi. Shoir o'z axloqiy va ijtimoiy ideallarini yuzaga chiqarishning asosiy vositalarini ilm-ma'rifat va axloqiy tarbiya, deb biladi.

XIX asr oxirlariga kelib adolatli jamiyat, inson erkinligi va huquqini ta'minlash, ijtimoiy hamkorlik masalalari jadidchilik harakati vakillari tomonidan rivojlantirildi. Jadidchilik XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O'rta Osiyo xalqlarini ma'rifatli qilish, jamiyat hayotida ijtimoiy, siyosiy va madaniy islohotlar o'tkazish, pirovarida, milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan harakat sifatida tarixiy vaziyat taqozosi bilan vujudga keldi.

Jadidlar va boshqa taraqqiyparvar kuchlar xalqparvarlik, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surib, jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy islohotlarni amalga oshirish, insonlarning teng huquqligi, erkinligi, fikr erkinligi, jamoatlarga uyushib, ijtimoiy hamkorlik asosida o'z manfaatlarini himoya qilish, demokratiya g'oyalarini ilgari surib, ularni hayotga tatbiq etish yo'lida faol sa'y-harakat ko'rsatganlar.

Ko'rinib turibdiki, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim o'rin tutuvchi ma'rifiylikka va ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashga erishish to'g'risidagi orzu-istaklarni o'z ichiga olgan milliy g'oya uzoq davom etgan tarixiy rivojlanishdan bizga yetib kelgan merosga asoslanadi. Sharq allomalarining ijtimoiy hamkorlikka oid qarashlari, fikrlari, ilmiy xulosalari nafaqat o'sha davr, balki

bugungi kun voqeligi, ijtimoiy hamkorlik munosabatlarini va uning o'ziga xos jihatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. –T.: O'zbekiston, 2000, 495-496-betlar.
2. Mamatov X. Huquqiy madaniyat va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish muammolari. Monografiya. – T.: YURIST-MEDIA MARKAZI, 2009. – B.27-28.
3. Avesto: Yasht kitobi. M.Is'hoqov tarjimasi. – T.: «Sharq», 2001. –B.3.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan qilgan suhbat // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. –T.: «O'zbekiston», 1999. 137-138-betlar.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. 2014. 187-bet.
6. Al-Beruniy. Tanlangan asarlar. 3-tom. – T., 1966. 80-bet.
7. Очерки истории общественно-философской мысли в Узбекистане. Т.: «Фан», 1977. 136-137 –стр.
8. Б.Э.Рыховский. Философские наследие Ибн Сины. Ж.Вопросы философии, 1955, № 5.
9. Mardiyev A. «Oliyjanoblik va qattiqqullik» - Amir Temur davrida huqukiy ong: bu zamonaviy davlatning istiqbolli asosi bo'la oladimi?//Amir Temur shaxsining zamondoshlari tomonidan baholanishi va faoliyatining mustaqil O'zbekiston uchun ahamiyati. Konferensiya haqidahisobot. Amir Temurning 660 yilligiga bag'ishlanganxalqaro simpozium materiallari (Samarqand, 1996 yil, 27-29 sentyabr. Toshkent, 1997. 70-bet.

ИДЕЯ СОТРУДНИЧЕСТВА С ВОСТОЧНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ: ОТ ТЕОРИИ К ПРАКТИКЕ

В этой статье особо рассматривается идея социального содружества государства и общества, идея просвещения, которая является основой формирования гражданского общества и национальной идеи. Также приводятся взгляды и научные выводы мыслителей Среднеазиатского региона о социальном содружестве.

Ключевые слова: социальное сотрудничество, гражданское общество, порядочный человек, мыслитель, закон, джадиды, национальные ценности, любовь к народу, духовность, равноправие, свобода.

THE IDEA OF COOPERATION FROM ORIENTAL SOCIAL POINT OF VIEW: FROM THEORY TO PRACTICE

In this article a special emphasis is done on the idea of social cooperation of the state and society, the idea of enlightenment, which is considered as a basic in the formation of civil society and national idea. Moreover, the ideas, views and scientific arguments of the scholars of Central Asia about the social harmony are noted.

Keywords: social cooperation, civil society, decent person, philosopher, law, djadids, national treasures, love to people, morality, equal right, liberty.

UDK:17:371.1

**YOSHLARNING AXLOQIY-KASBIY BUZILISHI VA UNI
BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI****J.Y.Yaxshilikov¹, N.E.Muhammadiev², R.M.Karimova**¹*Samarqand davlat universiteti professori, ²Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti dotsenti,*³*Navoiy Davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida kelib chiqayotgan ba'zi bir salbiy jarayonlar natijasida yoshlarning dunyoqarashi va xatti-harakatlarida sodir bo'layotgan axloqiy-kasbiy buzilishlarning paydo bo'lishi, ularni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi sabablar, obyektiv va subyektiv omillar tahlil qilinib, ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: bozor iqtisodiyoti, kasb axloqi, kasb madaniyati, axloqiy-kasbiy buzilish, kasbiy tanazzul, axloqiy tarbiya.

1. «Axloqiy-kasbiy buzilish» tushunchasi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlatni bunyod etish va fuqarolik jamiyatini qaror toptirish ishlari oson kechmasligi tabiiy. Bu jarayonning borishi, bir tomondan, mulkni xususiyashtirish ishlarini tez va soz o'tkazib, tejamkorlikka, sifatga asoslangan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni taqozo etsa, ikkinchi tomondan, odamlarda davlat mulkchilik hukmronligi yillarida shakllangan boqimandalik psixologiyasini tugatish bilan bog'liq qiyinchiliklarni yengishni ham talab qiladi.

Ushbu ishlarni amalga oshirishda bir qator iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy yetishmovchiliklar, ziddiyatlar bo'lishi aniq. Ana shu yetishmovchilik va ziddiyatlar mamlakatimiz ijtimoiy hayotining turli sohalarida mehnat va xizmat qilayotgan, turli xil o'quv maskanlarida ta'lim olayotgan ba'zi bir irodasi sust, e'tiqodi yo'q yoshlarni kasbiy tanazzulga duchor etishi mumkin.

Xo'sh, axloqiy-kasbiy buzilish deb nimaga aytiladi va u qanday sohalarida ko'rinadi?

Yoshlarining axloqiy-kasbiy buzilishi deb ularning ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan ma'naviy qadriyatlarda, mavjud qonun hujjatlari, nizom va buyruqlarda belgilab qo'yilgan axloqiy normalar, professional burch va vazifalarni bajarishda o'zlarining shaxsiy manfaatlarini jamiyat, davlat, xalq manfaatlaridan ustun qo'yib, suiiste'mol qilishlari, pora olish, kalondimog'lik, qo'pollik qilish, jinoyatni hisobdan yashirish kabi qonunga xilof xatti-harakatlarining majmuiga aytiladi.

Yoshlarining axloqiy-kasbiy buzilishini, uning kelib chiqish sabablarini tugatish yo'llarini tadqiq etish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunki yoshlar mamlakatimiz aholisining 60 % dan ko'prog'ini tashkil etgan holda bo'lg'usi barkamol avlodlarimiz sifatida faoliyat yuritir ekanlar, ularning har bir xatti-harakati odamlarning diqqat-e'tiborida turadi. Bitta yosh malakali xodimining qilgan xatosi, qo'polligi yoki pora olishi butun yoshlarimizni xalq oldida abgor qilishi, boshqa halol ishlayotgan yosh xodimlarning obro'siga putur yetkazishi mumkin. Shuning uchun ham kasbiy buzilishning oldini olish, unga yo'l qo'ymaslik bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

2. Axloqiy-kasbiy buzilishning tur va shakllari. Yoshlarning axloqiy-kasbiy buzilishining ikki turi mavjud: birinchisi – yosh xodimning tajribasizligi, qonun va buyruqlarni bilmasligi, qiyin sharoitlarda o'zini yo'qotib qo'yishi tufayli bo'ladigan kasbiy buzilish; ikkinchisi – mehnat va xizmat jamoat jamoalarida ishlab, tajriba orttirgan xodimlarning qonunlardagi ayrim kamchiliklarni anglab, hamma narsani tushungan holda, boylik orttirish maqsadida, ongli ravishda axloqiy yomonlikka yo'l qo'yishi asosida yuzaga keladigan kasbiy buzilish.

Yoshlar aholining turli qatlamlari bilan munosabatda bo'lar ekan, bir tomondan, har xil davlat hokimiyati va tashkilotlarining, shuningdek jamoat uyushma va birlashmalarining vakili sifatida ularga o'z ta'sirini o'tkazsa, ikkinchi tomondan esa, uning o'zi ham o'shalarining ta'siri ostida bo'ladi. Xuddi shu joyda axloqiy-kasbiy buzilish kelib chiqishi mumkin. Chunki ayrim yoshlar davlat hokimiyatining vakili sifatida fuqarolarga nisbatan o'ziga berilgan vakolatlar chegarasidan chiqib ketib, lavozimidan foydalanish; boshqa tomondan esa, o'zgalarning ta'siri ostida bo'lgan xodim ularning bergan va'dalari, poralari va boshqa xizmatlariga ishonib, o'z xizmat burchiga xiyonat qilishi mumkin. Ikkala hol ham axloqiy-kasbiy buzilishga olib keladi.

Yoshlarining axloqiy-kasbiy tanazzulga uchrashlariga ularning atrofini o'rab turgan jinoyat-chilar dunyosining ta'siri ham sabab bo'ladi. Odam o'ldirishlar, bosqinchilik, o'g'rilik, ig'vo, tuhmat, urush-janjallar ayrim yoshlarning ma'naviy-ruhiy holatiga salbiy ta'sir qilib, oxir-oqibatda uning xulqi

o'zgarishiga, kasbiy jihatdan buzilishiga olib kelishi mumkin. Undagi bunday buzilish ochiq yoki yopiq shakllarda namoyon bo'ladi.

Yosh xodimlarining har xil tartibbuzarlik va huquqbuzarlikning oldini olish borasida qo'llaniladigan usul va vositalaridagi xatolar, ayniqsa, qonundan chetga chiqib ketgan holda zo'rlik ishlatish, urish yoki haqorat qilishlari ham axloqiy-kasbiy buzilishning ko'rinishlari hisoblanadi.

Yoshlar xizmat qilayotgan jamoalardagi boshliq va bo'ysunuvchilar, kattalar bilan kichiklar o'rtasidagi ma'naviy-axloqiy muhitning qoniqarli emasligi ham kasbiy tanazzulga olib keladigan sharoitlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ular o'rtasidagi axloqiy munosabatlar xushomadgo'ylik, mansabparastlik, shaxsiyatparastlik asosida qurilgan ekan, u albatta axloqiy-kasbiy buzilishni keltirib chiqaradi. Demak, kasb madaniyatining past darajada rivojlanganligi tufayli, ko'pgina yosh xodimlar axloqiy-kasbiy tanazzulga yuz tutadilar.

Shunday qilib, yoshlarining axloqiy ongida, xatti-harakatlarida yuzaga kelgan buzilishlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- toshbag'irlik, odamlarga yuzaki munosabatda bo'lish, g'amxo'rlik va rahm-shafqatning yo'qligi;

- subutsizlik;

- g'irromlik, vijdotsizlik, shaxsga befarqlik, kasbiga sovuqqonlik bilan qarash;

- axloq prinsiplari (insonparvarlik, jamoachilik, vatanparvarlik) va normalarini (burch, vijdon, mas'uliyat, sha'n va qadr-qimmatlar) bila turib atayin buzish;

- kasbiy bilimlarining past darajada ekanligi;

- odamlarga muntazam ravishda shubha bilan qarash, o'ch olish payida bo'lish, zahrini sochish;

- o'ziga berilgan vakolatlardan mutlaqo noto'g'ri foydalanish, lavozimidan foydalanish va h.k.

3. Axloqiy buzilish sabablari. O'zbekiston xalqi ezgu niyatlar bilan ijtimoiy adolat, tenglik, barqarorlik va birodarlikka asoslangan jamiyat qurayotgan vaqtda uning bag'rida paydo bo'lib qolayotgan ba'zi bir illatlarni ham uchratamiz. Xo'sh, bunday salbiy hollarning kelib chiqish sabablari nimada? Bunga quyidagilar sabab bo'lmoqda:

Birinchidan, bozor iqtisodiyotini noto'g'ri tushunish, uni har xil yo'llar bilan boylik dangina iborat deb o'ylash, ana shu maqsadni amalga oshirish uchun ayrim badnafs fuqarolarning qonunga, umuminsoniy axloqqa zid harakatlar orqali mol-dunyo orttirishga intilayotganliklari kuzatilmoqda. Bu xususida I.A.Karimov: «Bugun shuni tan olishimiz kerakki, bozor iqtisodiyoti endi shakllanayotgan bir paytda ko'p salbiy oqibatlar yuzaga chiqmoqda. Eski tizim qonunlari ishdan chiqib, yangi tizim qonunlari yetishmasligi va hayotda ishga kirmaganligi poraxo'rlik, o'g'rilik, qalloblik illatlarining paydo bo'lishiga va kuchayishiga olib kelmoqda. Lekin bunday holat, qanday tizim hukmronlik qilishidan qat'iy nazar, avvalambor, ayrim kishilarning qonida bor nopokligi, firibgarligi, vatan va millat manfaatlariga befarq qarashi, bugungi va kelgusi avlodlar taqdiri uchun mas'uliyatsizlik, ochiqroq aytadigan bo'lsak, ularning ma'naviy qashshoqligi tufayli ko'zga tashlanmoqda»[1], – degan edi.

Shuning uchun ham bunday ijtimoiy illatlarning oldini olish yo'llari to'g'risida fikr bildirgan I.A.Karimov: «Bozor munosabatlariga o'tish – hayotiy yetuklik va sabr-matонатni sinovdan o'tkazuvchn o'ziga xos imtihondir. Bunda ma'naviy bo'shliqqa yoki ko'ngilga kelgan ishni qilaverishga berilishga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chinakam sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlari, bozor vositalari faqat yuksak ma'naviyat negizida, yuksak axloqlilik va vatanparvarlik negizlarida barpo etilishi mumkin. Aks holda boshboshdoqlik va tartibsizlik hukm suradi»[2], – deb uqtiradi. Darhaqiqat, jinoyatlar, poraxo'rlik va odamlarning ma'naviy tanazzulga yuz tutishi, ruhiy inqirozi bilan qorishib ketgan soxta bozorning vujudga kelishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Zero, «biz bu illatlarni deb mustaqillik va suverenitetga intilgan emasmiz. Mana shularni deb tub islohotlar yo'lga kirgan emasmiz» [3].

Ikkinchidan, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga ishonish yetishmaydi, yetarlicha murabbiylik qilinmayapti, ularning tashabbusini bo'g'ish hollari uchramoqda. Bu axloqiy yomonlik to'g'risida I.A.Karimov: «Men bir narsaga qattiq ishonaman: yoshlarda shijoat bor, yangilikka intilish bor, ixtiro qilishga, kashfiyot yaratishga ishtiyoq bor. Lekin ularning oldida katta bir to'siq turibdiki, bu to'siqni ba'zan zambarak o'qi bilan ham otib, qulatib bo'lmaydi. Bu to'siqning nomi byurokratiya, tamagirlik, mahalliychilik, urug'chilik.

O'sib kelayotgan yoshlarga quloq solishi, madad berishi lozim bo'lgan ko'p mansabdorlarda insof, diyonat yo'qligi ham shu to'siqning bir ko'rinishidir. Bunday odamlarning niyati aniq – besh-o'n yil amallab o'tirgan mansabini yo'qotmasa, mo'may maoshi va xufiya «shapka»sini olib tursa,

marra uniki – u yog‘i pensiya. Mustaqil davlatimizning bugungi bosh shiorlaridan biri – yurtim deb, elim deb yonib yashash undaylarning tushiga ham kirmaydi.

Oqibatda yangilik kurtakligidayoq nobud bo‘ladi va uni boshlagan yosh tadbirkorning hafsalasi pir bo‘ladi, taraqqiyoti, intilishi so‘nib qoladi»[4], - deb haq gapni aytgan edi.

Uchinchidan, qonunlarning o‘z vaqtida qabul qilinmasligi yoki qabul qilingan qonunlarning o‘z vaqtida hayotga tatbiq etilmasligi, natijada fuqarolarning axloqiy ongida ikkilanishlarning paydo bo‘lishiga hamda huquqiy madaniyatning shakllanishi past darajada qolib, ularning shu asosda har xil huquqbuzarliklar, qonunbuzarliklarni sodir etishlari.

«Huquqiy madaniyat darajasi, – deb yozgan edi I.A.Karimov, – faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma‘lumotlardan xabardor bo‘lishdangina iborat emas. U qonunlarga amal qilish va ularga bo‘ysunish madaniyati demakdir. U odil sudni hurmat qilish, o‘z haq-huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish ehtiyoji demakdir. Huquqiy madaniyat degani turli mojarolarni hal qilishda qonunga xilof kuchlardan foydalanishni rad etish demakdir»[5].

Yuqorida sanab o‘tilgan sabablar, albatta, yoshlarining xizmat faoliyatiga, turmush tarziga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi tabiiy. Bular yosh xodimlar axloqiy-kasbiy buzilishlarining tashqi sabablari, xolos. Uning tub sabablarini esa yosh xodimlarining xizmat faoliyatini tashkil etishda, boshqarishda, mehnat va xizmat jamoalarida axloqiy-ruhiy-ma‘naviy muhitda, tarbiyada yo‘l quyilgan kamchiliklardan izlash kerak.

Yoshlarning axloqiy-kasbiy buzilishining obyektiv va subyektiv sabablari bor.

Obyektiv sabablari quyidagilardan iboratdir:

- professional faoliyatning xususiyatlari, ya‘ni qiyin va xavfli sharoitlarda, favqulodda holatlar va ekstremal vaziyatlarda o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib, o‘limga tik qarab, jismoniy va ruhiy jihatdan zo‘riqib ishlashlari, ma‘naviy va ruhiy jihatdan o‘z qobiliyatini tiklab olish uchun vaqt etishmasligi;

- jinoyatchilar dunyosi – terrorchilar, ekstremistlar, aqidaparastlar va shu kabi unsurlarning salbiy ta‘sirini sezish va oqibatda ularga qo‘shilib ketish hollarining mavjudligi;

- ishni tashkil qilish va boshqarishda xato va kamchiliklar, ya‘ni hisobotlarning takomillashmaganligi, xizmat sohalari o‘rtasida birgalikda harakat qilishning yo‘qligi, miqdor ketidan quvish, haybarakallachiliklarning hamon uchrab turishi;

- birga ishlayotgan ba‘zi xodimlarning o‘z xizmat vakolatlarini suiiste‘mol qilishlari, ishga sovuqqonlik bilan yondashishlari, odamlarga nisbatan befarqlik, yuzaki munosabatda bo‘lishning yangi kelgan yoki vijdonli, mehnatkash va intizomli xodimga salbiy ta‘siri;

- rahbar xodimlar va bevosita boshliqlar tomonidan nazorat qilish ishlarining muntazam ravishda tashkil qilinmaganligi yoki to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi;

- operativ-texnika bilan yetarlicha ta‘minlanmaganlik, zarur asbob-uskunalar bilan jihozlanmaganlik;

- oilaviy munosabatlardagi va turmush sharoitidagi qiyinchiliklar;

- kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va tarbiyalashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va xatolar;

- xodimlarni tarbiyalash ishlarini amalga oshirishda hisob-kitobdan adashishlar, ya‘ni yuzaki yondashuvlarga yo‘l qo‘yishlar;

Yoshlarning axloqiy-kasbiy buzilishlarini keltirib chiqaruvchi *subyektiv sabablar* quyidagilardan iboratdir:

- 1) xodimlarning xizmat-kasb sohasidagi bilim darajasi nihoyatda pastligi va o‘z kasb mahoratini oshirishga urinmasliklari, o‘z ishiga tanqidiy nazarning yo‘qligi, to‘plagan arzimasi tajribasiga haddan tashqari ishonish va h.k.;

- 2) xizmat vazifasini bajarishga ma‘naviy-ruhiy jihatdan tayyor emaslik, o‘zini yo‘qotib qo‘yish, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olmaslik, bo‘shanglik, spirtli ichimliklar ichishga ruju qo‘yganlik va h.k.;

- 3) xizmat jamoasidagi axloqiy-ma‘naviy-ruhiy muhitning yomonligi, shaxs va jamoa o‘rtasidagi manfaatlar va maqsadlarning mushtarak emasligi;

- 4) xodimlar axloqiy, xizmat va irodaviy tayyorgarligining yetarli darajada emasligi;

- 5) xizmat jamoasi manfaatlarini mansabparastlik, guruhbozlik manfaatlaridan ajrata olmaslik;

- 6) xodimlarning o‘z ish vaqtlarini to‘g‘ri tashkil qila olmasliklari, jismoniy va ruhiy zo‘riqishlardan xalos bo‘lish usullarini bilmaslik, ishdagi va oiladagi tashvishlardan o‘zini xoli qilolmaslik va h.k.

Kasbiy buzilishning obyektiv va subyektiv sabablari o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Bir joydagi obyektiv sabab ikkinchi joyda subyektiv bo'lishi va, aksincha, bir joydagi subyektiv sabab boshqa bir joyda obyektiv bo'lishi mumkin.

Buning misolini huquqni muhofaza qiluvchi idoralarda xizmat qilayotgan yosh xodimlarning faoliyatida ko'proq uchratish mumkin. Ular tomonidan yo'l qo'yilgan subyektiv kamchiliklar boshqa yosh xodimlarga, qolaversa, boshqa fuqarolarga o'z ta'sirini o'tkazishi, ularning ongini zaharlashi mumkin. Bu to'g'rida I. A. Karimov: «Militsiya o'z burchini bajarmasa, bojxona xodimlari poraxo'r bo'lsa, prokuror zaif, o'yinchi bo'lsa, hokimlarning qulog'i kar, ko'zi ko'r bo'lsa, oddiy fuqaro kimga boradi? Uni kim himoya qiladi? Uning g'amini, tashvishini kim chekadi? Qani adolat, qani haqiqat? Shu ishni bajarmasa, yelkasiga pogon taqqanlar nega kerak.

Oddiy odamlar, xalq ana shu voqealarni, qing'irliklarni ko'radi-da, unda hammasi quruq gap, adolat yo'q, bo'lmagan va bo'lmaydi ham degan fikr tug'iladi. Eng yomoni shunda»[6], – degan edi.

4. Axloqiy-kasbiy buzilishlarni keltirib chiqaruvchi omillar. Yoshlarining kasbiy buzilishiga olib keluvchi obyektiv va subyektiv sabablardan tashqari bir qancha omillar ham mavjud. Bu omillar quyidagilardan iborat:

Yuridik omillar:

- ba'zi bir qonunlarning nomukammalligi;
- ish boshqaruvidagi noaniqliklar;
- xodimlarni boshliqlarning noto'g'ri topshiriq va buyruqlaridan himoya qiluvchi yuridik kafolatning yo'qligi.

Bu xususda I.A.Karimov:« Afsuski, ko'p holatlarda bu qonunlarga muvofiq belgilangan normalarni qanday vaziyatda qanday qo'llash lozimligini ko'rsatib beradigan huquqiy mexanizmlarni, qonunosti hujjatlarini, sodda qilib aytganda, qabul qilingan qonunlarni amalga oshirish mexanizmlarini aniqlab beradigan hujjatlarni qabul qilishni keyinga suramiz. Bunday tajriba shunga olib keladiki, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish, bozor islohotlarini chuqurlashtirish sohasidagi ko'pgina masalalar zarur va eng oddiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlanmay qoladi. Shu munosabat bilan Oliy Majlis, hukumat va qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan boshqa subyektlarning eng muhim vazifasi shundan iborat bo'lishi kerakki, ular qonunlar va ularni hayotga joriy etish mexanizmlarini har tomonlama puxta ishlab chiqishi zarur. Toki bu qonun va mexanizmlar hayotdagi aniq munosabatlarni keng miqyosda amalda tartibga solib borsin, bu munosabatlarda ishtirok etadigan har bir subyekt o'z o'rnini bilsin va o'z faoliyatida qonun talablariga asoslansin»[7],–degan edi.

Iqtisodiy omillar:

- aniq iqtisodiy rag'batlantirishning yo'qligi;
 - ish haqini to'lashdagi asossiz tenglashtirishlar;
 - unvonlar berish darajasining samarali emasligi;
 - ish vaqtida daromadni oshirish imkonining yo'qligi;
 - texnika bilan yetarli darajada ta'minlanmaganlik;
 - moddiy-texnika bazasining yo'qligi yoki eskirganligi.
- Tashkiliy omillar:*
- kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishdagi kamchiliklar;
 - rahbarlar tomonidan nazoratning yo'qligi;
 - ishni baholash mezonlarining takomillashmaganligi, hisob-kitob ishlarining yaxshi tashkil qilinmaganligi;

-xodimlarning malakasini oshirishga e'tibor berilmasligi;

-rahbarlarning ishga uning mohiyatini tushunmasdan asossiz ravishda aralashishlari.

Intellektual omillar:

- xodimlar bilimining yetishmasligi;
- huquqiy, axloqiy, siyosiy va umumiy kasbiy madaniyatning shakllanmaganligi yoki yetarli rivojlanmaganligi;

-qo'l ostidagilarni va o'z-o'zlarini tarbiyalashdagi kamchiliklar.

Ijtimoiy-ma'naviy-ruhiy omillar:

- rahbarlarning qo'polliigi va o'zini boshqara olmasligi;
- ijtimoiy guruhbozlik, milliy biqqlik;
- o'ziga haddan tashqari ishonish;
- takabburlik va mansabparastlik;
- o'zini o'zi nazorat qilishning past darajada ekanligi.

Yoshlarning axloqiy-kasbiy buzilishlarining tuzilishini kuzatadigan bo'lsak, uning *ochiq*, ya'ni ko'zga yaqqol tashlanib turadigan va *yopiq*, ya'ni ko'zga tashlanib turmaydigan shakllari ham mavjudligini ko'ramiz.

1. Kasbiy buzilishning *ochiq*, ko'zga tashlanadigan shakllari quyidagilardan iborat:

-o'zining tengdoshlariga va boshqa fuqarolarga nisbatan rahmsizlik qilish, g'ayriinsoniy munosabatda bo'lish, ya'ni urish, haqorat qilish, mansabidan foydalanish, xizmat axloqi prinsip va normalarini qo'pol tarzda buzish;

-haddan tashqari shubhalanish, ayblashga moyillik, o'z-o'zini tanqid qilishning yo'qligi;

-spirtli ichimliklar ichish, narkotik moddalar iste'mol qilish;

-nutq madaniyatining yetishmasligi, qo'pollik, har xil jargonlardan bo'lar-bo'lmasga foydalanish, ularni qo'llashda kamchiliklarga yo'l qo'yish;

-tashqi ko'rinishning xunukligi, kiyim-boshlarning iflosligi, soch-soqolning o'sganligi, aft-angorning ifloslanib, sovuq tus olganligi va h.k.

2. Yoshlarning axloqiy-kasbiy buzilishlarining *yopiq*, ko'zga tashlanmaydigan shakllariga quyidagilar kiradi:

-ish jarayonida xizmat mavqeidan o'zining g'arazli maqsadlarini amalga oshirishda foydalanish;

-turmushdagi axloqiy nopoklik;

-axloqiy-ma'naviy jihatdan qashshoqlanish;

-xizmat manfaatlarini noto'g'ri tushunish, ko'zbo'yamachilikka yo'l qo'yish;

-ta'magirlilik, poraxo'rlik;

-jinoyatchilar bilan til biriktirish, ularga qo'shilib ketish.

Kasbiy buzilishlarning ana shu barcha ko'rinishlarini, omillarini, obyektiv va subyektiv sabablarini to'liq hisobga olgan holda yoshlarning axloqiy-kasbiy buzilishlarining oldini olish va uni tugatish chora-tadbirlarini ko'rish zarur.

5. Axloqiy-kasbiy buzilishning oldini olish tadbirlari. Yoshlarning axloqiy-kasbiy buzilishlarining oldini olish asosan ikki yo'nalishda, ya'ni umumiy chora-tadbirlarni va bevosita chora-tadbirlarni qo'llash asosida olib boriladi.

Umumiy chora-tadbirlarga jamiyatdagi ziddiyatlarni tadrijiy yo'l bilan hal qilgan holda, yoshlar ongida qonunga itoatkorlikni, hayotning barcha jabhalarida qonunlarning ustunligini ta'minlash kabilar kiradi.

«Qonunning ustuvorligi, – deb yozgan edi I.A.Karimov, – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat'iyan hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo'ysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir»[8]. Shunday ekan, qonunga bo'ysunish yuksak huquqiy ongliklik, jamiyat va davlat manfaatlarini chuqur tushunib yetish, ijtimoiy burch, ya'ni o'z qilmishlari uchun davlat oldida javobgarlik tuyg'usi bilan uzviydir. Har bir qonunga itoatkor fuqaro qonunlarning talablari jamiyatning yuksak manfaatlarini ifoda etishini, huquqiy qonunlarga rioya qilish faqat xalq manfaatlariga emas, balki uning o'z manfaatlariga ham xizmat qilishini yaxshi tushunadi. Shu ma'noda, qonunlarga itoat qilishni xalq birligi va kuch-qudratining manbai deb atash mumkin.

Qonun odamlarni birlashtiradi, qonunlarni buzish esa huquqbuzarni qonun doirasidan tashqari chiqarib qo'yadi. Qonunga itoatkorlik aql-idrok, vijdon, ichki e'tiqod mahsuli bo'lib, insonning bunday olijanob fazilati har qanday sharoitda ham, har qanday yo'llar bilan quvvatlanishi, tarbiyalanishi va rag'batlantirilishi darkor.

Shunday qilib, kasbiy buzilishning oldini olishga qaratilgan tadbirlardan eng birinchisi, yoshlarni huquqiy tarbiyalash va shu asosda ularning huquqiy ongini o'stirib, huquqiy madaniyatini shakllantirishdan iborat.

6. Axloqiy tarbiya va uning usullari. Yoshlarni axloqiy tarbiyalash ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish ularning kasbiy buzilishlarining oldini oluvchi eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Yoshlarning axloqiy tarbiyasi deb ularda axloqiy bilimlar, ehtiyojlar, g'oyaviy-axloqiy ishonch, axloqiy his-tuyg'ularni shakllantirishga qaratilgan jarayonga aytiladi.

Axloqiy tarbiya ilmiylik, g'oyaviylik, haqqoniylik, maqsad va vositalarning mushtarakligi, voqelik bilan uzviy bog'lanish, ijodiy yondashuv prinsiplariga amal qilgan holda olib borilib, yosh xodimlarni axloqiy-kasbiy tanazzulga uchrashdan saqlab turadi.

Axloqiy tarbiya prinsiplaridan tashqari, axloqiy tarbiya metodlaridan o'z vaqtida unumli foydalanish kasbiy buzilishga yo'l qo'ymaydigan eng ishonchli omil hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya usullari deb yoshlarning ustoz va murabbiylari hamda jamoalari tomonidan axloqiy e'tiqodlarni, axloqiy his-tuyg'u va odatlarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining majmuasiga aytiladi.

Axloqiy tarbiya usullari jumlasiga ishontirish, rag'batlantirish va jazolash, shaxsiy namuna ko'rsatish, musobaqa-bellashuv, tanqid va o'z-o'zini tanqid kiradi.

Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) yoshlarni har qanday qiyin va xavfli sharoitlarda ham yuksak darajadagi axloqiy g'oyalarga, Vatanga sadoqatli bo'lish, xalqqa chin dildan xizmat qilish, insoniylik, adolatparvarlik, qonuniylik, jamoachilik, milliy g'urur, sha'n va qadr-qimmatni saqlash ruhida tarbiyalash;

2) axloqan pok, rostgo'y, sobitqadam, tashabbuskor, mas'uliyatli, mustaqil fikrlovchi mutaxassis xodimlarini tarbiyalab yetishtirish;

3) mard, jasoratli, tadbirkor, o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun qo'yishni xayoliga ham keltirmaydigan xodimlar avlodini vujudga keltirish;

4) yuksak darajadagi axloqiy-huquqiy madaniyat sohibi bo'lgan, kasb madaniyatining sir-asrorlarini puxta egallagan yosh xodimlarini kamol toptirish;

5) yuksak darajadagi professional bilimga ega, o'zining axloqiy-kasbiy burchini chuqur his qiladigan, yosh xodimlarni tarbiyalab yetishtirish va ularning qahramonligi, odamiyligi, insonparvarligi, xushmuomalaligi bilan faxrlanish mumkin bo'ladigan malakali mutaxassislarni tarbiyalash.

7. Estetik tarbiya va uning axloqiy-kasbiy buzilishning oldini olishdagi ahamiyati. Yoshlarning kasbiy buzilishlarining oldini olishdagi vositalardan biri ularni estetik tarbiyalashdir.

Estetik tarbiya deb insonni nafosat qonunlari asosida har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashga qaratilgan faoliyatga aytiladi. Estetik tarbiya yoshlarni go'zallik olami bilan oshno qilib, ularning axloqiy ongida vujudga kelgan har xil bo'lmag'ur fikrlarni chiqarib tashlashga, unda hayotga bo'lgan qiziqish, zavq-shavq bilan yashash orzu-umidlarini kuchaytirish ishiga xizmat qiladi.

Kasbiy buzilishning oldini olishda estetik tarbiyaning bir qancha omillaridan foydalaniladi.

Bunday omillar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. *Ijtimoiy munosabatlar omili* – bu odamlar, jamoalar o'rtasidagi bir-birlariga bo'lgan diqqat-e'tibor, dilkashlik, xushchaqchaqlik, kulgi, hazil-mutoyibalardan iborat bo'lib, ular odamdagi tushkunlik kayfiyatini yo'q qilib, ko'ngilni ko'taradi, quvontiradi, ishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi.

2. *Tabiat omili* – bu tog'larning ulug'vorligi, sharsharalar, gullar, bog'-rog'lar, moviy dengizlar, sayroqi qushlar, serjilo baliqlar kabi tabiat go'zalliklari bilan oshno bo'lish, tabiat bag'rida dam olish. U kishiga shavq-zavq, charchagan tanaga, toliqqan miyaga orom, rohat berib, odamni osoyishta hayot quchog'iga qaytaradi, miyadagi har xil g'uborlarni chiqarib tashlashga xizmat qiladi.

3. *San'at omili* hisoblanmish yaxshi kuy, qo'shiq, serjilo raqs, kino, arxitektura yodgorliklarini tomosha qilish asablarga dam beradi, voqelikdagi go'zalliklarni ilg'ab olishga, mazmundor hayot quchog'iga qaytishga undaydi, yangidan-yangi qahramonliklarga chorlaydi.

4. *Atrof-muhitni estetik jihatdan tashkil etish omili* o'z ichiga yangi zamonaviy uslubda qurilgan binolarni, yuksak estetik did bilan jihozlangan ish joylarini, unumli mehnat qilish uchun did bilan bezatilgan va qulay mehnat vositalari – radio, televideniye, kompyuter kabi asbob-uskunalarni hamda xodimlarning dam olishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar – bog'lar, dam olish uylari, chiroyli choyxona va oshxonalar, ko'llar, istirohat bog'lari, sayilgohlarni o'z ichiga oladi. Bu yerlarda ishlagan, dam olgan yosh xodimlarning miyasidan har xil bo'lmag'ur fikrlarning ko'tarilishi tabiiy.

8. Axloqiy-kasbiy buzilishning oldini olishda qo'llaniladigan maxsus tadbirlar. Yoshlarning axloqiy-kasbiy buzilishlarining oldini olishga qaratilgan mazkur harakatlardan boshqa aniq chora-tadbirlar ham mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. *Professional faoliyatni tashkil etish sohasida:*

-har bir xodimni tanlab olishda va ishga tayinlashda ularning qiziqishlarini inobatga olish;
-xodimlarga aniq vazifalar, topshiriqlar berish, ularning bajarilishi uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rish;

-odamlar bilan muntazam ravishda yakka tartibda tarbiyaviy ishlar olib borish;

-xodimlarga fuqarolar bilan muomala qilish madaniyatini, ruhiy aloqa o'rnatish mahoratini o'rgatish;

-xizmat vazifasini bajarishda ishga ijodiy yondashuvchi, chigal masalalarning yechimini tezlikda topuvchi, muammolarni hal qilishda ilm-fan yutuqlarini o'rganib, ulardan unumli foydalanuvchi xodimlarni taqdirlash, izzat-hurmatini joyiga qo'yish;

-qo'l ostidagilarni o'z ishini o'zi tahlil qilishga, o'zini o'zi nazorat qilishga o'rgatish;
 -xodimlar bo'sh vaqtlaridan samarali foydalanishlari, oilasi tinch, hayoti sermazmun bo'lishi uchun ular haqida tinmay g'amxo'rlik qilish;
 -o'zgalarga ruhiy ta'sir o'tkazish usullarini amalda qo'llashni o'rgatish orqali yosh xodimni janjalli va qo'rqinchli holatlarda ishlashga ruhiy jihatdan tayyorlash ishlarini amalga oshirish;
 -jismonan chiniqtirish va chidamliligini oshirish.

2. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish sohasida:

-xodimlarda ilmiy dunyoqarash, axloqiy-huquqiy e'tiqod, g'oyaviy-siyosiy madaniyat va irodaviy xislatlarni, qisqacha aytganda, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish;
 -ularni tanqid va o'z-o'zini tanqid ruhida tarbiyalash;
 -iroda va xarakter kuchini chiniqtirish;
 -jinoyatchilar dunyosining ta'siriga qarshi tura olish qobiliyatini hosil qilish;
 -xizmatda va turmushda shaxsiy namuna orqali ta'sir ko'rsatish;
 -tarbiyalash jarayonida o'rgatish va majburlash, rag'batlantirish va jazolash usul va vositalaridan unumli foydalanish;
 -jamoadagi sog'lom ruhiy muhitni vujudga keltirish;
 -qo'l ostidagilarning yashash sharoitlari, dam olishini yaxshilash borasida g'amxo'rlik qilish;
 -tarbiyaning barcha turlarini, usul va vositalarini, prinsiplarini birga qo'shib olib borish, ayniqsa, huquqiy va axloqiy tarbiyaning uzviy birligiga asosiy e'tiborni qaratish;
 -xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlarini va tili bilan bog'liq qadriyatlardan tarbiya jarayonida milliy g'ururni o'stirish va milliy ongini shakllantirishda unumli foydalanish.

Yuqorida belgilangan chora-tadbirlar bilan bir qatorda yoshlarning axloqiy-kasbiy buzilishlarining oldini olishda oilada axloqiy muhitning o'rni beqiyos ekanligi haqida to'xtalar ekan I.A.Karimov:« ... bir qarashda arziyas narsadek tuyuladigan, lekin hayotda katta ahamiyatga ega bo'lgan muhim bir masalaga alohida to'xtalish joiz. Ya'ni, oilalarimizda sog'lom ma'naviy muhitni tashkil qilish, xususan, er-xotin, ota-ona va farzandlar, qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlar, qo'shnichilik munosabatlarining o'zaro hurmat, mehr-oqibat ruhida bo'lishiga erishish – bu yurtimizdagi tinchlik-osoyishtalik va ahillikni yanada mustahkamlashning eng muhim sharti ekanini doimo esda tutishimizni istardim»,– degan edi.

Bugungi kunda yoshlarni har xil buzg'unchi g'oyalar, xatti-harakatlar ta'siri natijasida yuzaga kelayotgan axloqiy-kasbiy buzilishlarining oldini olish nafaqat davlat muassasalarining ishi, balki ota-ona, mahalla-kuy, ustoz-murabbiy, barcha hayotning sir-sinoatlarini anglab etgan holda mamlakatimiz mustaqilligini oliy saodat deb biladigan barcha fuqarolarning muqaddas burchidir. Chunki, mustaqil ona-Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qiladigan aqli raso, bilimli, zukko, o'z kasbini puxta egallagan yoshlarning shijoatli kuch g'ayratisiz xalqimiz o'z oldiga qo'ygan buyuk maqsadlarga erisha olmaydi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari // Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: O'zbekiston, 1996. – B. 22, 37, 275, 276.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari // Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: O'zbekiston, 1996. – B. 275.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari // Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: O'zbekiston, 1996. – B. 276.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari // Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: O'zbekiston, 1996. – B. 37.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari // Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: O'zbekiston, 1996. – B. 22.
6. Karimov I.A. Vatan, el manfaati – muqaddasdir // Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: O'zbekiston, 1996. – B. 66-67.
7. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat// «Xalq so'zi» gazetasi, 2015 yil 6 dekabr.
8. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li // Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996. – B. 321.

**Ж.Я. Яхшиликов, Н.Э. Мухаммадиев,
Р.М. Каримова**

**МОРАЛЬНО-ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ
ДЕФОРМАЦИЯ МОЛОДЁЖИ И МЕРЫ ИХ
ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ**

В статье рассматривается возникновение у молодёжи некоторых морально-профессиональных деформаций в период перехода на рыночную экономику, внутренние и внешние причины, анализируются объективные и субъективные факторы, а также меры преотвращения этих случаев.

Ключевые слова: рыночная экономика, профессиональный мораль, профессиональная культура, морально-профессиональная культура, морально-профессиональная деформация, нравственное воспитание.

**J.Y. Yaxshilikov, N.E. Muxammadiyev,
R.M. Karimova**

**THE MORAL DEFORMATION OF
YOUTH AND THE WAYS OF ITS
SOLUTION**

The scientific article investigates appearing of some moral-professional deformation of youth during the process of market economy and internal and external reasons, analyzes objective and subjective factors, measures of their prevention.

Keywords: marker economy, professional behavior, professional culture, moral-professional culture, moral-professional deformation, moral education.

UDK: 1:371.01

**YOSHLAR IDEOSFERASI SHAKLLANISHI JARAYONINI
O'RGANISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI**

N.E.Saliyeva

O'zbekiston Milliy Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga doir siyosatga hukumat darajasida e'tibor qaratilayotgani, bunda qabul qilingan dasturlar doirasida ulkan ishlar amalga oshirilayotgani, bugungi yoshlarni millat ruhiga mos va vatanparvar qilib tarbiyalashda yoshlarning o'ziga xos ideosferasini shakllantirish masalasi muhim ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-falsafiy masala ekanligi, bu esa o'z navbatida yoshlarni mafkuraviy va g'oyaviy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishi bilan bog'liq masalalar ilmiy-amaliy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: ideosfera, yoshlar ideosferasi, shakllanish, yodhlar.

Hozirgi davrda yurtimizda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, bunyodkor g'oyalar asosida shakllangan yoshlarning manfaat va ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada yoshlarning jamiyat hayotidagi o'rni va imkoniyatlarini oshirish, ularni siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga yanada kengroq jalb qilish, islohotlardagi faolligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda yoshlar, alohida ijtimoiy demografik qatlam sifatida, jamiyatimiz hayotining faol sub'ektiga, amalga oshirilayotgan islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylanib borayotgani shubhasiz. Xuddi ana shu omilni nazarda tutib, Prezidentimiz I.A.Karimov: «Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi. Bugun yoshlarning jamiyat hayotidagi o'rni va mavqeini yanada yuksaltirish o'ta muhim masaladir. Faqat ana shunday asosda yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoiy va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin» deb ta'kidlagan edilar. Shu munosabat bilan, hozirgi davrda o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy olami, jumladan unga ta'sir ko'rsatadigan g'oyaviy omillar dialektikasini tahlil qilish va shu asosda mavjud muammolarni chuqur o'rganish hamda ularning adekvat echimlarini topish ehtiyoji tobora ortib bormokda.

Butun dunyoda, jumladan bizning mamlakatimizda ham mazkur sohadagi jarayonlarni chuqur va har tomonlama o'rganish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Bu esa quyidagi umumiy tendensiyalar bilan belgilanadi:

1) hozirgi davrga kelib, yoshlarning butun jamiyat taraqqiyotini belgilaydigan, turli yangilanishlar va islohotlarni amalga oshiradigan, ularning pirovard natijalaridan eng ko'p manfaatdor bo'ladigan faol ijtimoiy sub'ekt va etakchi kuchga aylanayotgani bugungi jahon taraqqiyoti va insoniyat sivilizatsiyasining umumiy qonuniyati ekanligi ko'pchilik tomonidan e'tirof etilmoqda;

2) har qanday jamiyatdagi yoshlar qatlamining bilimi va malakasi, intellektual qobiliyatlari, ma'naviy va ruhiy barkamollik darajasi kabi ijtimoiy sifatleri nafaqat butun dunyo va umuminsoniyat, balki alohida mamlakat va muayyan xalq rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda;

3) globallashuv va axborot kommunikatsiyalarining ahamiyati, turli g'oyaviy tahdid va axborot xurujlari bilan bog'liq xavf-xatarlar tobora ortib borayotgan bugungi kunda yoshlarning hayotiy ideallari, qiziqish va intilishlari, ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasi ko'p hollarda mamlakat xavfsizligi va jamiyat hayotining barqarorligini belgilaydigan muhim omillardan biriga aylanib bormoqda;

4) bunday sharoitda har bir xalqning yosh avlodga munosabati, muayyan mamlakatning yoshlarga doir siyosatini belgilash va amalga oshirishda milliy manfaatlariga sodiq, yuksak ma'naviyat tamoyillari asosida tarbiyalangan, zamonaviy bilimlarning asoslarini egallagan, davr talablarini yaxshi anglaydigan, faol va omilkor, hushyor va fidoiy insonlarni tarbiyalash ustivor ahamiyat kasb etmoqda.

Ana shu tendensiyalar ta'sirida o'tgan asrning o'rtalarida qator rivojlangan davlatlarda yoshlarga doir siyosat mustaqil faoliyat yo'nalish sifatida e'tirof etildi. 1985-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Samarali yoshlar siyosatini shakllantirishning asosiy qoidalari to'g'risida" rezolyusiya qabul qilinishi ana shu jarayonning mantiqiy davomi bo'ldi va bu boradagi masalalarning nihoyatda muhimligini yana bir bor namoyon qildi. Bu esa jahon mamlakatlarining milliy manfaatleri va taraqqiyot tamoyillariga mos yoshlar siyosatini amalga oshira boshlashi uchun asos bo'ldi, deyish mumkin.

O'zbekistonning butun jahonda yoshlar qatlamiga yangicha munosabat shakllanayotgan aynan shu davrda mustaqillikka erishishi mamlakat hayotining barcha sohaları qatori, bu borada ham davlatimizning yoshlarga doir siyosatida muhim bosqichga aylandi. Davr talabidan kelib chiqib yurtimizda yoshlar muammosiga alohida ahamiyat qaratildi, ularning manfaat va ehtiyojlarini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq, ya'ni, 1991-yilning 20-noyabrida sobiq ittifoq respublikalari orasida birinchilardan bo'lib, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinganligi buning yaqqol dalilidir.

Bu yo'nalishda 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida respublikamiz yoshlarining huquqlari va faoliyat kafolatlari belgilab qo'yilganini, unda barcha fuqarolarga taalluqli qoidalar bilan birga, aynan yoshlarga tegishli bo'lgan me'yorlar ham mavjudligini alohida qayd etish lozim. Jumladan, 41-moddada: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir"; 45-moddada: "Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir"; 64-moddada: "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlirlar"; 117-moddada: "O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar" kabi me'yorlar belgilab qo'yilgani bejiz emas.

Alohida ta'kidlash joizki, istiqlolning dastlabki yillarida qabul qilingan ushbu tarixiy hujjatlar avvalo, mamlakatimiz uchun yoshlar qatlamining jamiyatdagi o'rni va mavqeyining tobora ortib borishi bilan bog'liq jarayonning yurtimiz taraqqiyotiga xos asosiy xususiyatlardan biri ekanligini chuqur anglab olinganidan dalolat bersa, ikkinchidan hayotning barcha sohaları kabi bu borada ham bosh islohotchi bo'lgan davlatimizning yoshlar masalasiga doir siyosatining strategik yo'nalishlarini mustaqil taraqqiyotimizning avval-boshidanoq to'g'ri belgilab olganligini yaqqolroq namoyon qiladi.

Mazkur tarixiy hujjatlarga ko'ra, istiqlol yillarida mamlakatimizda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning zamon talablari aks etgan ideosferasini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish bilan bog'liq jarayonni tahlil qilish, bu borada quyidagi ustuvor vazifalarni bajarishga alohida e'tibor qaratilganidan dalolat beradi:

- xalqimizning buyuk kelajagini barpo etish yo'lida yoshlarning ma'naviy, ma'rifiy va ijodiy imkoniyatlarini yanada to'laroq namoyon etishlari, ularning hayotiy maqsad-muddalari va ideallariga erishishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida jismoniy baquvvat va ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashga doir faoliyat va chora-tadbirlarni yuksak talablar darajasida tashkil qilish, ularni moddiy va ma'rifiy jihatdan ta'minlash;

- ushbu yo'nalishdagi ishlarga doir qonunchilik asoslarini muttasil takomillashtirib borish, bu borada yoshlar qatlamining huquqlari va faoliyat me'yorlarini belgilashda ularning manfaatleri, qiziqish va ehtiyojlarini ta'minlashga yanada ko'proq e'tibor berish;

- bu borada davlat tashkilotlari va boshqaruv tuzilmalari tomonidan belgilangan chora-tadbirlarni hozirgi yangilanish va islohotlar jarayoniga mos ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirish, mazkur sohada yoshlar bilan ishlaydigan nodavlat tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlari tarmog'ini faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish;

- bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga daxldorlik tuyg'usini oshirish va mustahkamlash, bu boradagi faoliyat tizimi doirasini kengaytirish va takomillashtirish, uning yoshlar tarbiyasidagi faoliyatini yanada kuchaytirishning samarali yo'llari, usullari va vositalarini izlab topish;

- yosh avlodning jismoniy va ma'naviy kamoloti, ushbu qatlamni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy jihatdan himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq muammolarini hal etishga ularning o'zlarini yanada ko'proq jalb etish, bu borada zarur bo'lgan tashkilotchilik va tashabbuskorlik malakasi va ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor berish.

Ushbu vazifalarni hal qilishda Prezident I.A.Karimovning demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan yangi avlodni voyaga etkazish, ular faoliyatida Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va Xalq farovonligi uchun mas'uliyat hissini oshirish to'g'risidagi konseptual g'oyalari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, "Ideosfera" tushunchasiga nisbatan alohida ta'kidlash joizki, bu borada bizning mamlakatimizda haligacha maxsus tadqiqotlar olib borilmagan. Mavjud tadqiqot ishlarida ham "yoshlar ideosferasi" tushunchasi, uning namoyon bo'lish shakllari va o'ziga xos xususiyatlari bevosita o'rganilmagan.

Shu sababli ham mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va jamiyat hayotini modernizatsiyalash davrida "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili asosida olib borilayotgan bunyodkorlik faoliyati jarayonida yosh avlod ideosferasini samarali shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish masalasini bevosita ilmiy izlanish mavzusi sifatida tadqiq etish, bu sohada amaliyot uchun zarur bo'lgan xulosa va takliflarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu vazifalarni bajarish bilan bog'liq faoliyatni samarali tashkil qilish o'z navbatida, bir qator ishlarni amalga oshirishni taqazo qiladi albatta. Ular orasida avvalo, "yoshlar ideosferasi" tushunchasining mazmun-mohiyatini falsafiy tavsiflash, unga xos jihatlarni ifodalaydigan yaxlit ilmiy ta'rifni ishlab chiqish bilan birga, yoshlarning jamiyatdagi alohida ijtimoiy qatlam sifatidagi o'rni va ahamiyati bilan uzviy bog'liq ideosferasining namoyon bo'lish shakllari va o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish qiziqarlidir.

Shu bilan birga, bugungi kunda yosh avlod ideosferasini takomillashtirish jarayonining samaradorligini ta'minlashning demokratik omillari ta'sirini oshirish, uning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash bilan bog'liq faoliyatni ilmiy jihatdan tadqiq qilish jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida yoshlar ideosferasini samarali shakllantirishga doir dolzarb muammolar va ularning yechimlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida, yoshlarning yuksak ma'naviy qiyofasi va uning tarkibiy qismi bo'lgan ideosferasini samarali shakllantirish, ularning yangilanish va islohotlar jarayonidagi mas'uliyatini oshirishda umuminsoniy tamoyillar va milliy qadriyatlarning o'rnini ko'rsatish imkonini yaratadi.

Alohida ta'kidlash joizki, mazkur yo'nalishlarda istiqloqlning dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirilgan serqirra faoliyat bugungi kunga kelib o'z samalarini bermoqda. Barcha yoshlarga nisbatan millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma'lumoti va e'tiqodidan qat'iy nazar, g'amxo'rlik qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoyalash, milliy-madaniy an'analarning avloddan avlodga o'tishi, avlodlarning ma'naviy aloqalarini ta'minlash, yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, jamiyat va yoshlar hayotiga oid siyosat va dasturlarni amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishini ta'minlash kabi sohalarda ulkan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, yurtimizda demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash jarayonida yoshlarning o'rni va ular faoliyatining ahamiyatini yanada oshirish, bu borada yetishib kelayotgan yangi avlodning qiziqish va intilishlarini hisobga olish, shu asosda shakllanayotgan yoshlar ideosferasida Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va Xalq farovonligi g'oyalarining ustivorligini ta'minlashga erishish vazifalari o'z dolzarbligini saqlab qolaveradi. Shunday ekan, ana shu jarayonning turli xususiyatlari, unga ta'sir etadigan xilma-xil omillarni tahlil qilish, bu boradagi

samarali yo'llar va usullarni izlab topish nafaqat nazariya, balki amaliyot uchun ham muhim ahamiyat kasb etayotgani shubhasiz. Bularning barchasi esa, o'z navbatida, shu sohada izlanishlar olib borayotgan barcha mutaxassislar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 127
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010.

Н.Е. Салиева ВАЖНОСТЬ И ЗНАЧИМОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ ИДЕОСФЕРЫ МОЛОДЕЖИ	N.E. Salieva THE IMPORTANCE AND SIGNIFICANCE OF STUDYING THE PROCESS OF YOUTH IDEASPHERE FORMATION
В статье с научно-практической точки зрения освещаются идейные и идеологические вопросы воспитания молодёжи страны, социально-политические и научно-философские проблемы формирования идеосферы молодёжи необходимые для эффективности воспитания в духе патриотизма и верности национальной идее. Ключевые слова: идеосфера, идеосфера молодёжи, формирование, молодёжь.	This article enlightens from the scientific-practical point of view idea and ideological questions of spiritual education of youth of our country, social-political and scientific-philosophical problems of formation of the ideasphere of youth, necessary for effectivity of education in the spirit of patriotism and national idea. Keywords: ideasphere, ideasphere of youth, formation, youth.

UDK-577.4+34+008+37

O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK HUQUQIY ONGNI SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

H.A.Djurakulov

Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi, E-mail: djurakulov-84@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, ekologik tanglikdan chiqish va odamlarda ekologik ong, ekologik huquq va ekologik madaniyatni shakllantirish, shuningdek, inson-jamiat-tabiati tizimida muayyan uyg'unlikka erishishda ekologik huquqiy ongni yuksaltirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekologik ong, huquq, madaniyat, tanglik, ta'lim, inson-jamiat-tabiati munosabatlari.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar hayotimizning barcha sohalarini to'liq qamrab oldi. Jumladan, mustaqillik yillari mobaynida inson - jamiyat - tabiat tizimida muayyan uyg'unlikka erishish, fuqarolarning qulay tabiiy atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va eng muhimi jamiyatda ekologik huquqiy ongni yuksaltirish borasida muayyan yutuqlarga erishildi.

Shu bilan birga, respublikamizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, bozor munosabatlarining chuqurlashuvi va tabiat resurslaridan jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida iste'mol qilish hajmining kengayishi hamda ayrim fuqarolarda tabiatga nisbatan nigilistik munosabatlarning mavjudligi jamiyat ekologik huquqiy ongini yuksaltirishga qaratilgan faoliyatni muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Binobarin, bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri sifatida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning tizimlilikini, muntazamliligini va eng muhimi, uning muvaffaqiyatini ta'minlashdagi asosiy omillardan biri, ya'ni, fuqarolarning huquqiy, shu jumladan, ekologik huquqiy ongi va madaniyatini mazkur jarayonlarga mos holda rivojlantirib borish ekanligini qayd etish lozim.

Fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini zamon talablari asosida yuksaltirishning muhimligiga alohida e'tibor qaratar ekan, respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov bu borada jumladan, "odamlarni huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy bilimlar bilan qurollantirish asosiy vazifalardan biri bo'lishi shart. Toki jamiyatning har qaysi a'zosi o'z huquqi, o'z burchi va mas'uliyatini puxta

bilmas ekan, bizning islohot, yangilanish haqidagi barcha soʻzlarimiz, sayʼi-harakatlarimiz besamar ketaveradi[1]”, - deb taʼkidlaydi.

Shu jihatdan olganda, respublikamiz Prezidenti tomonidan belgilab berilgan mazkur vazifalarni amalga oshirish barobarida, fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish bilan bogʻliq faoliyat yoʻnalishlarining huquqiy asoslarini mustahkamlab beruvchi bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Fuqarolarning ekologik huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va tashkiliy-texnik jihatlariga oid muayyan mexanizmlar yaratildi. Shu bilan birga, bugungi kunda ekologik tanglikni bartaraf etish hamda atrof-tabiiy muhit muammolarini izchillik bilan hal qilish uchun yangicha va toʻlaqonli huquqiy dunyoqarash zarur. Chunki odamlarda yangicha va toʻlaqonli huquqiy dunyoqarash shakllanmas ekan iqtisodiyot va ekologiya, ijtimoiy va siyosiy sohalarida koʻpgina ziddiyatlarni keltirib chiqaraveradi. Bu borada davlatimiz rahbari I.A.Karimov, “Iqtisodiyot va ekologiya, ijtimoiy va siyosiy sohalarida mavjud boʻlgan koʻpgina ziddiyatlar – mansabdor shaxslar va mehnatkashlarning huquqiy madaniyati va huquqiy ongi juda past darajada ekanligi oqibatidir”[2], – deb taʼkidlagan edilar.

AQShlik huquqshunos olim Uilyam O.Duglas haqli ravishda taʼkidlab oʻtganidek, “Faqat kishilar ongida oʻzgarish yasash kutilgan natijalarga olib keladi. Agar biz oʻzimizni va biosferani saqlab qolmoqchi boʻlsak, barchamiz yosh-u qari tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish uchun haqiqiy, faol va kerak boʻlsa agressiv kurashchilariga aylanmogʻimiz darkor”[3].

Maʼlumki, inson va jamiyat faoliyatida tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini anglab yetish hamda unga amal qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Xoʻjalik faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirishda tabiat qonuniyatlarini hisobga olish va ularga rioya etish atrof-muhitga taʼsir jihatdan zararli faoliyatni ekologik asoslashning hamda unga yoʻl qoʻymaslikning asosiy mezon boʻlib xizmat qilishi lozim. Ularni bilish va hisobga olish, ekologik rayonlashtirish, tabiat zaxiralaridan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini qoʻllash, ekologik ekspertiza, sertifikatlashtirish va standartlashtirish, tabiatni muhofaza qilish boʻyicha chora-tadbirlarni rejalashtirish, ekologik toza, chiqindisiz texnologiyalarni tatbiq etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning shu kabi boshqa huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish alohida ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishi, uning aholisi salomatligi, shuningdek, ekologik xavfsizlik, tabiiy ekotizimlarni saqlash va atrof-muhitning mutanosib sifatini saqlab turish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va qayta tiklashga koʻp jihatdan fuqarolarning ekologik huquqiy ongini yuksaltirish orqali erishish mumkin. Bu boradagi davlat siyosatining muvaffaqiyati tegishli qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirishga toʻgʻridan toʻgʻri bogʻliq boʻladi. Biroq, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning koʻlami va surʼati kengayib va rivojlanib borayotgan, bozor iqtisodiyoti jarayonida inson va fuqarolarning ehtiyoj va manfaatlar tobora oʻsib borayotgan bugungi kunda ushbu voqelikka mos ravishda joriy qonunchilik bilan birga, fuqarolarning ekologik huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga oid faoliyatni ham takomillashtirib borish obyektiv zarurat sifatida maydonga chiqadi.

Shu jihatdan olganda, fuqarolarning ekologik huquqiy ongini shakllantirishga qaratilgan faoliyat quyidagi tamoyillarga tayangan holda amalga oshirilishi lozim, deb hisoblaymiz:

-tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarning ham manfaatlarini hisobga olish;

-ekologik huquqiy ongni shakllantirishga qaratilgan vazifalarni hal etishga davlat ekologik siyosatining tarkibiy qismi sifatida qarash;

-ekologik huquqiy ongni shakllantirish jarayonida tabiiy shart-sharoitlar va resurslar, ekologik vaziyat, demografik holat, aholining tarixiy-madaniy va diniy anʼanalari, urf-odatlar, hayot sifati, intellektual va maʼnaviy holati, davlatning tabiiy atrof-muhitni muhofaza etish va ekologik xavfsizlikni taʼminlash sohasidagi siyosatining asosiy qoidalari kabilarni eʼtiborga olish;

-shaxs-jamiyat-tabiat tizimida fuqarolarning qulay tabiiy atrof-muhitga boʻlgan huquqlari ustuvorligidan kelib chiqish;

-ekologik taʼlim, targʻibot va tarbiya faoliyatini tabiatni muhofaza qilish mummolarini hal etish amaliyoti bilan bogʻliq holda amalga oshirish;

-aholiga tabiatga nisbatan oqilona munosabatda boʻlish koʻnikmalarini singdirish;

-ekologik axborotning aholi uchun ochiq va oshkora boʻlishini taʼminlash;

-tadbirkorlar va jamoat tashkilotlarini ekologik huquqiy ongni yuksaltirish bilan bogʻliq vazifalarni hal etishga jalb etish;

-ekologik ta'lim va targ'ibot sohasidagi muammolarni hal etish borasida xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'zlashtirish;

-ekologik huquqiy tartibotni qaror toptirish va bu boradagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash va boshqalar.

O'z navbatida, yuqorida sanab o'tilgan tamoyillar davlatning ekologik siyosatini tatbiq etish doirasida amalga oshirilishi lozim.

Mamlakatda shaxs-jamiat-tabiati tizimi va uyg'unligida barqarorlik hukm surishi uchun uch subyektning, ya'ni davlat, jamiyat va fuqarolarning o'zaro munosabatlaridagi qonuniylik asos bo'ladi. Binobarin, mazkur subyektlar o'rtasidagi munosabatlarda uyg'unlikka, ularning manfaatlari mutanosibligiga erishilsagina fuqarolarning qulay tabiiy atrof-muhitga bo'lgan huquqlari amalga oshadi va ekologik xavfsizlik ta'minlanadi. Ularning bir-biri vakolatlarini, huquqlarini yaxshi bilishi va hurmat qilishi tabiat va jamiyat aloqalarida barqarorlikning zarur sharti va muhim omili hisoblanadi.

Shu jihatdan olganda, fuqarolarning ekologik huquqiy ongini shakllantirish borasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohasidagi bo'shliqni to'ldirish yuzasidan "Jamiyat ekologik huquqiy ongini yuksaltirish" Milliy Dasturini qabul qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Mazkur dasturda ekologik huquqiy ongni shakllantirish vosita va usullarining (ekologik targ'ibot, tarbiya va ta'lim) mazmuni, ularni amalga oshirish maqsadi, vazifalari va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarining mohiyatini belgilab beruvchi normalar o'z ifodasini topishi lozim. O'z navbatida, bunday hujjatning qabul qilinishi mamlakatimizda huquqiy demokratik davlatni barpo etilishiga muhim hissa bo'lib qo'shilishi bilan birga, ekologik xavfsizlikni huquqiy vositalar bilan ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Fuqarolar ekologik huquqiy ongini yuksaltirish jarayonining tashkiliy-texnik, iqtisodiy va huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda tegishli qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yilgan ustuvor yo'nalishlarni hayotga tatbiq etish yuzasidan mavjud ayrim muammoviy masalalarni va ularning yechimlarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblandi:

-ekologik ta'lim va tarbiya borasidagi muammolar va ularning yechimlari;

-tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish va aholini ekologik huquqiy ongini shakllantirish borasida davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish masalalari;

-fuqarolarning ekologik huquqiy ongini yuksaltirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

-ekologik huquqiy ongni yuksaltirishga qaratilgan faoliyatni yanada takomillashtirish maqsadida ilmiy sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirish va boshqalar.

O'z navbatida, yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish davlatning aholi ekologik huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish borasidagi siyosatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, fuqarolarning ekologik huquqiy ongini shakllantirishga qaratilgan huquqiy ta'lim va targ'ibot ishlari muayyan bir kompaniya doirasida emas, balki ma'lum maqsadni ko'zlab, rejali va samarali tarzda, turli ijtimoiy guruhlarning xususiyatlarini inobatga olgan holda olib borilishi lozim. Buning uchun ekologik qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirish, bu boradagi huquqni qo'llash faoliyati samaradorligini oshirish, aholini ekologik huquqiy axborot bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish hamda ekologik huquqiy tarbiya vositalari va usullarini yanada takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli ishlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, "ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir, uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir"[4].

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. 245-b.
2. Karimov I.A.. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011. – 91-b.
3. Дуглас Уильям О. Трехсотлетняя война. Хроника экологического бедствия: Пер. с англ. –М., 1975. –С.238

4. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 31-b

Джуракулов Х.А.
ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ
ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО
СОЗНАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

В данной статье освещаются вопросы стабилизации современной экологической ситуации, выхода из экологического кризиса и формирования экологического сознания, экологического права и экологической культуры у людей, а также развития экологического правосознания для достижения определенной гармонии в системе человека-общества-окружающей среды.

Ключевые слова: экологическое сознание, право, культура, кризис, образование, отношения человека-общества-окружающей среды

Djurakulov H.A.
THE MAIN DIRECTIONS OF
FORMING ECOLOGICAL
THINKING IN UZBEKISTAN

This article enlightens the problems of stabilization of ecological situation, wayout of ecological crisis and formation of ecological thinking, ecological right and ecological culture of people, development of ecological thinking for maintaining harmony in the system of person-society-environment.

Keywords: ecological thinking, right, culture, crisis, education, relations person-society-environment.

UDK: 1:74

O'LKAMIZDA AMALIY VA TASVIRIY SAN'AT EVOLYUSIYASI

F.A.Erkabayeva

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti o'qituvchisi

E-mail: feruza.erkabaeva.85@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ildizi uzoq tarix qa'ridan boshlanadigan Vatanimizning amaliy va tasviriy san'atining nihoyatda boy va rang-barangligi, san'at evolyutsiyasi, san'at durdonalari, san'at tarixi, taraqqiyot bosqichlari, qadimgi san'at, o'rta asrlar san'ati, sho'rolar davri ijodi, mustaqillik davri yutuqlari, tasviriy san'atning xalqaro ahamiyati, istiqbol, rassomlar va ijodkorlarning ishlari yoritiladi. Keyingi vaqtlarda nafaqat xususiy, balki umumiy masalalarni tadqiq etishga ehtiyoj kuchaymoqda. Shuni hisobga olib, amaliy va tasviriy san'atning umumiy evolutsion jarayoni o'rganiladi [1].

Kalit so'zlar: amaliy san'at, tasviriy, tasviriy san'at, san'at evolyutsiyasi, san'at durdonalari, san'at tarixi, taraqqiyot bosqichlari.

O'zbek san'atining ildizlari qadim davrlarga borib taqaladi. Neolit davrida amaliy san'atning ilk namunalari vujudga kelgan. Bu buyumlar hayotiy ehtiyojlarni qoniqtirish bilan birgalikda, kulfatlardan asrash va bezak kabi turli vazifalarni bajargan. Amaliy san'atning qadimgi turlaridan biri bo'lmish kulolchilik: qozon, xum, tovoq, piyola shakllari o'sha davrlardayoq ancha rivojlanganligidan dalolat beradi. Mil. av. 2 – 1 ming yilliklarda kulollik charxi paydo bo'lib, birinchi naqshlar va uslublar yaratilgan. Archa, taroqsimon, uchburchak, romb, to'rsimon, nuqtali naqshlar, ilon izi, bo'yoq doklari kabi naqshlar bosma, chizma usullarda ifodalanilgan. Ibtidoiy jamoa davrida naqshlar ramziy ma'noga ega bo'lib, o'ziga mazmunini qamrab olgan. Bu davrdan bizga zargarlik (jez, oltin, kumushdan qilingan bilaguzuk, uzuk, munchoqlar) buyumlari ham yetib kelgan. Mil. av. 3-ming yillikda taqinchoqlarda tosh va feruza, lojuvard, nefrit kabi qimmatbaho toshlar ham ishlatilgan. Ana shu davrning zargarlik san'atida «hayvonsimon tasvirlash uslubi» ko'p ishlatilgan.

Eng qadimgi tasviriy san'at namunalari Zarautsoy, Soymalitosh, Sarmishsoy qoyatosh rasmlari hisoblanadi. Ular asosan hayvonlar tasviri va ov lavhalarini aks ettirgan bo'lib, ularda insonning tabiatga bo'lgan munosabatlari ifodalagan.

Mil. av. VI-IV asrlar (axomaniylar davri) amaliy san'ati buyumlarini uch turga bo'lish mumkin. Birinchisi, bu axomaniylar usulida ishlangan buyumlar, ikkinchisi bu mahalliy xususiyatlarni o'ziga qamrab olgan buyumlar va uchinchisi, «hayvonsimon tasvirlash uslubi»ni bildiruvchi buyumlar.

Antik davri (mil. av. III asr – mil. III asr)da sanatga ellinistik, Rim va Hind badiiy an'analari ta'sir etadi. Bu davr amaliy san'ati o'ziga tasviriy sanat poetikasini ham qamrab olgan. Bu davrda kulolchilik san'ati (kosa, piyola, ko'za va boshqa idishlar), zargarlik, badiiy shishasozlik, suyak

buyumlar tayyorlash ham rivojlangan bo'lib, ularda real mavzular bilan birgalikda mifologiya sujetlar ham o'z aksini topgan.

Tasviriy san'atning rivojlanishi mil. av. IV asr – mil. IV asrda namoyon bo'ldi. Bu davrda nafaqat rangtasvir, haykaltaroshlik san'at turlarining me'morchilik bilan uyg'unlashganligini ko'ramiz. Ushbu davrdagi haykaltaroshlik loy, gips, tosh kabi materiallarni o'zlashtirib, inson qiyofalari (shohlar, ma'budlar, jangchilar, sozandalar, masxarabozlar, bolalar)ni gavdalantirgan. Dalvarzintepa devoriy rasmlarida mavzularning xilma-xilligi va ularning mahoratli ishlanganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Devoriy rasmlar va haykaltaroshlikning bu davrdagi rivojlanishida diniy tushunchalar, turli etnomadaniy oqimlar katta ta'sir qilgan. Masalan, O'zbekistonning janubiy hududi haykaltaroshligida (Ayritom frizi, Dalvarzintepadagi budda ibodatxonasi, Fayoztepa, Qoratepa) budda dini bilan bog'liq bo'lgan Gandhar haykaltaroshligi maktabi bilan aloqalar bor. Eftalitlar davrida mahobatli san'at yanada yuqori cho'qqiga ko'tarilgan. Bunday tasviriy san'atning nodir namunalari-dan biri Bolaliktepa devoriy suratlari bo'lib, ularda qahramonlar hayotining tantanali lavhalari o'z aksini topgan [2].

Ilk o'rta asrlarda (V-VIII asr) san'at sohasiga yangi g'oyalar kirib keldi. Bu davrda badiiy metall sohasida oltin, kumush, jezdan turli shakldagi buyumlar tayyorlanib, katta yutuqlarga erishiladi. Bu davrda diniy e'tiqod va tasavvurlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan tasviriy san'atda ma'budalarning haykalchalarini yasash keng tarqalgan. Bu haykalchalar O'zbekistonning turli viloyatlarida yashagan aholining antropologik ko'rinishi, kiyim-boshlari, qurol-yarog'lari va boshqalar to'g'risida tasavvur beradi. V-VIII asrlar tasviriy san'at asarlari - Afrosiyob devoriy suratlari katta mahorat bilan ijro etilgan.

Islom dinining kirib kelishi sekin-asta devoriy rasmlarni cheklab qo'ydi. Uning o'rniga bezak san'ati, naqshlar rivoj topdi. Yog'och o'ymakorligi, ganch o'ymakorligi, badiiy metall, kulolchilik sohaslarida yangi bo'lmish islom estetikasi hukmronlik qilsa, amaliy san'atning kashtachilik, gilamdo'zlik turlarida xalq hunarmandchiligidagi badiiy an'analari o'z aksini topgan.

Temuriylar davrida miniatura san'ati gullab yashnadi. Miniaturachi rassomlarning ijodida chuqur diniy falsafa, tasavvuf tushunchalari va g'oyalari o'z aksini topdi. Bu jarayonda Behzod ijodi va uning maktabi alohida o'rin tutadi. Uning shogirdlari qatorida Mirak Naqqosh, Kosim Ali, Mahmud Muzahhib kabilarni aytishimiz mumkin. Behzod va uning shogirdlari noyob san'at asarlarini yaratishdi, dunyo madaniyatini boyitishdi. Temuriylar davrida tasviriy san'at faqatgina miniatura sohasida emas, Amir Temur saroylari bezagida, hukmdorning oila a'zolari va safdoshlari rasmlari, jang lavhalari, bazmlar tasvirlari bo'lganligi haqida ma'lumot mavjud.

Temuriylar davrida mahalliy an'analar bilan bir qatorda O'rta Sharq mamlakatlarining badiiy an'analari ham o'zlashtirilgan. Buyumlar bezagida o'simliksimon, «girihi» ko'rinishidagi geometrik naqshlar, arab xattotligi hukmronlik qilgan. Shu bilan birga hayvon va osmon jismlari mavzui uyg'unlashgan. Temuriylar davri amaliy san'at tarixida juda katta o'rin egallaydi. Ushbu davrdagi me'moriy bezaklar, kulolchilik san'ati, badiiy shishasozlik, naqqoshlik san'ati yutuqlari bugun O'rta Sharqda tan olingan. Masalan, kulolchilikda XV asrdan xitoy chinnisi ta'sirida yangi usul shakllangan. Kulolchilikda ko'proq yangi usuldagi oq-ko'k sir ishlatilgan [3].

XVI asr oxiri – XVIII asrda san'at rivojlanishi pasayishi kuzatiladi va unda asosan o'tgan davrlar badiiy an'analari saqlanib qolingan. Amaliy san'at turlaridan to'qimachilik, gilamchilik, palos to'qish, zargarlik, kulolchilik, charm, tosh, yog'och, metallga badiiy ishlov berish asta-sekin rivojlangan.

XVI-XVII asrlarda Buxoro, Samarqand, Shohruhiya shaharlarida kitobat san'atida ancha muvaffaqiyatlarga erishilgan. Bunga Mahmud Muzahhib. Chag'ri Muxassin, Muhammad Murod Samarqandiy ijodlari namuna bo'lishi mumkin. Biroq, XIX asrning boshlarida yaratilgan qo'lyozmalardagi suratlarda avvalgi badiiy nafosat ko'rinmaydi. Hind, Qoshg'ar, Eron miniatura maktablariga taqlid ortdi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida amaliy san'atning taraqqiyoti murakkab kechgan. Buning asosiy sabablaridan biri, unda yangi uslublar, yangi siymolar, yechimlar paydo bo'lgan. Chor imperiyasi istilosidan so'ng, mahalliy an'anaviy san'atning badiiy tekstil sohasida Rossiyadan keltirilgan bo'yoqlar ishlatilgan, kulolchilikda ruhli sirlar qo'llanilgan va hokazo. Bu esa asta-sekin badiiy an'ananing o'zgarishiga olib kelgan. Masalan, badiiy metall sohasida naqshlar tizimiga hayvon, ko'shk, memoriy obidalar tasviri ham kiritilgan. Kulolchilik sohasida ham yangi tasvirlar mavjud. Bular qatorida: musiqa asboblari, pichoq, miltiq, ko'za, choynak, hayvonlar, ko'shklar tasviri uchraydi.

XIX asr zargarlik san'ati usullarining xilma-xilligi, shakllarga boyligi bilan ajralib turadi. Bosh, soch, peshona, chakka, bo'yin, ko'krak, qo'ltiq, yelka, bel, quloq, bilak, burun taqinchoqlari shabaka, qoplanma, qadama, zig'arak, bosma, sovatak, chizma, kordakorlari, sirlash o'yma qo'yma ijro usullar bilan ishlangan. XIX asr yog'och o'ymakorligida ro'zg'or buyumlari, uy jihozlari, musiqa asboblari bezashda ustalar o'yma, bo'yama va qadama usullaridan unumli foydalanishgan.

Amaliy san'atning turli sohalarida mahalliy maktablar saqlanib qolgan. Shu bilan birga biz amaliy san'atda individual yondashishning kuchayib borishini ko'rishimiz mumkin. O'sha davrda ishlagan usta-kandakorlardan S. Otaullayev, F. Ogallayev, I. Mukarramov; kulolchilikda rishtonlik ustalardan usta To'xta, usta Abdulla, kattaqo'rg'onlik usta Hidoyat va boshqalar shular jumlasidan. Agar XIX asrning ikkinchi yarmi amaliy san'atida hayotni chuqur his etish, san'at turlarining, binobarin, foydalaniladigan materiallarning ko'pligi, yuksak mahorat ko'zga tashlansa, XX asr boshidagi amaliy san'atda soddalashtirishga intilish kuzatiladi.

XX asrdagi tafakkuriy o'zgarishlar san'at sohasida ham o'z aksini topdi va yangi taraqqiyot yo'llarini izlash davri bo'ldi. XX asr boshida O'zbekistonda yangi usuldagi dastgohli rangtasvir paydo bo'ladi. Uni hududga rus rassomlari, Badiiy akademiya talabalari V.Vereshchagin, N.Karazin, M. Zommer, S.Yudin. L. Bure, I. Kazakov va boshqalar olib kirdi. Ularning asarlarida mahalliy mavzular, xarakterli etnik tipajlar, tarixiy obidalarni aks ettirgan manzaralar o'z ifodasini topdi.

Oktabr to'ntarishidan so'ng O'zbek tasviriy san'ati uchun yangi bosqich boshlandi. Milliy rassomlarni tayyorlash jarayonida Toshkent, Samarqand va boshqa shaharlarda tuzilgan badiiy maktablar, katta avlod vakillari L.Bure, N.Rozanov, I.Kazakov, A.Nikolaev, A.Volkov, P.Benkov, 3.Kovalevskaya qatnashdi. 20-yillar O'zbekiston tasviriy san'atida realizm va avangard ijodiy yo'nalishlari rivojlandi.

30-yillarda tasviriy san'atda sotsialistik realizm uslubi hukmron bo'ldi. Aksariyat o'zbek rassomlari avangard yo'nalishidan sotsialistik realizm yo'nalishiga o'tdi. Asosiy san'at mavzularini o'zbek xalqining turmush tarzi, tarixiy g'oyalar, ishchilar bayramlari va obrazlari tashkil etdi. Dastgohiy rangtasvirdan tashqari kitob grafikasi, dastgohli grafika, haykaltaroshlik sohalar va teatr rassomligi ham rivoj topdi.

30-yillarda badiiy san'at sohasi rivojlana boshlandi. Lekin yuqori saviyadagi amaliy san'at asarlari badiiy hunarmandlik sohasiga oid bo'lib qoldi. Amaliy san'atning ayrim turlari notekis rivojlandi. To'qimachilik, gilamchilik, do'ppido'zlik, kulollik taraqqiy etdi. Zardo'zlik, mag'zi paxtadan qilingan buyumlarni bezash kabi sohalar yo'qolib ketdi. Mahalliy maktablar yo'nalishlari asosida umummilliy xususiyatlar ortib bordi.

50-70-yillarda o'zbek tasviriy san'ati sohasida Ch.Axmarov, O'Tansiqboyev, N.Karaxan, R.Temurov, R.Ahmedov, M.Saidov, N.Qo'ziboyev, T.Ogniesov, 3. Inog'omov va boshqalar samarali ijod qilib, ular maishiy va portret janrining rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Haykaltaroshlikda portret janri rivojlandi. E.Aliyev, X.Husniddinxodjayev, V.Lunev, V.Klevansev, A.Ahmedov, M.Musaboyev, A.Rahmatullayev kabilar monumental haykaltaroshlikda izlanishlar olib borishdi. 70-80-yillarda O'zbekiston tasviriy san'ati yanada yuqori pog'onalarga erishdi. Rassomlar (J.Umarbekov, M.To'xtayev, B.Jalolov, A.Mirzayev, V.Oxunov) ijodida milliylik bilan bir qatorda avangard yo'nalishlari (simvolizm, abstrakt san'at, ekspressionizm va boshqalar)ga qiziqish kuchayib bordi.

1978-yilda «Usto» birlashmasi tashkil qilinishi natijasida kandakorlik, chitga gul bosish, lakli miniatura sohalar tiklandi. Shu bilan birga amaliy san'at sohasida 70-yillarda yangi, an'anaviy bo'lmagan bezak san'ati turlari: noan'anaviy kulolchilik, vitraj, badiiy shishasozlik, gobelen, chimni, batik san'at turlari paydo bo'ldi.

Mustaqillik yillarida milliy merosga e'tibor kuchayib, O'zbekiston Prezidenti farmoni bilan yangi tizim vujudga keldi. Tasviriy san'at turli sohalarining rivojlanishida 1997-yilda O'zbekiston Badiiy akademiasining tashkil etilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur akademiya tarkibida 1997- yili Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tashkil etilishi, bu sahaga kadrlar tayyorlash masalasini keskin yaxshi yo'lga qo'ydi. Shuningdek, 1997-yil «Musavvir» ilmiy-tekshirish markazi qoshida «Hunarmand» assotsiatsiyasi tashkil qilinib, respublikadagi turli hunarmandchilikda ijod qilib kelayotgan ustalarni qamrab oldi [4]. Bu tashkilot an'anaviy hunarmandchilikning yo'q bo'lib ketgan turlarini, mahalliy markazlarini tiklash jarayoni bilan shug'ullana boshladi. Natijada badiiy kulollik, kandakorlik, zargarlik, zardo'zlik, an'anaviy to'qimachilik, kashtachilik, gilamdo'zlik, do'ppido'zlik, yog'och va ganch o'ymakorligi, naqqoshlik turlari tiklandi va rivojlandi.

Mustaqillik davri haykaltaroshligida tarixiy siymolar gavdalanishi jihatdan yangilanish ham bir qator asarlarda ko'zga tashlandi. A.Raxmatullayev, L.Ryabsev, I.Jabborov, R.Mirtojiyev, J.Kutimurodov, K.Norxo'rozov kabilar mahobatli san'atni, A.Hotamov, E.Esanov, S.Sharipov kabi rassomlar dastgohli haykaltaroshlikni rivojlantirishga harakat qilishdi.

Mustaqillik yillarida uslubiy jihatdan jiddiy evrilishlar sodir bo'lmoqda. Rangtasvirchilardan R.Ahmedov, N.Qo'ziboyev, R.Choriyev, M.Nabiyev, A.Ikromjonov, B.Jalolov, S.Rahmetov, A.Mirzayev, N.Shin, V.Oxunov, J.Umarbekov, S.Alibekov, A.Isayev, J.Usmonov, N. Shoabduraximovlar realistik usul bilan birga yangi plastik izlanishlarda ertag-u dostonlar, xalq og'zaki ijodiyoti, turli xil rasm-rusm va marosimlar bilan bog'liq belgilar hamda ramzlar yordamida yangi bosqichini belgilab berdi.

Mahobatli san'at sohasida ijodiy izlanishlar olib borgan rassomlardan A. Aliqulov, O. Habi-bullin, «Sanoyi nafisa» guruhi, A. Buxorboyev, A. Axmedshin kabi rassomlarni aytishimiz mumkin. Mustaqillik yillari ko'plab tadbirlar, xalqaro ko'rgazmalar, ko'rik-tanlov, festivallar o'tkaziladigan bo'ldi. 2001-yillar uyushtirila boshlagan Toshkent xalqaro badiiy ko'rgazmasi «Biennale» ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Toshkent «Biennale»si XXI asr Sharq va G'arb san'ati uyg'unligidagi yangi g'oyalarning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shmoqda. O'zbekistonlik mo'yqalam ustalari xalqaro anjumanlar, jumladan AQSh, Fransiya, Yaponiya, Koreya, Misr, Shveysariya, Germaniya, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston, Estoniya, Gruziya, Qirg'iziston va boshqa mamlakatlarda o'z asarlari bilan qatnashishdi [5].

Mustaqillik yillaridagi ko'rgazmalarda M. Nabiyev, A. Ikromjonov, R. Choriyev, R. Ahmedov, N. Qo'ziboyev, N. Shin, B. Boboyev, J. Umarbekov, B. Jalolov, V. Burmakin, L. Ibrohimov; haykaltaroshlar A. Hotamov, T. Tojixojayev, D. Ro'ziboyev, M. Borodina; grafik rassomlar M. Kagarov, A. Mamajonov, M. Sodiqovlar; yosh rassomlar D. Oxunboboyev, A. Ivanova, A. Nikolayev, M. Aliyev, V. Nechayeva, X. Ziyoxonov, X. Inog'omova, G. Alimatova, A. Nurshina, K. Boboyev kabi ko'plab taniqli san'atkorlar ijodi barchaga manzur bo'lmoqda. Shuningdek, A. Nur, V. Oxunov, G. Qodirov, G. Boymatov, R. Gagloyeva, J. Usmonov, A. Isayev, E. Isoqovlarning yangi qiziqarli asarlari tomoshabinda katta qiziqish uyg'otmoqda [6]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tasviriy san'atning milliy ma'naviyatdagi ahamiyati haqida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlaydi: "O'zbek rassomlarining keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritayotgani, bu sohaga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani uning ravnaqi va istiqbolidan dalolat beradi"[7].

Xullas, Vatanimizda mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng ajdodlarimiz tomonidan ming yilliklar ichida yaratilgan bebaho meros – an'anaviy badiiy madaniyat va, jumladan, tasviriy va amaliy san'atni tiklash, saqlash va taraqqiy ettirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar

1. Amaliy va tasviriy san'atning evolutsion jarayonini o'rganishda quyidagi manbalardan foydalanildi: 1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: 2008, - B.147; 2. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at. – T.: 1996, - B.19-33; 3. Пугаченкова Г. Из художественной сокровищницы. Среднего Востока Т.: 1987, - C.12-13; 4. O'zbekiston zamonaviy san'ati. -T.: 2004, - B.2-5; 5. Художественная культура Средней Азии IX-XIX веков, -T.: 1983, - C.13-25; 6. Amaliy bezak san'ati. Tasviriy san'at. O'zME. –T.: 12 tom. 2006; - B.542-563.
2. Пугаченкова Г. Из художественной сокровищницы. Среднего Востока. – Т., 1987. – С.12-13с.
3. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at. – T.: 1996, - B.19-33.
4. Davrimizning yetakchi ustalari sifatida kulollar A. Rahimov, S. Otajonov, Sh. Yusupov, R. Usmonov, A. Isoqov, A. Narzullayev, R. Zuxurov; kandakorlar M. Madaliyev, D. Xolidova, G. Rahmatova, U. Aliyev, O. Umarov; zargarlar F. Dadamuhamedov, G. Yo'ldosheva, G. Tosheva; ganchkorlardan M. Murodov, X. Abdullayev, A. Muxtorov; yog'och o'ymakorlardan S. Xo'jayev, M. Ibrohimov, O. Fayzullayev, A. Azlarov, S. Rahmatullayev; zardo'z B. Jumayev; kashtachi Z. Obloberdiyeva va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin.
5. O'zbekiston zamonaviy san'ati. – T.: 2004, - B.2-5.
6. Amaliy bezak san'ati. Tasviriy san'at. O'zME. –T.: 12 tom. 2006; - B.542-563.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.:2008, - B.147.

Ф.А. Эркабаева

ОБ ЭВОЛЮЦИИ ПРИКЛАДНОГО И ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА НАШЕГО КРАЯ

В статье выражается мнение об историческом и современном состоянии прикладного и изобразительного искусства нашего края. В ней отмечается создание произведений прикладного искусства с исторических времен. Будут даны комментарии об истории изобразительного искусства, в частности этапам развития с древних времен по настоящее время, ее богатым традициям, историческому опыту, состоянию во времена Советов и наконец, достижениям в период независимости, ее международному значению и будущему развитию.

Ключевые слова: прикладное искусство, изобразительное искусство, эволюция искусства, жемчужины искусства, история искусства, этапы развития

F.A. Erkabaeva

ON THE EVOLUTION OF THE FINE ARTS AND CRAFTS OF OUR LAND

The article expresses the opinion of the historical and present state of applied and fine arts of our land. It notes the creation of works of applied art from the historic times. In the article will be given to comments on the history of fine arts, in particular stages of development from ancient times to the present, its rich traditions, historical experience, as in the times of the Soviets, and finally, the achievements in the period of independence, its international importance and future development.

Keywords: Craft arts, fine arts, the evolution of art, pearls of art, history of art, the stages of development

UDK: 1.32

IJTIMOYIY ONGNING YARATUVCHANLIK XUSUSIYATLARI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

S.D.Norqulov

*Toshkent tibbiyot akademiyasi ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti**E-mail: suxrob_narkulov@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy ong va ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot dialektik bog'liq fenomenlar ekanligi, ijtimoiy ongning inson faoliyatiga, uning jamiyat bilan aloqalariga sotsiokreativ ta'siri, individual ong bilan ijtimoiy ong o'rtasidagi farq ochib berilgan. Ijtimoiy ongning sotsiokreativlik subyektiv xususiyatlarga ega yo'nalishlarga ajratilib tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ong, milliy ong, ijtimoiy ong, individual ong, ijtimoiy borliq, satsiokreativ, milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot, jamiyat, dunyoqarash, transformatsiya.

Ijtimoiy ong va ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot dialektik bog'liq fenomenlardir. Ijtimoiy ongning transformatsiya oxir natijada jamiyatning ma'naviy hayotida va, aksincha, jamiyat ma'naviy hayotidagi o'zgarishlar kishilar ongida namoyon bo'ladi. Biroq bu ijtimoiy ongning sotsiokreativ voqelik ekanini inkor qilmaydi, balki uni jamiyat hayoti bilan bog'liq o'zgarishni taqozo etadi.

Ijtimoiy ong ma'lum bir makonda, muhitda shakllanadi, ular ta'sirining in'ikosi hisoblanadi, shu bilan birga u inson faoliyatini, xatti-harakatlari va dunyoqarashini o'zgartirishga qodir fenomen hamdir. Inson ijtimoiy borliq bilan munosabatlarga kirishganida mazkur borliqdagi qonunlar, tartiblar va axloqiy imperativlarni qabul qiladi, ularga ergashadi. Shu tarzda u o'zining ma'lum bir etnomadaniy makonga, millatga taalluqli subyekt ekanini ko'rsatadi. Insonning ijtimoiy mavjudod sifatida shakllanishi uchun adaptatsiya zarur, lekin ong ushbu muhit yoki makonga, ulardagi stereotiplarga mutlaq singib ketishni yoqtirmaydi. U bor kuchi, salohiyati bilan o'zlashtirgan qonunlar, tartiblar va axloqiy imperativlarni rivojlantirishga, ularga o'zining ichki "Men"ga muvofiq keladigan nimanidir qo'shishga intiladi. Demak, ijtimoiy ongning sotsiokreativlik ichki "Men"ning tashqi olam, ijtimoiy borliq bilan faol munosabatga kirishganida, lekin subyektiv xususiyatlarga ega yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Ushbu yo'nalishlarni quyidagilarga ajratib tahlil etish mumkin:

- bilish, bilim olishga intilish;
- dunyoqarash;
- milliy mentalitetga ega bo'lish;
- ijtimoiy boyliklar va qadriyatlarni o'zlashtirish;
- transendental ideal yaratish;
- kognitiv izlanish va ijod.

Dunyoni, olamni bilishga qiziqish insonga xos xususiyat. Gnoseologik tajribalarni umumlashtirishi va yon-atrofni o'zgartirishda ulardan foydalanishi tufayli inson ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning subyekti hisoblanadi. Mazkur jarayonlar ong, ongga xos bo'lgan bilish, bilim olishga intilish ifodasi. Professor N.A.Shermuhamedova yozganidek, "shaxsiy va ijtimoiy tajribada biz ongning mavjudligini aniq sezamiz, ongning o'z-o'ziga, boshqa odamlarga va umuman jamiyatga ta'siri natijalarini fiziologik darajada his qilamiz va ko'ramiz. Biroq, bu jarayonda ongning o'zi ko'rinmaydi. Moddiy dunyo hodisalaridan farqli o'laroq, ongni kuzatish mumkin emas. U go'yo vaqt va makon chegaralaridan tashqarida turadi. Gnoseologiyaning vazifasi bu ko'rinmas ongni idrok etish, uning moddiy narsa va hodisalar dunyosi bilan o'zaro aloqalarini aniqlash, uni o'zining muhokama va tadqiqot predmetiga aylantirishdan iborat"[1]. Xullas, "bilimlarimiz tajribada sinalganini qayd etuvchi empirizm va buni inkor etuvchi ratsionalizm"[2] ham insonning bilishga, bilim olishga intilishining mahsullaridir.

Odatda bilish kundalik tajriba yoki, B.Rassel iborasi bilan aytganda, "individual tajriba va ilmiy bilim"[3] dan iborat. N.A.Shermuhamedova esa zamonaviy gnoseologik tajribalarni umumlashtirib, bilishning 20 ga yaqin shakllari borligini sanab beradi [4]. Demak, inson ongining dunyoni, olamni bilishga, bilim olishga bo'lgan intilishi rang-barang, cheksiz. To'g'ri, ular individual tajribaga asoslanadi, lekin ijtimoiy tajribadan o'tgach, ijtimoiy-ma'naviy hayotga, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan ilmiy bilimga aylanadi. Mazkur postulatni ijtimoiy borliqqa, jamiyatga tadbiq etgan zahoti kundalik tajriba, individual bilim bilan ijtimoiy tajriba, ilmiy bilim o'rtasidagi yaqinlikni hisobga olish zaruriyatga aylanadi. Chunki "individual idrok barcha bilimlarimiz asosi hisoblanadi, uning yordamida biz ko'p kuzatishlarimiz uchun umumiy bo'lgan manbalarga tayanishdan boshqa metod yo'qligini anglaymiz"[5]. Jamiyat ilm-fanga, ma'rifatga urg'u berganida mazkur tajriba, ong va intilishlarni nazardan qochirmaydi. Tajriba har qanday individual va shaxs ongi, intilishlari ijtimoiy-ma'naviy borliq uchun qimmatlidir. Biroq mazkur fenomenlar jamiyat, ijtimoiy manfaatlar ham borligini rad etmasligi, balki ular bilan murosaga kirishib, umumiy ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotga xizmat qilishi lozim. Shaxsning individual ongi va individual qiziqishi bilan jamiyatning umumiy, ijtimoiy-ma'naviy manfaatlari dialektik tarzda uyg'unlashganidagina ular o'zining gumanistik va umuminsoniy funksiyasini bajaradi. Ana shu taqdirda bilish, bilim olishga intilish ham sotsiokreativ ahamiyat kasb etadi.

Bilish jarayonining, bilim olishning mutlaq individual manfaat, mutlaq egoistik voqelik ekanini isbotlovchi dalil yo'q. Ba'zan nigilistik g'oyalarni, qarashlarni misol qilib keltirishadi. Ha iml-fanda, hatto eng g'ayrihayotiy, paradoksalar ong mahsullarini ham asoslash mumkin [6]. Bizning fikrimizcha, kreativ izlanishlar – ijtimoiy ongdan joy olgan g'oyalar, qarash va yondashishlar eng avvalo insonning o'ziga qarshi qaratilmasligi, uni ma'naviy-axloqiy degradatsiyaga, tanazzulga olib kelmasligi kerak. Jamiyat shaxsga erkin izlanish va yaratish imkonini berganida undagi destruktiv kuchlarning avj olishini nazarda tutmaydi. Shuning uchun jamiyat inson oldiga ma'lum bir majburiyat, mas'uliyat ham qo'yadi. Ijtimoiy ong jamiyat qonuniyatlarini bilishni talab etadi, individual ong ham ushbu talabalarga adekvat javob berishi, ya'ni ijtimoiy taraqqiyot talabalariga muvofiq shaxsni xatti – harakatga, faoliyatga yetaklashi lozim. Ijtimoiy ong "yuz million yillar davom etgan evolutsiyaning sintezlashishini o'zlashtirgan fenomen"[7], lekin u mudom o'zgarib, transformatsiyaga uchrab turish xususiyatiga ega. Shu sababli uni ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot tomonga yo'naltirib turish zarurati mavjud.

Ijtimoiy ongning sotsiokreativ xususiyatlari insondagi dunyoqarashlar, ularning qanday nazariy – falsafiy, ilmiy yo'nalishga, mohiyatga ega ekanida yorqin namoyon bo'ladi. Aslida ijtimoiy ong ushbu dunyoqarashlarning provard natijasi, mahsuli sifatida keladi, chunki ijtimoiy ong ma'lum bir bilimlar, yon-atrof, olam, jamiyat haqidagi qarashlarning in'ikosidir.

"Dunyoqarash, - deb yozadi Z.Freyd, - borlig'imizning barcha muammolarini yechishga qaratilgan bir intellektual tuzilmadir. Unda barcha narsalarni yechish, qiziqishimizga qaratilgan muammolarni hal yetish alohida o'rin egallaydi. Dunyoqarashga ega kishi o'zini hayotga zarur tarzda sezadi, nimaga intilishini, qiziqish va affektlarini qanday maqsadlarga muvofiq qo'llashini biladi"[8].

Dunyoqarash ilmiy, eksperimental asosdagi bilimlarga muvofiq shakllanadi. Goho shunday bo'ladiki, bunday bilimlarga tajriba, negiz yoki nazariya, qarash yetishmaydi, shaxs real borliqdan yiroq fikrlar izlaydi. Goho nafaqat ayrim shaxs, guruh balki, butun jamoa, xalq, millat transsendental g'oyani o'zining dunyoqarashiga aylantiradi [9]. Demak, biz dunyoqarashdagi o'ziga xosliklarni, uning ijtimoiy yo'naltirganlik belgilarini ajratib olishimiz darkor.

Dunyoqarash kundalik, transsendental qarashlardan keng, u tajriba, ilmiy sinov va ijtimoiy ong sinovidan o'tgan g'oyalar tizimidir. Hayot tajribasidan, ilmiy kuzatishlar va sinovlardan o'tmagan g'oya, fikr, tushuncha individual, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmagan, ichki ziddiyatlarga to'la, borliq va jamiyat taraqqiyotiga muvofiq kelmagan yondashishlar mahsulidir. Ijtimoiy ong mazkur yondashishlar ta'siridan mutlaq xoli bo'la olmaydi, lekin u o'zining substansional asosidan, ya'ni ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot manfaatlari bilan uyg'unlashuvi prinsipidan ham voz kecha olmaydi.

Dunyoqarash mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumga, sotsial boshqarishga, global o'zgarishlarga munosabat tarzida keladi. Ijtimoiy-tarixiy jarayonlar, shaxsning tarixdagi o'rni va davlat, jamiyat hayotiga ta'siri masalalari ham dunyoqarash masalalariga borib taqaladi. Kishining yon-atrofga, davlat va jamiyat hayotiga ma'lum bir nazariy konsepsiyalar nuqtayi nazaridan yondashishi uning dunyoqarashini ifoda etadi. Demak, dunyoqarash ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot qonuniyatlariga qancha yaqin bo'lsa, u kishini jamiyat, sotsium bilan yaqin yashashini ta'minlaydi, agar aksi bo'lsa, shaxs va jamiyat o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqaveradi. O'zbekistonda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati dunyoqarashning obyektiv, ilmiy izlanishlarga qurilishini qo'llab-quvvatlaydi, bu esa ijtimoiy ongning sotsiokreativ ahamiyatini oshiradi.

Fuqarolik jamiyati ilm-fan, texnika, ratsional izlanishlarni qo'llab-quvvatlab, har bir jamiyat a'zosi ongida ilmiy, tanqidiy dunyoqarashning shakllanishini istaydi. Chunki ilmiy-tanqidiy dunyoqarash jamiyatning strategik maqsadiga borishini kuzatib boradi, erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ratsional baholaydi. Shunday yondashuv bo'lmagan jamiyatda avtokratizm, dogmatizm va shaxsga sig'inish yuzaga keladi, bu hol fuqarolik jamiyatining mohiyatiga ziddir. Shuning uchun fuqarolik jamiyati dunyoqarashni shakllantirishda ilmiy va pedagogik institutlar imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intiladi. Bu borada u ilmiy salohiyatni oshirishni, ijtimoiy-tarbiyaviy komplekslarga yangi pedtexnologik usullarni joriy etishni nazarda tutadi.

Milliy mentalitetga ega bo'lish ongda kechadigan jarayonlar, insonning ma'lum bir ijtimoiy-ma'naviy muhitda shakllanishiga borib taqaladigan omillar natijasi, talabidir. Ong, shu jumladan ijtimoiy ong ham, etnomuhit ta'siri mahsuli hisoblanadi.

Milliy mentalitet bilan ijtimoiy ongning sotsiokreativ xususiyatlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Etnopsixologik va etnosotsial tadqiqotlar ko'rsatadiki, kishi o'zi o'sgan makonda muhitda jamoa a'zolari bilan oson til topadi, xatti-harakatlarida erkin bo'ladi. Mazkur holat uning milliy xarakterini ko'rsatadi. Agar kishi o'zga makonga, muhitga tushsa, o'zining ilgari ijtimoiy rolini ham, ijtimoiy ongidagi stereotip qarashlarni ham o'zgartirishga, yangi makon, muhit talablariga moslashtirishga majbur bo'ladi. Demak, inson ma'lum bir etnik muhitda ijtimoiy-ma'naviy xislatlarini yoki etnopsixologik tilda aytganda, "shaxsiy bazaviy tizimi"ni shakllantiradi.[10] Ushbu ijtimoiy-ma'naviy va shaxsiy xususiyatlar milliy mentalitetga oid, aynan ular insonni qaysi davrada bo'lishidan qat'iy nazar, etnomadaniy belgilarni namoyon etadi.

Ijtimoiy ong bilan milliy mentalitet aynan hodisalar emas. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy ong milliy ongdan kengroqdir. U milliy belgilarni o'ziga qabul qilib, ularni ijtimoiylashtiradi, ya'ni internatsionallashtiradi. Milliy ong esa ma'lum bir millatga taalluqli, uning yon-atrofga, borliqqa, o'ziga munosabatlarini ifoda etadi. Ijtimoiy ong mazkur belgilarni o'z sintezidan o'tkazib, milliy ongni o'zining atributiga, qismiga aylantiradi.

Fuqarolik jamiyati polietnik ijtimoiy makon hisoblanadi, unda turli millat vakillari istiqomat qiladi, millatlararo munosabatlarda teng huquqlilik, o'zaro hamkorlik, ittifoq bo'lib yashash tartibi qaror topadi.

Respublika "Ijtimoiy fikr" markazi o'tkazgan sotsiologik so'rovnomalar natijalari ko'rsatadiki, "Siz kelgusida millatlararo munosabatlarda barqarorlik saqlanib qoladi deb hisoblaysizmi?" degan savolga respondentlarning 2006-yili 47,5 va 2013-yili 66,3 foizi "Ha, saqlanadi" deb javob bergan. Qolgan respondentlarning 2006-yilda 52,5 va 2013-yilda 33,7 foizi "U yoki bu chora-tadbirlar ko'rilishi zarur," deb hisoblaydi.[11] Hatto respublikamizdagi etnosiyosat millatlararo totuvlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan, milliy madaniyatlarning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa-da, ma'lum bir etnik guruhlarida, ularning ayrim vakillarida totuvlik va barqarorlikdan qoniqmaslik mavjud. Bu hol xalqaro hayotda ro'y berayotgan nizolar, to'qnashuvlar, xalqaro ekstremizm, terrorizm xavflari, ommaviy axborot vositalarida tajovuzkorona mavzudagi film va teleko'rsatuvlar ta'siri bo'lishi mumkin. Demak, ijtimoiy ong nafaqat ichki, shuningdek tashqi, xalqaro omillar ta'sirida shakllanish va transformatsiyaga uchrash xususiyatiga ega. Ijtimoiy ongning sotsiokreativ xususiyati milliy mentalitetdagi pozitiv ahamiyatga ega, demokratik rivojlanishga yordam beradigan jihatlarni qo'llab-quvvatlaganida va mafkuraviy, g'oyaviy immunitetni shakl-

lantirganidadir. Bu o'rinda ijtimoiy ongning milliy g'oyadan maqsad va vazifalar olishi muhim ahamiyatga ega.

Ong ko'zga ko'rinmaydigan narsa, uni ushlab mumkin emas, o'lchash qiyin, tutib biror ob'ektga qiyoslash mushkul. Ammo uning natijalarini ko'rmaslik mumkin emas. Ijtimoiy ongning ana shunday natijalari ijtimoiy boyliklar va qadriyatlarda, etnomadaniy funksiyasida aks etadi. Kreativlik, pirovard natijada, birorta yangilikda yaratilgan narsada ifodasini topgan fikr yoki g'oyadadir.

Ijtimoiy ongning ijtimoiy boyliklar, qadriyatlar va etnomadaniyatda obyektivlashishi uni ijtimoiy-ma'naviy hayot, jamiyat uchun ahamiyatli qiladi. Aslida inson faoliyatini yaxlit voqelik sifatida tasavvur qilmay subyektiv hodisani baholab, ahamiyatini to'g'ri topib bo'lmaydi. Qisqa qilib aytganda, ijtimoiy ongning sotsiokreativ xususiyati inson faoliyatining yaxlit voqelik sifatida namoyon etuvchi ijtimoiy boyliklar, qadriyatlar va etnomadaniyatlardadir.

Ijtimoiy boyliklarga inson faoliyati mahsuli bo'lgan, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot uchun zarur artefaktlar kiradi. Mazkur boyliklar inson ongli faoliyatining mahsullari sifatida jamiyatda biror qimmatga, mohiyatga va funksiyaga ega bo'ladi. Hatto eng g'ayrihayotiy tug'ilgan syurrealistik, giperrealistik yoki abstrakt asarlar ham ma'lum bir guruhlar, kishilar estetik didiga muvofiq keladi. Masalan, syurrealizmning yirik namoyondasi, ispan musavviri S.Dalining rangtasvirlarini olaylik. Ularda pajmurda gavdalar, qinidan chiqayozgan ko'zlar, tuynusikmon qorin, bahaybat bashara va haybatli qo'llar, tushga kiradigan qo'rqinchli qush-hayvonlar g'aroyib tarzda aralashib keladi. Uning, o'z iborasi bilan aytganda, "paranoidli tanqidiy tahlil metodi"[12] realizm va ratsionalizmga o'rgangan aqlni, ongni hayratga soladi. Ushbu g'ayrishuuriy, g'ayrihayotiy tasvir tez ora O'zbekistonlik musavvirlar ongini ham chulg'ab oldi. B.Jalolov, J.Umarbekov, M.Kagarov, M.Fozilov, A.Nur kabi ko'plab ijodkorlar syurrealizmdan ilhom olib asarlar yaratgan. Bugun badiiy tasviriy ijod sohasida ko'zga ko'ringan birorta ham musavvir yoki haykaltarosh yo'q, syurrealizm, abstraksionizm, kubizm yoki modernizm oqimlari ta'sirida izlanmayotgan. Bir paytlari K.Malevichning "Qora kvadrat" asari va uning tabiatni, go'zal ayolni, perspektiva, gorizont, naturani, akademik stilni rad etgani[13] qoralangan. Haqiqatdan ham, "Qora kvadrat"da qora kvadratdan boshqa narsa yo'q. Uni aqlu idrokli, qobiliyatli musavvir ko'rgazmaga qo'yishiga ishongin kelmaydi. "Venera Miloskaya (go'zallik ma'budasi-S.N.) tanazzulning yorqin namunasi", "Mikelanjelo Davidi – badbashaalik", deb buyuk Titsian, Uyg'onish davri daholarini inkor etish K.Malevich da'vati.[14] Hayratli tomoni shundaki, ushbu nihilizm, g'ayrihayotiylik izlashga intilish yana qayta tiklanmoqda, ijtimoiy boylik sifatida e'zozlanmoqda. Demak, butun rad etilgan ong, izlanish, tafakkur mahsuli ertaga e'zozlanishi va, aksincha, bugun e'zozlanayotgan, qadrlanayotgan narsa vaqt o'tishi bilan o'z ahamiyatini, dolzarbligi va muhimligini yo'qotishi mumkin. Biroq ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot, sivilizatsiya tarixi ko'rsatadiki, umuminsoniy ahamiyatga ega, insondagi yaratuvchanlikni ro'yobga chiqarishga qaratilgan boyliklar, ong, tafakkur, izlanish mahsullari boqiydir. Ijtimoiy ongdagi pozitiv, sotsiokreativ kuch ham shundadir.

Ongning yashirin xususiyati, ilmiy, ratsional izlanishlarga tutqich bermasligi, ko'zga ko'rinmas tarzda o'zgarib, transformatsiyaga uchrab goho o'zini o'zi rad etib, mutlaq boshqa pozitsiyaga o'tishi unga, ya'ni ongga irratsionallik, transsendentlik, intuitivlik, g'ayrihayotiylik baxsh etadi. Ongni aqlu idrok, ratsional metodlar bilan tadqiq etish hech qachon kutilgan natijaga olib kelmagan, bunday izlanishlar irratsionalni, transsendentni tan olish bilan yakunlangan.

Ongdagi irratsionallik obyektini real borliqdan, tajribadan tashqaridan qidirishga undagan. Bunday obyekt ko'pincha xudodir.

Z.Freyd din kishilarning tabiat oldidagi o'jizligidan, o'z aql-u idrokidan unumli foydalana olmaganidan kelib chiqqan, degan g'oyani ilgari surgan. Natijada inson qo'rquv hosil qilgan kuchga kontraffektlarni qarshi qo'yish o'rniga, o'zidagi aql-u idrokni, ratsionalni so'ndirgan, shu tariqa inson eta olmaydigan irratsional, transsendental kuch paydo bo'lgan [15]. Hozirgi paytda mazkur fikrni takrorlashga hojat yo'q, dindagi ma'naviy-ruhiy kuch, inson ongiga ta'sir qilish borasida to'plangan tajribalar unga sotsiokreativ voqelik sifatida qarashga undaydi. Ijtimoiy ong din tajribasiga va uning sotsiokreativ metodlariga murojaat etar ekan, dinni yaratuvchanlikni qo'lab-quvvatlovchi kuchga aylantiradi. Demak, ong va dindagi sotsiokreativ xususiyatlar insonni oliy kuch borligiga, undagi yuksak idealga ishonishni uyg'otganidadir [16].

Ijtimoiy ong o'zgaruvchanligi, transformatsiyaga moyilligi va tashqi tazyiqlarga beriluvchanligi tufayli dindagi mutaassiblikni yoqtirmasligi haqiqat. Ijtimoiy ongga yangilik, o'zgarish, evrilish orqali innovatsion izlanishlarga o'chlik xos. Dindagi qadriyatlarni, urf-odatlarini o'zgartirish uchun asrlar kerak, ijtimoiy ong esa bunday yondashishga turg'unlik deb qarashi kuzatiladi. SHuning uchun

ijtimoiy ong dinga murojaat etganida undagi mutaassiblikni, konservativ urf-odatlarini qayta tiklashni emas, balki dindagi sotsiokreativ tajribalar va usullardan foydalanishni, shu tarzda insondagi ma'naviy-ruhiy imkoniyatlarni, kuchlarni harakatga keltirishni nazarda tutadi. Bugun transsendentga, din va xudoga murojaat etish tarixiy-madaniy merosni, vatanimiz, xalqimiz o'tmishini o'rganish va insondagi sotsiokreativ xususiyatlarni ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot manfaatlariga yo'naltirish uchun zarur.

Ijtimoiy ong shaxsning ma'naviy-ruhiy, kognitiv izlanishlari va ijodi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu aslida ijtimoiy ong bilan individual ong o'rtasidagi dialektik bog'liqlikning bir ko'rinishi hisoblanadi. Inson bilimlari, ongi orqali ichki ruhiy holatlarini va tashqi xatti-harakatlarini idora qilish, ularni zarur tomonga yo'naltirishning psixologik mexanizmlarini topish quvvatiga ega. Kognitiv izlanish, ushbu individual – psixologik xususiyatdan kelib chiqib, shaxs olgan bilim, informatsiya, tajribalarni ijtimoiy borliq ehtiyoj va talablariga yo'naltira oladi. Demak, kognitiv izlanish shunchaki bilim va informatsiya olish emas, balki ularni ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot manfaatlariga yo'naltirish qobiliyati hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning ma'naviy-ruhiy, kognitiv izlanishlari ijtimoiy borliq, muhit bilan bog'liq ekan, u tor qiziqish, intilish doirasida qololmaydi. Ushbu qonuniyatni anglagan individ ongi ijtimoiylashuv yo'lini qidiradi. Bu aslida uning sotsiokreativ xususiyatidir.

Adabiyotlar

1. Shermuhamedova N.A. Gnoseologiya – bilish nazariyasi. –T.: Noshir, 2011. – 6 b.
2. Shermuhamedova N.A. Gnoseologiya – bilish nazariyasi. –T.: Noshir, 2011. – 6 b.
3. Рассел Б. Человеческое познание. Его сфера и границы. –М.: Ин.лит-ры, 1957. – С. 31
4. Shermuhamedova N.A. Gnoseologiya – bilish nazariyasi. –T.: Noshir, 2011. – 18-36 b.
5. Рассел Б. Человеческое познание. Его сфера и границы. –М.: Ин.лит-ры, – С. 45
6. Заблудающийся разум? Многообразие вне научного, знания. –М.: Политиздат, 1990; Нискер В. Безумная мудрост. – СПб.: “Питер”, 2000.
7. Анохин П.К. Философские аспекты теории функциональной системы. – М.: АСТ. Астрел, 2008, - С.349.
8. Фрейд З. Введение в психоанализ. Лекции. – М.: Наука, 1991. – С.399.
9. Фрейд З. Введение в психоанализ. Лекции. – М.: Наука, 1991. – С. 401.
10. Касянова К. Национальный характер и социальный архи тип.// Этнопсихологические проблемы вчера и сегодня. –Мн.: Харвест, 2004. – С.353.
11. Убайдуллаева Р. Общественное мнение: диалог между обществом и государством// Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари, 2014, №1. – С. 17.
12. Дали С. Дневник одного гения. –М.: “ЭКМО-ПРЕСС”, 2000. – С. 20.
13. Малевич К. Черный квадрат. СПб.: Азбука, 2012. – С. 7.
14. Малевич К. Черный квадрат. СПб.: Азбука, 2012. – С. 12.
15. Фромм Е. Гуманистический психоанализ. – СПб.: Питер, 2002. – С. 452.
16. Фромм Е. Гуманистический психоанализ. – СПб.: Питер, 2002. – С. 459

С.Д. Норкулов

S.D. Norqulov

СОЗИДАТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

THE CREATION OF PECULIARITIES OF THE PUBLIC CONSCIOUSNESS: SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSES

В статье был раскрыт феномен диалектической взаимосвязи общественного сознания и социально-духовного развития, его социокреативное влияние на общество, различие между индивидуальным и общественным сознанием. Были анализированы свойственные направления социокреативно субъективного общественного сознания.

In article was reveal phenomenon dialectical intercooling the public consciousness and social-spiritual development, its sociokriativ influence upon society, difference between the individual and public consciousness. The characteristic directions sociokriativ subjective public consciousness's were analyzed.

Ключевые слова: сознание, национальное сознание, общественное сознание, индивидуальное сознание, общественное бытие, социокреатив, индивидуальное самосознание.

Keywords: consciousness, national consciousness, public consciousness, public mind, sociokriativ, individual consciousness..

UDK: 1:100.69

**MODDIY ISHLAB CHIQUARISH VA MA'NAVIY ISHLAB CHIQUARISH
TUSHUNCHALARINI FALSAFIY KATEGORIYA SIFATIDA
TALQIN ETISH MUAMMOLARI**

I.Ch.Shermanov

Samarqand davlat universiteti katta ilmiy xodim-izlanuvchisi, E-mail: shermanov1983@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada mustaqil o'zbek xalqi ijtimoiy taraqqiyotining asoslaridan birini tashkil etuvchi moddiy ishlab chiqarish va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonini tavsiflashning metodologik masalalari, ularni uyg'unlashtirishning mohiyatini tushuntirish va amaliy ahamiyatini anglashning falsafay qirralari batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy taraqqiyot, moddiylik va ma'naviylik, moddiy ishlab chiqarish, ma'naviy ishlab chiqarish, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish dialektikasi, evristika, gnosologiya, metodologiya.

Hozirgi zamon falsafa ilmining munozarali masalalaridan biri – bu globallashuv sharoitidagi ijtimoiy taraqqiyot jarayonida moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning o'zaro nisbati muammosini hal etish tashkil etadi. Bu masalaga jiddiy yondashish o'tgan XX asrning 80-yillarida boshlangan bo'lib, uni hal etishda asosan sobiq sotsialistik tuzumning g'oyaviy asosi bo'lgan materialistik dialektika an'anasi ustunlik qilgan edi. Biroq, shunday bo'lsada moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishni tahlil qilish borasida o'ziga xos bo'lgan turli xil qarashlar va yondashuvlar paydo bo'lib, ular o'rtasida ko'plab bahs-munozaralar bo'lib o'tgan edi [1]. Bu masala SSSR parchalanib, uning o'rniga bir qator mustaqil davlatlar paydo bo'lgandan so'ng yanada dolzarb muammoga aylandi. Chunki, tarix sahnasiga kelgan har bir mustaqil davlat o'zining kelgusidagi ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy xususiyatga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish ishlarini yo'lga qo'yishlari zarur bo'lib qoldiki, bu ishni amalga oshirmasdan turib erishilgan mustaqillikni qo'lda saqlab qolish amri mahol edi.

O'zbek xalqi mustaqillikka erishgach, uning falsafiy dunyoqarashi tobora eskirib borayotgan «materialistik qobiqdan» chiqib, yangicha milliy mazmun va shaklga ega bo'la boshladi. Mamlakat mustaqilligini ta'minlashning zamini bo'lmish moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish sohasida bosqichma-bosqich bir qator yirik islohotlar amalga oshirilishi natijasida «moddiy ishlab chiqarish» va «ma'naviy ishlab chiqarish» tushunchalari – fundamental falsafiy kategoriyalar darajasiga ko'tarilib, tabiiy va ijtimoiy bilimlarning har qanday tarmog'i uchun alohida dunyoqarash ahamiyatiga ega bo'la boshladiki, uning tub mohiyatini anglash orqali yangi hodisa sifatida o'rganish zarurati paydo bo'ldi. Bunda hamma gap falsafaning asosiy masalasi aynan shu kategoriyalar orqali hal etishda emas, balki ijtimoiy taraqqiyotda moddiylik va ma'naviylik dialektikasining murakkab va serqirra ekanidan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda yuz berayotgan moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarining tub mohiyatini anglash orqali, ularni uyg'unlashtirish ishlarini yo'lga qo'yish haqida borayotganligini nazardan qochirmaslik kerak.

Falsafa ilmining asosiy masalasini hal etishning ba'zi bir kategorial va metodologik darajasiga o'tar ekanmiz, ijtimoiy taraqqiyotning u yoki bu sohasida moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning nisbati qandaydir doimiy kattalik bo'la olmasligini aniq tushunib olishimiz lozim bo'ladi. Albatta, bundan moddiylik – birlamchi, ma'naviylik esa – ikkilamchi degan xulosaga kelish ilmiy dialektika nuqtayi nazaridan unchalik to'g'ri emas. Biroq, moddiy ishlab chiqarish va ma'naviy ishlab chiqarishning o'zaro munosabatida turli omillarning kompozitsiyasi, ularning o'zaro ta'sirining yo'nalishi, rivojlanish tamoyillari va funksiyalarning vazifasi har safar turlicha bo'ladi. Shu bois masalani mavhum-falsafiy tarzda qo'yishdan moddiy ishlab chiqarish va ma'naviy ishlab chiqarishning aniq dialektikasini o'rganishga o'tish ham aslo oddiy masala emas (buni, aytaylik, predmet-buyumli va belgili madaniyat olami, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy sohalarida, ijtimoiy munosabatlarning turli tizimlari yoki voqelikni individual aks yettirish va faoliyatni ongli ravishda boshqarishda ko'rish mumkin). Ushbu masalani, aftidan, moddiy ishlab chiqarish va ma'naviy ishlab chiqarish dialektikasining amalga oshish shakllaridan birini tahlil qilish natijalarini uning boshqa shakllariga bevosita ko'chirish orqali hal etib bo'lmaydi. Shunga qaramay, turli tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan qator samarali g'oyalar moddiylik va ma'naviylik munosabatlari tizimining amalda ko'p qirrali ekanligini aniqlashga imkon beradi [2]. Ammo, hatto shu jihatdan qaraganda ham, ishlar endigina boshlandi desak, xato qilmagan bo'lamiz. Demak, insoniyat faoliyatining turli

sohalarida amalga oshayotgan moddiylik va ma'naviylik o'zaro ta'siri (munosabati)ning ko'plab tomonlari hali o'rganilmagan. Ularga, jumladan, ijtimoiy taraqqiyotda moddiylik va ma'naviylik omillari dialektikasi ham kiradi.

Ijtimoiy taraqqiyotni bir qarashda odamlarning moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish birlikda va o'zaro munosabatda bo'ladigan jamiyat ijtimoiy hayot va faoliyatning real asosi sifatida baholash mumkin. Ma'lumki, ijtimoiy ishlab chiqarishning uzviy, ichki jihatdan bog'liq kichik tizimlarini moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish tashkil etadi. Bunda agar moddiy ishlab chiqarish ijtimoiy falsafa yoki iqtisodiyot nazariyasi tomonidan chuqur tahlil qilingan bo'lsa, ma'naviy mahsulotlarni ishlab chiqarish borasida shakllanayotgan faoliyat va yuzaga kelayotgan ijtimoiy munosabatlar tizimi endilikda faylasuf va iqtisodchilarning diqqat markaziga ko'chmoqda, ayni vaqtda bu nihoyatda murakkab va ba'zan oddiy tafakkur uchun juda «noqulay» obyekt bo'lib qolmoqda. Bu esa ma'naviy ishlab chiqarishni iqtisodiy tahlil qilish mumkin yoki mumkin emasligi, ishlab chiqarish va «noishlab chiqarish» sohaları chegaralari, ma'naviy faoliyatni takror ishlab chiqarishga qo'llaniladigan kategorial apparatlar va normativ baholar, pirovard natijada iqtisodiy nazariya fanining tadqiqot obyektini nima tashkil etishi mumkinligi haqidagi bahs-munozaralarni rag'batlantirmoqda. Ushbu muammolarning hammasi, shubhasiz, falsafiy xususiyatga ega. Ular, bizningcha, ijtimoiy taraqqiyotda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish dialektikasini anglash orqali hal etilishi mumkin. Aynan shu muammo, nazarimizda, yaqin yillarda ijtimoiy taraqqiyotning shunday asosiy jihatini tashkil etadiki, jamiyat hayotini yangicha anglash, o'rganishga qaratilgan falsafiy va iqtisodiy yondashuvlarni birlashtiruvchi yangi ilmiy bilimlarini «biriktiruvchi» to'qimasi aynan shu muammo atrofida shakllanadi. Ushbu muammoning hal etilishi falsafaning ham, iqtisodiyot nazariyasining ham mazmunan boyishi va metodologik samaradorligi ortishiga yordam beradi. Biroq tadqiqotchilarni bu yo'lda kutayotgan qiyinchiliklarga ham ko'z yumib bo'lmaydi.

«Moddiylik», «ma'naviylik», «moddiy ishlab chiqarish», «ma'naviy ishlab chiqarish», «ijtimoiy borliq», «ijtimoiy ong» kategoriyalari yaxlit ta'limot bo'lmish ijtimoiy falsafaning asosiy mazmunini tashkil etadi. Shu bilan birga, ularning har biri falsafaning ayrim *qismlari* doirasida mavjud kategorial aloqalar tizimiga kiradi, *muayyan kategoriyalar qatorining vakili* hisoblanadi va shu bois *obyekt topshirig'ining o'ziga xos mantig'ini* aks ettiradi. Ko'p qirrali kompleks muammolarni hal qilishda turli fanlarning kategoriyalarini birlashtirishga urinishlar har doim ham muvaffaqiyatli bo'lmaydi, chunki ayni bir kategoriyalar turlicha talqin etilishiga duch kelinadi. Turli fanlar vakillari uchun o'zlari ko'nikkan talqinlar mavjud bo'lib, boshqa talqinni qabul qilish ularga psixologik qiyinchilik tug'diradi. Bu o'rinda qandaydir vositachi til kerak bo'lib, uni ishlab chiqishdan avval obyektini nazariy aks ettirishning turli darajalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni metodologik jihatdan puxta tekshirish (tadqiq etish) lozim bo'ladi. Gap obyektini anglashning falsafiy va iqtisodiy usullari o'rtasidagi chegarani yo'q qilishda emas, balki ushbu obyekt o'rganilayotgan umumiy darajalarni aniq belgilash hamda ularni bog'lovchi bo'g'inni topishdadir. Bu vazifa gnoseologik-metodologik masala bo'lib, uni falsafaning integrativ (birlashtirish) funksiyasidan to'liq foydalangan holda hal qilish zarur. Falsafa fanlarning o'zaro munosabati metodologiyasini ishlab chiqish, boshqa fanlar bilan birgalikda bilimning turli sohaları o'rtasidagi «chok» va «o'tishlar» tabiatini, yaxlitlikning ikkiga ajralish mexanizmlarini va undagi ziddiyatli jihatlarni bilish metodologiyasini topib, dialektik tadqiq etishga xizmat qilishi lozim. Bunda shuni yodda tutish lozimki, hech qanday mavhum, «universal», bilim sohalarining o'ziga xos tabiatiga befarq tizim va modellar har bir fandagi muayyan vaziyatni aniq tahlil qilishning ham, *ularning umumiy aloqalari aniq tabiatini tahlil qilishning ham* o'rnini bosa olmaydi.

Ijtimoiy taraqqiyotning moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish omillarining o'zaro munosabatini tahlil qilishda falsafa va iqtisodiyot nazariyasi o'rtasida to'plangan axborot tajribasini o'zaro almashish zarurati ijtimoiy amaliyot ehtiyojlari bilan ham bog'liqdir. Ijtimoiy taraqqiyotning tezlashuvi butun jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimini tubdan isloh qilish zaruratini ham yuzaga keltiradi. Iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayot sohaları o'rtasidagi aloqalar keskin murakkablashadi, buning ustiga, ularning rivojlanishida o'zaro bog'liqlikning kuchayishi ustunlik qila boshlaydi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizning iqtisodiy hayotini tubdan o'zgartirish borasida qabul qilinayotgan qarorlarning amaliyligi ijtimoiy boshqaruvning samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir. Amaliyotning o'zi shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy sohalarining birida yuz bergan o'zgarish boshqa barcha sohalariga ham ta'sir ko'rsatmoqda va binobarin, boshqa tizimlardagi rivojlanishni tartibga solmay turib, ijtimoiy munosabatlarning biror tizimidagi islohotlarni rag'batlantirishning iloji bo'lmaydi.

Ijtimoiy hayotning turli sohalarida kuchayib borayotgan o'zaro bog'liqlikka oid ushbu jarayonlar haqida xulosa chiqarishga imkon beradigan empirik material keragidan ortiqdir. Endilikda uni nazariy jihatdan umumlashtirish zarur. Ijtimoiy munosabatlarni alohida «madaniyat», ya'ni iqtisodiy madaniyat va ishlab chiqarish madaniyati, siyosiy madaniyat va boshqaruv madaniyati, ma'naviy madaniyat sifatida shakllanish mexanizmlarini o'rganishga kirishgan tadqiqotchilar ana shu yo'nalishdan bormoqdalar: ular ijtimoiy rivojlanishning shunday sohalaridirki, ularning mohiyati, nazarimizda, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning ziddiyatli birligi hamda ushbu bir-biriga aylanishlarning o'ziga xos qonunlari bilan bog'liqdir. Bu obektning shunday «ichki kesimi»dirki, uni tahlil qilish, shubhasiz, jamiyatimiz rivojlanishidagi murakkab hodisalarni tushunishga yordam beradi. Shunday qilib, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish dialektikasini tadqiq etish fundamental bilimda muayyan paradoks borligini ko'rsatmoqdaki, u chinakam fundamental bo'lgani uchungina amaliy bo'lib qolmoqda.

Endi tadqiqotimizning bevosita predmetini tashkil etadigan hodisalar doirasini aniqroq ajratib olishga harakat qilamiz. Gap bu o'rinda, avvalo, *ishlab chiqarish jarayonlari haqida* boradi. «Moddiy ishlab chiqarish», «ma'naviy ishlab chiqarish» kategoriyalariga o'zaro bog'liq juft qarama-qarshilik sifatida qaraymiz. Tabiiyki, ijtimoiy hayotimizning butun boyligi faqat shu kategoriyalar bilan cheklanib qolmaydi. Shu bois, biz moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning o'zaro munosabatini faqat *muayyan mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish borasidagi faoliyatda, bunda shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimlari va ana shu maqsadlarning o'zlarida ko'ramiz*. Yo'lga qo'yilgan va ijtimoiy jihatdan tashkil qilingan takror ishlab chiqarish sohasiga kirmaydigan ko'plab moddiy va ma'naviy hodisalar mazkur sohadan tashqarida qoladi. Inson hayoti va faoliyatining har qanday taraflarini ijtimoiy taraqqiyotdagi moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish dialektikasi orqali tasavvur qilishga intilmaymiz. Umuman, dastlabki kategoriyalardan haddan tashqari kengaytirib foydalanish ularning nazariy hajmi yo'qotilishiga olib keladi, xolos. Gnoseologik tahlil shundan dalolat beradiki, tushunchalar mantig'ida doimo kategoriyalarning nazariy sig'imi (ularning nazariy yuklanganligi va nazariya tarkibidagi funksional roli) hamda ularning empirik jihatdan tasavvur etilishi o'rtasida doimo o'zgaruvchan (dinamik) muvozanat mavjud. Ko'p hollarda biror kategoriya orqali qanchalik katta empirik materialni ifodalashga harakat qilinsa, uning chegaralari shunchalik tez yemiriladi va u, aslida, bilish vositasi sifatida evristik xaxirasini (imkoniyatlarini) yo'qotib boradi. Buning ustiga, tanlangan kategoriyalar *majburiyat yuklaydigan metodologik darajani* ham unutmaslik lozim.

Xuddi shu tariqa, *ong ishlab chiqarish* haqidagi har qanday empirik dalil ham *ma'naviy ishlab chiqarish* sohasiga kirmaydi, xuddi shuningdek, *muayyan sanoat korxonasi* ishi haqidagi ma'lumotlar har doim ham «*moddiy ishlab chiqarish*» kategoriyasiga nisbatan relevant emas. Garchi bu kategoriyalar empirik jihatdan bilinadigan hodisalarni nazariy umumlashtirish orqali olingan bo'lsa ham, bu yerdagi umumlashtirish bevosita emas, balki boshqa kategoriyalar va tushunchalarga oid sxemalar bilan ko'plab rishtalar orqali bog'langan.

Ijtimoiy falsafa nazariyasi «moddiy ishlab chiqarish» va «ma'naviy ishlab chiqarish» kategoriyalaridan tashqari, muhimlik va boylikda qolishmaydigan ko'plab boshqa kategoriyalarga ham egadir. Ushbu kategoriyalarning qaysilari tanlanishi ko'p jihatdan ularning ijtimoiy hodisalarni konseptual anglash borasidagi evristik imkoniyatlari bilan, bu imkoniyatlar esa, o'z navbatida, muammoni tadqiq etishda qo'llanilayotgan falsafiy mavhumlashish darajasiga bog'liq. Masalan, mutlaqo qarama-qarshi realliklar (voqeliklar) sifatida baholanadigan moddiylik va ma'naviylikning o'zaro nisbati haqidagi masalani moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish kategoriyalari nuqtayi nazaridan uzil-kesil hal qilishning iloji yo'qligi aniq. Ammo moddiylik va ma'naviylikning bir-biriga aylanishi jarayonlarini, ularning ikki *ziddiyatli birligi* hamda funksional *aloqasini* o'rganish uchun ijtimoiy ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi qulay va ulkan material bo'ladi.

Moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish kategoriyalari, aftidan, ruhiy jarayonlarning idealligini hamda individning bilish obrazlari shakllanishida va intellektual faoliyatida moddiylik va ma'naviylik nisbatini bilishga uncha yaroqli emas. Moddiylik va ma'naviylikning o'zaro ta'siri (munosabati) muammosi shu darajada murakkab, uni hal etish shu darajada mas'uliyatlidirki, ma'naviylikning ildizlarini talqin etishda ham, obyektni predmet-ilmiy o'zlashtirish xususiyatlariga borib taqaladigan an'analarni talqin etishda ham bu an'analarni (ammo ayrim tadqiqotchilarning «yetarli tushunmasligi» yoki nimalarga ustunlik berishi va moyilligidangina iborat bo'lmaydigan real mavjud bo'lgan va hozircha uncha qovushmaydigan tabiatini) ko'rmaslikning iloji yo'q. Biz, asosan, bir tomondan psixologiya va oliy nerv faoliyati fiziologiyasiga, boshqa tomondan esa sotsiologiya va

iqtisodiyot nazariyasiga mo'ljalladigan tadqiqotlar yo'nalishlarini nazarda tutaymiz. Aytmoqchi, bu mo'ljall (yo'nalish) har doim ham aniq ifodalangan emas, ba'zan esa ko'rinmaydi, hatto yashirindir. Shuni e'tiborliki, ma'naviylik muammosiga murojaat etgan ko'pchilik olimlar «ijtimoiy ong doimiy individual onglar shaklida amalga oshadi» yoki «ijtimoiy ong individual onglar yig'indisi emas, ammo u ko'plab individual onglar orqaligina mavjud bo'ladi», degan umumiy qoidani qabul qiladilar. Ushbu qoidaning qabul qilinishi o'z-o'zicha hali ongning individual va ijtimoiy shakllariga nisbatan tadqiqotchilarning qarashlari yakdilligini kafolatlamaydi. Muayyan bir tadqiqotda individdagi fikriy jarayonlar kechishining xususiyatlarini o'rganishdan umumiy mafkuraviy shakllariga o'tish oson emas. Unisi ham, bunisi ham amalda mavjud, – bunga hech kim shubha qilmaydi. Ammo falsafiy tahlilning tarixiy tajribasi ushbu reallikning tabiatini tushunish nihoyatda qiyin ekanligidan dalolat beradi. Bu yo'lda yuzaga keladigan prinsipial qiyinchiliklar haqida gapirmasa ham bo'ladi, ma'naviylik muammosini muhokama qilishning hozirgi holati o'ziga xos metodologik «yetishmovchilik» tufayli murakkablashgan. Aslida, obyekt (ongni) tahliliy ajratishning dastlabki predmetli-ilmiy usuliga suyanadigan ko'p hollarda ishlatiladigan metodologik strategiyalar yagona mumkin bo'lgan strategiya deb e'lon qilinadi. Bizningcha, «buyumlardagi ma'naviylik» yoki «miyadagi ma'naviylik» degan yolg'on dilemma yuzaga keladi. Masalaning bunday qo'yilishi muammoli izlovni rag'batlantirmaydi, balki to'xtatadi. Shu paytga qadar, loaqal, «miya»ga «tarafdor» va «qarshi» dalillarning paydo bo'lishi aynan bahs-munozara ustidan aqliy nazorat yo'qolganligi va bahslashuvchilarning hissiy zo'riqligini bildiruvchi «yurak ovozi» ko'tarilib ketganidan dalolat beradi.

Bunda biz moddiy ishlab chiqarish va ma'naviy ishlab chiqarish dialektikasining umumiy muammolarini ham yangicha anglashga imkon beradigan ishlab chiqarishning moddiy va ma'naviy omillari o'zaro munosabatlarini tahlil qilish natijalarini ajratib ko'rsatishga harakat qilamiz. Biroq, agar metodologik tahlil darajasiga qat'iy amal qiladigan bo'lsak, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish kategoriyalarida asosan ijtimoiy hayot faoliyati sohasida moddiylik va ma'naviylikning bir-biriga aylanish jarayonlarini tasavvur qilish mumkin. Ammo bu hol moddiylik va ma'naviylik dialektikasining shaxsiy (shaxsga xos) jihati bu bilan batamom psixologiyaga berilishini anglatmaydi. Falsafa bu o'rinda ancha mustahkam va istiqbolli o'rinlarni qo'lga kiritgan (egallagan). Biz faqat mazkur (tanlangan) kategoriyalar majbur etadigan va rioya etilishi, bizningcha, butun tadqiqotning metodologik samaradorligini faqat oshiradigan cheklovlarnigina ko'rsatib o'tamiz.

Shartli ravishda aytganda, iqtisodiyot nazariyasi haqiqatan ham doimo takrorlanadigan, «ko'paytiriladigan» – takror ishlab chiqariladigan narsalar bilan ish ko'radi; insonni emas, balki odamlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Iqtisodiyot nazariyasi individual ruhiy faoliyat hodisalaridan mavhumlashadi. Individual ong uning predmeti (bahs mavzui)ga kirmaydi. Biroq hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasi ishlab chiqarish tizimlarida mustahkamlangan ijtimoiy ong hodisalaridan mavhumlasha oladimi? Bizningcha, yo'q. Ana shuning uchun ham iqtisodiy (ayniqsa, falsafiy-iqtisodiy) tadqiqotda ma'naviylik muammosining jihatlaridan birini, ya'ni ma'naviylik noruhiy, ammo predmetlashgan ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy shakli sifatida mavjud bo'lgan nosubstansional reallik sifatida namoyon bo'ladigan noruhiy jihat tashkil qiladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarishda ma'naviylikning amal qilish jarayoni haqiqiy moddiy ijtimoiy munosabatlarni va binobarin, pirovardida insonning o'zini o'zgartiradigan haqiqiy moddiy kuchga aylanishiga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

O'zbek xalqining ijtimoiy taraqqiyotida moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarining roli va ahamiyatini belgilab berishning falsafiy metodologik asoslarini:

1. Islom Karimov tomonidan bildirilgan: «...inson o'z timsolida ham moddiy, ham ma'naviy xususiyat va alomatlarni mujassam etgan noyob xilqat, Yaratganning buyuk va sirli mo'jizasidir. Uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi. Qachonki ana shu ikki muhim omil o'zaro uyg'unlashsa, tom ma'nodagi qo'sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o'sish-o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi» [3], degan fikrlari tashkil etadi.

2. Moddiy ishlab chiqarish deb bu individ, shaxs, inson va jamiyatning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar hisoblanmish oziq-ovqat, keyim-kechak, turar joy, texnikaviy vositalarni yaratish, iste'mol qilish, ayirboshlash, taqsimlash kabi jarayonlarning bir butun yaxlit tizimiga aytiladi. Bunda insonning yashashga bo'lgan ishtiyoqi, o'zi uchun qulay bo'lgan moddiy sharoitlarni yaratishga olib keladi. Yashashga bo'lgan ishtiyoqi tufayli yaratilgan moddiy

sharoitlarning o'zi esa ma'naviy ishlab chiqarish jarayonining debochasini tashkil etadi. Ana shu jarayonlarning barchasi "moddiy ishlab chiqarish" tushunchasida o'zining aksini topadi.

3. Ma'naviy ishlab chiqarish – shaxs, inson va jamiyat tomonidan ma'naviy boyliklar hisoblanmish g'oyalar, nazariyalar, bilimlar, badiiy asarlar, axborot tizimlari, qadr-qimmatga ega bo'lgan boyliklarni yaratish, o'zlashtirish, iste'mol qilish jarayonlarining yaxlit bir tizimi hisoblanadi. Bu jarayonlarning barchasi "ma'naviy ishlab chiqarish" tushunchasida o'z aksini topgan bo'ladi. Ma'naviy ishlab chiqarishsiz moddiy ishlab chiqarish mavjud bo'lolmaydi va aksincha. Ularni bir biridan ustun qo'yish yoki ajratib talqin qilish, shakllanib kelayotgan yangicha o'zbekona falsafa ilmining mantig'iga to'g'ri kelmaydi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B.67.
2. Hayitov U. Jamiyat taraqqiyotida ma'naviyatning o'rni. – T.: Ma'naviyat, 2015. – B. 8.
3. O.Sultonmurod. Ma'naviy barkamollik sir-sinoati. –T.: Ma'naviyat, 2015. – B. 16-20.
4. To'rayev Sh. O'zbekistonda demokratik jamiyat rivojida iqtisodiy va ma'naviy omillar uyg'unligi. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 4-6.
5. Толстых В.И. Социально-философские проблемы теории общественного производства. – Вопросы философии, 1982, № 4, – С.49.
6. Бородин Е.Т. Проблема возникновения производства непосредственной жизни общества.– Философские науки, 1980, № 6., – С.55.
7. Ильенков Э.В. Проблема идеального – Философские науки, 1979, № 7., – С.158.
8. Барулин В.С. Соотношение материального и идеального в обществе. (Методол.аспекты проблемы).-М.:Политиздат, 1977. – С. 87

Шерманов И.Ч.

ПРОБЛЕМЫ ИНТЕРПРЕТАЦИИ МАТЕРИАЛЬНЫХ И ДУХОВНЫХ ПРОИЗВОДСТВ КАК ФИЛОСОФСКИХ КАТЕГОРИЙ

Эта научная статья является одной из основ независимого социального развития узбекского народа в материальном и духовном аспекте и описывает процесс производства методологических вопросов, объединяющих их понятия и реализовать сущность философских аспектов понимания важности деталей.

Ключевые слова: социальное развитие, материя и духовность, материальное производство, духовное производство, диалектика материального и духовного производства, эвристика, гносеология, методология.

Shermanov I. Ch.

THE PROBLEMS OF INTERPRETATION OF MATERIAL AND SPIRITUAL PRODUCTIONS AS PHILOSOPHICAL CATEGORIES

This article is considered as one of the bases of material-spiritual and social development of Uzbek nation and describes the process of methodological problems uniting their notions and essence of philosophical aspects of understanding important details.

Key words: social development, material and spirit, material production, spiritual production, dialects of material and spiritual production, evristics, gnoseology, methodology.

UDK: 413:519

KIBERNETIK LEKSIKOGRAFIYA VA TIL KORPUSI MUAMMOLARIGA DOIR

T.Valiyev

QarshiDU mustaqil izlanuvchisi, E-mail: valiyev-1972@umail.uz

Annotatsiya. Leksikografiya sohasini kompyuterlashtirish, elektron lugʻatlar yaratish, kiberleksikografiya yoʻnalishini rivojlantirish, oʻzbek internet lugʻatlarini tuzish va sohalar boʻyicha dasturlarni yaratib, anʻanaviy lugʻatlardan avtomatlashgan (elektron) lugʻatlar yaratishga oʻtishni talab etadi. Kiberlugʻatlar korpusini yaratish, tildagi har qanday soʻzning barcha xususiyatlari haqida aniq va ishonchli maʼlumotlarni olish imkoniyatiga ega boʻladi.

Kalit soʻzlar: kiberleksikografiya, elektron lugʻat, korpus, korpus lingvistikasi, internet, internet lugʻat, axborot texnologiyalari, virtual.

Respublikamiz hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan katta oʻzgarishlar, rivojlangan juda koʻp mamlakatlar bilan aloqalarning tobora kuchayib borayotganligi qisqa vaqt mobaynida oʻzbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Shuningdek, leksikografiya sohasida erishilgan muayyan yutuqlar, davr talablaridan kelib chiqqan holda, lugʻatchilikning yangi nazariy muammolariga ham eʼtibor qaratishni talab etadi. Ular sirasida kiberleksikografiya va kiberlugʻatchilik muammosi alohida oʻrin tutadi.

Oʻtgan asrning ikkinchi yarmida rivojlangan xorijiy mamlakatlarda kibernetika fani shiddat bilan rivojlanib, uning natijalari ishlab chiqarishga keng tatbiq etila boshladi. Ishlab chiqarish jarayonida sinovdan oʻtgan zamonaviy texnologiyalar, ularning yanada takomillashtirilishi, kibernetika sohasida yangidan yangi tadqiqotlarning vujudga kelishi uchun zamin yaratdi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi jamiyat aʼzolaridan texnika va texnologiyani puxta oʻzlashtirishni, elektron lugʻatlar yaratish va ularni samarali qoʻllash, tadqiqotlar olib borish, axborotni qayta ishlash, ulardan toʻliq foydalanish koʻnikmalariga ega boʻlishni talab etadi.

Axborotni qayta ishlash jarayoniga avtomatik usullarni tatbiq qilish leksikologiya, leksikografiya sohasida ham kompyuter imkoniyatlari maxsus optimal texnologiyalar asosida ishlashni, lugʻatchilikka zamonaviy informatsion leksikografik dasturlarni faol qoʻllashni ehtiyojga aylantiradi.

Leksikografiya sohasining kompyuterlashishi shuni koʻrsatadiki, faqat elektron lugʻatlar leksemaning butun mohiyatini tezkorlik bilan oʻquvchiga yetkazish imkoniyatini beradi. Jamiyatni axborot texnologiyalarining qamrab olishi leksikografiyada zamonaviy – kiberleksikografiya yoʻnalishining paydo boʻlishiga turtki berdi. Maʼlumotlarni qayta ishlash tartibini avtomatlashtirish, yangi faol leksikografik sistemalarni yaratish, buning natijasi sifatida anʻanaviy lugʻatlardan avtomatlashgan (elektron) lugʻatlar yaratishga oʻtish jarayonini tezlashtirishga olib keladi. Shu boisdan ham, lugʻat tuzishda axborot texnologiyalardan keng foydalanilishga, ularni internetda joylashtirib, keyingi oʻrinda alohida sohalar boʻyicha kitob shaklida foydalanish uchun dasturlash avj oldi.

Zamonaviy leksikografiyaning ilgʻor sohasi kompyuterlashgan kiberleksikografiyadir. Bu internet lugʻatlarini tuzish va matn bilan ishlashga imkoniyat yaratadi. Kiberlugʻatlar qidiruv tizimi asosida axborotlarni tez va sifatli olishga xizmat qiladi. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida kibernetika “kibernetika [yun. *kibernetike* (techne) – boshqarish, dargʻalik (mahorati)] 1 boshqaruv jarayonlari hamda mashinalar, tirik organizmlar va jamiyatda axborot maʼlumot uzatishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fan. Texnikaviy kibernetika. Iqtisodiy kibernetika. Tibbiyot kibernetikasi. Kibernetikaning texnik asosini elektron hisoblash mashinalari tashkil etadi. 2 Informatikada: axborot – maʼlumot olish, saqlash va uni qayta ishlashning umumiy qonunlari haqidagi fan” [1, 363] sifatida izohlangan boʻlib, bugungi kunda u “virtual lugʻatlar, ular bilan ishlash hamda yaratish texnologiyalari” mazmunida ommalashmoqda. Bunda sohani Internet tizimi doirasida idrok etish lozim.

Kiberleksikografiya (*cyberlexicography*) internet elektron lugʻatlarni – umumiy va maxsus turdagi akademik, ensiklopedik va lingvistik (*general-purpose i special-purpose dictionaries, Free Internet Encyclopedia*) lugʻatlarni yaratishning nazariy asoslarini oʻzida ifodalaydi. Bugungi kunda “Yahoo!” loyihasi doirasida 50 turdagi qariyb 500 ta sayt mavjud boʻlib, ularda lugʻatlar xazinasi toʻla va umumiy tarzda joylashtirilgan, ular alohida bilimlar sohasi boʻyicha maxsus qoʻllanmalar sifatida tartiblashtirilgan.

Kompyuter lingvistikasiga qiziqish avval 1956-1965-yillar oralig'ida AQShda shakllangan (Georgetown University Machine Translation Research and Language Project) [1] Elektron ma'lumotlar asosida ko'pgina Random House Dictionary (1966), American Heritage Dictionary (1969), Webster's eighth Dictionary (1973) va Collins COBUILD Dictionary (1979) kabi elektron lug'atlar yaratilgan. Hozircha shu asosda ko'pchilik tillarda elektron lug'atlar yaratish borasida bir necha tadqiqotlar olib borilgan. N.A.Sivakova [2], V.M.Varinskaya, S.A.Stroykov [4], S.V.Levoniso'va [5], S.S.Subbotenko [6], YE.V.Juchkova [7], P.I.Sergiyenko [8], I.N.Savchenkova [9, 25], G.G.Babalova [10] kabi bir qancha olimlar elektron lug'at yaratish usullari ustida salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Ayniqsa, kiberlug'atlarning yorqin namunasi bo'lgan korpuslarning yaratilishi leksikografiya sohasini yangi cho'qqilarga olib chiqdi. Ma'lumki, korpus yozma matnlarning elektron shakldagi to'plami bo'lib, maxsus ishlab chiqilgan kompyuter dasturlari orqali to'plangan lug'atlar jamlanmasi kiritilishi asosida yaratiladi. Korpus kompyuter dasturi shaklida tilning barcha jihatlarini yoritib bera oladi. Shuning uchun ham, korpus lingvistikasi tilning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda uni qayta baholashga olib keladi. *Kiberleksikografik korpusning* asosiy manbasi – axborot-qidiruv tizimiga solingan lug'atlar to'plami bo'lgan korpusdir. Korpus (ingliz tilidan olingan, korpus so'zining ko'plik formasi *corpora*) o'zgaruvchan hajmga ega hamda turli maqsadlar uchun yig'ilgan, to'plangan so'zlar ham turlicha bo'lishi mumkin. Barcha to'plamlar ma'lum jihatdan biri-biriga o'xshash bo'lib, to'plangan so'zlar bitta tilga xos yoki shu tilga xos boshqa variantlarda berilgan bo'ladi. Ma'lum hajmga nisbatan ularning barchasi turlicha bo'lishi, bunda so'zlar turli manbalardan yig'ilgan va bir necha turdagi so'zni o'z ichiga olgan bo'ladi.

Korpuslar maxsus ishlab chiqilgan kompyuter dasturi orqali amalga oshirilgan bo'lib, zaruriy ravishda so'zlarni aks ettirishni o'z zimmasiga oladi. Eng asosiysi, korpus dasturi berilgan maqsadli so'zni tadqiq etadi, korpusdagi misollar sonini aniqlaydi va bog'liqlik chastotasini hisoblaydi, maqsadli qismga xos misollarni namoyish etadi, bundan foydalanuvchi keyingi tadqiqotlarni davom ettira olish imkoniga ega bo'ladi.

1980-yillarning o'rtalariga kelib korpus tadqiqotlari asosida tuzilgan birinchi o'quv lug'ati leksikograf va grammatistlar uchun beqiyos manba vazifasini o'tagan. Zamonaviy o'quv lug'ati oldingilardan farqli o'laroq, frazeologiyaga, asosan, birikmalarga ko'proq e'tibor qaratgan.

Kiberleksikografiyaning shakllanish va rivojlanish omillariga doir. Har qanday jamiyatning muayyan taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishi ilm-fan taraqqiyotiga yangicha munosabatda bo'lishni yuzaga keltiradi. Jamiyatdagi rivojlanish, tartib-qoidalar, mulkka egalik qilish odamlar ongi va tafakkurining o'sishiga, bir vaqtning o'zida ehtiyojlarining tobora oshib borishiga sabab bo'ladi.

Ijtimoiy munosabatlar qanchalik rivojlangan bo'lsa, ishlab chiqarish, texnika va texnologiya ham shunchalik rivojlangan bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy taraqqiyotning yuksalish darajasini belgilaydi. Jamiyatning taraqqiyoti ijtimoiy omillarning rivojlanishiga bog'liq bo'lsa, jamiyatning holati undagi ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlarning rivoji ishlab chiqaruvchi kuchlarning, texnika va texnologiyaning ravnaqiga olib keladi.

Barcha taraqqiyot negizida iqtisodiy munosabat va omillar yetakchi rol o'ynaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar va uning boshqa shakllari bir-birini to'ldirib, yaxlit tizimni tashkil etadi. Jamiyatda ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida kishilarning ehtiyojlarini qondirish uchun kerak bo'ladigan ne'matlarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyat amaliyotda namoyon bo'ladi. Rivojlanish natijasida yalpi ichki mahsulot va milliy daromad yuzaga keladi. Bu esa jamiyat a'zolari bilan birgalikda, iqtisodiy tafakkur va faoliyat omillarini belgilaydi. Demak, ma'lum bo'ladiki, jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq ekan, ijtimoiy muammolar bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik fani rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Masalan, tilimizning ichki imkoniyatlarini axborot texnologiyalari tizimida yetarli darajada ishga solish dolzarblashganligi fikrimizning dalilidir. Ayniqsa, o'zbek tilining milliy kiberlug'atlarini yaratish dolzarb masala bo'lib, bu o'zbek leksikografiyasining, uning mahsuli sifatidagi milliy Internet lug'atlarining jahon virtual olami bilan bog'lanish va ulardan oziqlanish imkonini beradi.

Leksikologiyaning yangi yo'nalishini ifodalovchi kiberleksikografiyani yo'lga qo'yish ehtiyoji tadqiqotchilar zimmasiga aniq vazifalar yuklamoqda. Bugungi kundagi taraqqiyot o'zbek tilshunosligining kiberleksikografiya sohasini rivojlantirish, uning imkoniyatlaridan amaliy foydalanish va bu tarmoqning samaradorligini oshirishni talab qilmoqda. Texnik va texnologik zaruriyat hamda ehtiyoj bu sohaning paydo bo'lishi va jadallashuviga olib keldi. Texnologik jarayonlarning shiddatli tus olishi natijasida olib borilgan turli usuldagi tajriba va ilmiy yondashuvlar

tilshunoslikda kiberleksikografiyaning eng zamonaviy va samarali usullarini yaratishga ustuvor tus bermoqda.

Fan va texnika rivojlanib borgan sari o'zbek tilshunosligi va uning tarmoqlari ham yangilanib, takomillashib boraveradi. Kiberleksikografiya sohasining shakllanishida ilmiy-nazariy tadqiqotlar, texnologik loyiha va standartlashtirilgan yagona tizimlar belgilovchi omil bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Texnik-texnologik yondashuvning kuchayishi, texnikada yangi tarmoqlarning vujudga kelayotganligi kiberleksikografiyaning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Texnik-texnologik yondashuv qog'oz shaklidagi lug'atlardan voz kechib, elektron lug'atlardan foydalanish zaruratini kuchaytirmoqda. Elektron lug'atlar foydalanuvchilar uchun qulay bo'lib, iqtisodiy tejamkorlik bilan bir qatorda, undan istagan til hodisasini tez qidirib topish, tahrir qilish, turli variantlaridan, tarjimalaridan foydalanish imkonini beradi.

Kiberleksikografiya sohasini rivojlantirish kiberlug'atlarning o'zbek tilidagi to'liq va to'laqonli bazasini yaratish, avtomatik tahrirlash, o'zbek tilidan boshqa tilga yoki aksincha tarjima qiluvchi mukammal dasturlarni yaratishni taqozo qiladi.

Kiberleksikografiya kompyuter tarjimasini, tahriri, tahlili, elektron lug'at va tezaurus, til korpuslarini yaratishda ham ahamiyatli. Ayniqsa, zamonaviy elektron lug'atlar tuzish va undan foydalanish madaniyatini shakllantirish til imkoniyatini egallashda samarador ekanligini ta'kidlash joiz. Xullas, kiberlug'atlar til imkoniyatini nisbatan to'la va keng qamrovli namoyon qilish, egallashda an'anaviy vositalardan keskin farq qiladi.

Dunyoda yuksak texnologiyalarning yuzaga kelishi, ijodiy tafakkurning o'sishi, axborotlashuv, globallashtirish kabi taraqqiyot mamlakatimizda tildan foydalanuvchilarning dunyoqarashi, ong va tafakkurini ham tubdan o'zgartirdi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarda bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligi fani rivoji uchun ham shart-sharoitlar yaratildi. Xususan, mamlakatimizda fan va texnikaning jadallashuvi natijasida tilshunoslik bo'yicha tadqiqotlarga yangi turdagi texnika va texnologiyalarni, mashina va apparatlarni, elektron asbob-uskunalarini joriy etish tezlasha boshladi.

O'tgan davrda o'zbek tilshunosligining leksikografiyasi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar ham samarali bo'ldi. O'zbek leksikografiyasida qo'lga kiritilgan yutuqlar va davr talabi leksikografiyaning yangi zamonaviy yo'nalishi hisoblanadigan kiberleksikografik tadqiqotlar asosida zamonaviy virtual lug'atlar yaratishni talab etmoqda. Axborot texnologiyalari asrida yuz berayotgan fan-texnika taraqqiyoti kiberleksikografiya sohasini lug'atshunoslik va lug'atchilikning ilg'or yo'nalishi sifatida shakllantirish zaruriyatini kun tartibiga qo'yimoqda. Ayniqsa, o'zbek kompyuter kiberleksikografiyasini yo'lga qo'yish bu boradagi ilk qadamlardan bo'lishi shubhasiz. Zamonaviy tilshunoslikning yutuqlari asosida bugungi kunda o'zbek tili lug'atlarini kompyuter texnologiyalari asosida qurish va qayta ishlash, uning qo'llanishini ma'lum bir sharoit, turli sharoit uchun modellashtirish, ona tilimiz kompyuter modellarini lingvistik yoki boshqa sohalarda qo'llash, texnika tarjimasini kabilar bo'yicha erishilayotgan sezilarli yutuqlar kiberleksikografiyasini yo'lga qo'yishga olib kelmoqda. Xususan, o'zbek leksikografiyasining bugungi holati uning til korpuslari yaratishga o'tilayotganligi bilan ahamiyatlidir.

Til korpusi qidiruv dasturiga asoslangan virtual lisoniy muhit bo'lib, bir tilga oid matnlar yig'indisidir. Korpus cheksiz so'z qo'llanishlarini o'z ichiga oladi. Tilning mukammal korpuslarida til paydo bo'lgandan buyon hozirgi kungacha yaratilgan barcha yozma, og'zaki matnlar joylashtiriladi. U doim yangilanib borish imkoniyatiga egaligi, keng qamrovligi va foydalanishda qulayligi bilan ahamiyatli.

Til korpusi an'anaviy lug'atlardan keskin farq qilib, so'zlarning qo'llanish doirasi, tillarning rivojlanish va o'zgarish darajasini, hatto, har bir so'zning qo'llanish chastotasi va xususiyatlarini ham tez va mukammal aniqlab bera oladi. Korpusda tildagi har qanday so'zning barcha xususiyatlari haqida aniq va ishonchli ma'lumotlarni olish imkoniyati mavjud. Til korpusi Internet tizimida faoliyat ko'rsatganligi sababli tejamkorlik xususiyatiga ega. U doimiy yangilanib, takomillashtirilib borilganligi tufayli har doim jamiyat talablariga mos bo'lib, eskirish xususiyatidan xoli bo'ladi. Korpus lingvistikasi esa ana shu til korpuslarini yaratish asoslari bilan shug'ullanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati: – T: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.363 www.mydisser.com/dfiles/01957354.doc

2. Sivakova N.A. Leksikograficheskoye opisaniye angliyskix i russkix fitonimov v elektronnom glossarii : Dis... kand. filol. nauk : 10.02.21. – Tyumen, 2004.
3. Kontekstologicheskiy slovar kak element obuchayushix sistem: Dis... kandidata filologicheskix nauk. – Moskva, 2005/ <http://www.dissercat.com/content/>
4. Stroykov S.A. Lingvopragmaticheskiye xarakteristiki angloyazichnogo elektronnoy leksikograficheskogo giperteksta (na materiale slovary-a-ensiklopedii «The Free Dictionary»): Avtoref... kand.filol.nauk. – Samara, 2008.
5. Levonisova S.V. Kompyuterniy slovar kak sredstvo izucheniya angliyskogo yazika studentami neyazikovix spetsialnostey vuzov: Diss. kand.ped.nauk. – Moskva, 2004 / <http://www.dissercat.com/content/>
6. Subbotenko S.S. Yazikovaya i janrovaya spetsifika nemeskix elektronnix birjevix tekstov: Diss. kand.filol.nauk. – Kursk, 2010/ <http://www.dissercat.com/content/>
7. Juchkova YE.V. Modelirovaniye otraslevoy slovarnoy tipologii :na materiale slovarey po psixologii v russkom i angliyskom yazikax: Diss. Kand.filol.nauk. – Yekaterinburg, 2008 / <http://www.dissercat.com/content/>
8. Sergiyenko P.I. Lingvokognitivniye osobennosti elektronnoy gipertekst: Diss... kand.filol.nauk. – Moskva, 2009.
9. Savchenkova I.N. Lokalno oriyentirovanniy uchebniy slovar russkogo yazika dlya inostransev: prinsipi postroyeniya i struktura: Avtoref. kand. filol. nauk. – Rostov-na-Donu, 2012. – 25 s. <http://www.dissers.ru/1filologiya/>
10. Babalova G.G. Sistemno-aspektualnoye funkcionirovaniye kompyuternoy terminologii: Diss. dokt.filol.nauk. – Omsk, 2009. – 380 s. <http://www.dissercat.com/content/>

T. Валиев

О КИБЕРЛЕКСИКОГРАФИИ И ПРОБЛЕМАХ ЯЗЫКОВОЙ СИСТЕМЫ

Компьютеризация в области лексикологии и создание электронных словарей, развитие направления киберлексикологии и составление интернет-словарей узбекского языка и создание программы по отраслям предполагает переход от традиционных словарей к автоматизированным (электронным) словарям. Это даст возможность создания корпуса киберсловарей, получения точной и достоверной информации о всех свойствах каждого слова в языке.

Ключевые слова: киберлексикология, электронный словарь, корпус, корпусная лингвистика, интернет, интернет словарь, информационные технологии, виртуальный.

T. Valiyev

ABOUT THE CYBER LEXICOGRAPHY AND PROBLEMS OF LANGUAGE SYSTEM

Computerization in the field of lexicology and creation of electron dictionaries, development of cyber lexicography and compiling Internet dictionaries, creation of programmes due to branches considers transfer from traditional dictionaries to automatic (electron) dictionaries. This will give chance to create the corp of cyber dictionaries, to get exact and trustful information about all features of each word in a language.

Keywords: cyber lexicography, electron dictionary, corp, corp linguistics, Internet, dictionary, information technologies, virtual.

UDK.41 I-21

IDIOMATIK QO‘SHMA SO‘ZLARNING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILIGA DOIR

A.G.Yuldashev

O‘zDJTU katta ilmiy xodim-izlanuvchi

Annotasiya. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi metaforik ma’no ko‘chishi orqali yasalgan idiomatik qo‘shma so‘zlarning lingvokognitiv aspektida, kontekst orqali tahlil qilish masalasi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: kontekst, kognitiv maydon, konseptual metafora, maydon-manba, maydon-nishon.

Tilshunoslikda qo‘shma so‘z tadqiqiga bag‘ishlangan bir qator ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lsa-da, ushbu muammo hanuzgacha o‘z yechimini topgani yo‘q. Jumladan, ingliz tilida [C.Carr: 1939,

O.Jespersion: 1954, I.Ibragimxadjayev: 1979, O.D.Meshkov: 1985, I.To'xtasinov: 2011] va o'zbek tilida [A.Hojiyev: 1963, B.Madaliyev: 1966, N.Mamatov: 1982] tomonidan tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. Tadqiqot mobaynida yuqorida nomlari qayd etilgan olimlar ilmiy muammo sifatida mazkur til birligining genezisi, strukturaviy jihatdan tuzilishi, gender aspekti va imlosi o'rganilgan. Ammo ularning semantikasi, komponentlar o'rtasidagi aloqa va kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilinmagan.

Ma'lumki, tilshunoslar qo'shma so'zlarni semantik tuzilishi jihatidan ravshanligi va noaniqligiga ko'ra ikki – motivatsiyalashgan va motivatsiyalashmagan kabi guruhga bo'lishadi [K.A.Levkovskaya: 1962, Yu.D.Apresyan: 1974, I.V.Arnold: 1986, Ye.S.Kubryakova: 1978, 2004].

Ye.S.Kubryakovaning fikricha, qo'shma so'zlarda motivatsiyalashganlik – ma'nolarni semantik jihatdan asoslangan, ya'ni birinchi til birlikdan boshqa til birlikni rasmiy asoslab ma'nolarni chiqarib olishdir [2, 57]. Shunday ekan, qo'shma so'zning umumiy ma'nosi uni tashkil qilgan komponentlari ma'nosi yig'indisiga teng bo'ladi. Bunga ingliz tilidagi *teaspoon* – a small spoon used for mixture sugar into tea, coffee etc (tea – choy, spoon – qoshiq). Longman Dictionary of English Language and Culture [LDEL 2006: 1426], *headache* – a pain in the head (head – bosh, ache – og'riq) [LDEL 2006: 644], va o'zbek tilidagi *qoraqarg'a* – patlari tim qora bo'lgan ko'chmanchi qush. O'zbek tilining izohli lug'ati [O'TIL V 2008: 255, 341], *yotoqxona* – yotadigan xona [O'TIL II 2006: 51] kabi qo'shma so'zlar misol bo'la oladi. Ko'rinadiki qo'shma so'zlarning umumiy ma'nosi komponentlar ma'nolari bilan asoslangan.

O.D.Meshkov qo'shma so'zlarni tuzilish jihatidan ikki guruhga, ya'ni: tuzilish jihatidan motivatsiyalashgan qo'shma so'zlar va tuzilish jihatdan motivatsiyalashmagan qo'shma so'zlarga ajratadi [5, 89]. Olimning tuzilish jihatdan motivatsiyalashgan qo'shma so'zlar ta'rifi yuqorida keltirilgan misollarda o'z aksini topgan. Fikrimizni, tuzilish jihatdan motivatsiyalashmagan qo'shma so'zlarga berilgan ta'rifga qaratamiz. Ularning asl ma'nosi komponentlarning birlamchi ma'nolar yig'indisidan kelib chiqmasligidir [5, 89]. Lekin ingliz tilidagi *nightcap* 1 a usually alcoholic drink taken before going to bed. 2 a soft cloth cap worn in bed (night – tun, cap – qalpoq) [LDEL 2006: 947], qo'shma so'zini olaylik, birinchi ma'nosi "*uyqu oldidan ichiladigan spirtli ichimlik*", ikkinchi tasnif esa "*tungi qalpoq*" ma'nosini anglatadi. Mazkur qo'shma so'zning birinchi ma'nosi tuzilish jihatdan motivatsiyalashmagan, ikkinchisi esa motivatsiyalashgan, shunday ekan, bu kabi qo'shma so'zlarni tuzilishiga ko'ra tahlil qilish masalani to'liq yechish imkonini bermaydi. Shunday ekan, qo'shma so'zlar semantikasini o'rganish dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib tilshunoslikda "idiomatiklik" terminini qo'shma so'zlarda o'rganiish masalaga oydinlik kiritadi. "Idiomatiklik" termini tilshunoslimlar tomonidan ilmiy asoslab berilgan [Sh.Balli, A.A.Reformaskiy va b.,]. A.I.Smirkinskiyning fikriga ko'ra, "idiomatik qo'shma so'zning umumiy ma'nosikomponentlar ma'nosi yig'indisidan kelib chiqmaydi" [7, 117]. Mazkur ta'rif asosida quyidagi misollarni tahlil qilamiz. Masalan: *cottontail* – a small American rabbit (*cotton* – paxta, *tail* – dum, *quyruq*) [LDEL 2006: 228], mazkur til birligi "*paxta dumi*" ma'nosini emas, "*quyon*" ma'nosini anglatmoqda, *wallflower* – a person who does not share in a social activity because of lack of CONFIDENCE or unpopularity, especially a woman who has not been invited to dance (*wall* – devor, *flower* – gul) [LDEL 2006: 1547], lug'aviy tasnif, "*devor guli*" emas, balki "*uyatda qolgan ayol*" ma'nosini anglatmoqda. *Tuyatish* – doni yirik, yirik donli (anor, bug'doy haqida) [O'TIL III, 2007; 224], izoh mazmunidan "*tuyaning tishi*" emas, balki "*o'simlikning doni*" bildiradi, *otpaypoq* – boldir-panja bo'g'imi qimirlamaydigan bo'lib qotib qolgan, oyoq panja kaft tomonga (ostiga) bukilib qolgan panja. Tibbiyot terminlarining izohli lug'ati [TTIL I 2003: 163] komponentlar "*otning paypog'i*" degan ma'noga ega emas, sababi bunday predmet borliqda yo'q, insonlarda uchraydigan "*kasallik*" nomi. Keltirilgan misollarning tasnifida qo'shma so'zning umumiy ma'nosi komponentlarining ma'no yig'indisidan kelib chiqmasligi uning idiomatikligidir. Shuning uchun ham biz, olimning ta'rifiga qo'shilamiz.

Idiomatik qo'shma so'zlarda, albatta, ma'no ko'chishi kuzatiladi. L.Blumfeldning ta'kidlashicha, "tilda hosila so'zlarning yasashida bir qancha bosqichli jarayonlar amalga oshadi, ya'ni (semantik o'zgarishlar asosida yangi so'zlar paydo bo'lishi:) "ma'no torayishi, ma'no kengayishi, metafora, metonimiya, sinekdoxa, giperbola, litota, ma'noning salbiylashuvi, ma'noning ijobiylashuvi" [1, 466-467], - deb ta'kidlaydi. "Metafora hosila ma'no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli hisoblanadi. U, tilshunoslikda qayd etilishicha, hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari o'zaro o'xshash kelishiga asoslanadi" [6, 94]. V.N. Teliyaning ta'kidlashicha, til lug'at boyligini to'ldirishning universal usuli bo'lgan metafora ikkilamchi

nominatsiya jarayonlarida, shu jumladan, qo'shma otlar yasashda qo'llaniladi [8, 181]. Mazkur ta'riflar metaforaga stilistik uslub sifatida berilgan.

XX asrning so'nggi choragida dastavval amerikalik olimlar J.Lakoff hamda M.Jonson tomonidan kognitiv (konseptual) metaforalar nazariyasiga asos solindi. Olimlar kognitiv metaforalar, faqat til hodisasi bo'libgina qolmay, inson tafakkurining ham ajralmas qismi ekanligini chuqur yoritib berdilar. J.Lakoff M.Jonsonlar fikricha: "Metaforalar nafaqat kundalik hayot, nafaqat til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o'z mohiyatiga ko'ra metaforikdir" [4, 387]. Kognitiv metaforalar bu oddiygina ma'no ko'chish natijasida hosil bo'lgan hosila ma'no emas, balki inson tafakkurida sodir bo'ladigan murakkab jarayon natijasidir. Bu borada olib borilgan tilshunoslar kuzatuvlari shuni ko'rsatdiki, konseptual metafora yangi bilim olish natijasida yuzaga keladigan nomlar yasallishining eng sermaxsul usulidir. Qolaversa, konseptual metafora idiomatik qo'shma so'zlarni shakllantirishda zarur kognitiv mexanizm hisoblanadi.

J. Lakoff va uning izdoshlari kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan metaforik hosila ma'no paydo bo'lishida ikkita "kognitiv maydon (cognitive domain), "maydon-manba" (source domain) hamda "maydon-nishon" (target domain) ishtirok etadi" [11, 195] deb ta'kidlaydilar. Maydon-manba – bu inson tomonidan ko'proq, tajribasi orqali borliqni idrok etishda aniq bilimlar yig'indisidir. Maydon-nishon esa kamroq oydinlashgan, aniqlashgan muqarrar bilimdir. Yanada oydinlik kiritadigan bo'lsak, metafora orqali ma'noko'chishi sodir bo'lganda inson til lug'at tarkibida mavjud til birliklaridan foydalanadi va ushbu holat maydon-manba vazifasini o'taydi. Maydon-nishon esa inson tafakkurining tayyor til birliklari orqali yasaladigan yangi hosila ma'nodir. Ye.S.Kubryakovaning fikricha, yasama so'z yasallish ma'nosida ikkita talab jarayoni amalga oshiriladi, shu o'rinda qo'shma so'zlarda ham, birinchi tomoni kognisiya va ikkinchi tomoni kommunikasiya, har qanday hosil bo'layotgan so'zda bilimlarni ixchamlash jarayoni sodir bo'ladi. Olimaning fikricha, kognitiv nuqtai nazardan qaraganda yasama so'z yasallishida amaldagi tayyor til birliklari bilimlar yig'indisi yangi so'z yasallish modellari orqali dunyoni qayta anglash orqali amalga oshiriladi [3, 407-408].

Metaforik ma'no ko'chishi orqali hosil bo'lgan idiomatik qo'shma so'zlarning konseptual tahlilida kognitiv mexanizm sanalmish "konseptual metafora" alohida o'rin tutadi. Konseptual metafora kontekst orqali yorqin namoyon bo'ladi va jarayonda "konseptual metafora" idiomatik qo'shma so'z yasallishida "maydon-manba" va "maydon-nishon"larning o'zaro moslashishi orqali yaqqol ko'zga tashlanadi.

Metaforik ma'no ko'chishi orqali hosil bo'lgan idiomatik qo'shma so'zlarning kontekst orqali tahlili masalaga yanada oydinlik kiritadi.

"Mayor oshxonada kimning yoniga yaqinlashsa, o'sha odam iloji bo'lsa, ovqatni chaynamayoq yutishga harakat qiladi. Chaynalmagan ovqatni *oshqozon* hazm qilib yuborar, ammo gardanning rezina tayoq zarbini hazm qilishi qiyinroq edi" [9, 10].

Oshqozon qo'shma so'zining tasnifi quyidagicha: "inson va hayvonlarda ovqat hazm qilish yo'lining kengaygan qismi; qopchaga o'xshash ovqat hazm qilish a'zosi" [O'TIL III 2007: 175].

Qo'shma so'zning ikkinchi komponenti sanalmish **qozon** quyidagicha tasnifga ega – 1) turli taomlar pishirish, tayyorlash yoki suv isitish uchun cho'yandan quyib tayyorlangan ro'zg'or buyumi. 2) bug' hosil qilish uchun xizmat qiladigan maxsus yopiq qurilma [O'TIL V2008: 323]. Qo'shma so'z yasallishida "taomlar pishirish", "suv isitish", "ro'zg'or buyumi" va "yopiq qurilma" tavsiflari oldingi o'ringa ilgari suriladi. Qozon komponenti orqali aks ettirilgan konseptning xususiyatlari "maxsus yopiq qurilma". Ushbu xususiyat deb nomlanuvchi kognitiv maydon havola vazifasini o'taydi. Mazkur kognitiv maydondan "taomlar pishirish, suv isitish hamda bug' hosil qilish imkoniyatiga ega buyum" deb ta'riflangan tasnif kelib chiqadi.

Kontekstda qo'llanilgan *ovqatni chaynamayoq yutishga, chaynalmagan ovqatni, hazm qilib* nutq birliklari orqali berilayotgan axborot TANA deb nomlanuvchi kognitiv maydoniga havola hisoblanadi. Ushbu kontekstual ma'lumot shundan dalolat beradiki, PREDMET-TANA modeli bo'yicha konseptual metaforik ma'no ko'chirish amalga oshirilgan. "Ro'zg'or buyumi va yopiq qurilma" degan tasnif asosida PREDMET maydon-manba hisoblanadi va TANA maydon-nishon o'rtasidagi o'xshashlik aniqlanadi. "TANA A'ZOSI" degan konseptual tasnif "TANA" deb nomlanuvchi maydon-nishondan proyeksiyalanadi va birinchi komponent bilan bog'langan konsept xususiyatlariga bog'lanadi.

Osh komponentining lug'aviy ma'nosi esa - pishirilgan issiq taom [O'TIL III2007: 168].

TANA maydon-nishondan proyeksiyalashadigan "tana a'zosi" tavsifi ta'siri ostida osh komponenti bog'langan "pishgan taom" ma'nosini anglatuvchi asosiy tasnif yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bu yerda taom PREDMET deb nomlangan kognitiv maydonga havola hisoblanadi. Aynan shu kognitivmaydon orqali “hazm qilish” va “ist’mol qilish” degan tasnif shakllantiriladi. Har ikkala, ya’ni PREDMET va TANA kognitiv maydonlarini tahlili o’zgaruvchi “TANA A’ZOSI” degan ma’noni anglatadi. O’zaro moslashuchan tasniflar orqali “pishgan va pishmagan taomlarni hazm qiluvchi, usti yopiq tana a’zosi” tasnif *oshqozon* idiomatik qo’shma so’zining ma’nosini belgilaydi. Mazkur idiomatik qo’shma so’zning muqobili *stomach* bo’lib sodda so’z bilan ifodalangan.

Ingliz tilida qo’llanilgan idiomatik qo’shma so’zning kontekst orqali ifodlanishi va kognitiv maydonini aniqlaymiz.

“In front of a long high southerly wall on which were trained peach-trees the two walked up and down in silence. Old Jolyon had planted some cupressus-trees, at intervals, between this grassy terrace and the dipping meadow full of *buttercups* and ox-eyed daisies; for twelve years they had flourished, till their dark spiral shapes had quite a look of Italy” [10, 336].

Buttercup idiomatik qo’shma so’zi quyidagi tasnifga ega – a common small yellow wild flower which often grows in fields [LDEL 2006: 181].

Qo’shma so’zning ikkinchi komponentining tasnifi quyidagicha. **cup** – a small round container, usually with a handle, from which liquids are drunk, especially hot liquids such as tea or coffee [LDEL 2006: 336]. Qo’shma so’z ma’nosining shakllanishida asosiy tavsiflar oldingi o’ringa o’tadi: “tutqichi bor suyuqlik ichish uchun mo’ljallangan”, **cup**komponenti orqali aks etadigan konseptning xususiyati – “chuqur”, “faqatgina ichimlik uchun foydalanadigan”. Mazkur ro’zg’or buyumining BUYUM deb nomlanuvchi kognitiv maydonga havola vazifasini o’taydi. Ushbu kognitiv maydondan “ichimlik iste’mol qilish uchun foydalaniladigan buyum” degan tasnif kelib chiqadi.

Keltirilgan kontekstdagi some cupressus-trees, this grassy terrace, **ox-eyed** daisies, had flourished, dark spiral shapes nutq birliklari orqali berilayotgan axborot O’SIMLIK deb nomlanuvchi kognitiv maydonga havola hisoblanadi. Mazkur kontekstual PREDMET-O’SIMLIK modeli bo’yicha metaforik ma’no ko’chirish amalga oshirilgan. “Ichimlik iste’mol qilish uchun foydalaniladigan buyum” degan tavsif PREDMET maydon-manba va O’SIMLIK maydon-nishon o’rtasidagi o’xshashlik aqilanadi. “Gul” degankognitiv maydon “O’SIMLIK” maydon-nishondan proyeksiyalashadi va birinchi komponent bilan bog’langan konsept xususiyatlariga bog’lanadi.

Ikkinchi komponent **butter** – a fairly solid yellow fat made from milk or cream and spread on bread, used in cooking etc. [LDEL 2006: 181] tasnifga ega. O’SIMLIK maydon-nishondan proyeksiyalashgan “gul” tavsifi ta’siri ostida **butter** komponentining “sutdan olinadigan sariq yog’” ma’noni bildiruvchi asosiy tasnif RANG deb nomlangan kognitiv maydonga havola hisoblanadi. Aynan shu kognitiv maydondan “sariq rangli” tavsif shakllantiriladi. Bundan buyon har ikkala konsept markaziy kognitiv maydoni sanalmish “GUL” va “RANG” dan qayta tiklangan O’SIMLIK deb nomlanuvchi maydon-nishondan proyeksiyalanadigan tavsifning Buttercup degan qo’shma so’z bilan bildiriladigan konseptga aylanishi sodir bo’ladi.

Tavsiflarning o’zaro moslashuvi asosida “sariq rangli, gullari chashkani eslatadigan yovvoyi gul” degan tavsif yuzaga keladi. Aynan shu tavsif ushbu idiomatik qo’shma so’zning ma’nosini belgilaydi. Idiomatik qo’shma so’zining o’zbek tilidagi muqobili **ayiqtovon** bo’lib, o’zbek millatiga mansub odam mazkur o’simlik gulini ayiqning tovoniga o’xshatib, uni shu nom bilan ataydi. Inglizlar esa gulning rangi sariq bo’lganligi sabab sariyog’ rangiga, gulning tuzilishini esa chashkaga o’xshatadi va **buttercup** (butter–sariyog’, cup - chashka) deb ataydi, bunday holat qiyoslanayotgan tillarda olamning lisoniy manzarasini belgilaydi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, metaforik ko’chirishlar yordamida hosil bo’lgan idiomatik qo’shma so’zlarning ma’nolari uni hosil qiluvchi tarkibiy qismlar bilan bog’liq konseptlarga murojat qilish, kontekst bilan ifodalanadigan axborot, “konseptual metafora” deb nomlanuvchi kognitiv mexanizm hisobiga shakllanishi mumkin. Qo’shma so’z bilan ifodalanadigan konseptni “konseptual metafora” mexanizmi yordamida hosil qilish jarayonida ikkinchi komponent bilan ifodalanadigan konseptni qayta qurish sodir bo’ladi.

Adabiyotlar:

1. Блумфилд Л. Язык. – М.: Прогресс, 1968. – 334 с.
2. Кубрякова Е.С. Части речи в ономазиологическом освещении. – М.: Наука, 1978. – 182 с.
3. Кубрякова Е.С. Язык и знание. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 242 с.

4. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (Перевод Н.В.Персова). – М.: ЛКИ, 2004. – 384 с.
5. Мешков Д.О. Семантические аспекты словосложения английского языка. – М.: Наука, 1986. – 192 с.
6. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Т.: Мумтоз сўз, 2010. – 202 б.
7. Смирнский А.И. Лексикология английского языка. – М.: Литература на иностранных языках, 1956. – 324 с.
8. Телия В.Н. Метафоризация и ее роль в создании языковой картины мира – М.: Наука, 1988. – 176 с.
9. Тохир Малик. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. – Т.: Шарк, 2008. – 554 б.
10. The works of John Galsworthy. The Forsyte saga. Volume II. New York. MCMXXII. 1968. – 379 p.
11. W. Croft, D. Alan Cruse. Cognitive Linguistics. Published in USA, New York by Cambridge University Press. 2004. – 346 p.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-томлик. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 2006–2008. – 872 б.
13. Қосимов А. И. Тиббий терминлар изоҳли луғати. – Т.: Абу али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2003. – 368 б.
14. Longman Dictionary of English Language and Culture. – London, 2006. – 894 p.

А.Г. Юлдашев
КОГНИТИВНО - СЕМАНТИЧЕСКИЙ
АНАЛИЗ ИДИОМАТИЧНЫХ СЛОЖНЫХ
СЛОВ

В статье путём использования контекстуального анализа в лингвокогнитивном аспекте рассмотрены английские и узбекские идиоматичные сложные слова, образованные метафорическим переносным значением.

Ключевые слова: контекст, когнитивная область, концептуальная метафора, источниковый домен, целевой домен.

A.G. Yuldashev
COGNITIVE-SEMANTIC ANALYSIS OF
IDIOOMATIC COMPOUND WORDS

The article studies English and Uzbek idiomatic compound words formed by metaphorical transfer values in lingual cognitive aspect, using contextual analysis.

Keywords: context, cognitive domain, conceptual metaphor, source domain, target domain.

УДК: 398.3

НАРОДНЫЕ ПЕСНИ И МЕЛОДИИ В ТВОРЧЕСТВЕ ГОГОЛЯ

Н.А. Вохидова

Преподаватель академического лицея №1 Самаркандского института экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье показана роль народной песни и музыки в творчестве русского писателя Н.В.Гоголя. Раскрыто отношение писателя к фольклору – истокам народного творчества, приведены несколько отрывков из произведений Гоголя, в которых передается национальный характер, быт и нравы украинского народа, откуда родом сам писатель.

Ключевые слова: мотивы песен, казацкие песни, народная музыка, фольклор.

Первые десятилетия XIX столетия – пора интенсивного музицирования в России. Музыка пронизывала быт всех слоев общества. На почве общих музыкальных интересов возникали кружки и салоны, устраивались музыкальные вечера в домах известнейших поэтов. На таких вечерах часто поднимались важные вопросы музыкального творчества, обсуждались проблемы народности музыки, состояние оперного искусства и других музыкальных жанров. Вопросы эти были тогда в центре внимания музыкальной и литературной общественности. Одним из постоянных участников таких вечеров был писатель Н.В.Гоголь.

М.И.Глинка в своих «Записках» пишет, что он часто посещал вечера, которые устраивал Жуковский, живший тогда в Зимнем дворце. Там «еженедельно собиралось избранное общество, состоящее из поэтов, литераторов и вообще людей, доступных изящному.

Назову здесь некоторых: А.С.Пушкин, князь Вяземский, Гоголь, Плетнёв были постоянными посетителями. Гоголь при мне читал свою «Женитьбу» [1].

В литературоведении существует много исследований, посвящённых творчеству Гоголя, однако тема «Гоголь и музыка» до сих пор является малоосвещённой и требует самого пристального внимания [2].

А между тем, связь Гоголя с музыкой очевидна. Мысли и высказывания писателя о музыке отличаются большой глубиной и удивительной актуальностью. Читая повести этого автора, мы не можем не согласиться с тем, что сама речь Гоголя увлекает нас своей музыкальностью.

Писатель усердно изучал народные обычаи, предания, нравы, сказки, а также песни и колядки. Еще в гимназические годы в Нежине у Гоголя была записная книжка, куда он вносил свои первые опыты собирания старинных песен. Мотивы этих песен служили основой для создания совершенно самостоятельных обрядов. Обратимся к раннему творчеству писателя, к самым ярким его произведениям, объединённым под общим названием «Вечера на хуторе близ Диканьки». Это поистине волшебные страницы, звенящие песнями, напоенные ароматом свежей народной поэзии. Песней начинается «Майская ночь», из звуков песни чудесно возникают образы этого поэтичнейшего произведения: *«Звонкая песня лилась рекою по улицам села... Козак идет по улице, бренчит рукою по струнам и подплясывает. Вот он тихо остановился перед дверью хаты, уставленной невысокими вишневыми деревьями. Чья же это хата? Чья это дверь? Немного помолчавши, заиграл он и запел:*

*Сонце низенько, вечір близенько
Вийди до мене, моє серденько».*³

В волшебной сцене явления панночки и девушек снова звучит песня. Здесь пение Левко сливается со звуками природы. Музыка самой природы, чутко уловленная Гоголем, песня козака, а также музыкальность гоголевской речи соединяются в этом отрывке в дивную гармонию. Вот как рисует картину деревенской природы писатель: *«...сильно и звучно перекликались блистательные песни соловьев, и, когда они, казалось, умирали в томлении и неге, слышался шелест и трещание кузнечиков или гудение болотной птицы, ударявшей скользким носом своим в широкое водное зеркало. Какую-то сладкую тишину и раздолье ощутил Левко в своем сердце. Настроив бандуру, он заиграл и запел:*

*Ой ти, місяцю, мій місяченьку!
Іти, зоре ясна!
Ой, світіть там по подвір'ї,
Де дівчина красна»*[3,86].

Песней и музыкой наполнена почти каждая повесть «Вечеров». Не обделены даже самые трагические рассказы («Страшная месть», «Вечер накануне Ивана Купала»).

А вот как Гоголь описывает свадьбу Пидорки и Петруся из повести «Вечер накануне Ивана Купала»: *«...посадили за стол молодых; разрезали каравай; брякнули в бандуры, цимбалы, сопилки, кобзы – и пошла потеха... дивчата, плавно, словно павы, и с шумом, что вихорь, скакали в горнице... молодницы выступали поодиночке и мерно выбивали гопака..., парубки рассыпались перед ними мелким бесом и подпускали турусы. Сам Корж не утерпел, глядя на молодых, чтобы не тряхнуть стариною. С бандурою в руках, потягивая люльку и вместе припевая, с чаркою на голове, пустился старичина, при громком крике гуляк, вприсядку... Словом, старики не запомнили никогда еще такой веселой свадьбы»*[3,56-57].

Этот отрывок свидетельствует о том, что Гоголь был знатоком не только старинных песен, но и плясок, в которых передается характер народа.

Не обходится без песни и повесть «Страшная месть». После зловещих картин ночного кладбища, автор вводит читателя в атмосферу домашнего мира. И эта атмосфера передается колыбельной песней, которую поет пан Данило, подбадривая молодую жену и успокаивая испугавшегося сына: *«Полно же, перестань плакать! Домой приедем! Приедем домой – мать накормит кашею, положит тебя спать в люльку, запоёт:*

*Люли, люли, люли!
Люли, сынку, люли!
Да вырастай, вырастай в забаву!
Козачеству на славу,
Воронежцам в расправу!»*[3,167].

Особенно лиричны женские образы, созданные Гоголем. Он вложил в них особую нежность и теплоту. Их красота раскрывается с помощью народных песен. «Свежая, невинная, как голубка», - такова девушка в украинских песнях. Хорошенькая Параска в «Сорочинской ярмарке», задорная Оксана в «Ночи перед Рождеством», нежная Ганна в «Майской ночи» - все эти женские образы навеяны украинской песней.

Писатель мастерски изобразил радостное состояние красавицы Параски за несколько минут до её свадьбы. Долго терпела девушка издевательства злой мачехи, но теперь она была счастлива, так как её мечта превращалась в реальность: она выходила замуж за своего любимого Грицько. А своё счастье она не могла выразить иначе, как в своей весёлой песенке, под звуки которой сама же: *«пошла танцевать, побрякивая подковами, держа перед собой зеркало.... Черевик заглянул в это время в дверь и, увидя свою дочь, танцующую перед зеркалом, остановился. Долго глядел он, смеясь невиданному капризу девушки, которая, задумавшись, не примечала, казалось ничего; но когда же услышал знакомые звуки песни – жилки в нём зашевелились; гордо подбоченившись, выступил он вперёд и пустился вприсядку, позабыв про все дела свои»*[3,43].

«Характер музыки нельзя определить одним словом: она необыкновенно разнообразна», - говорил Гоголь. Далее он мастерски рисует различные образы народной музыки: то мужественной, вольной, широкой, то шемяще-грустной. Среди них есть молодецкие козацкие песни, помогающие писателю в изучении истории Украины, которую он собирался написать. Гоголь считал, что исторические летописи очень скупы, и именно народные песни помогают понять и постигнуть прошлое.

Поэтому, готовясь к созданию своей исторической повести – поэмы «Тарас Бульба», писатель погрузился в изучение старинных песен. Песни помогали ему воссоздать картины прошлого, оживить образы героев его сюжетов. *«В них дышит эта широкая воля козацкой жизни, - говорит Гоголь об украинских исторических песнях. – Везде видна та сила, радость, могущество, с какою козак бросает тишину и беспечность жизни домовитой, чтобы вдаться во всю поэзию битв и опасностей... . Его жену, мать, сестру, братьев – всё заменяет ватага гульливых рыцарей набегов. Узы этого братства для него выше всего, сильнее любви... . Умиравший козак лежит... и собирает все силы, чтобы не умереть, не взглянув ещё раз на своих товарищей»*[4].

Но не только народно-патриотическая идея выражена в песнях и мелодиях старины. Музыка передавала картины жизни и быта козаков: *«Им опять перегородила дорогу целая толпа музыкантов, в середине которой отплясывал молодой запорожец, заломивши чертом свою шапку и вскинувши руками... около молодого запорожца четыре старых выработывали довольно мелко своими ногами, вскидывались, как вихорь, на сторону, почти на голову музыкантам, и вдруг, опустившись, неслись вприсядку и били круто и крепко своими серебряными подковами тесно убитую землю. Земля глухо гудела на всю округу, и в воздухе только отдавалось: тра-та-та, тра-та-та. Толпа, чем далее, росла: к танцующим приставали другие, и вся площадь покрылась приседающими запорожцами... . Нельзя было без движения всей души видеть, как вся толпа отдирала танец, самый вольный, самый бешеный, какой только видел когда-либо мир, и который, по своим мощным изобретателям носит название козачка. Только в одной музыке есть воля человеку. Он в оковах везде. Он сам себе куёт еще тягостнейшие оковы, нежелезо налагает на него общество и власть везде, где только коснулся жизни. Он – раб, но он волен, только потерявшись в бешеном танце, где душа его не боится тела и возносится вольными прыжками, готовая завеселиться на вечность»*[5].

Такие музыкальные отступления автор делает неспроста. Его меткие и точные замечания о силе музыки заставляют задуматься даже самого беспристрастного читателя. По словам Гоголя, «украинская песня слилась с жизнью, - звуки ее так живы, что кажется не звучат, а говорят»[6]. И заслуга писателя в том, что он не только почувствовал это сам, но и сумел дать это почувствовать своему читателю.

Писатель в своем раннем творчестве часто обращался к истокам народного творчества – фольклору, откуда сам он получал вдохновение. «Гоголь, вопреки ошибочным взглядам многих консервативных историков, понимал ценность фольклора разных жанров, ибо в каждом из них отражалась многообразная жизнь народа», - считает современный исследователь[7].

Но именно музыка явилась путеводной нитью творчества этого замечательного писателя. Музыкальные эпизоды помогли ему ощутить и передать национальный колорит того или иного народа.

Литература

1. Глинка М.И. Записки. «Academia» М.-Л., 1930. С. 152-153.
2. Берков В. Гоголь о музыке. М., 1952. С.5
3. Гоголь Н.В. Собрание сочинений в 7-ми томах. М., 1966. Т.I, С.62.
4. Гоголь Н.В. Собрание сочинений в 7-ми томах. М., 1966, Т.VI, С.73.
5. Гоголь Н.В. Собрание сочинений в 7-ми томах. М., 1966, Т.VI, С. 68.
6. Гоголь Н.В. Собрание сочинений в 7-ми томах. М., 1966, Т.II, С. 288.
7. Тюменева Г.А. Гоголь и музыка. «Музыка» М., 1966, С.76.

N.A. Vohidova GOGOL IJODIDA XALQ QO'SHIQLARI VA KUYLARI

Ushbu maqolada buyuk rus yozuvchisi N.V.Gogol ijodida xalq qo'shiqlari va musiqasining o'rni ko'rsatilgan. Yozuvchining xalq og'zaki ijodi – folklorga bo'lgan munosabati yoritilgan. Gogol asarlari misolida ukrain xalqining milliy an'alarini yoritib beruvchi xalq qo'shiqlari, raqslari ko'rsatilgan parchalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qo'shiq ohanglari, kazak ashulalari, xalq musiqasi, folklor.

N.A. Vohidova FOLK SONGS AND MELODIES IN GOGOL'S WORKS

In this paper the role of folk songs and music in the works of a Russia writer N.V.Gogol are described. The writer's attitude to folklore – origin of traditional work is revealed. Some passages of Gogol's work which deliver national character, mode of life and temper of Ukrainian people are analyzed.

Keywords: melodies of song, kazak's songs, folk music, folklore..

УДК: 891.709

ОСОБЕННОСТИ НАРРАТИВНЫХ СТРУКТУР В ЦИКЛЕ «ГАЛАТЕПИНЦЫ» М. ДОСТА Эгамова М.Х.

*Ассистент Самаркандского государственного университета,
E-mail: egamovamastura1980@mail.ru*

Аннотация. Узбекская литература XX века является точнейшим индикатором всех перемен в сознании, в многочисленных политических перегибах, исторических катаклизмах. Но красной нитью через произведения проходят основные критерии национального понимания того, кто может считать себя Человеком, настоящим хозяином своей земли, а не временщиком, готовым уничтожить всё во имя собственного благополучия и почестей от властей. Вечные темы и категории доминируют в узбекской прозе, невзирая на жанр, время написания и на политическую направленность автора. Весь материк узбекской прозы XX века служит прекрасным материалом для того, чтобы увидеть то, что поможет нам и читателю ознакомиться с узбекским материалом (быт, традиции, язык). Творчество М.Доста занимает особое место в современной узбекской литературе. Его произведение «Галатепинцы» написан особым методом, где через восприятие национального мира раскрываются общечеловеческие ценности, общественная жизнь национальной культуры. Образ человека является центром исследования как лингвокультурологический проводник: личность-личность, личность-общество. Через конкретные образы, лексики и грамматики читатель познаёт мир галатепинцев.

И в данной ситуации для писателя важно было использование мезонсцен, диалогов, пословиц, поговорок через которых и раскрывается национальная особенность культуры и культурных ценностей.

В произведении «Галатепинцы» исследование лингвокультурологических, когнитивных и концептуальных явлений расширяет познавательную сферу, которая составляет единую систему отдельно взятых регионов, составляющих культурный пласт целого народа.

Ключевые слова: нарратив, нарративные структуры, фокализация, темпоритм, замкнутое национальное пространство, мизансцена, диалог, система персонажей.

В мировой литературе существует практика создания художественного мира и вымышленного закреплённого пространства, в котором живут персонажи романов. Достаточно вспомнить округ Йокнапатофа с центром Джефферсоном У.Фолкнера, который на карте города отметил: «единственный хозяин и повелитель». Внимание к закреплённому национальному пространству, в котором существуют, обрастая подробностями материального мира персонажи, обретает особым значением для интерпретации произведений современных узбекских авторов. Укажем цикл рассказов И.Султона «Ферганские долины» или соединим воедино произведения М.Доста из цикла «Галатепинцы».

При всей ироничности надписи У.Фолкнера действительно является строителем детального пространства «южного» округа и исторического города. А М.Дост может добавить, что помимо звания «хозяина», он ещё создал структуру многоликих нарраторов. Цикл «Галатепинцы» представляет глубокий интерес с позиций наработок современного когнитивного литературоведения, что рассматривает «литературные тексты с учётом их художественной функции», принимая во внимание статус литературы как «моделирующей системы» (Е.Фарино). М.Дост создаёт особый национальный мир, как систему, позволяющую рассматривать цикл в его эстетическом единстве пространства, которое в свою очередь имеет множество уровней более замкнутых и маркированных национальными предметами (чайхана, двор Зубейды, двор Мустафы или старика Хуччи и т.д.).

В рамках данной статьи остановимся на двух произведениях цикла «Галатепинцы», на материале которых проявляется отчётливая мозаика стилевых и структурных приёмов М.Доста. Интересно не выстраивать произведения М.Доста по хронологии их создания, а увидеть «самодостаточность» каждого текста, особую систему персонажей, понять преломление развития характеров в разных ситуациях и выявить общий национальный стержень характера постоянных персонажей. Понятно, что художественный мир М.Доста воссоздаёт на базе собственного жизненного опыта, восприятия национального мира и узнаваемого пространства (реальные географические названия: Катта-Курган, Сыр-Дарья и т.д.). Как у У.Фолкнера – герои вымышленного мира являются истинными южанами по ментальности, по отношению к результатам Гражданской войны; так и «галатепинцы» М.Доста обладают особыми качествами национальной натуры, каких не «встретишь даже у жителей соседнего района». Следует подчеркнуть, что по первому образованию М.Дост-философ, потом уже была учёба в Литературном институте, сфера его интересов обширна: журналистика и кинодраматургия. Все эти факты во многом объясняют такую «простую» модель цикла, но с внутренним огромным потенциалом. Заманчиво предположить, как «Галатепинцы» развернуть в сценарий, ведь в тексте множество того, что можно реализовать в объёмном пространстве экрана, как укрупняется деталь, как портрет персонажа «живёт в движении, насыщаясь той или иной эмоцией». Эта особенность прозы М.Доста напоминает отменный зерновой фонд. Он самоценен сам по себе и интересен в перспективе. Очевидно, это и есть определение настоящего художественного произведения, когда интерпретатор имеет возможность работать с добротным материалом на разных уровнях, с разных точек зрения.

Рассматривая цикл произведений М.Доста «Галатепинцы» можно выделить две продуктивные проблемы, которые диктует текст. Во-первых, проанализировать художественные возможности такого эстетически продуманного образования, как цикл, найти приметы «национальной модели мира». Во-вторых, выявить особенности повествования с позиции нарратологии. Эта современная отрасль филологической науки позволяет увидеть весь психологический комплекс персонажа с выбранных автором позиций, то есть на богатом художественном материале обнаружить, как М.Дост создаёт национальное сознание своих героев. В.Шмид в статье «перспективы и границы когнитивной нарратологии» обобщает: «...фикциональный нарратив является единственным литературным жанром, также как и единственным видом наррации, в котором могут быть изображены мысли, чувства, восприятия персонажа, не совпадающего с говорящим»... основополагающим признаком фикционального нарратива является прямая интроспекция в чужую душу» [1]. На первый взгляд повествование в цикле «Галатепинцы» организовано как «сказ» с простодушными вставками типа: «Но мы немножко отвлеклись. Вернёмся к главному...» [2,с,367]. М.Дост использует все приёмы «фокализации», когда точка зрения на определённого персонажа меняется, создаются новые мезонсцены, высвечиваются определённые оттенки взаимоотношений, перемены настроений или идёт «тонкая психологическая игра». А это уже разрушает параметры «сказа», выводя

повествование на новый «кинематографический уровень», когда «камера может обнаружить новый ракурс». Тексты каждого рассказа дают аналитический материал для анализа нарративных структур, которые имеют объединяющий характер для всего цикла одновременно с этим создают нарративные трансформации. В.Шмид в указанной статье подчёркивает: «В романе нарратор «знает» то, что в реальном мире знать невозможно... Связь между действием и сознанием существует, невзирая на то, изображается ли она эксплицитно нарратором или воспроизводится («инферируется») читателем [1]. Эта цитата как бы иллюстрирует некоторые ситуации из рассказов М.Доста, в которых живут постоянные персонажи, имеющие значение во всём цикле. Проблема нарративных структур и система персонажей в цикле М.Доста взаимообусловленные «механизмы», которые творят образную ткань произведений. Может вызвать сомнение факт замены привычного «рассказчика» на нарратора. У М.Доста традиционного рассказчика заменяют множество внутренних нарраторов, с позиций, которых ведётся обзор ситуации, подмечаются малейшие индикаторы психологического состояния персонажа.

Рассказ «Галатепинцы» (перевод В.Коткина) начинается с определённой модальности нарратора, он как бы в центре всех событий, он- связующее звено времени, он- индикатор национальной ментальности: «В чайхане Барата Кривого, куда пришёл Ибадулла Махсум, было, как всегда, многолюдно» [3,1], то есть временные рамки раздвигаются, подчёркивая опыт предыдущих посещений чайханы. В этом же плане М.Дост определяет пространство чайханы и её обитателей, подчёркивая национальную ментальность «нарратора», который не может не «комментировать» то, что для героя другой культуры не имело бы такого значения. Топчан «с добрым паласом, мягкими курпачами» воспринимается негативно, так как он пуст: «если бы на нём сидело десять, пять, три, ну, хотя бы два человека» [3,с.1]. Нарратор принадлежит культуре с «соборным мышлением» (Г.Гачев). Столь же важна поведенческая линия персонажей, которая воспринимается ритуально и подчёркивает взаимоуважение: «Как только Ибадулла Махсум показался за оградой чайханы, Кривой Барат, несмотря на занятость, сам вышел навстречу и ввёл в круг почётных заседателей» [3,с.1]. Кривой Барат ждал появления почётного гостя (как только), его движения- ритуальная национальная встреча (ввёл). В таком же ключе даётся М.Достом беседа в чайхане стариков, которые решают судьбу Хаджикула из Шокурдука, который приехал свататься к вдове из Галатепа Зубейде. В рамках ментального национального бытового мира не звучит парадоксом, что почётные старики решают сами такое интимное дело, и не вызывает возражения реплика Ибадуллы Махсума по отношению к жениху: «Сиди и молчи, пока мы сами всё не решим» [3,с.2].

Небольшой по объёму рассказ «Галатепинцы» делится условно на две части: чайхана и само сватовство. М.Дост меняет ракурс повествования. Поэтому «нарратор» работает в тексте как индикатор, указывающий на источник, как комментатор, как «центр событий». Поскольку Ибадулло Махсум едет на коне Хаджикула, а тот поспевает за всадником, то восприятие окружающего мира даётся с высоты коня: «выглядел молодцом... Красивый скакун как бы придавал особую значимость возложенной на него миссии» [3,5]. Эмотивно всё сказанное должно принадлежать жениху, который напротив, подавлен, что выражено в его походке- «неуверенной, робкой», в ощущениях «съёживался, озирался, словномышь». Отметим, что М.Дост передаёт психологическое состояние Хаджикула в восприятии старика. В уже цитированной статье В.Шмида отмечено: «Сознание может присутствовать в нарративе двойным образом: или как предмет прямого изображения, или же как подразумеваемое, как мотивировочный фактор поступков персонажей, о чём должен сделать вывод читатель» [1]. Учитывая, что «пророк» Ибадулла Махсум не уверен в предстоящем сватовстве, такое поведение жениха уже мотивирует неудачу предприятия.

То, что М.Дост делает доминирующим нарратором старика выражено и в простом дополнении: «Когда осталось шагов сто до заветных ворот» (в пространстве Галатепе ориентируется его житель), в подтверждении функций хозяина положения («привязал коня»), и в руководстве «взял его за руку», в реакции Хаджикула («покорно замолчал»). Во дворе у вдовы, которая не ждала незваных гостей, но предполагала цель их посещения, М.Дост создаёт такую мизансцену на супе, которая позволяет менять ракурс восприятия. Хозяйка растеряна и смущена, что выдают хаотичные движения «лопата с грохотом выпала из рук... взялась за ручки тачки.... Отнесла еду собаке». Ибадулла Махсум, с которым только и разговаривает хозяйка, «отмечает», как она краснеет и смущается. Но взгляд Хаджикула фиксирует другое

«Смотрел, словно замороженный на красивый стан вдовы», а его восторженное состояние воспринимается стариком за каприз и неподвижность: «Ты что нос воротишь?» [3,с.6].

Расстановка персонажей в небольшом пространстве на супе и около неё позволяет автору неоднократно менять нарратора, уточняя оттенки психологического состояния всех персонажей. Восторг Хаджикула выражается в его молчании «жалко было потерять такую женщину», старик злится на это, ведь он воспринимает Зубейду по-другому; он словоохотлив, чтобы разрядить обстановку, отвлекает от главной темы разговором о кувшине. Важно, что именно старик как бы центрирует всех на супе, он интонационный и доминирующий центр «сватовства»: «Вот мы решили тебя выдать замуж, за сына Абдурахмана». Если неловкость Зубейды выражалось поначалу, лишь во внешних проявлениях, М.Дост неоднократно подчёркивает «покраснела, опустила глаза»; то после нелестной характеристики её покойного мужа, всё происходящее пропущено через восприятие вдовы: «Зубейда с укором посмотрела на Хаджикула: эх, ты, всё успел выложить» [3,с.6]. М.Дост переносит «центр тяжести» в диалоге на эмоциональное состояние женщины, которая по ментальности не должна, так открыто говорить о своих проблемах, но ситуация позволяет обсуждать самое сокровенное: «Плохо быть вдовой. Только и думаю, как бы на язык кому не попасть» [3,с.7]. Дополнительный источник в жизни Зубейды- её сын Сайфуль-Мулюк, копия отца, которому требуется мужская рука –«воспитателя бы хорошего». Более того, портрет мальчика даётся в рассказе в восприятии любящей мамы и Ибадуллы Махсума за исключением небольшого оттенка: «странный такой, вялый... огромные ясные глаза, длинные загнутые кверху ресницы, хилый и бледный, вылитый отец» [3,7]. Странная реакция мальчика на такое важное дело пугает старика, но объясняет психологическое состояние Зубейды («готовая разрыдаться»), которая знает равнодушный нрав сына, его инертность.

Как уже было отмечено, небольшой рассказ имеет ярко выраженные «нарративные зоны». Выделим «зону» Зубейды, так, как М.Дост воссоздаёт эмоциональный «внутренний монолог» вдовы, имитируя сбивчивость мыслей, выраженный в повторах одних и тех же слов. Монолог инициирован поведением сына: «сидит, моргает да шмыгает носом-обидно». Монолог вклинивается автором в настороженную тишину, поэтому возможен на фоне общего угнетённого состояния персонажей: «Спросить она, но сама испугалась, вдруг сын скажет-«нет». Она на всё была согласна... дай бог, чтобы он отказал, она уверена, сын им откажет, они ещё долго будут упрасивать её...» [3,8]. Молчание 12 летнего сына настолько потрясает сватов, что даже провокация старика «взбунтовать» мальчика безрезультатна. Единственная реакция жениха – «жалобно промолвил». М.Дост мотивирует неожиданную злобу Зубейды, как долго копившуюся обиду на свою жизнь, то есть тем самым подчёркивает, что злые слова лишь вершина «айсберга»: «захрипела, тяжёлый комок подступил к горлу... Не сын, а слюнявый телок, хуже телка... Я как коза хозяина... зарыдала» [3,8]. Уничижительная лексика, выраженная в сравнениях, усиливает негатив восприятия Зубейды стариком («потеряла присущую вдовам гордость» и женихом («лицо её стало некрасивым»). И только самообладание Ибадуллы Махсума спасает эту позорную для всех сцену, возвращением к ритуалу: «иди, принеси дастархан, жена Хазрата... Нельзя уходить из дома, не отведав хлеба». [3,9], то есть старик всё же пытается сохранить лицо. М.Дост меняет мизансцену прощания, в которой не участвует жених, «весь багровый от обиды и возмущения встал с места».

Финал короткого рассказа сделан автором так объёмно, что вновь важны все составляющие системы (предмет, мизансцена, движение и конь, интонация говорящих). А напряжённость и обида Хаджикула выражена М.Достом в его подчёркнутом молчании, игнорировании Ибадуллы Махсума. Эти чувства и определяют тональность нарратива. Чувства Хаджикула настолько оголены, что уже не принимается в расчёт простая вежливость и уважение к старику. Можно вспомнить его поведение до сватовства и спроецировать на обратный процесс. Это выражено в движении («отвязывал своего коня»), в жесте презрения («не предложил коня»), в подчёркнутом молчании («пошли рядом, молча»). Состояние внутреннего протеста героя М.Дост усиливает монологом старика в «пустоту»; а то, что выражение лица у Хаджикула ужасно, становится понятным по реплике: «Если ты хочешь поминать мою мать, то только здесь, я не люблю, когда меня за глаза честят» [3,9]. Реакция Хаджикула закреплена за ситуацией: «недобро посмотрел, но промолчал», то есть первый раз посмотрел в лицо Ибадуллы Махсума. Как видим, для психологической картины в данной финальной ситуации важны такие инструменты, как молчание Хаджикула, его холодность,

даже презрение, что в рамках национальной ментальности, подчёркивает крайнюю степень бешенства героя: «...не удостоил ответом, сел на коня и поскакал» [3,с.9].

Эта вся сцена даётся как бы с позиции старика-пророка, заранее знавшего результат и предупреждавшего: «Сейчас не получится... раньше надо было» [3,с.4]. М.Дост завершает сцену победой Ибадуллы Махсума, ведь он даже в такой провальной ситуации, оказывается прав: «Только не вздумай ругаться по дороге, конь тебя сбросит» [3,9]. Победа пророка заключается в реакции Хаджикула, который уже через несколько минут (сто метров, которые проскакал конь), психологически меняется: «улыбнулся жалкой улыбкой... медленно шёл конь».

Итак, важно подчеркнуть проблему ценностей в национальной культуре. Национальный писатель, будучи носителем узбекской культуры, есть не что иное как «часть всей системы». Поэтому создавая свой художественный мир, он передаёт в тексте систему национальных ценностей, а ценность всегда социальна.

Литература

1. В.Шмид Перспективы и границы когнитивной нарратологии <http://narratorium.rggu.ru/article.html?id=2633109>
2. Составители: доктор филологических наук Н.В.Владимирова., кандидат филологических наук И.У.Гафуров. Тысячи и одна жизнь. Рассказы узбекских писателей. –Ташкент: Из-во литературы и искусства им.Г.Гуляма, 1988.
3. Дост М. Галатепинцы.-Библиотека [www. Ziyouz.com](http://www.Ziyouz.com)
4. Фарино Е. Введение в литературоведение. СПб: Из-во РГПУ им.Герцена, 2004.

Egamova M.X.

M.M.DO‘STNING “GALATEPALIKLAR” SIKLIDA NARRATIVE TUZILMALARNING O‘ZIGA XOSLIGI

M. Do‘st ijodiyoti, zamonaviy o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin tutadi. Uning «Galatepaliklar» asari alohida uslubda yozilib, unda milliy dunyoqarash orqali, umumbashariy qadriyatlar, milliy madaniyatning jamoatchilik hayoti aks etgan. «Galatepaliklar» asarida, lingvo-madaniy, kognitiv va konseptual hodisalar tadqiqoti, dunyoni ilg‘ash imkoniyatlarini kengaytirib, u alohida olingan hududlar yagona tizimini tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyat, jamiyat, dunyoqarash, urf-odat, hodisalar, galatepaliklar, zamonaviy o‘zbek adabiyoti.

Egamova M.Kh.

THE PECULIARITIES OF NARRATIVE STRUCTURES IN THE CYCLE OF GALATAPENSES BY M. DOST

The Uzbek literature of the XX century is the most exact indicator of all changes is consciousness, in numerous political excesses, historical cataclysms. But through works the main criteria of national understanding of the one who can consider himself as the Person, the real owner of the earth, but not the favorite ready to destroy everything for the sake of own wellbeing and honors from the authorities stand out. On the material of “Galatepints” the author researches lingvo culturological, cognitive and conceptual phenomena, broadens the informative sphere which makes uniform system of separately taken regions making cultural layer of the whole people.

Keywords: national values, society, outlook, customs and traditions, events, galatepints, modern Uzbek literature.

УДК 891.709

ТЕМАТИЧЕСКИЕ УРОВНИ В РОМАНЕ И.С. ТУРГЕНЕВА «ОТЦЫ И ДЕТИ»

А.С.Абдуллаева

Старший преподаватель Самаркандского государственного университета

E-mail: abdullayeva-as@mail.ru

Аннотация: В статье рассматриваются основные смысловые грани романа И.С.Тургенева «Отцы и дети». Традиционный социальный подход в исследовании романа уступает в статье место попытке выявить в нём иные ценностные ориентиры, в основании которых лежит интерес к художественно-философскому уровню произведения.

Ключевые слова: социальная проблема, литературная традиция, тема вечности.

«Тургенев – единственный наш охранитель» - сказал о писателе русский писатель символист Д.Мережковский, очевидно, имея в виду особую гармонию, которая утверждается в тургеневских произведениях.

В критике о Тургеневе давно укрепилось мнение как о «певце дворянских гнёзд», мастере пейзажей, знатоке крестьянской жизни и провозвестнике появления «новых людей». Последнее относимо, конечно, к роману «Отцы и дети», который считают, в силу различных причин, главным детищем тургеневского творчества. Также общим местом стало утверждение о том, что в центре романа - общественный и семейный конфликт, в основе которого – отношение к духовному наследию прошлого. «Конфликт романа «Отцы и дети» в семейных сферах, конечно, не замыкается, но трагическая глубина его выверяется /.../ в связях между поколениями, между противоположными общественными движениями» [2,91].

Как свидетельствует педагогическая практика, роман и сейчас вызывает интерес у читающей аудитории, подтверждая, что всякое классическое произведение оказывается гораздо глубже устоявшихся оценок. Современность актуализирует проблематику романа, высвечивая в нём новые грани.

Говоря о социальном уровне тургеневского произведения, критика, как правило, соотносит дату выхода в свет «Отцов и детей» - 1862 год с главным общественным событием этого периода – отменой крепостного права, утверждая, что именно это событие косвенно определяет смысловой фокус романа, начинающегося с семейных противоречий.

Между тем, разговоры «о мужике» в произведении играют не столь уж принципиальную роль, точнее, они не претендуют на то, чтобы сконцентрировать на себе весь идейный спектр романа. Эти разговоры периодически возникают в романе, но выдают, скорее, не столько суть вопроса, сколько характеристику самих героев-антагонистов Кирсанова и Базарова. Во время спора между ними Павел Петрович обвиняет Базарова в нелюбви к народу, утверждая, что «он (народ – А.А.) свято чтит предания, он патриархальный, он не может жить без веры», и что Базаров идет «против своего народа», презирает его, на что Евгений отвечает: «Что ж, коли он заслуживает презрения!».

Вообще, в критике давно устоялся миф о Базарове как о выразителе интересов народа. Как правило, утверждая данную мысль, ссылаются на реплику героя, брошенную в споре с Павлом Петровичем: «Аристократизм, либерализм, прогресс /.../, подумаешь, сколько иностранных... и бесполезных слов! Русскому человеку они даром не нужны» [1,190]. Что касается вопроса о крестьянской реформе, столь педалируемого в критике, то непосредственно о нём говорится лишь раз – в беседе отца и сына Базаровых. «Заговорив однажды, по поводу близкого освобождения крестьян, о прогрессе, он /Василий Иванович Базаров – А.А./ надеялся возбудить сочувствие своего сына», но тот отреагировал совершенно равнодушно, заметив, что весь прогресс обнаружился лишь в том, что «вместо какой-нибудь старой песни, горланят: *«Время верное приходит, сердце чувствует любовь...Вот тебе и прогресс»*» [1,317]. Позволим себе здесь процитировать отдельные высказывания Базарова, демонстрирующие действительное отношение героя к народу: «Мужик наш рад самого себя обокрасть, чтобы только напиться дурману в кабаке», или «русский человек только тем и хорош, что он сам о себе прескверного мнения».

Это лишь в представлении самого Базарова он стоит над всеми этими неграмотными мужиками. Они же, в свою очередь, дают ему однозначную оценку: «Известно, барин; разве он что понимает?». Но вот самое, пожалуй, откровенное высказывание Базарова на эту тему: «а я и возненавидел этого последнего мужика, Филиппа или Сидора, для которого я должен из кожи лезть и который мне даже спасибо не скажет... да и на что мне его спасибо? Ну, будет он жить в белой избе, а из меня лопух расти будет; ну, а дальше?». И именно это высказывание героя, далеко выходящее за рамки разговора о русском мужике, позволяет наметить в толковании романа ещё одну важную линию, касающуюся фигуры Базарова как представителя своего поколения.

В этом высказывании тургеневского героя ясно слышен тот протестующий вызов мироустройству, который позже в романе Достоевского «Преступление и наказание» найдёт своё трагическое завершение в образе паука, о котором Раскольникову говорит Свидригайлов: «представьте себе, будет там одна комнатка, эдак вроде деревенской бани, закоптелая, а по всем углам пауки, и вот и вся вечность». Сближение с героями Достоевского здесь не случайно. Хронологически роман «Преступление и наказание» не столь далеко отстоит от романа

Тургенева, первые главы его появились в печати в 1865 году, спустя три года после тургеневского произведения. Таким образом, вполне уместно предположить, что Раскольников и Базаров – своеобразные литературные ровесники, свидетели одинаковых событий, примерно одного социального положения, обоих по-своему сформировал Петербург (Аркадий и Базаров возвращаются в начале романа в родные места из Петербурга). Мучительные вопросы о несправедливом устройстве жизни и собственном положении у одного из них перерастают в теорию сильной личности, позволяющей себе «кровь по праву», а другого приводят к отрицанию всего, что пользы практической не имеет.

Антиподы по своим общественно-политическим взглядам, Тургенев и Достоевский каждый по-своему отреагировали на «проклятые вопросы» эпохи, тем не менее, в самом главном, всё-таки, сойдясь – в неприятии радикализма, отрешения от вечных истин и в признании красоты как вечного и неоспоримого закона жизни.

По большому счету, не столько общественные вопросы беспокоят Базарова, он-то о них первым никогда и не заговаривает, его практически вынуждают высказываться на этот счет «отцы» – Василий Иванович и Павел Петрович. А вот что действительно волнует героя, с чем он ведёт настоящий спор, высказано им по разным поводам. С Аркадием после объяснения в любви к Одинцовой: «Чёрт знает, что за вздор! Каждый человек на ниточке висит, бездна ежеминутно перед ним развернуться может, а он ещё сам придумывает себе всякие неприятности, портит свою жизнь» [1,247]. В родном имении, после разговора с Аркадием о родительской заботе о нём: «...Я вот лежу здесь под стогом... Узенькое местечко, которое я занимаю, до того крохотно в сравнении с остальным пространством, где меня нет; и часть времени, которую мне удастся прожить, так ничтожна перед вечностью, где меня не было и не будет... А в этом атоме, в этой математической точке кровь обращается, мозг работает, чего-то хочет тоже...Что за безобразие! Что за пустяки!» [1,262]. С вечностью пытается сладить Базаров, не меньше! Это его по-настоящему занимает, и с этой неотвратимой логикой жизни примириться он не может, нет в нём того озаряющего всё света веры и красоты, потому и возникает в его воображении мучительный образ лопуха – как знак бессмысленности всего. И этот переход метафизического в сугубо бытовой план резко снижет «высокую» ноту в общем звучании темы вечности.

Таким вот странным образом трансформируется пушкинский посыл, изначально лежащий в основе размышлений героев: «И пусть у гробового входа // Младая будет жизнь играть, // И равнодушная природа // Красою вечною сиять». Лишь у Пушкина в этом противоречивом разладе каким-то непостижимым образом воплощена необходимая гармония, к которой Тургенев привел-таки своего героя, но ... после всего. Уже устами не стариков Базаровых, тоскующих на могиле сына, говорит автор, но сам от себя: «Какое бы страстное, грешное, бунтующее сердце ни скрылось в могиле, цветы, растущие на ней, безмятежно глядят на нас своими невинными глазами: не об одном вечном спокойствии говорят нам они, о том великом спокойствии «равнодушной» природы; они говорят так же о вечном примирении и о жизни бесконечной...» [1,333].

Природа-красота-любовь-человек-мир – такова логика тургеневского художественного мира. Героев своих романов автор оценивает не по их идеологическим «привязанностям», а по их способности чувствовать гармоничную целостность мира, а эта способность вовсе не зависит от их социальных воззрений.

Красоту Тургенев видит не только в природе, но и в бытовых мелочах, предметном мире, который окружает поместную жизнь, придавая ему особое очарование. Всем этим спорам, «общим местам», которые презирает Базаров, противопоставлена столь милая автору домашняя обстановка «старосветских помещиков». «Подобные вещи как бы источают поэзию семьи и уюта, душевной оседлости, а одновременно – подлинной одухотворенности» [3,215].

В «Отцах и детях» каждый из главных героев сталкивается с ситуацией определенного выбора – диктовать миру свои правила, пытаясь поставить свою волю, интеллект превыше всего остального, либо довериться течению жизни. Таким образом, в романе выстраиваются две оппозиционные пары: Базаров, Павел Петрович, с одной стороны, и Аркадий, Николай Петрович, с другой. Первая из этих пар лишь внешне антагонистична, хотя большинство исследователей романа сходятся именно на этой точке зрения. На самом же деле, оба героя, скорее, схожи в своем стремлении навязать другим свои взгляды, представления, в своей неготовности принять факт необъяснимости жизни, ее нелинейности.

В отличие от них, у Аркадия и Николая Петровича нет готовых рецептов жизнеустройства как собственного, так и всеобщего. Николай Петрович строит свою жизнь, исходя не из идейных представлений о ней, а сообразуясь с собственными представлениями о любви и вере. Именно поэтому ситуация с Фенечкой, которая кажется Павлу Петровичу и Базарову двусмысленной, в глазах читателя вовсе не выглядит таковой. Недаром героиня всякий раз предстает в светлом одеянии с младенцем на руках – явная аллюзия на образ Богородицы. По этой же причине отношения между Аркадием и Катей так трогательны и описываются автором с необыкновенным лиризмом. И именно поэтому Тургенев отказывает Базарову в дельнейшем присутствии на страницах романа – он явно не готов принять жизнь в ее непредсказуемости, не готов подчинить идею чувству, всегда у Тургенева возвышающему человека. Экспериментатор по сути, Базаров не способен оценить божественную данность мира, будучи человеком неверующим, он отказывается принять красоту и любовь как нечто высшее, стоящее над всеми теориями и идеями.

Неслучайно, что в конце романа мы видим, с одной стороны, одинокого Павла Петровича, уехавшего на чужбину, одинокую же, несмотря на замужество, Одинцову (вышла замуж «не по любви, но по убеждению»), так и не решившуюся открыться новому чувству, и, с другой стороны, – две счастливые пары: Николая Петровича с Фенечкой и Аркадия с Катей, у которых впереди – счастье.

Литература

1. Тургенев И.С. Накануне. Отцы и дети. М.: Худож.лит., 1978.
2. История русской литературы XIX века. Вторая половина. (Под редак. Скатова Н.Н.). М.: Просвещение, 1987.
3. Хализов В.Е. Теория литературы. М.: Академия, 2009.

Абдуллаева А.С.

I.S.TURGENEVNING “OTALAR VA BOLALAR” ROMANINING TEMATIK DARAJALARI

Ushbu maqolada I.S. Turgenevning “Otlar va bolalar” romaninig asosiy ma’naviy chegaralari ko’rib chiqilgan. Romanni tadqiqot qilishdagi an’anaviy ijtimoiy yondashish o’rniga, ushbu maqola muallifi asardagi o’zgacha madaniy boyliklarni aniqlashga urinib ko’rdi. Bunday urinish asosida asarning badiiy-falsafiy saviyasiga bo’lgan qiziqish turibdi.

Kalit so’zlar: ijtimoiy muammo, adabiy an’ana, manguilik mavzusi.

Abdullaeva A.S.

THEMATIC LEVELS IN THE NOVEL “FATHERS AND CHILDREN” BY I.S. TURGENEV

The article considers fundamental views of I.S. Turgenev’s novel “Fathers and children”. The traditional social approach in the investigation of the novel surrenders the place to attempt to make out valuable aspects, in which one can find artistical and philosophical level of the novel.

Keywords: social problem, literary tradition, subject of eternity.

UDK: 494.3

NAMANGAN VILOYATI OYKONIMLARINING YASALISH MODELARI XUSUSIDA

Yu.O.Ne’matova

Samarqand davlat universiteti o’qituvchisi, E-mail: nemyuld@gmail.com

Annotatsiya. Joylarni, aholi manzillarini nomlashda hududlarda muayyan andoza va qoliplarga amal qilinishi kuzatiladi. Ana shunday qoliplar toponimik modellardir. O’zbek tili oykonimiyasi morfologik va yasalishi jihatidan sayqallanganligi, ma’lum me’yor hamda qoliplarga tushganligini ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: toponimik model, transonimizatsiya, oykonimik indikator, sodda tarkibli oykonimlar, qo’shma tarkibli oykonimlar, murakkab tarkibli oykonimlar.

Toponimlar, jumladan, oykonimlar boshqa til birliklari kabi muayyan qoliplar asosida hosil bo’ladi. Ana shunday qoliplar toponimik modellardir. Oykonimlarning har bir turi ma’lum modellar

asosida yuzaga kelgan. O'zbek toponimikasidagi toponimlarning tuzilishiga doir tasniflarni yondashuv asosi va xarakteriga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Yasalish usuli va modeliga asoslangan tasniflar.
2. Yasovchi vositalar va tarkibiy tuzilishiga asoslangan tasniflar.
3. Tarkibi va tarkibidagi lug'aviy birliklarga asoslangan tasniflar [1, 178].

Yuqoridagi tasniflarga ijodiy yondashgan holda, Namangan viloyati oykonimlarini tarkibiy tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Sodda tarkibli oykonimlar.
2. Qo'shma tarkibli oykonimlar.
3. Murakkab tarkibli oykonimlar.

Sodda tarkibli oykonimlarning lisoniy tarkibi birgina asosdan, ya'ni sodda leksemadan iborat bo'ladi [2, 69].

Sodda tarkibli oykonimlarning apellyativ yoki atoqli otdan hosil bo'lganligiga ko'ra quyidagi modellari kuzatiladi:

1) apellyativ leksika = ot: *Chinor, Bahor, Ishchi* (Namangan shahri), *Baxt* (To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on tumani), *Baraka* (Yangiqo'rg'on tumani), *Bog'* (Pop, Yangiqo'rg'on tumani), *Dasht* (Namangan, To'raqo'rg'on tumani), *Maydon* (Pop, Chust tumani.) kabi;

2) atoqli ot = ot: *Alpomish, Furqat, Mashrab* (Namangan shahri), *Navro'z, Oybek* (Mingbuloq tumani), *Bobur, Navoiy* (Norin tumani) kabi.

Transonimizatsiya asosida quyidagi atoqli ot turlaridan hosil qilingan sodda oykonimlarning quyidagi turlari kuzatiladi:

1. Antroponimlar (kishilarning ismi, familiyasi, ota ismi, laqabi)dan hosil bo'lgan oykonimlar: *Bahodireshon* (Namangan shahri), *Abdulla Qahhor* (Pop tumani), *Abdulla Mo'minov* (Uychi tumani), *Abdurahmon Jomiy* (Kosonsoy tumani), *Bobur* (Norin tumani) kabi.

2. Etnonimlar (millat, urug', qabila nomlari)dan hosil bo'lgan oykonimlar: *Arbag'ish// Ariqbag'ish* (Chortoq tumani), *Bag'ish* (Chortoq tumani), *Baymoq* (Chust tumani), *Beshserka* (Mingbuloq tumani), *Dovduq* (Mingbuloq tumani), *Qatag'on* (To'raqo'rg'on tumani), *Qatag'onsaroy* (To'raqo'rg'on tumani) kabi.

Sodda tarkibli oykonimlarning yuqoridagi birinchi turi onomastik konversiya, ikkinchisi transonimizatsiya usuli asosida hosil bo'lgan. Toponimlar, jumladan, oykonimlar hosil bo'lishida **onomastik konversiya** muhim o'rin tutadi. Konversiya usuli mohiyatan so'z yasashning leksik-semantik usuliga to'g'ri keladi. Onomastikaga oid so'nggi ilmiy manbalarda leksik-semantik usul onomastik konversiya deb yuritilmoqda. Ilmiy manbalarda onomastik konversiyaning bir turi sifatida **toponimik konversiya** ham qayd etiladi. Toponimik konversiya asosida hosil bo'lgan oykonimlarning ikki turini ajratish mumkin:

1) tub tarkibli sodda oykonimlar: *Ravot, Sohil, Haqiqat, Bog'* (Yangiqo'rg'on tumani), *Istiqlol, Gubar* (Chust tumani), *Yog'du, Atlas, Madaniyat, Sanoat* (Uchqo'rg'on tumani), *Baxt, Dasht* (To'raqo'rg'on tumani) kabi;

2) yasama so'zlar zaminida shakllangan sodda oykonimlar: *Shifokor* (Uychi tumani), *Toshloq, Sohibkor* (To'raqo'rg'on tumani), *Do'stlik* (Norin tumani), *Yoshlik, O'rikzor* (Kosonsoy tumani), *Bunyodkor, Nurchi, Oromgoh* (Namangan shahar), *Sadacha, Soycha* (Kosonsoy tumani), *Qo'rg'oncha* (Norin tumani), *Anjirzor, Bodomzor* (Namangan tumani), *Gulzor* (Uychi tumani), *Olmazor* (Pop t.), *Bog'iston* (Chortoq, Yangiqo'rg'on tumani), *Bahoriston* (Kosonsoy tumani), *Guliston* (Namangan shahar, Pop, Mingbuloq, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Chust, Yangiqo'rg'on tumani) kabi.

Toponimiyadagi konversiya usuli bilan affiksatsiya usulidagi yasalishni aralashtirish ko'p hollarda toponimlarning motivlarini noto'g'ri talqin qilishga olib keladi [3, 204]. Yuqoridagi oykonimlar konversiya usuli bilan yasama so'zlarning joy nomiga o'tishi asosida yuzaga kelgan.

Sodda yasama oykonimlar tarkibida topoformantlar kuzatiladi. A.L.Xromov fikricha, topoformantlar apellyativ leksikadan onomastik leksika uchun toponimlar yasaydigan qo'shimchalar hisoblanadi. Topoformantlar – toponimik so'z yasash vositasi sifatida qo'llaniladigan qo'shimchalar yoki ularga teng bo'lgan yordamchi morfemalardir [4, 9]. Demak, topoformantlar toponimlar yasashga xoslangan qo'shimchalardir. Namangan viloyati oykonimiyasida *-ak, -gan, -g'on, -mon, -cha* topoformantlari bilan yasalgan oykonimlar kuzatiladi: *Hisorak* (Chust tumani), *Hovuzak, Rezak, Navzak* (Pop tumani), *Bo'lanak* (Chortoq tumani), *Poromon* (Yangiqo'rg'on tumani), *Porosmon*

(To'raqo'rg'on tumani), *Xo'jand* (To'raqo'rg'on tumani), *Pungon* (Pop tumani), *Qandig'on* (To'raqo'rg'on tumani), *Naymancha* (To'raqo'rg'on tumani) kabi.

Sodda tarkibli oykonimlarning morfologik asosiga ko'ra quyidagi modellari mavjud:

1. Ot apellyativlardan tarkib topgan oykonimlar: *Ishonch*, *Sohibkor*, *Olvalizor*, *To'quvchi* (Namangan shahar), *Guzar*, *Yoshlik* (Kosonsoy tumani), *To'lqin* (Norin tumani) kabi.

2. Sifat apellyativlardan tarkib topgan oykonimlar: *Madaniy*, *Ozod*, *Obod*, *Zarbdor* (Namangan shahar), *Obodon* (Kosonsoy, To'raqo'rg'on tumani), *Go'zal*, *Yaydoq* (Norin tumani) kabi.

3. Fe'l apellyativlardan tarkib topgan oykonimlar: *Changitma* (Norin tumani), *To'sar* (Namangan tumani), *Birlashgan* (To'raqo'rg'on tumani) kabi.

Tarkibi birdan ortiq lug'aviy asosdan iborat aholi manzillarining nomlari **qo'shma tarkibli oykonimlardir**. Qo'shma tarkibli oykonimlar kompozitsiya usuli bilan yasaladi.

Qo'shma tarkibli oykonimlarning morfologik asosi va shakllanish modeliga ko'ra quyidagi turlari kuzatiladi:

I. Ot+ot modelidagi qo'shma tarkibli oykonimlar: *Gulbog'*, *Qadam-joy* (Namangan shahar) *Dashtbog'*, *Ko'lqo'rg'on* (Namangan tumani), *Otbozor* (Norin tumani), *Bo'riuya* (Chust tumani) *Buloqboshi* (Kosonsoy, Chust, Pop, Yangiqo'rg'on tumani), *Buloqbo'yi* (Chust tumani) kabi.

II. Sifat + ot modelidagi qo'shma tarkibli oykonimlar: *Balandariq* (Uychi, Uchqo'rgo'n tumani), *Balandko'prik* (Uchqo'rgo'n tumani), *Yangihayot*, *Yangitong* (Namangan shahar), *Uzunqishloq*, *Yangishahar*, *Yangiyo'l*, *O'rta ko'cha* (Kosonsoy tumani), *Oqer* (Namangan tumani), *Oqqir* (Chust tumani), *Oqtol* (Chust tumani), *Oqtom* (Yangiqorgo'n tumani), *Oqtosh* (To'raqo'rg'o'n, Uychi, Chust tumani), *Oqtepa* (Kosonsoy, Pop, Yangiqo'rg'o'n tumani), *Oqqum* (Mingbuloq tumani), *Oqterak* (Chortoq tumani), *Qizilyozi* (Yangiqo'rg'o'n tumani), *Qizilqiyoy* (Yangiqo'rg'o'n tumani), *Qizilqum* (Mingbuloq tumani), *Qiziltepa* (Chust tumani), *Qiziltov* (Norin tumani), *Qiziltol* (Mingbuloq tumani), *Qiziltosh* (Chust tumani) kabi. Bu modeldagi oykonimlarning yuzaga kelishida *yangi*, *eski*, *oq*, *qora*, *qizil*, *sariq*, *katta*, *kichik*, *mayda*, *baland*, *yuqori*, *do'ng*, *o'rta*, *quyi*, *past*, *keng*, *tor*, *chuqur*, *uzun* kabi belgi-xususiyat bildiruvchi maxsus sifatlar faol qatnashgan. Biz to'plagan oykonimlar orasida *oq*, *qizil*, *yangi* sifatleri qatnashgan nomlarning 8-10 tagacha ekanligi fikrimizning dalilidir.

Sifat + ot modelidagi nomlarning ba'zilar **sifat - oykonimik indikator** ko'rinishida bo'ladi: *O'rtaqishloq* (Mingbuloq tumani), *Eskiqishloq*, *Yangiqishloq*, *Yangier*, *Yangichek*, *Yuqoriqishloq* (Pop tumani), *Pastguzar* (Uychi tumani), *Qizilravot* (Uychi tumani) kabi.

III. Sifat + atoqli ot modelidagi qo'shma tarkibli oykonimlar: *Kichik Qurama*, *Kichik Toshbuloq*, *Katta Toshbuloq*, *Yuqori G'irvon*, *Quyi G'irvon*, *O'rta G'irvon*, *Quyi Rovuston*, *Yuqori Rovuston*, *O'rta Rovuston* (Namangan tumani), *Yuqori Cho'ja*, *Yangi Farg'ona* (Norin tumani), *Yuqori Chodak* (Pop tumani), *Past Mo'g'iltoy* (To'raqo'rg'o'n tumani), *Katta Mo'g'ol* (Uchqo'rg'o'n tumani) kabi. Bu modeldagi oykonimlar bir aholi manzilini kengayishi va natijada ma'lum, ya'ni *yuqori*, *quyi*, *o'rta*, *baland*, *past* qismlarga bo'linishi, bir manzil yonida boshqasini yuzaga kelishi hamda ularni oppozitsion zidlash asosida nomlanishi natijasida yuzaga kelgan.

IV. Ot + sifat modelidagi qo'shma tarkibli oykonimlar. O'zbekiston, jumladan, Namangan viloyati oykonimiyasida **ot + sifat**, ya'ni **ot+obod formanti** modelidagi joy nomlari eng ko'p tarqalgan. *Obod* so'zi tojikcha *ob* – suv, *obod* – suvli, *suv etarli* joy degan ma'noni bildiradi. Bu so'z shahar, qishloq, umuman aholi manzilgohlariga nisbatan ishlatiladi. Asosiy ma'nosi "gullagan" demakdir. [5.29]

Namangan viloyati oykonimiyasida **ot+obod formanti** modelidagi oykonimlarni o'z ichida quyidagicha guruhlash mumkin:

a) turdosh ot + obod formanti modelidagi qo'shma tarkibli oykonimlar: *Bahriobod* (Uchqo'rg'o'n tumani), *Bekobod* (Yangiqo'rg'o'n, To'raqo'rg'o'n tumani), *Gulobod* (Kosonsoy tumani), *Davlatobod* (Namangan shahar), *Dehqonobod* (Mingbuloq, Uychi, Uchqo'rg'o'n, Chust tumani), *Do'stlarobod* (Chust t.), *Islomobod* (Uychi, Uchqo'rg'o'n tumani), *Mirzavot* // *Mirzaobod* (Chust tumani), *Mirobod* (Pop tumani), *Navro'zobod* (Yangiqorgo'n tumani), *Naymanobod* (Norin tumani), *Nurobod* (Namangan shahar, Uchqo'rg'o'n tumani), *Paxtaobod* (Pop tumani), *Sohilobod* (To'raqo'rg'on tumani), *Xalqobod* (Pop tumani), *Xonobod* (Namangan, Pop tumani), *Xo'jaobod* (Norin, Pop, Uychi, Chust tumani), *Hojiobod* (Uychi tumani), *Haqqulobod* (Norin tumani) kabi;

b) atoqli ot + obod formanti modelidagi qo'shma tarkibli oykonimlar: *Nuraliobod* (Yangiqorgo'n tumani), *Eraliobod* (Pop tumani), *Qodirobod* (To'raqo'rg'o'n tumani), *Hasanobod*

(Namangan shahar) kabi. Shuningdek, oz bo'lsa-da, **sifat+obod formanti** modelidagi oykonimlar ham kuzatiladi: *Yangiobod* (Chortoq, Mingbuloq, Pop, To'raqo'rg'on, Uchqo'rgo'n tumani) kabi.

Keltirilgan dalillardan ko'rinadiki, hudud oykonimiyasida obod tarkibli nomlar 20 dan ziyod. Bu hozirgi o'zbek toponimikasyida, jumladan, hudud oykonimiyasida *obod* formanti bilan, xususan, **ot+obod formanti** modelida oykonimlar yasash faolligini ko'rsatadi.

V. Son + ot modelidagi qo'shma tarkibli oykonimlar: *Yakkasada, Mingterak, Mingchinor, Uchyog'och* (Namangan shahar), *Beshketmon, Chorbog'* (Kosonsoy tumani), *Qo'shqishloq, To'psada, Yakkatol, To'psada, Qirqchek* (Mingbuloq tumani), *Uchuyli* MFY, *Qo'shminor* MFY (Pop tumani) kabi.

Son tarkibli oykonimlar sirasida **uch** so'zi asosida yasalgan oykonimlar miqdoran ko'p: *Uchyog'och, Uchko'prik, Uchtepa, Uchuyli, Uchqo'rg'on, Uchbo'lar* kabi. *Uchuyli* oykonimi *Uchuylik* variantida ham uchraydi.

Qo'shma tarkibli oykonimlar morfologik tarkibida ikkinchi komponent sifatida *qo'rg'on, qishloq, mahalla, kapa, chek, kent, shahar, to'p, ravot* kabi oykonimik indikatorlar faol qo'llanadi: *Gulqishloq* (To'raqo'rg'on tumani), *Yorqishloq* (Chust tumani), *Yorqo'rg'on* (Uychi tumani), *Mirzaravot* (Uychi tumani), *Navkent* (Yangiqorgo'n tumani), *Sho'rkent* (Chust tumani), *Norinkapa* (Norin tumani), *Peshqo'rg'on* (Chortoq tumani), *Xalfato'pi* (Uchqo'rgo'n tumani), *Qirg'izmahalla* (Uychi, Uchqo'rgo'n tumani), *Qirqchek* (Mingbuloq tumani), *Qo'shchek* (Uchqo'rg'on tumani) kabi. Ularning tuzilishi ham, albatta, yuqoridagi modellar asosida shakllanadi.

Har bir til toponimiyasida indikator vazifasida qo'llanuvchi lug'aviy birliklar mavjud.

Toponimik indikatorlar qanday obyektga ishora qilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) oykonimik indikatorlar;
- 2) gidronimik indikatorlar;
- 3) oronimik indikatorlar;
- 4) nekronimik indikatorlar;
- 5) agroonimik indikator kabi.

Oykonimik indikatorlar toponimik indikatorlarning bir turidir. Oykonimlar tarkibida qo'llanib, turarjoy tushunchasini ifodalovchi, bir oykonim turini ikkinchisidan farqlovchi lug'aviy birliklar **oykonimik indikatorlar**dir. Masalan, shahar, kent, ovul, qo'rg'on: *Toshkent, Navkent, Chimkent, Uchqo'rg'on, Yangiqo'rg'on, Xo'jaqishloq, Yangiqishloq* kabi.

Oykonimik indikatorlar turli apellyativlarga qo'shilib, ularning toponim, xususan, oykonimlikka xoslaydi, aholi manzillarining maxsus atoqli nomi – oykonim sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Oykonimik indikatorlar boshqa indikatorlar kabi quyidagi onomastik vazifalarni bajaradi:

- 1) oykonim ifodalayotgan obyektning turini ko'rsatadi, konkretlashtiradi;
- 2) qo'shma, murakkab tarkibli oykonimlarning shakllanishida bir komponent sifatida keladi va obyektning nomlashda qatnashadi;
- 3) obyektning xarakterlaydi;
- 4) obyektning boshqa shunday obyektlardan farqlaydi [6, 24].

Toponimik, xususan, oykonimik indikatorlar doirasidagi logik va lingvistik mushtarakliklar hamda farqlar barcha tillar toponimiyasi aynan bir toponimik prinsip va qonuniyatlarga asoslanganligini, faqat ularni lingvistik ifodalashda farqlanishini ko'rsatadi.

Oykonimik indikatorlar bilan hosil qilingan qo'shma tarkibli oykonimlarning quyidagi turlari kuzatiladi:

1. Qo'rg'on tarkibli qo'shma toponimlar.

2. Qishloq tarkibli qo'shma oykonimlar.

3. Mahalla tarkibli qo'shma oykonimlar: *Arabmahalla* (Chust tumani), *Zavodmahalla* (Pop tumani), *Lo'limahalla* (Namangan shahar), *Mozormahalla* (Chust tumani), *Pastmahalla* (Chust tumani), *Tatarmahalla* (Yangiqorgo'n tumani), *Xo'jamahalla* (Uychi tumani), *Qipchoqmahalla* (Uychi tumani), *Qirg'izmahalla* (Uychi, Uchqo'rgo'n tumani) kabi. Bunday nomlar asosan **ot + ot modelida** bo'lib, ko'proq etnonimlarga mahalla indikatorini qo'shish bilan hosil qilingan.

4. Kapa tarkibli qo'shma oykonimlar: *Beshkapa* (Uychi tumani, Namangan tumani), *Jiydakapa* (Uychi tumani), *Norinkapa* (Norin tumani) kabi.

5. Chek tarkibli qo'shma oykonimlar: *Qo'shchek* (Norin tumani), *Yangichek* (Uychi tumani), *Qirqchek* (Mingbuloq tumani), *Shahrixonchek* (Uchqo'rgo'n tumani) kabi.

6. Kent tarkibli qo'shma oykonimlar. *Xo'jasho'rkent, Hadikent, Qorachasho'rkent, Zarkent, Navkent* (Yangiqorgo'n tumani), *Sho'rkent* (Yangiqorgo'n tumani, Chust tumani) kabi.

7. **Shahar tarkibli qo'shma oykonimlar:** *Yangishahar* (Kosonsoy tumani), *Qorashahar* (Mingbuloq tumani) kabi.

8. **To'p tarkibli qo'shma oykonimlar:** *Pastkito'p*, *Pichanto'pi*, *Xalfato'pi*, *O'ljato'pi*, *Kattato'p* (Uchqo'rgo'n tumani), *Boyto'pi*, *Kalto'pi*, *Marg'ilonto'pi* (Norin tumani) kabi.

9. **Ravot tarkibli qo'shma oykonimlar:** *Mirzaravot*, *Qizilravot* (Uychi tumani) kabi.

10. **Ovul tarkibli qo'shma oykonimlar.** *Chindovul* (Kosonsoy tumani), *Ovul* (Namangan tumani) *Soyovul* (Kosonsoy tumani), *Qozoqovul* (Norin, Uchqo'rgo'n, Mingbuloq, Kosonsoy tumani), *Qayrag'ochovul*, *Oltmishovul*, *Tolovul* (Mingbuloq tumani), *So'zaqovul*, *Boyovul* (Norin tumani) kabi oykonimlar mavjud.

11. **Katak // katay tarkibli qo'shma oykonimlar:** *Yorkatay* (Uychi tumani).

12. **Xayat tarkibli qo'shma oykonimlar:** *O'nxayat* (Uychi tumani).

Dalillardan ko'rinadiki, viloyat oykonimiyasida *qo'rg'on*, *qishloq* tarkibli oykonimlar salmoqli o'rin tutgani holda, *ravot*, *chek*, *kent*, *to'p* tarkibli tarixiy va *katay* (*katak*), *xayat* kabi dialektal oykonimik indikatorlar asosida yasalgan qo'shma tarkibli oykonimlar juda kam kuzatiladi.

№	Oykonimik indikatorlar	Ular asosida yasalgan oykonimlar miqdori
1	Qo'rg'on	19
2	Qo'rg'oncha	2
3	Kapa	3
4	Chek	4
5	Qishloq	10
6	Kent	5
7	Mahalla	10
8	Shahar	2
9	To'p	9
10	Ravot	2
11	Ovul	7
12	Katay (Katak)	1
13	Xayat	1
	Jami	75

Oykonimiyasining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'z navbatida hudud oykonimiyasini boshqa viloyatlar oykonimiyasidan farqlovchi belgi hamdir.

VII. Izofali birikma modelidagi qo'shma tarkibli oykonimlar. Namangan viloyati aholisining etnik tarkibi asosan turkiy xalqlar, ularning qipchoq urug'laridan iborat bo'lishi bilan birga, hududning ma'lum qismlarida tojik millati vakillari ham yashashadi. Tumandagi bu etnik holat oykonimlar shakllanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatganligi sababli toponimik so'z yasashida forscha-tojikcha qatlam ham, oz bo'lsada ishtirok etgan. Masalan, *Bog'ishamol* (Kosonsoy, Chortoq tumani), *Bog'i Eram* (Chust tumani), *Hazratishoh* (Chortoq tumani), *Qal'aipoyon* (Chust tumani) kabi.

Murakkab tarkibli oykonimlar. So'z birikmasi va gap shaklidagi aholi maskanlarining nomlari murakkab tarkibli oykonimlardir: *Mustaqillik 5 yilligi*, *Xalqlar do'stligi* (Namangan shahar), *Oto'ldi* (Chust tumani), *Kelinqochdi* (Pop tumani) kabi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Namangan viloyati oykonimlarini ko'plab qoliplar asosida yasalganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu birliklarning jumladan, sodda, qo'shma va murakkab tartibli oykonimlar yasashining sermahsulligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008 – Б. 178.

2. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 69.

3. Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010 – Б. 204.

4.Хромов А.Л.Очерки по топонимии и микропонимии Таджикистана. – Душанбе: Ирфон, 1975. – Б. 3-4, 9.

5.Охунов Н., Ахмадалиев Ю. Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари. – Фарғона, 2010. – Б. 29.

6.Ражабов Ў. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари: филол. фан. номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 24.

Ю.О. Нетьматова

О МОДУЛЯХ ОБРАЗОВАНИЯ ОЙКОНИМОВ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

При наименовании местностей, населённых пунктов наблюдается следование определённым образам и правилам. В статье указывается, что ойконимы узбекского языка с морфологической и словообразительной сторон достаточно обработаны и отшлифованы и соответствуют нормативным критериям.

Ключевые слова: топонимическая модель, трансонимизация, ойконимический индикатор, простые ойконоимизмы, сложные ойконоимизмы, составные ойконоимизмы.

Yu.O. Nematova

ABOUT OICONYM FORMATION MODULES OF NAMANGAN REGION

The following article is devoted to the study the oiconymic indicators in the Namangan regions as special lexical compounds carrying out the onomastic function. The article presents their comparative analysis based on the various factual materials. The main attention is focused on the lexical compounds that distinguish one type of oiconyms from another, as well as on the oiconyms expressing location and address of population.

Keywords: toponymic model, transonymization, oiconymic indicator, common oiconyms, compound oiconyms, complex oiconyms.

UDK:894.375

O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI VA TANQIDCHILIGIDA CHO'L PON IJODIGA ILK MUNOSABATLAR

D.E.Jabborova

Nizomiy nomidagi TDPU katta ilmiy xodim-izlanuvchi

Annotatsiya. Cho'lpon ijodiga turli davrlarda berilgan turlicha baholarni o'rganish, uning sabablarini aniqlash va mustaqillik davri cho'lponshunosligining yetakchi tamoyillaridan biridir. Cho'lpon ijodi o'tgan asrning 20-yillardayoq adabiy tanqidning tadqiq obyektiga aylangan edi. Mazkur maqolada adabiy tanqidning Cho'lpon ijodiga oid dastlabki kuzatishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: adabiyotshunoslik, adabiy tanqid, adabiy muhit, burjua shoiri, jadid, ziyoli.

Abdulhamid Sulaymonqul o'g'li – Cho'lpon (1897–1938) o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, jadid adabiyotining otashin vakillaridan biridir. Garchi uning dastlabki asarlari 1914-yillardayoq chop etilgan bo'lsa-da, ijodining ayni gullagan payti o'tgan asrning yigirmanchi yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda shoirning birin-ketin “Uyg'onish”, “Buloqlar”, “Tong sirlari” kabi she'riy to'plamlari chop etildi. Mazkur she'riy to'plamlari bilan shoir XX asr o'zbek she'riyatini tubdan yangilashga xizmat qila oldi. Chunonchi, XX asr o'zbek realistik she'riyatining qaror topishiga zamin yaratdi. Cho'lpon she'riyatining yetakchi konsepsiyasini davr va shaxs talqini tashkil etadi. Shu ma'noda Cho'lpon she'riyatini fojiaiy she'riyat deb atash mumkin. Unda XX asr tongida qaror topgan davr fojiasi va uning oqibatida namoyon bo'lgan millat fojiasi o'zining chuqur mujassamini topgandir. Shu bois Cho'lpon she'riyatining yetakchi motivini erk, ozodlik, mustamlaka zulmiga qarshi kurash va shaxs erki motivlari tashkil etadi. Cho'lpon bu davrda nafaqat she'riy asarlar, balki ko'plab nasriy hamda dramatik asarlar yaratib, o'zbek nasri va dramaturgiyasining rivojiga ham o'zining munosib hissasini qo'shdi. Shu jihatdan uning “Qor qo'ynida lola”, “Novvoy qiz”, “Oydin kechalarda” kabi hikoyalari, “Kecha va kunduz” romani, “Yorqinoy” dramasi xarakterlidir. Bu asarlarda yozuvchi oktabr to'ntarishidan oldingi o'zbek xalqining fojiali turmush tarzini realistik bo'yoqlarda aks ettiradi.

Cho'lpon yetuk munaqqid va tarjimon sifatida ham jahon va rus adiblarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ko'plab adabiy-tanqidiy maqolalar yaratgan. Sho'ro mafkurasi Cho'lpon ijodi va shaxsiyatini sig'dirmadi. O'tgan asrning yigirmanchi yillaridayoq shoir ijodiga bag'ishlangan ko'pgina

maqolalarda uning ijodkorlik pozitsiyasini belgilashga urinish, badiiy asarlari bir yoqda qolib, shaxsiyatini taftish qilish avj oldi. Natijada o'sha davridayoq shoir "millatchi", "burjua shoiri", "jadidchi", "panturkist" kabi ayblovlar bilan ayblana boshladi. O'ttizinchi yillarda esa bu ayblovlar kuchayib, 1937-yilda "xalq dushmani" degan tamg'a ostida Qodiriy, Fitratlar bilan bir qatorda qamoqqa olinadi va 1938-yilda otib tashlanadi.

Sho'ro davrida Cho'lpon asarlarini o'qib-o'rganish ta'qiqlanadi. Uning ijodiy merosi xalq ko'zidan panada, turli arxivlarda saqlandi va matbuotda chop etilgan maqolalarda mutasstil siyosiy ayblovlar bilan ayblanib kelindi.

Qachonki, mustaqillik arafalarida, 80-yillarning oxiriga kelib, ijtimoiy hayotda demokratik jarayonlarning chuqurlashuvi sharofati bilan Cho'lpon ijodi haqida ham iliq fikrlar aytila boshladi. Asarlaridan ba'zi namunalar chop etilish yo'lga qo'yildi. Nihoyat O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Cho'lpon hayoti ijodini har tomonlama o'rganish va adabiy merosini xalqqa yetkazish ishlari amalga oshirila boshlandi. Uning hayoti va ijodini o'rganish maktab va oliy o'quv yurtlari dasturiga kiritildi.

Biz mazkur maqolada adabiy tanqidning Cho'lpon ijodiga oid dastlabki kuzatishlarga to'xtalmoqchimiz.

Cho'lpon ijodiga doir dastlabki bahs yohud sinfiy-mafkuraviy yondashuv talqini shoir ijodiga oid kuzatishlarning ikkinchi bosqichi 1927-yilda Ayn-Olim Sharafiddinov (Ayn-taxallus)ning "O'zbek shoirlari. Cho'lpon" nomli bahsi bilan boshlanadi. Mazkur bahsni o'sha davrda sho'ro hokimiyatining organi bo'lgan "Qizil O'zbekiston" gazetasi boshlab beradi.

Ta'kidlash joizki, bu davrga kelib sho'rolar hokimiyati o'zining hokimligini ancha mustahkamlab olgan, hayotning barcha jabhalarida sho'rolar siyosati o'zining hukmini o'tkazgan, va, hatto, 1925-yilda "Partiyaning adabiyot sohasidagi siyosati" to'g'risida o'z rezolyutsiyasini ham e'lon qilib, unda proletar adabiyotining gegemonligini qonun bilan mustahkamlab ham qo'ygan edi. Proletar adabiyoti deb nom olgan sho'ro adabiyoti o'zining gegemonlik siyosatini allaqachon boshlab yuborgan va adabiyot sohasida "sinfiy dushman"larga qarshi kurashni boshlab yuborgan edi. Bu kurash adabiy tanqidni ham o'z domiga tortib jadid adabiyoti namoyandalari bo'lgan Qodiriy, Fitrat va Cho'lponlar ijodini qoralovchi maqolalar chop etila boshlagan edi.

Ayn maqolasining debochasidayoq ayni shu haqiqatni e'tirof etib: "Yo'qsullarni o'rab olgan og'ir sharoitlar tugadi. Madaniy qurulish bilan mashg'ul bo'lmoqqa boshladi. Uning og'ir, mas'uliyatlik ijodiy ishlari boshlandi. Yangi turmushning chin asoslarini qurish, bu yo'lda kurashish zamoni keldi", deb yozadi. Maqolada garchi Cho'lpon is'tedodli shoir ekani, xususan, o'zbek adabiy tilining sofligi va barchaga tushunarli bo'lishiga katta hissa qo'shgani e'tirof etilsa-da, maqolada "uning nuqson tomonlari, xususan mafkurasi, adabiy ta'siri ustida to'xtash"i haqida ochiq e'tirof etiladi.

Demak, maqolaning bosh maqsadi – Cho'lpon mafkurasi va uning yosh proletar shoirlariga salbiy ta'sirini ko'rsatish, aniqrog'i, fosh etishdan iboratdir.

Cho'lpon haqida e'lon qilingan dastlabki maqolalardayoq: Cho'lpon kimning shoiri: yo'qsil xalq shoirimi yoki ziyolilar shoiri, degan masala ustida tortishuv bo'lib kelardi. Avvalgi maqolalarda beozor bo'lib tuyulgan ushbu masala Ayn maqolasida favqulotda jiddiy aybnomaga aylanadi. Maqolada "Cho'lpon yo'qsil xalqning shoiri" degan qarashga munosabat bildirilar ekan"...u millatchi, vatanparast, badbin ziyolilarning shoiridir. Uning mafkurasi shularning mafkurasidir, u shu mafkura yo'lida urinadir, talpinadir. Uni qaynatgan, unga ilhom bergan narsalar shulardir", degan siyosiy ayblovlar xulosa beriladi.

Munaqqid Cho'lponni xayolparastlikda, millatchilikda ayblaydi. Go'yo Cho'lpon faqat o'z xayolida yaratgan olami haqida yozadi, oktabr to'ntarishi tufayli o'lkada sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlarni kuylashni istamaydi. Buning sababi maqolada kuyidagicha izohlanadi:

"Cho'lpon inqilobdan rozi, faqat ruslardan, ruslarning vatanda qolishlaridan rozi emas. U milliy jumhuriyatlarga, unda ketmakda bo'lgan ishlarga o'zicha ma'no beradi, fikr yuritadi".

"Cho'lpon, mana shul millatchilik, vatanchilik tuyg'ulari bilan, "o'tmishning o'parlik xotiralari" uchun yashaydi; millatchi burjua-ziyolilarining mafkurachisidir, shu mafkura uning ilhom qaynog'idir".

Ko'chirmalardan ayon ko'rinib turibdiki, munaqqid Cho'lpon she'riyatiga xos millatparvarlik va vatanparvarlik motivlarini to'g'ri anglamoqda, biroq uning talqinida sho'ro tanqidchiligiga xos tarzda ish yuritib, shoirni millatchilikda ayblamoqda. Bu Cho'lponga butun sho'ro davri

tanqidchiligida qo'yib kelingan "millatchi", "xalq dushmani" degan ayblovlarning boshlanishi, debochasi edi.

Ayn Cho'lpon she'riyatiga sinfiylik mezonlari bilan yondashadi. Cho'lponning xalq, millat dardi bilan yongan o'tli she'rlaridan parchalar keltirib, "xalqni hech qatlamga ajratmasdan "xalq uchun yonaman" deyish, men "millatchiman" deyishdan iboratdir", deb xulosa chiqaradi.

Ushbu maqola o'z davrida ham, keyinchalik ham adabiyotshunoslarning diqqat markazida bo'ldi. Cho'lponni tanqid qilmoqchi bo'lgan sho'ro tanqidchilari, albatta, bu maqolaga bot-bot murojaat qilishardi.

Yosh, otashqalb shoir Oybek bahsga aralashib, Ayn da'volariga qarshi chiqib, Cho'lponni himoya qildi. U "Cho'lpon. Shoirni qanday tekshirish kerak" nomli maqolasida Aynning Cho'lponni yo'qsil xalq shoiri emas millatchi, xayolparast, badbin, mafkurasi buzuk degan da'volarini rad etar ekan, masalaga ilmiy asosda yondashish lozim deb hisoblaydi. Oybek Cho'lpon ijodiga baho berishda tadrijiy yondashish lozimligini, barcha davrdagi asarlariga bir xil mezon bilan yondashib bo'lmashligini ta'kidlaydi. Bunda shoir dunyoqarashini shakllantirgan tashqi omillar – ijtimoiy o'zgarishlarni hisobga olmay turib, uning mafkurasi to'g'risida gapirish nojoiz, deb hisoblaydi. Boshqa muhitda voyaga etgan Cho'lpon proletar yo'qsil shoiri bo'la olmaydi, bunday shoirlar "mafkurani kurashda, hayotda kasb etib kelayotgan yangi nasldan chiqadi", deb yozadi Oybek.

Oybek Cho'lponni xayolparast degan fikrga qarshi chiqadi. Xayol nafaqat ijod uchun, balki ilmfan uchun ham nihoyatda zarur ekanini ta'kidlaydi.

Oybek ham Ayn kabi adabiyotni sinfiy deb biladi. Biroq Cho'lpon she'rlarini talqin etishda uning go'zal san'atligiga e'tibor qaratish lozim deb yozadi. Bunga rus shoiri Pushkinni misol qilib keltiradi. Oybek fikricha, "Pushkin yo'qsil el uchun she'r yozgan emas". Biroq, u rus she'riyatining badiiy yuksak namunalarini yaratdi. Shuning uchun butun Rus xalqi Pushkinni sevib o'qiydi. Cho'lpon ham shunday. "Cho'lponning mafkurasi emas, balki yaratgan badiiy namunalari o'qiladi, voz kechilmaydi".

Oybek maqolasidan keyin, bahsga Usmonxon degan munaqqid aralashadi. U "Munaqqidning munaqqidi" nomli maqolasida to'lig'icha Aynni qo'llab-quvvatlaydi. Yosh Oybekni Cho'lponni himoya qilganlikda ayblab tanqid qiladi. Uning da'vo qilishicha, Oybek adabiyotga burjuaziya ko'zi bilan qaraydi va marksizmdan uzoq turadi: "marksist" Oybek marksizmdan aytib bo'lmashlik darajada uzoqda turadi. Bu yerdan shuni aytib qo'yishliq kerakki, Oybek Cho'lponning mafkurasini o'layotgan mayda burjuaziya, millatchilik mafkurasi bo'lg'onligini inkor etmaydi. ...Oybek Cho'lponning «namuna»lariga uning «mafura»sidan tashqari shu qadar ahamiyat beradikim, agar Oybek Cho'lpondan zimnan mafkuraviy tomoq yemasa, uning shaklini bu qadar maqtamas edi. Oybek oldin Cho'lponning mafkurasini sevgan, so'ngra shaklini yoqtira boshlag'on».

Bundan ko'rinadiki, maqola muallifi nafaqat Cho'lponni, balki uni himoya qilish uchun otilgan yosh shoir Oybekni ham juda ko'p o'rinlarda nohaq qoralaydi. Go'yoki bu bilan munaqqid Cho'lponni himoya qilganlarning holiga voy degandek fikrni o'rtaga tashlaydi. Aynni yoqlagan bu munaqqid yosh shoirni nazariga ilmaydi. Cho'lpon ijodiga ham kibr-havo bilan munosabatda bo'ladi. Lekin Oybek yana jim turmadi. U Usmonxonning ushbu tanqidiga javoban «Munaqqidning «munaqqidi» maqolasining egasiga» nomli maqolasini e'lon qiladi. Yosh shoir tanqidchi Usmonxondan farqli yo'l tutadi. U ba'zi o'rinlarda munaqqidning fikrlariga qarshi chiqadi. Ba'zi o'rinlarda esa nohaqligini tan oladi. Bu bilan Oybek ijodkorona beg'uborligini ham isbotlaydi. U Usmonxonning «sotsiyolo'g'icheskiy meto'd» haqidagi da'volarni rad etish barobarida Aynning maqolasidagi ayrim o'rinlarga ham o'z e'tirozini bildiradi: «Xayolparastlikni yolg'iz millatchilikka bog'lab qo'yish to'g'ri emas. Albatta, yo'qsullar diktaturasi davrida millatchi bo'lishlikning xayolparastlikka ta'siri zo'r bo'lg'oni kabi uzviy tuzilish va boshqalarning ham ta'siri bo'ladi».

Aslida olim Bahodir Karimov ta'kidlaganidek, «...sinfiylik va meto'd masalalarida yosh Oybek ham marksist «Ayn» va Usmonxondan ko'p uzoqlashib ketgan emas».

Biroq Oybekning bu «qizil» tanqidchilardan farqli jihatlari ham ko'p edi. Ya'ni u badiiy adabiyotning mohiyatini yaxshi tushunar va uning go'zalliklarini ham yurakdan his etardi. Bu shoirning munaqqidlar bilan bahsga kirishgan maqolalarida va ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

1917-yilda amalga oshirilgan Oktabr to'ntarishidan so'ng mo'rtdek ko'ringan siyosiy tuzum vaqt o'tgan sayin o'zining qonli hukmronligini mustahkamlab bordi va yetmish yildan ziyodroq hukmronlik qildi. Bu vaqt mobaynida o'zbek xalqining ko'plab ma'rifatli vakillari turli ayblovlar bilan qatag'on qurboni bo'ldilar. XX asr o'zbek adabiyotining buyuk shoiri Abdulhamid Sulaymonqul o'g'li – Cho'lpon ham shunday qurbonlardan biri bo'ldi. Bunda yillar o'tgan sayin tobora "qizillashib"

borayotgan adabiy tanqidning ham hissasi katta bo'ldi. Yuqoridagi qisqa talqinlar ham fikrimiz dalilidir.

Adabiyotlar:

1. "Qizil O'zbekiston" gazetasi. 1927-yil. 14-fevral.
2. "Qizil O'zbekiston" gazetasi. 1927-yil. 17-may.
3. "Qizil O'zbekiston" gazetasi. 1927-yil. 14-fevral.
4. "Qizil O'zbekiston" gazetasi. 1927-yil. 22-23-27-iyun.
5. "Qizil O'zbekiston" gazetasi. 1927-yil. 28-avgust.
6. Bahodir Karimov. Cho'lpon va tanqid. – Toshkent: Adabiyot jamg'armasi. – 2004-yil. –B. 9.

Д.Э. Жабборова

ПЕРВОНАЧАЛЬНОЕ ОТНОШЕНИЕ К ТВОРЧЕСТВУ ЧУЛПАНА В УЗБЕКСКОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ И КРИТИКЕ

Статья посвящена изучению творчества Чулпана в разные времена, исследованию разных оценок его творчества, выяснению их причин и основным тенденциям Чулпановедения в период независимости Узбекистана. Творчество Чулпана в 20-х годах прошлого века было объектом литературной критики. В данной статье освещаются результаты первоначальных научных исследований литературной критики творчества Чулпана.

Ключевые слова: литературоведение, литературная критика, литературная среда, буржуазные поэты, джадиды.

D.E. Jabborova

THE FIRST ATTITUDE TO CHULPON'S WORKS IN UZBEK LITERATURE STUDY AND CRITICS

The article is devoted to the study of creative works of Chulpan in different times, to the research of different appraisal of his work, to reveal their reasons and the basic tendencies of Chulpan's tendencies in the period of independence. Creative works of Chulpan in the 20-th years of the last century were the object of literary criticism. The present paper enlightens the results of the first scientific researches of literary criticism of Chulpan's creative works.

Keywords: literature study, literary criticism, literary environment, bourgeois poets, djadids.

UDK: 491.5

QASHQADARYO VILOYATI TOJIK FOLKLORINI JAMLASH VA TADQIQ ETISH

A. Shernazarov

Samarqand davlat universiteti, E-mail: akmal-sh@umail.uz

Annotatsiya: Xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan boshlab qalam ahlining diqqat markazida bo'lgan. Mazkur ilmiy maqolada Qashqadaryo viloyati tojik folklorini jamlash va tadqiq etish, masalasiga doir fikr mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tojik folklori, xalq og'zaki ijodi, Qashqadaryo viloyati, jamlash va tadqiq etish, ilmiy safarlar, qo'shiq, afsona.

Xalqning turmush tarzi, rasm-u odatlari, xususan, og'zaki ijodi qadim zamonlardan boshlab qalam ahlining diqqat markazida bo'lgan. Buni biz qadimiy «Avesto» kitobidan tortib, Bal'amiyning «Tarixi tabariy» tarjima asari, Narshaxiyning «Tarixi Buxoro», Kaykovusning «Qobusnoma», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Nosiruddin Burhonuddin Rabg'o'ziyning «Qasasi Rabg'uziy» asarlariga qadar, shu jumladan, Ro'dakiy, Firdavsiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Jaloliddin Balxiy, Hofiz Sheroziy, Alisher Navoiy, Zayniddin Vosifiy hamda Sadridin Ayniy kabilarning asarlarida kuzatishimiz mumkinki, ularni xalq og'zaki ijodining ta'sirisiz tasavvur qilishimiz imkonsizdir.

Xalq og'zaki poetik ijodi namunalarini jamlash, tizimga solish, ommaviy va akademik nashrlarini amalga oshirish XX asrda fundamental tadqiqotlarning vujudga kelishi uchun zamin hozirladi. Bir qator sharqshunos va geograflar hamda ba'zi yevropalik havaskorlar Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek va tojik tillarida gaplashuvchi xalqlarning tili, madaniyati, urf-odatlari hamda og'zaki ijodiga qiziqish bildirib, turkum maqolalar, ocherk va risolalarni maydonga keltirishdi. XX asrning yigirmanchi yillaridan xalq og'zaki ijodini jamlash va tadqiq qilish uchun rus

sharqshunoslari M.S.Andreyev, A.A.Semyonov, E.M.Pesheryeva, A.N.Boldiriyev, N.A.Kislyakov, O.Suxaryeva, I.S.Braginskiy hamkorligi bilan bir qator iste'dodli yoshlar shug'ullandilar.

1940-yillar O.A.Suxaryeva bu mintaqaning tojik to'ylari rasm-rusumlari va ularga doir masalalarni qayd qilib, ayniqsa, kelin-kiyov uchun joy tashlash paytida ikki kampirning qo'shiq aytish va raqsga tushish jarayoni tadqiqotchining e'tiborini jalb qilgan. Bunday folklor namunalari xalq og'zaki ijodi va etnografiya aloqasini aniqlash uchun katta ahamiyatga ega.

Bu mintaqaning batafsil tadqiqi, ayniqsa, bu yerlarning tojik va o'zbek to'y marosimi etnograflar tomonidan, asosan, XX asrning 50-yillaridan boshlab yo'lga qo'yiladi va bir qator ilmiy asarlar vujudga keladi. Bu asarlar etnografiya va folklorshunoslik ilmda katta ahamiyatga ega. N.A.Kislyakovning kuzatishlari mazkur tadqiqotlarning jumlasidan hisoblanadi. Folklorshunos F.Zehniyeva tadqiqotining kirish qismida qayd etilishicha, N.A.Kislyakovning kitobi «yigirma yillik ishining mahsuli bo'lib, unda to'y va oiladorlikning qadimiy odatlari va tojiklarning turmush tarzi tahlil qilingan» [1].

Bunday ekspeditsiyalar va ilmiy safarlar XX asrning 50- yillaridan so'ng, Rajab Amonov rahbarligida tashkil etilgan. Ayniqsa, 50-yillardan respublika va xorijiy folklorshunos olimlarning diqqat-e'tiborini O'zbekiston Respublikasining tojiklar yashaydigan mintaqalari, ayniqsa, Qashqadaryo vohasi tojiklari tili va folklori jalb qilgan va bir daraja tadqiq etilgan.

1956-1957- yillar B.Shermuhammedov va R.Ahmadov tomonidan Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari folklorini jamlash boshlanadi. R.Ahmadov 1958-yili Qashqadaryo viloyati Varganza qishlog'i xalq og'zaki ijodini bitiruv ishi mavzusi sifatida oladi va bir qator materiallar to'planadi. So'ng Qashqadaryo viloyatida 1959-1960 -yillarda R.Ahmadov, U.Doniyev, H.Rahmatov, 1958-1961-yillar bu vohaga R.Qodirov, 1966-yili mazkur viloyatga B.Shermuhammedov, R.Ahmedov, B.Tilavov, S.Mahdiyev va D.Obidovlar safar qilishib, folklor namunalarini jamlashadi. Mazkur viloyatga 1984-yili R.Qodirov va S.Fathulloevlar tomonidan yana bir ilmiy safar tashkil etiladi.

Folklorshunos R.Qodirov uzoq yillar davomida Qashqadaryo viloyati tojik folklorini yig'ish bilan shug'ullanadi va natijada uch jildlik «Folklori tojiklari vodiysi Qashqadaryo» kitobi tuziladi. 1998-yili avvalgi to'plamlar (birinchi jild «Sehrlil afsonalar» va ikkinchi «Afsonalar, dostonlar, hikoyot, naql, rivoyot va latifalar») kitobxon va tadqiqotchilar qo'lga yetgan. 2005-yil kitobning uchinchi jildi R.Qodirov va R.Ahmadov hammuallifligida chop qilinadi. Unda zarbulmasallar, chistonlar, baytlar, dubaytiylar, ruboiylar, bovarlar (shugunlar), qo'shiqlar va ularning o'zbek matnlari qamrab olinadi.

Qashqadaryo vohasi tojik xalq og'zaki ijodi mazkur to'plamga jamlangan bo'lib, folklor janrlarining barcha turlarini: afsona, doston, latifa, naql, rivoyot, hikoyot, maqol va zarbulmasal, chiston, qo'shiq, ruboiy, bayt va taronalarni o'z ichiga oladi. Birinchi to'plam «Sehrlil afsonalar» materiallaridan ma'lum bo'ladiki, mazkur vohaning xalq og'zaki ijodida afsona janri muhim o'ringa ega, ularning katta qismini sehr va jodu mavzusidagi xayoliy fantastik xarakterga ega bo'lgan afsonalar, boshqa qismini hayotiy-maishiy va hajviy afsonalar tashkil qiladi.

Bu vohada afsonalar «bud nabud yak faloni bud, budast nabudast yak faloni budast» tarzidagi boshlanmalar bilan boshlanadi, boshqa mintaqadagi tojik sarafsonalari bilan tipologik xususiyatga egadir. Shu bilan birga, ayrim roviylar afsonani boshlashidan oldin «Bud nabud budgor bud, Poliz nabud shudgor bud» qo'shig'ini aytib, hammaning e'tiborini o'ziga tortadi.

Ikkinchi to'plam dostonlar, hikoyot, naql, rivoyot va latifalarni qamrab oladi. Viloyatning tojik xalq og'zaki ijodida naql va rivoyot ham kattagina o'ringa ega. Ular mazmun va mundarija nuqtayi nazaridan turlicha. Bir qator naql va rivoyatlar mashhur shaxslar Ibn Sino, Hofiz, Navoiy va Bedil hayoti va ijodi bilan bog'liq. To'plam tuzuvchilarining qayd qilishlaricha, bunday naql va rivoyatlar, asosan, «ularning xalqparvarlik va insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilganligi bilan ham o'quvchi diqqatini o'ziga tortadi» [2]. Ayrim folklor namunalarida samo jismlari, hayvonlar, qushlar olami, sudraluvchilar naql-u rivoyatlarning asosiy bahs mavzulari hisoblanib, ularda totemistik aqidalar va qadimgi odamlarning tasavvurlari aks etgan.

Majmuaning uchinchi jildi zarbulmasal va maqollar, topishmoqlar, irimlar, bayt, dubaytiy, ruboiy, qo'shiqlar va o'zbek tilida yaratilgan, ammo tojik xalqlari marosimlarida ham ishlatiladigan matnlarni qamrab oladi va voha tumanlari hamda mahallalari tojik folklorining o'ziga xosligini namoyon etadi. Garchi R.Qodirov tomonidan to'y va motam marosim folkloriga doir alohida monografiya yaratilgan bo'lsa ham, kitobning bir qismini marosim va lirik qo'shiqlar tashkil etadi va u jiddiy tadqiq va tahlilni talab qiladi.

Darhaqiqat, folklorshunos R.Qodirovning Qashqadaryo viloyati tojik folklorini jamlash borasidagi ilmiy ishlari alohida e'tirofga sazovordir. Bu majmuada to'plangan materiallar viloyat tojiklarining ma'naviy hayotini ko'rsatish borasida o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Olimning «Folklori tojikoni vodiya Qashqadaryo» to'plami kirish qismida ta'kidlanishicha, XX asrda 50 yil davomida to'plangan material asosida «Folklori tojikoni vodiya Qashqadaryo»[3] nashrga tayyorlangan.

R.Qodirov «Folklori torevolutsioniyi tojikoni vodiya Qashqadaryo» (Dushanbe, 1963) risolasida Qashqadaryo viloyati tojiklari marosim folklorini etnografik nuqtayi nazardan o'rganganligini ham alohida ta'kidlash lozim.

Folklorshunos R.Ahmadovning diqqat-e'tiborini Markaziy Osiyo mavsumiy marosim folklorini tadqiq qilish jarayonida vohaning bir qator marosim qo'shiqlari o'ziga tortadi va ularga doir muhim fikr-mulohazalarini, ilmiy qarash va farazlarini bayon etadi. Jumladan, «Folklori marosimhoi mavsimii tojikoni Osiyoi markaziy»[4] risolasida vohaning tojik folkloriga alohida to'xtalib, Qashqadaryo viloyati tojik mavsumiy qo'shiqlari mazmun va g'oyaviy mundarija nuqtayi nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, tojik folklorida muhim o'rin egallaydi. Tadqiqotchi xulosa tariqasida viloyatning tojik folklorida «Boychechak», «Navro'z», «Sustxotun», «Juftbaroron» marosimlaridan tashqari, ba'zi mavsumiy marosimlar ayni shu mintaqaning xalqiga mansubligini ta'kidlaydi va bu borada qadimiy «Mehrgon» marosimiga e'tibor qaratadi.

1996-yilda Rahmon Rajabiy tashabbusi bilan Qashqadaryo viloyati Shahrisabz va Kitob tumanlariga qilingan safar chog'ida muayyan miqdordagi folklor materiallari yozib olinadi va kitobcha shaklida chop qiladi. U, asosan, duo, rivoyat, naql va mahalliy qissalardan tarkib topgan, ularning aksariyati to'planuvchining aytishicha «yarim tasavvur va taxayyuliy, yarim voqeiy, yarim mazhabiy va yarim real... xullas omexta materallardan tarkib topgan» [5]. Qissa va rivoyatlar asosan islom dini mazmunini ifoda etib, islom dini namoyandalariga va Muhammad payg'ambar (s) oila ahli Bibi Fotima va Bibi Zahro, Imom Hasan va Imom Husayn, Hazrati Ali, shuningdek Bahouddin Naqshbandga doir ma'lumotlar majmuasini qamrab olgan. Kitobning bir qismini diniy marosimlar «Bibiseshanbe», «Bibimushkilkusho» kabilarga doir «Boboyi xorkash» (O'tinchi bobo) va «Duxtari podachi» (Podachi qizi) qissalari tashkil etadi.

Folklorshunoslik ilmida dolzarb masalalardan biri bir vohada yashaydigan turli tillarda ijod qiladigan xalqlarning mushtarak xususiyatga ega bo'lgan folklorini o'rganish hisoblanadi. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida o'zbek va tojik xalqi uzoq yillar davomida ahl tarzda yashaydi. Bu ikki xalqning urf-odatlarini, madaniyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq, ayrim hollarda ularni bir-biridan ayri holda tasavvur qilish mushkuldir.

Mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganish va viloyat folklor materiallarni jamlash jarayonida ma'lum bo'ldiki, bu voha folklorining bir qator masalalari hali tadqiq etilmagan. Ularni yangicha tamoyillar, uslublar, bugungi kun talablari asosida o'rganish zaruriyati mavjud. Tadqiqotchilar tomonidan voha tojik folklorining ba'zi qirralariga doir turlicha fikr-mulohazalar bildirilgan bo'lsa ham, qo'shiqlarning mazmun va mundarijasiga ko'ra tasnifi, janriy tarkibi, tarixiy ildizlari, mazmun va mundarijasi masalasi, marosim va lirik qo'shiqlarning poetikasi, voha o'zbek va tojik qo'shiq folklorining qiyosiy tarzda o'rganilishi, etnopoetik metodlar bilan tadqiq etilmaganligini alohida ta'kidlamochimiz. Bizningcha, ilm va texnika tobora taraqqiy etayotgan bugungi kunda bu borada tadqiqotchilar oldiga yangi vazifalar qo'yilishi lozim. Endilikda insonshunoslik (antropologiya) ilmlarining ba'zi nazariy masalalariga yangicha nuqtayi nazardan yondashish zarurati tug'ildi. Shunga ko'ra, G'arb tadqiqotchilari matnlar etnopoetikasining mohiyatiga ko'proq e'tibor qaratishmoqda. Shu jihatdan voha marosim va lirik qo'shiqlarni har tomonlama tahlil va tadqiq etish muhim hisoblanadi. Zero, bu qo'shiqlar xalqning hayotga va yashashga bo'lgan poetik qarashlarining timsolidir.

Qayd qilish zarurki, bu sohada bajarilgan ishlar alohida materiallar asosida va ko'pincha, materiallarni jamlash bilan yakuniga yetgan, mazkur tadqiqotlar voha folklorining alohida jihatlariga aloqadordir. Oxirgi yillarda bu vohaning tojik folklori uch jildlik to'plamining fundamental nashri amalga oshirilganligi, bu borada tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish imkoniyatini beradi. Majmualar Qashqadaryo viloyati tojiklar yashaydigan mahallalarning turli go'shalaridan tarkib topgan xalq og'zaki ijodini qamrab oladi va ularning asosiy qismi XX asrning 60-yillaridan bugungacha folklorshunos olimlar, xalq og'zaki ijodiga befarq bo'lmagan shaxslar va turli kasb egalari tomonidan jamlangan. Shuningdek, mazkur satrlar muallifi tomonidan ham bir qator materiallar jamlangan. Qo'limizdagi materiallar afsona, naql va rivoyat, qo'shiq va taronalar, maqol-u zarbulmasal, duoy-u fотиha, irimlar kabilardan iboratdir. Demak, bu borada bajarilishi lozim bo'lgan ishlar mavjud.

Adabiyotlar

1. Зехниева Ф. Сурудҳои маросими тӯи тоҷикон. – Душанбе: Дониш, 1978. – 3 бет
2. Қодиров Р. Фолклори тореволюционии тоҷикони водии Қашқадарё. – Душанбе, Дониш, 1963. – 21 бет
3. Қодиров Р., Аҳмадов Р. Фолклори тоҷикони водии Қашқадарё. ж. 3. – Душанбе: Амри илм, 2000.
4. Р.Аҳмадов. Фолклори маросимҳои мавсимии тоҷикони Осиёи Марказӣ. – Душанбе: Дониш, 2007.
5. Ражабӣ Раҳмон. Намунае чанд аз фолклори тоҷикони Шаҳрисабзу Китоб. Зери назари Р.Раҳмонӣ. Душанбе: «Пажӯҳишқадаи мардумшиносӣ», 2001, 6 бет

А. Шерназаров

**ОТБОР И ИССЛЕДОВАНИЕ
ТАДЖИКСКОГО ФОЛЬКЛОРА В
КАШКАДАРЬСКОЙ ОБЛАСТИ**

Устное народное творчество издавна было в центре внимания писателей. В настоящей статье изложены соображения об отборе и исследовании таджикского фольклора в Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: таджикский фольклор, устное народное творчество, Кашкадарьинская область, отбор и исследование, научные поездки, песня, легенда.

A. Shernazarov

**SELECTION AND RESEARCH
OF TAJIK FOLKLORE IN
KASHKADARYA REGION**

Oral public creation was in the centre of writers' attention for a long time. This article is about the selection and research of Tajik folklore in Kashkadarya region.

Keywords: Tajik folklore, oral public creation, Kashkadarya region, selection and research, scientific trip, songs, legends

УДК: 809 Н 286

**ПРОБЛЕМА НАЦИОНАЛЬНОГО СВОЕОБРАЗИЯ АМЕРИКАНСКОЙ ДРАМЫ В
ОЦЕНКЕ АНГЛО-АМЕРИКАНСКОГО ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ**

Д.Р. Нарзуллаева

*Кандидат филологических наук, старший научный сотрудник-соискатель СамГИИЯ,
E-mail: dilnoza.narzullaeva1978@mail.ru*

Аннотация. В статье мы останавливаемся на стоящей несколько в стороне концепции художественности американской драмы, делаем обзор авторов, которые стремятся охватить важнейшие явления в американской драме определенного периода, вскрыть основное идейное и художественное содержание важнейших произведений, оказавших существенное влияние на развитие американской драматургии и театра.

Ключевые слова: идейно-художественное содержание, американская драматургия и театр, американская литература, современные драматурги, жанровые разновидности, мировая литература, не драматические произведения, не литературные партнеры.

Вопрос о специфике американской драматургии, ее отличия от европейских образцов неоднократно затрагивался в англо-американском литературоведении. К этой теме в том или ином ее аспекте обращались практически все исследователи в области истории американского театра.

В первую очередь отметим ряд фундаментальных работ Кристофера Бигсби, автора обобщающих трудов по истории американской драмы, как и исследований конкретных вопросов ее идейного и художественного своеобразия. В своей монографии «Противостояние и вовлеченность» (1967) критик исследует вопрос о социальном содержании американской драматургии, отражении в ней важнейших проблем современного американского общества. При этом сразу делается упор на отличии американской драмы от европейской: The American theatre has never fully absorbed the lessons of European drama. When Arthur Miller said that he was concerned with the drama of the whole man he came close to understanding what the European tradition from Ibsen to Beckett was about, but his own plays, for the most part, failed to match his

intentions. The Ibsen which he captured was the social critic whose emphasis on individual integrity chimed with his own faith in transcendental independence. Yet there is a deeper commitment in Ibsen which is concerned not with man's social relationships but with his metaphysical ones and while Miller is clearly aware of this more fundamental level his own plays never entirely escape the social simplicities of the thirties, unless it be in the unwieldy *After the Fall*" [1.9].

Европейская драма, согласно К.Бигсби, стремится к обобщениям, ставит вопрос о самой природе человека и его места во Вселенной. Европейец не только стремится к экспериментам, но отвергает прямо сформулированную мораль, тенденциозность драмы. "America has remained strangely insulated not only from the European revolt against the well-made-play but also from its rejection of a drama of resolution and reassurance" [1.10] Достижения европейского театра К.Бигсби связывает с его отвлеченностью от конкретной социальной реальности, стремлением авторов подняться до осмысления самих основ мироздания, в то время как американские драматурги были изначально связаны только с национальным материалом, не стремились к углублению содержания своих произведений в сторону общечеловеческих проблем. "The power of the European theatre lay in its concern with relocating man, with establishing the first task of a dramatist as being a commitment to man and his metaphysical situation. It is this which essentially links Ibsen with Beckett and which, with the exception of a very few plays, represents the division between American and European drama. American drama has tended all too often to capitulate before social and economic pressures and has pleaded necessity as the cause of the un-adventurous nature of its theatre. Even the giants of the American stage tend to be experimenters only within the native context and have largely lacked the European's concern with self-examination" [1.10].

Пути развития американской драмы XX века, считает К.Бигсби, определили индивидуальные достижения великих американских драматургов, в первую очередь Юджина О'Нила, которые своими оригинальными пьесами во многом определил тематику, проблематику и художественную форму американской драмы. "Any account of American drama must start with Eugene O'Neill and indeed can hardly start any earlier. In spite of his early experimentation, which all too often resulted in hollow and artificial theatre, it is still true that through his sheer power of creative talent he alone was responsible for establishing American drama as a genuine and valid force on the international scene. If the Nobel prize was a recognition of the immensity of that achievement rather than a mark of genuinely outstanding dramatic ability it nonetheless served to place him in a context justified by his later work" [2.17].

Отвлеченность и абстрактность в сюжетах пьес О'Нила получает совершенно новое значение. "O'Neill was the first American dramatist to establish the validity of a drama in which metaphysical concern was no longer merely an aspect of character but rather the central and motivating force of the whole play" [2.17].

Американские драматурги не просто отвергли увлеченность европейцев интеллектуальным содержанием драматических произведений, они использовали его, чтобы пойти новым путем в сторону «примирения с Вселенной» (are conciliation with the universe). "Theirs is not a negative response for in a sense they are fighting against intellectual and spiritual appeasement. They transcend the debilitating determinism of Beckett and propound a positive dialectic which if frightening in its application reconstitutes the possibility of dignity. The obtrusive optimism of American literature is here transmuted into a genuine philosophical stance" [2.17].

В другой своей работе, третьем томе «Критического введения в американскую драму XX века» К. Бигсби поднимает вопрос о специфической проблематике американской драмы начала столетия и после второй мировой войны. Перемену в развитии американской театра и драмы ученый видит в усилении психологического содержания пьес. "In America in the 1930s it staged the battle between capital and labor, reflected a desperate pacifism, and dramatized the diminishing space allowed the individual by the encroaching city and an increasing mechanization. Frequently utopian or visionary in spirit, it tended to pitch love against the sheer density of social experience and the coercions of an economic system which seemed to find no place for the self. The mere placing of the individual on the stage was an assertion of priorities while the co-operative nature of theatre implied a possible social strategy. The post-war theatre, by contrast, seemed more intensely psychological; less convinced that experience could be subordinated to idea, altogether less assured. It seemed to reflect a sense of bafflement, the war having apparently drawn a line across a particular kind of historical development" [2.18].

Третий том обширного исследования К.Бигсби посвящен творчеству трех ведущих

американских драматургов второй половины XX века – Теннесси Уильямса, Артура Миллера и Эдварда Олби. При этом акцент делается на их индивидуальном своеобразии и их вкладе в американскую национальную драматическую традицию. В творчестве А.Миллера критик усматривает прежде всего проблему личности, находящейся в плену общепринятых догм. “At the heart of Miller’s work, partly concealed and only inadequately expressed in the early plays but fully articulated in the later ones, is a concern with guilt, a guilt directly related to his experience as a Jew who had survived the Holocaust, and as an individual who had discovered his own potential for betrayal. The apparent clarity of the clash between the free individual and a politically malevolent system had merely served to conceal to subtlety of a problem which had become increasingly central to his work, and which he perceived as having metaphysical rather than social origins. Now he tended to see the pieties of his 1930s plays as a form of sentimentality” [3.5].

Что касается Т.Уильямса, то его достижения К.Бигсби связывает с изображением богатого внутреннего мира человеческой личности, оттенков его чувств. При этом психология персонажей Т.Уильямса связана и с конкретными социальными условиями и с философскими обобщениями. “Tennessee Williams is hardly immune to charges of sentimentality. But in his best work the note of self-pity, which is never entirely absent, is contained by a rigorous honesty about the desperate self-deceptions practised by his characters and the fundamental evasions which may be implied by art. His broken figures appeal, partly because they are victims of history — the lies of the old South no longer being able to sustain the individual in a world whose pragmatics have no place for the fragile spirit — and partly because they hint at a spiritual yearning which Williams sees as being extinguished by the processes of life no less than by those of society. In other words, the social and the metaphysical meet in Williams’s work as they do in Miller’s” [3.5].

К.Бигсби пишет, что трудно дать общую оценку американскому театру. Драма в США существует в многочисленных стилистических и жанровых вариантах. Крупные драматурги явно отличаются друг от друга. “The American theatre is eclectic. It lacks stylistic consistency. And in a way its energy derives precisely from its refusal to accept conventional restraints. O’Neill writes, on occasion, interminable and, indeed, unstageable works in a wide variety of styles; Williams, in *Camino Real*, invades the audience and deliberately projects experience to extremes, exposing the generative power of sexuality and elaborating images to the point at which they assume a threatening literalness (as in *Suddenly Last Summer*). Miller opens up the mind, allowing a neurotically deluded self to recreate the past, to flow with a freedom which potentially denies stylistic unity as it does temporal logic” [3.6].

Но, несмотря на индивидуальное своеобразие, выдающиеся американские драматурги XX века едины в своем новаторстве. Их объединяет и социальное содержание произведений, и стремление к новым формам, изучение специфического американского материала, психологии американца, его стереотипов мышления. “Nonetheless Williams, Miller and Albee all succeeded in bringing to Broadway a moral seriousness and an aesthetic sensitivity which has hardly marked that theatre over the years and which certainly can’t be said to do so today when it is dominated by comedies, musicals and foreign imports. Certainly no other writers have commanded the popular and critical following which all three have achieved. There can, indeed, be little doubt that with the single/exception of Eugene O’Neill theirs is the outstanding achievement of the American theatre. These were playwrights who addressed the anxieties of their age. All three have been concerned with the state of their society and with examining the fate of fundamental American myths having to do with liberal individualism, a sense of community and a utopian vision. For all three America had lost a crucial innocence” [4.1].

Содержательное исследование «Американская драма XX века» опубликовал Джеральд Берковиц. Исследователь с самого начала утверждает, что национальная американская драма – продукт XX века. Конечно, в Америке писали пьесы и раньше. Но они или были под явным влиянием европейских традиций, или представляли собой чисто развлекательные произведения без глубокого идейного содержания. “The American drama is, for all practical purposes, the twentieth-century American drama. There were plays written and performed on the American continent, well before there was a United States, and during the nineteenth century the American theatre was widespread and active. But, as was also true in much of Europe, it was, with rare exceptions, not the home of a particularly rich or ambitious literature. The theatre was a broadly popular light entertainment form, much like television today; it is possible to do artistically ambitious work on American commercial television, but television is not likely to be the first medium to come to

the mind of a serious writer. This is not to say that the playwrights of the nineteenth century were without talent, but that, like television writers, they were more likely to be artisans skilled at producing the entertaining effects that audiences wanted, than artists looking to Ruminare the human condition or challenge received values" [4.1].

Только в первой половине XX века родилась подлинно художественная, содержательная американская драма. Именно тогда определились дальнейшие пути ее развития. "This was very much a rebirth of an art form; with little in the recent history of the genre to build on, the first generations of twentieth-century American dramatists had to discover for themselves what shape the twentieth-century American drama would take" [4.1-2].

Самое главное достижение американской драмы этого периода Д.Берковиц видит в том, что она обратилась к национальному материалу, создала национальные типы характеров. "Shakespeare wrote about kings, O'Neill wrote about Lazarus and Marco Polo, and Maxwell Anderson wrote about Elizabeth I and Mary of Scotland. But the overwhelming majority of modern American plays „are about people from the same social and economic world as the playgoers — the urban middle class. That is not a narrow range, and can stretch from the barely-getting-by and underemployed to the comfortably well-off. But the extremes of the economic ladder, along with other fringes of society — blacks, rustics, etc. — are rarely represented before the 1960s, except as stereotypes, and infrequently thereafter except in plays specifically addressing minority subjects. Audiences for American plays are likely to see themselves or people like them, or people they might believably, with good or bad luck, be like" [4.5].

Американская драма становится все более конкретной, заземленной, она все больше отражает повседневную жизнь американцев. "Not only are American plays about recognizable people in a recognizable world, but they are about the personal lives of these people. Whether a play is actually set in a living room, with a cast made up solely of family members, as an extraordinary number are, or whether the 'domestic' setting extends to an office and a circle of friends, the issues and events are presented in small and localized terms. Whatever the deeper meanings of an American play, on one solid level it is about love and marriage, or earning a living, or dealing with a family crisis" [5.2].

Д.Берковиц использует термин «доморощенный реализм»(domestic realism), под которым понимает насыщенность американской драмы XX века национальными реалиями американской жизни. Каждое, казалось бы, малозначительное событие из жизни простого американца связывается с целым миром, является частью Вселенной. "The gradual discovery of American dramatists, starting in the 1930s, was that domestic realism was their most effective vehicle for talking about larger issues - that the small events in the lives of small people could be presented so that they reflected the world outside the living room" [5.3].

Стремление к «доморощенному реализму» объединило всех значительных американских драматургов XX века. Эта форма оказалась жизненной и продуктивной. И это привело к созданию шедевров в американской драматургии. «Доморощенный реализм» сблизил драматургов, исповедующих различные эстетические принципы. "As with the rebirth of serious drama at the beginning of the century, the discovery of domestic realism's power and potential was not the result of conscious artistic manifestos or collusion among writers. The form worked, and so individual writers were drawn to it; indeed, in a number of cases dramatists who began as non-realistic writers or who went through a period of experiment found themselves drawn back to domestic realism in later works: Eugene O'Neill most strikingly, but also Maxwell Anderson, Edward Albee, Sam Sheppard and others. The remarkable accomplishment of domestic realism lies in its richness and adaptability, as writers as different in their styles, subjects and ambitions as Eugene O'Neill, Tennessee Williams, Arthur Miller and August Wilson have been able to say what they want to say in this mode" [6.3-4].

Стремление к «доморощенному реализму» определило и жанровую систему американской драматургии XX века. Поскольку речь шла о повседневных переживаниях простого американца, его чаяниях и страданиях, то закономерно выдвижение на первый план жанра мелодрамы а ее характерном американском варианте. "For various historical and artistic reasons the stylistic outline of the twentieth-century American *drama* has a clearly discernible arc. An art form that was essentially born afresh at the beginning of the century went through a period of exploration and experiment culminating in the discovery that one style was more amenable to American tastes and more adaptable to the demands that different writers made on it. That style —

realistic contemporary middle-class domestic melodrama - was to become the dominant and artistically most fertile and flexible mode, the one in which the greatest American dramatists were able to create the greatest American plays, and in which writers with widely varying agendas could offer psychological sights, political criticism or spiritual counsel" [7.4].

Рассмотренные концепции англо-американских литературоведов позволяют сделать вывод о том, что национальное своеобразие американской драмы заслуживает пристального изучения. Конечно, рассмотренные в статье проблемы не исчерпывают всех аспектов проблемы. Изучение национальных корней американской драмы, этапов ее становления, взаимодействия в ней европейских и американских традиций видится перспективным для дальнейших литературоведческих исследований.

Литература

1. Bigsby C.W.E.. Confrontation and Commitment. A Study of Contemporary American Drama. 1959-1966. – N.Y. and London: MACGIBBON&KEELTD, 1967.
2. Bigsby C.W.E.. A critical introduction to twentieth-century American drama. Volume 2. – London: Cambridge University Press, 1984
3. Bigsby C.W.E.. A critical introduction to twentieth-century American drama. Volume 3. – London: Cambridge University Press, 1986.
4. Berkowitz, Gerald M. American Drama of the Twentieth Century. – London and New York: Longman Group UK Limited, 1992.
5. Berkowitz, Gerald M. American Drama of the Twentieth Century. – London and New York: Longman Group UK Limited, 1993.
6. Bigsby C.W.E.. A critical introduction to twentieth-century American drama. Volume 4. – London: Cambridge University Press, 1988.
7. Bigsby C.W.E.. A critical introduction to twentieth-century American drama. Volume 5. – London: Cambridge University Press, 1990.

D.R. Narzullayeva

AMERIKA DRAMASINING MILLIY O'ZLIGI MUAMMOLARI ANGLIYA VA AMERIKA ADABIYOTSHUNOSLIGI NUQTAI NAZARIDAN

Ilmiy maqolada biz e'tibordan chetda qolayotgan Amerika dramasi badiiy konsepsiyasiga to'xtalidik. Ma'lum bir davrda Amerika dramasi muhim omillarni qamrab olishga harakat qilgan mualliflarni tahlil qildik. Amerika dramaturgiyasi va teatrining rivojlalishiga muhim ta'sir ko'rsatgan badiiy asarlarning asosiy g'oyasi va mazmuni yoritib berildi.

Kalit so'zlar: g'oyaviy-badiiy mazmuni, Amerika dramaturgiya va teatri, Amerika adabiyoti, zamonaviy dramaturgiya, janr turlari, jahon adabiyoti, nodramatik asarlar, noadabiy hamkorlar.

D.R. Narzullayeva

THE PROBLEM OF NATIONAL IDENTITY OF AMERICAN DRAMA FROM THE POINT OF VIEW OF ANGLO- AMERICAN LITERATURE STUDY

In this article we focus our attention to a concept which stands apart from artistry of the American drama, we have made a review of the works of authors who tend to cover the most important events in American drama of a certain period, reveal the main ideological and artistic content of the most important works that had a significant impact on the development of American drama and theater.

Keywords: ideological and artistic content, American drama and theater, American literature, modern dramatists, genre varieties, world literature, non-dramatic works, non-literary partners.

UDK 811.512.1

ARXAIK AFFIKSLI O'TOVSOZLIK TERMINLARI HAQIDA

X.X. Berdiyev

Samarqand davlat universiteti katta ilmiy xodimi, E-mail: rustam_berdiyev1996@mail.ru

Annotatsiya. Har qanday terminologik sistemada bo'lgani kabi o'tovsozlikda ham affiksatsiya usuli bilan yasalgan terminlar mavjud. Shulardan ayrimlari arxai affiksli terminlar hisoblanadi. Bu sohaning qadimiyligi bilan aloqadordir. Terminlarni o'rganishda ular ham alohida ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada ana shu masalaga doir kuzatishlar bayon etilgan, mavjud materiallar manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: oʻtovsozlik sohasi, yasama termin, affiksatsiya usuli, arxaik affiks, tasnif.

Kirish. Terminlar ilm-fan, texnika, sanʼat, inson faoliyati boshqa sohalarining mutaxassislar doirasida keng qoʻllanadigan maxsus nomlari boʻlishi barobarida, sistemalilik, kontekstga bogʻliq emaslik, qisqalik, bir maʼnolilik, aniqlilik, oddiylik, tushunarlilik, tatbiq etilganlik darajasi kabi xususiyatlarga ega.

Olib borilgan tadqiqotlardan maʼlum boʻlishicha, terminologik sistemalar tarkibidagi terminlarning yasash usullarini oʻrganish asosiy vazifalardan biridir. Toʻgʻri, yasash masalasi umumadabiy tilda ham mana shunday oʻrin tutadi. Shuni eʼtiborga olish lozimki, leksema va terminlarning yasashida bir qadar farqli jihatlar mavjud.

Ushbu maqolada oʻtovsozlik leksikasiga oid arxaik terminlar va ularning oʻziga xos xususiyatlarini koʻrsatib berish orqali terminlar shakllanishining etnolingvistik, etimologik jihatlarini yoritishdan iborat masalalarga eʼtibor qaratiladi.

Tadqiqot metodlari. Ushbu ishda mavzu talabidan kelib chiqqan holda, qiyosiy-tarixiy, tavsifiy va tasniflash metodlaridan foydalaniladi. Uning obyektni tarixiy, zamonaviy leksikografik manbalar va ogʻzaki nutq materiallari tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Umumadabiy tilda leksemalarning yasash imkoniyatlari anchagina keng. Leksemalar besh xil usul bilan hosil qilinadi. Terminlarning yasash imkoniyatlari esa bir qadar chegaralangan: terminlar, asosan, toʻrt xil usul bilan yasaladi. Shu bilan birga, taʼkidlash lozimki, tushunchalarni ifodalash borasida terminologik tizimlarda umumadabiy tilga nisbatan oʻziga xos bir ustunlik ham bor: terminologik tizimlarda birikma terminlarning oʻmi benihoya katta. Binobarin, uning yasash vositalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻtovsozlik qadimiy madaniy meros sifatida toʻliq takomil topgan. Binobarin, bu soha terminlarining yasashida hozirgi yasama terminlar deyarli uchramaydi. Biroq XXI asr oʻtovining yangi shakli ham paydo boʻlganligi (Oʻtov va oʻtovsimon uylarning modernizatsiyalashgan shakllaridan turli mintaqalarda foydalanilmoqda. Zamonaviy oʻtovlarning taxta ustiga oʻrnatilayotgani, ularning ichiga yangi mebellarning qoʻyilayotgani, elektr yoritqichlardan foydalanilayotgani (va b.) bu tizimga ham yangi terminlar kirib kelishiga yoʻl ochishi tabiiy hol. Chunki bu jarayonda qoʻllanayotgan materiallar oldingilaridan farq qiladi. Masalan, *keraga*, *uvuq*, *erganak* yogʻochlari oʻrnida metall materiallardan foydalanilganligi ham shundan dalolatdir. Shu bilan bir qatorda, zamonaviy isitish tizimi, toʻshanchilar, shkaf va boshqalarning qoʻllanayotgani ham maʼlum. Aslida, S.Xarkova tadqiqotlarida koʻrsatilishicha, oʻtov mebellari unchalik ham koʻp emas [Qarang: altaica.ru].

Maʼlumki, “terminologiyaning oʻziga xos xususiyatlari shundaki, adabiy tilda birmuncha kammahsul boʻlgan affiks terminologiyada yoxud uning biror tizimida faol boʻlishi yoki aksincha holat kuzatilishi mumkin” [1, 70].

Oʻtovsozlik leksik sistemasida qoʻllanuvchi kammahsul, biroq xarakterli boʻlgan affikslar mavjud. Quyida shulardan ayrimlari masalasiga toʻxtalib oʻtamiz:

–**dirik** affiksi. “Oltoy tillaridagi mushtarak maishiy leksika tadqiqi” mavzusidagi ishida Sh. Usmanova ushbu affiks va uning etimologiyasi haqida soʻz yuritib, quyidagi asosli xulosalarni bayon etadi: “Turkiy tillarning maishiy leksikasida *-turuk// -duruk* keng tarqalgan soʻz yasovchi affikslardan biri sanalib, quyidagi semantik guruhlarini vujudga keltiradi: a) kiyim-kechak va ularga yordamchi buyum (akseksuar) nomlarini ifodalaydi: *bojunturuq// mojunturuk* “yoqa, sharf” < *bojun// mojun* “boʻyin”; *eğindirik* “nakidka” < *eğin* “egin”; *tabandirik* “yogʻingarchilikda kiyiladigan ayollarning yogʻoch oyoq kiyimi” < *taban* “oyoq kiftining orqa ost qismi”; b) roʻzgʻor buyumlari nomini ifodalaydi: *kaşıldirik* “qoshiqlarni solish uchun devorga oʻrnatilgan moslama” < *kaşik* “qoshiq”, *täbälderek* “toʻqish dastgohining tepkisi” < *täb-* “tepmoq”. Fikrimizcha, *-turuq// -duruk* affiksi dastlab “bogʻich” maʼnosida qoʻllanilgan mustaqil soʻz boʻlgan va u proto-turk tilidagi **tur* “oʻramoq”, “bogʻlamoq” feʼlidan rivojlangan” [2, 38].

“Devonu lugʻotit turk” materiallariga koʻra, ot+feʼl+soʻz yasovchi qolipi **tur** feʼlidan soʻng qoʻshimcha qoʻshilib, quyidagi maʼnolarni ifodalash uchun xizmat qilgan:

–**oʻrnashmoq** (biror narsa oʻrnashgan joy) (masalan, boʻyinturuq, saqalduruq);

–**paydo boʻlmoq** (masalan, tuman turdi) [3, 23];

–**taʼkid** (masalan, ol tash turur – u toshdir. Ul qush turur - u qushdir...) [3, 13];

-ko'chma ma'noda **oriqlamoq** (masalan, at turdi – ot oriqladi) [3, 196] singari ma'nolarni ifodalovchi turli shakllar qo'shilganda o'rnatirilgan (ko'zga, soqolga, bo'yinga va sh.k.) narsaning nomi bilan birga keluvchi komponent.

Mazkur affiksli so'zlar "Devonu lug'otit turk" asaridagi ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, quyidagi sohalarga oidligi kuzatiladi:

Hunarmandlik termini: **Tizildyryk** – maxsining boshiga bezak uchun qadaladigan silliq, yaltiroq chaqalar [3, I, 482]; **Bojunduruq** – bo'yinturuq. U yog'ochdan maxsus shaklda yasaliq, qo'sh ho'kizlarning bo'yinlariga solinadi [3, III, 194]. Bu misolga ko'ra ham **bojun** (ot)+ **dur** (tur) (fe'l)+ **uq** (yasovchi) = ot.

Farmatsevtikaga oid termin: **Kozyldyryk** – ot dumidan to'qilgan, ko'z og'riganda yoki qamashganda ko'zga tutiladigan narsa. **Kozlyk** shakli ham bor [3, I, 482]. Bundan ma'lum bo'ladiki, -duruk o'rinda ayrim turkiy tillarda -luk shakli ham qo'llangan. Xuddi shunga o'xshash holatni hozirgi Qashqadaryo shevalarida ham kuzatish mumkin: **Chimildiriq** (Qrsh, Chir) ch i m i l l i g' (Ksn, Qrsh).- Nikoh kechasi kuyov bilan kelinni boshqalardan ajratib turish uchun xonaning to'riga tortilgan bezakli gazlama – to'siq [4, 99].

Botanikaga xos termin: **Chinishtyryk** – daraxt mevasi, u mayda g'o'laklardek bo'lib, oq va qizil ranglidir. Yozning boshlarida pishadi, uni eydilar [3, I, 482]

Umumiste'mol leksik birlik: **Komyldyryk** – yuk orqaga ketmasin deb otning elka tomonidan egarga bog'langan narsa [3, I, 482]; **Saqalduruq** – qalpoq tushib ketmasin uchun unga bog'lanib, jag' tagidan o'tkazilib qo'yiladigan chizimcha. Ipakdan to'qiladi [3, I, 482]; **Qalalduruq** – erlarning ismlaridan [3, I, 482].

"DLT"da – landi qo'shimchasi yordamida hosil bo'lgan *alachulandi* (olachuqqa ega bo'ldi), *keragulandi* (o'tovli bo'ldi ma'nosida), *er saqalduruqlandi* (odam soqalturuq osdi) singari misollar ham bor [Qarang: 3, III, 222]

Demak, ko'rinadiki, mazkur qo'shimchaniq – *duruq*, – *dyryk*, – *tyryk*, – *dirik*, – *tirik* kabi variantlari mavjud bo'lib, til taraqqiyotining turli davrlarida har xil shakllari ko'zga tashlanadi.

Hozirgi leksikografik manbalar va ilmiy tahlillarga asos bo'lgan materiallarda – *turuq*, – *duruq* shakllari kuzatiladi. Jumladan, "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da: "BO'YINTURUQ 'ish hayvoni bo'yniga kiydiriladigan omoch abzali', 'xomut'. Targ'il ho'kiz bo'yunturug'i eskirib ketdi. Bu so'z **boyun** otiga – **turuq** qo'shimchasini qo'shib yasalgan deyiladi (ESTYA, II, 182). Asli bu so'z **boyon** **turuq** birikmasining bir so'zga birlashuvi bilan hosil qilingan: *turuq* oti tur fe'lidan – *uq* qo'shimchasi bilan yasalgan: *boyun* *turuq* *boyunturuq*. O'zbek tilida ikkinchi bo'g'indagi u unlisi i unlisiga almashgan: *boyunturuq* > *boyinturuq*. Devonda bu so'z *boyinduruq* shaklida keltirilgan, bunda n undoshining ta'siri bilan **t** undoshi **d** undoshiga almashgan" [5, 74].

Mazkur qo'shimchali so'z konversiya usuli bilan hosil bo'lgan onomastik birliklar tarkibida ham uchrashi tadqiqotlar materiallarida kuzatiladi. Chunonchi, «BULDURUQ 1. Bulduruq – bulduruqlar turkumiga mansub bo'lgan cho'l qushi (O'TIL, 1, 148). – kaptarsimonlar turkumiga mansub qush [O'zME, II, 243].

2. Bulduruq – atmosfera yog'inlarining bir turi [O'zME, II, 243]. – ayozli, sovuq kunlari yoki tuman paytlarida nam havo zarralarining muzlashi natijasida hosil bo'ladigan mayda qattiq qor; qirov: Tushdan keyin osmon yuzini tuman qoplab, mayda bulduruq yog'a boshladi. Mirmuhsin. Chiniquish [O'TIL -5, 1, 370].

3. Bulduruq – baliq tuxumi, urug'i; uvuldiriq, ikra: bu qaldirg'ochlar o'zining nasibasini dengiz qirg'oqqa uloqtirgan baliqlarning lahm go'shti va buldurug'idan ko'radi. K. Mahmudov. Qiziqarli pazandalik [O'TIL -5, 1, 370].

4. Bulduruq+o't – alismadoshlar yoki bulduruqdoshlarga mansub ko'p yillik begona o't [O'zME, II, 243]» [6, 128-129].

O'tovsozlik leksik sistemasida ushbu affiksli terminlar juda kam miqdorda bo'lsa-da, mavjudligi, biroq ularda affiks keltirilgan shaklda emas, balki –**diriq** tarzida uchrashini qayd etib o'tmoqchimiz.

Misollardan ma'lum bo'ladiki, u quyidagi ma'nolarni beruvchi terminlar tarkibida keladi:

Narsa-predmet nomi: **Bosildiriq** (*Dehqonobod*) – Shamol va bo'ronda qora uy ag'darilmasligi uchun chang'aroq o'rtasidagi beldov cho'plariga bog'langan arqon (arqon uchi katta qoziqqa bog'lanadi), **Chimildiriq** // ch i m i l l i g' (Nikoh kechasi kuyov bilan kelinni boshqalardan ajratib turish uchun xonaning to'riga tortilgan bezakli gazlama – to'siq).

Predmet qismining nomi: **Guvildiriq** – Qora uy (o'tov) eshigining yon tomoni.

Narsaning sifatliy belgisi: **Chigigdirik** (Boyqo'rg'on) – *Ingichka uzun iplarning tuyilib, chigil bo'lib qolishi* [7, 344-b.).

Tadqiqot obyektimizdagi bir turkum terminlar tarixan turli qo'shimchalar qo'shilishi asosida yasalgan deb faraz qilinishi mumkin. Ular sirasiga, bizningcha, yana quyidagilar kiradi:

- **ak** affiksli terminlar. Mazkur affiks narsa-predmet nomlari hamda taqlidiy so'zlarga qo'shib, soha termini yasashida ishlatilgan. Tahliliy materiallar ko'zdan kechirilganda, o'zbek tilining o'tovsozlik terminlariga oid sistemada mazkur affiks yordamida quyidagi ma'nolarni ifodalovchi otlar yasalgani kuzatiladi:

1. Idish nomi: **Ko'nak** – *tuya ayroni va qimiz solib qo'yish uchun teridan yasalgan idish*. "Qadimgi turkiy lug'at (DTS, 315) da keltirilgan *könäk* (ko'nak) so'ziga yaqin fonetik shakllangan turkman tilidagi *konek* formasi charm idish, tuyalarni sog'ish uchun chelak o'rnida ishlatiladi (Turkmrsl, 413) deb berilsa, qozoq tilidagi *konek* yirik qora mollarning bosh yoki bo'yin terisidan yasalgan, biya sog'ishga va quduqdan suv olishga moslangan jo'mrakli idish (Qtts, 5, 168) deb izohlanadi" [8, 53].

"Konek so'zi mo'g'ul tilida *xonog* fonetik formasida shakllanib yog'och chelak [Sh.Saribaev, 46] ma'nosida keladi [8, 53].

"Qadimgi qurluq leksik birligiga yaqinroq fonetik shakllangan ko'nak so'zi o'zbekcha-ruscha lug'atda shevaga xos birlik deb, uning katta teri mesh (qimiz saqlanadi) ekanligi ko'rsatilgan (O'zbrsl, 230). Bu nom aslida turkiy ko'n (oshlangan teri) so'ziga *-ak* so'z yasovchi affiksi qo'shilishi tufayli yuzaga kelganidir" [8, 63].


2. To'shanchi nomi: **Po'stak** (f-t) – *Junli qo'y terisidan oshlanib tayyorlangan to'shanchi*. *Ayrim joylarda jun qismini turli rangga bo'yab tayyorlashgan*. "Po'stak regiondagi tillardan o'zbek tilida po'stak, uning Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida postak – quritilgan teri, ustida paxta, jun savalaydigan teri, teridan qilingan to'shak (Ishayev, 147). Buxoro shevalarida po'stak, pastak (qipchoq) – dasturxon, supra (O'xshl, 222, 223) ma'no-funksiyalarida keladi "[8, 75].

3. Jihoz nomi: **So'kichak** *ch o' k i ch a k* – *Ko'rpa to'shak, gilam yig'ib qo'yish uchun yog'ochdan tayyorlangan so'ri*. *Uning balandligi 30-35 sm bo'yi 1,5 metr, eni esa 75-80 sm chamasida bo'lib, ust tomoni taxta bilan berkitilgan bo'ladi*. *So'kichak tol daraxti yog'ochidan yasalgan*.

4. Material bezak qismi nomi: **Tupak** (Dhq) *Qora uy tasmlarining uch qismidagi bezakli ip, popuk*, **Hulpak** (a) – *Matoga tikilgan bezak*.

5. Buyumni tayyorlashda ishlatilgan asbob nomiga aloqadorlikni ifodalovchi ot: **Qilichak** – *Qilich bilan to'qilgan paxta yoki jun ipli gilam*.

Bu o'rinda arxaik qo'shimchalarni ko'rsatish uchun Z. Mirahmedova anatomik terminlar tadqiqida qo'llagan chizma asosida shunday ifodalashimiz mumkin:



Shu bilan birga, **Shirdak** (f-t) – turli xil gulli naqsh solib tayyorlangan kigiz (103), **Erganak** – qora uyning ikki tavaqali eshigi. U yon yog'ochlarga ip bilan mahkamlangan. Erganak tabaqalari cho'pdan qilingan (104), **Cho'mbak** *ch a m a k, ch u m a k*. – qora uy qismlarini mustahkam tutib turadigan uzun, yassi holatdagi egilgan tayoqchalar. Eski o'zbek tilida *ch u m o q, h a s s a, u z u n t a y o q* (DLT, 1, 362) ma'nolarini bildirgan (102), **Chang'arak** – qora uy gumbazi asosini, yuqori qismini yopib turadigan moslama. U yog'och halqa bo'lib, biroz egilgan tayoqchalardan tayyorlangan bo'ladi. Uning diametri 2,5-3 m chamasida bo'lib, uyga yorug' tushish va shu bilan birga tutun chiqadigan teshik vazifasini bajargan (96), **Kengarak** (Dhq) keraga bilan uvuqning birlashgan joyi (144-b.) kabilar tarkibidagi – *ak* qo'shimchasi ham arxaik yasovchi hisoblanadi. Bundan tashqari, yana ayrim yasovchlarning ham mazkur leksik sistemada shunday vazifada ekanligini kuzatish mumkin:

-**nak** // -**nek**: **Kevanak** (Toshli) Ichi kigizsimon junbosma bilan, usti jundan to'qilgan mato bilan qoplangan, sovuqni o'tkazmaydigan ust kiyim (142-b.). Turkiy tillarda ustki kiyimning keng tarqalgan turiga **kebenek* deyiladi. **Kebenek* so'zi < **kebe* "kigiz", "dag'al mato" < *kebe* "qo'y juni"

< *kebe “qo‘y” (qoz. shev. *kebe//kōbe* “erta tug‘ilgan qo‘zichoq”) + *-nek* kiyim nomi yasovchi affiksdan yasalgan. Zotan, **kebenek* “kigizdan qilingan cho‘ponlarning kiyimi”dir. Kigiz esa qo‘y yoki echki junidan tayyorlanadi. Turk. *kebenek* ni mo‘g‘. *qubčasu*, *qubča*, *qubčasun* “kiyim”, “ko‘ylak”, “kamzul” va t-manj. *höbde* “erkaklarning yo‘lga kiyadigan ustki kiyimi” bilan qiyoslash mumkin [2, 26].

–**g‘ay**: **Chalg‘ay** – erkaklar va ayollar ustki kiyimining (chopon, yaktak, kamzul kabi) ikki oldi yoqasidan to etak uchiga qadar bo‘lgan qismi [7, 96].

–**ka// –g‘a // –g‘ay**: **Chuvka** // chuyka – paxta yoki junni yigirish uchun ma‘lum shakl berib tayyorlangan holati. Jun yoki paxta mayin qilib tikilgach, uning diametri 1,5 sm chamasida chevrilib xom tob berib qo‘yilgan ko‘rinishi. **Chipchirg‘a** // ch i p ch i l g‘ a y. To‘rt qirrali qilib jun ipdan to‘qilgan kichik hajmdagi arqon [7, 99].

–**mish**: **O‘tomish** (Qozoyoqli) qo‘shni, yaqin masofada yashaydigan: Senga o‘tomishma [7, 400].

– **(i)z**: **kigiz**. Bu ot qadimgi turkiy tildagi ‘qopla’ ma‘nosini anglatuvchi **kid–/ kiz–** fe‘lidan – **(i)z** qo‘shimchasi bilan yasalgan (DS, 306); Devonda bu so‘z **kiziz** shaklida ‘zol’ harfi bilan yozilgan (I, 347); keyinchalik **d, z** undoshi **y** undoshiga almashgan: **kid–// kiz–+iz= kiziz>kiyiz**; hozirgi o‘zbek adabiy tilida **y** undoshi emas, **g** undoshini aytish va yozish qoidalashtirilgan: **kiyiz> kigiz** (shevalarda bu ot **kiyiz** tarzida talaffuz qilinadi) [5, 208]. Kigiz – yungdan bosib tayyorlangan qalin, pishiq palos, namat nomini anglatuvchi buyum. Bu so‘z qadimgi yodgorliklar tilida *ki(d)iz* – kigiz, namat (Malov, 394), *kidiz* – palos, namat, kigiz (YUTS, 306), *kiziz* – kigiz (MK, 1, 347), *kýwýz* – yungdan to‘qilgan, erga solinadigan har qanday palos, gilam, sholcha, namat (MK, 3, 171), *kujuz* – kigiz (Attuhfa, 1, 223), *kýjýz* – kiyiz, kiz (Attuhfa, 2, 324, 325, 329), *kibiz*, *kebiz* – gilam (MA, 440), *kiiz* (Kuryshjanov, 145), *kiyiz*, *kiiz* (Ibatov, 124), *kig‘iz*, *kiyiz* – kigiz, namat, kacha, palos, gulfalos (Sh.Sulaymon, 248, 265), *kiyiz* (Tarjumon, 102) fonetik variantlarda kelib asosan kigiz ma‘no-funksiyasini bildirganligi qayd qilingandir. Kigiz so‘zi hozirgi zamon turkiy tillarida *kigiz* (o‘zb., uyg‘.), *kiiz* (qoz.), *kiyiz* (qq.), fonetik variantlarida shakllangan bo‘lib, bu ma‘no-funksiyada turkman tilida *keche* so‘z birligi bilan ifodalanadi [8, 72-73].

“Kigiz leksik birligi turkiy tillarning umum dialektal so‘zi ham hisoblanib, shu tillarning shevalarida adabiy tilidagi ma‘no- funksiyasida keladi. Jumladan, o‘zbek tilining Turkiston gruppasi shevalarida *kiyiz* (Muhammadjonov, 110), uyg‘ur tilining Qumul, Turfon shevalarida *kiz*, *kez*, *kes*, *kigiz* – namat (Malov. Uya, 164; UNS, 130), qoraqalpoq shevasida *kiyiz* (Baskakov. KYA, 356) fonetik variantlarida kelishi qayd qilinadi.

Kigiz so‘zi o‘zining qadimgi taraqqiyoti davrida *d ~ z ~ y* (*d ~ z ~ j*) formalarini bosib o‘tganligi bilan xarakterlidir [8, 73].

Umuman olganda, keltirilganlar asosida quyidagilarni bayon etish mumkin:

–kuzatishlardan ma‘lum bo‘lishicha, o‘tovsozlikda qo‘llanadigan terminlar tarkibida – *туруқ // -duruq // - dirik*, – *ak*, – *nak // - nek*, – *g‘ay*, – *ka*, – *g‘a*, – *mish*, – *(i)z* kabi arxaik affikslar mavjud;

–ayrim affikslar o‘tovsozlikda boshqa (masalan, – *dirik*), boshqa terminologik sohalarda o‘zgacha shakllarda uchraydi;

–terminologik sistemalarda morfologik usul bilan hosil bo‘lgan terminlar tadqiqi milliy lingvistikaning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatuvchi muhim materiallar hisoblanadi.

Shartli qisqartmalar:

ATTUHFA – Attuhmatuz zakiyatu fillug‘atit turkiya. – Toshkent, 1968.

DLT – “Devonu lug‘otit turk” asari; Tarjumon – “Tarjumon” – XIV asr yozma obidasi. – Toshkent, 1980; Turkmrsl – Turkmensko-russkiy slovar – M., 1968; O‘til – O‘zbek tilining izohli lug‘ati; O‘zME – O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi; O‘XSHL – O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. – Toshkent, 1971; Qqts – Qazaq tiliniñ tusindirme sözdigi. Tom I – IX. – Almati, 1974-1985; ESTYA – Etimologicheskij slovar tyurkskix yazikov. – M., 1974.

Ksn – Qashqadaryo viloyati Koson tumani, Qrsh – Qarshi, Dhk – Dehqonobod tumani

Chir – Chiroqchi tumani, Kishi ismlari, MK – Mahmud Koshg‘ariy

O‘zb. – o‘zbekcha, Qoz. – qozoqcha, Kirg. – qirg‘izcha, Qq. – qoraqalpoqcha

Adabiyotlar

1. Mirahmedova Z. O‘zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent: Fan, 2010.

2. Usmonova Sh. Oltoy tillarida mushtarak maishiy leksika. – Toshkent: Fan, 2010.

3. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk ("Turkiy so'zlar devoni"). Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. Toshkent. Uch tomlik. I tom, 1960; II tom, 1961; III tom, 1963.
4. Mirzayev N. O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 1991.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar). – Toshkent: Universitet, 2000.
6. Yo'ldosheva D. O'zbek tilida ornitonimlarning konversiya usuli yordamida qo'llanish doirasini kengaytirishi haqida // O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. III chiqishi. – Andijon, 2013.
7. Nafasov T. Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari lug'ati. I. – Toshkent: Muharrir, 2011.
8. Ismoilov I., Meliyev K., Saparov M. O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillari leksiksidan tadqiqot. – Toshkent: Fan, 1990.
9. Xarkova S.S. K etimologii naimenovaniy predmetov mebeli v yurte. http://altaika.ru_Articles_mebel.pdf.

Х.Х. Бердиев

**О ТЕРМИНАХ ЮРТОСТРОИТЕЛЬСТВА
С АРХАИЧЕСКИМИ АФФИКСАМИ**

Как и в любой терминологической системе в юртостроительстве также имеются термины, созданные посредством аффиксации. Некоторые из них являются терминами с архаическими аффиксами. Это связано с древностью этой сферы. Они имеют немаловажное значение при изучении терминов. В настоящей статье изложены наблюдения касательно данного вопроса, имеющиеся материалы проанализированы на основании источников.

Ключевые слова: сфера юртостроительства, образованные термины, аффиксальный способ, архаический аффикс, анализ.

H.H. Berdiev

**ABOUT ARCHAIC AFFIXES OF
YURTA TERMS**

As in any terminological system there are terms built by affixes in Yurtaless. Some of them are considered as archaic terms with affixes. It is related with the history of this field. It has special importance to study them. The article makes a research of the following tasks, existed materials were analyzed on the basis of recourses.

Keywords: field of yurtaless, rebuilt terms, affix style, archaic affix, analysis.

UDK 681.14:371-3

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗРАБОТКИ КОМПЬЮТЕРНЫХ ИМИТАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ПРЕДМЕТОВ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**И.М.Лутфиллаев, М.А.Файзиев***Преподаватели Самаркандского государственного университета,**E-mail: fma@samdu.uz*

Аннотация. В данной статье исследуются педагогические аспекты разработки и внедрения компьютерных имитационных моделей на примере предметов высшего образования. Методика представления учебного материала в виде образов объектов учебного процесса в той или иной степени способна повлиять на все компоненты учебно-познавательной деятельности учащихся.

Ключевые слова: компьютерные технологии, компьютерные имитационные модели, интегрированная символьная система Mathematica (ИССМ), вербализованная информация.

Анализ научной литературы позволяет сделать вывод о том, что отдельные психолого-педагогические и методические аспекты использования компьютерных технологий в высших учебных заведениях рассматривались в работах В.В.Алейниковой, С.К.Голубевой, Л.С.Зауера, Ш.М.Калановой, Е.В.Кашириной, Т.Н.Кравчука, А.В.Куценко, Н.Л.Липатниковой, М.Р.Меламуд, О.А.Семочкиной, М.В.Соседко, О.К.Филатова, В.Ф.Шангина и других. На основе применения новых информационных технологий М.В.Соседко исследовал активизацию учебной деятельности студентов, В.Ф.Шангин изложил методические основы познавательной деятельности студентов, Л.С.Зауер определил дидактические условия их внедрения[1].

Использование новых компьютерных технологий применительно к процессу обучения математики рассмотрены в диссертационных работах А.Н.Бурова, М.Н.Марюкова, М.И.Рагулина, О.П.Солобуто, А.В.Юдакова и других. А.Н.Буровым обозначены проблемы оптимизации курса высшей математики в вузе, М.Н.Марюковым раскрыты научно-методические основы использования компьютерных технологий при изучении геометрии в школе, М.И.Рагулиным разработан профильный курс математических приложений для старшеклассников и показано, что он является средством формирования творческой направленности.

Вопросы использования компьютерных технологий нашли отражение главным образом в справочных руководствах. В работах С.Вольфрама, Е.М.Воробьева, В.П.Дьяконова, Е.Г.Давыдова, Т.В.Капустиной и других показано, что интегрированная символьная система Mathematica (ИССМ) может быть использована в качестве символьного, графического и численного калькулятора и языка программирования высокого уровня[2].

Как средство обучения ИССМ рассмотрена в работе Т.В.Капустиной, где дано описание этой системы применительно к изучению материала курса дифференциальной геометрии в педагогических вузах.

Из этих работ видно, что авторы в частном порядке подходят к проблемам компьютерного обучения. В этих работах не ставилось проблемы разработки компьютерных имитационных моделей для объектов учебного процесса (виртуальных стендов).

В свою очередь компьютерные имитационные модели для объектов учебного процесса создают хорошие предпосылки для разработки на их основе виртуально-образной представления учебных материалов.

Предлагаемый метод теоретических образов в той или иной степени способен повлиять на все компоненты учебно-познавательной деятельности учащихся, но наиболее существенные изменения должны иметь место в процессах восприятия, осмысления, запоминания и повторения учебного материала. Кроме того, метод должен улучшить эмоциональное отношение к учебе и уменьшить необходимость волевых усилий со стороны учащегося. Покажем это путем сравнения традиционной и новой технологий обучения.

При традиционной технологии обучения учебная информация предоставляется, в основном, в виде текстов и формул (вербализованная информация), доля иллюстраций в учебной литературе по учебным дисциплинам относительно невелика.

Как известно, слова нужны для того, чтобы передать мысль. Когда мысль поймана, слова становятся ненужными. Осмысление изучаемого материала должно привести учащегося к созданию своего собственного наглядно-образного представления об изучаемом объекте, то есть

к своего рода «перекодировке» представленной в традиционном книжном учебнике информации. Создание подобной модели, как правило, требует от студента больших затрат времени и значительных интеллектуальных усилий.

Для усвоения материала необходимы его применение на практике, его повторение, обобщение и систематизация. Эта работа требует от учащегося приложения волевых усилий (произвольное повторение) и значительных временных ресурсов. Иными словами, необходимо уточнение созданного усилиями учащегося собственного наглядно-образного представления. В этом случае достигается полноценное *усвоение* учебного материала, т.е. достигается повышение эффективности усвоения учебного материала [3].

Как правило, этим путем идут только отличники (одаренные студенты). Основная масса студентов ограничивается не всегда корректным начальным вариантом собственного наглядно-образного представления, по этой причине при традиционной технологии обучения мы часто имеем дело с **«квазиусвоением»** учебного материала.

Структура учебной деятельности учащегося с применением метода теоретических образов выгодно отличается от рассмотренной выше меньшим количеством этапов. При новом методе обучения отпадает необходимость в «перекодировке» учебной информации, то есть в создании учащимся своего собственного наглядно-образного представления и в дальнейшем его уточнении. Кроме того, достигается качественное изменение всех компонентов учебной деятельности учащегося.

При обучении с использованием метода теоретических образов учебная информация предъясняется не только в виде текстов и формул, но и в наглядно-образном виде.

Непременным условием успешности всех познавательных действий является **концентрация внимания** обучающегося. Внимание принято считать и психическим состоянием и психическим процессом. Однако внимание как отдельный психический процесс не существует.

В нашем случае мы добиваемся опосредованного (цветом, миганием, перемещением и т.п.) внимания. Теми же средствами, а также высоким эстетическим и даже художественным уровнями представления образной информации можно добиться непроизвольности внимания.

Непроизвольность внимания также поддерживается дискретностью подачи информации. Непроизвольное внимание не требует волевых усилий, что облегчает процесс обучения. Кроме того, желательно обеспечить соответствие порции информации **объему внимания**, совпадающему с **объемом кратковременной памяти**.

Облегчается также **организация повторения учебной информации**. Если при традиционной методике для осуществления повторения студенту необходимо, перелистывая учебник или задачник и прикладывая для этого определенные усилия (произвольное повторение), периодически возвращаться к тому или иному фрагменту учебного материала, то при обучении с помощью нового метода многократность повторения обеспечивается автоматически.

На экране постоянно сохраняются в свернутом виде «следы» предшествующих порций информации. Обращение внимания к этим «следам» в определенном смысле эквивалентно многократности повторения. Причем учащемуся нет необходимости проявлять волю и прикладывать усилия для повторения материала» процесс становится непроизвольным.

Благодаря предлагаемому методу теоретических образов должно улучшиться также и **запоминание изучаемого материала**.

Во-первых, существенно возрастает использование механизма зрительной памяти. Из психологии известно: «То, что человек зрительно может себе представить, он, как правило, легче запоминает и воспроизводит». Сопоставление правильности опознания сотен видовых слайдов и аналогичной по объему вербальной информации показало значительное преимущество в запоминании зрительного материала, **Сочетание зрительной памяти и** обычно используемой в учебном процессе **логической памяти** должно способствовать лучшему запоминанию изученного материала.

Во-вторых, предъяснение информации отдельными порциями, приближающимися к объему кратковременной памяти, предотвращает явление замещения. Оно заключается в том, что при переполнении индивидуально ограниченного объема кратковременной памяти человека при непрерывном и последовательном предъяснении информации, например, на традиционном лекционном занятии, вновь поступающая информация частично или полностью вытесняет хранящуюся там, и последняя безвозвратно исчезает, забывается, не попадает в долговременное хранилище. Кратковременная память выступает в роли обязательного

промежуточного хранилища и фильтра на пути следования информации в долговременную память. Объем кратковременной памяти человека на слова, цифры, фигуры, фразы, буквы и т.д. считается относительно неизменным и остается в пределах магического числа (7 **плюс-минус** 2). Если объем информации, предъявляемый в очередной порции дискретно развивающегося теоретического образа, совпадает с объемом кратковременной памяти или приближается к нему, тогда у учащегося нет необходимости перенапрягать свою волю для удержания новой информации в поле своего зрения.

В-третьих, все приемы, использующиеся в предлагаемом методе для усиления внимания, также должны способствовать запоминанию материала. «Процедура введения информации в долговременную память и представляет собой акт обращения на нее внимания».

Следует выделить следующие преимущества организации учебной деятельности по методу теоретических образов:

- *достигается своего рода автоматизированное управление учебной деятельностью учащегося, приводящее к облегчению и ускорению процессов восприятия, осмысления, внимания, повторения и запоминания учебной информации;*

- *отпадает необходимость в разработке учащимся не всегда корректного начального варианта собственного наглядно-образного представления изучаемого учебного материала;*

На базе метода теоретических образов реализуется мультимедийные электронные учебники и виртуальные лаборатории имитирующие работы объектов учебного процесса.

Виртуальная лаборатория – это учебно-практический (лабораторный) стенд или учебно-квалификационная мастерская, которая способствует укреплению теоретических знаний студентов, приобретению необходимых навыков по определенному направлению посредством компьютерных имитационных моделей, программ и технологий [4].

Проведя сравнительный анализ функционирования традиционного способа обучения и виртуальных стендов мы можем выделить следующие преимущества последних:

- для проведения лабораторной работы требуется меньше времени, отсутствуют, разгон по времени выхода в режим лабораторной установки (технологического процесса), что позволяет за установленное время проводить не одну, а нескольких лабораторных работ;

- появляется возможность непосредственно наблюдать процессы изнутри, т.е. можно следить за процессами в таком режиме, который не удастся даже при наблюдении за реальными технологическими процессами (например, работа двигателей внутреннего сгорания, процессы на АЭС, доменных печах, и т. д.);

- **имитационные моделирование** позволяет наблюдать тот или иной процесс с любой точки, останавливать процесс на любой стадии, динамически изменять параметры процесса и производить другие манипуляции, которые невозможно провести в реальных условиях;

- как видно из экспериментального опыта зарубежных центров обучения, имитация процессов с помощью компьютерных программ позволяет лучше и быстрее осваивать учебный материал и приобретать необходимые навыки работы (езда на автомобилях и на тракторах, испытания деталей, управление сложными объектами и т.п.);

- имеется возможность создания имитационных режимов работы оборудования в крайних режимах, что формирует навыки по диагностике и дефектации аппаратуры, установок и оборудования, т.к. в реальных условиях эксплуатация механизмов и машин в предельных условиях или в режимах с отклонением от оптимального крайне нежелательно или небезопасно.

- не требуются дорогостоящие химикаты, приспособления и другие сырьевые и расходные материалы;

- отсутствуют затраты, связанные с поломками и выходами из строя элементов оборудования и аппаратуры, по причине недостаточной квалификации студентов;

- виртуально можно проводить лабораторные занятия по самым последним достижениям науки и техники, так как не требуется ждать приобретения или разработку современного лабораторного оборудования (не всегда на учебный процесс передается современное оборудование);

- виртуальные лаборатории не требуют специальных помещений с определенными климатическими характеристиками;

- сопровождение процессов с видео и аудио анимациями и эффектами способствуют появлению интереса со стороны студентов;

- массовость, т.е. одной базой данных одновременно могут пользоваться несколько аудиторий и групп (а не подгруппы, как при традиционном способе обучения);
- данные можно обновлять оперативно, т.е. эти лабораторные работы совершенствуются непрерывно, не требуя для этого больших затрат;
- способствует логическому мышлению, т.е. создается благоприятная среда и возможность гибкого перехода от тренировки памяти, что свойственно к традиционному способу обучения, к тренировке логического мышления;
- занятия можно проводить как в отдельности, так и сочетая с лекционными занятиями, что способствует лучшему усвоению учебных материалов;
- отсутствие долгого разрыва по времени между получением теоретических знаний и практических навыков, что способствует как лучшему усвоению практического материала, так и осознанному использованию лабораторного оборудования;
- при необходимости – проведение различных лабораторных работ в одном и том же месте и в одно время (например, технологический процесс, включающий разные химические процессы), что невозможно в традиционных лабораториях и мастерских;
- улучшает ориентацию и адаптацию молодых специалистов по прибытии в производственные предприятия и другие объекты назначения;
- поскольку виртуальные лаборатории разрабатываются группой преподавателей, дизайнеров и психологов, процесс обучения составлен с учетом всех основных факторов, влияющих на усвоение студентом учебного материала и приобретением необходимых навыков и знаний; что бывает очень редко в обычных лабораториях и мастерских;
- преподавание через виртуальные лаборатории может вестись дистанционно, то есть, необходимость непосредственного присутствия преподавателя исчезает;
- возможность индивидуального тестирования каждого студента на приобретенные навыки и знания, опять же, непосредственное присутствие преподавателя не требуется;
- интеграция теории и практики – при необходимости, студент в любой момент может обратиться к теории и справочным материалам;
- полная безопасность и экологичность;
- способствует формированию технической этики и культуры как у преподавателей, так и у студентов.

Наряду с этим рекомендуется применения виртуальных и теоретических образов в обучающих программных системах в следующих аспектах:

- теоретические образы должны быть динамически развивающимися;
- наиболее эффективно дискретное развитие теоретического образа отдельными «порциями» информации, приближающимися по своему размеру к объему кратковременной памяти человека;
- учебный материал должен структурирован таким образом, чтобы каждая порция информации обеспечивала изучение какого-либо одного существенного признака (одной группы признаков) изучаемого объекта, отвлекаясь то есть абстрагируясь от других его признаков (моделируются логические операции мышления: анализ, сравнение, абстракция);
- для активизации психических процессов восприятия и внимания, а также операции сравнения при переходе к новой порции информации следует использовать специфические возможности компьютерной техники: цвет, движение, звук и т.п.;
- при переходе к новой порции информации в формирующемся теоретическом образе должны сохраняться в свернутом виде «следы» предшествующих порций (моделируются логические операции мышления: синтез и обобщение, а также многократность повторения);
- теоретические образы должны формироваться (развиваться) по мере поступления запроса учащегося (например, нажатие клавиши), в удобном для него индивидуальном темпе;
- с целью лучшей интеграции символьной и образной информации развитие теоретического образа на экране дисплея должно сопровождаться символьными обозначениями с их визуальной привязкой к соответствующим элементам наглядности. Причем символьные обозначения должны сохраняться на экране до конца сеанса

работы. Текстовые сообщения должны быть предельно лаконичными и могут периодически обновляться;

теоретические образы должны создаваться с учетом требований эргономики, эстетики, особенностей психологии зрительного восприятия и, по возможности, приближаться к уровню художественного искусства.

Литературы

1. Арипов М.М., Мухамедиева Д.К. Численное моделирование популяционной динамики с нелокальным взаимодействием в двумерном случае. <http://sibac.info/sibac.info/2009-07-01-10-21-16/10058->
2. Астапчук В.А., Загубисало Е.В. Проблемы представления учебного материала в электронном учебнике. <http://www.stu.ru/konf2001/files/8/19.zip>
3. Балыкина Б. Н. Технология проектирования электронных учебников, пособий для исторического образования. <http://ito.edu.ru/2001/ito/ii/2/ii-2-7htm1>
4. Лутфиллаев М.Х. и др. Принципы реализации виртуальных ресурсов в методической системе имитационных моделей. Ж. «Новости науки Казахстана.» Алма-Аты, 2015. №1.

I.M. Lutfillayev, M.A. Fayziyev OLIY TA'LIM PREDMETLARIDAN KOMPYUTER IMITATSION MODELLARI YARATISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Ushbu maqolada oliy ta'lim predmetlaridan kompyuter imitatsion modellari yaratish va o'quv jarayoniga joriy etishning pedagogik jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiq etilayotgan obrazlar ko'rinishida o'quv materiallarini taqdim etish metodikasi o'quvchilarning bilim olish jarayonida hamma komponentalariga ijobiy ta'sir etishi asoslangan.

Kalit so'zlar: kompyuter texnologiyalari, kompyuter imitatsion modeli, Mathematica integratsiyalashgan simvol tizimi (MIST), verbalizatsiya ma'lumot.

I.M. Lutfillayev, M.A. Fayziyev PEDAGOGICAL ASPECTS OF DEVELOPMENT OF COMPUTER SIMULATION MODELS OF OBJECTS OF HIGHER EDUCATION

This article explores pedagogical aspects of the development and implementation of computer simulation models as objects of higher education. Methods of presentation of educational material in the form of images of objects of the educational process in varying degrees, can affect all the components of the teaching and learning activities of students.

Keywords: computer technology, computer simulation models, an integrated system of symbolic Mathematic (ISSM), verbalized information.

UDK: 37.0

TA'LIM-TARBIYA SIFATINI TA'MINLASHDA PEDAGOGIK TAKT

A.I. Inatov

Samarqand davlat universiteti assistenti, E-mail: a-inatov@samdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlashda asosiy omillardan biri bo'lgan pedagogik takti amalga oshirishning "maqbul qadamlar" texnologiyasi qarang. Bunda, pedagog tomonidan pedagogik muammo belgilab olinishi, pedagogik jarayonda ifodalangan qiyinchiliklar baholanishi, real pedagogik maqsadni shakllantirish, pedagogik faoliyatda shaxsiy muvaffaqiyat mezonlarini belgilash, pedagogik axborotni jamlash va tahlil qilish, amaliy harakatlar tartibini belgilash va takomillashtirish, akmeodarajaga chiqishni ta'minlash kabi qadamlarni yo'lga qo'yish shartlari va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, texnologiya, pedagogik takt, muammo, pedagogik axborot, akmeodaraja.

Ta'lim-tarbiya sotsiumning vazifasi hisoblanib, sotsiumda yaratuvchanlik (chiqarishni) va uning rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur vazifa aniq makonda madaniyatni translatsiyalash va madaniy me'yorlarni tatbiq etish orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun bo'lsa kerakki, XX asrning 60–80-yillarida rivojlangan davlatlar "Uzluksiz ta'lim" yoki "Butun hayot davomida ta'lim olish" (XX asrning 90-yillarida yaratilgan ta'limot) tizimini qabul qilib, mazkur asosida har bir kishini ta'lim vazifasini amalga oshiruvchi sifatida jalb qilishdi. Mazkur konsepsiya ta'lim falsafasida jamiyat hayotini ta'minlashda "inson–jamiyat–tabiat" orasida turli omillarning (shaxsiy, iqtisodiy, tabiiy, madaniy, siyosiy va b.) ta'siri asosida buzilgan muvozanatni tiklash uchun yaratilgan tizimli ta'limot tarzida,

ta'lim tarixida esa, taraqqiyotni ta'minlash uchun iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy omillarning ta'siri asosida vujudga kelgan jarayon sifatida baholanishi mumkin. Garchi, bu tarzda shaharlar nazariy mazmun kasb etadi, tarixiy davr nuqtai nazar asosida taraqqiyotni ta'minlash uchun galdagi vazifalarni belgilab olish uchun amaliy mazmun kasb etadi[1].

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasini tizimli tarzda amal qilishi davlat siyosati doirasida strategik mazmunga ega ustivor vazifa sifatida belgilangan. Natijada milliy taraqqiyotimiz ta'minlash yo'lida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi kabi hujjatlar qabul qilindi va ularda ko'rsatib o'tilgan asosiy tamoyillar amaliyotga joriy etilishi jihatidan aniq davrlarga ajratildi [2-3].

Ta'lim va jamiyat ajralmas yaxlit ijtimoiy organizm hisoblanib, mohiyatdan bir tizim hisoblanadi. Jamiyat hayotida kechadigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon ta'lim makoniga ham, ta'limning sifatiga ham ta'sir ko'satadi. Aslida, ta'lim va jamiyat tizim sifatida insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarni takomillashtirib, insonning o'ziga va atrofdagilariga pozitiv munosabatda bo'lish tarzini ta'minlashga qaratilgandir. Shu sababli, ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirishga qaratilgan har qanday dasturiy harakat milliy taraqqiyotning istiqboli uchun qo'yilgan ustun deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartir-masdan turib, biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmas" – deb masalaning bosh maqsadini aniq ko'rsatib o'tgan [4].

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya oldida yetuk inson – mutaxassis shaxsini tarbiyalash uchun ta'lim sifatini ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bu dolzarb masalani yechish yo'lida mamlakatimizda bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1533-sonli qarori asosida o'quv jarayoni va o'quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalashga e'tibor qaratildi. Bundan ko'zlangan maqsad jahon mehnat bozori uchun raqobatbardosh milliy kadrlarni tayyorlash, jamiyat taraqqiyotini sohaviy ta'minlashni milliy talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda takomillashtirishdan iborat. "O'z-o'zidan ayonki, tobora chuqurlashib borayotgan islohatlar natijasida erishiladigan o'ta muhim o'zgarishlar hech qachon bir kunda, kimningdir buyrug'i yoki xohishi hisobidan bo'lmaydi. Buning uchun albatta vaqt kerak, eng asosiysi – bu islohatlarning mazmuni va maqsadlarini jamiyatimiz, xalqimiz chuqur anglab olishi va qo'llab-quvvatlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega"[4]. Shu jumladan, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi har bir mutaxassis o'z faoliyatini milliy taraqqiyotni ta'minlash yo'lida qabul qilingan qonunlarga tayangan holda tashkil etishi lozim.

Pedagogika faoliyatda motivlar tashqi (shaxsiy va kasbiy kamolotga erishish) va ichki (insonparvarlik va ijtimoiy mazmundorlikda dominanlik qiladigan ma'naviy ehtiyojni qondirish istagi) kabilarga ajratiladi. Pedagogik faoliyatni amalga oshirishda vosita sifatida, ya'ni ta'lim-tarbiya berish uchun asos hisoblangan nazariy va amaliy bilimlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar, ko'rgazmali o'quv qurollaridan foydalaniladi. Bunda ta'limning maqsadidan kelib chiqqan holda, ya'ni talabalar tomonidan bilimlar majmuasini o'zlashtirishini, kasbiy ko'nikma va malakaga ega bo'lishini ta'minlashni egallash uchun tushuntirish, namoyish etish, kuzatish, birgalikda mashq bajarish, aqliy o'yinlar o'tkazish, o'zlashtirishi jarayoni va xulqini nazorat etish, belgilangan kamchiliklarning korreksiyasini o'tkazishni ta'minlash uchun ta'sir ko'rsatiladi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim oluvchida shaxsiy va kasbiy sifatlarni o'zlashtirish natijasida kamolotga erishish ta'minlanadi. Bu jarayonni "... faraziy jihatdan kamolotni son, sifat va tuzilmaviy o'zgarishlarini psixologik model ko'rinishida: **"a ko'rinishdagi son, sifat va tuzilmadan→A ko'rinishdagi son, sifat va tuzilmaga o'tishi"** tarzida" ko'satib o'tish mumkin. Aynan shu ko'satkich pedagogik faoliyat natijasining samaradorligi hisoblanadi. Bunga erishish uchun, pedagog maqbul bilimlarni yetkazish texnikasi, ko'nikma va malakalarni shakllantirish strategiyasiga ega bo'lishi talab etiladi. Agarda, pedagog ta'lim berayotgan predmetida talabani shaxs-mutaxassis sifatida shakllantira olish strategiyasiga ega bo'lsa, bu ko'rsatkichni pedagogik faoliyatda akmedaraja sifatida ko'rsatib o'tish mumkin. Shu sababli, pedagog kasbiy faoliyatini takomillashtirish yo'lida doimo izlanishda bo'lishi lozim. Buning uchun har bir pedagog iqtidori, tajribasi, kasbiy maqsadi, hayotiy tamoyillaridan kelib chiqqan holda biron bir texnologiyani tanlaydi. Zamonaviy ta'limda, kasbiy yetuklikka erishishga qaratilgan texnologiyalar ko'p va nazariy jihatdan ularni, ta'limiy ma'lumotni sharhlash – tasvirlash texnologiyalari, ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar va ta'limni rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar kabi guruhlarga ajratish mumkin.

Devid Kolbning “Tajriba vositasida o‘qitishning davriyligi”, Karl Rodjersning “Ta’limga samarali ta’sir ko‘satadigan omillar”i (ya’ni: -samimiylik, hurmat, ishonch) texnologiyasi shular jumlasidandir[5].

Shu o‘rinda pedagog shaxsini kasbiy yetuklikka erishishni ta’minlashga qaratilgan “Maqbul qadamlar” texnologiyasini keltiramiz. Bu texnologiya kasbiy kamolotga erishish uchun pedagog tomonidan har bir qadam doirasida ma’lum vazifalarni bajarishni taqozo etadi. Har bir qadam doirasida pedagog aniq vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishi natijasida, galdagi qadam qo‘yishga erishiladi. Texnologiyaning maqsadi pedagogning kasbiy kamolotga erishish jarayonini ta’minlashdan iborat bo‘lib, bunda kasbiy bilimlarni oshirish, pedagogik taktga ega bo‘lish, pedagog shaxsida mujassamlashmagan kasbiy sifatlarni shakllantirish, turli pedagogik vaziyatlarda ta’lim manfaatlarini himoya qilish g‘oyasiga tayangan holda qaror qabul qilishga tayyorlashdan iborat. Qadamlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, asosiy e’tibor kasbiy faoliyatni sifat o‘zgarishiga qaratilgandir [6-7].

Birinchi qadam, pedagog tomonidan pedagogik muammo belgilab olinadi. Bunda, pedagogik jarayonda ifodalangan qiyinchiliklar baholanadi (“5” balli mezon bo‘yicha), muammo aniqlanadi.

Bunda “5 ball. Muammo, ta’lim berish metodikasiga taalluqli (aniq mavzu bo‘yicha tayyorgarlik)”;

“4 ball. Muammo, pedagogning shaxsiga taalluqli (masalan kayfiyat, agressivlikni yuqori ifodalanganligi, destruktiv “Men”ni shakllanganligi) xususiyatlar”;

“3 ball. Muammo, pedagogik jamoaga taalluqli (androgogik xususiyatlar, nizoli vaziyatlar)”;

“2 ball. Muammo pedagogning kasbiy sifatlarga taalluqli (kasbiy ong, pedagogik kompetentlik)”;

“1 ball. Muammo, texnik omillarga taalluqli (darsni tashkil etish, mavjud sharoitlarning talabga javob bermasligi)”.

Ikkinchi qadam, real pedagogik maqsadni shakllantirish. Bunda, birinchi qadam doirasida aniqlangan pedagogik muammoni bartaraf etish uchun aniq maqsad shakllantiriladi va pedagog ta’lim jarayoniga jalb etganlar uchun (pedagogik jamoa, talabalar jamoasi, ota-onalar kengashi va b.) o‘zining faoliyatini baholaydi. Baho, “qoniqtiradi” va “qoniqtirmaydi” mazmunida belgilanadi.

Uchinchi qadam, pedagogik faoliyatda shaxsiy muvaffaqiyat mezonlarini belgilash. Pedagog faoliyati davomida amalga oshiradigan harakatlarini qanchalik mazmundor ekanligini bilib olish, pedagogik faoliyatining mahsuldorligini ta’minlaydi. Gohida, bu ko‘rsatkich pedagogik maqsadni shakllantirganda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Agarda bunday bo‘lmasa, pedagog uchun baholash mezonini belgilab olish tavsiya etiladi. Buning uchun, quyidagicha yondashish mumkin:-pedagog, o‘zining kasbidan qanchalik qoniqqanligini baholash lozim (“qoniqtiradi” yoki “qoniqtirmaydi” tarzida); pedagog o‘tadigan fani doirasida talabalarni dars mazmunidan qanchalik qoniqish hosil qilganligini aniqlashi lozim (talablar “qoniqdi” yoki “qoniqmadi” tarzida); pedagog, kasbiy faoliyatining natijalaridan kutishlarini belgilab, ularga yetganligini baholashi lozim bo‘ladi.

To‘rtinchi qadam, pedagogik axborotni jamlash. Pedagogik muammoni hal etish uchun, uni kelib chiqish sababi, kechishi, ta’sir ko‘rsatish darajasi va omillarini aniqlash lozim bo‘ladi. Buning uchun pedagogik axborotni jamlashi lozim bo‘ladi. Masalan: kuzatuv asosida alohida voqea-hodisa, inson va uning hayoti haqida axborotga ega bo‘lish. Masalan, “Kasbiy faoliyatini baholash” testi asosida yoki obyektiv testlarning natijasi asosida axborotlarni jamlash (masalan, intellekt testlari, qobiliyat testlari, shaxs testlari kabilardan). Barcha axborot, kasbiy faoliyatda samaradorlikka erishish g‘oyasi asosida tahlil etiladi va belgilangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida pedagog o‘zi uchun reja tuziladi.

Beshinchi qadam, pedagogik axborotni tahlil etish. Pedagog, kasbiy faoliyati va shaxsiga oid jamlangan axborotni sabab va oqibat bog‘liqligida tahlil etishi lozim bo‘ladi. Tahlilning natijasida, pedagogik muammo yechimining muqobil yo‘li belgilangan. Bunda, pedagog o‘z oldida “Nima uchun?” - degan savolni qo‘yishi lozim bo‘ladi. Javoblar natijasi asosida shaxsiy faoliyat rejasini tuzadi. Unda, muammolarni bartaraf etish uchun maqsadli harakatlarni amalga oshirishning aniq yo‘l va texnikalari belgilab olinadi.

Oldinchi qadam, amaliy harakatlar tartibini belgilash. Aniqlangan muammoni bartaraf etish uchun tuzilgan rejada belgilangan yo‘llar (tartib) uchun uslublar tanlanib (o‘z ustiga mustaqil ishlash, tajribali kasbdoshlardan maslahat so‘rash, psixologga murojaat etish), pedagogik muammoni bartaraf etish maqsadida amaliy harakatlar bajariladi. Natijada, pedagogning o‘zi va pedagogik jamoa oldida faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun ta’limiy vazifa va majburiyatlar dolzarblashadi.

Yettinchi qadam, harakatlarni takomillashtirish. Pedagog tomonidan kasbiy muvaffaqiyatga erishish uchun bajariladigan amallar turli pedagogik vaziyatlarni inobatga olgan holda qiyoslanadi.

Natijada, harakatlarning muqobil variantlari, pedagogik faoliyat manfaatlari va aniq vaziyat inobatga olingan holda maqbul bo'lgan variant (yo'l, usul) tanlanadi. Pedagog va pedagogik jamoaning vazifalariga o'zgartirishlar kiritiladi.

Sakkizinchi qadam, akmeodarajaga chiqishni ta'minlash. Bunda, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlash maqsadida, ya'ni belgilab olingan vazifalarni bajarish uchun barcha resurslarning joriy holati belgilab olinadi. Bunda, ulardan foydalanish darajasini baholash lozim bo'ladi. Yetarlicha foydalanilmagan resurslardan foydalanishning maqsadi, yo'llari belgilanib, ularni qo'llash manzili, vaqti, tartibi va nazorat turi aniqlab olinadi. Amaliy harakatlarni bajarishga o'tiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – B.73.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni. – T.: 1997. – B.12.
3. O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”. – T.: 1997. – B.13.
4. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – Toshkent: O'zbekiston, 1999, – B.94.
5. G'oziev E., Samarov R. Ilmiy ijod va olimning shaxsi // J. Ta'lim muammolari. 2014. 2–son.
6. Брылева У. В. Психологическая поддержка профессионально – личностного развития педагога в условиях инновационного образования // Диссертации кандидата психологических наук.- Самара: Университет, 2014.
7. Samarov R., Sadridinov S. Barkamollik tizimida kasbiy layoqatlilik // J. Zamonaviy ta'lim. 2013, 6-son.

Инатов А. И. ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ТАКТ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КАЧЕСТВА УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ

В данной статье излагается один из методов осуществления педагогического такта – как технология «целесообразных шагов». При этом приведены условия реализации и методические указания по осуществлению на практике следующих шагов, таких как, подчеркивание педагогической проблемы, оценка трудностей, выраженных в педагогическом процессе, формирование реальной педагогической цели, определение реальных критериев личного успеха в педагогической деятельности, сбор и анализ педагогической информации, выяснение и совершенствование порядка практических действий, обеспечение достижения акмеостепени.

Ключевые слова: обучение, технология, педагогический такт, проблема, педагогическая информация, акмеостепень.

Inatov A.I. PEDAGOGIC TACTIC OF SUPPORTING THE QUALITY OF EDUCATIONAL WORK

In the following article the technology of “Suitable steps” of activating pedagogic tactics was investigated. Besides this, the article is devoted to the terms of organizing steps and theoretical demonstration of using them in solving pedagogical problems, to estimate the problems used in pedagogic process, to develop real pedagogic purposes, to mark own success styles, to collect and analyze pedagogic information, to estimate and develop the structure of practical activities, to support reaching to acmeodegree.

Keywords: education, technology, pedagogic tactic, problem, pedagogic information, acmeodegree.

UDK: 37.0

INNOVATSIYAVIY TA'LIM VA UNING ILMIY-USLUBIY JIHATLARI

A.I. Inatov, A.N. Abdullayev

Samarqand davlat universiteti o'qutuvchilari, E-mail: a-inatov@samdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion ta'lim va uning ilmiy-uslubiy jihatlari: informatsion texnologiyalaridan foydalanish, individuallashtirilgan ta'lim, innovatsiyaviy ta'limni qo'llash xususiyatlari, innovatsiyaviy ta'lim qamrovi, strukturaviy o'ziga xosligi hamda innovatsiyaviy ta'limning faoliyat sifatida an'anaviy ta'lim usullaridan mazmundorligi bilan ajralib turish jihatlari bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: taʼlim, taʼlim-tarbiya, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiyaviy axborot texnologiyalari, korporativ boshqaruv.

Taʼlim, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy sohalari rivojlanishni taʼminlovchi maʼnaviy asos hisoblanadi. Agarda, taʼlim tarixiga nazar salsak, har bir tarixiy davr davomida taʼlim mavzusi dolzarb masala sifatida namoyon boʻlganligini kuzatish mumkin. Shu sababli boʻlsa kerakki, har bir xalq oʻz rivojlanish tarixi davomida taʼlim rivojlanishiga, boshqacha qilib aytganda, “pedagogik gʻoyalarni rivojlantirish masalasiga alohida eʼtibor qaratib kelgan [1]. Natijada “har bir xalqning tafakkur tarixida taʼlim-tarbiyaga oid qarashlar majmuasi shakllangan” [2], uni taʼlim-tarbiyaga milliy qarashlar tizimi deb koʻrsatsak, maqsadga muvofiqdir. Taʼlim-tarbiyaga oid qarashlar turli omillarning taʼsiri asosida vaqti-vaqti bilan takomillashib, dialektik tarzda rivojlangan.

Har bir xalq, avvalo, oʻzining hayotiy tajribalariga tayangan holda milliy hayot yoʻlini, kundalik faoliyati va kuzatishlarini umumlashtirilgan qisqa va loʻnda koʻrinishda ifodalangan maqolalarni yaratgan [3]. Shuning uchun, xalq ogʻzaki ijodi namunalarini oʻrganilayotgan mavzumiz doirasida etnomanba sifatida oʻz vazifasini toʻliq oʻtay oladi deb koʻrsatsak xato qilmagan boʻlamiz. “Xalq ogʻzaki ijodi namunalarida tarbiya, tarbiya berish, tarbiyachining sifatleri, huquqlari, tarbiyalanuvchining majburiyatlari, vazifalarini belgilab, insonlarni yuksak xulq-atvor, goʻzal odamiylik fazilatlarini egallashga chorlagan.

Xalq ogʻzaki ijodi namunolari oʻzining aniq maqsadga yoʻnaltirilganligi [4] va mavzularining xilma-xil boʻlishi bilan ajralib tursada, bu asarlarda taʼlim-tarbiya ayri holda, yaʼni taʼlim va tarbiya shaklida emas, balki yaxlit tarzda keltirilmagan. Bu oʻziga xoslikni milliy pedagogikaning tarkibiy xossalari deb koʻrsatsak maqsadga muvofiqdir. Bu mavzu taʼlim-tarbiya tarixiga taalluqli boʻlsa-da, bugungi taʼlim tizimini rivojlantirish uchun amaliy mazmun kasb etadi. Negaki birlamchi, yaʼni fundamental asosni – taʼlim tarixini, uning tarkibiy qismlarini bilmasdan turib, taʼlimni rivojlantirish, taʼlimning istiqboldagi vazifalari haqida fikr yuritib boʻlmaydi.

Shu sababli, bugungi kun soha mutaxassisi milliy taʼlim-tarbiya tarixini bilish bilan birga, axborot texnologiyalariga (AT) oid bilimga ega boʻlishi lozim. Ularning ayrim jihatlarini quyidagicha koʻrsatib oʻtish mumkin:

1. Zamonaviy kompyuter tizimini texnologik integratsiyasi va tuzulishini, yaʼni kompyuter va uning tarkibiy qismlari, modem, printer haqida;
2. Telekommunikatsiyaviy axborot texnologiyalari, yaʼni tarmoqli axborot texnologiyalari, lokal va global tarmoqlar, Internet texnologiyalari, simsiz (беспроводные) aloqa vositalari haqida;
3. Korporativ boshqaruv, hujjatlarni ayriboshlash kabi axborot texnologiyalari haqida;
4. Taʼlimiy jarayonlarni axborot texnologiyalari, yaʼni matnli va tablitsali protsessorlar, elektron pochta, matnli-audio-video-konferensiyalar haqida;
5. Multimediyaviy axborot texnologiyalari, yaʼni matnga, ovoz, video, foto va grafiklarga ishlov berish haqida;
6. Pedagogik qaror qabul qilishda axborot texnologiyalarini qoʻllash, yaʼni materiallarni intellektual tahlili, maʼlumotlar zahirasiidan masalaga taalluqli materiallarni izlash haqida;
7. Ekspertli tizim, kasbiy, huquqiy, siyosiy va madaniy maʼlumotlar tizimi haqida;
8. Elektron nashrlar va shu kabilar haqida.

Pedagogik jarayon uchun amaliy ahamiyat kasb etadigan, innovatsiyaviy taʼlim va uning ilmiy - uslubiy jihatlarini oʻrganishga kam eʼtibor qaratilayotganligini ham koʻrsatib oʻtish lozim. Bugungi kunda, pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishini axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib boʻlmaydi.

Zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida oʻtkaziladigan taʼlimni funktsionalligini, taʼlim oluvchi va taʼlim beruvchilarning munosabatini inobatga olgan holda taʼlimiy metodlarni turli belgilari boʻyicha guruhlariga ajratish mumkin. Ularning qatorida, istiqbolli metodlar sifatida mustaqil taʼlim olish metodi, individuallashtirilgan (bir kishi bir kishiga) taʼlim metodi, “bir kishi koʻp kishiga” taʼlim metodi, kommunikatsiya asosida “koʻp kishi koʻp kishi”ga kabi taʼlim metodini alohida koʻrsatib oʻtish mumkin.

Individuallashtirilgan taʼlim pedagogik metod sifatida rivojlanib, nafaqat bevosita aloqadorlikda, balki telefon, ovozli pochta, elektron pochta kabi texnologik vositalar yordamida oʻtkazilib kelmoqdaki, ularning tasnifini 1-jadvalda keltiramiz. Bu taʼlim turida vorislik, aniqrogʻi kompyuter tarmoqlarida televorislikni rivojlanib borilayotganligi diqqatga sazovordir. Bunda taʼlim rivojlantiruvchi,

dunyoqarashni shakllantiruvchi, birlashtiruvchi, yetaklovchi va sharhlovchi kabi vazifalarni bajarishni taqozo etadi. Bu o'z navbatida kasbiy ongni shakllantirish va rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

1-jadval.

Individuallashtirilgan ta'lim va o'qitish metodining tavsifi

T/R.	Ta'limiy munosabatlar:	Ta'limiy texnologiyalar:
1.	Ta'lim oluvchi – Ta'lim beruvchi Ta'lim oluvchi – Ta'lim oluvchi	Telefon, ovozli pochta, elektron pochta

1. “Bir kishi ko‘p kishiga” ta'lim berish metodi qo‘llanilganda an'anaviy tarzda ta'lim berishday, ya'ni jadvallar tuzish, dalillarni yodlashni talab qilish va qaytarish kabi amallarni bajarib, ta'limiy munosabatda faol ishtirok etmasday tarzida emas, balki innovatsiyaviy texnologiyalar vositasida yangicha mazmun kasb etadi. Negaki, radio va televidenie orqali o'qiladigan ma'ruzalar audio, video yozuvlar shaklida innovatsiyaviy ta'lim jarayonini boyitadi. Ya'ni, eleksiyalar (elektron ma'ruzalar) tarzida kompyuter tarmoqlari yordamida tarqatiladi. Bunda eleksiyalar an'anaviy ma'ruza matni shaklida bo'lishi shart hisoblanmaydi. Balki, maqolalar jamlanmasi yoki iqtiboslar ko'rinishida bo'lib, faqatgina o'quv materiallarga qo'yiladigan talablarni o'zida mujassam etgan bo'lishi lozim. Negaki, ularning vazifasi ta'lim oluvchilarni aniq mavzu yuzasidan bo'lib o'tadigan ta'limiy munozaraga tayyorlashdan iborat. Ko'rinish turibdiki, ta'lim oluvchilar mustaqil tarzda bilim olishga tayyor turishlari lozim. “Ular ta'lim olishga oid an'anaviy tasavvur tarzidan, ya'ni dalillarni yodlash va qaytarish, mavhum misol va masalalarni muhokama qilish shart deganlaridan xoli bo'lishlari lozim” [5]. Chunki a'anaviy talim jarayonida ta'lim oluvchilarga uzatilayotgan ma'lumotlar ularning xotirasida uzoq muddat saqlanmasligi, amaliyotda qo'llanmasligi jihatidan besamar hisoblanadi. Ma'lumotlar real hayotdan ayri holda tuzilganligi sababli ularni tinglovchi tomonidan o'zlashtirish jarayoni qiyin kechadi. [6]. An'anaviy tarzda ta'lim berish, qamrovi jihatidan chegaralangan bo'lib, tashkiliy masalalarga ko'p vaqt sarflashni talab etadi. Natijada, ta'lim oluvchi “qolip”ga tushiriladi, chunki ularni mustaqil fikr yuritishi uchun, uzatilgan dalillarni aloqadorligini belgilab olish uchun vaqt ajratilmaydi, pedagogik vaziyat yaratilmaydi. Shu sababli, innovatsiyaviy ta'lim, an'anaviy ta'lim tarzidan ta'lim (2-jadval) oluvchilarni mustaqil ravishda mavzu yuzasidan ma'lumotlarni izlash, ularni jamlash va sharhini amalga oshirib, bo'lib o'tadigan ta'limiy munozaraga tayyor turishlari shart ekanligi jihatidan amaliy mazmun kasb etadi.

2 - jadval.

Innovatsiyaviy ta'lim tarzining qamrovi

T/R.	An'anaviy ta'lim tarzi:	Innovatsiyaviy ta'lim tarzi:
1.	Ma'ruza	Audio va video ma'ruzalar Radio va telema'ruzalar Eleksiyalar, ya'ni elektron ma'ruzalar

Kommunikatsiya asosida “ko‘p kishi ko‘p kishiga” ta'limiy metodidan foydalanishda o'quv jarayonining barcha a'zolari o'zaro faol munosabatda bo'lishi ta'minlanishini taqozo etadi. Bu metodning mohiyati, telekommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtiruvchilar sonini ko'payishi natijasi hisobidan ta'minlanadi. Bilim olish manbai sifatida faqatgina professor-o'qituvchilar emas, balki ta'lim oluvchilarning o'zlari ham qatnashib, bir-birlariga o'quv materiallarni o'zlashtirish jarayoniga safdosh-murabbiy ko'rinishda amaliy yordam beradilar. Bu hamkor ta'lim jarayonini samarali kechishini ta'minlash uchun xizmat qilib, ta'lim olish maqsadida “Biz”, ya'ni jamoaviy tarzda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishni ta'minlaydi.

Ta'limiy maqsad sari kompyuter vositasida aloqaga kirish, bahs, modellashtirish, rolli o'yinlar, munozarali guruhlar, aqliy hujum, proektiv guruhlar kabi ta'limiy metodlardan foydalanish uchun qulayliklar yaratib, uni strukturaviy o'ziga xosligini 3-jadvalda keltirib o'tamiz.

3-jadval.

Inovatsiyaviy ta'limning strukturaviy o'ziga xosligi

T/R.	Ta'limiy munosabatlar:	Ta'lim texnologiyalari:
1.	Ta'lim oluvchi – Ta'lim beruvchi – Ta'lim oluvchilar	Sinxron va asinxron audio, audiografiyaviy, video va kompyuter konferensiyalari

Bu metodning rivojlanishi o'quv-jamoaviy munozara va konferensiyalarni o'tkazish bilan bog'liq bo'lib, audio, audiografik va videokonferensiya kabi texnologiyalar innovatsiyaviy ta'limda bu metodlarning faol rivojlanishiga olib keldi. O'quv jarayonida kompyuterli konferensiyalar alohida o'rin tutib, har bir ishtirokchini sinxron va asinxron tartibda yozma xabarlar bilan ayirboshlashni ta'minlash

jihati bilan didaktik qiymat kasb etadi. Shu sababli, innovatsiyaviy ta'lim muhitini rivojlantirish ta'lim sifatini ta'minlash uchun xizmat qilishini inobatga olib, uning ayrim jihatlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- ta'lim mazmuni yangi texnologiyalar asosida rivojlanadi;
- ta'lim muhiti interfaol tarzda rivojlanadi;
- ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning faolligi rag'batlantiriladi;
- ta'lim oluvchilarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv jarayoni tashkil etiladi va moslashtiriladi.

Mazkur o'z navbatida ta'lim sifatini ta'minlash uchun xizmat qilishini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Innovatsiyaviy ta'limning mazmuni zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari asosida rivojlanib, funktsionalligi jihatidan:

- ta'lim mazmunini shakllantirish va tizimlashtirish uchun;
- ta'lim mazmunini tarkibiy xossalarini aloqadorligini ta'minlash uchun;
- turli shakldagi ma'lumotlarni ta'limda qo'llash uchun;
- ta'lim mazmunini modulligini ta'minlash uchun;
- o'quv kurslarni dars(mavzu)lar majmuasi sifatida namoyish etish uchun;
- dars jarayonini belgilab olishni ta'limiy harakatlar tizimi ko'rinishiga ega bo'lishini ta'minlash uchun;
- ta'limiy materiallarni ishlab chiqishini bosqichligini (navbatma-navbat) ta'minlash uchun;
- o'quv materiallarini ta'lim oluvchilarga moslashtirish uchun;
- ta'lim mazmunini turli akademik guruhlariga (mualliflar, metodistlar va b.) moslashtirish uchun;
- o'quv materiallarini o'rinli qo'llash uchun;
- kasbiy munozara va mubohasalarni ta'lim maqsadi yo'lida foydalanish kabilar uchun xizmat qiladi.

Shu sababli, innovatsiyaviy ta'lim faoliyat sifatida, an'anaviy ta'limiy faoliyatdan quyidagi mazmundorligi bilan ajralib turadi:

Birinchidan, texnologik asoslarning tez rivojlanishi natijasida ta'limiy kurslarni ishlab chiqish murakkablashadi. O'qituvchidan maxsus malaka va usullarga ega bo'lishni taqozo etadi. Boz ustida, zamonaviy axborot texnologiyalari ishlab chiqiladigan o'quv materiallarga bir qator qat'iy talablarni qo'yadi. Chunki u materiallardan foydalanish ochiq tarzda bo'lgani uchun boshqa o'qituvchi va mutaxassislar o'quv materialning sifati, tuzulishi, ta'lim pirinsiplarini o'zida mujassam etganligi haqida o'z munosabatlarini bildirishadi, bu o'z navbatida o'qituvchidan manbalarning ilmiyligini, yangiligini, isbot talab etmasligini ta'minlash uchun qo'shimcha ta'limiy harakatlarni amalga oshirishni talab etadi.

Ikkinchidan, zamonaviy pedagogik jarayonni o'ziga xosligi shundaki, an'anaviy ta'lim jarayonida asosiy rol ni o'qituvchi bajarsa-da, zamonaviy pedagogik jarayonda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish davomida barcha "og'irlik" ta'lim oluvchi (talaba) zimmasiga tushadi. U, ta'lim muhitini rivojlanish nuqtasini tanlab, shaxsiy o'quv jarayonini belgilab (tuzib) oladi.

Ko'rinib turibdiki, bu jarayonda o'qituvchining vazifasi ta'lim oluvchini (talabani) o'quv faoliyatida ko'maklashishdan iborat, ya'ni ta'limiy ma'lumotlar oqimidan, mavzuga taalluqli bo'lganlarini tanlab olish, ularni saralash va o'zlashtirishni ta'minlashdan iborat. Shuning uchun o'qituvchining aynan shu funksiyasini alohida belgilash uchun fasilitator (facilitator - ta'lim olishga ko'mak beruvchi, yordam beruvchi, yengillashtiruvchi) tushunchasidan foydalanish mumkin.

Uchinchidan, an'anaviy ta'limiy muhitga qaraganda, zamonaviy ta'limda o'qituvchining ta'lim oluvchi (talaba) bilan aloqasi bir vaqtning o'zida barcha ta'limiy guruh a'zolari bilan kechib, faol hamkorlik, qayta aloqadorlik ta'minlanib, ta'lim davomida alohida ta'lim oluvchilar bilan aloqadorlik kamaygan darajada ta'minlanadi. Mazkur xossani, pedagogik-psixologik ahamiyati shundaki, ta'lim oluvchilarga uzatilayotgan ma'lumot jamoaviy tarzda idrok etilib, tushunarli bo'lmagan, to'liq bo'lmagan yoki ochiq qolgan masalalar ham jamoaviy tarzda muhokama etiladi. Buning evaziga, ma'lumotni mustahkamlash oson kechadi. Bu o'z navbatida, o'qituvchidan maxsus pedagogik-psixologik va zamonaviy axborot texnologiyalariga oid qo'shimcha tayyorgarlikka ega bo'lishni taqozo etadi.

To'rtinchidan, ta'lim jarayonida o'qituvchini an'anaviy vazifalari, ya'ni: -tarbiya berish, duyoqarashni shakllantirish, hayot yo'lini tanlashni o'rgatish, madaniylashtirish, o'zini o'zi anglashni o'rgatish, "Men"ini shakllantirish, kasbga tayyorlash, o'zini nazorat qilishni o'rgatish, rag'batlantirish, motivlashtirish, nasihat berish, muloqotga tayyorlash (kasbiy), o'zini tartibga keltirishni o'rgatish, tasalli (terapevtik) berish, bilim berish, qadriyatlarini shakllantirish (shu jumladan kasbiy), maqsadni

shakllantirishni o'rgatish va unga erishishning ma'qul yo'llarini belgilab berish kabilar yanada son va sifat jihatlarini bo'yicha kengayadi. Bunda fasilitator, tyutor (o'quv kurslarini interfaol tarzda yetkazuvchi), invigilator (ta'lim natijalarini nazoratini amalga oshiruvchi, test, imtihonlarni o'tkazishni tashkil etib, o'tkazuvchi mas'ul) kabilarni alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Ko'rinib turibdiki, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim berishda, kompyuter texnologiyalari o'qituvchini pedagogik jarayondan siqib chiqarish uchun emas, balki uning funksiyalarini kengayishi, mas'uliyatini oshirishi, ta'lim sifatini yuqori darajada ta'minlash uchun vosita sifatida qo'llanilar ekan.

Beshinchidan, zamonaviy ta'lim jarayonini samarali kechishini ta'minlash uchun, o'qituvchi qo'shimcha ta'limot va bilimlardan xabardor bo'lishi lozim. Ta'lim talabidan kelib chiqqan holda, ya'ni modullikni ta'minlash maqsadida ularni uchta guruhga ajratish mumkin:

- *birinchi guruh*, aniq mutaxassislik darajasida kasbiy majburiyatlarni muvaffaqiyatli bajarishini ta'minlovchi bilimlar (layoqat (kompetensiya));

- *ikkinchi guruh*, mehnat bozoridan joy egallash uchun, axborotlashgan jamiyatning talabidan kelib chiqqan holda xususiyashtirilgan axborot texnologiyalari va axborot tizimlari haqidagi bilimlar (axborot texnologiyalari sohasida layoqat (kompetensiya));

- *uchinchi guruh*, ta'lim oluvchilarni (talabalarni) o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun (yosh, jins, individual rivojlanish, psixik jarayonlar, psixik holat, ijtimoiylashuv, stress, pedagogik jarayonni boshqarish psixologiyasi, pedagogik takt va b.) pedagogik-psixologik bilimlar (layoqat (kompetensiya)).

Umuman, ta'lim berish faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning kasbiy layoqatini (kompetensiyasini) ta'minlash milliy taraqqiyotimizni ma'naviy asosi hisoblanib, aniq shaxs, kasbiy muhit, yoshlarimiz kamoloti va jamiyatning ravnaqini ta'minlab, mustaqil vatanimiz taraqqiyoti uchun amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1995. – 427-bet.
2. Джумабаев Ю.Д., Аликулов Х.А. Этические Воззрения мыслителей Средней Азии и Хорасана в IX - XV вв. – Т.: «Фан», 1992. – С. 86.
3. Ахмедов А. Мировоззренческие проблемы устного творчества. Автореф... дис... д-ра... филолог... наук. – Т., 1991 – С.36.
4. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989. – 5-11 betlar.
5. Кузьмина Н.В. Понятие «педагогическая система» и критерии ее оценки// Методы системного педагогического исследования. – Л., 1980. – С. 49.
6. Samarov R.S. Axborotning psixologik xavfsizligi (uslubiy qo'llanma). – Toshkent: Universitet, 2015. – 67-bet.

А.И. Инатов, А.Н. Абдуллаев ИННОВАЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ И ЕГО НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

В данной статье описывается инновационное обучение и его научно-методические аспекты: использование информационных технологий, индивидуализированное обучение, особенности применения инновационного обучения, содержание процесса и структурные особенности инновационного обучения, а также отличия содержания инновационного обучения от традиционных методов обучения.

Ключевые слова: обучение, воспитание, информационные технологии, телекоммуникационные инновационные технологии, корпоративное управление.

A.I. Inatov, A.N. Abdullayev INNOVATION EDUCATION AND ITS SCIENTIFIC – METHODOICAL SIDES

The following article describes innovation education and its scientific – methodical sides: usage of informative technologies, individualized education, characteristics of usage of innovational education, innovational education area, structural special characters of activities of innovation education with differing from traditional methods of education.

Keywords: education, upbringing, informative technologies, telecommunication innovation technologies, corporative management.

УДК: 372.881.1

**РАЗВИТИЕ АНГЛИЙСКОЙ РАЗГОВОРНОЙ РЕЧИ В МНОГОЯЗЫЧНОЙ АУДИТОРИИ
НА МАТЕРИАЛЕ PRESENT CONTINUOUS TENSE****Д.М. Мурадова***Самаркандский государственный университет, преподаватель,
e-mail: muradova_dilfuza88@mail.ru*

Аннотация. Настоящая статья исследует проблему развития устной английской речи в многоязычных узбекистанских школах на материале английского настоящего времени группы Continuous, а также демонстрирует метод объяснения этой видовременной формы глагола в сопоставлении с русским и узбекским языками.

Ключевые слова: многоязыковой, многонациональный, родной язык, иностранный язык, аналог, многообразие.

Включение Узбекистана в мировое сообщество ставит важную проблему владения иностранными языками. В связи с этим возрастает необходимость совершенного владения иностранными языками широкими слоями населения, а также необходимость обучения основам нескольких иностранных языков в системе школьного обучения. В узбекистанских школах иностранными языками, внедряемыми уже с первого года обучения, становятся, в основном, русский и английский языки в узбекских классах и узбекский и английский – в русскоязычных классах.

Актуальность темы статьи заключается в предпосылках решения проблемы развития языкового многообразия в нашем обществе и устранении трудностей в процессе преподавания двух и более иностранных языков. Отметим, что под языковым многообразием понимается поддержка и развитие языков глобального или межгосударственного общения.

В этой связи следует констатировать, что языковое образование в условиях узбекского многонационального, многоязыкового и поликультурного сообщества имеет свои специфические особенности в плане методической организации проблем обучения иностранным языкам.

Преподавание иностранных языков в национальной аудитории имеет свои характерные трудности, на которые обращал внимание еще Л.В.Щерба, указывая на наличие «местных сложных вопросов» [6, С. 3]. Эти специфические трудности заключаются в том, что при изучении иностранных языков учащиеся национальной аудитории испытывают влияние не только родного языка, но и других изучаемых в это время языков [2, С. 45].

Поэтому в качестве одной из мер коренного улучшения преподавания иностранных языков в узбекистанских национальных школах необходимо детально разработать вопросы методики объяснения ряда важнейших явлений, изучаемого языка в плане сопоставления не только с родным языком учащихся, но и создать соответствующие методические пособия.

Целью данной статьи является исследование методов формирования навыков английской устной речи на материале настоящего времени Continuous в условиях узбекистанской многоязычной национальной школы в процессе обучения учащихся английскому языку.

Предметом исследования настоящей разработки является методика обучения навыкам и умениям устной английской речи при употреблении глагольных видовременных форм изучаемого языка.

Объектом исследования является процесс формирования и развития навыков и умений устной английской речи на базе видовременных форм английского глагола в условиях узбекистанской многоязычной школы.

Использование знаний, умений и навыков учащихся по родному языку при обучении иностранному способствует сознательному и прочному усвоению изучаемого иностранного языка [4, С. 74]. Преподаватели иностранного языка в этих школах строят свою работу, используя знания, умения и навыки учащихся по русскому языку, а не по родному даже в тех случаях, когда знания родного языка послужили бы более удобной опорой для понимания и усвоения изучаемого явления иностранного языка.

Естественно, знания учащимися русского языка оказывает большую помощь делу преподавания иностранного языка (в нашем случае английского) в узбекистанских национальных школах, так этот язык является не вторым, а третьим изучаемым языком для учащихся этих школ. Знание русского языка облегчает изучение английского языка тем, что учащиеся этих

школ приступают к изучению английского языка уже овладев основами русского языка и, следовательно, с более широким лингвистическим кругозором и языковой подготовкой [6, С. 22].

Установление идентичных явлений и подчеркивание дифференциаций не только в отношении к родному языку, но и к русскому увеличивает число смысловых связей в сознании учащихся, которые способствуют лучшему пониманию и более прочному усвоению изучаемого явления английского языка. Роль русского языка в обучении английскому еще более возрастет в будущем, когда будет осуществлена реформа системы образования с увеличением объема времени отведенного на изучении иностранного.

В этой связи следует отметить, что к сопоставлению с родным языком учащихся узбекистанцев нужно прибегать преимущественно в тех случаях, когда в русском языке нет аналогий для изучаемых явлений английского языка, а в родном – есть. Во всех остальных случаях, следует, проводить объяснение нового материала с использованием знаний, умений и навыков учащихся по русскому языку.

Здесь необходима дополнительная конкретизация того факта, что следует избегать всякого констатирования явлений, как с русским, так и родным языком (в нашем случае узбекским) в тех случаях, когда прежние знания учащихся по самому изучаемому языку, могут служить лучшей опорой при объяснении нового материала.

Например, при объяснении большинства предлогов английского языка в узбекистанских школах очевидна целесообразность использования знаний учащихся по русскому языку, а не по узбекскому, поскольку русский язык располагает соответствующими предлогами, тогда как узбекском языке вовсе не присуща категория предлога как части речи.

Объяснение предлогов английского языка в сопоставлении с их эквивалентами в узбекском языке, т.е. соответствующими падежными аффиксами было бы менее рациональным с методической точки зрения, так как это потребовало бы больше усилий и времени для их усвоения из-за сложности взаимоотношений между способами выражения пространственных отношений в английском и узбекском языках [1, С. 104].

И, наоборот, при объяснении большинства временных форм английского глагола целесообразнее использовать знания учащихся по узбекскому языку, поскольку в глагольных системах английского и узбекского языков имеются идентичные формы, выражающие дифференциальные признаки временных отношений.

Так, например, работая над объяснением формы Present Continuous (Progressive), учителям узбекистанских школ следует проводить предварительное сопоставление дифференциальных признаков этого временного плана с таковыми в узбекском языке, а в процессе урока с помощью специально подготовленных таблиц парадигм глаголов показать совпадающие элементы на этапе презентации только затем подводить учащихся к самостоятельному выводу об однотипности способов образования и сходства семантики так называемых продолженных (процессуальных) времен в английском языке и соответствующих им текущих времен в их родном языке.

После такого приема необходимо выполнение упражнений на условный перевод предложений с узбекским языком. Причем необходимо указать учащимся на употребление в узбекском языке такого же порядка слов, что и в английском, т.е. на употребление вспомогательного глагола перед смысловым. Такой подход непременно заинтересует и учащихся, и они легко выделяют сказуемое в сопоставляемых парах и определяют сходство их внешнего структурного оформления:

Узбекский язык	Английский язык
Мен хат ўқияпман.	I am reading a letter
У хонада ишлапти.	He is working in the room

Порядок слов в данных узбекских предложениях можно подставить полностью аналогично их английским эквивалентом, что может еще глубже прояснить картину без особого изменения смысловой нагрузки данных структур.

Таким образом, путем установления аналогий в сопоставляемых языках, достигается большая экономия времени и максимальная доступность содержания объясняемого языкового материала.

В этой связи возникает вопрос, как же проводить сопоставление и каким образом соотнести изучаемое явление с аналогичным явлением в узбекском языке учащихся в тех

случаях, когда в нем нет специальных терминов для обозначения этих явлений и когда у учащихся нет соответствующих теоретических знаний о них [3, С. 137].

Наиболее экономным и рациональным способом объяснения в таких случаях является практическое сопоставление сходных фактов – иностранного и родного языков на конкретных примерах или с помощью таблиц путем указания учащимся на семантическую близость дифференциальных признаков сравниваемых форм в данных примерах, на сходство или однотипность их структурного оформления, а также на специфические черты, отличающие их друг от друга.

В конце такого объяснения можно дать учащимся в качестве обобщения правило по изучаемому материалу, но основной для осознания данного материала всё же будут те смысловые связи, которые возникли у учащихся в результате непосредственного сопоставления конкретных примеров в двух языках. Поэтому, наряду с правилом, выражающим сущность изучаемой английской формы целесообразно давать учащимся выучить в качестве образца краткие примеры с соответствующими явлениями в двух языках.

Если учащимся трудно сформулировать правило, то достаточно, чтобы они назвали изучаемое явление на английском языке и привели эти образцовые примеры как доказательство того, что они правильно поняли изучаемый материал. Время, которое тратится на усвоение трудных определений и формулировок, с успехом можно использовать на упражнения, на практическое употребление изучаемого явления в речи, следовательно, на развитие английской речи. Такое практическое сопоставление с помощью таблиц, упражнений, переводов будет способствовать достижению практической направленности в объяснении грамматического материала.

В цикле учебников Т. Б. Клементьевой и Б. Бонк сначала вводится Present Simple, а затем Present Continuous (Progressive). Разные авторы русских учебников английского языка по-разному толковали проблему о последовательности введения временных форм, ссылаясь на непреодолимые порой трудности для их различия и употребления русскими учащимися в связи с отсутствием в их родном (русском) языке аналогичных форм. Поэтому, последовательность введения временных форм, данная в ныне действующих учебниках устраняет смещение Present Continuous и Present Indefinite и, следовательно, способствует лучшему их запоминанию.

Что же касается последовательности объяснения английских видовременных форм в узбекистанских школах, то здесь данная проблема не требует расстановки акцентов, поскольку многие видовременные формы английского глагола, в том числе Present Simple и Present Progressive имеют аналоги в родных языках узбекистанских национальных школ как по значению, так и по форме.

В этом ракурсе возможны и другие варианты, которые исходят до некоторой степени из самой системы временных форм английского глагола. Было бы правомерным введение вначале Present Progressive, а затем Present Simple приемами контракции дифференциальных признаков данных форм времени плана настоящего, поскольку такой подход обеспечить возможность исключения смещения форм при презентации и употреблении, а возможность использования естественной наглядности и классной обстановки (действенно динамической наглядности) при обучении Present Progressive будет способствовать повышению активности учащихся на уроке и их интереса к языку с самого начала обучения английской видовременной системе.

На основании вышеизложенных соображений, можно сделать вывод о том, что объяснение грамматики английского языка в узбекистанских национальных школах целесообразно и правомерно строить с учетом общей подготовки учащихся, т.е. их теоретико-практических знаний как по русскому языку, так и по их родному узбекскому. Поэтому, основной задачей учителя при подготовке объяснений той или иной временной формы английского глагола заключается в том, чтобы путем сопоставительного анализа определить понятийное содержание этой формы относительно соответствующих форм узбекского языка учащихся, а также выявить аналогии и дифференциации в структурном оформлении сопоставляемых форм.

Литературы

1. Азаев Х. Г. Английский язык в многоязычной аудитории (некоторые проблемы морфологии). // В сборнике материалов научно-методической конференции. – Махачкала, 1990. – С. 102-109.

2. Барсук Р. Ю. Основы обучения иностранному языку в условиях двуязычия. – Москва: Высшая школа, 2000. – 145 с.
3. Гурвич П. Б. Осуществление мышления средствами национальных языков и его значение для методики. // Сборник статей Воронежского ун-та, 2001. – С.134-145.
4. Ильясов И. О. К вопросу о переносе иноязычных (речевых грамматических) навыков в условиях билингвизма // В сборнике Иностранные языки в школах Узбекистана. – Махачкала: Дагучпедгиз, 1993. – С.73-82.
5. Леонтьев А. А. Психологические единицы и порождение речевого высказывания. – Москва, 1999. – 114 с.
6. Щерба Л.В. Преподавание иностранных языков в средней школе. – Москва: Изд-во АПН, 1947. – 342 с.

Д.М. Мурадова

**PRESENT CONTINUOUS TENSE
МИСОЛИДА КЎПТИЛЛИК
АУДИТОРИЯДА ИНГЛИЗ ТИЛИДА
СЎЗЛАШУВНИ РИВОЖЛАНТИРИШ**

Мазкур мақола ҳозирги замон Continuous Tense мисолида кўптиллик ўзбек мактабларида инглиз тилида сўзлашувни ривожлантириш муаммосига ҳамда инглиз феълининг ушбу замонни рус ва ўзбек тиллар билан қиёслаш методига асосланган ҳолда ўргатиш назариясига бағишланган.

Kalit soʻzlar: кўптиллик, кўпмиллатлик, она тили, чет тили, аналог, турли хил.

D.M. Muradova

**DEVELOPMENT OF ENGLISH SPEAKING
IN MULTILINGUAL AUDITORY ON THE
MATERIAL OF PRESENT CONTINUOUS
TENSE**

The present article investigates the problem of development of English speaking in multilingual Uzbekistan schools on the material of English Present Continuous Tense and demonstrates method of explanation of this tense form of a verb in comparison with the Russian and Uzbek languages.

Keywords: multilingual, multinational, mother tongue, foreign language, analogue, diversity.

UDK: 376.3

**MAKTABGACHA YOSHDAGI KO'RISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR
NUTQINING O'ZIGA XOSLIGI**

N. Z. Abidova

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, katta ilmiy xodim-izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqola tiflopedagogika fani va amaliyotining dolzarb muammosi - ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining o'ziga xosligi yoritilgan. Maqolada muammoga oid tadqiqot ishlarning qisqa ta'rifi va tegishli xulosalar keltirilgan. Shuningdek, katta maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit soʻzlar: nutq, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar, sensor tajriba, eksperimental tekshirish.

Kishilarni mukammal, yetuk inson bo'lib shakllanishida aqliy qobiliyat va nutqiy malakalar katta o'rin tutadi. Bola nutqining shakllanishi uni atrof-muhit bilan yaqinroq tanishishga asos bo'ladi. Tor ma'noda nutq – til normalarini egallamoq, ya'ni talaffuz, urg'u, so'z ishlatishni, gap tuzish qonunlarini yaxshi bilmoq, shuningdek tilning tasviriy vositalaridan turli sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq foydalana olish, ifodali o'qish madaniyatini egallash demakdir. Nutq madaniyatini egallash orqali kishi yetuklik sari bir qadam tashlagan bo'ladi. Insoniyat umummadaniyatning katta tarkibiy qismini nutq madaniyati tashkil etadi. Madaniyat nutqining fazilatlari deyilganda, uning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi, ifodaviyligi, boyligi, sofligi kabilar tushuniladi. Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy (870-950) to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarishda mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo'rliigi haqida shunday deydi: "Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va javob berishga kelganimizda, bu haqida bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar", – deb hisoblayman. Ma'lumki, nutq hodisalari alohida-alohida hodisalar emas, balki o'zaro chambarchas bog'langan hodisalaridir. Shuning uchun, nutqning turlari sathlarini fonetika, lug'at, morfologiya, sintaksisni alohida-alohida o'rganish, shu sath birligining amaliy qo'llanishi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni mukammallashtirish bilan birga olib borilishi kerak.

Ma'lumki, bola nutqni ijtimoiy va biologik omillar asosida egallaydi, ana shu omillar birining buzilishi yoki yetishmay qolishi nutq buzilishiga olib keladi. U yoki bu darajada nutqi buzilgan bola tevarak-atrofdagilarning sust, korreksion pedagogik ta'siriz bolalar nutqining har taraflama ruhan, jismonan rivojlanishini ta'minlash, maktabga tayyorlash mumkin emas.

S.Y.Rubenshteyn nutqning ahamiyati haqida quyidagi fikrni bildiradi: "Filoginezda bo'lgani kabi ontogonezda ham nutq dastlabki aloqa vositasi, shuningdek, nomlash anglash vositasi bo'lgan bo'lsa, keyinchalik nutq shunday qurolga aylandiki, uning yordamida inson o'z fikrlarini bayon etadi".

M.B.Mejekovskaya fikricha, nutq inson faoliyatining barcha ruhiy ko'rinishlariga jalb qilingan: uning idroki, xotirasi, tafakkuri, tasavvurini axloqiy qarashlarining barchasi "nutqlashgan"dir. Ularning nutqiy rivojlanishini erta korreksiya qilish – umumiy va maxsus pedagogikaning muhim muammosidir.

Nutq bolalarning har tamonlama kamol topishida muhim o'rin tutadi. Bola nutqining to'liq shakllanishi asosan 6 yoshga to'g'ri keladi. Bu yoshda nutqi normal rivojlanayotgan bola nutqdagi barcha tovushlarni, talaffuz etishni, so'zlarni o'z o'rnida qo'llashni, o'z fikrini mantiqiy to'g'ri bayon etishni mukammal egallaydi. Lekin ba'zi bolalarda nutq shakllanishida o'z tendoshlariga nisbatan orqada qolish, nutq buzilishlarining turli ko'rinishlari uchraydi. Har bir nutq kamchiligi o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib, u bola rivojlanishiga turlicha salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq buzilishlariga ega bolalarning nutqi ko'pincha normal rivojlanishdan orqada qolishi, aqliy-hissiy sferalarini takomillashmasligiga olib keladi; bolalarni maktabga tayyorlashda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bolalarda uchraydigan nutqiy nuqsonlar turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ba'zi bolalarda nutqning tovush tomonida kamchilik bo'lsa, boshqalarda esa nutqni to'liq rivojlanmasligi yoki nutq tempi va ritmida kamchiliklar uchraydi.

Ravon va yaxshi rivojlangan nutq shaxsning to'laqonli muloqoti va rivojlanishining vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutq nuqsonlarini korreksiyalash bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllantirish masalasi hozirgi zamon logopediyasida muhim o'rin egallaydi, turli nutq nuqsonlarining holati va uni rivojlantirish metodikasi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, bolalarda nutqning barcha tomonlarini rivojlantirish va kamchiliklarini korreksiyalashda eng samarali maktabgacha yosh hisoblanadi. Ko'rish nuqsoniga ega bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasining dasturini o'zgartirishdagi qiyinchiliklari nutqning yetarli darajada rivojlanmaganligi, shu jumladan, lug'atning hajmi va sifati bilan bog'liq bo'ladi.

Ko'rish nuqsoniga ega bolalar nutqining shakllanishi uning bilish faoliyatining rivojlanishida katta ahamiyatga ega, chunki so'z, uning ma'nosi faqatgina nutqning emas, balki tafakkurning ham vositasidir.

Respublikamizda ko'rish nuqsoniga ega bolalarning nutq nuqsonlarini aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha maxsus ilmiy izlanishlar olib borilmaganligi, o'zbek tilida ko'rish nuqsoniga ega bolalarni og'zaki nutqining rivojlantirish bo'yicha metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalarining yetarlicha emasligi muammoning dolzarbligini belgilab beradi.

Defektologiya fani ko'rishdagi nuqsonlar bolalarning nutqiy rivojlanishida aks etishi to'g'risida materiallar to'planganiga qaramay, monokulyar xarakterdagi ko'rish patologiyasi bo'lgan bolalarda nutqiy rivojlanmaganlikning turlari va xususiyatlari haqidagi masala maxsus adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagan. Nutqiy malakalarni to'g'ri egallashning ahamiyati, shuningdek, zaif ko'radigan bolalarda nutqiy rivojlanmaganlikni korreksiyalash mexanizmlari va yo'llari haqidagi masalalarning yetarlicha ishlanmaganligi mazkur muammoning dolzarbligi to'g'risida so'z yuritish uchun asos bo'ladi.

Ko'rish patologiyasi bo'lgan bolalarda nutqning shakllanishi ko'radigan boladagidan ko'ra murakkab sharoitlarda kechadi. Bolalarda nutqning buzilishi va ko'rishdagi buzilishlar murakkab nuqson bo'lib, bunda nutqiy va ko'rishdagi kamchiliklar o'rtasida ma'lum aloqadorlik va o'zaro ta'sir kuzatiladi.

Tiflopedagog va tiflopsixologlar (L.S.Vigotskiy, T.P.Golovina, M.I.Zemsova, A.G.Litvak, L.I.Solnseva va b.) tadqiqotlarida aniqlanishicha, ko'rish nuqsoni tufayli tarbiyalanuvchilarning 30% dan ortig'ida nutqiy yetishmovchilik kuzatiladi [2,3,5,10]. L.S.Volkova, A.L.Lukoshevichene, S.A.Pokupneva, I.V.Pokupneva, I.V.Novichkova, Ye.V.Shlay va b. ishlarida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nafaqat nutqning yaxlit funksional tizim sifatidagi buzilishi bilan kechadigan tizimli buzilishlar (nutqning to'liq rivojlanmaganligi, fonetik-fonematik nutq kamchiligi), balki idrok, xotira, diqqat, tasavvur va mantiqiy fikrlash jarayonlari rivojlanishida og'ishlar ham kuzatilishi o'z tasdig'ini topgan. Shu sababli bunday bolalar sujetni mustaqil rejalashtirish, leksik-grammatik kategoriyalar bilan

mustaqil operatsiyalash, nutqiy materialni grammatik rasmiylashtirishda jiddiy qiyinchiliklarni his qiladi [8,9,10]. Shu sababli ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bog'lanishli monologik nutqqa (ya'ni, o'z fikrini aniq va izchil, mantiqiy tizimli va tugal, leksikadan foydalanishda va mazmunan aniq, grammatik rasmiylashtirishga ko'ra to'g'ri, mustaqil va erkin bayon qilish, jumalarni qurishga) o'rgatish korreksion-pedagogik jarayonda alohida o'rin tutadi.

Ko'rish idrokining buzilishi bolalarning sensor tajribani mustqil tarzda to'plashida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu esa nutqning psixik bazasi shakllanishini kechiktiradi. Sensor jarayonlarning past darajasi, o'z navbatida, saqlangan psixik funksiyalarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (L.S.Volkova, L.S.Vigotskiy, T.P.Golovina, L.P.Grigoreva, M.I.Zemsova, V.A.Kruchinin, A.G.Litvak, I.S.Morgulis, L.I.Plaksina, L.A.Rudakova, L.I.Solnseva va b.) [2, 3, 4, 5, 6, 7, 9]. Shu sababli ko'rish patologiyasi bo'lgan bolalarda nutqning shakllanishi ko'radigan bolalarnikidan murakkabroq sharoitlarda kechadi. Bolalarda nutqning va ko'rishning buzilishi murakkab nuqson bo'lib, ularda nutqiy va ko'rish nuqsonlarning ma'lum aloqa va o'zaro ta'siri kuzatiladi.

Nutqiy va psixik funksiyalarning shakllanmaganligi nafaqat bilish faoliyatining shakllanishiga ta'sir o'tkazadi, balki zaif ko'radigan bolalarning xususiyatlari: ehtiyojlar dinamikasida, ularni qondirishning qiyinligi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni (perseptiv qobiliyatlarining yetarlicha rivojlanmasligi); hissiy tasavvurlar sohasidagi cheklanganlik bilan belgilangan qiziqishlar doirasining torligi; nazoratni talab qiladigan faoliyat turlariga qobiliyatlarining sustlanishi; ichki holatlarning tashqi namoyon bo'lishi cheklanganligi va boshqalarni keltirib chiqaradi.

Ko'rish nuqsonlarining mavjudligi xarakter qirralarining (ayniqsa, emotsional-irodaviy sohada) shakllanishiga salbiy ta'sir qiladigan sharoitlarning yuzaga kelishiga ko'maklashadi, natijada egotsentrizm, mustaqillikning yo'qligi, ishonuvchanlik, negativizm, qiziquvchanlikning yo'qligi va b. shakllanadi.

Ko'rish faoliyatining buzilishi ijtimoiy aloqalarni qisqartirib, makonda mo'ljalga olishni va faoliyatning ma'lum turlari bilan shug'ullanishni cheklab, atrof voqelikni bilishda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'pchiligida aloqalarning nutqiy tizimlari ko'rgazmali obrazlarga yetarlicha tayanchsiz shakllanadi, shu sababli so'zlarning muayyan ma'nolari qashshoqlashishi, zarur so'z zaxirasining yo'qligi, nutqning mazmun tomoni yetarlicha rivojlanmasligi kuzatiladi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda biz eksperimental tekshirish ishlarimizni o'tkazish davomida maktabgacha yoshdagi olti yoshli bolalar mustaqil nutqining xususiyatlarini o'rganishga e'tiborni qaratdik.

Bolalar og'zaki nutqini tekshirishda biz O.N.Usanova, G.V.Chirkina, L.E.Levina, A.V.Yastrebova, L.R.Mo'minova va M.Yu.Ayupovalarning bolalar nutqini tekshirish metodikalariga asoslangan eksperimental tekshirish ishlarini olib bordik [1].

Eksperiment individual shaklda olib borildi. Bunda bola bilan emotsional muloqotga kirishish uchun suhbatdan foydalanildi. Shuningdek, anamnestik ma'lumotlar to'plandi, har bir bolaning psixologik-pedagogik tavsifnomasi haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun tarbiyachi va logoped bilan suhbat o'tkazildi.

Ta'kidlovchi eksperimentda taqiqotning vazifalariga mos keluvchi mustaqil kichik ijodiy hikoya tuzish metodidan foydalanildi.

Mustaqil kichik ijodiy hikoya tuzish. Bolaning oldiga ixtiyoriy tartibda ma'lum sujetni aks ettiruvchi 3-4 ta rasm qo'yiladi. So'ng bolaga rasmlarni to'g'ri ketma-ketlikda qo'yish taklif etiladi. Shundan so'ng rasmlar asosida hikoya tuzish so'raladi.

Jihoz: sujetli rasmlar. Ta'kidlovchi eksperimentda quyidagi mavzularga oid predmetli rasmlardan foydalanildi:

1-to'plam: bolalar maydonchasida;

2-to'plam: kun tartibi;

3-to'plam: mavsumiy o'zgarishlar (bahor);

4-to'plam: oshxonada.

Tekshiriluvchilar tomonidan topshiriqlarni bajarilishi 4 ballik tizimda baholandi:

4 ball – bola barcha topshiriqlarni to'g'ri va mustaqil bajardi.


3 ball – bola topshiriqni bajarishda yakka xatolarga yo'l qo'ydi, yordamchi savollar yordamida to'g'riladi.

2 ball – ayrim hollarda topshiriqning mazmunini tushuntirish talab qilinadi, bola topshiriqlarni yordam asosida, sekinlashgan tempda bajardi.

1 ball – topshiriqning mazmunini tushuntirish talab qilinadi, bola topshiriqlarni yordam asosida, ya'ni, xatolarni to'g'rilash, qayta urinishlar yordamida bajardi. Bolaning javoblari aniqlik kiritishni talab etadi.

0 ball – bola yordamdan foydalana olmadi, to'g'ri javob bera olmadi

Ta'kidlovchi eksperimentni Hamza tumani ko'zi ojiz bolalar maktab-internatining maktabgacha ta'lim bo'limi tarbiyalanuvlari bilan olib bordik va quyidagi natijalarga erishdik.



Yuqoridagi diagrammaga ko'ra, berilgan 1-,3-,4-to'plam topshiriqlari bolalarga biroz murakkablik qildi, ya'ni barcha topshiriqlarni to'g'ri va mustaqil bajargan bolalar kuzatilmadi. Tekshiriluvchilarning 33 %i yuqoridagi to'plam topshiriqlarini bajarishda yakka xatolarga yo'l qo'yidilar va ushbu xatolarini yordamchi savollar yordamida to'g'riladilar. 1-, 4-to'plam topshiriqlarini bajarish jarayonida topshiriqning mazmunini tushuntirish talab qilib, topshiriqlarni yordam asosida, sekinlashgan tempda bajargan bolalar soni bola 33 %ni tashkil etdi.

3-to'plam topshiriqlarini bajarish jarayonida 50 % tekshiriluvchi bahor faslining o'ziga xos tabiatini tasvirlashda topshiriqning mazmunini to'la tushunmasdan, topshiriqni yordam asosida, sekinlashgan tempda bajardi. Tekshiriluvchilarning 17% yordam asosida, ya'ni, xatolarni to'g'rilash, qayta urinishlar yordamida bajardi.

Tekshiriluvchilarga kun tartibi (2-to'plam) mavzusiga oid kichik ijodiy hikoya tuzish topshirig'i yaqin bo'lgani bois uni yaxshi bajardilar, ya'ni 17% tekshiriluvchi topshiriqni to'g'ri va mustaqil bajardi, 33 % topshiriqni bajarishda yakka xatolarga yo'l qo'yishdi va o'z xatolarini yordamchi savollar yordamida to'g'riladi, 50% topshiriqni bajarishda yordam unumli foydalangan holda, sekinlashgan tempda, xatolarini to'g'rilash yo'li bilan bajardi.

Yuqorida bayon etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida yordamdan foydalana olmagan, to'g'ri javob bera olmagan bolalar kuzatilmadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi ko'rishda nuqsonga ega bolalar nutqini shakllanganlik darajasini aniqlash bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajara olmasligini kamchilik sifatida o'rganmadik. Bolani bunday vazifalarni bajarishga maxsus o'rgatish zarur. Ko'rish nuqsonga ega bolalar nutqini rivojlantirishning mazmuni, maxsus usul va vositalarini o'z ichiga qamrab oluvchi korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim tizimi asosida samarali amalga oshirish mumkin.

Ko'rish nuqsonga ega maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarini yosh, kompensator va individual o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib nutqini rivojlantirishga majmuaviy (kompleks) yondashuv maxsus maktabgacha ta'lim muassasi sharoitida korreksion-pedagogik jarayon samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda zaif ko'ruvchi bolalarning nutqini o'zaro muloqotlar orqali rivojlantirishda shaxsiy munosabatlarni hisobga olgan holda pedagog va bolalar guruhi (pedagog-bola, bola-bola) faoliyat ko'rsatishlari zarurligi ma'lum. Chunki guruhdagi faoliyatlar bola shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zaro muloqot zaif ko'ruvchi bolalarda fikr almashish va so'zlashuv malakasini shakllantirishga imkon yaratadi. Ta'limning interfaol metodlari, o'quv xonasida logoped bilan o'quvchi o'rtasida hamkorlik muhitini yaratish uchun real imkoniyat beradi. Interaktiv metodlarga asoslangan texnologiya bilan qurollangan logoped ijodiy hammualliflik tartibida ishlash, asosli o'zgartirishlarga tayyorgarlik va

mas'uliyatli qaror qilishga tayyorgarlikka o'rganadi. Zero, ta'limning interfaol metodlari defektologga: bolalarning mashg'ulot mavzusiga qiziqishini ta'minlash; ta'limiy materiallarni yanada puxta o'zlashtirishga erishish; tanqidiy fikrlashni rivojlantirish; kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish; barcha tarbiyalanuvchilarni faol o'quv faoliyatiga jalb etish uchun sharoit yaratish; guruhda maqbul psixologik mikroiklimni ta'minlash va boshqa imkoniyatlarni beradi.

Adabiyotlar

1. Ayupova M.Yu. Logopediya. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati., 2007 y.
2. Волкова Л.С. Выявление и коррекция нарушений устной речи у слепых и слабовидящих детей. - М., 1991, С. 25.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь.-М., 1982. - Т. 2. – С. 5-361
4. Головина Т.Н. К вопросу об особенностях процесса понимания у слабовидящих школьников 1-класса.- Л., 1995, – С. 133-144.
5. Григорьева Г.В. Особенности формирования и развития средств общения у дошкольников с нарушениями зрения // Дефектология. 1996. №4. С. 84-89.
6. Литвак А.Г. Психология слепых слабовидящих. - М., 2006. – С. 336.
7. Моргулис И.С. Теоретические основы коррекционно-воспитательного процесса в младших классах школы слепых: Автореферт. канд. пед. наук. - М., 1984. – С. 30.
8. Mo'minova L.R., Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati., 2013. – 236 – 241 б.
9. Плаксина Л.И. Теоретические основы коррекционной работы в детском саду для детей с нарушением зрения. - М., 1998. – С. 262.
10. Психология воспитания детей с нарушением зрения / Под ред. Л.И. Солнцевой, В.З. Денискиной. - М., 2004. – С. 320.

Н.З. Абидова

ОСОБЕННОСТИ РЕЧИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ

Статья посвящена важной проблеме тифлопедагогической науки и практики - особенностям развития речи детей с нарушениями зрения. В ней приводится краткий анализ работ, посвященных проблеме и делаются соответствующие выводы, освещены методы и формы работы по развитию речи старших дошкольников.

Ключевые слова: речь, дети с нарушениями зрения, сенсорный опыт, экспериментальные методы.

N. Z. Abidova

THE PECULIARITIES OF THE SPEECH OF PRESCHOOL AGE CHILDREN WITH VISUAL IMPAIRMENTS

The article is devoted to the important issue of typhlitis pedagogical science and practice - features of speech development of children with visual impairments. It provides a brief analysis of the works devoted to the problem and makes appropriate conclusions, enlightens methods and forms of work on speech development of senior preschool children.

Keywords: speech, children with visual impairments, sensory experience, experimental methods.

UDK: 37.011.33

О'QUVCHINING ERKIN, IJODIY VA HAR TOMONLAMA RIVOJLANISHINI TA'MINLOVCHI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

D.A.Shayzakova

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchining erkin, ijodiy va har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi hamda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishni takomillashtirishda qo'llaniladigan texnologiyalar, ularning o'quvchilar mustaqil ishlash samaradorligini oshirish, ijod qilish va ko'nikma malakalarini mustahkamlash, bilimni xolisona baholash, o'quv materiallari mazmuni shakli va usullarini doimiy yangilab borish hamda malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatini doimiy ravishda oshirib borishni ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar yaratishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zi: bilim, ko'nikma, malaka pedagogik, axborot, modulli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan, hamkorlik.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'limni tubdan isloh qilish haqida gapirar ekan, shunday deydilar: ...ishonchim komil, agar bu islohatni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada biz hayotimizda ijobiy ma'nodagi samaraga erishamiz. Birinchidan, ijtimoiy siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi. Ikkinchidan, insonning hayotda o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi, uchinchi, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'linadi [1].

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”[2]da ta'lim muassasalarining moddiy-texnik va axborot bazasini zamonaviy talablar asosida shakllantirish, mustahkamlash va ularni takomillashtirish, o'quv jarayonlarini darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy tavsiyanomalar va zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan ta'minlash masalalariga alohida ahamiyat berilgan. Bularni hal etishda ta'lim sifatini oshirish va bu borada zamonaviy axborot, modulli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari kabilardan foydalanish, ular asosida o'quv mashg'ulotlari mazmunini muntazam yangilab, takomillashtirib borish alohida dolzarblik kasb etadi.

Axborot texnologiyalari o'quvchilarga axborotning noan'anaviy manbalariga kirib borish imkoniyatlarini ochib beradi, mustaqil ishlashning samaradorligini oshiradi, ijod qilish va turli kasb malakalarini mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar beradi. Mazkur texnologiyalar amaliy va laboratoriyaga oid bilimlarning samaradorligini oshirish, o'quvchilar bilimini xolisona baholashni amalga oshirish, o'zlashtirishni ko'tarish, axborot saviyasini kengaytirish, noyob asbob-uskunalarining o'rnini bosuvchi kompyuter modellaridan foydalangan holda mashg'ulotlar, laboratoriya ishlarini joriy qilish imkonini beradi.

O'qitishning axborot texnologiyalari yordamida: malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatini doimiy ravishda oshirib borish, o'qitishning faol uslublarini qo'llash, o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun zamonaviy avtomatlashtirilgan vositalar yaratish, o'qitishni individuallashtirish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini integratsiyalash, o'quv material mazmuni shakli va usullarini doimiy yangilanib borilishini ta'minlash, o'quv jarayonining axborot bilan ta'minlashining turli shakllarini yaratish va rivojlantirish, o'quvchilarning avtomatlashtirilgan test sinovidan o'tishlarini tashkil etish, ular faoliyatiga axborot texnologiyalar uslublari va vositalarini keng joriy etish uchun zamin yaratishga erishish mumkin.

O'quv mashg'ulotlarini olib borilishida modulli o'qitishga o'tish birinchi navbatda fan dasturlari mazmunini bu tizimda shakllantirish talab etiladi. Modulli o'qitish ta'lim mazmunining bloklarga mos tarzda tashkil etilishi, o'qitish shakllari va turlarini tanlash imkonini yaratish bilan davlat talablariga javob berishi mumkin. Bunda o'quvchilar taklif etilayotgan individual fan dasturlaridan qulay sur'atlarda mustaqil ishlash imkoniyatlarini oladilar. Modulni ishlab chiqishda uning mazmuni foydalanish uchun qulay va ko'rgazmali tarzda taqdim etilishi muhim hisoblanadi. Modulning samarali o'zlashtirilishi nafaqat mustaqil o'quv mashg'ulotlariga, balki qanday qilib ushbu ma'lumotlar uyg'unlashtirilganligiga bog'liq. Bu o'z navbatida har bir fan o'z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ma'lumot va bilimlarni to'plashni ta'minlaydi.

Modulli o'qitishda o'qituvchilarning quyidagi asosiy tushunchalarga e'tibor qaratishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Modul bu – pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi tushuncha. **Katta modul** – bu mavzulari bir-biriga o'zaro yaqin bo'lgan fanning bir bo'laki. **O'rta modul** – katta modul tarkibidagi mavzular. **Kichik modul** – mavzuning aniq bir masalasiga bag'ishlangan bir bo'laki.

Modulli o'qitish – modullar bo'yicha tuzilgan fan dasturlari asosida o'qitishni tashkil etishdir. Modul kurs mazmunini uch sathda qamrab oladi: to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan. Dastur materiallari bir vaqtning o'zida barcha ehtimol ko'rilgan kodlarda: rasm, test, ramzlar va so'z bilan berilishi mumkin.

Modul komponentlari – o'z ichiga aniq ifodaga ega bolgan o'quv maqsadi, axborotlar banki, o'qitish dasturi shaklidagi o'quv material, maqsadlarga erishish bo'yicha metodik qo'llanma, zaruriy malakalarni shakllantirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar, qo'yilgan modul maqsadiga qat'iy muvofiq keluvchi nazorat ishlarini oladi.

Modul bo'yicha materiallar tayyorlashda – o'quvchi bilimini nazorat qilish uchun testlar, individual ishlar uchun topshiriqlar, o'quv-uslubiy tarqatish materiallar, o'quv-ilmiy adabiyotlar ro'yxati, ishchi o'quv dastur kabilar inobatga olinadi.

Modulli o'qitishning afzalliklariga – fanlar, fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligi ta'minlanishi, har bir modul ichida va ular orasida o'quv mashg'uloti jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan muvofiqligi o'rnatilishi, fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi, o'quvchi bilimni o'zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi, o'quvchining zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng, o'qituvchi ayrim o'quvchilarga fanni individual o'zlashtirishni tavsiya etishi mumkin), axborotni siqib berish natijasida, o'qishni jadallashtirish, auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti strukturasini, ma'ruzaviy amaliy mashg'ulotlar, individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni optimallashtirish kiradi.

To'g'ri tashkil qilingan modulli o'qitish, o'qish vaqtini 30 foiz va undan ortiq tejash imkoniyatini beradi. Modulni samarali o'zlashtirish, o'qituvchi muammoli topshiriqlar to'plamini tuzish va ishlab chiqishga ham bog'liq. Topshiriqlar har qanday o'quv fani mazmunining asosiy tuzilmasi birligi hisoblanib, u o'quvchilar uchun amaliy vaziyatlar yechimini topish imkoniyatini beradigan nazariy material ko'rgazmasi sifatida ishtirok etadi hamda o'qib-biluv faoliyati natijalarini tahlil qilish, baholash vositasi bo'lib xizmat qiladi [3].

O'qituvchilarga o'quv mashg'ulotlarini modulli o'qitish asosida samarali tashkil etilishini ta'minlash uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- modulli o'qitish zamonaviy didaktik nazariyalarning rivojlanish dinamikasi asosida tashkil etilishi lozim. Chunki, bu uning o'ziga xos xususiyatlarini umumlashtirib, o'quv mashg'uloti jarayonini modulli o'qitish asosida tashkil etish yo'llari va uning mazmunini tanlashdagi turli yondashuvlarning muvaffaqiyatli uyg'unlashishiga imkon beradi;

- modulli o'qitish individual tabaqalashtirilgan o'quv mashg'ulotini tashkil etishning o'ziga xos yo'llarini ifodalash bilan amalga oshishi maqsadga muvofiq. Bunda o'quvchilarning o'quv mashg'ulotida bilish faoliyatini faollashtirish, ularda qiziquvchanlikni rivojlantirish va malaka, ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyati tug'iladi;

- modulli o'qitish mazmunining to'g'ri tashkil etilgan tuzilmasi va undagi topshiriqlar bayonining izchilligi, mustaqil ta'lim jarayonini uslubiy materiallar hamda bilimlarni o'zlashtirishni nazorat qilish, baholash tizimi bilan ta'minlanishini talab qiladi;

- modulli o'qitish o'quv mashg'uloti jarayonining o'quvchi talablari va individual imkoniyatlariga moslashishini nazarda tutadi;

- o'quv mashg'uloti jarayoniga modulli yondashuv maqsadlarning o'zgarishi, mashg'ulot mazmuni va bilish faoliyatini boshqarish yo'llarini talab qiladi, shu sababli modulli o'qitishning ba'zi bir didaktik kategoriyalardagi o'rin bilan aniqlash talab etiladi.

Modulli o'qitish mazmunini tanlashda quyidagi mezonlarga tayanish lozim: topshiriqlarning asosiy tarkibiy qismlari yaxlit ifodalanishi, o'quv mashg'ulotida ko'proq zarur bo'lgan, istiqbolli belgilarni tanlash, o'quvchilarning yoshiga, qiziqishiga bog'liq bo'lgan imkoniyatlariga mos kelishini ta'minlash, o'quv rejasida ajratilgan vaqtga muvofiq bo'lishi, mazmunni shakllantirishda xorij va respublika ilg'or tajribalarning qayd qilinishi, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik hamda uslubiy ta'minotiga ega bo'lgan mazmunga muvofiqligini ta'minlash va boshqalar.

Bugungi kunda o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish, ilm-fanning so'ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli, kasb-hunarli, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan barkamol shaxsni kamolga etkazish, ularning ongi va qalbiga milliy istiqloq g'oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish, bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish o'quv mashg'ulotlarida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. mazkur jarayonda bu texnologiyalarni qo'llash, avvalo, pedagogic munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chuki uni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik texnologiyalarning asosiylaridan biri bo'lgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi, o'quvchining rivojlanishi, uning o'ziga xos qobiliyatlarini va psixologik yo'nalishlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi [4]. Mazkur texnologiyada o'quvchining erkin, ijodiy va har tomonlama rivojlanishi asosiy maqsad qilib qo'yiladi. Bu texnologiya insoniylik psixologiyasi va pedagogikasining uyg'unligini namoyish etadi. O'qituvchining diqqat markazida mustaqil va ma'suliyat bilan qaror qabul qilishga qodir bolgan o'quvchi shaxsi turadi. U o'quvchi shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi. Bunda o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan shakllanishi va rivojlanishi uchun imkon beriladi, uning mustaqil o'qish, o'zligini faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, o'z amaliy faoliyatida sinab

ko'rish, yangi fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo'llarini qidirish uchun erkinlik berish uchun sharoit yaratiladi. Har qanday o'quvchi o'ziga xos xarakter xususiyatini faollashtirishga, namoyish qilishga intiladi.

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga – insonparvarlik, ya'ni o'quvchiga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash; hamkorlik, ya'ni o'qituvchi va o'quvchilar munosabatidagi tenglik; erkin tarbiyalash, ya'ni o'quvchiga uning hayot faoliyatini tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish kabi asosiy tamoyillar xos bo'ladi. Mazkur texnologiyaning kommunikativ asosi, pedagogik jarayonda o'quvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi. U o'quvchining aqliy qobiliyatlarini ochishga xizmat qiladi. Shaxsiy yondashishida har bir o'quvchini hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish; o'quvchiga yutuqni qo'llab-quvvatlovchi vaziyatlar yaratish, ya'ni o'qitish, qoniqish va xursandchilikni olib kelish; bevosita majburlashga yo'l qo'ymaslik, kamchiliklarga urg'u bermaslik; pedagogik jarayonda, o'quvchilarga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish kabilar birinchi navbatda zarur bo'ladi.

O'qituvchi mashg'ulot jarayonida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar (muammoli izlanish, tadqiqot, dialog, evristik suhbat, munozara guruhlarida ishlash)dan foydalanib, shunday shart-sharoitlarni yaratishi lozimki, bunung uchun o'quv materiallari mazmuni o'quvchini qiziqtiradigan, uning shaxsiy tajribasiga mos keladigan, fikrlashga undaydigan, ijodiy yondashgan holda qayta ishlangan bo'lishi lozim. O'qituvchi har bir o'quvchining bilim olishdagi xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olib, o'z-o'zini namoyon qila olishi kerak. Uning har bir o'quvchining xulqini, bajarayotgan faoliyatini kuzatib, ma'lumotlar bankini to'ldirib borishi va bu ma'lumotlardan shakllantirilgan o'quvchining tafakkuri, fanlarga qiziqishi, diqqati kabilardan ta'lim berishda foydalanishi ta'lim samaradorligini oshiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotining asosiy talablari quyidagilar: o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashga imkon beradigan o'quv mashg'ulotini tashkil etishning turli shakl va usullaridan foydalanish; mazkur jarayonda butun guruhning faolligini oshirish uchun muhit yaratish; o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin bildirishda, muammoli topshiriqlarni bajarishida turli usullardan foydalanish; ular faoliyatini natijaga erishish jarayoniga qarab xolisona baholash; o'quvchining qanday usulda ishlashini o'zi tanlashga erkinlik berish, o'quv mashg'uloti davomida boshqa o'quvchilarning ish usullarini tahlil qilish, samarali usullarni tanlash va o'zlashtirish; o'quvchi kamchiligini bo'rttirmaslik; past o'zlashtirish sabablarini aniqlash va ularni o'qituvchining shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish; uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi o'z ichiga quyidagi texnologiyalarni ham qamrab oladi:

- **shaxsga insonparvarlik yondashuvi:** bu texnologiya, avvalo, shaxsni insonparvarlik yondashuvi, psixoterapevtik yo'nalishi bilan boshqa texnologiyalardan ajralib turadi. Bu o'quvchini har tomonlama hurmat qilish, uni yaxshi ko'rish hamda uning ijodkorlik imkoniyatlariga ishonch bilan qarash g'oyalarini ilgari suradi. Bu texnologiyada shaxsga munosabat birlamchi bo'lib, individual yondashuv hamda insoniy qarashlar boshqa yo'nalishlardan ustun turadi;

- **hamkorlik texnologiyasi:** bu texnologiya pedagog bilan o'quvchi o'rtasidagi tenglik, demokratiya hamda subyektlar orasidagi o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi. O'qituvchi bilan o'quvchi hamkor va ijodkor sifatida ish yuritib birgalikda mashg'ulot mazmuni, maqsadini aniqlaydi va birgalikda baholaydi;

- **o'yin texnologiyasi:** u ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga va yaratishga qaratilgan vaziyatlar sharoitidagi faoliyat turi bo'lib, xatti-harakat ustidan o'zini-o'zi boshqarish yuzaga keladi va takomillashadi. O'yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o'z-o'zini namoyish qilish, bilishi, joriy qilishi kabi fundamental talablarga tayanadi. Bu texnologiyaning maqsadli yo'naltirilganligi quyidagicha:

- didaktik maqsadlar: dunyoqarashni kengaytirish, biluv faoliyati, bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash, amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan alohida ko'nikma va malakalarni shakllantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish;

- tarbiyalovchi maqsadlar: mustaqillikni, erkinlikni tarbiyalash, muayan yondashuvlarni, ahloqiy, estetik va dunyoqarashga oid sifatlarni shakllantirish, hamkorlikni, jamoatchilikni, kommunikativlikni, muomalalikni tarbiyalash;

- rivojlantiruvchi maqsadlar: diqqatni, xotirani, nutqni, tafakkurni, taqqoslash, solishtirish ko'nikmasini, o'xshashini topishni, mulohazalashni, ijodiy qobiliyatlarni, maqbul yechim topish ko'nikmasini rivojlantirish;

- ijtimoiylashtiruvchi maqsadlar: jamiyat me'yorlari va qadriyatlariga aralashuv, muhit sharoitlariga ko'nikish, kuchli ehtirosli nazorat, muloqatga o'rgatish;

- **erkin tarbiya texnologiyasi:** bu texnologiyada asosiy urg'u o'quvchining o'z hayotiy faoliyati davomida mustaqil fikr yuritishi va tanlash erkinligiga qaratiladi. Tanlash xuquqiga ega bo'lgan o'quvchi sub'ekt vazifasini bajarishga tashqaridan bo'lgan ta'sir ostida emas, balki o'zining ichki kechinmalaridan kelib chiqqan holda intilib bajaradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasiga qo'yiladigan talablar – o'zaro suhbat, faollik va ijodkorlik, o'quvchining individual rivojlanishini qo'llab – quvvatlash, o'quvchiga mustaqil ijod qilish, qaror qabul qilishi, bilim olish turi va uslublarini tanlashi uchun imkoniyat yaratib berish kabilardan iborat.

O'qituvchi quyidagi talablarga javob berishi kerak: ijodkorlik va o'quvchiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, insoniy pozitsiyada bo'lish, o'quvchining ruhiy va jismoniy sog'lom bo'lishi haqida qayg'urish, muntazam fanni rivojlantiruvchi yangiliklardan unumli foydalanib o'quv mashg'ulotlarini boyitib borish, o'quv mashg'ulotlarini mazmuni bilan ishlashni bilishi va unga shaxsga yonaltirilgan shakl bera olishi, turli o'qitish texnologiyalaridan foydalanib, ularga o'quvchini shaxsni rivojlantiruvchi yo'nalish bera olish, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini qo'llab – quvvatlashi va ularni rivojlantirish haqida qayg'urishi.

Shunday qilib, o'quvchining erkin, ijodiy va har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi hamda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishni takomillashtirishda qo'llaniladigan yuqoridagi texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil ishlash samaradorligini oshirish, ijod qilish va ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, o'quvchilar bilimni xolisona baholash, o'zlashtirishni ko'tarish, o'quv materialini mazmuni shakli va usullarini doimiy yangilab borish hamda malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatini doimiy ravishda oshirib borishni ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar beradi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yangi fikrlash va ishlash davr talabi. –T.: O'zbekiston, 1997. – 382 b.
2. Kadrlash tayyorlash milliy dasturi to'g'risidagi Qonun. –Toshkent: Adolat, 1998. – 50 b.
3. Abdullaev A.X., Nuridinov B.S., Toshpo'latova M.A. Modul asosida o'qitishda kasb-hunar kollejlari ta'lim oluvchilarining bilimlari, ko'nikmalari, va malakalarini baholash tizimini ishlash chiqish bo'yicha uslubiy tavsiyanoma. –Toshkent: TESIS, 2001. – 108 b.
4. Sayidaxmedov H.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T., 2013. – 54-59 b.

Шайзакова Д.А.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ СВОБОДНОЕ, ТВОРЧЕСКОЕ И ВСЕСТОРОННЕЕ РАЗВИТИЕ СТУДЕНТОВ

В данной статье речь идёт об использовании современных технологий, обеспечивающих свободное, творческое и всестороннее развитие учеников, а также усовершенствование организации учебных занятий, создание новых возможностей в повышении эффективности самостоятельной работы, творчества, закреплении умений и навыков, объективной оценке знаний учеников, обновления формы и содержания учебных материалов, а также регулярном обеспечении качества подготовки квалифицированных специалистов.

Ключевые слова: знания, навыки, умение, педагогические, информационные, модульно обучающие, обучающие направленные к личности, содействующие.

Shayzakova D.A.

MODERN TECHNOLOGIES LEADING TO FREE, ARTISTIC AND COMPREHENSIVE DEVELOPMENT OF STUDENTS

The given article tells about the use of modern technologies leading to free, artistic and comprehensive development of students, and also to perfection of the lessons' organization, creating new opportunities in the enhancing art, self-work effectiveness, fixation of practice and skills, objective evaluation of student's knowledge, renovation of the form and contents of study materials, and also regular supply of the quality of preparing the qualified specialists.

Keywords: knowledge, skills, practice, pedagogic, information, module-teaching, education aimed at person, cooperative.

UDK 74.202.4

MUSTAQIL TA'LIMNI TO'G'RI TASHKIL ETISH – IJODIY QOBILIYATNI O'STIRUVCHI OMILDIR**F.Z.Yusupova***Navoiy davlat konchilik instituti*

Annotatsiya. Maqolada mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish nafaqat o'quv materialini o'zlashtirilishining muhim omili hisoblanishi, balki talabalarda mustaqil ishlash malakasi hamda ijodiy qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: intellektual boylik, barkamol avlod, ijodiy qobiliyat, modernizatsiyalashtirish, mustaqil ta'lim, ta'lim.

O'zbekistonda tatbiq etilayotgan uzluksiz ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash masalasi muhim o'rin tutmoqda. Oliy ta'lim maqsadi – mamlakatning istiqbolli rivojini hisobga olgan holda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlariga ega bo'lgan, mustaqil fikrlay oladigan va jamiyatning progressiv ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojini ta'minlovchi raqobatbardosh yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdir. Zero, ilm-ma'rifatli va yuksak ma'naviyatli mutaxassislar jamiyat taraqqiyoti rivojlanish mexanizmining eng qudratli omillaridan biridir. Prezidentimiz I.A.Karimov qayd etganlaridek: "Hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin".[1] Ushbu maqsaddan kelib chiqib, shuni ta'qidlash joizki, bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan modernizatsiyalashtirish intellektual kuchlardan unumli foydalanish, insondagi salohiyat va faollikni yangi bosqichga ko'tarishni taqozo etmoqdaki, u ham ilmiy, ham amaliy nuqtayi nazardan yangi vazifadir. Bunda mustaqil ta'lim sifatini oshirish muhim ahamiyatga egadir.

Mustaqil ta'lim sifatini oshirish - talabalarining ijodiy qobiliyatlarini, kasbiy faoliyati davomida zarur bo'ladigan bilim va mahoratni olishga bo'lgan intilishlarini rivojlantirishga, dunyoqarashi va intellektual salohiyatini kengaytirishga, shuningdek, o'z mavqeini belgilash va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishdek xususiyatlarni yuzaga chiqarishga qaratilgan.

O'tkazilgan tadqiqotlar yoshlarni mamlakatni modernizatsiyalashtirish jarayonlariga keng jalb etishning samarali metodlari va usullarini topishga yo'naltirilgan. Oliy ta'limning asosiy vazifasi o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil o'qib bilimini o'rttirish, innovatsion faoliyatga qodir mutaxassisning ijodiy shaxsini shakllantirishdan iborat. Bu muammoni yechish faqatgina o'qituvchidan talabaga bilimlarni tayyor holda berish bilan amalga oshmaydi. Talabani passiv bilim iste'molchisidan muammoni ifodalay oladigan, uni yechish yo'llarini tahlil qila oladigan, optimal natijasini topib uning to'g'riligini isbotlab bera oladigan faol ijodkorga aylantirish zarur. Talabalarining mustaqil ishi ta'lim jarayonining muhim shakli sifatida emas, balki uning asosini tashkil etishi joiz. Bu bilimlarni faol metodlar yordamida egallashga hamda talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, shaxsning talab va imkoniyatlarini hisobga olgan holda individuallashtirilgan ta'limga o'tishni anglatadi.

Talabalarining mustaqil ishi – bu umumiy holda kelgusi mutaxassis tafakkurini tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan barcha faoliyatdir. Keng ma'noda, talabaning mustaqil ishi deganda talabaning o'quv auditoriya va undan tashqaridagi, o'qituvchi bilan hamkorlikda va uning yo'qligidagi barcha mustaqil faoliyatlar yig'indisini tushunish mumkin.

Talabalarni mustaqil ta'limga tayyorlashning asosiy omili – bu ularning faol ijodiy ishlashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdir.

Birinchi kurs talabalariga ta'lim berish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ladiki, bu yerda nafaqat yangi shart-sharoitga ko'nikishda, ko'p hajmdagi ma'lumotlarni olishda, o'qishning yangi tizimiga moslashish emas, balki birinchi kurs talabalarini samarali o'qishiga xalaqit beradigan omil – ularga mustaqil ta'lim uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarining yo'qligidir.

Talabalarni mustaqil ta'limga tayyorlashning muhim shartlaridan biri ularning kun tartibini optimallashtirish, chunki birinchi kurs talabalarining asosiy vaqti akademik mashg'ulotlarda ishtirok etish va tayyorlanishga sarf etiladi. Tadqiqot natijalari talabalarga mustaqil ta'lim uchun vaqtni to'g'ri sarflay bilish mahoratini shakllantirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

Bo'lajak kasbga yo'naltirilgan maqsad, qiziqish talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rag'batlantiradi, zarur bo'lgan kasbiy mahorat va ko'nikmalarni tez shakllantirishga imkon yaratadi, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, birinchi kurs talabalarining aksariyatida mutaxassislikka bo'lgan qiziqishi sust, shuning uchun ham ularning amaliyotga chiqishi tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishini o'ttirishga rag'bat o'yg'otadi.

Talabalarni mustaqil ishning belgilangan turlariga ham ijodiy mustaqil faoliyatga tayyorlashning samarali vositalaridan biri, har bir ma'ruza o'qituvchi tomonidan kursni tizimli, mantiqiy sxemasini ishlab chiqish, kursning optimal o'rganish modelini ishlab chiqishdir.

Talaba o'quv adabiyoti bilan ishlash jarayonida nafaqat mustaqil fikrlashi lozim, balki ma'ruzalarni tinglash va ularga tayyorgarlik jarayonida ham.

Darhaqiqat, talabalarining faolligi va mustaqilligini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ma'ruza darslarida namoyon bo'ladi. Buning uchun eng muhimi, ma'ruza mazmuni, uni bayon qilish uslubi talabalarda qiziqish uyg'otishi kerak. Oliy o'quv yurtlarining o'ziga xos tomoni shundaki, talaba har xil manbalardan olgan axborotni tushunib yetishi, bilimlarni qayta ishlab chiqishi va mustaqil xulosa qila olishi lozim. Talabalarining ilmga bo'lgan rag'batini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish usuli bilan ko'zlangan maqsadga yetish mumkin.

Fan va texnika yuksak taraqqiyotlar bilan rivojlanayotgan bu davrda inson uchun zarur bo'lgan bilimlar hajmi tez va keskin oshib bormoqda. Ularga o'z bilimlarini mustaqil to'ldirib borish mahoratini singdirish, ishlab chiqarishda jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan texnologiyalardan xabardor bo'lish, ilmiy-texnik axborotlar bilan to'g'ri ishlash ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Oliy ta'limda ana shunday vazifani mustaqil ish egallab, u fan, ta'lim va ishlab chiqarish orasidagi uzviylik rivojlanishiga asos yaratadi [2].

O'qituvchi ma'ruzasi va talabalarining mustaqil ishi bir-birining asosini tashkil qilib, o'zaro chambarchas bog'liq. Ma'ruza mustaqil ishning samaradorligi va talaba faolligini oshirishga yordam beradi. Talab darajasidagi ma'ruza talabani ilmiy-texnik va qo'shimcha adabiyotlarga murojaat qilishga undaydi hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatida mustaqil izlanishlar uchun asos yaratadi.

Ma'ruza darslarida talabalarining mustaqil bilim olishga bo'lgan intilishini faollashtirish masalasini muvaffaqiyatli yechishda yana bir muhim holatni ta'kidlash lozim. Ma'ruza tinglash – bu faol jarayon bo'lib, u keskin aql, kuch-g'ayrat, o'qituvchi aytayotgan gaplarni chuqur anglab olish, mavjud bilim va tajribalarni dolzarblashtirishni, qabul qilayotgan axborotlarga tanqidiy yondashishni talab qiladigan jarayon ekanligini talaba tushunishi kerak. Talabalarining mustaqil o'zlashtirgan bilimini namoyon qilish darajasi ularning o'quv faoliyati qanday maqsadga yo'naltirilganligiga bog'liq. Shuning uchun talabalarni axborotni o'zlashtirib olishiga va ijodiy faoliyatga tayyorlashning muhim elementi – bu ma'ruzachi tomonidan ma'ruza maqsadini to'liq yetkazishdir. Ma'ruza darslarida mukammal qo'yilgan maqsad ta'lim jarayonida aniq bir yo'nalishni ko'rsatib, talabalarga mustaqil fikrlash imkoniyatlari haqida yetarlicha aniq tasavvurga ega bo'lishga ko'mak beradi.

Ma'ruza maqsadi o'z ichiga nafaqat o'quv axborotini olishni, balki ma'ruzani qabul qilish va kelgusida ularni kasbiy faoliyatida qo'llash usullarini ham o'rgatish kerakligini ta'minlaydi. O'qituvchining vazifasi o'quv axborotini talabalarga yetkaza turib, tinglovchilarning faolligini mohirona kuchaytirishdan iboratdir.

Talabalar mustaqil faoliyatining asosi - ma'ruzani munozarali qo'yish. O'qituvchi tomonidan munozarali vaziyatni hosil qilish va talabalarining o'z fikrlarini erkin bayon qilishi, turli xil nuqtayi nazarlarni tahlil qilish shaklida kechadi va talabalar tomonidan mavzuga oid asosiy tushunchalar asoslab beriladi. Bunday tashkil etilgan ma'ruzada yangi bilimlarni mustaqil o'rganish hamda qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash malakasi oshirilib, talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Agar munozara mavzusi ma'ruzadan oldin berilib, talabaga mavzuga oid o'quv adabiyotlari tavsiya etilgan va u munozara bo'yicha mavjud turli konsepsiyalar bilan tanish bo'lsa talabalarining mustaqilligi va faolligi ma'ruzalarda sezilarli darajada oshadi.

Ma'ruza davomida institutda olib borilayotgan tadqiqotlarning kelajakdagi istiqboli va bu tadqiqotlarda talabalarining ishtirok etish imkoniyatini mohirona ko'rsatilishi mustaqil ishga bo'lgan faol talabni hosil qilishning muhim vositasidir.

Ma'ruza so'ngida mustaqil ishga bo'lgan rag'batni oshirish maqsadida o'tilgan mavzuning murakkab qismlari bo'yicha test, blits-so'rov, tayanch iboralarga asoslangan nazorat savollari beriladi. Ixtisoslik hisobga olingan holda bayon etilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lgan savollar majmuasi kiritiladi.

Ma'ruzalarda mustaqil ish samaradorligini oshirish vositalaridan biri kasbga yo'naltirishdir. Bu talabalarga o'z kasbining istiqbolini ko'rishga imkon yaratadi, kasbiy mahoratini mustaqil oshirish zaruriyati mavjudligiga ishonitiradi, ushbu fan bo'yicha ijodiy fikrlashga rag'bat uyg'otadi.

Ta'lim berish jarayonida talabalarga o'zi tanlagan ixtisoslikka oid masala va misollar berilishi ahamiyatli ekanligi amaliyotda tasdiqlandi.

Texnik yo'nalishda ta'lim olayotgan talabalarga ixtisosligiga tegishli savollarning qo'yilishi o'zlashtirish ko'rsatkichining sezilarli darajada oshishiga sabab bo'ldi. Bunday tashkil qilingan mustaqil ishda talabalar ijodiy faoliyatga undalib, bilimlar sifati ko'tariladi.

Rivojlangan jamiyatning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ta'lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqishni yo'lga qo'yish natijasida muammoni qurish, qo'yish va echimini topish mahorati takomillashtiriladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqib, ta'lim dargoxi oldiga faol, tashabbuskor, ishga ijodiy yondashadigan etuk mutaxassislar etishtirish vazifasi qo'yiladi. Ushbu vazifani yechishda faol usullarni qo'llash talabi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday mustaqil ta'limda har bir oldingi topshiriq keyingi murakkabrog'iga tayyorlanishiga imkon beradi, talabalarni o'qitishning boshidanoq mustaqil faoliyatga undaydi, bilimlar sifatini oshiradi, o'rganish faoliyatiga va o'quv adabiyotga qiziqish uyg'otadi.

Hamma talabalarni fanlarni o'rganish jarayonida turli va murakkab mustaqil ishga jalb qilish lozim. Kursning tizimli-mantiqiy sxemasida keltirilgan mustaqil ish tartibi, talabalarni mutaxassislik fanlar bo'yicha ijodiy mustaqil faoliyatini murakkabroq turlariga tayyorlaydi.

Yuqori kurs talabalari ilmiy bilimlariga ixtisoslashgan holda maxsus kurslarni o'qish davomida o'z mutaxassislik bilimlarini chuqurlashtiradilar. Talabalarining kasbiy tayyorgarligi diplom ishini ishlab chiqish va himoya qilish bilan yakunlanadi.

Talabalarni mustaqil ishga tayyorlashda, albatta, keltirilgan tavsiyalardan chetlashish mumkin. Talabalar mustaqiligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi o'quv xarakteriga ega bo'lgan shart- sharoitlardan tashqari, ularning bevosita jamoa va ilmiy to'garaklariga, seminarlarga, ilmiy anjumanlarga jalb qilinishi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ishtiroki ham katta ahamiyatga ega.

Bu muammoni yechishda talabaning o'quv va o'qishdan tashqari ishini aniq tartibga solish muhimdir, chunki oliygohda bo'lgan davrida unda mustaqillikni shakllantirish, o'z-o'zini nazorat qilish nafaqat o'quv, balki amaliy masalalarni yechishda javobgarligi ko'nikmalarini hosil qilish mutaxassis diplomini olgandan so'ng ham asqotishi lozim.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi 2012-yil 16-18- fevral kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyaning ochilishi marosimidagi nutqi.
2. Bозorova S.J., Yusupova F.Z. Инновационные формы совершенствования подготовки кадров в технических вузах.//Научно-методический журнал «Технологии и методики в образовании». –Воронеж, 2014. - №1. С.15-16.

Юсупова Ф.З. ПРАВИЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ - ФАКТОР РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ СПОСОБНОСТИ	Yusupova F.Z. CORRECT ORGANIZATION OF SELF-STUDY AS A FACTOR OF DEVELOPING CREATIVE SKILLS
В статье рассматриваются вопросы правильной организации самостоятельной работы, выступающей не только как фактор прочного усвоения учебных материалов, но и фактор роста у студентов умений самостоятельно работать, что способствует повышению у них творческой способности. Ключевые слова: интеллектуальное богатство, поколение, творческая способность, модернизация, самостоятельное образование.	The article investigates the problems of correct organization of independent work, becoming not only a factor of stable mastering of training material, but also a factor of developing students' skills to work independently thus leading to rise of their creative abilities. Keywords: intellectual wealth, generation, creative ability, modernization, self-study, science and production.

УДК: 372.31

ОСНОВНЫЕ КРИТЕРИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ**А.А. Мустафокулов, Х.А. Абдувалиев***Ассистенты Джизакского Политехнического института*

Аннотация. В статье рассматривается содержание образования как системы, в которой, помимо знаний, умений, и навыков, включается в качестве элемента совокупный опыт творческой деятельности.

Ключевые слова: педагогическая теория, уровень образовательного процесса, программное обеспечение, информатизация образования, компоненты образования.

Рассмотрим понятие «качество знаний» и «качество образования», тем более что это позволит выяснить основные подходы к диагностике знаний учащихся и определить качество образования в вузе.

Знания нельзя считать абсолютно полноценными, если они не усвоены в их существенных связях и отношениях с другими элементами данного знания, и не получен опыт их применения в различного рода ситуациях. Иными словами, знания приобретают все новые качества по мере того, как учащиеся усваивают другие элементы содержания образования. В соответствии с данным положением в дидактике выделяются три обобщенных уровня усвоения знаний как результат учебной деятельности: уровень осознанного воспринятого и зафиксированного в памяти; уровень готовности к применению его в сходных условиях, по образцу; уровень готовности к творческому применению знаний в новых, неожиданных условиях, ситуациях [1].

Помимо представленного выше подхода к выделению элементов системы качеств знаний имеется и другие, представляющие структурно- функциональную основу выделяемой системы качеств знаний на основе рассмотрения учебной деятельности как процесса постепенного освоения учащимися знания, овладения содержанием обучения. Первая группа знаний (предметно-содержательная) включает полноту, обобщенность, системность; вторая (содержательно-деятельностная) - прочность, мобильность, действенность; третья (содержательно-личностная) - устойчивость, гибкость, глубину.

С нашей точки зрения содержательно эти два подхода включают фактически ту же систему свойств. Ближе к нашей позиции оказывается подход Т.И. Шамовой и Т.М. Давыденко. Исследователи указывают на то, что система качества знания должна давать возможность субъектам управления образовательным процессом выявлять тенденции изменений в знаниях учащихся по наиболее существенным сторонам, а также одновременно судить и о развитии личности обучающегося, а также о развитии образовательного процесса в целом.

В связи с этим в педагогической теории и деятельности стал осознаваться тот факт, что игнорирование или принижение роли какого-либо элемента или вида содержания образования наносит огромный ущерб интересам социума, прогресс которого напрямую связан с качеством образования.

Эффективности современного образования, организации адаптивного, гибкого учебного процесса способствует также и такой процесс как информатизация.

Уровень информатизации образовательного процесса в большей мере характеризует его качество путем широкого применения информационных и коммуникационных технологий. Разрабатывается все более мощное и менее дорогостоящее образовательное оборудование и программное обеспечение. С огромной скоростью развиваются и расширяются глобальные сети. На сегодняшний день налицо «общая тенденция к внедрению технологий для лучшего удовлетворения индивидуальных потребностей пользователей». Это определяется в педагогическом подходе, который направлен на активизацию деятельности учащегося и преподавателя, на использование в рамках обучения возможностей информационных и телекоммуникационных технологий [2].

Применение компьютерных средств в образовательном процессе отражает развитие педагогики, ее тесную взаимосвязь с информатизацией общества вообще. Однако эффективность их использования зависит от того, насколько четко представлены их место и роль в обучении.

Таким образом, информатизацию образования можно определить как комплекс социально-педагогических преобразований, связанных с насыщением образовательных систем

информационной продукцией, средствами и технологией. Все это позволяет подготовить студентов вузов к полноценной жизни в условиях информационного общества.

По мере развития информатизации общества, разработки и применения новых подходов к систематизации накопленных человечеством знаний и опыта деятельности происходит кардинальный пересмотр сложившейся структуры образования, отвечающей требованиям и представлениям о системе научного знания сегодняшнего информационного общества [5].

Оптимальному качеству образовательного процесса способствует использование всех компонентов образования. В данном случае мы можем сказать, что образование можно тогда считать качественным, когда в нем максимально осуществляется учет основных структур во всех элементах содержания образования.

Деятельностный подход к обоснованию содержания образования может служить методологической основой для понимания и трактовки его качества.

На основе исследований можно определить логику поиска от структуры человеческой деятельности к структуре личности, от нее - к структуре содержания образования, далее - к структуре содержания и обучения.

С точки зрения В.С. Леднева, базисная структура содержания высшего образования составляет содержание опыта личности в отношении осуществления инвариантных видов деятельности. Отсюда вывод: содержание образования - совокупность видов воспитания, а содержание обучения - система философских и научных знаний, а также связанные с ними способы деятельности и отношений, представленные в учебных предметах [4].

Рассматривая содержание образования как систему, в которой, помимо знаний, умений и навыков, включается в качестве элемента совокупный опыт творческой деятельности и эмоционально-чувственного отношения к действительности, И.Я. Лернер указал на взаимосвязь между элементами содержания образования, благодаря которой сами знания меняются по своим качественным характеристикам. Он выделил основные четыре группы элементов:

- знания о природе и обществе;
- опыт осуществления известных способов деятельности;
- опыт творческой деятельности;
- опыт эмоционально-ценностного отношения к окружающей действительности.

Любой элемент образовательной системы сам представляет собой сложную целенаправленную систему, функционирующую в изменяющихся условиях. Основным к функционированию любого этого элемента является требование оптимизации.

М.И. Махмутов дополняет, что содержание образования должно быть уточнено в связи с изменением приоритетов образования, его цели, изменением представлений о качестве образования. В этом случае мы опять целью современного образования видим не усвоение обучаемыми социального опыта человечества, а всестороннее развитие гармонической личности.

Отбор содержательного материала, с точки зрения Б.М. Бид-Бада и А.В. Петровского, должен быть основан на критерии полноты и системности видов деятельности, необходимых для развития интеллектуально- познавательной, эмоционально-ценностной, волевой и физической сторон личности, культурного содержания, необходимого для выполнения основных видов деятельности на различных уровнях ее сложности. Основываясь на принцип системности, образование представляет собой метасистему по отношению к системе обучения, которая в свою очередь включает в себя компоненты: систему знаний, методов, средств обучения и т.д [3].

Рассмотрение современных подходов и парадигм образования позволяет сделать вывод о том, что для человека образование - это не просто сумма знаний, умений, навыков, но и психологическая готовность к непрерывному их накоплению, переработке, совершенствованию и саморазвитию личности.

Исходя из вышеизложенного, можно сделать вывод о том, основным критерием качества образования должно стать его соответствие потребностям формирования личности во всех ее проявлениях.

Литература

1. Беляева Е.В. Концептуальные подходы к понятию «мониторинг» в педагогической науке. Материалы VIII региональной научно-технической конференции «Вузовская

- наука - Северо-Кавказскому региону». Т.2. Общественные науки. - Ставрополь: СевКавГТУ, 2004. - 0, 1 п.л.
2. Бестужев-Лада И.В. Экспертный сценарно-прогностический мониторинг: принципы организации // Социологические исследования. -1993.-№8.
 3. Мустафакулов А.А., Мустафакулов А. «Качество образования и его обеспечение в педагогических образовательных учреждениях» //Молодой учёный. № 6 (65) / 2014 г. Казань. стр.733-737
 4. Мустафакулов А.А., Абдурасулов Ф. П. «Концептуальный подход к понятию «мониторинг» //Молодой учёный № 13 (93) / 2015 Казань. стр.671-673.
 5. Мустафакулов А. «Анализ концептуальных подходов к понятию «мониторинг» в педагогической науке» //Научный вестник СамГу. 2015, №6 (94) стр.123-127

A.A. Mustafokulov, X.A. Abduvaliyev
TA'LIM SIFATINI BAHOLASH
MEZONLARI

Maqolada ta'lim mazmuni tizim sifatida ko'rsatilgan. Unda bilim ko'nikma va malakalar ijodiy faoliyat tijribasi elimetlari yig'indi sifatida ko'rib chiqilgan. Ta'lim sifatining mezonlari nuqtayi nazarida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogik nazariya, ta'lim jarayonining darajasi, dasturlashtirilgan o'qitish, ta'limni axborotlashtirish, ta'limni tashkil etuvchilari.

A.A. Mustafokulov, H.A. Abduvaliev
THE BASIC CRITERIA OF EDUCATION
QUALITY

There are described the main contents of education, as well as knowledge, skills, experiences. Besides there are given combined experiences of creative work in education.

Keywords: pedagogical theory, standardizations of educational process, program provision, informational education, educational components.

UDK-297:61

ISLOM AQIDALARIDA SALOMATLIKNI ASRASHGA YO'NALTIRILGAN
QADRIYATLAR TIZIMI

(biznes va xizmat ko'rsatish sohalari asosida)

I.B.Mattiyev

Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarni inson salomatligini saqlashga yo'naltirilgan taqiq va rag'batlar tizimidan xabardor qilish maqsadida biznes va xizmat ko'rsatish sohalari asosida islom aqidalarida salomatlikni asrashga yo'naltirilgan qadriyatlar tizimi keltirilgan.

Kalit so'zlar: salomatlik, qadriyat, biznes va xizmat ko'rsatish sohalari, jamiyat, diniy normalar, tafakkur.

Zamonaviy jamiyatlarda inson salomatligini muhofaza qilish amaliyoti juda keng tarqalmoqda. Inson salomatligini asrash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, insonlarni sog'lomlashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. [4]

Islom dini, dunyodagi boshqa dinlar kabi, o'z qadriyatlari va diniy normalari tizimida alohida e'tiborni salomatlikni asrash tamoyillariga qaratadi [1]. Salomatlikni asrash tamoyillari tarkibida esa tadbirkorlik faoliyatini olib borishda, aholiga xizmat ko'rsatish jarayonida salomatlik va salomatlikni muhofaza qilish masalalariga bag'ishlanadi. Odamlar o'rtasidagi mavjud bo'lgan turli iqtisodiy, savdo-sotiq, ayirboshlash munosabatlarini olib borish va tashkil qilishda sog'lom munosabatlarni o'rnatish masalasiga islom ahkomlarida alohida e'tibor qaratilgan va mana shunday munosabatlarning ma'lum normalari ishlab chiqilgan. Mana shunday sog'lomlik va salomatlikni muhofaza qilish, uni asrash islomiy normalari Qur'oni karim, hadislar, shariat talablari orqali musulmonlar ongi va tafakkuriga singdirilgan [3]. Ular musulmonlar va umuman insonlar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri tashkil qilinishiga xizmat qilgan. Shunga ko'ra, biz mazkur maqolamizda islom ahkomlarida biznes va xizmat ko'rsatish sohasida salomatlikni asrashga yo'naltirilgan normalarning nimalardan iborat ekanligiga bir nazar solamiz.

Islom dini o'z izdoshlari, ya'ni mo'minlar uchun ijtimoiy hayotning har bir sohasida sog'lom turmush tarzining barcha zarur normalari va talablarini to'liq ishlab chiqqan va musulmonlar kundalik hayotiga tatbiq etgan. Buning yorqin misollaridan biri bu inson salomatligiga zarar yetkazuvchi barcha

narsalarning harom deb e'tirof etilishida namoyon bo'ladi. Islom dini o'z mo'minlari orasida nafaqat sog'lom turmush aqida va normalarini targ'ib va tashviq etgan, balki ulardan mazkur normalarga har doim so'zsiz itoat etishni talab etib kelgan.

Payg'ambarimiz (s.a.v.) mo'minlarga qariguncha yoshlik qadrini, kasal bo'lguncha salomatlik qadrini, o'lim kelguniga qadar hayot qadrini e'zozlash lozimligi haqida gapirganlar. Islom dini arkonlarida salomatlik, yoshlik, hayotning o'zi ham Allohning ne'matlari sifatida ulug'langan, demakki mazkur ne'matlarga ega bo'lgan inson ularni insonga Yaratgan in'om qilganligini unutmasligi lozimligi, ularni asrab-avaylashi darkorligi uqtirilgan. Allohning ne'mati, Yaratgan hadiyasi bo'lganligi uchun salomatlikni mensimaslik, salomatlikka putur yetkazish, salomatlikni yemiruvchi barcha amallar va xatti-harakatlar qoralangan va gunoh sanalgan. Salomatlik shunday ne'mat sanalganki, salomatlik bo'yicha banda Allohning oldida javob ushlashi, agar salomatlikka behurmatlilik asosida munosabat bildirilsa, ular bo'yicha oxiratda javob berilishi islom normalari qatoriga qo'shilgan. Salomatlik Allohning ne'mati bo'lganligi bois uni qanday qabul qilinsa, ana shunday saqlash, uni muhofaza qilish, uni asrash darkorligi ta'kidlangan va tarbiya qilingan. Chunki Yaratgan kimlarga salomatlik ne'matini in'om etadi?! Yaratgan salomatlik ne'matini o'zining suygan bandalariga in'om etadi. Shunday ekan, salomatlikni bebaho boylik sifatida asrash, unga zarar yetkazmaslik har bir mo'min-musulmonning kundalik vazifasi deb e'tirof etilgan.

Salomatlik ne'mati tan salomatligi va qalb salomatligi sifatida talqin qilingan. Salomatlikni asrashga yo'naltirilgan normalar ichida ko'pchilik bilgan aqidalar namoz, namozdan avvalgi tahorat, ro'za, shaxsiy hayot salomatlik normalari, uy joy va atrof-muhitni ozoda saqlash normalari, kundalik gigiyena, ozodalik normalari, salomatlikka yo'naltirilgan ma'naviy qadriyatlar tizimidan iborat bo'lgan. Ularni mo'minning bajarishi shart sanalgan [2]. Agar mo'min-musulmon ularga nisbatan bee'tibor bo'lsa, u gunoh sifatida baholangan. Ularni bajarish Alloh oldidagi majburiyat hisoblangan. Ya'ni, Yaratgan inson salomatligi borasida bizlarning tanamiz va qalbimiz salomatligi uchun zarur barcha talablarni tayinlashi Allohning insonga bo'lgan mehri va muruvvati sifatida talqin qilingan. Allohning o'z bandalariga nisbatan faqat foydali narsalarni buyurishi, foydasiz narsalardan esa uning qaytarishi ta'kidlangan. Inson salomat yashashi uchun harakat, oziq-ovqat, ularning barchasida me'yor bo'lishi darkorligi, toza havo, toza atrof-muhit, ularni amalga oshirish va bajarishda esa muntazamlilik, qat'iylik, doimiylik talab etilgan.

Payg'ambarimiz fikrlariga ko'ra, ko'pchilik insonlar ikki narsaning qadriga yetmaydilar. Bu – salomatlik va bo'sh vaqt. Hadislarda ta'kidlanishiga ko'ra, odamlar Yaratgandan ikki narsaning orzu havasini so'rashlari darkor. Bular – birinchidan, o'ziga ishonch, o'ziga aminlik va dalililik bo'lsa, ikkinchidan, salomatlikdir. O'ziga aminlikdan so'ng salomatlik bo'lishi bu insonning baxti va saodati sanalgan. Agar odam tanasi va qalbi bilan salomat bo'lsa, xavfsizlikda o'z vatanida istiqomat qilayotgan bo'lsa, uning oldiga tanavvul qilishi uchun ne'matlar bo'lsa, bu inson qo'lida butun dunyo borligi bilan tenglashtirilgan.

Keltirilgan axborotlarning barchasi Yaratgan yo'lida inson qanday yashash kerakligi, nimalarni aziz sanashi lozimligi, o'ziga va atrofida qilarga qanday munosabat ko'rsatishi darkorligi, Alloh ne'matlaridan qanday bahramand bo'lishi zarurligi bo'yicha qonuniyatlar tizimini tashkil qilgan.

Shu bilan birga inson salomatligini nafaqat insonning o'zi balki barcha atrofida qil insonlar ham asrab-avaylashi darkorligi talab etilgan. Shu nuqtayi nazardan, biznes va xizmat ko'rsatish sohasi vakillari o'z atrofida qil salomatligiga zarar yetkazuvchi amallardan o'zini tiyishi, faqat moddiy boyliklar ortidan quvmay, balki ma'naviy boylik asosiga qurilgan tadbirkorlikni tanlashlari islom aqidalariga to'la mos keladi.

Islomda iqtisodiy muloqot va munosabatlar "agar taqiqlanmagan bo'lsa, demak u ruxsat etilgan" qoidasi asosiga quriladi. Binobarin, biznes va tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan inson o'z mahsulotlari va iqtisodiy amallarini shunday olib borishi zarurki, atrofida qil salomatligiga biror bir tahdid uyg'onmasin. Chunki inson yer boyliklari, moddiy boyliklarga vaqtincha, Alloh bergan muddatda boshqaruvchi bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs sanaladi. Butun koinotda mavjud bo'lgan barcha narsalar Yaratgan mulkidir. Shu jumladan inson o'z hayoti davomida ishlatgan barcha narsalar ham Yaratgan mulkiga kiradi. Inson esa Yaratganning yerdagi xalifasi, ya'ni boshqaruvchisi sanaladi (Qur'on, Baqara, 30). Shunga ko'ra, inson, Yaratganning yerdagi xalifasi bo'lganligi uchun, yerning holati, undagi boyliklarning muhofazasi va saqlanishi, ulardan ratsional foydalanish uchun javobgar sanaladi.

Salomatlik esa Allohning rizqi sanaladi. Mana shu rizq bo'yicha inson Yaratgan oldida oxirat kunida javob beradi. Rizq esa ham jismoniy, ham moddiy, ham ma'naviy rizq bo'ladi. Ularning barchasida salomatlik ne'mati alohida o'rin tutadi.

Islom arkonlari bo'yicha bugungi kunda biznes va xizmat ko'rsatish sohasidagi zamonaviy halol va harom amallar Dou-Jonsning Islom indeksida maxsus ishlab chiqilgan va amaliyotga qabul qilingan. Ular bo'yicha quyidagi biznes olib borish va xizmat ko'rsatish yo'nalishlari harom sanaladi, demakki ular ta'qiqlangan amallar sifatida baholanadi:

- islom arkonlarida taqiqlangan har qanday mol-mulk va xizmat ko'rsatish sohalari asosida ish yuritish;
- turli taqiqlangan amallar bilan faoliyat olib boradigan turli kompaniya va firmalarga mablag' ajratish va mablag' kiritish;
- alkogol va cho'chqa go'shtini ishlab chiqarish, uni transportirovka qilish, sotish, yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan barcha biznes va xizmat ko'rsatish sohalari;
- sotuvga chiqarilgan tovaridan urib qolish, uni noto'g'ri tortish, tovarning yomonligini, masalan aynib qolganligini yashirish, tovarning yetishmovchiliklari bo'yicha axborotni sotib oluvchidan yashirish;
- savdo-sotiqda torozuni to'g'ri jihozlash, chunki savdo-sotiqda adolatsizlikka yo'l qo'yish qattiq gunoh sanalgan;
- savdo-sotiq va xizmat ko'rsatishda o'zgalarga ziyon yetkazishdan o'zini muhofaza qilish, o'zgalarga sababsiz ziyon yetkazish qattiq gunoh sanalgan;
- savdo-sotiq Alloh ruxsat etgan amal sanaladi, biroq sovdo-sotiqda faqat o'z manfaatini o'ylab, uni noto'g'ri tashkil qilish Allohning boshqa bandalariga ziyon yetkazadi, Allohning bandalari ziyon olar ekan, bu Yaratganga qilingan ziyon bilan tenglashadi;
- har qanday amalda, ayniqsa u inson ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lsa, isrofga yo'l qo'yish. Islomda isrof biror bir mol-mulkka ruju qo'yishda, ya'ni haddan tashqari katta mulkni yig'ishga intilishda; ehtiyojlaridan ortiq darajada tanavvul qilish va iste'mol qilishda; haddan ortiq talabdan tashqari tovarlarni ishlab chiqarishda namoyon bo'lishi ta'kidlangan.

Inson tanasi islom diniga Allohning omonati sanalgan. Alloh insonga uning tanasini in'om etganligi tan olingan. Agar inson tanasi Yaratgan omonati bo'ladigan bo'lsa, banda Allohning mana shu omonatiga xiyonat qilmasligi, uni ozodalik va sog'lomlikda saqlashi lozimligi tayinlangan. Shunga ko'ra, inson tanasi uning egasi ustidan huquqiy talabgor, ekanligi g'oyasi ilgari surilgan. Binobarin, inson tanasi manashu tana egasi uchun Yaratgan omonati sanalar ekan, vaqti soati kelganda, inson mana shu Yaratgandan olgan omonatini yana Alloh qo'lga topshirishi lozimligi ta'kidlangan.

Boshqa tarafdin, inson tanasi nafaqat mana shu tana egasi uchun muqaddas sanalgan, balki atrofdagilar ham o'zgalarga nisbatan e'zozli munosabat bildirishi lozimligi uqtirilgan. Shunga ko'ra, birovning salomatligiga zarar keltiruvchi amallarni bajarish, bila turib, o'zgalar salomatligini muhofaza qilmaslik juda katta gunoh sanalgan. Shu bois, islom arkonlarida ozodalik – yarim imonga tenglashtirilgan. Islom ahkomlarida inson salomatligiga zarar yetkazuvchi barcha narsa va amallar harom sanalgan.

Islom aqidalarida salomatlik insonning mulki, uning boyligi hisoblanadi. Shunday ekan, inson salomatligiga tahdid uyg'otishi mumkin bo'lgan barcha xatti-harakatlar va amallar qoralangan va harom sanalgan. Har qanday mulk kabi o'z salomatligini ham inson aql bilan avaylab parvarish qilishi, uni kun sayin o'stirib borishi, inson tanasi va uning jismini pok va sog'lom saqlashi lozimligi buyurilgan. Shu bois, inson tanasiga turli tatairovkalar rasmini tushirish qoralangan. Bu narsa, Alloh in'om etgan tanani buzish, Alloh bergan tanani ifloshlash sifatida baholangan. Inson tanasiga, uning jismiga ham moddiy narsa, ham ma'naviyat o'chog'i sifatida qaralgan. Inson tanasi ma'naviyat o'chog'i sifatida rivojlanishi darkor bo'lgan. Mazkur ma'naviyat o'chog'ini faqat pokiza, chiroyli, foydali, go'zal narsalar bilan boyitib, to'ldirib borish zarurligi uqtirilgan.

Shunday qilib, islom dini arkonlarida moddiy boylikka nisbatan ma'naviy boylikning ustunligi keng targ'ib qilinadi. Qur'on va hadislarida tadbirkorlik, savdo-sotiq, xizmat ko'rsatish, zamonaviy til bilan aytganda, biznesni tashkil qilishda quyidagi tamoyillarning ustunligi qayd etiladi:

- shartnomalar imzolanishi va tadbirkorlikni tashkil qilishda shaxs erkinligi va tadbirkorlik erkinligi;
- tadbirkorlikni olib borishda adolatparvarlik mezonlarining ustunligi, ya'ni amal, niyat va qalb pokizaligi;
- tadbirkorlikni olib borishda hammaning belgilangan qonunlarga so'zsiz itoat etishi, ya'ni qonun ustuvorligi;
- tadbirkorlikni tashkil qilishda boshqaruvchi va ichshi hodimlarning o'zaro axloq va odob qonuniyatlariga rioya etishi, etika normalarining so'zsiz amal qilishi;

- tadbirkorlikni olib borishda alohida e'tibor mehr va muruvvat, homiylik faoliyatiga qaratilishi, foydaning adolatparvarlik asosida taqsimlanishi, norasida go'daklar, yetim va yesirlar, muhtoj musulmonlarning haqqi inobatga olinishi.

Binobarin, islom qadriyatlaritizimida salomatlikni muhofaza qilish tushunchasi faqat individuumning vazifasi va majburiyati emas, balki sotsiumning ham ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalaridan biri darajasiga ko'tarilgan. Mazkur faoliyatda alohida ahamiyat biznes va xizmat ko'rsatish sohalari zimmasiga yuklatilgan. Ularning vazifasi insonlarni Yaratgan bandalari sifatida e'zozlab, ular salomatligiga zarar yetkazmaydigan tovarlar va xizmatlarni yetishtirib berishdan iborat qilib belgilangan.

Adabiyotlar

1. Isom Yusuf. Rasululloh tanavvul qilgan taomlar. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 108 b.
2. Islom. Ensiklopediya. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – 320 b.
3. Qur'oni Karim. Ma'nolarining tarjima va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur.– Toshkent: 2006, - 618 b.
4. Musurmonova O. Abdurahimova F., Risqulova K. Mahallada qizlarni sog'lom turmush tarzi asosida oilaga tayyorlash o'quv kursi dasturi. –T.: O'zbekiston, 2006. -32 b.

И.Б. Маттиев

СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ, НАПРАВЛЕННЫХ НА СОХРАНЕНИЕ ЗДОРОВЬЯ В ИСЛАМЕ

(на основе сфер бизнеса и сервиса)

В статье приводятся ценностные предписания исламской религии в сохранении здоровья верующих на основе сфер бизнеса и оказания услуг для того, чтобы ознакомить читателей с системой запретов и поощрений, направленных на сохранение здоровья человека.

Ключевые слова: здоровье, ценность, сфера бизнеса и сервиса, общество, духовные нормы, мышление.

I.B. Mattiyev

THE SYSTEM OF VALUES DIRECTED AT HEALTH PRESERVING IN ISLAM (BASED ON THE SPHERES OF BUSINESS AND SERVICE)

The article demonstrates valuable orientations of Islam religion for preserving its followers' health basing on the spheres of business and service for the readers to get acquainted with the system of prohibitions and awards directed at preserving of human health.

Keywords: health, value, sphere of business and service, society, spiritual norms, mind.

УДК 74.58

О ВЫДАЮЩЕМСЯ ХУДОЖНИКЕ СРЕДНЕВЕКОВЬЯ – БЕХЗАДА

Ахмедова Н.М.

Соискатель Навоийского государственного педагогического института

Аннотация. В статье раскрывается творчество Бехзада, его гениальный талант миниатюриста, масштаб и особенности его живописной миниатюры. Студенты получают представление о роли великого художника XV века в художественной культуре средневековья, в том числе, в современном мире.

Ключевые слова: декоративно-прикладное искусство, изобразительное искусство, живопись, древние памятники, общечеловеческие ценности, художественные ценности, художественный кругозор, эмоциональная культура, художественная культура.

В работах и выступлениях И.А.Каримова значительное место отводится студенческой молодежи – будущим специалистам нового поколения, их высокой профессиональной подготовке, воспитанию духовности, формированию, развитию и совершенствованию культуры, гармоничному развитию, формированию совершенной личности, что Президент рассматривает как «стимул прогресса», «важный фактор прогресса», «основу прогресса Узбекистана», наконец, - «будущее нашей страны»- И.А.Каримов [1].

Обращение к историко-культурному наследию, изучение величайших памятников, представляющих не только национальную, но и мировую ценность, знание выдающихся творцов

бессмертных художественных ценностей, ставших национальным и общечеловеческим достоянием, необходимо студенчеству, поскольку эти требования входят в критерии общей и художественной культуры современной молодежи.

На внеаудиторных занятиях – «Художественные ценности Узбекистана», в педагогическом вузе ключевыми темами выделены следующие: «древневосточная миниатюра», «Среднеазиатская живописная миниатюра эпохи средневековья», «Камалиддин Бехзада – наш гениальный предок - выдающийся художник Востока, непревзойденный гений миниатюрной живописи XV века».

Цель: рассмотреть творчество Бехзада, его особенности и специфику, роль и значение Бехзада в восточной, среднеазиатской, узбекской художественной культуре, в мировом художественном наследии.

Основные методы: сообщение, убеждение, мотивации я; информация, изложение, рассказ, беседа, диалог; цитирование, чтение; показ, демонстрация, иллюстрация; рассмотрение, изучение; акцентуация (главного, существенного)), детализация; характеристика, разъяснение, обсуждение; эстетическое восприятие, художественный анализ, синтез – анализ – синтез; обобщение, вывод, заключение; сравнение, сопоставление; алгоритм, ориентир, установка; пример, образец; внимание – рассмотрение – осмысление – суждение – умозаключение; логическое мышление; творческое воображение, метафорическое и символическое - художественное мышление; предположение, художественное «видение», фантазия и творческое мышление, обобщенное представление (конкретно-предметное и масштабно-художественное; «видение» в миниатюре существенного, главного (идейно-смыслового сюжета, героев в динамике и развитии)); вопросы (студентам); свободный выбор (заданий и работ – по интересу) о выдающемся художнике, непревзойденном мастере живописной миниатюры эпохи средневековья лекции – беседы – диалоги – обсуждения ведутся по следующему плану содержания:

Бехзада – редкостный среди редкостных, лучший среди лучших. Современники о Бехзада:

Бабур: «Среди современников следует упомянуть Бехзада, художника с очень тонким талантом».

Историк Хондемир о Бехзаде: «Волос его калама благодаря мастерству Душу давал неодоушевленной форме».

Творчество Бехзада – мировая художественная ценность (находится под охраной ЮНЕСКО). Почитание Бехзада во всех странах мира.

Бехзада – отражатель высоких художественных идеалов, эстетических и этических представлений народов Среднего и Ближнего Востока.

Тысячи миниатюр Бехзада. Своя школа миниатюрной живописи.

Интерес Бехзада к традиционным сюжетам эпоса и мифологии, знаменательным событиям, связанным с выдающимися личностями, к жизни широких слоев населения.

Способности Бехзада чувствовать пульс времени, находить в традиционных сюжетах необходимые смысловые связи и выражать их в совершенной форме.

Владение глубокими тайнами миниатюрной живописи. Характерное миниатюрам Бехзада: чарующая красота, совершенная поэтическая форма, непринужденная пластика линий, особенная стройность, царственное изящество и элегантность, гармония колорита, целого и деталей; панорамное мышление; правильный масштаб изображения мира; глубина и пространственность; условность, поэтическая радость бытия; живая мысль; многообразие мира природы; глубина погружения в земную и духовную жизнь человека – труженика, творца; индивидуальное видение и понимание проблемы; своеобразие творческого почерка; расстановка фигур, персонажей по кругу, треугольнику, эллипсу, диагонали (в целях иллюзорной объемности и подчинения рисунка определенному ритму).

Чего требует миниатюра Бехзада? – адекватного истолкования и объяснения, внимательного проникновения в их суть.

Творчество Бехзада.

Бехзада – портретист (в миниатюрной живописи) [2,3]. Портреты султанов, шахов и значительных придворных лиц.

Портрет Шейбани-хана – символическое обобщение внутреннего мира и духовного состояния падишаха. Как изображен Шейбахни-хан на миниатюре Бехзада: в поджатой нижней губе, очертаниях подбородка видны большая сила, а внимательный взгляд глаз говорит о

проницательности и властности хана. В глаза бросается тонкость и выразительность линии фигуры Шейбани-хана, ее поворот и изгиб передают пластику мощных покатых плеч хана. Перед ханом стоит чернильница, стопка книг и перо – все это говорит о его интеллектуальных занятиях. На большом пальце правой руки кольцо для стрельбы из лука, – значит, перед нами воитель, полководец. Сколько тонко подмеченного, жизненного в изображении лица, фигуры, в окружающих предметах и даже функционально-предназначенном для стрельбы кольце на пальце.

Портрет Бабура: Бабур в шахских одеждах, в саду, в окружении природы; сидит на резном стуле, с книгой в руках; размышляет, занят творчеством. Весь облик мыслителя, правителя, поэта дышит благородством. В портрете восточный дух и настроение. Предполагаем масштаб его творческой деятельности. Видим незаурядную личность.

Миниатюры с изображением султана Хусейна: султан Хусейн с цветком в руке. Вокруг – женщины из его гарема (сидят, гуляют, читают, музицируют); султан с поджатыми ногами, в «позиции обсуждения». На нем золотом сверху вышитая кааба, перехваченная поясом с золотыми бляхами; на голове пышная чалма, с богатыми украшениями. Лицо с бородой, чуть раскрытые слегка раскосые глаза, маленький рот, усы, аккуратно свисающие. Это – красивый, мужественный человек, любящий нарядно одеваться, сильный, волевой, интеллектуал, любитель прекрасного.

Картины-миниатюры Бехзада из жизни: цветущие сады, красивые разноцветные птицы, ручьи, распутившиеся цветы, с изображением Алишера Навои, блюдами золота и серебра для Амира (за что получил коня в полном снаряжении). Роль Бехзада в развитии портретного жанра.

Иллюстрации Бехзада к книге Шарафиддина Али Йезди «Зафар-наме»: «Картина битвы», «Взятие Амиром Тимуром крепости Хивы», «Строительство общественной мечети в Самарканде». Это целая хроника того времени.

Миниатюры Бехзада, посвященные зодчеству того времени: «Строительство замка Хаварнак», «Строительство Джума-мечети в Самарканде» и другие. С архитектурными реалиями и конкретными историческими событиями.

Иллюстрации Бехзада к поэме Низами «Искандер-наме». Восприятие – рассмотрение... Анализ миниатюры «Искандар, навещающий отшельника в горах». Предварительно акцентируется – «Что важно воспринимать, видеть и понимать в миниатюрах Бехзада. В первую очередь – это: тема, сюжет, его компоненты; эмоциональный, подтекст; чистота помысла; внешняя красота; информационно-познавательная нагрузка; композиционная конструктивность по классической схеме: крупнофигурная или мелкофигурная; герои – первого, второго и других планов (как изображены – одежда, головной убор, обувь и другие атрибуты, внимание мельчайшим деталям фигур, образов; изображаемые объекты, их детали, смысл; колорит – колористический эффект; цветовая гамма, ее особенности; цвет, его характеристика; символы, метафоры; природа, ее красота (небо, окружающая среда); мировая гармония, взаимосвязь всего сущего между собой – внешнего – зримого и скрытого философского содержания; внутренний мир миниатюры; собственно-творческий подход к раскрытию темы, проблемы, ее неповторимое решение; авторская индивидуально-творческая манера; авторско-творческое начало; этикетность; эстетика; потребность в глубинном истолковании и раскрытии авторско-творческой тайны миниатюры.

Затем – художественно-эстетический анализ миниатюры Бехзада – «Искандар, навещающий отшельника в горах».

Студентам интересно знать о влиянии миниатюрного наследия Бехзада на художественную культуру того времени и художественную культуру современную, поэтому проводится беседа: «Последователи Бехзада в миниатюрной живописи» (Махмуд Музаххиб «Давлат Мухаммади и другие»), «Миниатюры Бехзада – источник новых эстетических и пластических исканий современных художников». По следующему плану: Влияние Бехзада на творчество европейских художников (А.Матисс – «Семья художника»).

Художественное наследие Бехзада в современной живописи Узбекистана:

Ш.Шорахмедов – ученый, художник, интерпретатор традиций восточной миниатюры.

Ч.Ахмаров – художник монументального декоративно-восточного плана: на темы поэзии А.Навои созданы ростки, украшавшие многие архитектурные объекты Узбекистана. Его портреты в стиле миниатюры – о совершенной личности, духовно богатой («Виночерпий»).

Интерес Чингиза Ахмарова к историческим корням, идеалам добра и красоты, заключенным в традициях предков, в частности, великого миниатюриста XV в. Бехзада.

Усто Мумин – искусство миниатюры Бехзада воспринимает как источник восхищения и подражания восточной миниатюре, как национально-специфическую поэтику и эстетику средневековья («Дружба, любовь, верность», «Цветущий персик», «Платан», «Кипарис»). Отражение в произведениях Усто Мумина эстетики миниатюры средневекового Востока. Художник мыслит образами Востока, поэтичными, гармонирующими с миром.

Миниатюрное наследие Бехзада в живописи других современных художников: Абдуллаева С., Абдуллаева Ш., Ахмадалиева Ф., Ахмедова Ф., Болтабаева Т., Джалилова Д., Кадырова К., Мухамеджанова Ш., Мухамедова Т., Тохтаева М., Умарбекова Д., Усманова Д.

Возрождение традиций миниатюрного искусства в художественной культуре Узбекистана.

Почитание Бехзада и интерес к его творчеству в Узбекистане – юбилеи, музеи, выставки, конференции, исследования, престижные награды им. Бехзада в области искусства, Академия художеств им. Бехзада.

Бехзада в мировом масштабе.

Вклад Бехзада в культуры Востока уникален [4,5]. К нему интерес все возрастает – художников, историков и ученых. Большой интерес за рубежом к гению Бехзада. Так, Абдулла Бахари 30 лет создавал фундаментальный труд о жизни и творчестве великого художника Бехзада. В Париже, Лондоне, Каире, Санкт-Петербурге и других городах мира хранятся произведения Бехзада – великого художника-миниатюриста XV века. Бехзаде посвящаются международные конференции при участии ЮНЕСКО, в том числе, в Узбекистане (Ташкенте). Миниатюрная живопись Бехзада была, есть и будет объектом глубокого изучения во всем мире.

Достойное место Бехзада в истории мирового изобразительного искусства, мировой художественной культуры.

Творчество Камалиддина Бехзада – не только национальное достояние и гордость, но и общечеловеческая ценность на все века.

Вопросы – студентам по творчеству Бехзада, активизирующие интерес к основоположнику миниатюры на Востоке, художнику мирового масштаба, внесшего значительный вклад в мировую культуру.

1. Где и когда родился наш соотечественник – великий мастер миниатюрной живописи?
2. К каким сюжетам Бехзада проявлял особенный интерес?
3. Что характерно портретным миниатюрам Бехзада?
4. Какие темы жизни современной действительности отражал Бехзада в своих миниатюрах?
5. Характерное миниатюрам Бехзада.
6. Всемирно известные миниатюры – иллюстрации Бехзада к историческим книгам и поэмам. Что в них примечательного?
7. Ваше впечатление от живописной миниатюры Бехзада – иллюстрации к поэме Низами «Шах-намэ» - «Искандар навещает отшельника в горах».
8. В творчестве, каких современных художников просматривается влияние гения великого художника Бехзада?

9. Как почитают Бехзада в современном Узбекистане, в разных странах?

Задания и письменные работы – студентам: Составление: биографии Камалиддина Бехзада. Историография: о жизни, творчестве и деятельности Камалиддина Бехзада. Рассказы: о значительных периодах жизни Бехзада, памятных событиях в творчестве великого мастера живописной миниатюры. Рефераты, доклады, лекции: «Камалиддин Бехзада – непревзойденный мастер миниатюрной живописи XV в.», «Мировая известность нашего соотечественника – гениального миниатюриста Бехзада», «Особенности и новации миниатюрного творчества Бехзада», «Способность Бехзада художественно-проникновенно чувствовать и выражать идеалы, этику, эстетику и традиции своего времени», «Интерес Бехзада к традиционным сюжетам эпоса и мифологии», «Исторические события, великие выдающиеся личности в миниатюрах Бехзада», «Бехзада-портретист», «Картины из жизни в миниатюрах Бехзада», «Роль Бехзада в развитии миниатюрного жанра XV в. И последующих эпох», «Художественное наследие Бехзада и современная живопись», «Бехзада в современном Узбекистане», «Вклад Бехзада в культуру Востока», «Бехзада в современных зарубежных странах», «Творчество Бехзада - национальное достояние», «Творчество Бехзада – мировое художественно-культурное наследие».

Восприятие – анализ: произведений миниатюрной живописи Бехзада (на свой выбор, по плану-ориентире или произвольно-творческий). Изобразительно-художественные работы (в стиле восточной миниатюры). Поиск и оформление (произвольное):

- репродукций с восточных миниатюр (желательно с текстовым сопровождением);
- интересного текстового материала о творчестве Бехзада, миниатюре Средней Азии;
- литературы по темам: «Миниатюра Востока, Средней Азии», «Бехзада».

На такой содержательной, логико-последовательной основе студентам – будущим преподавателям (учителям) гуманитарного профиля раскрывается творчество Бехзада, его гениальный талант миниатюриста, масштаб и особенности его живописной миниатюры. Студенты имеют представление о роли великого художника XV в. в художественной культуре средневековья, в том числе, во всем мире – и современном, студенты знают произведения современных художников Узбекистана, в которых очевидно влияние эстетических, пластических и других аспектов миниатюрных шедевров Бехзада. Студенты осведомлены о месте, роли и значении Бехзада не только в современной художественной культуре Узбекистана, но и за рубежом. Осознано творчество великого соотечественника – как национально-культурное достояние, как мировое художественное наследие.

Будущие специалисты в сфере образования готовы к вполне обстоятельному общению о великом художнике XV века, передаче этих своих знаний другим.

Литература

1. Каримов И.А. Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана. – Т.: Шарк, 1997.– 63 с.
2. Ахмедова Н. Духовное пространство Бехзада в искусстве XX века // San’at, 2000. № 2. – С. 34-37.
3. Захидов П. Несравненный в живописи (Бехзад) San’at, 2000. № 2. – С. 16-23.
4. Исмаилова Э. Бехзада // San’at, 2000. № 2. – С. 5-9.
5. Камалиддин Бехзад и искусство восточной миниатюры // San’at, 2000. № 4. – С. 1-7.

Axmedova N.M.

O’RTA ASRDAGI BUYUK RASSOM BEHZOD HAQIDA

Maqolada Behzodning ijodi, uning porloq iste’dodli andozalari, ko’lami va ayniqsa uning miniatura rasmlar yoritilgan. Talabalar, XV asrning buyuk rassomi, O’rta asrning badiiy madaniyatida, shu jumladan, zamonaviy dunyodagi o’rni haqida ma’lumotga ega bo’ladilar.

Kalit so’zlar: san’at va qo’l san’atlari, tasviriy san’at, rasm, qadimiy obidalar, insoniy qadriyatlar, badiiy qadriyatlar, badiiy dunyoqarashi, hissiy madaniyat, san’at madaniyati.

Axmedova N.M.

ABOUT THE OUTSTANDING ARTIST OF MIDDLE AGES – BEHZAD

The article reveals the art of Behzad, his brilliant talent of the miniaturist, scale and features of its miniature paintings. Students gain an understanding of the role of the great artist of the XVth century in the artistic culture of the middle ages, including into modern world.

Keywords: arts and crafts, fine arts, painting, ancient monuments, human values, artistic values, artistic outlook, emotional culture, art culture.

UDK: 152.4

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI DIREKTORLARINING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KASBIY KOMPETENTLIGI****A.M.Shonazarov***Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

Annotatsiya. Hozirda zamonaviy ta'lim tizimini boshqarishda sotsial-psixologik kompetentsiyalarni o'rganish juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimini boshqarish va yaxshilashlardagi sotsial-psixologik tahlillar kompetentsiyasi qaraladi. Maktablarni unumli boshqarishda ilmiy-amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kompetensiya, ijtimoiy-psixologik sifatlar, kasb, rahbar, boshqaruv, boshliq.

Zamonaviy ta'lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ta'lim tizimini rivojlantirishda rahbar xodimlarni psixologik xususiyatlarini tahlil qilib, ularning kasbiy kompetentligi borasida tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy jihatdan samarali natijalar beradigan xulosalarni ishlab chiqish va boshqaruvni zamonaviy takomillashgan uslublari bo'yicha tavsiyalarni taklif etish dolzarb masalalardandir biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi so'zlagan nutqida shunday fikrlarni ilgari surdilar. "O'tgan yili **ta'lim-tarbiya sohasini** yanada isloh etish va takomillashtirish masalasi ham diqqat markazimizda bo'ldi. Bo'shab qolgan rahbarlik lavozimlariga puxta bilimga ega bo'lgan, zamonaviy menejment va marketing usullarini amalda qo'llay oladigan yosh mutaxassislar tayinlandi.

Shu borada Germaniyada joylashgan Yevropa menejment va texnologiyalar maktabining faol ishtirokida aksiyadorlik jamiyatlarining rahbar xodim va mutaxassislarini tizimli asosda tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, ularning zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini egallashini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi tashkil etildi.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan harajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 foizni tashkil etmoqda. Bu YuNESKOning mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limga yo'naltirilishi zarur bo'lgan investitsiyalar miqdori bo'yicha tegishli tavsiyalaridan, ya'ni 6-7 foizdan qariyb 2 barobar ko'pdir.

2015-yilda bu sohada 384 ta obyektning moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha qiymati 423 milliard so'mlik ishlar amalga oshirildi, namunaviy loyihalar asosida 29 ta yangi umumta'lim maktabi barpo etildi, 219 ta maktab rekonstruksiya qilinib, 136 tasi kapital ta'mirlandi"[5]. Bularning barchasi ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan izchil islohatlarning amaliy ifodasidir.

Masalaga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tomondan taraqqiy etgan davlatning tarixiga nazar soladigan bo'lsak, uning rivojlanishi ta'lim sohasining takomillashuviga borib taqaladi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ushbu sohani chuqur tadqiq qilib, uning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirib, ularni amaliyotga tadbiq etish yo'llarini ishlab chiqish, pirovardida ta'lim tizimini rivojlantirishda rahbar kadrlarning ijtimoiy-psixologik kasbiy xususiyatlarini tahlil qilib, ularning kasbiy kompetentligi borasida tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy jihatdan samarali natijalar beradigan xulosalarni ishlab chiqish va boshqaruvni zamonaviy takomillashgan uslublari bo'yicha tavsiyalar berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Tadqiqotlarimizning natijalari zamonaviy ta'lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini nazariy tomondan tahlil qilish hamda o'rganishdagi yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish va ishlab chiqilgan uslubiy ko'rsatmalar, tegishli takliflarni amaliy tomondan umumiy o'rta ta'lim tizimiga joriy etish lozimligidan dalolat beradi. Ushbu vazifalarni hal etish uchun «kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalariga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, ilmiy tadqiqotni nazariy jihatdan o'rganishda avvalambor masalaning mohiyatiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Bu ikkala soʻzni tahlil nuqtayi nazaridan oʻrganganda «kompetentlik» va «kompetensiya» atamaları sinonim tushunchalar boʻlib, bu tushunchalar Oʻzbekiston psixologiyasida yangi hisoblanadi. Shuning uchun ularning turli xil talqinlari mavjud. Oliy taʼlimning Davlat taʼlim standartida kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga quyidagicha taʼriflar berilgan:

Kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni maʼlum sohada muvaffaqiyatli faoliyat olib borish imkoniyatlar yigʻindisidir.

Kompetentlik – shaxsning muayyan taʼlim yoʻnalishi yoki mutaxassisligi boʻyicha olgan bilim, malaka va koʻnikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli tatbiq etish qobiliyatidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkin. Demak, kompetentlik deganda aniq shaxsiy va kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun bilim va tajribalarga ega boʻlgan shaxsga beriladigan tavsif boʻlib, u taʼlim oluvchi tomonidan alohida bilim va koʻnikmalarni emas, balki har bir mustaqil yoʻnalish boʻyicha integrallashgan bilim va sifatlarning oʻzlashtirilishini tushunish kerak.

Bugungi kunda ishning muvaffaqiyati koʻp jihatdan taʼlim muassasalari rahbarlarining mahoratiga va ijobiy, psixologik kasbiy kompetentligiga bogʻliq. Ular oʻzlarining qoʻl ostidagilar yaʼni, (boʻysinuvchilar)ni xolisona va har tomonlama professional, kasbiy psixologik hamda shaxsiy fazilatlarini foydaliligini va boshqa koʻpgina munosib tomonlarini baholashda ilmiy, amaliy tomondan bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, hali hamma zamonaviy taʼlim tizimining tajribali rahbarlari ham nazarda tutilgan bunday mahoratga ega emas. Jamoa rahbari ijtimoiy-psixologik muhitga oʻzining shaxsiy fazilatlarini va boshqaruv uslubi orqali katta taʼsir koʻrsatadi.

Ilmiy tadqiqotlar olib borish mobaynida asosiy eʼtibor mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan umumiy oʻrta taʼlimi tizimi rahbarlarining kasbga oid ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini oʻrganish hamda maktab direktorlarining shaxsiy tajribalariga mos keladigan, ularni ijodiy fikrlashga undaydigan, ijodkor rahbarlardan har qanday sharoitda oqilona qarorlar qabul qila oladigan, tezkor axborotlar zamonida faol, tashkilotchilik faoliyati davomida maqsadlari aniq, professional omilkorlik, bilim va tajribaga ega boʻlish kabi masalalarni hal etishga qaratilgan. Zamonaviy umumiy oʻrta taʼlim maktablarini boshqarayotgan haqiqiy direktorlar qanday boʻlishi kerak?

Bu savolga javob berish borasida toʻxtaladigan boʻlsak, ular quyidagilarda oʻz ifodasini topadi:

- boshqaruvchi faqat rahbar emas, balki yosh oʻqituvchilar va oʻz qoʻl ostidagilarning murabbiysi darajasidagi ibratli shaxs hamdir;

- kutilmagan vaziyatlarda oʻzini ishonchli, epchil va ishchan tashabbuskor boshliq sifatida namoyon etadigan;

- har doim oʻz qoʻl ostidagilarning qiyinchiliklarini yechishga yordam berishi;

- xayrixohlik bilan ham suhbatini tinglay olishi, mavjud holatda sogʻlom ruhiy muhit yarata olishi, oʻzining sabrsizligini, ayniqsa, beparvoligini va yoqtirmasligini sezdirmasligi kerak;

- ishchilar bilan xayrixohlik munosabatini oʻrnata bilish, ammo maʼlum ijtimoiy masofani saqlash, betakalluflik va oshna-ogʻaynigarchilikka yoʻl qoʻymaslik joiz;

- moliyaviy-iqtisodiy masalalarda adolatli va begʻaraz boʻlishi shart;

- oʻzidan yuqori lavozimdagi rahbar bilan muloqotda xushmuomalalik va odob bilan ish tutishga intilishi lozim;

- rahbar doimo tanqidga va sharoitning oʻzgarishga qarab tezkorlik bilan javob qaytara olishi maqsadga muvofiq;

- xodimlarga arziqli shaxsiy namuna koʻrsatishga intilishi kerak;

- rahbar jamoada psixologik sogʻlom muhitni yarata olishi va oʻzaro hamkorlikni yoʻlga qoʻya olishi ayni muddaodir;

- rahbar oʻz ijodiy-kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishda shaxsiy namuna koʻrsata olishi.

Yuqorida qayd etilgan zamonaviy taʼlim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligi doirasida yaratilgan ijobiy sifatlar ketma-ketligi umumiy oʻrta taʼlim tizimi rahbarlarining alohida shaxsiy koʻrsatkichlaridir.

Umumiy oʻrta taʼlim maktab direktorlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini oʻrganish muammolarini hal etishda zamonaviy psixologik tadqiqotlar, shuningdek, ilmiy-amaliy kuzatishlarimiz natijalariga tayanib, “Maktab direktorining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligiga psixologik taʼsir koʻrsatish” metodikasi orqali direktorlarda baʼzi birlamchi va dastlabki kasbiy

kompetentlikni tahliliy o'rganish va uni rivojlantirish sxemasini tuzishga harakat qilindi hamda ularni aniqlash maqsadida tadqiqot o'tkazildi. Olib borilgan kichik tadqiqot A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash markaziy institutiga malaka oshirishga kelgan maktab direktorlari guruhida o'tkazildi (1-jadval).

1-jadval

№	Umumiy o'rta ta'lim maktabi direktorlarining kasbiy kompetentlikka asoslangan ijtimoiy-psixologik ko'rsatkichlar	Erkak maktab direktorlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligi ko'rsatkichlari	Ayol maktab direktorlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligi ko'rsatkichlari
1.	Qaror qabul qilish:	Rahbar qaror qabul qilayotib, tabiiyki, o'zining bilim va tajribasiga suyanadi.	Bunda aql-zakovat, yetuklik, idrok qilish qobiliyati, fikrlash, xotira, e'tibor va tasavvur asosiy rol o'ynaydi.
2.	Axborotni «yuqoridan» qabul qilish:	Axborotni «yuqoridan» qabul qilganda tezda ishga kirishadi va bajaradi.	Axborotlarni topshiriq deb qabul qiladi va tezda tarqalishini ta'minlaydi.
3.	Bo'ysunuvchilarga ta'sir ko'rsatish:	Boshqaruv mahoratidan kelib chiqib ko'rsatmalar beradi va qattiq qo'llikka tayanadi.	Boshqaruvda mehribonlik va aksariyat hollarda muloyimlikka asoslanib ish ko'radi.
4.	Shaxsiyatni baholash:	O'z "meni"ni sevadi ammo, ishga ma'suliyat yuqorilik qiladi.	His-tuyg'ularga beriluvchan va o'z "meni"ga jiddiy e'tiborli bo'ladi.
5.	O'z faoliyatiga munosabat:	Qat'iy talablar asosida (yuksak saviyali talablar asosida) faoliyat ko'rsatadigan rahbar.	Qat'iy talablar asosida faoliyatiga nazar soladi, biroq onalarcha ish tutishga moyil rahbar.
6.	Individual-psixologik komponentlik:	Toifalar misolida, jismonan va ruhan kuchliman ma'nosida o'z ifodasini topadi.	Toifalar misolida, bilim va aqliy ustunligim borku, ma'nosida o'z ifodasini topadi.
7.	Bo'ysunuvchilar bilan muomala qilish:	Bo'ysunuvchilar bilan muloqotda to'g'ri yo'l va ohangni tanlash, ma'lumotni obrazli uzatish va boshqalar	Bo'ysunuvchilar bilan muloqotda ularni e'tiborini tortish, suhbatdoshini o'ziga jalb etish.
8.	Jamoa bilan ishlashdagi mavjud qiyinchiliklar:	Aksariyat maktablarda ayollarning ishlashi ko'pincha tushunarsiz vaziyatlarni keltirib chiqaradi.	Mavjud holatda ayollarning ko'pligi ish jarayonini osonlashtirishi va bir-birlarini tushunish.
Mazkur shkala bo'yicha 20 baldan 40 ballgacha beriladi.		Unga ko'ra tadqiqot natijasi erkak maktab direktorlari jamoasi jami 35 ball.	Tadqiqot natijasiga ko'ra ayol maktab direktorlari jamoasi 30 ball

A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash markaziy institutiga malaka oshirishga kelgan maktab direktorlari jamosida o'tkazilgan "Maktab direktorining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligiga psixologik ta'sir ko'rsatish" deb nomlangan metodikasi sinalluvchilari umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlari bo'lib, ular ikkita guruhga ya'ni, birinchi guruh erkak maktab direktorlari va ikkinchi guruh ayol maktab direktorlariga bo'linishdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra:

1-guruh ya'ni, erkak maktab direktorlari jamosi biroz boshqaruvda qattiqqo'l, jiddiy, o'ziga ishongan, psixologik barqaror, o'z "meni"ni sevuvchi, hissiyotlarga beriluvchanligi ayollarga nisbatan past, topshiriqlarga tez bo'ysinuvchi.

2-guruh ya'ni, ayol maktab direktorlari jamosi hissiyotga beriluvchan, xotirasi mustahkam, o'z "meni"ni sevuvchi va jiddiy e'tiborli, boshqaruvda mehribon, onalarcha ish yuritishga moyil, berilgan topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklarga chidamsiz, ishonuvchan, o'ziga ishonchlikda beqaror.

Xulosa qilib aytganda, “Maktab direktorining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligiga psixologik ta’sir ko’rsatish” metodikasi kelgusida ta’lim tizimi rahbarlarining boshqaruv jarayonini samarali tashkil etishda ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Adabiyotlar

1. Karimova V.M., Xayitov O.E., Umarova N.Sh. Boshqaruv sohasidagi professional kompetensiya asoslari. – T.: “Fan va texnologiya”. 2008. –120 b.
2. Куликова Е.В. Общее и особенное в развитии профессиональной компетентности кадров управления: Дис.... канд.психол.наук. – М.: 2006.–161 с.
3. Нурмухаметова А.Н. Психологические особенности личности руководителя образовательного учреждения: Дис. ...канд.психол.наук. –М., 2002. –155 с.
4. Развитие профессиональной компетентности менеджера: Конспект лекции по курсу “Профессиональные навыки менеджера”.Ф.С.Исмагилова. –Екатеринбург: изд.ИПК УГТУ. 2006. –124 с.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi gazetasi, 2016 y, 16 yanvar, 11-son, 2-bet.

Шоназаров А.М.
СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ И
ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ
ДИРЕКТОРОВ
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

В настоящее время изучение социально-психологической компетенции современных управляющих образовательной системы имеет важное значение. Поэтому, в этой статье проанализированы социально-психологические компетенции современных управляющих образовательной системы и их совершенствование. Разработаны научно-практические рекомендации по эффективному управлению школ.

Ключевые слова: компетентность, качество, социальный, психологический, профессиональный, управление, начальник.

Shonazarov A.M.
SOCIAL-PSYCHOLOGICAL AND
PROFESSIONAL COMPETENCE OF
THE DIRECTORS OF SECONDARY
SCHOOLS

Nowadays studying of social-psychological and professional competency of modern education system managers is acquiring important value. Therefore some analyses regarding theory-methodological basics of social-psychology professional competency of modern education system managers are given. As well as some suggestions to enhance and scientifically approving results are developed.

Keywords: competence, quality, social, psychological, professional, management, boss.

UDK: 151.8

IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUNOSABAT MEZONLARI TANLANISHINING O‘ZIGA XOSLIGI

Z.H.Qorayev

Navoiy viloyat XTXQTMOI

Annotatsiya. Maqolada munosabat olamining shaxs va jamiyat uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik ahamiyati va munosabat mezonlari tanlanishining o‘ziga xosligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: munosabat, shaxs, jamiyat, ijtimoiy, psixologik.

Ma’lumki, munosabat subyektiv hodisa sifatida, tashqi olamni aks ettirishdagi ong faolligi va uning regelativ funksiyasini ta’minlash bilan bog‘liq tarzda tarkib topadi (K.K.Platonov 1982.) insondagi munosabatlar tizimi faoliyat motivi va o‘z maqsadini amalga oshirishga qaratilgan hissiy-irodaviy sifatlar orqali namoyon bo‘ladi.

Munosabat omilining shaxs va jamiyat uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, (“yaratilgan narsa, qurilgan bino, aniq she’riy satr, o‘tkazilgan daraxt, yaratilgan yoki ijro etilgan qo‘shiq” va hokazo) bu bir tomondan faoliyat mavzusi bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa vosita sifatida namoyon bo‘ladiki, kishi uning yordami bilan ijtimoiy hayotda o‘zini

qaror toptiradi. Negaki, bu narsa boshqa odamlar uchun yaratilgandir. Shu narsa orqali odamlar o'rtasidagi munosabat bevosita o'z aksini topadi, ijod qilayotganlarga va bajarayotganlarga ham iste'mol qilayotganlarga va o'zlashtirayotganlarga ham bab-barobar tegishli bo'lgan umumiy narsani ishlab chiqarish tariqasidagi munosabat hosil bo'ladiki, bu munosabat shaxsning ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi psixologik himoya jarayoni uchun ham muhim ahamiyat kasb etmay qolmaydi. Ijtimoiy psixologik munosabatlar turli ijtimoiy yo'nalishlarda odamlar o'rtasidagi bog'liqlikni namoyon qiluvchi omil sifatida tarkib topadi.

Bunda: "biz-biz", "biz-siz" yoki "men-jamoa", "jamoa-men", "men-jamoa-jamiyat" yo'nalishlari psixologik xizmat uchun ham ma'lum amaliy yo'nalishlarni belgilaydi.

Ijtimoiy psixologik munosabatlarni psixologik nuqtayi nazardan puxta va chuqur tahlil qilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Munosabat mezonining tarkib topishi esa shaxsga ijtimoiy psixologik yondashuv obyektning mazmuni bilan baholanadi. Shu boisdan bo'lsa kerak, ijtimoiy psixologik adabiyotlarda shaxsning jamiyatga munosabati o'z ijtimoiy va mehnat majburiyatlariga munosabati, jamiyat a'zolariga munosabati va o'z-o'ziga munosabati ma'lum ierarxik tizim asosida talqin qilinadi.

Ushbu munosabatlarda shaxsning hayot tarzi, yo'nalishlari, axloqiy ideallari va qiyofasi yaqqol namoyon bo'lishi mumkin. Bu esa har bir shaxsning munosabatlari bilan bog'liq ijtimoiy faollik tizimi haqida fikr mulohaza yuritishga imkon beradi. Kuzatishlar va ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quv faoliyatiga munosabat jarayoni ham shaxs psixologik yo'nalishida o'ziga xos ierarxik tizimga ega bo'lib, mazkur tizim asosida shaxs faolligining namoyon bo'lish belgisini, natijasi va dinamikasini tadqiq qilish mumkin. Chunki, u yoki bu psixologik mezonning ma'lum ierarxik tuzilishi asosida mazkur mezon haqida nazariy-ilmiy mulohazalar yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga muvofiq munosabat mezonlari, uning ierarxik tizimi va o'quv faoliyatiga daxldor jihatlari belgilanadi. Bundan tashqari aytish joizki, munosabat mezonini tadqiq qilishda barcha tadqiqotchilar uni subyektning obyektga nisbatan ichki xayrixohligini namoyon qiluvchi parametrlar: anglaganlik hissiy kechinma, faollik va qat'iylikning tarkib topishi bilan bevosita bog'laydilar.

O'z-o'ziga munosabatni shakllantirish mezonining nazariy asosi shundaki, har bir shaxs, o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lsagina, uning ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan barcha imkoniyatlari ro'yobga chiqishi va bu ayni paytda shaxs faolligini ta'minlashda xizmat qilishi mumkin. O'z-o'ziga munosabatni shakllantirishning ijtimoiy qimmati va ahamiyatini tasdiqlovchi talaygina fikrlar mavjud, ularning barchasida o'z-o'ziga munosabatning u yoki bu jihatlari chuqur tahlil qilingan holda shaxs taraqqiyotining ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida tadqiq qilinadi. Hatto, o'z-o'ziga munosabat maxsus himoya mexanizmi sifatida bugungi kunda tan olingan ilg'or umumiy psixodiagnostik adabiyotlar va tadqiqotlar markazida turganligini alohida qayd etish mumkin.

Chunonchi o'z-o'zini "yoqimsiz" (tabiiy his-tuyg'ularga oid) hodisalardan himoya qilish o'z-o'ziga munosabatlarni himoya qilishning eng muhim jihati hisoblanadi. Subyekt(shaxs) o'z-o'zini noxush hislarga yo'latmaslik uchun kerak bo'lsa o'zining haqiqiy "men" siymosida gavdalanuvchi jarayonlarga bog'liq ayrim jihatlarni kechinmalarni qurbon qiladi. Inson ma'lum bir prinsip asosida harakat qilishi mumkin: "Ha men unchalik yaxshi emasman, chunki ayrim hollarda "bo'sh", "kuchsiz" man lekin yomon emasman". O'z-o'ziga munosabat me'yorining saqlab qolinishi va qo'llab-quvvatlanishi tashqi ijtimoiy predmetli faoliyat va ayni paytda ichki shaxsiy faollikni ifodalovchi imkoniyatlar ko'lamini kamolotining muntazam ravishda ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, o'z-o'ziga, faol-ijobiy munosabatning namoyon etilishi avvalo o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini rivojlantirishga intilishdan boshlanadi. Faoliyatga munosabat me'zoni, faoliyat psixologiyasi va uning ijtimoiy ahamiyati haqidagi nazariy-ilmiy tahlillar, xulosalar haqidagi fikr-mulohazalar faoliyatga munosabatni yuqori darajada tarkib toptirishning munosabat motivatsiyasi samaradorligi uchun muhim mezon sifatida qabul qilish imkoniyatini beradi. Chunki faoliyatga berilgan ta'rifning (ya'ni: "Faoliyat – kishining anglashilgan maqsad bilan boshqarib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir") o'ziyoq insonning u yoki bu darajadagi munosabatlari majmuini ifodalab turibdi. Demak, shunga muvofiq, faoliyatga nisbatan munosabatning uch (ijobiy, indifferent, salbiy) darajasini shartli ravishda belgilash mumkin:

a) faoliyatga nisbatan ijobiy munosabatning namoyon bo'lishi, bizningcha, faoliyatning ijtimoiy mazmuniga talabchanlik va faoliyat mahsulidan qoniqish asosida yuz beradi;

b) faoliyatga nisbatan indifferent (yuzaki) munosabatlar, bizningcha, faoliyat talablari va mahsulidan yetarli qoniqmaslik, faoliyatga nisbatan barqaror qiziqishlarning yo'qligi faoliyat va shaxsning ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi uyg'unlik ta'minlanishining yetarli emasligi va faoliyat bilan shunchaki majburiyat asosida mashg'ul bo'lish natijasida sodir bo'ladi;

v) faoliyatga nisbatan salbiy munosabatlarning namoyon bo'lishi shaxs individuallik dunyosi va faoliyat talablari o'rtasidagi adekvatlik yo'qolganda faoliyatga nisbatan faqat moddiy-majburiy harakatlarning yoki faoliyat talabi va uning mahsulidan hissiy-ijtimoiy mazmundagi qoniqishning nihoyatda past darajada namoyon etilishi bilan xarakterlanadi.

Munosabat tizimini mazkur turlarga bo'lishdan maqsad, faoliyatga nisbatan ijtimoiy faollikni munosabat tarzida ifoda etuvchi ayrim ijtimoiy psixologik jihatlarni yanada chuqurroq tasavvur va talqin etishdir.

Yuqoridagi mulohazalar talqinidagi faol-ijobiy munosabatning har bir shaxsda namoyon etilishi o'z talablari mahsulidan qoniqish asosidagina qaror topishi mumkinligini uqtirmoqda, qolaversa faoliyat mahsulidan qoniqish va shaxsning o'z faoliyatidan mamnun bo'lishi hamda o'z ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishi asosida qaror toptirilgan harakatlar majmuasini ifodalaydi.

Faoliyatga faol-ijobiy munosabatlarning namoyon etilishini ifodalovchi mezonlarni (ko'rsatkichlarni) aniqlashga qaratilgan maxsus usullarni ishlab chiqishda va qo'llashda nazariy-ilmiy asoslaniladi.

Adabiyotlar

1. Платонов К.К. Структура и развитие личности. – М., 1986.
2. Психологическая диагностика (Под ред. К.М.Гуревича). -М.,1981. -232 с.
3. Психологические механизмы мотивации человека. – М., 1990.
4. Психологические аспекты совершенствования профориентационной работы среди молодёжи. Сб. науч. трудов. (Под ред. Давлецкина М.Г.). – Т., 1982. – 108 с.
5. Психолого-педагогические аспекты профориентации и трудового обучения учащихся в свете основных направлений реформы общеобразовательной и профессиональной школы. (Под ред. Давлетшина М.Г., Шоумарова Г.Б., Запрягаева Г.Г.). – Т., 1987.
6. Barotov Sh.R. Kichik yoshdagi o'quvchilar faoliyatini baholash. - T.: «O'qituvchi»,1992. - 48b.

КОРАЕВ З.Н. ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА КРИТЕРИЙ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ

В данной статье рассматривается роль социально-психологического соответствия личности и общества в мире отношений и особенности выбора критериев факторов отношений.

Ключевые слова: отношение, личность, социальный, психологический.

Z.H.Qorayev THE PECULIARITIES OF CHOOSING SOCIAL PSYCHOLOGICAL ATTITUDE REQUIREMENTS

In this article considering the role of socio – psychological agreement of society and person in the world of relations and selections of criteria of factors of relation.

Keywords: relations, person, social, psychology.

UDK: 154.2

QO'RQUV VA FOBIYA PARADOKSLARI

M.I.Salaxutdinova, I.Yu.Madatov

Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada insonda kechadigan qo'rquv, uning turlari haqida ma'lumot beriladi. Qo'rquvning fobiyalardan farqi, qo'rquvning tabiiy sabablari va fobiyalarning patologik ko'rinishlari, korreksion uslublari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: qo'rquv, fobiya, xavotir, patologiya, hissiyot, irsiyat, tarbiya, ongsizlik.

Biz xohlaymizmi, yo'qmi hayotimiz davomida ko'pgina noxushliklar, dilxiraliklar, ayanchli va qo'rqinchli voqea-hodisalarga duch kelamiz va ularda ishtirok etamiz. Hech o'ylab ko'rganmisiz, biz nima uchun qo'rqamiz? Qo'rquv qanday hodisa va u bizning doimiy ruhiy holatimizga qanday ta'sir qiladi? Insonlar ko'pincha qo'rquv holatini xavf-xatar vaqtida, ba'zan biror bir shaxs oldida, muhim ish va muhim uchrashuvlardan oldin, nizoli vaziyatlarda, o'qish va ishda muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda, jamoa oldida so'zga chiqqanda, kutilmaganda sodir bo'ladigan xavotirli vaziyatlarni boshdan kechiradilar. Ko'pincha psixologik adabiyotlarda qo'rquv muammosi taniqli olimlar tomonidan keng doirada tahlil qilinib, bu borada ilmiy-nazariy ta'riflar ishlab chiqilgan [1, 134].

Qoʻrquv – subyekt oʻzining xotirjam hayot kechirishiga ziyon etishi mumkinligi haqida, unga tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mumkin boʻlgan xavf-xatar haqidagi xabarni olishi bilan paydo boʻladigan salbiy hissiy holatdir. Kishi qoʻrquv hissiyotiga berilganda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkinligini faqat ehtimoliy tarzda biladi va ushbu (koʻpincha yetarlicha ishonarli boʻlmagan) taxminga binoan harakat qiladi. Qoʻrquv hissiyoti stenik tusda ham, astenik tusda ham boʻlishi yoki ruhan astoydil tushkunlikka berilgan va xavotirlangan tarzda yoki affektiv holatga tushgan tarzda kechishi mumkin. Qoʻrquv – odamning oʻziga yoki yaqin kishilariga taalluqli boʻlgan haqiqiy yoki xayoliy xavf-xatarga nisbatan qaytaradigan emostional reaksiyasidir. Qoʻrquv yuzning oqarishi, badanning titrashi va boshqa bir qancha ixtiyorsiz tovushlar, harakatlar bilan ifodalanadi. Qoʻrquv xavf-xatardan qochish yoki harakatsiz turib qolish holatda ham namoyon boʻlishi mumkin. Qoʻrquv holat shaxsda psixik jarayonlarning normal kechishiga katta taʼsir koʻrsatadi. Bu jarayonda sezuvchanlikning oʻta oshib ketishi yoki pasayishi vaziyatning mohiyatini tushunmaslik, idrok etishning yomonlashuvi kabi holatlarni kuzatish mumkin. Qoʻrquv tafakkur jarayoniga ham taʼsir koʻrsatib, baʼzi insonlarda fikrlashning ravonlashuvi va vaziyatdan tezroq chiqib ketishga intilish bilan namoyon boʻlsa, boshqalarda, aksincha, taffakur mahsuldorligining pasayishi, nutq va harakatlarda mantiqsizlik aks etadi. Bu psixofiziologik holat endokrin tizimining faollashib, adrenalın garmoning qancha koʻp miqdorda oʻtishi bilan xarakterlanadi. Juda koʻp holatda irodaviy soha zaiflashib, inson biror qaror qabul qilishga, vaziyatni nazorat qilishga oʻzida kuch topa olmay qoladi. Qoʻrquv vaqtida koʻpincha nutq buzilib, tovushda titroq paydo boʻladi. Qoʻrquv va xavotirlik diqqat jarayoniga ham katta taʼsir koʻrsatadi. Odatda, diqqat juda tarqoqlashib, inson oʻz diqqat eʼtiborini bir yerga toʻplay olmay qoladi va baʼzan, aksincha diqqatining barqarorligi oshib, aynan bir obyektga tomon yoʻnaltirilganligini ham koʻrish mumkin [1, 135]. P. P. Blonskiy diqqat bilan qoʻrquv, vahimani bir narsa deb qaradi. Qoʻrquv bu diqqatning intensivroq namoyon boʻlishi, yaʼni maksimal darajada aks etishi deb tushuntiradi. Nemis olimi A.Kempinski qoʻrquvni keltirib chiqaruvchi holatlarni 4 guruhga ajratadi: hayot uchun bevosita xavfli taʼsir koʻrsatuvchi omillar; ijtimoiy tahdidlar; faollikni shaxsan tanlash imkoniyatining mavjud emasligi hamda ijtimoiy muhit bilan oʻzaro munosabatlardagi buzilishlar. Kelib chiqish sabablariga koʻra qoʻrquvni biologik, ijtimoiy, ruhiy va dezintegrastion turlarga boʻlish mumkin. Qoʻrquv xavf-xatardan himoyalanişga va undan qochish yoʻllarini izlashga undovchi normal emostional holat hisoblanadi. Hech qachon qoʻrquvni his qilmaslik mumkin emas, holbuki qoʻrquv va xavotirlikning yoʻqligi ham psixik buzilish belgisidir. Ammo baʼzi insonlarda maʼlum bir vaziyat va holatga nisbatan noadekvat reaksiyalar bilan ifodalanuvchi yopishqoq qoʻrquvlar va fobiyalar ham uchraydi. Fobiya uchur boʻlgan inson qoʻrquvning asossiz ekanligini tushunib yetadi, ammo qoʻrquvdan xalos boʻla olmaydi. Yopishqoq qoʻrquvlarning paydo boʻlish ehtimoli har bir insonda mavjud. Shuning uchun ham fobiyalar yetarlicha keng tarqalgan.

Fobiya – biror vaziyat, hodisa predmetga nisbatan vujudga keladigan birmuncha turgʻun va asossiz qoʻrquvdir. Fobiya bilan aziyat chekuvchilar qoʻrquvlariga sabab boʻluvchi predmet yoki vaziyat haqida hatto oʻylaganlarida ham ularni vahima qamrab oladi. Fobiya insonlarning normal hayot kechirishlariga toʻsqinlik qilib, shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatlariga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Fobiya qoʻrquvdan kuchli va turgʻun holda namoyon boʻlishi, qoʻrquv uygʻotuvchi obyektidan qochish istagining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Maʼlumotlarga qaraganda yer yuzi aholisining 10- 11% turli xil fobiyalardan aziyat chekadi. Bu holat insonda kutilmaganda va anglanmagan sababga koʻra paydo boʻlishi mumkin. Ayniqsa, bolalarda qoʻrquv va fobiyalar ularning jamiyatga, oʻrab turgan olamga moslashish jarayonlarida koʻproq uchraydi. Koʻrsatilishicha, fobiyalar fantaziyasi yaxshi rivojlangan, xavotirlanuvchan xarakterga ega boʻlgan, oʻziga ishonmaydigan, oʻziga past baho beradigan, muloqotga kirishish malakalari yaxshi shakllanmagan insonlarda koʻproq kuzatilar ekan. Bu jarayonga irsiyat hamda tarbiya ham katta taʼsir koʻrsatadi. Fobiya erkaklarga qaraganda ayollarda koʻproq uchraydi. Bu holat ayollarning hissiyotga beriluvchanliklari va koʻpincha agressiyaning obyektiga aylanib qolishlari bilan bogʻliqdir. Fobiyaning juda ham koʻp turlari mavjud: odamlar biror hayvondan, hasharotdan, balandlikdan, yolgʻiz qolishdan, kasalikka chalinishdan, ochiq yoki berk boʻshliqdan qoʻrqadilar. Hatto insonlarda fobofobiya, yaʼni biror fobiya uchur boʻlishdan qoʻrqish kabi turi ham uchraydi. Odamlarning doimo qoʻrquv hissini qoʻzgʻatuvchi vaziyatdan qochishlari fobiyaning belgisidir. Fobiyalar vaqtida inson qoʻrquv obyektiga nisbatan vegetativ nerv sistemasidagi qoʻzgʻalishlar natijasida 2 xil usulda javob reaksiyasini koʻrsatishi mumkin. 1-holatda, simpatik nerv sistemasi qoʻzgʻalib, yurak urishining tezlashuvi, qon bosimining koʻtarilishi, terining qizarishi kabi belgilar kuzatilsa, 2-holatda esa parasimpatik nerv sistemasining qoʻzgʻalishi natijasida yurak urishining sekinlashuvi, qon bosimining pasayishi, teri rangining oqarishi, sovuq ter chiqishi

kabi holatlar namoyon bo'ladi. Ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, fobiya nasldan-naslga o'tadi. Ota-onada biror fobiya mavjud bo'lgan bo'lsa, farzandga ham shu holatga nisbatan moyillik nasliy yo'l bilan uzatiladi, ammo bu moyillik aynan shu fobiya turiga nisbatan bo'lmasligi mumkin. Fobiyalar inson hayotiy faoliyatining deyarli hamma jabhalarida uchrashi mumkin:

1) insonning uyda bo'lish, xo'jalik ishlari, shaxslararo munosabatlar va hokazolar bilan bog'liq fobiyalar: yong'in chiqishidan, gaz bilan zaharlanishdan, tok zarbasidan (urishidan), suv bosib ketishidan, balandlikdan, ifloslikdan, yuvish vositalaridan, dorilardan, maishiy asboblarning portlab ketishidan, uyning qulab tushishidan, yolg'izlikdan yoki qorong'ulikdan qo'rqish;

2) ish faoliyati bilan bog'liq fobiyalar (hamkasblar va boshliqlar bilan munosabatlardan, atrof-muhitdan va hokazolardan qo'rqish): ishni boshlashdan, ishni yo'qotib qo'yishdan, yangi mutaxassisligiga mos bo'lmaslikdan, ish joyida shikastlanish yoki baxtsiz hodisadan, nafaqaga chiqishdan, hamkasblari bilan o'zaro bir-birini tushuna olmaslikdan, boshliqlardan, nazorat-tekshiruvchi tashkilotlardan, muhim muzokaralardan, masuliyatni o'z zimmasiga olishdan qo'rqish;

3) insonning shaxsiy, jinsiy hayoti bilan bog'liq fobiyalar: homiladorlikdan, farzandsizlikdan, zo'rlanishdan, jinsiy yuqumli kasalliklar yuqishidan, turli kasalliklar bilan kasallanishdan, qarilikning qiyin kechishidan, soch to'kilishidan, allergik reaksiyalardan qo'rqish va boshqalar;

4) yashirin fobiyalar: qarama-qarshi jins vakillaridan; biror illatga berilib qolishdan; alkohol, narkotik mahsulotlariga, dori vositalariga va boshqa xil tobelik yuzaga kelishidan; omadsizlikning takrorlanishidan, kimningdir joniga qasd qilishdan; o'ldirilishdan; yopiq joylardan, binolardan, o'zini o'ldirishdan, boyligini yo'qotishdan, aqldan ozishdan, o'zga sayyoraliklar bilan uchrashuvdan, turli ranglardan, ruh va arvohlardan qo'rqish.

5) Ota-onalarda kechadigan fobiyalar: o'z bepushtligidan, homiladorlikdan, homilaga zarar yetishidan, tug'ruq og'riqlaridan, turmush o'rtog'i bolani sevmasligidan, bolada qandaydir illat aniqlanishidan, unga ziyon yetkazishlaridan qo'rqish.

Yuqorida keltirib o'tilgan fobiyalardan tashqari bolalar va o'smirlar, yigit va qizlar, erkaklar va ayollar uchun xos bo'lgan juda ko'p fobiya turlari mavjud. Ta'kidlab o'tilganidek, bu holatlarning oddiy qo'rquv yoki xavotirlik sifatida namoyon bo'lishi tabiiy hol. Ammo shu kabi o'y-fikrlarning inson miyasini band etishi, biror narsadan qattiq qo'rqish, hatto o'sha narsaning nomini eshitish yoki suratini ko'rishning o'zi ham insonning dahshatga tushishiga sabab bo'lishi va eng asosiysi bu qo'rquvlardan odam o'z iroda kuchi yordamida xalos bo'la olmasligi fobiyaning xarakterli xususiyatlaridandir. Fobiyalar ma'lum vaziyatlar, hodisalar va tasavvurlar bilan bog'liq bo'lgan doimiy xavotirlar va qo'rquvlar asosida tez va sezgarsiz shakllanishi hamda og'ir psixopatologik asoratlar darajasigacha o'sib keladigan qiyinroq ruhiy kechinmalarga ham sabab bo'lishi mumkin. Xavotirlik, qo'rquv va fobiyalar kechishning davomiyligi bilan ajralib turadi, o'sib rivojlanishga, ortib borishga, o'z shakllarini o'zgartirib, boshqa hayotiy vaziyatlar, predmetlar shakllariga aylanishga moyil bo'ladi. Ular doimiy tushkunlik, g'amginlik, holsizlik yoki agressiya holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bir odamning o'zida bir necha fobiyalar kuzatilishi mumkin. Bunda inson o'z kasalligining barcha ko'rinishlarini tanqidiy idrok etishi to'liq saqlanib, bu hol uning ruhiy azoblarini yanada kuchaytiradi. Fobiyalar inson xulqining ba'zi noodatiy holatga ham sabab bo'lishi, atrofdagilarning nomuvofiq reaksiyasiga olib kelishi mumkin. Masalan, fobik qo'rquvlar sodir bo'lishi timsoli mavjud bo'lgan baxtsizlikdan himoyalaniish maqsadida o'tkaziladigan butun boshli marosimgacha bo'lgan harakatlar, ko'pincha sog'lom fikr nuqtayi nazaridan erish bo'lgan xulq-atvor ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Fobiya – insonlar emostional sohasining patologik holat bo'lib, asossiz ravishdagi kuchli qo'rquv ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Xulosa shuki, qo'rquv yosh davrlariga ko'ra, o'zgarib boruvchi tabiiy holat bo'lib, hech narsadan qo'rqmaslik ham nosog'lik hisoblanadi. Masalan, go'daklik davrida begonalardan va baland-pastlikdan qo'rqish, bolalikda shifokor va igna sanchishdan qo'rqish, o'quvchilar va talabalarning imtihondan o'ta olmaslikdan yoki katta odamlarning o'zi va yaqinlariga bo'lgan yuqorida ko'rsatib o'tilgan tahdidlardan (ijtimoiy, jismoniy v.h.) qo'rqish faollik va nuqtayi nazarni hosil qiladi. Shaxsning kompromiss yo'llarni topishiga olib keladi. O'ta qo'rqoqlik kuchli aybdorlik, tan olinmaslik kabi sabablardan yuzaga keladi. Qo'rquv holatining normal darajada bo'lishi sog'lom ruhiy muhit va shaxsga ijtimoiy munosabatga bog'liq.

Fobiyalar sababi esa ongsiz komplekslarimiz asosida yuzaga keladi. Notinch oilada o'sgan bola bir necha bor onasining "ketish" yoki "o'lish" haqidagi gapini eshitgan bo'lsa, "siqib chiqarish" psixologik himoya vositasi ishga tushib, onadan ajralish haqidagi qo'rquv o'rgimchak yoki boshqa obyektga "ko'chiriladi". Bo'lib o'tgan tarixiy voqealar, shaxsning oilaviy biografiyasida yuz bergan

hodisalar ongsiz komplekslar – fobiyalarni hosil qilishi mumkin. Urushni boshdan kechirgan aholi och qolishdan qoʻrqishi, ochlikga mukkasidan ketishi, ota yoki ona xiyonati haqida eshitgan bola mustaqil hayot qurganda oʻta rashkchi boʻlishi ruhiy komplekslardir.

Qoʻrquv normal holat boʻlsa, fobiya – patologik kompleks hisoblanib, uni psixoteropevtik suhbat, anglash (tahlil), ijodga yoʻnaltirish bilan davolash mumkin. Ijodda shaxs ruhiy kechinmalari, qoʻrquv sublimatsiyalanib, katarsis (tozalanish) yuz beradi. Vaqtida davolanmagan fobiyalar shaxsni nevrozga, ichkilikka yoki psixomatik kasallikka (oshqazon yarasi va v.h.k) olib kelishi mumkin. Ruhan kuchli insonlar esa oʻz fobiyalaridan ham ijob, mehnat, rahbarlik yoki boshqa sohada foydalanishlari mumkin. Inson noyob mavjudot boʻlib, shu sababli qoʻrquvni yoʻqotish, fobiyaning esa davolash shart va majbur deb ayta olmaymiz. Bu shaxsning oʻz aqliga, ota-ona fahmiga, jamiyat pozitsiyasiga havola etiladi. Inson ruhi shu darajada sirli va kutilmagan narsaki, unga faqat yakka, alohida, maxsus yondashuv talab etiladi.

Adabiyotlar

1. Gʻoziyev E.Gʻ. Umumiy psixologiya. Darslik. – Toshkent: "Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010. – 510 bet.
2. Nishanova Z.T., Xalilova N.I. Psixokorreksiya. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi bosmoxonasi, 2006. – 290 bet.
3. Psixozanaliz asoslari. Oʻquv qoʻllanma. Tuzuvchi M. Otajonov. – Toshkent: OʻzMU, 2004. – 204 bet.
4. Я работаю психологом... Опыт, размышления, советы.// Под ред. И.В. Дубровиной. – М.:ТТС «Сфера», 1999. – С. 245.

Салахутдинова М.И., Мадатов И.Ю. ПАРАДОКСЫ СТРАХА И ФОБИЙ

В статье дается информация о страхе, его видах. Анализируется отличие страха от фобий, исследуются естественные причины страха и патологические виды фобий, предлагаются методы коррекции.

Ключевые слова: страх, фобия, переживания, патология, эмоции, наследственность, воспитание, бессознательный.

Salaxutdinova M.I., Madatov I.Yu. PARADOXES OF FEAR AND PHOBIA

The article describes fear and its kinds. The difference between fear and phobia, natural reasons of fear and patologic view of phobia, correction methods are analyzed.

Keywords: fear, phobia, anxiety, pathology, emotions, heredity, upbringing, conscious less.

UDK: 152.3

КРИТЕРИИ, ПОКАЗАТЕЛИ И КАЧЕСТВА ТОЛЕРАНТНОЙ ЛИЧНОСТИ

З.А.Абидова

Преподаватель Национальный университет Узбекистана

Аннотация. В данной статье сделана попытка систематизации критериев, показателей и качеств толерантной личности. Автором предлагается разделение их на внутренние критерии, обеспечивающие толерантность личности и внешние критерии, которые являются элементами сдерживания, контроля и взысканий интолерантности в социуме.

Ключевые слова: толерантность, компонент, внутреннее, внешнее, статический, динамический, реакция, когниция, действие, установка.

В настоящее время толерантность стала одной из наиболее актуальных и широко востребованных во всем мире. Она активно изучается со стороны педагогов, философов, политологов, психологов и специалистов других областей науки. Для более глубокого понимания феномена толерантности необходимо изучение критериев, показателей и качеств толерантной личности. Систематизация данных показателей даст возможность создания модели толерантной личности.

Несмотря на то, что феномен «толерантность» широко исследована, её критерии и показатели четко не определены. В научной литературе существуют работы, где авторы предлагают свою версию толерантной личности.

Ряд авторов выделяют критерия толерантности, которые соответствуют Декларации принципов толерантности, принятой Генеральной конференцией ЮНЕСКО (1995) [3, 7].

Попытка систематизации критериев толерантности многими авторами соответствует психологической триаде: эмоция, когниция, поведение, как последовательно протекающий процесс [1, 2, 4, 5, 6, 8]. Однако в процессе намеологической систематизации и группировки, т.е. в терминологии и определении критериев, происходит образование комплексов этих трех компонентов психики в одной или во всех группах, что вызывает некоторое противоречие. С другой стороны не принятие во внимание внутренних и внешних условий развития толерантности и интолерантности, и их разность природы, тоже вызывает определенные трудности в обеспечении логической четкости систематизации критериев толерантности.

Обобщая выделенные в научной литературе критерии, компоненты и показатели толерантности мы предлагаем следующую её структуру (таб.№1).

Таблица №1.

Структура толерантности

Критерия	Компоненты	Показатели
Внутренние критерии	Эмоциональный компонент	Статическая реакция – эмоциональное состояние
		Динамическая реакция – эмоциональная ответная реакция
	Когнитивный компонент	Статический процесс когниции – направление процесса мышления
		Динамический процесс когниции – процесс мышления
	Поведенческий компонент	Статические действия – потенциал определенного поведения
		Динамические действия – внешние действия, реализуемое поведение
Внешние критерии	Установки на уровне микросоциума	Моральные устои
		Этикет
		Культура
	Установки на уровне макросоциума	Права
		Обязанности
		Законы
	Установки на уровне мегасоциума	Декларации
		Международные правовые нормы и акты

Как видно из таблицы мы разделили внутренние и внешние критерия толерантности.

Внутренние критерии толерантности представляют собой эмоциональный, когнитивный и поведенческий компоненты.

Эмоциональный компонент состоит из статических и динамических реакций.

Статическая реакция представляет собой эмоциональное состояние индивида, являющийся предпосылкой к определенным эмоционально ответным реакциям. К ним можно отнести такие состояния, как безусловная реакция, высокий порог чувствительности, нервно-психическая устойчивость, эмоциональная стабильность, эмоциональная устойчивость, эмоциональная гибкость, низкая тревожность, чувство безопасности, интерес, сенситивность (чувствительность), эмпатия и т.п., которые являются качествами толерантной личности.

Динамическая реакция представляет собой эмоциональное реагирование, т.е. ответную реакцию субъекта на определенные факторы окружающей среды, являющиеся предпосылкой соответствующих процессов когниции и поведения. В этих реакциях идет проявление ответа, реакции: условное реагирование, саморегуляция, сдержанность, самообладание, выдержка, психологическая гибкость, доверительная реакция, потребность социализации, привлечение внимания, сочувствие, сопереживание и т.п., свойственные толерантной личности.

Когнитивный компонент состоит из статических и динамических процессов.

Статический процесс когниции представляет собой направление процесса мышления – определенные принятые или выработанные условности, нормы, установки субъекта. Такие качества толерантной личности, как: рефлексивность, ценности, активная жизненная позиция,

меньшая потребность в определенности, гибкость мышления, несуетливое восприятие мира, высокий уровень ответственности, просоциальное отношение, самооценка, оценка иного, гуманность, готовность принять иное и т.п.

Динамический процесс когниции представляет собой непосредственный процесс мышления – восприятие, осмысление, осознание и логическая систематизация окружающей действительности на основе принятых или выработанных условностей, норм и установок. К ним можно отнести следующие качества толерантной личности: рефлексия, признание иного, стремление к идеалам, восприятие людей такими, какие они есть, оригинальность мышления, отсутствие стереотипов, комплексное восприятие взаимодействия, принятие себя, осознание потребностей других, принятие иного и т.п.

Поведенческий компонент состоит из статических и динамических действий.

Статические действия представляют собой потенциал определенных, выработанных и применяемых субъектом знаний и навыков, являющиеся предпосылкой проявления тех или иных действий, т.е. определенного поведения. К ним можно отнести такие качества толерантной личности, как: способность к синтезу и анализу, знание принципов организации жизнедеятельности, знание самого себя, своих достоинств и недостатков, высокая учтивость, гибкость поведения, экстравертность, потребность в конструктивных взаимодействиях, способность к взаимодействию, самоопределение, способность считаться с потребностями других, признание иного и т.п.

Динамические действия представляют собой результат действий, основанных на имеющихся знаниях и навыков, т.е. умений субъекта. Такие качества толерантной личности, как: системность поведения, самоорганизация, критичность в выборе поведения, вежливость, рациональность принятого решения, отсутствие предрассудков, ответственное взаимодействие, инициативность, деловая активность, самореализация, взаимодействие, уважение потребностей других, уважение иного и т.п.

Внутренние критерия создаются на основе состояния триады компонентов психики (эмоция, когниция, поведение), в зависимости от которых складываются процессы обеспечивающие толерантность: реакций, мышления и действия субъекта.

Внешние критерия создаются только субъектами, т.е. микросоциумом, макросоциумом и мегасоциумом в виде следующих соответствующих, принятых установок:

1. Моральные устои, этикет, культура.
2. Права, обязанности и законы охраняющие их.
3. Декларации, международные правовые нормы и акты.

Эти установки обеспечивают сдерживание, контроль и соответствующие взыскания проявления интолерантности.

Таким образом внутренние критерия обеспечивают толерантность личности, а внешние критерия являются всего лишь элементами сдерживания, контроля и взысканий интолерантности в социуме. Каждая критерия имеет свои компоненты и показатели, в соответствии с которыми и проявляются качества толерантной личности.

Литература:

1. Асташова Н.А. Проблема воспитания толерантности в системе образовательных учреждений. М.: Науч. метод, 2003. – С.86 - 92.
2. Бардиер Г.Л. Социальная психология толерантности: Автореф. дис. ... докт. психол. наук. – Санкт-Петербург, 2007. – 45 с.
3. Бондырева С.К. Толерантность (введение в проблему). Воронеж: НПО «МОДЭК», 2003. – 240 с.
4. Ильин А.Б. Оценка личности и соревновательной готовности спортсменов разной специализации и квалификации (на примере циклических, игровых видов и спортивных единоборств): Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 2002. – 24 с.
5. Пишулин Н.П. Толерантное сознание этнических общностей / Н.П.Пишулин, С.Н.Пишулин, И.А.Коробецкий. – М., 2004. – С.13-14.
6. Психодиагностика толерантности личности / под ред. Г.У.Солдатовой, Л.А.Шайгеровой. – М.: Смысл, 2008. – 172 с.
7. Солдатова Г.У., Шайгерова Л.А., Шарова О.Д. Тренинг «Учимся толерантности» // На пути к толерантному сознанию. / отв.ред. А.Г.Асмолов. – М.: Смысл, 2000. – 181 с.

8. Яцевич Л.П. Формирование коммуникативной толерантности у будущих специалистов социальной работы: Дис. ... канд. пед. наук. – Чита, 2010. – 193 с.

Abidova Z.A. TOLERANT SHAXS SIFATLARI, KO'RSATKICHLARI VA BELGILARI	Abidova Z.A. CRITERIA, INDICATORS AND QUALITIES OF TOLERANT PERSONALITY
Ushbu maqolada tolerant shaxs sifatleri, ko'rsatkichlari va belgilarini tizimlashtirishga harakat qilingan. Muallif ularni shaxs tolerantligini ta'minlovchi ichki ko'rsatkichlar va jamiyatda intolerantlikni namoyon bo'lishini oldini oluvchi, uni nazorat qiluvchi va jazolovchi tashqi ko'rsatkichlarga ajratishni tavsiya etgan. Kalit so'zlar: tolerantlik, komponent, ichki, tashqi, statik, dinamik, reaksiya, kognitsiya, xatti-harakat, ustanovka.	In this article the author attempts to systematize criteria, indicators and qualities of tolerant personality. The author has proposed division of them into the internal criteria to ensure that tolerance of personality and external criteria are the elements of deterrence, control and penalties intolerance in society. Keywords: tolerance, component, internal, external, static, dynamic, reaction, cognitive, the action, installation.

UDK: 15.371.

O'QUVCHI YOSHLARDA USTANOVKALARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

G.B.Amirova

SamQXI katta o'qituvchisi, E-mail: amirova2015@inbox.uz

Annotatsiya. Sof psixologik ma'noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm – bu ijtimoiy ustanovkalardir. Bu – shaxsning atrof-muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni, obyektlarni, ijtimoiy guruhlarni ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyadir. Shaxs ustanovkasi uning ijtimoiy, hamda xulqiy xususiyatlarini belgilovchi asosiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Ustanovka deganda, eng birinchi navbatda, shaxsning atrof-muhitga bo'lgan ustuvor ijtimoiy munosabatlarining in'ikosi tushuniladi. Aynan shaxs ustanovkasi, yo'nalganlik orqali qadriyatlar inson faoliyatida o'zining real aksini topadi, ya'ni faoliyatning barqaror motivlariga aylanadi.

Kalit so'zlar: shaxs, yo'nalganlik, inson, motiv, qadriyat, yoshlar, ustanovka.

Ijtimoiy muhitning ta'siri xulq-atvorda bevosita namoyon bo'ladi. U yoki bu xulq-atvorning sababi uning motividir. Ijtimoiy psixologiya shaxs xulq-atvorining motivlari sifatida ijtimoiy ustanovkalarni o'rganadi.

Shaxs ijtimoiylashuvi muammosi ko'tarilganda, ijtimoiy tajribaning u tomonidan qanday yo'l bilan va qay darajada o'zlashtirilganligi ijtimoiy ustanovka fenomeni orqali tushuntiriladi.

Ma'lumki, ustanovka muammosi dastlab gruziyalik psixologlar, jumladan, D.N.Uznadze tomonidan fanga kiritilgan edi. Lekin ushbu jarayonning psixologik qonuniyatlarini o'rganish oddiy ustanovka bilan ijtimoiy ustanovka o'rtasida muayyan farqlar borligini isbotladi. Chunki D.Uznadze konsepsiyasiga muvofiq, "ustanovka subyektning yaxlit bir dinamik holatini, uning qandaydir faollik va harakatlarga tayyorligini bildiradi va asosan ikki omilning ta'sirida namoyon bo'ladi: subyektning ehtiyojlari va muayyan obyektiv vaziyatning holati". Ya'ni, konkret bir vaziyatlarda u yoki bu ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan va qandaydir ma'noda odatiy shakl olgan holat ustanovka deb ataladi. D.Uznadze ustanovkani keltirib chiqaruvchi vaziyatni tahlil qilganda, uning ijtimoiy omillarga bog'liq tomonlariga, shaxs hayoti mobaynida orttirgan ijtimoiy tajribasi nuqtayi nazaridan qaramagan edi.

Ijtimoiy ustanovka – individlarning guruh a'zosi sifatida ma'lum ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvor shaklini bayon etuvchi u yoki bu qadriyatlarga subyektiv yo'nalganligini belgilaydi.

Subyektiv yo'nalganlik – bu inson tafakkurida, u tomondan hayotiy strategik maqsad va umumdunyoviy yo'nalganlik deb tan olingan qadriyatlar aksidir.

Subyektiv yo'nalganlik tushunchasi Ikkinchi jahon urushidan so'ng ijtimoiy psixologiyaga qadriyatlarning falsafiy ma'nosi analogi sifatida kiritilgan, biroq ular orasida aniq konseptual chegara

belgilanmagan. Lekin farqlar yoki «umumiy - individual» yoki «real faoliyat ko'rsatuvchi – reflektor qabul qiluvchi» o'lchamlarda ko'rsatiladi.

Qadriyatlar shaxsning tarkib topishining markaziy xususiyatlaridan biri bo'lib, insonning ijtimoiy haqiqatni tan olishida namoyon bo'ladi va bu o'zining xususiyatida motivatsiyaning kengligini ko'rsatadi. Qadriyatlar bilan shaxs yo'nalganligini birlashishi alohida ma'no kasb etadi. Qadriyatlar tizimi shaxs yo'nalganligining mazmun jihatini aniqlab, uning atrof-olamga, boshqa odamlarga, o'z-o'ziga, dunyoqarash asosiga, «falsafiy hayot» va motivatsiyalar yadrosiga qarashlari asosini tashkil etadi. Qadriyatlar – bu obyektlarni vazifasi bo'yicha (ijobiy yoki salbiy) ajratish usulidir.

Shaxs yo'nalganligi uning eng asosiy tavsiflaridan biri, bu ham bo'lsa uning ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarini namoyon etadi. Yo'nalganlik mazmuni – bu avvalo shaxsning atrof-muhitga bo'lgan ijtimoiy munosabatidir. Aynan yo'nalganlik orqali qadriyatlar inson faoliyatida o'zining real aksini topadi, ya'ni faoliyatning barqaror motivlariga aylanadi.

R.S.Nemov qadriyatlar deganda, inson hayotida asosan nimani qadrlasa nimaga ijobiy hayotiy ma'no bag'ishlasa shularni tushunadi [5].

E.S.Volkov qadriyatlarga shaxs faoliyatining ijtimoiy boshqaruvi sifatida qaraydi. U qadriyat motivatsion rol o'ynab faoliyat yo'lini tanlaydi, deb hisoblaydi [7].

Qadriyatlar yuqori ijtimoiy ehtiyojlar asosida shakllanadi, faoliyatning umumijtimoiy, ijtimoiy-guruhiy sharoitlarida amalda qo'llaniladi. U ongning tashkiliy elementlaridan biri, ya'ni ong strukturasining bir qismidir. Shuning uchun S.L.Rubinshteyn asos solgan ong va faoliyat birligi tamoyiliga bo'ysunadi [7].

Qadriyatlar inson va insoniyatning butun hayotini va butun borlig'ini qamrab oladi. Ya'ni insonning hissiy-emotsional, xulq-atvor va bilish sferasini qamraydi.

Qadriyatlar inson faoliyatida determinantlik qiladigan ma'lum «ko'rish gorizonti»ni ochib beradigan ijtimoiy-psixologik sharoitlarda shakllanib, inson shaxsining asosiy tavsifidir. Chunki ular insonning atrofidagi insonlar bilan munosabati va birgalikdagi faoliyati xususiyatlarini belgilaydi va inson xulq-atvorini boshqaradi (B.G.Ananov, 1968; A.G.Zdravomislav, V.N.Myasishev, 1969; B.G.Olishanskiy, V.A.Yadov, 1975) [7].

Shaxsiy qadriyatlar qiymatini anglagan insongina olamdagi o'z o'rniga ega bo'ladi, o'z hayoti ma'nosi va maqsadlari haqida fikr yuritiladi. Fanda «qadriyatlar» tushunchasi bir tomondan qadriyatlar standarti guruhlar, millatlar, sinflar, ijtimoiy tizim, boshqa tomondan esa shaxsning motivatsion tizimi bilan qiyoslanadi. Umuminsoniy qadriyatlar erkinlik, vijdon, baxt insonning muvofiq hayot haqidagi tasavvurlarini tashkil etadi. Qadriyatlarining personal ierarxiyasi individualdir. O'zaro munosabat va o'zaro aloqa kombinatsiyalari tanlovi chegaralanmagandir. Insonning ijtimoiy o'sishi umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan aniq shaxsiy munosabatlariga borib taqaladi.

Qadriyatlar deganda biz shartli ravishda insoniyat mavjudlik tarixi davomida shakllangan madaniy qadriyatlarni nazarda tutamiz.

Qadriyatlar munosabati – bu obyektning tashqi olam bilan turg'un aloqasi, maxsus subyektiv fikri tug'ilishidir. U jamiyat va inson hayotida alohida muhim rol o'ynaydi. Aynan obyektning o'zi shaxsiy qadriyatlar ierarxiyasini va o'z hayotida ularning rolini hamma vaqt ham anglayvermaydi. Ammo qadriyatlar o'zi haqida har soniyada belgi beradi. Inson o'z xohish istaklarini butunlay nazorat qila olmaydi bunda unga qadriyatlar yordamga keladi yoki aksincha.

«Qadriyat» tushunchasi zamonaviy ijtimoiy fanlar (falsafa, psixologiya, sotsiologiya)da keng qo'llaniladi, u individning ongida narsa va hodisalarning ba'zi maxsus sifatlarini subyektiv aks ettirilishi deb qaraladi (O.G.Drobnitskiy, 1967; V.P.Tugarinov, 1968) [7].

Bizni o'rab turgan atrofda u yoki bu obyektning qadriyatlarga kiritish uchun uning inson qiziqishlari va ehtiyojlarini qondira olish qobiliyati hisobga olinadi. Inson olamga bir butunlikka qaraganday munosabatda bo'lgandagina o'z shaxsiy qadriyatlarini anglab yetadi. Shu sababli inson haqida gapirilganda tabiiy ravishda «qadriyat» tushunchasiga borib taqaladi. Ushbu tushuncha turli fanlarda ko'rib chiqiladi: aksiologiya, falsafa, sotsiologiya, biologiya, psixologiya. «Qadriyat» tushunchasi psixologik talqinda termin jihatdan har xil tushunchalar bilan belgilansada semantik jihatdan bir qatorda turuvchi psixologik hodisalar kompleksiga ekvivalentdir: N.F.Dobrinin buni «ahamiyat» deb; A.I.Bojovich «hayotiy poizitsiya»; F.N.Leontev «ma'no» va «shaxsiy ma'no»; V.N.Myasishev «psixologik munosabatlar» deb ataydi [2].

S.L.Rubinshteyn aytishicha qadriyat – insonga hayotda nimaningdir ahamiyati va tan olingan qadriyatgina muhim qiymatga ega bo'lgan vazifani, ya'ni xulq-atvor yo'nalishini belgilay oladi [4].

Bundan ko'rinadiki, qadriyatlarining shakllanishi shaxs yo'nalganligi bilan chambarchas bog'liqdir. S.L.Rubinshteyn fikricha, insonning bevosita ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishdagi faoliyatida jamiyat qadriyatlari shkalasi rol o'ynadi[4]. Bilvosita jamiyatga foyda keltiradigan faoliyat orqali shaxsiy va individual ehtiyojlarini qondirishda individning jamiyatga munosabati shakllanadi. Yana u ta'kidlaydiki, insonda qadriyatlarining mavjudligi uning tashqi olamga, tashqi omillarini uning hayoti uchun ahamiyatiga befarq emasligidan dalolat beradi.

Har bir odamda qadriyatlar tizimi mavjud bo'lishi mumkin, bu tizimda qadriyatlar ma'lum ierarxik ketma-ketlikda joylashgan bo'ladi. Albatta bu tizim individualdir, chunki individual ong jamiyat ongini o'zida aks ettiradi. Shunga ko'ra talaba yoshlarda qadriyatlar tizimini shaxs rivojlanishining ma'lum darajasi sifatida o'rganishda ikki asosiy jihati bor: qadriyatlar tizimi ierarxiyasining shakllanganlik darajasi va uning mazmuni (yo'nalganligi): bular tizimga kiruvchi aniq qadriyatlar. Birinchi jihat talabaning yetuklik darajasini aniqlashda muhim hisoblanadi. Gap shundaki, qadriyatlarining **interiorizatsiyasi** anglangan jarayon sifatida atrofda ko'pgina sodir bo'layotgan jarayonlardan faqat o'zigagina kerakligini tanlab olish qobiliyati bo'lgandagina amalga oshadi. So'ngra ularni sharoit (maqsad uzoq yoki yaqinligi, ularni amalga oshirish imkoniyati)dan kelib chiqqan holda ma'lum bir tizimga ajratadi. Bunday qobiliyat faqatgina shaxsning ijtimoiy-psixologik yetukligi va ongining oliy psixik funksiyalari shakllanganligi ma'lum darajaga yetgandagina namoyon bo'ladi. Ikkinchi, qadriyatlar xususiyatlarini tavsiflovchi, shaxsning yo'nalganligining mohiyatini baholovchi jihatdir. Shaxsning qadriyatlar yo'nalganligi tizimiga kiruvchi aniq qadriyatlarga, ularning o'zaro bog'langanlik darajasiga qarab shaxs faoliyati hayotining qanday maqsadlariga qaratilganligini aniqlash mumkin. Talabalar qadriyatlarining ierarxik tizimining mohiyatining analizi ularda aniqlangan qadriyatlarining jamiyat etaloniga va ularni tarbiyalash uchun adyektivlik darajasini ham o'rganish imkoniyatini beradi.

Qadriyatlar bevosita tarbiya bilan bog'liqdir. Bu muammoni «shaxs» tushunchasining tahlilisiz o'rganib bo'lmaydi.

R.S.Nemov (2002) «shaxs» deganda uning individualligini ta'minlovchi barqaror xususiyatlari nisbatini tushunadi [5].

V.A.Petrovskiyning (1981) fikricha, shaxs bu o'z hayotiy faoliyatining subyekti va u olam bilan kontakt o'rnatish oluvchidir [6].

V.S.Merlin (1969) ta'kidlashicha, shaxs integral individuallikni, organizmning individual xususiyatlarini, insonning ijtimoiy-tipik va individual xususiyatlari tavsifini namoyon qiladi. Inson zamonaviy antropologik yutuqlar talqinida uch mavjudlik birligini o'zida namoyon etadi: tabiiy, ijtimoiy va madaniy [7].

Qadriyatlar – bu shaxsiy ma'noga ega faoliyat motivi bo'lib, u moddiy va ma'naviy fenomendir.

Hayotiy qadriyatlar hozirgi vaqtda har xil omillar ta'sirida stixiyali ravishda yuzaga keladi. Ularning yaratilishida qadriyatning roli minimaldir. Ustanovkalarini tarbiyalashda har xil qarashlar mavjud. Masalan, tarbiya maqsadi jamiyatda mavjud qadriyatlar tizimiga mos kelishi lozim. Agar stixiyali shakllanayotgan ustanovkalar ta'lim olayotgan yoshlarning va umuman jamiyat rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatganda maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yoshlik davrida inson atrofdegilar bilan muloqotda har doim undan u yoki qarorni tanlashni talab qiluvchi vaziyatlarga tushaveradi. Qaror qabul qilish bor imkoniyatlardan birini tanlash demakdir. Bu esa hayotiy qadriyatlar va hayotiy pozitsiya sohasidagi imkoniyatlarni qayta ko'rib chiqish va baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ammo qadriyatlar hali barqaror emas, ular shaxsiy xulq-atvor amaliyotida sinaladi.

Kasbiy ongning harakatlantiruvchi kuchlari ishni boshlashdagi konservativ va dinamik usullar orasidagi doimiy kurashdir. Ushbu jarayonning aksi guruh a'zolarining va butun guruhning kasbiy, siyosiy, ijtimoiy, psixologik xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishda ko'rishimiz mumkin. Kasbiy o'zlikni anglashda qiziqishlarning umumiyliigi, guruhning ijtimoiy-psixologik konsolidatsiyasi va guruhning ijtimoiy o'rni saqlash mexanizmlari shakllanadi va rivojlanadi.

Kasbiy o'zlikni anglash bilan bir qatorda kasbiy dunyoqarash ham turadi. Uni umumiy dunyoqarashning maxsus bo'lagi va kasbiy madaniyatning elementi deb olish muammosi hali ham tortishuvlarga sabab bo'lib kelinmoqda. Biroq bizning fikrimizcha, kasbiy dunyoqarashning obyekti bo'lib nafaqat olamning umumiy yoki maxsus, balki ijtimoiy sur'ati olinishi lozim. Aynan u kasbiy guruhning integratsiyasini ta'minlaydi va ijtimoiy pozitsiyasini ham shakllantiradi. Kasbiy madaniyatda kasbiy tafakkur alohida rolga ega.

Kasbiy dunyoqarashga ega bo'lish shaxsni kasbiy sohaga moslashuvining muhim shartidir.

Kasbiy madaniyatda alohida o‘rin kasbiy tafakkurga beriladi. Aniq bir faoliyatda texnologiya va obyektiv mantiq bilan shartlanganda, u kasbni tanlashda va kasbga ega bo‘lishda tashkiliy qism bo‘lib xizmat qiladi.

Kasbiy moral – kasbiy madaniyatning elementi bo‘lgan umumiy mehnat moralining qismi bo‘lib, kasbiy xulqning regulatori sifatida qatnashadi. Professional guruh nafaqat jamiyat kutganini amlga oshirish, balki formallashgan va noformallashgan normalarini ishlab chiqara olgandagina o‘z mavqeiga ega bo‘ladi. Kasbiy madaniyat qadriyatlari tizimining biz ikki turini ajratamiz: kasbning shaxsga qo‘ygan talablariga ko‘ra, shaxsning aloqalari va munosabatlariga ko‘ra praksilogik va mental.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent, 1999.
2. Мясищев В.Н. Проблема личности и ее роль в вопросах психологии и физиологии.- В кн.: Исследование личности в клинике в экспериментальных условиях труда. – Л.: 1969. – С.6-17
3. Сафаев Н.С. Психологические особенности религиозного сознания и его роль в духовном совершенствовании подрастающего поколения. / Илмий мақолалар тўплами. Актуальные вопросы гармоничного воспитания личности на современном этапе. /Сборник. Част 1. Уз НИИПН им. Кары Ниязова. 2004.
4. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. — СПб.: Питер, 1999.
5. Nemov.R.S. Psixologiya. – T., 2002.
6. Petrovskiy.V.A. Umumiy psixologiya. – T., 1981.
7. Сафаев.Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодёжи. Автореферат докторской диссертации. – Тошкент, 2005.

Г.Б.Амирова СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УСТАНОВКИ ЛИЧНОСТИ МОЛОДЫХ УЧАЩИХСЯ

В чистом психологическом смысле, новые понятия мировоззрения, формирующие и изменяемые механизмы – это и есть социальные установки. Это та категория, которая даёт человеку понятия, осознания по происходящему вокруг него социальных событий, объектов, а так же социальных групп, влияющих на психологическое и внутреннее состояние и, исходя из этого, изменять свое внутреннее мировоззрение. Установка личности и его поведение, зависят от взятых за основу особых ценностей. Именно человеческие установки, направленные на традиции, найдут развитие, то есть развивают устойчивую мотивацию.

Ключевые слова: личность, ориентация, человек, мотив, направленность, молодёжь, установка.

G.B.Amirova SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PECULIARITIES OF PERSONALITY FORMATION IN YOUNG STUDENTS

In pure psychological sense new concept outlooks, forming and changing the mechanism are considered as social installations. It is a category which gives to a person chance to understand to realize social transformations, occurring around him, including dialogues in a social level. Installation - it is a concept, first of all developing in a person in the attitude around himself. Human installations are directed on tradition which will find development and thus will develop steady motivation.

Keywords: person, orientation, human, motive, direction, youth, installation.

UDK:152.0

YOSHLARNI OILAGA TAYYORLASH OMILLARI VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

F.A.Akramova, R.Sh.Toshkuvatova

*Respublika «Oila» ilmiy-amliy markazi bo‘lim boshligi,
SamDU milliy g‘oya, falsafa va huquq ta’limi kafedrası dotsenti*

Annotasiya. Maqolada yoshlarni oilaga tayyorlashning asosiy omillari va ularning psixologik xususiyatlari bayon etilgan, bu omillar empirik tadqiq etilib, psixologik tahlili berilgan, natijalar asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: oila, oila qurish omillari, tasavvurlar, oilaviy hayot, oila munosabatlari, oila qurish motivlari.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-demografik ahvolning muhim xususiyati – jamiyatning asosi boʻlgan kuchli oila tizimidir. Prezident Islom Karimovning Oʻzbekiston respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 23 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi “Asosiy vazifamiz - jamiyatimizni isloh qilish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga koʻtarishdan iborat” mavzusidagi maʼruzasida qayd etilganidek, “Maʼlumki, bu yorugʻ olamda hayot bor yekan, oila bor. Oila bor yekan, farzand deb atalmish bebaho neʼmat bor. Har qaysi ongli inson jondan aziz farzandining baxtini, kamolini oʻylab, hamisha ezgu orzu-intilishlar bilan yashaydi, oʻz zuriyodining har tomonlama sogʻlom va barkamol boʻlishini istaydi” [3].

Oʻzbekistonda nikohdan oʻtish darajasi yuqori va eng muhimi, oilalarning buzilishi dunyo boʻyicha yeng past darajadadir. Mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonlari fuqarolik jamiyatining muhim instituti boʻlgan oilaning yaxlit tizimi, iqtisodiy, ijtimoiy, maʼnaviy, mafkuraviy asoslariga ham taʼsir qiladi. Ayni paytda Oʻzbekistonda 7,5 milliondan ziyod oilalar mavjud. Shu oilalardagi real jarayonlar, xususan, nikoh, ajrim, tugʻilish, oʻlim, aholining reproduktiv ustunovkalari, yaʼni, nechta farzand koʻrishga nisbatan intilishlari, xohish-istaklari, real daromadlar, migratsiya holatlari kabilar mamlakatdagi demografik vaziyatni belgilovchi omillardir.

Respublikamizda oila va oilaviy munosabatlarga eʼtibor davlat siyosati darajasiga koʻtarilgandir. Buning yorqin misoli sifatida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini va 1998-yil 30-aprelda Oliy Majlis tomonidan Oʻzbekiston Respublikasining Oila kodeksini tasdiqlovchi Oʻzbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinganligini eʼtirof etish mumkin. Bu ikki hujjatda oila muammolariga davlatimiz berayotgan ahamiyati toʻla-toʻkis aks ettiriladi. Konstitutsiyaning XIV bobi maxsus oilaga bagʻishlangan boʻlib, uning 63,64,65,66-moddalarida bu aks etgan [1]. Unga koʻra 63-moddada oila jamiyatning asosiy negizi ekanligi va oila jamiyat va davlat tomonidan himoya etilishi huquqi kafolatlanganligi belgilangan. Oila tuzishda tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligi, ota-onalarning farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalash majburiyati, onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi, voyaga yetgan va mehnatga layoqatli farzandlarning oʻz ota-onalari haqida gʻamxoʻrlik qilishlari yuzasidan majburiyatlari roʻyi-rost, aniq va maʼnoli ravishda koʻrsatib berilgan.

Bizga maʼlumki, hozirda mamlakatimizda yoshlarga, ularning ilm olish va kasb-hunar egasi boʻlishiga katta eʼtibor berilmoqda. Har bir yigit-qizning taʼlim maskanlarida oʻqib, biror mutaxassislikni egallashi obyektiv hodisa boʻlishi bilan birga, uning yosh jihatidan oila qurishi ham inkor etilmaydigan qadriyatdir. Ayniqsa, oila va kelajak hayotni yoshlarning, qizlarning taqdirini oʻylash davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlariga aylangan: “...yurtimizda qiz bolalarning – boʻlgʻusi onalarning ham jismoniy, ham maʼnaviy sogʻlom boʻlib voyaga yetishi, ularning oʻrta maktabdan soʻng litsey va kollejlarda albatta taʼlim olishini taʼminlash, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi bugungi kunda davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan” [3].

Oilaning mustahkam va barqaror boʻlishi uning aʼzolari salomatligiga, ota-onalikka psixologik jihatdan tayyorligiga bevosita bogʻliq boʻlgani uchun ham mamlakatimizda bu borada aniq mexanizmlar ishga solingan. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy koʻrikdan oʻtkazish toʻgʻrisida”gi 365-sonli qarorining amalda joriy etilishi, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda oʻqitilayotgan “Oila psixologiyasi” kurslarining uzluksiz taʼlim tizimiga kiritilganligi kabilarning davlat tomonidan moliyalashtirilayotganligi ham fikrimizning dalilidir.

Lekin bularning oʻzi yoshlarning kelgusi hayotlarining farovon boʻlishligi uchun yetarli emas, balki ularga oilaviy hayot saboqlaridan ham maʼlumotlar berishga toʻgʻri keladi. Chunki mustahkam oiladagina farzandlarga xohlagancha yashashi uchun imkon yaratiladi. Shuning uchun yoshlarning oilaga tayyorlash masalasi dolzarb muammodir. Yoshlarning kasb-hunar yetukligi, ijtimoiy hayotga kirishishi, kelgusida munosib kasb egallashi kabi ulugʻ niyatlar bu masalaga ongli munosabatni shakllantirishi zarur ustunovkaga aylandi: “Qiz bolani kollejni bitirmasidan, hunar egallasidan turib, kimki turmushga bermoqchi boʻlsa, bilib qoʻyinglar, buni men uzoqni koʻrmaslik, kaltabinlik deb hisoblayman. Qiz bola, avvalo, kasb yegallasin, oʻz fikriga ega boʻlsin, hayotni anglasin. Shundan keyin u hayotda oʻzining munosib oʻrnini topadi, jamiyatimizning faol aʼzosiga aylanadi, ertaga u quradigan oila ham mustahkam boʻladi” [3].

Bizning fikrimizcha, oila muammosini tadqiq qilishda, avvalo bugungi yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga alohida e'tiborni qaratish lozim. Chunki aynan, ko'p hollarda turmush qurgan ikki yosh o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning nozik jihatlari haqida yetarli bilimga, zarur ko'nikma va malakaga ega bo'lmalik, qolaversa ikki yoshning bir-birlari hamda oilaviy rollarning taqsimlanishi to'g'risidagi adekvat tasavvurlarning shakllanmaganligi ularning munosabatlarini ijobiy kechishiga va dinamik jihatdan rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlarini o'rganish va tadqiq etish juda muhimdir. Chunki bu orqali hozirgi o'zbek oilasining mustahkam va baxtli etish yo'llarini aniqlash mumkin. Shunday yekan, bu mavzu eng dolzarb masala hisoblanadi.

Olingan statistik ma'lumotlar yil sayin nikoh soni oshayotganligini ko'rsatmoqda. Bunga sabab – bir tomondan, aholi, birinchi navbatda yoshlarning soni oshganligi, ularda rasman qurilgan oila institutiga nisbatan munosabatning ijobiy tomonga o'zgarganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamoatlik, mahalla faollari, hokimliklarning otalikni belgilash holatlarini kamaytirishga qaratilgan samarali say'i-harakatlari oqibatidir deyish mumkin.

Nikoh ajrimlarining sabablari o'rganilganda, aksariyat holatlarda bu birinchi o'rinda kelin-kuyovlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, er-xotinlarning o'zaro kelishmovchiliklari, fe'l-atvorning bir-biriga mos kelmasliklari, rashk, kelin bilan qaynona va boshqa yaqin qarindoshlarning chiqishmasliklari, erkakning zararli odatlarga berilib ketishi (ichkilikka, giyohvand moddalarga va shu kabi), moddiy qiyinchiliklar (asosan erning ishlamasligi, mustaqil oilani boshqara olmasligi), qudalarining to'ydan keyin o'zaro kelishmay qolishlari kabilarga erning boshqa shaharlarga ish qidirib ketib, qaytib kelmaganligi, boshqa bir ayol bilan yangi turmushni boshlab yuborganlari qo'shildi.

Yoshlarni oilaviy hayotga ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlashning ustuvor yo'nalishlari olimlardan Ye.Aleshina [4], N.X.Safina [5], T.Yu.Sorokina [6], o'zbek psixolog olimlari orasida M.G.Davletshin [7], G'.B.Shoumarov, Ye.G'.G'oziyev [8], V.M.Karimova [9], N.A.Sog'inov [10], B.M.Umarov, N.X.Lutfullayeva [11], M.Umarova [12], F. Saifnazarova [13], M.X.Fayziyeva [14] va boshqalar mazkur mavzuni ilmiy tadqiq etganliklari kuzatiladi.

Mazkur maqolamizda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlarini o'rganishni maqsad qildik. Buning uchun Nizomiy nomidagi TDPUda tahsil olayotgan yoshlarning 60 nafarida oilaviy hayotga oid turli tasavvurlari, fikrlari, munosabatlarini o'rgandik.

Oila psixologiyasida nikoh quruvchilarning nikoh qurish omillari va shartlari masalasi muhim bo'lib, butun jahon ilmida nikoh qurish omillariga ushbularni kiritish mumkin bo'ladi:

- 1) oilaviy hayotga yetuklik;
- 2) oila qurish yoshi;
- 3) oila qurish motivlari;
- 4) oila qurilguncha tanish muddati;
- 5) oila qurish shartlari va sharoitlari;
- 6) yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari [8].

Nikohga yetuklik omillari qatoriga biz yoshlarning oilaviy hayotga ma'naviy yetukligi, ularning oila qurish motivlari, nikoh qurish yoshiga oid fikrlari va bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlarini kiritar ekanmiz, bu jihatlarning har biri qanday xususiyatga ega ekanligini ko'rib chiqamiz.

Nikohga yetuklik tushunchasi o'ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam rivojlanib, takomillashib boruvchi, o'z ma'naviy, axloqiy rivojida muntazam ravishda yangiliklarni o'ziga singdiruvchi mavjudotdir. Kishining yetukligi, ayniqsa, oilaviy hayotga yetukligi masalasida fikr yuritilganda, bu tushunchadan bir shartli o'lchov sifatidagina foydalaniladi. Nikohga yetuklik deyilganda, oila quruvchi yoshlarning jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlari farqlash mumkin. Bularning orasida esa jinsiy, huquqiy yetuklik ko'rsatkichlari aniq alomatlariga ega bo'lsa, iqtisodiy, psixologik, ma'naviy-axloqiy jihatlar qat'iy bir ko'rsatkich bilan belgilanmaydi. Shaxsning jinsiy yetukligi unda balog'atga o'tish alomatlarining kuzatilishi, ikkilamchi jinsiy belgilarning keskin darajada namoyon bo'lishi bilan, ichki sekretsiya bezlarining faollashuvi bilan xarakterlanadi. Shaxsning psixologik yetukligi deb esa, uning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni xushyor baholay olishida namoyon bo'ladi. Yoshlarda kuzatiladigan psixologik yetuklik shaxsning boshqalarga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabatlari: hamdardlik, hamfikrlilik, o'zaro yordam kabilar tarzida namoyon bo'la oladigan ma'naviy sifatlarini ham bildiradi. Yoshlar oila qurayotganlarida bu xususiyatlar hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi.

Nikoh oldi omillaridan biri – bu nikoh qurish uchun asos bo‘lgan nikoh motivlari hisoblanadi. Oila qurilishida bir necha o‘nlab nikoh motivlari mavjud. Lekin ularni umumlashtirilgan ravishda uchta toifaga ajratish mumkin: 1. Sevgi tufayli oila qurish; 2. Moddiy yoki o‘zga manfaatdorlik asosida oila qurish; 3. Stereotip bo‘yicha oila qurish [8].

Oilaning mustahkam bo‘lishida oila qurish yoshi muhim hisoblanadi. Psixologik kuzatuvlardan ko‘rinadiki, nihoyatda erta (16,17 yoshda) va kech (28, 30 yoshdan keyin) oila qurish maqsadga muvofiq emas. Erta oila qurish yigitning oila boshlig‘i sifatida shakllanishiga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Qiz bolaning oila yumushlariga erta jalb etilishi natijasida u bekalik, fiziologik jihatdan esa onalik vazifalariga yetilgan bo‘lishi mumkin. Lekin oilada erkakning yoshi kelinning yoshi bilan baravar bo‘lishi, yigitning yoshi ko‘rsatkichi oila mustahkamligiga ta‘sir etadi. Chunki kelin tomonidan u bola sifatida tasavvur etiladi va kuyovni yetarli darajada hurmat qilmasligiga olib kelishi mumkin.

Kech oila qurish ham maqsadli emas. Ayniqsa qizlar uchun oila qurish imkoniyatlarini pasaytiradi. O‘ziga turmush o‘rtoq tanlashdagi mezonlar soni ortishiga, lekin nomzodlar soni kamayishiga duch keladi. Bu o‘z navbatida qiz bola uchun oila qurishni murakkablashtiradi.

Shuning uchun optimal yoshni o‘tkazib yubormaslik kerak. Buning uchun ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy yetuklik yoshini tanlansa ma‘qul bo‘ladi. Bu esa ayrim kuzatuvlardan ko‘rinadiki, qizlar uchun 20 yoshdan, yigitlar uchun 24 yoshdan boshlab davrlarga to‘g‘ri kelar ekan [8].

Yoshlarning o‘z oilaviy hayotlariga oid tasavvurlari muhim bo‘lib, ularning qanchalik reallikka yaqin bo‘lishi oilani mustahkamligiga xizmat qiladi. Afsuski, yoshlarning hamma vaqt ham oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari reallikka mos kelavermaydi, balki aksariyat holda haqiqiy hayotdan tubdan farq qiladi. Shuning uchun yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularni imkon qadar hayotda kuzatiladigan past va baland, shirin va achchiq, rohat va tashvish, qorong‘u va yorug‘ tomonlari bo‘lishi muqarrarligiga o‘rgatib borishimiz va bu tomonlar haqida adekvat (to‘g‘ri) tasavvurlarni shakllantira olishimiz kerak bo‘ladi.

Psixologik va hayotiy kuzatuvlardan ko‘rinadiki, nikohga kiruvchilarning 20 yoshdan kichikroq bo‘lishi ularda hayotiy tajriba 20-24 yoshdagilarga qaraganda kamligi, ijtimoiy-iqtisodiy yetuklik darajalarining yetarli emasligi tufayli oilalarda ajralish, yoki tushunmaslik, oilada turli darajada nizolarga olib kelishi mumkin ekan. Shuning uchun biz tadqiqot ishimizda maxsus tuzilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnomamizga kiritilgan savollar orasida qizlarning turmush qurish yoshi va yigitlarning turmush qurish yoshiga oid fikrlarini aniqlashga harakat qildik. Buning uchun biz ularga “Turmush qurish yoshi qiz bola uchun qanday bo‘lishi kerak?” savoli bilan murojaat qildik.

1-jadval.

“Turmush qurish yoshi qiz bola uchun qanday bo‘lishi kerak?”
savoli bo‘yicha yoshlarning fikrlari (% da)

Oila qurish “qizlar” uchun	Yigitlar	Qizlar
16-17 yosh	14, 5	4, 0
18-19 yosh	70,5	65, 5
20-21 yosh	11,5	18,5
22-23 yosh	2,0	12,0
24-25 yosh	0,5	-
25 dan katta	-	-

Olingan natijalarni tahlil etadigan bo‘lsak, shu narsa ko‘rinadiki, oila qurmagan yigitlar qiz bolaning turmush qurish yoshi 16-17 yosh bo‘lishini ma‘qul deb, 14,5 foizlari belgilashgan.

Ikkinchi yosh ko‘rsatkichi 18-19 yoshlar bo‘lib, olingan natijalarning xarakterli tomoni shundaki, bu yoshni oila qurish uchun ma‘qul sifatida aksariyat yigitlar va qizlar tanlashgan. (70,5 % yigitlar va 65,5 % qizlar). Ular bu yoshda sinfdoshlari, tanishlari, qo‘shnilari shu yoshda, ayniqsa oila qurayotganliklarini kuzatadilar va natijada bu yosh nikoh qurish uchun eng maqbul yosh degan fikrga keladilar.

Demak, oilaviy hayot qurish uchun 20-21 yoshni tanlash asosida bir qator sabablar bo‘lishi mumkin: birinchidan, oilalilar oilada bajariladigan turli vazifalarni yaxshi anglaydilar: bu vazifalarga tarbiyaviy, iqtisodiy, kommunikativ, seksual, psixologik, reproduktiv va boshqalar kiradi. Har bir funksiyaning oila sharoitida bajarilishida ma‘lum bir shart kerak. Masalan, iqtisodiy vazifa to‘g‘ri bajarilishi uchun oila qurgan kishi ma‘lum bir sohani egallagan, mehnat qilib oilani pul bilan

ta'minlaydigan darajaga erishgan bo'lishi kerak. Kommunikativ vazifa to'g'ri bajarilishi uchun oiladagilar bir-birlari bilan muomala o'rnatish talab etiladi. Reproduktiv vazifa bajarilishida yoshlarning salomatlik ko'rsatkichlari, kelinchakning nafaqat tashqi jihatidan balog'atga yetganligi, balki ichki (bachadon) organlarida ham normal rivojlanish bo'lgan bo'lishi kerak. Bu keltirgan jihatlar qiz bolaning oila qurishi uchun eng optimal sifatida 20-21 yoshni tanlash ma'qulligini bildiradi.

Jadvaldagi ahamiyatli tomoni shundaki, qiz bolaning oila qurish yoshi uchun 24 va 25 dan keyingi ko'rsatkichlar ma'qul emasligi masalasi bo'lib, bunda yoshlarning yakka fikrliligi ko'rinadi. Ammo bilamizki, yosh kattalashgan sari qizlarning oila qurish imkoniyatlari pasayib boradi, tanlash darajalari kamayadi, muammolar ortadi.

Biz oila qurish yoshi masalasida yigit uchun qaysi yosh ma'qul bo'ladi, masalasini ham qo'ydik.

2-jadval.

“Turmush qurish yoshi yigit uchun qanday bo'lishi kerak?”
savoli bo'yicha natijalar (% da)

Oila qurish “yigitlar” uchun	Yigitlar	Qizlar
16-17 yosh	-	-
18-19 yosh	3,5	-
20-21 yosh	10,5	8,5
22-23 yosh	22,0	12,0
24-25 yosh	50,5	64,5
25 dan katta	13,5	15,0

Ko'rib turganimizdek, yigitlarning oila qurishlari uchun eng maqbul yosh sifatida barcha yoshlar tomonidan 24-25 yosh tanlangan. Haqiqatan bu yoshda yigitlar biror mutaxassislik yoki hunarga yega bo'ladilar, o'zlarini iqtisodiy jihatdan qisman bo'lsa-da, oilani ta'minlashga qodir bo'ladilar, fiziologik jihatdan yetuklikka erishgan pallada bo'ladilar. Bu esa ularning oila qurish uchun eng optimal yoshga ega davrlari sifatida tanlashga olib keladi. Gohida oila qurmagan yoshlarning fikrlarida oila qurishni vaqtli boshlasa ham bo'ladi, degan fikr kuzatiladi va oila qurishni yigit uchun 22-23 yoshda yaxshi deb o'ylaydilar. Aslida yigitlarning yoshi kattalashgan sari oila qurish imkoniyatlari pasaymaydi, aksincha ortadi, oilada ularning ijtimoiy, iqtisodiy mavqelari oshishi, natijada kelin tomonidan ularni turmush o'rtoq sifatida idrok etilishi, hurmati saqlanishi kuzatiladi.

Demak, turmush qurish yoshining nikoh barqarorligiga ta'sir etuvchi omil sifatida ko'rilishi bu ayni haqiqat ekan, bu yoshning qizlar uchun ham, yigitlar uchun ham qaralganda alohida o'z optimal muddatlari mavjud ekan, oila qurayotgan har bir shaxs bu muddatni bilib, oila qurishi uning nikohi barqarorligiga olib kelar ekan.

Biz o'z tadqiqot ishimizda yoshlarning nikohga nisbatan ma'naviy tayyorlik hislarini aniqlamoqchi bo'ldik. Buning uchun psixologiyada ma'lum bo'lgan “Nikohga ma'naviy tayyorlik” testidan foydalandik. Test 16 ta savol-tasdiqlardan iborat bo'lib, natijalarni qayta ishlash orqali jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga yega bo'ldik.

3-jadval.

Yoshlarning nikohga ma'naviy tayyorlik darajalari (% da)

Obekt	past daraja	o'rtacha daraja
Yigitlar	23,5	76,5
Qizlar	5,5	94,5

Ko'rib turganimizdek, test natijalariga ko'ra oila qurmagan yoshlarning nikohga ma'naviy tayyorlik darajalarida jinsiy tafovutlar ko'rinadi. Ma'naviy tayyorlikning past ko'rsatkichi ko'proq yigitlarda kuzatiladi, o'rtacha ko'rsatkich esa qizlarda deyarli barchalarida ko'p. Bu o'z navbatida qizlarning bu yosh davrlarida oila qurishlari ular uchun eng muhim qadriyat sifatida qaralishi, ularning uylariga sovcilar kela boshlagani, ularning oila vazifalariga butkul berilganliklari, ularning tanishlari allaqachon oila qurganliklari, yaqinlari tomonidan bu yoshdagi qizning oila qurishiga oid fikrlar ko'plab aytilayotganini va ularda bu qadriyatga nisbatan ko'nikish va bo'lishi zarur bo'lgan haqiqat sifatida qarash tarkib topganligini bildiradi. Yigitlar esa o'zlarini avval iqtisodiy jihatidan, ijtimoiy jihatdan mustaqil sifatida ko'rishlari kerakligi, oila qurish uchun o'zlarini anglab olishlari, mutaxassis sifatida shakllanishlari muhimligini his etishlari ustunligi ko'rinadi.

Yoshlarda olib borilgan so'rovnomalar va psixologik testdan olingan natijalar yoshlarda kelajak oilaviy hayotlari haqida yetnik, jinsiy, psixologik xususiyatlar mavjudligini tasdiqlaydi.

Yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari ularning yosh ko'rsatkichlari, ma'naviy yetuklik darajalari, oilada olgan turli darajadagi ijtimoiy ta'sirlariga bog'liq ekanligi ko'rindi. Mazkur tadqiqot ishimizda quyidagi xulosalarga keldik:

1. Yoshlar tomonidan qiz bolaning turmush qurish yoshi masalasida eng optimal yosh sifatida 20-21 yoshni tanlangan bo'lib, bu o'z navbatida kelinchakning oilada bajaradigan turli vazifalarni yaxshi anglash yotadi va bu vazifalarga tarbiyaviy, iqtisodiy, kommunikativ, ma'naviy, ijtimoiy, psixologik, reproduktiv va boshqalar kiradi. Yoshlar fikriga ko'ra, har bir funktsiyaning oila sharoitida bajarilishida ma'lum bir yetuklik sharti zarur ekan.

2. Yigitlarning oila qurishlari uchun eng maqbul yosh sifatida 24-25 yosh ko'rsatkichini eng ma'qul sifatida tanlashlari ko'rinar ekan. Ayrim yoshlar fikriga ko'ra, yigit kishining oila qurish yoshini 22-23 yoshni ma'qul deb olish ham mumkin ekan.

3. Yigitlarning aksariyat qismi uchun sevgi asosida oila qurish holati ma'qul ekan. Aksariyat qizlar otasi talabiga ko'ra oila qurishni ma'qullar ekanlar. Bu orqali otasining fikri bilan hisoblashishlari, otalarining uning oilaviy hayotiga nisbatan aniq va to'g'ri fikr bildirishini his etishlarini namoyon etar ekanlar.

4. Nikohga ma'naviy tayyorlikning past ko'rsatkichi yigitlarda oz bo'lsa-da kuzatilar ekan.

5. Nikohga ma'naviy tayyorlikning o'rtacha ko'rsatkichi qizlarning deyarli barchalari uchun xos ekan.

6. Yoshlar uchun ularni oilaviy hayotga tayyorlashga qaratilgan pedagogik-psixologik usullarni qo'llash zarurligi ko'rindi, chunki yoshlik davri ayrim yoshlarning oila qurishi uchun muqarrar yosh davri ekanligi kuzatildi.

Olingan natijalar, xulosalar asosida ushbu tavsiyalarni berishni zarur deb hisoblaymiz:

- Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda yoshlarning fiziologik yetukligi bilan bir qatorda ularning ma'naviy, kasb jihatidan, ya'ni professional, ijtimoiy, xuquqiy, psixologik yetuk bo'lishlariga yerishish. Buning uchun yoshlarga pedagog-o'qituvchilar, ota-onalar, kattalar tomonidan shu jihatlarni muhim yekanligini o'rgatib borish va tushuntirish;

- oila muhim qadriyat yekanligiga oid turli suhbatlar olib borish;

- yoshlarga oila mustahkamligini ta'minlovchi omillarga oid maxsus suhbat va munozaralarni tashkil yetish, malakali mutaxassislar bilan uchrashuvlar o'tkazish;

- ommaviy axborot vositalaridan: televideniye, radio va gazeta-jurnallarda maxsus ko'rsatuv, yeshittirish va chiqishlar tashkil yetish;

- yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash ishini muhim deb qarab, oilaga doir suhbatlar uyushtirish; hayotiy misollar vositasida nikoh qurish omillarining nikoh barqarorligiga ta'sirini ibratli jihatlarni ko'rsatish orqali bu muammoga doir ijobiy tasavvur shakllantira olish.

Demak, biz o'quv muassasalarida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda nafaqat mutaxassislik fanlariga, balki shaxsning o'z-o'zini yaxshi his etish, atrofdagi odamlar bilan bo'ladigan shaxslararo munosabatlarida zo'riqmay erkin his qilishga yordam beradigan psixologik bilimlarni berishimiz, qolaversa, yigit-qizlarga "tabiatning shoh asari bo'lmish – oila"ning o'ziga xos qonun-qoida, sir-sinoatlarini o'rgatishimiz zarur. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Mustahkam oila va baxtli turmush avvalambor oila quradigan yoshlarning o'ziga, ularning aql-zakovati, ma'naviy fazilatlariga, oila, jamiyat oldidagi o'z burchi va mas'uliyatini chuqur anglab yetishiga bog'liqdir!" [2].

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2005. – 39 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008. – 176 b.
3. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - jamiyatimizni isloh qilish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishdan iborat. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi gazetasi. 2015-yil 7-dekabr.
4. Алешина Ю.Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование. – Изд. 2-е. – М.: Независимая фирма «Класс», 1999. – 208 с.
5. Davletshin M.G., Shoumarov G'B. Zamonaviy o'zbek oilasi va uning psixologik

- xususiyatlari / O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalari qisqacha bayoni. – Toshkent, 1993. – B. 3-7.
6. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi: Psixol. fan. dok. dis.: 19.00.05. – T.: FarDU, 1994. – 324 b.
 7. Lutfullayeva N.X. Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixol. fan. nom...dis. avtoreferati: 19.00.05. – T.: O'zMU, 2006. – 25 b.
 8. Oila psixologiyasi. Shoumarov G.B. tahriri ostida. – T.: 2000, -272 b.
 9. Сафина Н.Х. Особенности супружеских отношений на различных этапах становления молодой семьи: Дис.канд. психол. наук: 19.00.13, 19.00.05. – Казан: КазГУ, 2004. – 191 с.
 10. Saifnazarova F. O'zbek oilasi: ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar. Monografiya. – T.: «YURIST-MEDIA MARKAZI» nashriyoti, 2007. – 128b.
 11. Sog'inov N.A. O'zbek oilalarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik xususiyatlari. O'zbekiston mustaqilligi uning fani va texnologiyalarini rivojlantirish kafolati. II Respublika ilmiy kollokviumi materiallari. – Toshkent - 1998. B.98-101.
 12. Сорокина Т.Ю. Особенности брачно-семейных установок студенческой молодежи: Дис. канд. психол. наук: 19.00.05. – Самара: СамГПУ, 2007. – 240 с.
 13. Umarova M.M. O'smirlarda oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy psixologik shart-sharoitlari. Psixol. fan. nom. ... dis. avtoreferati: 19.00.05. – T.: O'zMU, 2004. – 27b.
 14. Fayziyeva M.X. Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (Er-xotin misolida). Psixol. fan. nom. .dis. avtoreferati: 19.00.05. – T.: O'zMU, 2005. – 25 b.
 15. Shoumarov G.B., Shoumarov Sh.B. Mupabbat va oila. – T., 1994. – 120 b.
 16. G'oziyev E. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): Ped.institutlari va universitetlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1994. – 224 b.
 17. www.psychology.all.ru

**Акратова Ф.А.
Тошкuvatova P.Ш.
ФАКТОРЫ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ
МОЛОДЕЖИ К СЕМЬЕ**

В данной статье представлены основные факторы подготовки молодежи к семейной жизни и их психологические особенности, факторы эмпирически исследованы, приведен психологический анализ полученных результатов, на основе которых разработаны заключения и рекомендации.

Ключевые слова: семья, факторы создания семьи, семейная жизнь, семейные отношения, мотивы создания семьи.

**Akramova F.A
Toshkuvatova R.Sh.
THE SOURCES AND PSYCHOLOGICAL
FEATURES OF PREPARING YOUNG
PEOPLE FOR CREATING FAMILY**

This article presents the main factors of preparing young people for family life and their psychological characteristics, these factors have been studied empirically, is a psychological analysis of the results, which are designed on the basis of conclusions and recommendations.

Keywords: family, family factors, family life, family relationships, motives.

UDK: 370.153

PEDAGOGIK KOMPETENSIYANI DIAGNOSTIKA QILISH IMKONIYATLARI

U.A. Butayeva

Nizomiy nomidagi TDPU tadqiqotchisi

Annotatsiyasi. Pedagog kadrlar malakasini oshirish sohasida ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilash, undagi talablarga javob beradigan jihatlarni hamda mavjud kamchiliklarni va bo'shliqlarni aniqlash asosida malaka oshirishga bo'lgan haqiqiy ehtiyojlarni belgilash amalga oshiriladi. Bu ehtiyojlarni malaka oshirishga buyurtmalarni shakllantirishda hisobga olish aniq maqsadli va shunga asosan samarali malaka oshirishni ta'minlaydi. Bu esa pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga olib keladi.

Kalit soʻzlar: kompetensiya, diagnostika, kasbiy kompetensiya, kasbiy diagnostika, pedagogik kompetensiya, faoliyat.

Kompetensiya (lotincha *campetere* soʻzidan olingan boʻlib, muvofiq kelmoq, toʻgʻri kelmoq maʼnosini bildiradi) - umumiy masalalarni hal etishda bilimni qoʻllash amaliy tajriba asosida muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyati, shuningdek maʼlum sohada muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatidir. Demak, pedagogik kompetensiya esa pedagogning taʼlim-tarbiyaviy ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish mahorati, shuningdek, amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qoʻllash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi.

Pedagogning “kasbiy kompetensiya” atamasi shunday izohlanadi: “bu pedagogning oʻqituvchilik kasbi talabalariga muvofiq ishlash qobiliyatidir”. Bunda pedagogning shaxsiy tavsiflar kabi bayon etilishi mumkin (masalan, “stressga chidamli”, “oʻquvchilar guruhi bilan ishlashga layoqatlilik”, “kreativlilik” kompetensiyalari, xuddi shunday egallagan malakalari kabi koʻrsatilishi ham mumkin.

Pedagoglarni attestatsiyadan oʻtkazish, yangi pedagoglarni ishga qabul qilish, shuningdek doimiy ishlaydigan pedagoglar uchun maʼlum vaqtli intervalda masalan 3-5 yilda bir marta oʻtkaziladi. Bu xodimning egallagan lavozimga munosibligini baholash imkonini beradi. Test natijalari boʻyicha pedagogni yuqori toifa beriladi. Agar bilim va malakasida kamchilik aniqlansa, pedagog malaka oshirishi va qoʻshimcha oʻqishi kerak boʻladi.

Hozirgi kunda Davlat test markazi taʼlim muassasasida faoliyat yuritayotgan pedagoglarni hamma uchun yagona tasdiqlangan davlat talablari asosida real tavsifnomalarini va malakalarini baholab kelmoqda.

Maʼlumki, pedagogik kompetensiyani diagnostika qilish oʻziga xos murakkab jarayondir. Shuningdek, bu pedagogning oʻqituvchilik kasbi talabalariga muvofiqligini aniqlash va tahlil qilishdan iborat. Pedagog kadrlar malakasini oshirish sohasida ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilash, undagi talablarga javob beradigan jihatlarni hamda mavjud kamchiliklarni va boʻshliqlarni aniqlash asosida malaka oshirishga boʻlgan haqiqiy ehtiyojlarni belgilash amalga oshiriladi. Bu ehtiyojlarni malaka oshirishga buyurtmalarni shakllantirishda hisobga olish aniq maqsadli va shunga asosan samarali malaka oshirishni taʼminlaydi. Bu esa pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga olib keladi. Hozirgi vaqtda malaka oshirishning boshlanishida tezkor kasbiy diagnostika oʻtkazish orqali tinglovchilarning tegishli yoʻnalishlar boʻyicha tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Uning natijalarini hisobga olgan holda malaka oshirish mashgʻulotlarini tashkil qilish bu mashgʻulotlarning aniq maqsadli boʻlishini va ulardan koʻzda tutilgan samaraga erishishni taʼminlaydi.

Malaka oshirish kursi oxiridagi yakuniy attestatsiya kasbiy diagnostikaning oʻziga xos rasmiy shakli boʻlib, tinglovchining oʻzlashtirishi natijalarini belgilaydi.

Malaka oshirish kursidan keyingi kasbiy diagnostika tinglovchining kursda oʻrganganlarini oʻz amaliy faoliyatida qoʻllashi darajasini va erishgan natijalarini aniqlashga qaratiladi. Bu esa malaka oshirish kursining samaradorligi natijalarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Taʼlim muassasalari tomonidan hamda pedagog kadrlarning oʻzlari tomonidan vaqti-vaqti bilan ularning nazariy va metodik tayyorgarlik darajasi diagnostikasi oʻtkazilib, ularning bu sohalaridagi innovatsiyalar, erishilgan yutuqlar bilan tanishish, ulardan amalda foydalanish boʻyicha olib borayotgan ishlari natijalari hamda mazkur yoʻnalishlardagi ehtiyojlari aniqlab boriladi.

Kasbiy diagnostika natijalaridan pedagog kadrlarining kasbiy pedagogik mahorati darajasini, reytingini aniqlash orqali ularning malaka toifasini belgilash, turli maqsadlardagi tanlovlarni oʻtkazish kabi masalalarni hal qilishda foydalaniladi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda kasbiy pedagogik diagnostikaning mazmun-mohiyatini umumiy tarzda quyidagicha ifodalash mumkin.

Kasbiy pedagogik diagnostikaning mazmuni pedagog kadrlarning zamonaviy talablar darajasida kasbiy tayyorgarlikka ega boʻlishlari uchun amalga oshiriladigan ilmiy-metodik yoʻnalishdagi tashkiliy-pedagogik va amaliy ishlardan iborat. Oʻqituvchining pedagogik kompetensiyasini aniqlash, tashkil etish va amalga oshirishda hamda uning natijalaridan amalda foydalanishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

Maqsadlilik. Bu tamoyil kasbiy pedagogik diagnostika pedagog kadrlar kasbiy faoliyatining har bir yoʻnalishlari boʻyicha mavjud boʻshliklarni alohida aniqlash hamda tayyorgarlik darajasini belgilash yuzasidan tegishli aniq maqsadlarga qaratilgan boʻlishini nazarda tutadi.

Ilmiylik. Bu tamoyil kasbiy pedagogik diagnostikaning mazmuni, shakl, usullari, xulosa va tavsiyalari ilmiy qoida, qonunlar, tegishli ilmiy nuqtayi nazarlarga asoslanishni talab qiladi.

Metodik asosga egalik. Bu tamoyil kasbiy diagnostikani rejalashtirish va amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni mavjud metodik xulosa va tavsiyalarga asoslangan holda hal etishni nazarda tutadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga muvofiqlik. Bu tamoyil pedagogik diagnostikani amalga oshirishda hozirgi ilg'or pedagogik texnologiyalarga muvofiq shakl va usullardan foydalanishni nazarda tutadi.

Psixologik omillarni hisobga olish. Bu tamoyil pedagogik diagnostikani tashkil qilish va amalga oshirishda psixologik omillarni hisobga olish, jumladan, shaxsiy psixologik xususiyatlar, muloqot psixologiyasi, psixologik vaziyatlar va ularga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olishni nazarda tutadi.

Xolislik. Bu tamoyil kasbiy diagnostikani o'tkazish jarayonida va uning natijalarini belgilash, tahlil qilish, xulosa va tavsiyalar berishda xolisona yondashuvni amalga oshirish bo'yicha zarur mezonlarga to'liq rioya qilinishini ta'minlashdan iborat.

Davriylik. Bu tamoyil kasbiy diagnostikani ma'lum davriylikda tashkil qilib borish va natijalari asosida tegishli ishlarni o'z vaqtida amalga oshirib borishni nazarda tutadi.

Har xil turdagi shakl va usullardan foydalanish. Bu tamoyil kasbiy diagnostikaning muayyan maqsadlariga muvofiq bo'lgan turli zamonaviy shakl va usullaridan foydalanish orqali olinadigan natijalarning xolisona bo'lishini ta'minlashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, turli shakl va usullardan foydalanish kasbiy diagnostikani takomillashtirib borish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari ayrim masalalar bo'yicha turli shakl va usullarni qo'llash orqali olingan natijalarni qiyoslash shu masalalar bo'yicha atroflicha ma'lumotlarga ega bo'lish hamda xolislikni yanada oshirishni ta'minlaydi.

Natijaviylik. Bu tamoyil kasbiy diagnostika natijalarini aniqlash, ularni tegishlicha tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish va tavsiyalar berish, zarur hollarda chora-tadbirlar ishlab chiqish, shu tavsiyalar va chora-tadbirlarning amalga oshirilishini tashkil qilish, bajarilishini nazorat qilib borishni nazarda tutadi.

Amaliyot bilan bog'liqlik. Bu tamoyil kasbiy diagnostikaning pedagog kadrlar amaliy faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bo'lishini, malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlarni belgilash asosida buyurtmalarni aniq maqsadli shakllantirishni hamda kursdan keyingi samaradorlikni aniqlab, kelgusi vazifalarni belgilab borishdan iborat ishlarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik kompetensiya diagnostikasining asosiy shakllari va usullari:

Hujjatlarni o'rganish asosidagi diagnostika.

O'quv mashg'ulotlarini kuzatish va tahlil qilish.

Suhbat asosidagi diagnostika.

So'rovnoma savollariga berilgan javoblar asosidagi diagnostika.

Test sinovi asosidagi diagnostika.

O'quvchilarning fikrlarini o'rganish

Ota-onalarning fikrlarini o'rganish bo'yicha sotsiologik tadqiqot.

O'zini-o'zi diagnostika qilib borish.

Diagnostika natijalarini aniqlash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarish, tavsiyalar berish.

Ushbu shakl va usullardan har birining o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holdagi aniq maqsadlarga muvofiq ravishda foydalaniladi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olgan holda pedagogik kompetensiya diagnostikasini amalga joriy qilish hozirgi dolzarb masalalardan bo'lib, buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab qilinadi:

1. Pedagog kadrlar malakasini oshirish sifati va samaradorligini ta'minlash yo'nalishlaridan biri sifatida kasbiy pedagogik diagnostika usullaridan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish.

2. Kasbiy pedagogik diagnostikaning zamonaviy shakl va usullaridan amalda foydalanish masalalarini o'rganish hamda ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

3. Malaka oshirish bo'yicha ehtiyojlarni aniqlash mexanizmini takomillashtirib borish. Aniqlangan ehtiyojlar asosida aniq maqsadli malaka oshirish kursi mashg'ulotlarini tashkil qilish shakl va usullarini rivojlantirib borish.

4. Kasbiy diagnostikani amalga oshiruvchilarning ushbu yo'nalishdagi bilim, ko'nikma, malakalarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirib borish.

5. O'zini o'zi kasbiy diagnostika qilish usullarini pedagog kadrlar puxta o'zlashtirishini va amalda qo'llashi samaradorligini oshirib borish yuzasidan tegishli tadbirlarni amalga oshirish.

6. Kasbiy diagnostika natijalari asosida malaka oshirish kursi o'quv rejasi va dasturiga tegishli o'zgarishlar kiritib borish mexanizmini ishlab chiqish va amalga joriy qilish.

7. Kasbiy diagnostika yo'nalishida ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirib borish.

8. Kasbiy diagnostikadan amalda unumli foydalanishga qaratilgan qo'llanma, tavsiyanoma va zarur me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish.

9. Malaka oshirishga buyurtmalarni kasbiy diagnostika natijasida aniqlangan ehtiyojlar asosida shakllantirish yuzasidan buyurtmachilarga metodik yordamlar ko'rsatib borish.

10. Kasbiy diagnostika vositasida pedagog kadrlar kasbiy tayyorgarligidagi aniqlangan bo'shliklarning turlari, xususiyatlari va boshqa sifatlarini muntazam o'rganib, tegishli xulosalar chiqarib va tavsiyalar berib borishni yo'lga qo'yish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

11. Kasbiy pedagogik diagnostikaning tashkiliy-pedagogik va ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirib borish.

Pedagogik kompetensiyani diagnostikasini maqsadga muvofiq darajada olib borish natijasida xalq ta'limi pedagog kadrlarining kasbiy tayyorgarlik darajasini aniq belgilash, baholash hamda zarur xulosalar chiqarish, tavsiyalarni asoslangan holda ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Diagnostika jarayonida mavjud ilg'or tajribalarning to'liq aniqlanib borishi natijasida innovasion faoliyatning samaradorligini oshirishga erishiladi.

Kasbiy pedagogik diagnostika kasbiy tayyorgarlik darajasidagi bo'shliqlar bilan birga yuqori natijalarni, yutuqlarni, ilg'or pedagoglar tomonidan qo'llanilayotgan ibratli, ilg'or ish usullarini, ularning pedagogik mahorati darajasini ko'rsatib berishga ham xizmat qiladi.

Bunda pedagog kadrlar faoliyatidagi yutuqlar hamda kamchiliklar haqidagi aniq ma'lumotlar ustoz-shogird usulidagi faoliyatni real holat va sharoitlarga muvofiq aniq maqsadlarni belgilagan holda tashkil etish va amalga oshirishga asos bo'ladi.

Malaka oshirish bo'yicha kasbiy pedagogik diagnostikaning qo'llanish sohasi kengayib, tamoyillari, shakllari, usullari va vositalari rivojlanib borishini nazarda tutish lozim.

Pirovardida pedagogik kompetensiya diagnostikasi ta'lim-tarbiya sohasining uzluksiz rivojlanib borishini ta'minlovchi jiddiy vosita bo'lib qoladi.

Kasbiy pedagogik diagnostikani amaliyotga tatbiq qilish orqali mavjud ehtiyojlarga asoslangan, aniq maqsadli, buyurtmali malaka oshirishni tashkil qilish, uning natijasida esa malaka oshirish jarayoni sifati va samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

Ta'lim muassasalarida kasbiy diagnostika monitoringi natijalarini tegishli tahlil qilish, belgilangan maqsadga erishilganlik darajasini aniqlash, zarur darajada umumlashtirib, xulosalar chiqarish, lozim hollarda o'rnatilgan mezonlar bo'yicha baholash hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, ijobiy jihatlarni yanada rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berishni yo'lga quyish lozim. Bu usullar orasida xodimning o'z-o'zini baholashi natijalari asosida belgilangan ehtiyojlarini hisobga olish ham jiddiy ahamiyatga ega.

Shunday tartibda olib borilgan monitoring natijalari orqali pedagog kadrlar kasbiy tayyorgarligining haqiqiy darajasini muntazam bilib borish asosida ularning kasbiy pedagogik o'sishlarini ta'minlash va bu jarayonni nazorat qilib borish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonini muntazam ravishda takomillashtirib borishga xizmat qiladi.

Ta'lim muassasalarida uzluksiz malaka oshirish jarayonida kasbiy diagnostikadan foydalanish uchun ijodiy muhit samaradorligini aniqlash hamda diagnostikasini amalga oshirish uchun uning asosiy parametrlariga ularning tarkibiy mazmuni hamda o'zaro bog'liqliklari va o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda asoslanish maqsadga muvofiq. Maktabda ijodiy muhitni takomillashtirishni o'ziga xos yo'nalishlari mavjud bo'lib, ularning har biri bo'yicha aniq maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirib borish maktab faoliyatining barcha sohalarida yuqori sifat va samaradorlikka erishish imkoniyatlarini beradi.

Adabiyotlar

1. Zaripov K.Z. O'qituvchi faoliyati va shaxsni pedagogik tashxis asosida o'rganish // "Xalq ta'limi" jurnali. -2002 y. 3- son. 83-87-betlar.
2. Ингем Камп. Педагогическая диагностика. – М.: Педагогика, - 1991.

3. Yo'ldoshev J.G'., Usmanov S.A. Ta'lim menejmenti.- A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2006 yil.
4. Yah'yayev M. O'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimi to'g'risida. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI axborotnomasi maxsus soni.

Бутаева У.А.

**ВОЗМОЖНОСТИ ДИАГНОСТИКИ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ**

В области повышения квалификации педагогических кадров, обозначения степени профессиональной подготовки, также путём выявления пробелов и недостатков в отвечающем требованиям аспекте повышения квалификации осуществляется обозначение реальных требований повышения квалификации. Это имеет точную направленность на учёт повышения квалификации в формировании требований и на основе этого обеспечивает продуктивное повышение квалификации. Это способствует развитию педагогической компетенции.

Ключевые слова: компетенция, диагностика, профессиональной диагностики, педагогической компетенции, профессиональной компетенции, деятельность.

Butayeva U.A.

**POSSIBILITIES OF THE
DIAGNOSTICS PEDAGOGICAL
COMPETENCY**

There are fulfilled designation of real demands of development and detection of gaps and lack in professional development in forming of requirements and on the basis of it provides efficient professional development. It promotes the development of pedagogic competence.

Keywords: competence, diagnostice, professional diagnostics, pedagogic competence, professional competence, activity.

UDK: 331.5

**MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES
VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING O`RNI****O.M. Ruzibayev,***Samarqand davlat universiteti, E-mail: Ruzibayev93@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati va rivojlanishi nazariy jihatdan asoslangan. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bo'yicha chet el tajribasi o'rganilib, ularning ijobiy tomonlarini respublikada joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, mehnat resurslari, YaIM.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni erkinlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash evaziga uzluksiz iqtisodiy o'sishga erishishdek dolzarb vazifa qo'yilgan. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiyotda erishgan yutuqlarning asosi - bozor iqtisodiyoti, mulk shakllarining takomillashuvi, iqtisodiyotdagi keskin tuzilmaviy o'zgarishlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining ortib borishi bilan baholanmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda kichik biznes sohasining rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda. Milliy iqtisodiyotning barqaror yuqori sur'atlarda yuksalishi va tobora ortib borayotgan mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlashda kichik biznes o'ziga xos lokomotiv vazifasini o'tamoqda. "...kichik va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda nafaqat hal qiluvchi mavqe egallashi, ayni vaqtda uning aholi farovonligi va daromadlari ortishida, ishsizlik muammosini yechishda ham muhim omilga aylanishiga erishmog'imiz lozim"[1].

Istiqbolda mamlakat iqtisodiyotida kichik biznesni yanada rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan, chunki mehnat resurslarining to'rtidan uch qismidan ko'prog'i ushbu sohada ish bilan band. "Bugungi kunda kichik biznesning mamlakat YaIMdagi ulushi 56,7 foizga yetdi, sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98,0 foizi ishlab chiqarilmoqda, ish bilan band jami aholimizning 77,0 foizdan ortig'i mazkur tarmoqda mehnat qilyapti". Munosib mehnat tamoyillarini birinchi navbatda, kichik biznesga to'liq joriy etilishiga erishish, ushbu sohada ijtimoiy-mehnat munosabatlarini takomillashtirish hozirgi paytda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi PF-4725-son "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27- maydagi 232-son "Kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorini hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, kichik biznesning miqdor ko'rsatkichlariga qaraganda uning sifat xususiyatlari - kichik biznesning bozor iqtisodiyotining asosi, raqobat muhitini shakllantiruvchi eng muqim subyektligi, bozorda bir turdagi mahsulot va xizmatlarga tabaqalashgan narxni shakllantirishga qodirligi va boshqalar muhim.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida ish bilan bandlikning egiluvchan shakllari – qisman ish bilan bandlik, ish joyini taqsimlash, moslashuvchan ish grafigi, egiluvchan va virtual ish joyi iqtisodiy faol aholini munosib ish bilan ta'minlashning samarali yo'li bo'lib, u ish beruvchilarga iqtisodiy vaziyat, bozor kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarishning yo'nalishini, xodimlarning soni va tarkibini qisqa muddatda o'zgartirishga yordam beradi.

Bugungi kunda, mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ustuvor, yuqori sur'atlarda barqaror rivojlantirilishi bugungi kunda mazkur sohaning 10,0 mln.dan ortiq kishini ish bilan ta'minlashiga xizmat qilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida ish bilan band bo'lganlarning 7,3 mln. nafarga yaqini xususiy tadbirkorlik, 2,3 mln. nafari kichik korxona va mikrofirmalar qissasiga to'g'ri keladi.

Keyingi 20 yil mobaynida kichik biznes sohasida ko'plab yangi ish joylari tashkil etilib, qariyb 20 baravarga ortdi. 2014-yilda ish joylarini tashkil etish va aholini munosib ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha davlat va mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida qariyb 980 ming kishi ish bilan ta'minlandi. Bu borada kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka

tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 480 mingdan ortiq, kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod ish o'zni tashkil etildi.

Hozirgi kunda, mamlakatda kichik biznes sub'ektlari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, shuning natijasida qo'shimcha yuqori unumli ish joylari yaratish uchun ularni imtiyozli moliyalashtirish muammosini hal etish talab qilinadi. Tahlillar natijasida ro'yxatdan o'tgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ayrim sub'ektlarida aylanma mablag'larining yetishmasligi sababli faoliyat ko'rsatmayotganlari aniqlandi. Bu ularning o'z mablag'larining yetishmasligi, bank kreditlarini jalb qilish uchun ishonarli garovga ega emasliklari bilan izohlanadi [3].

Darhaqiqat, respublika iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirish maqsadida kichik biznes subyektlarida mahsulotlarni chuqur qayta ishlashga, xizmat ko'rsatish sohasiga ixtisoslashgan, yuqori ilimga talab, innovatsion texnologiyalarni joriy etadigan korxonalarni tashkil etishga ko'maklashish va ular faoliyatni rivojlantirish samarali yo'nalishlardandir.

"Tadbirkorlik" tushunchasi ensiklopedik lug'atda "tadbirkorlik - (ingl. enterprise) shaxsiy daromad, foyda olishga qaratilgan fuqarolarning mustaqil faoliyati. Bu faoliyat o'z nomidan, o'z mulkiy mas'uliyati va javobgarligi shaxsning huquqiy mas'uliyati evaziga amalga oshiriladi. Tadbirkor qonun tomonidan taqiqlanmagan barcha xo'jalik faoliyati, shu jumladan, vositachilik, sotish-sotib olish, maslahat berish, qimmatbaho qog'ozlar bilan ish olib borish kabilar bilan shug'ullanish mumkin" deb ta'riflangan [4].

O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga muvofiq tadbirkorlik deyilganda, tadbirkorlik faoliyati tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi asosida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat tushuniladi.

Tadbirkor so'zining mohiyatini yoritib berishda akademik S. G'ulomov "tadbirkor – o'zining ma'lum bir miqdordagi moliyaviy mablag'ini tavakkal qilgan holda bozorga yangi g'oya, mahsulot, ish va xizmatlar bilan kirib boruvchi ishbilarmon shaxsdir" [5] deb ta'rif beradi.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida KBXTni rivojlantirish tahlilini o'tkazib, shunday xulosaga keldikki, so'nggi 30-40 yil ichida kichik korxonalarning o'sish sur'ati tezlashdi, milliy iqtisodiyotda KBXTning tutgan o'zni ortdi. Bunday o'sishga KBXT muammolariga davlat tomonidan berilgan diqqat-e'tibor tufayli erishildi. Rivojlangan davlatlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning muhim yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- soliқ yukini yengillashtirish;
- ruxsat berish tartibini qisqartirish va soddalashtirish;
- ish faoliyatiga noqonuniy aralashishning oldini olish;
- kichik tadbirkorlik subyektlariga bozor iqtisodiyoti subyektlarini kiritishda asos bo'ladigan umumiy mezon ko'rsatkichlari xodimlar soni, nizom jamg'armasining miqdori, aktivlar miqdori, aylanma mablag'lar hajmi, foyda, daromad;
- tabiiy monopoliya sohaslariga kichik biznes vakillarining kirishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- yuqori likvidli va monopol mahsulotlar sotib olish uchun sharoit yaratish;
- bo'sh turgan bino va inshootlardan foydalanish uchun keng imkoniyatlarni yaratish;
- KBXT subyektlariga moliyaviy ko'mak berish;
- KBXT subyektlari uchun infratuzilmalarni yaratish;
- monopol mahsulot va xizmatlar xarajatlarini kamaytirish;
- KBXTni qo'llab-quvvatlovchi birlashmalar, Kengash va boshqa tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotganligi, yirik tashkilot va birlashmalar, aksionerlik jamiyatlari KBXTlardan yordamini ayamasiigi.

Rivojlangan mamlakatlarda jamoat tashkilotlari ham KBXTning asosiy himoyachisi bo'lib hisoblashi.

Rivojlangan davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning bugungi bosqichida ulkan iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Ravshanki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida yoshlarni ish bilan ta'minlash darajasini oshirish uchun ularga kvotalangan munosib ish o'rinlarining hududiy maqsadli jamg'armalarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu yangi barpo etilayotgan ish joylarining xalqaro andozalarga munosibligini belgilovchi me'yoriy talablarning ishlab chiqilishiga qaratilgan moliyaviy manbalarni maqsadli yo'naltirishga va ularning samaradorlik darajasini oshirishga asos bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz. – T.: O‘zbekiston, 2000. – 339 b.
2. Boltaboyev M.R., Qosimova M.S., G‘oyibnazarov B.K., Ergashxo‘jayeva Sh.J., Samadov A.N., Otajonov Sh.I. Kichik biznes va tadbirkorlik. O‘quv qo‘llanma. – T.: Noshir, 2011. – 280 b
3. Pardayev M.Q., Mamasoatov T.X., Murotqobilov A.A., Rahimov H.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: rivojlanish muammolari va yechimlari. Monografiya. – T.: "Navro‘z" nashriyoti, 2013. – 172 b.
4. Энциклопедический словарь предпринимателя. Составители: Синелькинов С.М. и др. – СПб: "Алга фонд", "АЯКС", 1992. – 137-138 б.
5. S.G‘ulomov umumiy tahriri ostida. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rivojlantirish, boshqarish. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2005. – 7 b.

О.М. Рузibaев

**РОЛЬ МАЛОГО БИЗНЕСА И
ЧАСТНОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В
НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ**

В статье рассмотрена роль частного бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане. Теоретически обоснована сущность и развитие малого бизнеса и частного предпринимательства в сфере услуг; изучены опыты зарубежных стран по обеспечению развития малого бизнеса и частного предпринимательства и разработаны рекомендации по внедрению их положительных сторон в Республике; теоретически обоснованы этапы развития малого бизнеса и частного предпринимательства в сфере услуг в Узбекистане.

Ключевые слова. Малый бизнес, предпринимательство, трудовые ресурсы, ВВП.

O.M. Ruzibaev

**THE WAYS OF INCREASING OF THE
EFFICIENCY OF SMALL BUSINESS AND
PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE
NATIONAL ECONOMICS**

Theoretically proved the essence and development of small business and entrepreneurship in the sphere of service industries; studied the experience of foreign countries to ensure the development of small businesses and private entrepreneurship, and developed recommendations for the introduction of their positive aspects in the Republic; theoretically proved stages of development of small and private businesses in the sphere of service Industries of Uzbekistan.

Keywords: Small business, private entrepreneurship, entrepreneurship, services, efficiency, economic efficiency, social efficiency, criteria of an estimation of efficiency, efficiency indicators, population employment, free economical zones.

UDK: 338.43

**INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA QISHLOQ MEHNAT BOZORIDA
ISHCHI KUCHI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING
IQTISODIY MEXANIZMINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

S.Q.Qurbonov

Samarqand davlat universiteti assistenti. E-mail: maqistr_1010@mail.ru

Annotatsiya. Qishloq mehnat bozorida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish, ishchi kuchi taklifining sifati o‘shishi, ish bilan bandlik va mehnat samaradorligining ortishi, YAIM o‘shishi hamda aholining turmush darajasi va farovonligi yaxshilanishi bo‘yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq mehnat bozori, ishchi kuchi, ishchi kuchi raqobatbardoshligi, ishchi kuchi sifati, malakali kadrlar tayyorlash tizimi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi qishloq mehnat bozorida ishchi kuchi raqobatbardoshligini shakllanishi aholining ish bilan bandligini hozirgi zamon shart sharoitlari va an‘analariga o‘zaro ta’sir etuvchi va bir-biriga bog‘liq umumiy hamda o‘ziga xos shart-sharoitlar va omillar ta’siri ostida yuz bermoqda.

Ishchi kuchi raqobatbardoshligi mehnat bozorining ajralmas qismi sifatida ishchi kuchi talab va taklifi asosida vujudga keladi. Ishchi kuchi “mehnatga qobiliyat”ning tovarga aylanishi mehnat bozori shakllanishi va rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek: “Iqtisodiyot va xizmat ko’rsatish sohasining yuqori sur’atlar bilan barqaror o’sishi biz uchun eng muhim ustuvor yo’nalish bo’lgan – aholi bandligini ta’minlash, avvalambor, kasb-hunar kollejlari va oliy o’quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish uchun zarur sharoitlar yaratdi.

2015-yilda mamlakatimizda 980 mingdan ortiq ish o’rni tashkil qilingan bo’lsa, shuning 60 foizdan ziyodi qishloq joylarda yaratildi” [1].

Qishloq mehnat bozorining vujudga kelishi ishchi kuchiga talab va taklif o’rtasidagi muvozanatga erishish uchun o’zaro raqobat qilishga tayyor erkin va teng huquqli sheriklarning iqtisodiy munosabatlarda bo’lishlarini taqozo etadi. Bozorda yollanma xodim va ish beruvchi shaxsiy erkinlik va iqtisodiy zaruriyat nuqtayi nazaridan o’zaro bog’langan hamda bir-birlariga qaram bo’lsalar ham bir-birlariga qarshi turadilar.

Ishchi kuchi talab va taklifi o’rtasida bozor muvozanatiga erishish qishloq mehnat bozorining shakllanishida hal qiluvchi iqtisodiy shartlardan biri hisoblanadi. Ammo bunday muvozanat mavjud emas. Buning asosiy sababi – taklif qilingan mehnatga layoqatli aholi sonining unga talab miqdoriga nisbatan tez o’sishi.

Iqtisodiyotning barcha sektorlaridagi tarkibiy o’zgarishlar hozirgi sharoitda qishloq mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va uning taklifi yangi harakatini belgilovchi eng muhim iqtisodiy shartlardan hisoblanadi. Bular sanoat va xizmat ko’rsatish tarmoqlarida yangi ish joylarini yaratishni va mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sifat o’zgarishlarini asoslab beradi. Bunday sharoitlarda bir tomondan, mehnat bozorining yangi segmentlari agrosanoat majmuasi va ijtimoiy-ishlab chiqarish infratuzilmasining ko’p jonli mehnat talab qiladigan tarmoqlari va ishlab chiqarish bo’g’inlarini qamrab olsa, boshqa tomondan, iqtisodiyotning an’anaviy sektorlarida bozor munosabatlari vujudga keltiradi va rivojlantiradi.

Ishchi kuchi narxining o’zgarishi ishchi kuchi raqobatbardoshligi shakllanishining muhim iqtisodiy sharti hisoblanadi.

Qishloq mehnat bozorida yollanma xodimning ishga yollanish shart-sharoitlarini aniq bir ish joylariga bo’lgan talabini anglatadi. Ishchi kuchi raqobatbardoshligini ishlab chiqarish yoki xizmat ko’rsatish va mehnatga bog’liq holda ish joylarining rivojlanish darajasiga qarab aniqlash mumkin.

Bizning fikrimizcha, qishloq mehnat bozorida raqobat mexanizmini yo’lga qo’yish samaradorligini oshirish, ishchi kuchining sifat ko’rsatkichlarini to’xtovsiz oshirib borish – ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmining asosi bo’lib hisoblanadi.

Bizga ma’lumki, ishchi kuchi raqobatbardoshligining yuqori darajada bo’lishi unga boshqa ish beruvchilar yoki yollanma xodimlar tomonidan bo’ladigan raqobatni ushlab turishga imkon beradi yoki yollanma xodim o’zi uchun yaxshiroq ish joylariga umid qilish imkonini beradi. Ishchi kuchi raqobatbardoshligi darajasi yollanma xodimning o’z ish joyining rivojlanish darajasining yuqori darajada bo’lishini baholash uchun yordam beradi. Raqobatbardoshlik darajasi ishchi kuchining o’z ish joyida chidamliligini, zamon talablariga mos raqobatli tovarlar ishlab chiqarishini yoki xizmat ko’rsatishi ko’rsatkichidir.

Bizningcha, ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmi – me’yoriy aktlar bilan rasmiylashtirilgan ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy qonun-qoidalarning tashkil etilishi va bir me’yorda ishlashi uchun iqtisodiy usullar, instrumentlar, dastaklar, shakllar va uslublarning majmuasidir.


Ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmining strukturasi bir muncha murakkabdir. Amaldagi turli xil mehnat munosabatlari uning elementlariga kiradi. Shuningdek, ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishga ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, moliyaviy mexanizmlar ham ta’sir ko’rsatadi (1-rasm).

Rasmga ko’ra, ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmining ifodalanishi to’rtta guruhda berilgan.

Birinchi guruh ishchi kuchi raqobatbardoshligini shakllantirish uchun ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ishchi kuchi qiymatini, malaka va kasbiy tayyorgarligini, ma’lumot darajasini, ishchi kuchini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, jismoniy sog’lom va manaviy yetuk, hayotiy tajriba va ko’nikmalarga sarflangan xarajatlarni o’z ichiga oladi.

Ikkinchi guruh ishchi kuchining (ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan bandlar) qayta tayyorlash va malaka oshirishdan o'tganligiga qarab foydalanish darajasini aks ettiradi.

Uchinchi guruh iqtisodiyotni yangilash sharoitida yangi ish o'rinlarining yaratilishining ko'payishi va eskilarini modernizatsiya qilishga hamda ishchi kuchini o'z mutaxassisligi va kasbi bo'yicha yuqori malakali kadrlar etib tayyorlashdan iborat.



1-rasm. Ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmi.

Muallif tomonidan tuzilgan.

To'rtinchi guruhga iqtisodiy guruhlar bo'yicha natijalari keltirilgan. Bu natijalarga ko'ra ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmi orqali ishchi kuchi taklifining sifati o'sishi, ish bilan bandlik va mehnat samaradorligining ortishi, YAIM o'sishi hamda aholini turmush darajasi va farovonligini yaxshilanishiga olib keladi. Shuningdek, ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmiga ichki va tashqi mehnat bozorlari ham ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi chizmadan ko‘rinib turibdiki, ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir ko‘rsatuvchi ikkita muhim omil mavjud. Bu ichki va tashqi bozorlarga intilishga qaratilgan harakatlardir. Bu harakatlarga quyidagi iqtisodiy-ijtimoiy omillar ta‘sir ko‘rsatadi:

- ishchi kuchi sifati – bu xodimning malaka darajasi va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib baholanadi;

- kasbiy (mutaxassisligi) bo‘yicha ishchi kuchining raqobatbardoshligi quyidagi omillar bilan izohlanadi. Bu xodimning mehnat qilishdagi an‘anaviy, taqchil, kamyob, nufuzli tarmoqlanuvchi, erkin, tavakkalchilik va tezkor kasbgi intilish qobiliyatidan kelib chiqadi.

Ishchi kuchi raqobatbardoshligini quyidagi asosiy tamoyillar asosida shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatadi:

- ishchi kuchining erkin taklifi. Bu mehnatga layoqatli qishloq aholisining ish bilan band bo‘lish va bo‘lmaslikni ixtiriy tanlashini, mehnat qonunlari tomonidan ta‘qiqlanmaydigan va har bir xodimning shaxsiy va jamoa manfaatlarini hisobga oluvchi kasb va faoliyat turini erkin tanlash uchun sharoitlar mavjudligini anglatadi;

- ish beruvchilarning ishchi kuchiga mustaqil talabi. Bunda xodimni ishga erkin yollashlari va ishdan bo‘shatishlari mumkin. Bu holatdi ish beruvchilar bandlik, mehnat sharoitlari va unga haq to‘lashni kafolatlash bilan fuqorolarning manfaatlarini himoya qilishlari uchun imkoniyatlar yaratadi;

- yollanma xodimlarning ish beruvchilardan huquqiy va ijtimoiy himoya qilinganligi;

- ish haqi va boshqa qonuniy daromadlar qonunlarda belgilangan miqdordan kam bo‘lmasligi hamda holda erkin belgilash.

Jahon iqtisodiy hamjamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichi jahon iqtisodiyotining globallasuvi va baynalminallashuvi bilan tavsiflanadi, bunday sharoitda ishchi kuchining raqobatbardoshligi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy qarashlarda mehnat bozoridagi ishchi kuchi raqobati eng yaxshi natijalarga erishish uchun kurash sifatida bayon etilgan. Mehnat bozorida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning o‘ziga xos xususiyati quyidagilar bilan ifodalanadi:

- bozor omillari mehnat bozorida ishchi kuchining jalb etilishining umumiy shartlariga ta‘sir ko‘rsatish imkoniyati cheklanganda hamda ish beruvchiga kerakli ishchi kuchini etkazib berishdagi kurash;

- mehnat bozorining subektlari o‘rtasida ularning har biri boshqasidan yuqoriroq natijaga erishish maqsadida o‘zaro kurashi;

- ishchi kuchining samaraliroq faoliyat ko‘rsatishi uchun eng muhim mexanizmdir.

Iqtisodiyot nazariyasining klassik vakillari, raqobat – bozor mexanizmining talab va taklifini muvozanatga keltiruvchi elementidir. Ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklifning muvozanatga keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvga ko‘ra:


- ishchi kuchining bozor narxini aniqlash;

- turli sohalar o‘rtasida ishchi kuchini taqsimlash;

- u yoki bu ishchilar guruhini yollashda qaysi ishchi kuchi xususiyatlari afzalligini aniqlash.

Yuqorida ko‘rsatilgan bu yondashuvlar natijasida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning xususiyatlari to‘liq ochib beriladi.

Bundan tashqari, hozirgi paytda ishchi kuchi taklifi na kasb, na malaka tuzilishi bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlaridagi jonli mehnatga talabning o‘sish sur‘atiga javob bermaydi. Shu bois ishchi kuchi taklifining sifat ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish hamda ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish lozim. Buning uchun esa, bandlikning davlat xizmati tizimidagi va boshqa o‘quv yurtlaridagi xodimlarning malakalarini oshirishni tashkil etish, korxonalarining o‘zidagi maxsus kurslarda kasb-korga o‘rgatishni yaxshilash va ularga soliq to‘lovida imtiyozlar berish mahalliy kadrlar raqobatbardoshligini oshirishning maqsadli maxsus dasturini ishlab chiqish kerak.



2-rasm. Ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar. Muallif tomonidan tuzilgan.

Mehnat bozoridagi erkin raqobatda ishchi kuchlarigina emas, balki shaxsiy yoki jamoaviy mehnat shartnomasi asosida foydali narxda o'zining "mehnat qobiliyati"ni sotishga muhtoj kadrlar ham qatnashishi mumkin. Bu yerda mehnat resurslari bilan ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarning sifat ko'rsatkichlari yuzasidan erkin raqobat vujudga keladi.

Yuqorida ko'rsatilgan yondashuvlar ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning iqtisodiy mexanizmini tarkibi, tamoyillar, xususiyatlari shakllanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2015-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2016-yil 16-yanvar, №11 (6446).
2. Abdurahmonov Q.X., Mehnat iqtisodiyoti. – T.: Mehnat, 2009. –511 b.
3. Xolmo'minov Sh.R. Mehnat bozori iqtisodiyoti (o'quv qo'llanma). – T: TDIU, 2004.
4. O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot// S.S.G'ulomov tahriri ostida. – Toshkent: Konsauditinform-Nashr, 2006.
5. Холмухаммедов М.М., Курбонов С.К. Регулирование рынка труда молодежи в Самаркандской области. Международного научного бюллетеня "Perspective of Innovations, Economics and Business", Volume 1, July 2009, Региональный фокус: Центральная Азия, стр. 90-91.

С.К. Курбонов
**ОСОБЕННОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО
 МЕХАНИЗМА ПОВЫШЕНИЯ
 КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РАБОЧЕЙ
 СИЛЫ НА СЕЛЬСКОМ РЫНКЕ ТРУДА В
 УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО
 РАЗВИТИЯ**

Повышение конкурентоспособности рабочей силы в сельской местности может способствовать совершенствованию процесса подготовки конкурентоспособных кадров, повышению качества рабочей силы, повышению занятости, повышению эффективности труда, повышению ВВП и повышению уровня жизни населения.

Ключевые слова: сельский рынок труда, рабочая сила, конкурентоспособность рабочей силы, качество рабочей силы, система подготовки квалифицированных кадров.

S.K. Kurbonov
**THE FEATURES OF ECONOMIC
 MECHANISM OF INCREASING
 LABOR FORCE COMPETITIVENESS
 IN THE COUNTRYSIDE LABOR
 MARKET IN THE TERMS OF
 INNOVATION DEVELOPMENT**

Increasing of competitiveness of labour in countryside area can promote improvement of process of preparation of competitive personnel, improvement of the quality of labour offer, increase of employment, increase of efficiency of work, increase of gross national product and standards of living of the population.

Keywords: countryside labour market, work force, competitiveness of work force, quality of labour, system of preparation of qualified personnel.

UDK: 331.5

**IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHI SHAROITIDA
 ISH BILAN BANDLIK**

G'.Sh.Qaxorov

Samarqand davlat universitet assistentii, E-mail: gulom.qaxorov.86@mail.ru

Annotatsiya. Jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar hamda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi mehnat sohasida ham sifat o'zgarishlariga olib kelmoqda. Ushbu maqolada axborot kommunikatsiya texnologiyalarining milliy iqtisodiyot hamda mehnat bozori rivojlanishiga ta'siri hamda mehnat sohasida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar tahlil qilingan va tegishli xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, yangi iqtisodiyot, mehnat bozori, egiluvchanlik, ish bilan bandlik, egiluvchan ish o'rinlari.

Innovatsion rivojlantirish sharoitidagi ustuvor vazifa – bu mamlakatimizni modernizatsiya qilish va aholi bandligini ta'minlashning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishdan iborat. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlangan taraqqiy etgan demokratik bozorga asoslangan, yuqori texnika va texnologiyalar joriy qilishga qaratilgan, modernizatsiyalashgan innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tgan: "Iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishi biz uchun eng muhim ustuvor yo'nalish bo'lgan – aholini bandligini ta'minlash, avvalambor, kasb-hunar kollejlari va o'quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish uchun zarur sharoitlar yaratadi.

2015-yilda mamlakatimizda 980 mingdan ortiq ish o'рни tashkil qilingan bo'lsa, shuning 60 foizdan ziyodi qishloq joylarda yaratilgan" [1].

Bugungi kunda amaliyotda uchrayotgan terminlardan biri «yangi iqtisodiyot» hisoblanadi. Intellectual faoliyatning natijalari bilim, tajriba «yangi iqtisodiyot» sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi va korxonalarning qolaversa, butun jamiyatning intellektual zahirasini, intellektual resursini namoyon qiladi, pirovardida bu jarayon rivojlanishning asosiy shart-sharoitlaridan biriga aylanmoqda. Ta'kidlash lozimki, dunyo iqtisodiyoti yangi ilmiy-texnologik inqilob ta'sirida harakatlanmoqda. Bu inqilob keltirib chiqargan o'zgarishlar shunchalik chuqurki, mutaxassislar tomonidan maxsus atamani – «yangi iqtisodiyot» (inglizcha– neweconomy)tushunchasi paydo bo'lishiga olib keldi. Yangi iqtisodiyotning shakllanishi tadbirkorlik faoliyatida innovatsion jarayonlarni kengaytirish va muvofiqlashtirishga olib kelgan holda, tadbirkorlikni amalga oshirishning ko'pchilik an'anaviy usullaridan voz kechishni ham zarurat etmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ishlab chiqarishda inson bilimi va salohiyatining asosiy resursga aylanmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlari va yuqori texnologiyalar bilan aloqador ishlab chiqarishning barcha sohalarida ham bilim daromad manbaiga aylandi.

Hozirgi kunda zamonaviy jamiyat rivojlanishining bir qancha nazariyalari mavjud:

- postindustrial jamiyat konsepsiyasi;
- axborotli iqtisodiyot nazariyasi;
- bilimga asoslangan iqtisodiyot konsepsiyasi;
- global tarmoqlangan jamiyat nazariyasi.

Zamonaviy iqtisodiyot rivoji tahlilidan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, sohaviy faoliyat, sektorlar turi, resurslar va ishlab chiqarish kabi omillarni ajratib alohida o'rganmasdan yuzaga chiqayotgan transformatsiyaning ko'p tomonlarini yagona integratsiyalangan holda tadqiq etish zarur. Boshqacha so'z bilan aytganda, zamonaviy iqtisodiyot qanday tamoyillarga asoslangan va uning mazmuni nimalardan iborat ekanligini aniqlash kerak. Bizningcha, ushbu tamoyillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- xo'jalik sub'ektlarini tanlash bilimga tayanadi. Uning natijasi onlayn rejimi orqali olingan u yoki bu axborotga asoslanadi;
- bilimning ahamiyati (qadri doimo oshib boradigan, iste'mol qilinganda yo'qolmaydigan, undan keladigan daromad doimo oshib boradigan, noyob, almashtirib bo'lmaydigan o'ziga xos resurs);
- iqtisodiyotning tezkor rivojlanadigan ya'ni milliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan yangi sektorlarini – bilim sektorini, axborot sektorini shakllantirish;
- to'plangan va o'zlashtirilgan bilimlarni jamiyatda insonparvarlikni shakllantirishga yo'naltirish;
- subyektlarning xo'jalik faoliyatini tashkil qilishda tarmoqli usullarni rivojlantirish.

XXI asr ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda inson potensialining shakllanishi va rivojlanishi asosiy o'ringa chiqdi. Jahon banki 192 mamlakatni o'rganib, ulardagi umumiy boylikning 64 %i inson kapitaliga, 16 %i ishlab chiqarish kapitaliga, 20 %i tabiiy kapitalga to'g'ri kelishini aniqladi. Rossiyada bu nisbat mos ravishda 14%, 14% va 72%ni tashkil qiladi. Germaniya, Shvetsiya, Yaponiyada inson kapitali milliy boylikning 80% miqdorini tashkil qiladi.

Bilim innovatsiya manbai hisoblanadi va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaydi. Innovatsiyalar sub'ektlar faoliyatining turli sohalariga qarashli bo'lib, ular yangi texnologiya, texnika, yangi turdagi tovarlar va xizmat turlari hisoblanadi. Boshqarish mexanizmlari innovatsiyasi, ta'limdagi innovatsiya bilan bog'liqdir.

Innovatsion iqtisodiyot yangi turdagi tarkibiy tuzilmalarni shakllantirmoqda (intellektual, virtual, tarmoq va boshqalar) va iqtisodiy taraqqiyotning yangi turlarida mehnatga talabni oshirmoqda. Iqtisodiyotdagi doimiy tarkibiy o'zgarishlar, yangi sektorlar va iqtisodiy faoliyatning (xizmat ko'rsatish sohasi, ekologiyani asrashga yo'naltirilgan ishlab chiqarish, masofaviy ish bilan bandlik) rivojlanishi an'anaviy iqtisodiy sektorlar va tarmoqlarda ishchi o'rinlari kamayishi va yangilari paydo bo'lishiga olib keladi. Ushbu jarayonda ishchi kuchi harakatchanligi oshishi (funktional, kasbiy, geografik) yangi bilimlar va malakani talab qiladi. Bunda yuqori malakani talab qiluvchi ish o'rinlari soni oshadi, malakasiz ishchi kuchini talab qiluvchi ish o'rinlari esa kamayadi.

Evropa Ittifoqi tashabbusi "Yangi ish o'rinlari uchun yangi bilimlar"da ish o'rinlariga ishchilarning bilim va malakalari mos kelishini ta'minlash kerakligini tan olgan holda istiqbollashtirish, axborot ta'minoti va ta'limda boshqalardan o'zib ketish yo'nalishlarini ko'rsatib o'tdi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida so'nggi yillarda mehnat bozori va ta'lim xizmatlari bozori mutanosibligini ta'minlashga katta ahamiyat berilmoqda. Shunday qilib, zamonaviy mehnat bozoridagi o'zgarishlar dunyo miqyosdagi ish bilan bandlik paradigmasining o'zgarishi, mehnat bozori va ta'lim xizmatlari bozorlarini muvofiqlashtirishga asoslanadi.

Zamonaviy sharoitda mehnat bozorini rivojlantirish yo'nalishlardan biri bo'lib, egiluvchanlikni ta'minlash hisoblanadi. Ko'pgina mamlakatlarda XX asrning 70-yillaridan boshlab, turli darajalarda to'liqsiz ish kunida mehnat qilish yo'lga qo'yilgan. Natijada yil mobaynida ish soatlari miqdori 1 kishilik miqdorda qisqaradi. O'tkazilgan sotsiologik so'rovlar natijasiga ko'ra 48 % korxonalarda ish vaqtining egiluvchan shakllaridan foydalaniladi. Egiluvchan ish vaqti asosan xizmat ko'rsatish sohasida – 50%, sanoatda - 43% ni tashkil etmoqda. Buning asosiy sabablari, oilaviy sharoit tufayli 68% ishlab chiqarish ehtiyojlarini mehnat miqdoriga moslashtirish amal qilmoqda.

Globallashuv sharoitida axborot, tovarlar, xizmat va kapital erkin tarqalishi uchun zamonaviy institutlar o'rtasida rivojlanish hamda o'zaro mutanosiblik mexanizmlari yuzaga keldi. Natijada, iqtisodiyotning muhim tizimiga aylangan mehnat bozori ham sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Mehnat sohalari va kasblar inson hayotining asosiy o'zagi bo'lib, ularning jamiyatdagi o'rnini, turmush tarzini, daromadini belgilaydi va h.k. Mehnat insonga o'z-o'zini identifikatsiyalash uchun asosiy omilga aylandi. Zamonaviy mehnatning asosiy qismi korxonalaridagi ish joylari bilan bog'langan. Ammo keyingi yillardagi global texnologik va iqtisodiy an'analar ish bilan bandlikning an'anaviy modelini, ya'ni aniq ish beruvchi tomonidan tuzilgan muddatli mehnat shartnomasi, ish kuni davomidagi to'liq ish bilan bandlik, aniq ko'rsatib berilgan kasbiy mavqei va kelajakda kutiladigan kar'eraning rivojlanishi amalga oshmasligiga olib keldi. Industrallashgan jamiyatda ish bilan bandlik bilan bog'liq bo'lgan tayanch tushunchalar (mehnat tarjimai holi, mehnat shartnomasi, ish joyi, ish vaqti) o'rniga sekinlik bilan yangi kategoriyalar (harakatchan ish o'rinlari, egiluvchan tartib, muddatli mehnat shartnomasi, egiluvchan ish haqi) paydo bo'ldi. Mehnat bozori subektlarining munosabatlarining yangi shakllari – ish bilan bandlikning egiluvchan shakli yuzaga chiqdi.

Dunyo iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan keskin o'zgarishlar va uni harakatga keltiruvchi kuchlar mehnat sohasida sifat o'zgarishlarga olib keldi va u o'z navbatida mavjud bo'lgan nazariy tushunchalarni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mehnat sohasidagi eng muhim keskin o'zgarishlar, birinchidan, ish o'rinlari sifatining o'zgarishi mos ravishda ularni identifikatsiyalash mezonlari ham o'zgarishiga olib keldi. Chunki ish joyini jismoniy tushunish o'rniga yangi hodisa «flexplace» (egiluvchan ish joyi, ya'ni ishchining doimiy ish o'rinlariga, ish vaqtiga to'liq bog'liq bo'lmasligi) yuzaga keldi. Ikkinchidan, ishchi kuchi sifat tarkibi va tuzilishida o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, ish bilan bandlik sohasiga iqtisodiy faol bo'lmagan ijtimoiy-demografik guruhlar (xotin-qizlar, pensionerlar, yoshlar) keng jalb qilinmoqda. Uchinchidan, ishchilarning kasbiy va geografik harakatchanligi oshmoqda, shaxsiy tarkibning malakasiga talablar o'zgarmogda, bu esa ishchilarni tanlashda va jamoani shakllantirishda shaxsiy ishchanlik fazilatlariga ahamiyat beriladi. Buning natijasida mehnat bozorining ikki obekti – ish o'rinlari va ishchi kuchi yangi sifat o'zgarishlar jarayoniga yuz tutmoqda. Bu shuni ko'rsatmoqdaki, ular mehnat bozorining neoklassik tahlili asosida qurilgan dastlabki farazlarga to'g'ri kelmay qoldi. Mehnat bozori obektlarining o'ziga xosligi shunchalik o'zgarib bormogdaki, u mehnat bozori metodologiyasini makrodarajada va shaxsiy tarkibni boshqarish konsepsiyasini mikrodarajada qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Jumladan, tarmoqli va innovatsion iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorida talab va taklifning shakllanish qonuniyatlarini ilmiy fikrlash, mehnat bozorini segmentlash muammolari, kadrlar masalasini hal qilish jarayonida shaxsiy tarkibga zamonaviy talablarni hisobga olish, yangi turdagi tashkilotlarga kadrlar texnologiyasini tatbiq qilishning o'ziga xosligini ta'minlashni talab qiladi.

Iqtisodiyotning taraqqiy etishi bilan birinchi o'ringa ijtimoiy texnologiya va ekologiya muammolarini hal qilish chiqmoqda. Iqtisodiyotdagi barcha yangilanishlarni dunyo mamlakatlarida rivoj topayotgan “yashil iqtisodiyot”ga o'tish va undan foydalanib, qator yangi “yashil” ish o'rinlarini ochish hisobiga ham amalga oshirish mumkin.

Shunday qilib, yangi iqtisodiyot rivojlanishining asosiy strategiyasi aholining uzoq muddatni ko'zlagan manfaatlari bo'lsa, undagi vosita ularning aqliy intellektini jamiyatni yangilash jarayoniga maksimal jalb qilishdan iborat bo'ladi. Shuning uchun eng asosiy vazifa ijtimoiy yo'naltirilgan masalalarni hal qilishga qaratilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotining kelajakdagi istiqboli pirovardida taraqqiy etgan demokratik bozorga asoslangan innovatsion yangi iqtisodiyotni shakllantirishdan iboratdir. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida bandlikning egiluvchan shakllarini rivojlantirish mehnat bozorini rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bandlikning egiluvchan shakllari sog'liq tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra to'liq ish kunida mehnat faoliyatini olib borish yoki bevosita ish o'rnida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyati bo'lmagan aholining ijtimoiy-demografik guruhlarining mehnatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim

- ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T. 16.01.2016
2. Shoyusupova N., Arabov N., Nasimov D. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya. – T.: "Iqtisodiyot", 2014. – 496 b.
 3. Пилипенко Э.В., Баталов Ю.В. Экономическое поле экономики знаний // Креативная экономика. – 2012. – № 6 (66). – с. 91-97.
 4. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Inson taraqqiyoti. Darslik. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013. – 474 b.
 5. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2013. – 378 b.

Г.Ш. Кахоров ЗАНЯТОСТЬ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	G. Sh. Kahorov EMPLOYMENT IN CONDITIONS OF INNOVATIVE ECONOMY
Реформы, происходящие в мировой экономике и инновационное развитие экономики требуют качественных изменений рынка труда. В данной статье рассмотрено влияние развития информационных технологий на национальную экономику и рынок труда, анализированы изменения, происходящие в сфере рынка труда и приведены соответствующие рекомендации. Ключевые слова: инновация, новая экономика, рынок труда, гибкость, занятость, гибкие рабочие места.	Reforms of world economy and innovative development demand quality changes of labour market. Impact of information technologies on development of national economy and labour market is studied and changes occurring in labour market are analyzed and proper recommendations are given. Keywords: innovation, new economy, labour market, flexibility, employment, flexible employment place.

UDK: 338.46:646/469

MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MEHNATNI TASHKIL QILISH ORQALI XIZMAT SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

B.S.Boltayev

Samarqand davlat universiteti assistenti, E-mail: burxon1982burxon@mail.ru

Annotatsiya. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnatni tashkil qilish orqali xizmat sifatini oshirishini talab qilmoqda. Ushbu masalining dolzarbligidan kelib chiqqan holda maqolada aholiga maishiy xizmat ko'rsatish insonning ko'p tomonlama ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tizimni takomillashtirish mexanizmlari o'rganilib tegishli taklif va tafsilyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kasbga tayyorlash tizimi, nodavlat kasbga tayyorlash markazlari, malakali kadrlar, raqobatbardoshlik, bandlik markazi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, u iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni, shu jumladan, mehnat sohasidagi jarayonlarni ham o'rganishni taqozo etadi.

Bu borada O'zbekiston Respublika Prezidenti I.Karimov quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tgan: "O'tgan yili iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, bandlikni ta'minlash, odamlarimizning daromadi va hayot sifatini oshirishning muhim omil va yo'nalishlaridan biri tariqasida xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish borasidagi tizimli ishlar izchil davom ettirildi.

2015-yilda yalpi ichki mahsulot o'sishining yarmidan ko'pi xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga to'g'ri kelgani bu tarmoqning iqtisodiyotimizdagi o'rni va ta'siri naqadar katta ekanini ko'rsatadi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2010 yildagi 49 foizdan 54,5 foizga etdi. Jami band aholining yarmidan ko'pi ushbu sohada mehnat qilmoqda"[1].

Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish insonning ko'p tomonlama ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir. Iqtisodiy adabiyotlarda maishiy xizmatning uch turi ajratib ko'rsatiladi:

- yangi iste'mol qiymatini yaratish bilan bog'liq xizmatlar;

- ilgari yaratilgan iste'mol qiymatini qo'llashga yo'naltirilgan xizmatlar;
- iste'mol qiymatini yaratish bilan yoki qo'llash bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy xarakterdagi xizmatlar.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi sharoitida raqobatda yengib chiqishning asosiy omillaridan biri maishiy xizmat korxonalarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga erishishdir. Bunga asosan, sohada mavjud ish kuchidan oqilona foydalanish evaziga iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga muvofiq bo'lish mumkin.

Iste'molchining maishiy xizmatdan qoniqish darajasi xizmat sifatini, uning bajarilishi va xizmat natijasiga bog'liq bo'ladi.

Xizmat sifati – bu iste'molchining belgilangan va ko'zda tutilayotgan ehtiyojlarini qondirilishini ta'minlaydigan jarayon va xizmat ko'rsatish shartnomalarining tavsiflari yig'indisidir [3].

Xizmatlar iste'molchiga xizmatning bajaruvchisi va iste'molchisi o'rtasida tuziladigan pudrat shartnomasi (moddiy xizmatlar uchun) va xizmat ko'rsatish shartnomasi (ijtimoiy va moddiy xizmatlar uchun) asosida taqdim qilinadi. Xizmatlar sifatiga shartnoma shartnomalarga rioya qilish (bajarilgan ishlar nomenklaturasi, muddatlari, ishlar sifatiga talablar) orqali baho berish mumkin.

Barcha taqdim etilayotgan xizmatlar normativ talablarga mos kelishi lozim. Xizmatlar bajaruvchisi davlat standartlari, texnologik reglamentlar, sanitar, yong'inga qarshi qoidalar va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan xizmatlar sifati ularning hayot, insonlar sog'lig'i, atrof-muhit va mulkka xatarsizligi bo'yicha majburiy talablarga rioya qilishi shart.

Maishiy xizmatlar sifati ularning iste'mol xususiyatlari orqali aniqlanadi va tovarlar sifatiga qaraganda qiyin kategoriya bo'lib hisoblanadi, chunki iste'molchi nafaqat xizmat natijasini o'zlashtiradi, balki qator holatlarda uni ko'rsatish ishtirokchisi bo'lib ham hisoblanadi. Undan tashqari, ko'pchilik tovarlar andozada va iste'molning standart shartlariga mo'ljallangan hisblanadi, xizmatlar esa iste'molchining shaxsiy holatini inobatga olgan holda, yakka tartibda ko'rsatiladi.

Xizmat ko'rsatish xodimlarining muomala uslubi korxonaning xizmat ko'rsatish ssenariysiga va ko'rsatiladigan xizmatlarga mos kelishi lozim. Maishiy xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassis yaxshi xotiraga ega bo'lishi, konkret iste'molchilarga xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan o'z vaqtidagi va kerakli ma'lumotni to'g'ri etkaza oladigan bo'lishi lozim. U o'z-o'zini nazorat qila oladigan faoliyat uslublari va natijalarini, ishdagi kamchiliklar va sifatning kamayishi sabablarini operativ ravishda tahlil qila olishi lozim.

Maishiy xizmat ko'rsatish xodimi iste'molchilar bilan muomala jarayonida ularni diqqat bilan eshtishi, assortiment va xizmat xususiyatlari to'g'risida ma'lumot taqdim etishi lozim. Ma'lumot har qanday iste'molchi uchun sodda, texnik jumlar tushunarli bo'lishi lozim. Ehtiyojni qondirish uchun mutaxassis iste'molchiga ma'qul bo'ladigan xizmatlarni taqdim etishi lozim va unga mustaqil to'g'ri tanlash imkoniyatini beradigan axborotni (sifat, xususiyatlari, baho, xizmatga haq to'lash shartlari) taqdim etilishi lozim.

Maishiy xizmat ko'rsatish korxonasi xizmatni shartnoma shartlariga taaluqli ravishda bajaradi. Xizmat sifati shartnomada ko'rsatilgan sifatga mos kelishi zarur. Agarda shartnomada xizmat sifati ko'rilmaydigan bo'lsa, korxona ushbu maqsadlarga to'g'ri keladigan va odatda foydalaniladigan ushbu turdagi xizmatni ko'rsatishga majbur. Agarda iste'molchi shartnomani tuzish paytida bajaruvchiga xizmat ko'rsatishning aniq maqsadlari haqida xabardor qilsa, bajaruvchi ushbu maqsadlarga mos keladigan xizmatlarni taqdim etishi zarur. Agarda O'zbekiston Respublikasi qonuni yoki normativ huquqiy hujjatlarida xizmat sifatiga majburiy talablar ko'zda tutilgan bo'lsa, unda taqdim qilinayotgan xizmatlar ushbu talablarga mos kelishi lozim.

Hozirgi vaqtda maishiy xizmatlar sifatini oshirish muhim muammo hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, maishiy xizmatlar sifatini oshirishga bir qator omillar ta'sir qiladi. Bu omillar quyidagilardan iborat: maishiy xizmat bilan band bo'lgan xodim mehnatining sifati; ularning etarli malaka va ko'nikmalarga egaligi darajasi; maishiy xizmat korxonasini joylashgan o'rni, ularning ish grafigi, zamonaviy texnika va texnologiyalarning mavjudligi, jihozlanganligi va boshqalar.

Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari ish sifati va samaradorligini oshirish:

- xizmatlarda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;
- aholi ehtiyojlarini to'liqroq hisobga olish;
- sohadagi negativ holatlarni (xufiya faoliyatini) oldini olish;
- maishiy xizmatni ijtimoiy ahamiyatini oshirish;

- maishiy xizmat sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish;
- sohada yangi tashkiliy tuzilmalarni shakllanishiga olib keladi.

Maishiy xizmat sohasida xodimlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlashning mazmunini xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bilan bog'liq uning tarkibiy elementlari va yo'nalishlari bilan belgilanadi. Korxona faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash ikki yo'nalishda: mehnatning buyumli elementlarini tashkil etish hamda mehnatning shaxsga oid elementlarini tashkil etish asosida amalga oshiriladi.

Maishiy xizmat ko'rsatishda mehnat faoliyatni tashkiliy jihatdan ta'minlash xizmat ko'rsatish jarayo nini tashkil etish, ya'ni aniq ish turini bajarishda qo'llaniladigan usullarni belgilab olishin nazarda tutadi. Xizmat ko'rsatish jarayonlarini o'rganib chiqish va uni amalga oshirishga qancha ish vaqti sarflashi zarurligini aniqlash eng yaxshi ish usullarini tanlash, ish joylarini oqilona taqsimlash imkonini beradi va iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish me'yori belgilaydi [2].

Tashkiliy vazifalarni hal qilishda xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassis-xodimlarni tayyorlash va ularning faollik darajasini oshirish katta ahamiyatga ega. Bozor munosabatlarini rivojlantirish maishiy xizmatlarga xizmatlar bozorida talabni oshirishi va yangi xizmat turlarini paydo bo'lishi bilan xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirishga yoshdashishini tubdan o'zgartiradi. Yangi shartnomalarda xodimlar bilan ishlash sohasida vaziyatga moslashuvchanlik zarur, ya'ni kasbiy tuzilma xizmat ko'rsatishning texnikaviy negizi o'zgarib borishiga muvofiq ravishda o'zgaruvchan bo'lishi lozim.

Respublikamizda hozirgi paytda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanib borishi va buning natijasi ularoq mazkur sohada mehnat taqsimotining chuqurlashib borishi kadrlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularni sifat jihatdan takomillashtirishini zarurat etmoqda. Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi sharoitida esa malakali ishchi-kadrlar tayyorlash, mehnat salohiyatini, sifat ko'rsatkichlarini jahon talablariga ko'tarish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishining asosiy omili bo'lib, xodimlarning malaka darajasi va kasbiy mahorati hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, maishiy xizmat korxonasining xodimlar bilan ta'minlanganligi uning sifat tarkibini o'zgarish asosida amalga oshiriladi.

Sifat jihatdan talab, ya'ni kategoriyalar kasb, mutaxassislik, xodimlar malakasi darajasi bo'yicha talab quyidagilarga asoslangan holda tahlil qilinadi:

- ish jarayoniga xizmat ko'rsatish texnologik hujjatlarda qayd qilingan ishlarni kasb-malakaga bo'lish;
- lavozimlar tarkibi, belgilangan korxona yoki uning bo'limlari, shtatlar ro'yxati;
- ijrochilar tarkibining kasb-malaka bo'yicha talablar ajratib ko'rsatilgan turli tashkiliy, boshqaruv jarayonlarini aniq belgilaydigan hujjatlar.

Mutaxassis va xodimlarni sifat talablari tahlili har bitta sifat talabi mezonlari bo'yicha xodimlar sonini hisoblash bilan birgalikda olib boriladi.

Maishiy xizmat xodimlariga umumiy ehtiyoj ba'zi sifat mezonlari bo'yicha xodimlarni son jihatdan talab yig'indisini aniqlash orqali topiladi.

Xodimlarning sifat tarkibini tahlil qilish kadrlarga bo'lgan son va sifat ehtiyojlarini oldindan bilish va mavjud tarkibiy talablarga to'g'ri kelishi uchun tadbirlar belgilash (tanlash, ishga qabul qilish, tayyorlash, moslashish, malakasini oshirish, gorizantal va vertikal joylashtirish, ishdan bo'shatish va hokazo), xodimni o'qitish va malakasini oshirish dasturini ishlab chiqarish uchun kerak.

Yuqori texnik doiradagi raqobatbardosh xizmat ko'rsatish uchun xodimlar soni ularning malakasi bo'yicha xizmat ko'rsatish sifatini oshirish talablariga mos kelishi zarur.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish hamda uni zamonaviy darajaga olib chiqadigan kadrlar mamlakatimizda etishmaydi. Boz ustiga ularni tayyorlash masalasi ham dolzarb bo'lib, bu masala bo'yicha o'ta jiddiy tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Hozirgi paytda ko'plab maishiy xizmat turlari ko'paydi. Mamlakatimizning zamonaviy oilalarida murakkab maishiy texnik, kompyuterlar va turli rusumdagi shaxsiy avtotransport bilan ta'minlashning keskin oshishi ularga ko'rsatilayotgan xizmatlarning keskin ko'payishiga imkon yaratdi. Ammo bu sohada kadrlarni yetarli deb bo'lmaydi.

Shuning uchun maishiy xizmat ko'rsatish korxonasida mehnat faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash xodim samarali faoliyatining tashkiliy jihatdan ta'minlash xodim samarali faoliyatining qator umumiy tamoyillariga asoslanadi va ko'p jihatdan texnika-texnologiya va mehnat

buyumlarining rivojlanish darajasi, korxona miqyosi, tashkiliy tuzilma va hokazolar bilan belgilanadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi sharoitida maishiy xizmat ko'rsatish xodimlari faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlashning asosiy maqsadi o'zaro bog'liq ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarga: raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqish va ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish, ishchi kuchini tanlash uchun korxonaning mavjud imkoniyati va natijalariga faol ravishda ta'sir etishdan iborat. Uning asosi shuki, xizmat ko'rsatish xodimlari faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash, bir tomondan, olinadigan foydani ko'paytirishga ko'maklashishi, ikkinchi tomondan esa bog'liq ravishda yuqori malaka va kasbiy mahoratga ega xodimlar tomonidan sifatli xizmatlar ko'rsatish hajmini oshirish masalalarini hal etishga ko'maklashishi kerak. Bu esa, xizmat ko'rsatish jarayonida mehnat intensivligini belgilash va zaruriy shart-sharoitni yaratishni nazarda tutadi [4].

Shunday qilib xodimlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash xodimlarni samarali boshqarish borasida brinchi darajali vazifa bo'lib, hozirgi vaqtda ushbu masalalarga jiddiy e'tibor beradigan, yuqori xizmat ko'rsatish sifatiga erishish va sohada mehnat unumdorligini oshirish usullarini yaxshi o'zlashtirgan rahbar va mutaxassis kadrlarga talab oritb bomoqda.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi sharoitida xizmatlar sifati ularni iste'mol xususiyatlari orqali aniqlanar ekan, xizmatlar va xizmatlarning ko'rsatkichlari sifati xizmat ko'rsatish sifatini aniqlovchi mezonlar va ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi.

Bizningcha, xizmat ko'rsatish sifatning barcha tashkiliy, ijtimoiy va iqtisodiy holatlari quyidagi mezonlarga o'z aksini topadi:

- maishiy xizmat ko'rsatish hajmining natijadorligi;
 - mutaxassis kadrlarning sifat tarkibini oshirish;
 - maishiy xizmatga bo'lgan iste'molchilar talabini to'liq qondirish;
 - iste'molchilarga xizmat qilish muddatini optimal ravishda qisqartirish va rentabilligini oshirish;
 - xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilish usullarini takomillashtirish.
- Xizmat ko'rsatish sifati ko'rsatkichlari quyidagilarda foydalaniladi:
- standartlar va texnik reglamentlarda o'xshash xizmatlar guruhlari, xizmatlar ko'rsatish jarayonlari, servis korxonalari, xodimlari va sifatni boshqarish bo'yicha ko'rsatkichlari nomenklaturasini shakllantirishda;
 - xizmatlarga taalluqli o'lchash (nazorat, boshqarish) parametri va ularning metrologik ta'minlanganligining taalluqliligi boshqarish bo'yicha qoida va takliflarni ishlab chiqishda;
 - xizmat natijalarini qadoqlash, o'rash, yuklash – tushirish va saqlash qoidalarini ishlab chiqishda;
 - xizmat natijalari va xizmat ko'rsatish jarayoniga eksploatatsiya, ta'minlash, reklamatsiyalar taqdim qilish qoidalarini ishlab chiqishda.

Sifat ko'rsatkichlarining asosiy funksiyasi bo'lib, xizmatlar sifatini, korxona xodimlarining xizmat ko'rsatishi, ishi va faoliyat natijalarini nazorat qilish hisoblanadi. Sifat ko'rsatkichlari asosida sifatni nazorat qilish va baholash amalga oshiriladi.

Qolgan turdagi xizmatlarni bajarish natijasining sifatini son jihatdan baholash qiyin bo'ladi, ya'ni baholash subektiv va noaniq tavsifga ega bo'ladi. Shu sababli xizmat natijasining iqtisodiy samaradorligini baholashni amalga oshirish mumkin.

Xizmatlar sifati ko'rsatkichlarning nomenklaturasi bir necha guruh ko'rsatkichlardan tashkil topadi. Belgilanishi, xavfsizlik, ishonchlilik, xodimlarning kasbiy darajasi, ijtimoiy belgilanish, estetik ko'rsatkichlar va axborotlashtirish ko'rsatkichlari (1-rasm).


Xizmatlar sifati darajasiga baho berishda xizmatlar bahosi, uni yaratish va taqdim etish harakatlari kabi iqtisodiy ko'rsatkichlarni ham inobatga olish lozim.

Xizmat ko'rsatishda nazorat sifati maishiy xizmat ko'rsatish korxonasi mutaxassislari tomonidan xizmat ko'rsatish jarayonlarining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Nazorat tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish jarayoni va ishlab chiqarishni texnologik operatsiyalari, yangi mahsulotlar va ta'mirlash va tiklashdan o'tgan mahsulotlar bo'yicha o'tkaziladi.

Maishiy xizmatlar sifati tashqi ko'rinish, razmeri, konstruktiv qarorlar va badiiy jihozlanish normativi talablarga mos kelishi lozim, shuningdek shartnomada ko'rsatilgan xizmatlar iste'molchisining yakka tartibdagi xususiyatlarini inobatga olishi lozim.

Maishiy xizmat ko'rsatish korxonasi raqobatbardoshligini oshirish xizmat sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarga bog'liq bo'ladi. Xizmat ko'rsatish standartlariga iste'mol talablari doimo

oshib bormoqda va shu sababli xizmatlarning yuqori sifatiga erishish iqtisodiyotni diversifikatsiyalash jarayonida maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining asosiy vazifasi bo'lib kelmoqda.



1-rasm. Xizmatlar sifatining guruhli ko'rsatkichlari.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilda mo'ljallangan iqtisodiy dasturning yangi muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2016-yil 16-yanvar.
2. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Inson taraqqiyoti. Darslik. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013. – 474 b.
3. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. –T.: Iqtisodiyot, 2013. – 378 b.

4. Shoyusupova N., Arabov N., Nasimov D. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya. – T.: Iqtisodiyot, 2014. – 496 b.

Б.С. Болтаев

**ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ
ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА УСЛУГ ПУТЕМ
ОРГАНИЗАЦИИ ТРУДА НА
ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ОКАЗАНИЮ
БЫТОВЫХ УСЛУГ**

Структурные изменения в экономике диктуют необходимость повышения качества оказываемых услуг путем совершенствования организации труда на предприятиях сферы услуг. Исходя из актуальности данного вопроса в данной статье изучены механизмы совершенствования бытовых услуг и разработаны соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: бытовые услуги, цена потребления, качество услуг, эффективность, профессиональные кадры, конкурентоспособность, центр занятости.

B.S.Boltaev

**THE MAIN WAYS OF IMPROVING
QUALITY OF SERVICES BY
IMPROVING THE ORGANIZATION
OF LABOUR IN PERSONAL SERVICE
ESTABLISHMENTS**

Structural changes in economy dictate a need to improve the quality of services by improving the organization of labor in service industries. Based on the importance of this we studied the mechanisms of improving consumer services and developed recommendations in this article.

Keywords: consumer services, consumer price, service quality, efficiency, professional staff, competitiveness, employment center.

UDK: 378

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAHBAR KADRLARNI TA'LIM
MENEJMENTI BO'YICHA MALAKASINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSI**

A.S.Djurayev

Bosh ilmiy metodik markaz katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

E-mail: as_djuraev@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasasi (OTM) tizimida ishlaydigan rahbar kadrlarni malakasini oshirishning tashkiliy-uslubiy asosini joriy holati va uni takomillashtirishning nazariy va metodologik muammolarini olib borilayotgan islohotlar bosqichlari bo'yicha tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasasi, ta'limda islohotlar, malakani oshirish tizimi, rahbar kadrlarni malakasini oshirish, ta'lim va kadrlar menejmenti, metodologik asos.

Oliy ta'lim muassasasi tizimida ishlaydigan rahbar kadrlarni malakasini oshirishni metodologik asosini yaratish bugungi kunda katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, rahbar kadrlarni tayyorlash masalasi tarixan o'ta muhim masala bo'lib, u davlatni kadrlar tayyorlash borasida olib borayotgan siyosati asosida izchil va aniq reja asosida, mas'uliyatni to'la his qilgan holda ish yuritishni talab etadi. Bundan tashqari, ularning malakasini oshirishni samarali tashkil qilish ta'lim menejmentining asosiy yo'nalishi bo'lib, ushbu jarayon oliy ta'lim muassasasining boshqaruv sifatini kafolatidir.

Ma'lumki, uzluksiz ta'lim tizimi ta'lim muassasalarining raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashdagi rolini oshirishda ko'p jihatdan mazkur ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishga bog'liq bo'lib, unda OTM rahbar kadrlari boshqaruv faoliyatini yagona metodologik asosini yaratishni talab qilmoqda. Chunki ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarish yuqori salohiyatga ega kadrlarni tayyorlashning muhim omilidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov rahbar kadrlar tayyorlash masalasida "...boshqaruv idoralarining faoliyatini kuchaytirish, ularni joylardagi ahvol va muammolarni chuqur biladigan yetuk kadrlar bilan mustahkamlash masalasiga biz ustuvor ahamiyat berishimiz zarur"[6], - deb ta'kidlab o'tgan edi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim tizimini boshqarish mexanizmlarini o'zgartirish, takomillashtirishni, ya'ni boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik metodlaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy, zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan OTM boshqaruv tizimini metodologik asosini shakllantirishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika

bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida» 2011-yil 20-maydagi PQ-1533-son qarorida Oliy ta'lim muassasalari pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining tashkiliy masalalari hamda uni samarali boshqaruvini tashkil qilish uchun qator tadbirlar belgilangan bo'lib, unda rahbar kadrlarni izchil va rejali tayyorlash hamda malakasini oshirishning zamonaviy masofadan o'qitishni interfaol usullari asosida tashkil etish kabi masalalar turibdi [7].

Rahbar kadrlarni tanlash, tayyorlash va ularni joy-joyiga qo'yishga doir masalalar yangi ta'lim yo'nalishini «Personal menejmenti», aksariyat mamlakatlarda esa «Kadrlar menejmenti» kabi fanlarda kadrlar bilan bog'liq xususiyatlari o'rganilsa, uning ta'lim bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalari pedagogika, ta'lim texnologiyasi va ta'limning ilmiy-uslubiy jihatlari kabi tomonlari o'rganiladi. Bunda boshqaruv bilan bog'liq fanlar turkumida quyidagi fanlar iqtisodiyot, huquq va psixologiya fanlari OTMda boshqaruvni takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga qaratiladi.

OTM boshqaruv bo'g'ini sohasiga rahbar kadrlar tayyorlash va ularni malakasini oshirish masalalarida ta'lim menejmenti turkumiga ega bo'lgan fanlardan tashqari yana boshqaruv psixologiyasi, boshqaruv sotsiologiyasi, akmeologiya va davlat boshqaruvi kabi qator fanlar bo'yicha bilimga ega bo'lishni taqozo etadi.

Boshqaruv rahbar kadrlariga doir masalalarni o'rganishda ta'lim menejmenti asosan OTMning ta'lim siyosati va strategiyasida qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib belgilanadi. Bunda OTM siyosati – umuman o'zini bir butun tizim sifatida, shuningdek, unda professor- o'qituvchilar va xodimlar faoliyatini olib borishga tegishli bo'lgan o'ziga xos qoidalar tizimini u yoki bu kadrlardan foydalanish, ularni joy-joyiga qo'yish, tanlashning aniq usullaridan foydalanishning zaruriyatiga asoslanadi. Shundan kelib chiqib, Oliy ta'lim muassasasi rahbar kadrlar ierarxiyasini, ya'ni, rektor, taalluqli sohalar bo'yicha prorektorlar, dekanlar, dekan o'rinbosarlari va kafedra mudirlaridan iborat funksional chiziqli boshqaruvga asoslangan tuzilmasi mavjud bo'lib, ularni malakasini oshirish bo'yicha ta'lim xususiyatini e'tiborga olgan holda boshqaruvning vertikal va gorizontall integrallashgan tashkiliy-boshqaruv tizimini metodologik asosini yaratish bugungi kunda dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Globallashuv jarayoni OTM faoliyatini deyarli to'la qamrab olib, xalqaro miqyosda boshqaruvning korporativ yondashuvini ustuvor masala qilib qo'ymoqda. OTM korporativ boshqaruvining turli yo'nalishlariga chet ellik olimlardan quyidagilar katta asos solgan: S. Aronovits, R. Birnbaum, D.Bok, A.Vebster, E.Gould, L.Ensen, N.Kantor, B.Klark, F. Nyuman, L.Sloter, L.Soley, Dj.Uashborn, P.Xili, G.Etkovits va boshqalar. Universitet faoliyatini korporativ boshqaruvi masalasini K.Yamamoto (Yaponiya), P.Ramsdena, S.Millera (Avstraliya), M.Li (Malayziya) va boshqalarning asarlarida ko'rishimiz mumkin.

Korporativlik metodologiyasi asosida rahbar kadrlarda ta'lim menejmentini shakllantirish ulardagi bilim va ko'nikmalarni bugungi kun talabi asosida rivojlantirish mamlakatimizda ham dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bunda, korporativ yondashuvi umumiy maqsad yoki maqsadlarga erishish uchun ongli uyushgan odamlar faoliyati sifatida OTMning yuqori, o'rta va quyi bo'g'in rahbar kadrlari boshqaruvining ta'limni turlari bo'yicha va ularni funksional majburiyatlari asosida rollar taqsimoti va uning funksionallik o'zaro nisbati asosida tashkil qilish, bizning fikrimizcha, ta'limdagi boshqaruv jarayoning mas'ulligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi[8].

Menejment fanining zamonaviy rivoji natijasini ko'rsatishicha, ta'lim sohasida bo'lgan bozor iqtisodiyoti munosabati sharoitida OTM rahbar kadrlar boshqaruv faoliyatini oshirish hamda unda yuqori, o'rta va quyi bo'g'in rahbar kadrlari boshqaruvining ta'limni turlari bo'yicha ichki va tashqi integratsiyasini ta'minlash hamda uni uchta omil asosida, ya'ni: rahbar kadrlar kasbiy malakasi va ularni zamon talabi bo'yicha mobilligi, o'quv jarayonining axborot kommunikatsiya texnologiyalar asosida samaradorligi, bitiruvchilarga ish beruvchilar talabini yuqoriligi kabilarda uyg'unligini ta'minlashdan iborat. Ushbu uch omil asosida OTM rahbarlik bo'g'inlari faoliyatini tashkil etish korporativ metodologiyaning vakolat va majburiyat nuqtai nazaridan taqsimotini bitiruvchi mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirishda loyihaviy yondashuv uslubini qo'llash katta ahamiyat kasb etadi. Bunda, mutaxassislik kafedralar ta'lim standarti asosida har bir ixtisoslikni yagona "loyiha" deb, uni ijro natijasini bitiruvchilarning amaliyotda erishgan yutuqlari asosida korporativ majburiyatlar va vakolatlar bo'yicha belgilashi zarur. Bu esa, OTMda rahbar kadrlar mas'ulligini o'z vazifalari doirasida javobgarlik chegaralarini aniqlashtiradi va kadrlar tayyorlash

sifatini oshiradi hamda rahbar kadrlar boshqaruvini lavozim pog‘onalari bo‘yicha samaradorligini ortishiga olib keladi [9].

Ma‘lumki, OTM rahbar kadrlarni tayyorlashda tashkilotning kadrlar siyosati – bu o‘zida tashqi va ichki muhitdagi o‘zgarishlarga tezkorlik bilan moslashishga moyil bo‘lgan, yuksak ma‘naviy va kasbiy mahoratga ega, uyushgan, mas‘ul jamoani tashkil etish maqsadiga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar bilan ishlashning bir butun strategik maqsad asosida ko‘ra biluvchi hamda ta‘lim menejmenti haqida ko‘nikmalarga ega bo‘lgan rahbar kadrlarga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Shu bilan birga, keyingi o‘n yilliklarda rivojlangan davlatlar oliy ta‘lim muassasalarida rahbar kadrlar tayyorlash va tanlashning zamonaviy tajribalari to‘planib, ularning metodologik asosi turli huquqiy va me‘yoriy aktlarda, nizomlarda, qoidalarda va turli rahbarlar tanlovi bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar hujjatlarida ifodalangan. Bu jarayonlar rahbar kadrlar tayyorlash va tanlashga doir turli oliy ta‘lim muassasalari xususiyati ahamiyatini inkor etmagan holda metodologik jihatdan turli davlat boshqaruv idoralari, nodavlat tashkilotlar, transnatsional korporatsiyalar, kompaniyalar, konsernlar kabi uyushmalar nizomlari va maxsus ekspertlar guruhlar tomonidan ishlab chiqilgan ayrim uslubiy yondashuvlarda ham bu sohadagi jarayonlar yil sayin takomillashtirilib borilmoqda [10].

XXI asrning boshlariga kelib oliy mansabdor bir vaqtning o‘zida ham universallik xarakterini kasb etishi, ham barcha murakkabliklar talablariga javob berishiga to‘g‘ri kelmoqda. Ilgarigi davrlardagi u shug‘ullangan oddiy ijrochilik san‘ati asosidagi avtoritar rahbarlik qilish davri ortda qoldi. Uning kelajakdagi qiyinchiliklarni oldini olish uchun turli-tuman jarayonlarning salohiyatini ishga solish maqsadlarida voqelikdagi mavjud dunyoning murakkabliklarini asosiy davlat dasturlari va me‘yorlarida ifodalashdan tashqari ularni muvozanatlashtira olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri bo‘lib, nafaqat OTM boshqaruv muammolari, balki uning uyg‘unlashgan ichki boshqaruv bo‘g‘inlari faoliyatini tashkil etish va ularni shakllantirish zahirida, eng avvalo, boshqaruv tizimining turli bo‘g‘ini boshqaruv faoliyatini takomillashtirishning yo‘l-yo‘riqlarini aniqlash, yangi sharoitlarga muvofiqlashtirish va amaliyotga joriy etish kabi vazifalarini belgilash zarur. Shu bilan birga, rahbar kadr bir vaqtning o‘zida murakkab vaziyatlarda boshqarish imkoniyatlariga ega bo‘lish uchun zamonaviy vositalarga ega bo‘lishi, shu tarzda qonunlarga amal qilishni ta‘minlashi, ma‘muriyat vakili xizmat tizimini amal qilishini oqilona tarzda muvofiqlashtirishi lozim [11].

Shundan kelib chiqib, ta‘lim tizimini rivojlantirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar barcha ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishda fan-texnika yutuqlariga asoslangan boshqaruvning eng samarali, innovatsion metodlaridan foydalanishni, boshqaruv yo‘nalishida bilim, ko‘nikma va malakalarni, yangi shaxsiy va kasbiy sifatlarni talab qiladi.

Rahbar kadrlarda doimiy ravishda menejment talablari bilan chuqur tanishib borishlari talab etilmoqda, uning natijasida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan kamchiliklar va xatolarni tuzatishning strategik mo‘ljallash qobiliyatiga ega bo‘lish – zamonaviy rahbarga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri, deb qaraladi.

Shunga bog‘liq holda, jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar –qobiliyatli, tashabbuskor, izlanuvchan, g‘ayratli, yutuqlarga intiluvchi va erishuvchi, maqsadga erishishda to‘la mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oluvchi, iqtisodiy tanglik davrida ham, samarali ishlash qobiliyatiga ega, o‘z kasbining ustasi bo‘lgan, turli o‘zgaruvchan sharoitlarga tayyorgarligi bor, o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadigan hamda ishlab chiqarish ishtirokchilarini ham boshqaruv jarayoniga jalb qila oladigan rahbarlarning ishtirokini talab qiladi.

Xulosa qilib, globallashtirish sharoitida jamiyat takomillashib borgan sari, rahbar kadrlarga bo‘lgan talablar ham o‘zgarib bormoqda.

Mahalliy va chet el olimlari ilmiy ishlari tahlilini ko‘rsatishicha, bozor munosabatlari sharoitida oliy ta‘lim muassasalari boshqaruv bo‘g‘inlari faoliyatini samaradorligini oshirish uchun yangicha institutsional o‘zgarish metodologiyasini kiritishni talab etadi.

Boshqaruv bo‘g‘inlariga korporativ boshqaruv tamoyillarini kiritish, o‘z navbatida ta‘limni ichki tarkibiy boshqaruv tuzilmasini va ijro natijasini hamda rahbar kadrlar boshqaruvini lavozim pog‘onalari bo‘yicha samaradorligini ortishiga olib keladi.

Oliy ta‘lim muassasasi rahbar kadrlar ierarxiyasi bo‘yicha malakasini oshirishning ta‘lim xususiyatini e‘tiborga olgan holda boshqaruvning vertikal va gorizontallashgan tashkiliy-boshqaruv tizimini korporativlik metodologiyasi asosida tashkil etish, ya‘ni, unda ta‘limning ilg‘or

texnologiyalariga asoslangan ma'muriy va kasbiy boshqaruvini takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –T.: O'zbekiston, 2012. -12 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 28 yanvardagi "Ta'lim xizmatlari ko'rsatish bozorini shakllantirish va kadrlar tayyorlash sohasida marketingni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 48-sonli qarori.
3. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va senatning qo'shma majlisidagi ma'ruza. –T.: O'zbekiston, 2005.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: O'zbekiston, 2008.
5. Курбанов Ш., Сейтхалилов Э. Национальная модель и программа по подготовке кадров: достижение и результатнезависимости Узбекистана. –T.: "Ma'rifat-Madadkor", 2006.
6. Karimov I.A. Tadbirkorlik va izlanuvchanlik – yuksalish asosi.12-tom. –T.: O'zbekiston, 2004. – 57 bet.
7. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 39-son, 453-modda
8. G'ulomov S.S., Qosimov G'.M. , Xolmirzayeva D.S., Sayidaxmedov S.S. Korporativ boshqaruv. –T.: TDAU, 2013. – 6 bet.
9. Otaqulov M.K., Djuraev X., Djuraev A.S. Особенности внедрения корпоративного управления в высших учебных заведениях //«Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korporativ sektor faoliyatini takomillashtirish istiqbollari». Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 1-qism (2014-yil 10-aprel). –Farg'ona: FarDU, 2014. –222 bet.
- 10.Александрова М.В. Методологические основы карьерного роста педагога // Новгород.гос.ун-т им. Ярослава Мудрого.– Великий Новгород, 2007.
- 11.Гавриков А.Л., Литвинова Н.П. Образование взрослых в XXI веке: новая роль университета в его развитии. –М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2001.-174с. Дунаев О.Н. Акмеология: управление карьерой. – Екатеринбург, 2001.

Джураев А.С.

ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ РУКОВОДЯЩИХ РАБОТНИКОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

В статье приведена анализ организационно-методологических основ текущего состояния повышения квалификации руководящих работников высших учебных заведений и их проблем теоретическо-методологическом совершенствовании в этапах проводимой реформы.

Ключевые слова: образования, повышения квалификация, система, кадровой менеджмент, методология.

A.S.Djurayev

METHODOLOGICAL BASIS OF THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF EXECUTIVES HIGHER EDUCATIONAL ESTABLISHMENTS

The article presents the analysis of organizational-methodological foundations of the current state of advanced training for managers higher educational establishments and their problems of theoretical-methodological development in the stages of the reform.

Keywords: education, professional training, system, human resources management, methodology.

УДК 330.1:378

**OLIIY TA'LIMDA BOSHQARUV TIZIMINING
TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI
B.M.Boboqulov¹, Sh.Sharifov², S.Boboqulov²**

¹*Samarqand davlat universiteti dotsenti,* ²*Samarqand davlat universiteti assistenti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini joriy etish afzalligi va zarurati haqida fikr yuritilib, uni ushbu tizimga tatbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalitso'zlar: sifat, ta'lim sifati, ta'lim samaradorligi, kadr sifati, sifat menejmenti va sifat menejmenti tamoyillari.

Hozirgi davrda jahon iqtisodiyoti miqyosida globalizatsiya jarayonining jadallashuvi intellektual mulkga (Shaxs intellektining kuchayishiga) bo'lgan ehtiyojni kuchayib borishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida dunyo miqyosida insonlarning oliy ta'limga, ilmiy tadqiqot ishlariga va uning natijalariga talabni tobora kuchayib borayotganligiga sabab bo'lmoqda. Chunki ta'lim-tarbiya, fan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bugungi kunda jahon iqtisodiy tizimlari miqyosida ijtimoiy ishlab chiqarish subyektlarining raqobatbardoshligini, ta'lim tizimi bitiruvchilarning ishga joylashuvi hamda ularning xizmat pog'onalaridan (karreradan) yuqorilab borishi imkoniyatlarini oshiruvchi muhim vositaga aylanib bormoqda[1]. Shuningdek, hozirgi vaqtda oliy ta'lim tizimi muassasalarining sonini, hamda ular tomonidan aholiga ko'rsatiladigan turli xizmatlar miqdori va ularning ommaviyligini tobora ortib borishi ta'limda sifat masalasini dolzarbligini keltirib chiqarmoqda. Bizga ma'lumki, ta'lim tizimining asosiy harakatlantiruvchi sub'ekti bu professor-o'qituvchilar hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ular nafaqat ta'lim-tarbiya, bilim beruvchilar, balki bevosita ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining faol ishtirokchisi ham hisoblanadilar. Professor-o'qituvchilar tomonidan tayyorlanayotgan kadrlarning sifatli bo'lishi, mehnat va boshqa vositalarning minimal sarfi bilan ishlab chiqarishni ta'minlovchi sub'ektga aylanishini ta'minlaydi.

Bizga ma'lumki, oliy ta'lim tizimining aksariyat o'qituvchilari o'zlarining mutaxassisliklarini (predmetni) "ustasi" hisoblanadilar, lekin hamma o'qituvchilar ham maxsus zamonaviy pedagogik tayyorgarlikka ega emaslar. Ularning bir qismi pedagog-amaliyotchi hisoblanadi va faoliyatlarini o'zlari nuqtai nazaridan tashkil etadilar. Ba'zilar esa faoliyatlarini fanning o'rganilgan muammolarni nazariy jihatlariga ko'proq e'tibor berib, zamonaviy mutaxassislariga bo'lgan talabi, kadrlar tayyorlashda mehnat bozorining ehtiyoji e'tiboridan chetda qoladi. O'qituvchi o'z faoliyatini tashkil etishning an'anaviy shaklida bunday "intensivlashtirish" ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir ko'satadi. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida o'qituvchi uchun zarur bo'lgan sifat va samaradorlikni ta'minlovchi faoliyatni tashkil etish zarur. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalari 20-30 yil oldin ta'lim muassasalaridan tubdan farq qiladi. Hozirgi vaqtda ular ijtimoiy-iqtisodiy hayotning jadallashgan bir sharoitida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bu holda: oliy ta'lim muassasalariga kadrlar tayyorlash, ularning sifati, mehnat bozori talablariga mosligi nuqtai nazardan juda katta talablarni qo'ymoqda, lekin ko'p hollarda oliy ta'lim muassasalari bu muammolarni eski usullar bilan yechishga harakat qilmoqdalar. Ammo bugungi kunda jahon amaliyoti tajribasi sinovidan o'tgan, yangi yondashuvlarni tadbiq etishni talab etmoqda.

Hozirgi davrda iqtisodiyotdagi xususiy mehnat bozoridagi raqobatning asosiy sharti tayyorlanayotgan mutaxassis raqobat ustunligiga ega bo'lishi uchun o'qishni xohlashi, doimo o'qish imkoniyatiga ega bo'lishi va yangi bilimlar, tajribalar, ko'nikmalarni amaliyotga tadbiq eta bilishi lozim. Buholattarbiyalanayotganshaxsgahamkorxonavatashkilotlarga ham birdek tegishli. Demak, zamonaviy mutaxassis barqaror pozitsiyaga ega bo'lishi uchun doimo nazariy va amaliy bilimlarni egallab borishi, davr talablariga muvofiq holda o'zgarishi talab etiladi. Uning yaxshi tomonga o'zgarishi korxona-tashkilotning, biznes faoliyatining, umuman har qanday iqtisodiy faoliyatning barqarorligi va muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ammo, eskicha ish yuritish, odatlar va harakat tamoyillari va u bilan bog'liq bo'lgan fikrlash tarzi yangicha shart-sharoitlarga moslashmaganligi ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Biz yangi ta'lim texnologiyalarini tadbiq yetishga harakat qilamiz, uning samarasini kutamiz, lekin yangi texnologiyalar ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlariga yangicha yondashuvlarni, yangicha fikrlashni talab etishini unutamiz. Muammolarning "aybdorini" qidiramiz, lekin uning asosiy sababchisi o'zimiz yaratgan ish yuritish tizimi ekanligini bilmaymiz. Biz ta'lim faoliyatimiz jarayonida maslahat darslari va o'zlashtirmaydigan talabalarga juda katta vaqt sarflaymiz va unga o'z faoliyatimizdagi jarayon sabab ekanligini bilmaymiz [3]. Bular biz duch

kelishimiz mumkin bo'lgan muammolarning hammasi emas. Demak, tizimni ham professor o'qituvchilar faoliyatini ham o'zgartirish zarur. Agar biz tizimni o'zgartirishga qodir bo'lmasak, o'zimizni o'zgartirishimiz va tizimga moslashishimiz zarur. Bunda zamonaviy ta'lim sifati menejmenti muhim o'rin tutadi, ya'ni ta'lim tizimi faoliyatini boshqarishda sifatga yo'naltirilganlikka e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizga ma'lumki, inson farovonligining, turmush tarzi sifatining manbaimehnat hisoblanadi. Insoniyat o'zining butun tarixi davomida mehnat faoliyati, uni takomillashtirish, mehnat taqsimoti unumdorligini oshirish bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratgan, chunki uning natijasini sonni yashash muhiti sharoitini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Bu holda, mehnat faoliyatining sifati muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, sifat mehnat bor joyda vujudga keladi va undan ayri holda bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham sifat mehnat jarayonining muhim jihati bo'lib, manfaatdor tomonlarning farovonligiga ta'sir ko'rsatadi, xohish-istaklarini bir so'z bilan aytganda ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Demak, sifat menejmenti manfaatdor tomonlarning, birinchi navbatda mehnat natijalarini iste'molchisining faoliyatni boshqarishga yondashuvni bildiradi.

Sifat menejmentining muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat

- barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilganlikni;
- qaror qabul qilishning vositalari va usullarini;
- faoliyatning samaraliligini kafolatlovchi usullarini;
- mehnat jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini qo'yilgan maqsadlar uchun barcha resurslarni mobilizatsiya qilishni ta'minlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy sifat menejmenti bu rahbarlik va uni qo'llab-quvvatlashning samarali tarkibi bo'lib, korxona va tashkilotlar tomonidan kadrlar uchun qo'yilgan vazifalarni bajarilishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti g'oyalari va usullaridan foydalanish uning barcha bo'g'inlarda: Oliy ta'lim muassasalari darajasida, uning bo'limlarida, fakultet va kafedralarida, kurslarda, guruhlarda, bir so'z bilan aytganda talabalar bilimi, malakasi va ko'nikmalari shakllanadigan va iste'molchilar uchun "qadriyatlar, qiymatlar" yaratiladigan auditoriyalarida amalga oshirilishi zarur [4].

Oliy ta'lim tizimi nuqtai nazaridan "Menejment – fan (predmet) sifatida maqsadlariga erishish uchun talabalar, akademik guruh mehnati, intellekti va xulq-atvoridan foydalana bilish, o'quv jarayoni va talabalarni boshqarish va ularni muvaffaqiyatga yo'naltirish mahorati"dir[3]. "Sifat menejmenti (quality management) – bu sifatga yo'naltirilgan rahbarlik va boshqarishning muvofiqlashtirilgan faoliyati"dir. U sifat menejmenti tamoyillari va dastaklaridan foydalanishga asoslangan, menejmentning barcha funksiyalarini nazarda tutgan holda tashkilotga ta'sir etuvchi uzluksiz jarayon hisoblanadi.

Sifat menejmenti aniq tamoyil va konsepsiyalarga, ularni hayotga tadbiiq etishning amaliy modellari tayanadi. Eng ko'p tarqalgan sifati menejmenti modeli 9000 seriyasidagi ISO xalqaro standartlar modeli hisoblanadi. Ushbu standartlar modeli ko'plab rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida qo'llanilmoqda. Uning tarkibida ta'lim muassasalarining sifat tizimi namunaviy modeli ishlab chiqilgan.

Sifat menejmentining zamonaviy modellari asosida to'liq sifat (*Total Quality*), TQM(*Total Quality management*) tamoyillari va jarayonli yondashuv g'oyasi yotadi. Aynan shu yondashuvlar o'qituvchi faoliyatda o'zining aksini topishi lozim.

TQM aniq tamoyillarga asoslanadi. 9000 seriyasidagi ISO xalqaro standartlarida u sifati menejmenti tamoyili sifatida e'tirof etilgan va ana shu standartlarning asosini tashkil etadi. Ta'limda sifat menejmentining asosiy tamoyillari quyidagilar [6]:

- iste'molchiga yo'naltirilganlik (tashkilotlar o'zlarining iste'molchilariga bog'liq bo'ladilar, ularning joriy va kelajadagi ehtiyojlarini bilishlari, talablarini bajarishlari va ularning istaklarini ular kutmagan darajada bajarishlari lozim);
- rahbarning liderligi (yetakchiligi) (rahbarlar tashkilot faoliyatining maqsadi va yo'nalishi mushtarakligini ta'minlaydilar, maqbul ichki muhitni yaratishi va saqlab turishi orqali ishchilarni tashkilotning vazifalarini bajarishga to'liq jalb qila olishlari lozim);
- ishchilarni jalb etish (barcha darajadagi ishchilar tashkilotning asosini tashkil etadi, ularni ishga to'liq jalb etish esa tashkilot uchun foydali tarzda ishchilar salohiyatidan tashkilot manfaatlari yo'lida samarali foydalanish imkoniyatlarini ochadi);
- jarayonli yondashuv (kutilgan natijaning samarali bo'lishi uchun faoliyat va resurslarni boshqarishda jarayonni boshqarish sifatida qaralishi);
- menejmentga tizimli yondashuv;

- doimiy yaxshilanib borish (faoliyatning doimiy yaxshilanishi maqsadning o'zgarmasligi deb ta'riflash zarur);
- faktlarga asoslangan qarorlar qabul qilish (samarali qarorlar dalil va axborot tahliliga asoslanadi);
- yetkazib beruvchilar bilan o'zaro manfaatli aloqalar (tashkilot va yetkazib beruvchilar o'zaro aloqador va bog'liq va o'zaro manfaatli aloqalar har ikki tomonning imkoniyatlarini oshiradi).

Sifat menejmenti g'oyalari va tamoyillarini amalga oshirish orqali "O'zinga ravo ko'rgan narsani o'zgaga ham ravo ko'rgan" degan aqida asosida amalga oshiriladi. O'zaro hurmat va sheriklik va uni doimo yaxshilab, takomillashtirib borish tamoyillariga asoslangan hamkorlikdagi mehnat sifat menejmentining mohiyatini tashkil etadi. Lekin sifat menejmenti shior emas, balki iqtisodiyot rivojlangan mamlakatlardagi eng yaxshi tashkilotlarda sinovdan o'tgan tamoyil va dastaklar tizimi, insoniyat tarixi davomida yig'ilgan noyob tajriba hisoblanadi. Bu tajriba ISO 9000 seriyasidagi Xalqaro standartlardagi sifat menejmenti tizimida aks etgan.

Oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tizimi masalalariga bo'lgan qiziqish quyidagilar:[2]

- O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinganidan keyingi uning yakunlovchi bosqichi "Sifat bosqichiga" o'tilishi bilan;
- ta'lim va ilmiy xizmatlar bozorida raqobatning rivojlanishi, ta'lim sifati menejmenti natijasida innovatsion rivojlanishga bo'lgan ehtiyojning ortishi;
- davlatning ta'lim tizimida olib borayotgan siyosati va islohotlari;
- sifatni oliy ta'lim muassasalari akkreditatsiyasining asosiy sharti ekanligi;
- har bir sivilizatsiyalashgan mamlakatning Yevropa ta'lim makoniga integratsiyalashuvi va Bolonya deklaratsiyasining imzolanishi kabi omillarga bog'liq.

Bolonya jarayoni ishtirokchilarining Berlin shahrida bo'lib o'tgan yig'ilishida (sentabr, 2005-y.) asosiy oraliq ustuvorliklar belgilangan edi, bular: sifatni ta'minlash, ikki darajali tizim, darajalar va ta'lim davrlarini tan olish hisoblanadi. Bu jarayonda sifat masalasi birinchi o'rinda turibdi, uni ta'minlash oliy ta'lim muassasalarining zimmasiga yuklatiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T, 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". – T, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2012 yil 26-sentyabr. 278-son.
4. Гончаров, М. А. Основы менеджмента в образовании. – М.: КноРус, 2010
5. Ishmuhamedov R., Yo'ldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013. - 268-bet.
6. Рубина М.Ю. Роль системы управления персоналом вуза в обеспечении качества образования. – Москва, "Экономические науки" 2012. Стр. 205-210.

Б.М.Бобокулов, Ш.Шарипов, С.Бобокулов
ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА
ЭФФЕКТИВНОСТЬ И КАЧЕСТВО
СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМ
ОБРАЗОВАНИЕМ

В данной статье изучаются преимущества и необходимость внедрения качественного менеджмента в систему высшего образования, разработаны предложения и рекомендации по методам его применения в этой системе.

Ключевые слова: качество, качество образования, эффективность образования, качество кадров, менеджмент качества, принципы качества менеджмента.

В.М.Бобокулов, Ш.Шарифов, С.Бобокулов
THE FACTORS INFLUENCING ON THE
QUALITY AND EFFECTIVENESS OF HIGH
EDUCATION MANAGEMENT SYSTEM.

In this article were studied preferences of implementation into practice of management quality in high education system. Invitations and recommendations for applying them in this system were presented.

Keywords: quality, quality of education, effectiveness of education, quality of personal, quality of management, principles of quality of management.

UDK: 372.851

BOSHLANG'ICH MATEMATIKA TA'LIMI JARAYONIDA O'QUVCHILARNI MA'NAVY TARBIYALASH**N.Shodiyev¹, R.Musinova²***¹Samarqand davlat universiteti professori, ²Samarqand davlat universiteti magistranti*

Annotatsiya. Maqolada matematika fanini o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari ongi va qalbiga ulug' allomalar va mutafakkirlarning boy ilmiy merosini singdirish orqali ularni ma'naviy tarbiyalash bilan bog'liq masalalar qaraladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, matematika, ulug' allomalar, ilmiy meros, tarixiy meros, didaktik o'yinlar, ma'naviy tarbiya.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida jamiyatimizning umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagoglar jamoasi oldiga o'quvchilarda " ... asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantiradi..." [1] - degan davlat ahamiyatiga molik vazifa qo'yilgan.

Shu munosabat bilan maqolada boshlang'ich matematika ta'limi (I–IV sinflar) jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashga yo'naltirilgan materiallarni namoyon qilish, to'plash, tizimlashtirish hamda didaktik qayta ishlash orqali ularni ta'lim jarayoniga mantiqiy singdirishning prinsipi, metod va vositalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ayni paytda o'tkazilgan tahlillar boshlang'ich matematika fani namunaviy dasturi uqtirish xatida ham mazkur dasturning mavzu va savollarida ham predmet o'qituvchilariga dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiyalash bo'yicha aniq tavsiya, ko'rsatmalar berilmaganligidan dalolat bermoqda.

Matematika ta'limi jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashga doir ushbu holatni bartaraf etish yo'llaridan biri – bu ta'lim jarayonida o'qitishning tarixiylik, o'lkashunoslik, ilmiylik, ta'lim-tarbiyaning birligi va boshqa prinsiplardan o'rinli va izchil foydalanishdir. Jumladan, I–IV sinflarda matematika fanidan u yoki bu mavzuni o'qitishda tarixiylik prinsipini qo'llash o'quv materiali mazmunini milliy lashtirishga, o'quvchilar ko'z o'ngida o'tmish ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy matematika tarixini gavdalantirishga imkon berishini ta'kidlash joiz.

Matematikani fan sifatida kelib chiqishiga to'xtalib, ulug' mutafakkir Abu Rayhon Beruniy "Geodeziya" nomli asarida "Barcha fanlar kabi matematika ham kishilarning amaliy ehtiyojlaridan, yer bo'laklari maydonini va idishlarning sig'imini o'lchashdan, vaqtni hisoblash va mexanikadan kelib chiqqan... Hisoblash va yuzalarni o'lchash matematika deyilgan fanning asosi bo'ladi. Bularning amaliy ishlarga tatbig'i geometriya fanini yaratadi...", deb yozadi[5].

Shu bois yurtboshimiz I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q" [2] asarida olg'a surgan g'oyalari va qarashlari boshlang'ich matematika ta'limi jarayonini milliy negizga qurish bilan bir qatorda, o'quvchilarda tarixiy xotirani kuchaytirishini, o'zbek millatiga daxldorlik hissini uyg'otishini, ma'naviyatini yuksaltirishini yoddan chiqarmaslik kerak.

Shu munosabat bilan boshlang'ich matematika fani dasturlarining mavzu va savollarini ta'limning tarixiylik prinsipi asosida o'tkazilgan tahlillari mazkur fanni o'qitish jarayonida uning aksariyat mavzu va savollari kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish orqali ularda ma'naviy tarbiya elementlarini shakllantirish uchun keng potensial imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Jumladan, "10 ichida qo'shish va ayirish..." [9], "100 ichida qo'shish va ayirish..." (1-sinf) [9]; "100 ichida sonlarni xona orqali o'tib qo'shish va ayirish: Tenglama va tenglamalarni yechish"; "Ko'paytirish va bo'lish: $x \cdot 2 = 12$, $20 : x = 5$, $x : 3 = 4$, $6 \cdot x = 18$ ko'rinishidagi tenglamalarni... yechish" (2-sinf) [9]; "1000 ichida qo'shish va ayirish: $x + 125 = 142$, $256 - x = 196$ ko'rinishidagi tenglamalarni yechish" [9]; " $x + 316 = 654 = 85$, $729 - x = 217 + 163$, $x - 137 = 500 - 140$ ko'rinishidagi tenglamalarni yechish..." [9]; "Natural sonlarni ko'paytirish va bo'lish: $6 \cdot x = 426 + 120$, $x : 18 = 70 - 50$, $360 : x = 630 : 7$ ko'rinishidagi tenglamalarni yechish" (4-sinf) [9] kabi mavzu va savollarni o'rganishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarni buyuk bobokalonimiz Muhammad al-Xorazmiy o'zining "Arifmetik risolasi"da [7] sonlarni qo'shish va ayirish, ko'paytirish va bo'lish kabi amallarni qo'llashni dunyoda birinchi bo'lib bajarganligi va bu kashfiyot tez orada barcha qit'alarga tarqalib ketganligi bois uning tabarruk nomi dunyo fanida algoritm deb atala boshlaganligi; musbat va manfiy sonlarni hozirga vaqtdagidek "+" (plyus) "-" (minus) tengliklari

bilan atalmagan vaqtda ularni qo'shish va ayirish ma'nosida "qo'shiluvchi" va "ayriluvchi" sonlar deb atalganligini o'quvchilarga tushuntirib borish ularda katta qiziqish uyg'otadi.

Ayni paytda Mirzo Ulug'bek shogirdi – Ali Qushchi [6] al-Xorazmiyning "Qo'shiluvchi" va "Ayriluvchi", deb ataluvchi sonlar haqidagi fikrini rivojlantirib matematika faniga dunyoda birinchi bo'lib, "musbat" va "manfiy" atamalarni kiritganligi bilan u fanlarni tanishtirish ularning tarixiy xotirasini yanada kuchaytiradi.

Yuqorida bayon qilingan "Tenglama, tenglamalarni yechish, barcha ko'rinishdagi qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish bilan bog'liq tenglamalarni yechish" mavzu va savollari barcha sinflarda o'rganish ko'zda tutilganligi munosabati bilan o'qituvchi matematika o'tmishda odamlarning turmushi, hayotiy ehtiyojlari tufayli vujudga kelib, rivojlanib borayotganligi, turli-tuman muammolarni matematika fani yordamida matematika tilida ifodalash va hal qilish mumkinligini o'quvchilarga bosqichma-bosqich tushuntirib borish joizdir. Xususan, "Algebra", deb ataluvchi fanga asos solgan Muhammad al-Xorazmiy o'zining "Al-jabr va al-muqobala" asarida tenglamalar tuzish orqali ota-bobolardan qolgan merosni istalgan sondagi merosxo'rlar orasida odilona taqsimlash mumkinligini kichik yoshdagi o'quvchilarga ko'rsatish, shubhasiz ularni hayratga soladi.

Boshlang'ich matematika ta'lim dasturida uning amaldagi tadbiqu bo'lgan geometriya shakllari, ya'ni geometrik shakllar (kesma to'g'ri chiziq kesmasi, uchburchak, to'rtburchak va h.k)ni o'rganish ko'zda tutilgan. Masalan, "Narsalarning uzunligi... Santimetr uzunlik o'lchov birligi... Uzunlik birliklari... Kesmani santimetr, detsimetr va metrda o'lchash" kabi mavzu va savollarni [9] o'rganish jarayonida o'quvchilarni buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida uzunliklarni o'lchashni standartlashtirishga ehtiyojtug'ila boshlaganidan darak beruvchi qiziqarli misollarni qilganligi bilan tanishtirish ularda hayratlanish tuyg'usini uyg'otadi. Alloma "Mahbub ul-qulub" asarida bo'yi uzun sotuvchi (xizmatchi)si bo'lgan do'kondor yutqazgan, xaridor yutgan va teskari bo'yi past sotuvchi (xizmatchi)si bo'lgan do'kondor yutgan, xaridor esa yutqazgan degan fikrni bayon qilgan. Shu bois Alisher Navoiy savdogarlar o'z do'konlariga bo'yi past kishilarni xizmatga olishga harakat qilganlar, ya'ni savdoda adolatni buzganlar, deb ma'lumot beradilar [8].

Mazkur fikrlarni o'quvchilar tomonidan chuqurroq anglashlariga erishish maqsadida "Kesmalarni uzunliklarini taqqoslash (murakkablashtirib boruvchi topshiriqlar)" (3-sinf) [9] mavzusi bo'yicha amaliy ish mashg'ulotini interfaol usulda tashkil etish joiz. Bunda 3-sinf o'quvchilari dastlab juft-juft bo'lib, bir-birlari bilaklarining uzunliklarini shartli o'lchov asbobi (yoki santimetrli lineyka) yordamida o'lchaydilar va bir-biri bilan taqqoslab juftlikdagi uzun bilakli va kalta bilakli o'quvchini aniqlaydilar. Ikkinchi bosqichda uzun bilakli deb topilgan barcha o'quvchilar o'zlarining ko'rsatkichlarini birma-bir taqqoslash orqali sinfning "eng uzun bilakli" o'quvchisi aniqlanadi. Kalta bilakli o'quvchilar toifasiga kirgan o'g'il va qiz bolalar ham birgalikda yuqorida ko'rsatilgandek, sinfning "eng kalta bilakli" o'quvchisini aniqlaydilar.

Uchinchi bosqichda o'qituvchining yordamida "uzun bilakli" va "kalta bilakli" deb hisoblangan guruhlarga kirgan o'quvchilar o'z navbatida "uzun bilaklidan pastroq", "kalta bilaklidan yuqoriroq" guruhlarga ajratiladilar.

To'rtinchi bosqichda, yuqorida ko'rsatilgan "eng uzun bilakli", "eng kalta bilakli", "uzun bilakli", "uzun bilaklidan pastroq bilakli", "kalta bilakli" va "kalta bilaklidan yuqoriroq bilakli" guruhlarning har biri "kalta bilak" bilak o'lchangan bahosi 8 ming so'm bo'lgan shoyini sotishda xaridor va do'kondorlarning yutishi yoki yutqazgani hisoblanadi bir-birlari bilan mos ravishda taqqoslanib va do'kondor doimiy ravishda yutqazsa u bankrot bo'ladi, bu esa savdo-sotiqning rivojlanishiga zid, degan xulosaga keladilar.

Shu bois o'quvchilar kishilik jamiyati uzunlikni o'lchashda standartlashtirilgan o'lchov birligi metr, detsimetr, santimetr, millimetrga o'tgan, degan xulosaga keladilar.

Ma'lumki, inson tomonidan, shu jumladan, milliy xalq hunarmandlari tomonidan yaratilgan buyumlar, ularning ayrim qismlari ma'lum ko'rinishdagi geometrik shakllardan iborat. Ularning ayrimlarida kishilarda estetik zavq uyg'otish uchun ma'lum ko'rinishdagi geometrik shakllar yoki ularning yig'indisi asosida naqshlar chizilgan.

Hunarmandchilik buyumlaridagi bunday shakllar sirasiga aylana, uchburchak, to'rtburchak, kvadrat, romb, ko'pburchaklarni ko'rsatish mumkin.

Dars jarayonida o'quvchilarga buyumlarning qanday geometrik shakllardan iborat ekanligi ko'rsatib yuborilsa yoki ulardan o'zlariga tanish geometrik shakllarni topish talab etilsa, kichik maktab o'quvchilarning geometrik tasavvurlari kengayadi, buyum haqidagi tasavvuri chuqurlashadi.

Bu ishlarda o'quvchilarning faolligini oshirishda mashg'ulotni g'oyali o'yin interfaol usulida olib borish asqotadi.

Shu bois 4-sinf matematika fani dasturida rejalashtirilgan "Yassi shakllar: doira, uchburchak, to'g'ri to'rtburchak... Ushbu shakllar haqidagi bilimlarini umimlashtirish" [9] mavzusini o'rganish jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish maqsadida mashg'ulotlarni kichik guruhlarda tashkil etish asqotadi.

Shunga ko'ra sinf o'quvchilari to'rt guruhga bo'linadilar: 1-guruh – aylana guruhi, 2-guruh – uchburchak guruhi, 3-guruh – to'rtburchak, 4-guruh – nazoratchi guruh nomlarini oladilar.

Mazkur guruhlar a'zolari mos ravishda aylana, uchburchak, to'rtburchak shakllariga oid ma'lumotlarni o'rganadilar. Bunday shakllar qaysi sohada qo'llanilishini aniqlaydilar, aylana, uchburchak, to'rtburchak shakllari tushirilgan hunarmandchilik buyumlari, bunda qo'llaniladigan mehnat qurollari bilan tanishadilar hamda ular haqida navbati bilan so'zlab beradilar. Nazorat guruhi a'zolari esa o'quvchilarning aytgan so'zlarini diqqat bilan tinglab, tahlil qilib, ball qo'yib beradilar.

Guruhlardagi o'quvchilar sonidagi o'quvchilar sonidan muayyan sharoitdan kelib chiqib aniqlanadi. Mashg'ulotni o'qituvchi boshqaradi. U mashg'ulot mavzusi, maqsadini tushuntirgandan keyin, oldindan berilgan topshiriqlar bo'yicha yuqorida ko'rsatilgan tashkiliy ishlar amalga oshiriladi.

Aylana guruhi o'quvchilarining so'zlab berganlari:

1-o'quvchi. Berilgan nuqtadan teng uzoqlikda yotgan nuqtalardan o'tuvchi yopiq siniq chiziqdan iborat shaklni aylana deb aytiladi. Eng sevimli taomimiz – uy noni ham aylana shaklida tayyorlanadi, non, somsa pishiriladigan tandirning tom (ustki qismi) ham aylana qilib yasaladi.

2-o'quvchi. Yozning issiq kunlarida suvni sovutib beradigan sopol ko'za, gul tuvak, sopol quvurning ikki tomoni ham aylana asosida yasalgan.

3-o'quvchi. Qo'li gul kulollar tayyorlagan tovoq, kosa, choynak, piyola kabilarning asoslari ham aylana qilib yasaladi.

4-o'quvchi. Xalqimiz sevimli eshitadigan kuylarni aylana asosida yasalgan doirasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

5-o'quvchi. Duradgor, sandiqsoz, zargar, chilangar kabi ustalar ishlatadigan yumaloq yarim yumaloq egovlar, ignalar, sim, xoda aylana sirtiga ega bo'lgan materiallar ko'p ishlatiladi.

6-o'quvchi. Har bir xonadon to'rida ilib qo'yilgan kashtaning muhim qismini turli rangli iplardan tikilgan aylanalar tashkil qiladi. Shuningdek, xalqimiz orasida keng tarqalgan do'ppilar ham aylana asosida tikiladi.

Uchburchak guruhi a'zolari so'zlab berganlari:

1-o'quvchi. Hayotimizni farovon bo'lishida uchburchak shaklida tayyorlangan buyumlar ham keng qo'llaniladi. Uchtatomonivauchtauchibo'lganshaklniuchburchak deb ataymiz.

2-o'quvchi. Duradgor, sandiqsoz, chilangar va boshqalar ishlatadiganyog'och, metall va boshqa materiallarni kesishda ishlatadigai arralarning tishlari uchburchak shaklida yasaladi. Ayrim kesuvchi asboblarning tishlari ham uchburchak shaklini eslatadi.

3-o'quvchi. O'zbek xalqining milliy bosh kiyimiga aylanib bo'lgan do'ppi tepasining har bir karjida qalampir nusxasi yoki bodom gulining uchlari uchburchak shaklini eslatadi.

4-o'quvchi. Uy jixoz buyumlaridan stul, stol, shkaf va shu kabi moslamalar (ilgich)ning oyoqlari ham kamida uch oyoqli bo'lishi kerak.

To'rtburchak guruhi a'zolari so'zlab berganlari:

1-o'quvchi. Xalq xunarmandlari tomonidai tayyorlanib xalqimiz keng foydalanayotgan buyumlarning eng ko'p uchraydigan shakllari to'rtburchakdir. To'rt tomoni va to'rt uchi bo'lgan shaklli to'rtburchak deb ataymiz.

2-o'quvchi. Duradgor, sandiqchi, beshikchi eshik, deraza, stol, stul, sandik, beshik, sandal kabi uy jixozlarining asosini to'rtburchak shaklida tayyorlaydilar.

3-o'quvchi. Kashtachi to'rtburchak shaklidagi matoga kashta bezaklarini tikadi.

4-o'quvchi. Faner, tunika kab imateriallar ham to'rtburchak shaklida ishlab chiqiladi. Hunarmandlar ishlatadigan mehnat qurol (randa, iskana, bolta, kabi asbob)larning qismlari to'rtburchak ko'rinishida buladi.

5-o'quvchi. Bosh kiyimimiz do'ppining ham to'rt tomoni, to'rtburchagi bor va h.k.

Dars oxirlashib qolganda nazoratchilar guruhidan bir kishi uchala guruh o'quvchilari to'plagan ballarni e'lon qiladi. Mashg'ulotni yakunlashda o'qituvchi bajarilgan ishlarni sharhlab, faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiradi hamda kelgusida yana qanday mavzulardagi roli o'yin tariqasida o'tkazish lozimligini aniqlab, o'quvchilarga topshiriqlar beradi.

Shunday qilib, dars mashg'ulotini interfaol usulda tashkil etish o'quvchilarning erkin, mustaqil ishlashlari, fikrlashlari, geometrik shakllar haqidagi o'z tushunchalarini bayon qilishlari uchun keng imkoniyat yaratish barobarida ularning ma'naviyatini yuksaltirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, mazkur fanning "Geometrik shakllarni qismlarga bo'lishga doir, kichik shakldan katta shakl tuzishga doir masalalar. Sirkul yordamida berilgan radiusli doira (aylana)ni chizish. Doira (kvadrat, to'g'ri to'rtburchak)ning bir qismi, ikkidan bir, uchdan bir... qismini grafik tayyorlash" [9] kabi mavzu, savollarni o'rganish jarayonida Abul Vafo Buzjoniy "Hunarmandlarga xandasa (geometrik) yasashda nimalar zarurligi haqida kitob"ini [4] geometrik yasashlarda zarur bo'lgan chizg'ich, pargor (sirkul), guniya kabi asboblardan qanday foydalanish usullarini hamda kesmalarni, burchaklarni, aylanalarni teng bo'laklarga bo'lish kabi yasashlar bilan bog'liq mavzularni joylashtirish ketma-ketligini xunarmandlarning o'zlashtirish qobiliyatlariga moslashtirib yozganligi bilan o'quvchilarni tanishtirib borish ularning tarixiy xotirasini boyitadi. Shu munosabat bilan mustaqillik yillarida kulolchi, duradgor, zargar, kashtachi, do'ppido'z, misgar kabi hunarmand ustalar geometrik shakllarning sharqona kompozitsiyalarini qo'llashlari tufayli ular yaratgan buyumlarga chet el fuqarolarining qiziqishi oshib borayotganligi hamda mamlakatimiz eksport qudratiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganligi bilan o'quvchilarni tanishtirish ularda hayratlanish tuyg'usini uyg'otishini, matematika faniga qiziqishini orttirishini yoddan chiqarmaslik kerak.

Yuqorida bayon qilinganlarni amalga oshirish, shubhasiz, o'qituvchidan o'z kasbiy-pedagogik tayyorgarligini oshirib borishi o'quvchilarning individual xususiyatlari, his-tuyg'ularini chuqur bilishi, ta'limning faol usullaridan foydalana olishi, o'quvchilarda matematikani o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini shakllantirish uchun ularni hayratlantiradigan boy milliy kadriyatlarimizga doir materiallarni muntazam ravishda yig'ib borishi, ularni tizimlashtira olishi va didaktik qayta ishlashi talab qilinadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: Sharq, 1997. -47 b.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan suhbat. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.-25-27 b.
3. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasida so'zlagan nutqi // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. -8-10 b.
4. Axmedov S. O'rta Osiyo arifmetika taraqqiyoti va uni o'qitish tarixi. Ikkinchi qayta ishlangan va to'ldirilgan nashr. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
5. Beruniy. Geodeziya, Toshkent, 1966. -33-34 b.
6. Ibodov J. Matvievskaia G. Ulug'bek shogirdi – Ali Qushchi. – Toshkent: Fan, 1994.-114-117 b.
7. Мухаммад ал-Харизми. Математическим трактати. Б.А.Розенфелд ва Ю.Х.Копелевич таржимаси. Б.А.Розенфелд изохи. – Тошкент: 1964. 82-84 б.
8. Alisher Navoiy. Maxbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.-151-154 b.
9. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standarti o'quv dasturi. Matematikadan o'quv dasturi. (I–IV sinf) // Ta'lim taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining Axborotnomasi. 2-maxsus son. – Toshkent: Sharq, 1999, 2-son. -100-115 b.

Н. Шодиев, Р. Мусинова
ПРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ
УЧАЩИХСЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ
МАТЕМАТИКИ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ
ОБУЧЕНИЯ

В статье рассматриваются вопросы, связанные с духовным воспитанием учащихся начальных классов при изучении математики путем внедрения в их сознание и души богатое научные наследие наших предков.

Ключевые слова: начальное обучение, математика, великие мыслители, научное наследие, историческое наследие, дидактические игры, нравственное воспитание.

N. Shodiyev, R. Musinova
MORAL EDUCATING OF PUPILS IN THE
PROCESS OF PRIMARY STAGE OF
TEACHING MATHEMATICS

The article observed the questions, which depend on spiritual education of primary classes in studying mathematics by conveying to their heart and mind the wealthy scientific heritage of our ancestors.

Keywords: primary education, mathematics, great thinkers, scientific heritage, historical heritage, didactic games, spiritual upbringing.

FAXRIYLARIMIZ –IFTIXORIMIZ!



Davlat va huquq tarixi hamda nazariyasi sohasida samarali tadqiqotlar olib borib, uning natijalarini o'qish jaroyoniga muvaffaqiyatli joriy etayotgan huquqiy fanlar kafedrasining professori, yuridik fanlar doktori **Ziyodulla Muqimov** uchun 2015-yil juda samarali bo'lib, qator respublika va viloyat tanlovlarining g'olibi bo'ldilar.

Professor Ziyodulla Muqimov 1976-yildan shu kunga qadar Samarqand davlat universitetining yuridik fakultetida, hozirda esa "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq ta'limi" yo'nalishi talabalariga „*Davlat va huquq tarixi hamda nazariyasi*“ fanlaridan mana 45 yildan beri dars berib, ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Domla o'qituvchilik faoliyatida shogirdlar chiqarish bilan birga 10 ta monografiya, 7 ta o'quv qo'llanma, 5 ta darslik, 300 dan oshiq ilmiy o'quv uslubiy ishlar yozib, nashr yettirdilar, ular respublikamiz ilmiy jamoatchiligi tomonidan ijobiy baholanib, boshqa oliy yuridik o'quv yurtlarida ham ta'lim jarayonida qo'llanilmoqda.

Professor Ziyodulla Muqimov "*Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi*" (Toshkent: Akademya, 2012.) ; *O'zbekiston davlati va huquqi tarixi* (Toshkent: Navro'z, 2013.) darsliklari hamda "*Davlat va huquq nazariyasi muammolari*" o'quv qo'llanmalari bilan Yilning eng yaxshi darsligi va o'quv adabiyoti muallifi" Respublika tanlovlarining 2014, 2015-yillar g'olibi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi, Xalq ta'limi vazirliklari, "Iste'dod" jamg'armasining diplomlari va sovrinlariga sazovor bo'ldilar. Shuningdek, bu yil Oliy ta'lim tuzilishida ilk bor o'tkazilgan "*Oliy ta'lim muassasining eng yaxshi pedagogi – 2015*" tanlovida qatnashdilar. Ustoz uning Respublika bosqichida – o'qish jarayonini amaliyotga yaqinlashtirish maqsadida talabalarga mashg'ulotlar davomida turli yuridik holatlarga oid huquqiy masalalar (kazuslar) kiritishni joriy qilish va bu borada o'zlari ishlab chiqqan uslubiy tavsiyalarni, to'ralig'cha – o'zining pedagogik konsepsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Tanlov komissiyasining qaroriga ko'ra, „*Mutaxassisligi bo'yicha eng yaxshi pedagog - 2015*“ nominatsiyasida g'olib deb topilib, faxriy diplom va pul mukofati bilan taqdirlandi. 2015-yilning 27-dekabirida esa viloyat hokimligi tomonidan o'tkazilgan „*Samarqand iftixorlari*“ tanlovida o'zining ilmiy ishlari, bu boradagi yutuqlari bilan qatnashib, „*Ilm-fan fidoiylari*“ nominatsiyasi bo'yicha g'olib deb topilib, viloyat hokimining tashakkurnomasi hamda mukofotlariga sazovor bo'ldi.

Bugungi kunda mohir pedagog va huquqshunos olim, Samarqand davlat universitetida xizmat ko'rsatgan professor Ziyodulla Muqimovni ushbu yutuqlar bilan muborakbod etib tabiriklaymiz, ustozga mustahkam sog'lik, uzoq umr, tinchlik va baxt-saodat tilaymiz.

Tahririyat

MILLIY MAFKURAMIZ TARG'IBOTINING METODOLOGIK ASOSI

Mustaqil davlatimizning ravnaqi, kelajakdagi istiqboli ko'p jihatdan yosh avlodning ilmiy ma'naviy salohiyatiga bog'liqdir. Yoshlarning ma'naviy barkamollik darajasi milliy g'oya asoslarini ularning qalbi va ongiga, shuuriga nechog'lik singdirilganligi bilan belgilanadi. Shu bois milliy g'oya va mafkurani maxsus fan sifatida o'rganish, milliy g'oyani yoshlar ongi va qalbiga singdirishning usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish ijtimoiy siyosiy fanlar sohasidagi tadqiqotchi olimlar oldida turgan dolzarb vazifadir. Mana shunday dolzarb muammolarga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlardan biri, milliy g'oya va mafkuramizning jonkuyar targ'ibotchisi, SamDU professori J. Yaxshilikov va dotsent N.E. Muhammadiyevlar tomonidan yaratilgan "Milliy g'oya va mafkura" nomli monografiyadir.

Hozirgi murakkab globallashuv jarayonlarida yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda, ularda milliy o'zlikni anglash va iftixor tuyg'usini shakllantirishdek mas'uliyatli sohada mazkur monografiya ilmiy nazariy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur monografiyada milliy g'oya va mafkuraning fan sifatida vujudga kelishining obyektiv va subyektiv, ichki va tashqi asosiy sabablari, qonununiyatlari hamda kategoriyalari, jamiyatda ijtimoiy funksiyalari va vazifalari, ta'lim tizimida boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar bilan o'zaro munosabati ilmiy jihatdan batafsil tadqiq etilgan.

Mualliflar g'oya va mafkura tushunchalariga berilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda, g'oyalar tasnifiga jamiyatdagi ijtimoiy funksiyasiga nisbatan yondashdilar hamda ularning ontologik va gneseologik xarakterga ega ekanligini ob'ektiv tarzda asoslab beradilar. Monografiyada shuningdek milliy g'oya va mafkuraning tarixiy ildizlari tahlil etilar ekan, tadqiqotchilar Markaziy Osiyo allomalarining adolatli jamiyat qurish borasidagi falsafiy fikrlariga tayangan holda vorisiylik tamoyilidan kelib chiqqan holda ularning bugungi kunda fuqarorlik jamiyatini bunyod etishdagi ahamiyatini asoslab beradilar.

Milliy g'oya va mafkuramizni targ'ibot va tashviqoti jarayonlarida mutaxassislar bosh va asosiy g'oyalarning mazmun mohiyatini ochgan holda xalq orasida ish olib borishdan iborat ekanligini mualliflar ko'rsatib berar ekanlar, uni tashkil etish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqqanlar. Mualliflar tomonida ishlab chiqilgan bu amaliy tavsiyalar ma'naviy ma'rifiy targ'ibot jarayonlarida mutaxassislar uchun nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimida yoshlar ongi va qalbiga milliy g'oya va mafkurani singdirishning nazariy metodologik asoslari monografiyada batafsil yoritib berilgan. Monografiyada kishilarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish jarayonida globallashuvchi va universallashtiruvchi omillarini, hamda bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasini, geosiyosat tushunchasi, geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat, mafkuraviy profilaktika amalga oshirish chora-tadbirlarini yoritishga qaratilgan.

Jamiyat barqarorligini taminlashda millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik, dinlararo bag'rikenglik kabi omillarning ta'siri beqiyos ekanligini obyektiv tarzda asoslab berganlar. Monografiyada jamiyat taraqqiyoti yuksalishi doimo tafakkur o'zgarishini va ma'naviy yangilanib borish zaruriyati ekanligini, shu asosda milliy o'zlikni anglash natijasida barkamol avlod tarbiyalanib borishining muhim omili ekanligi yoritib berilgan. Mazkur tadqiqotda milliy g'oyani rivojlantirishning institutsional tizimida g'oyaviy ta'lim-tarbiya, ma'naviy tarbiya tushunchalari, ularning mazmuni, namoyon bo'lish xususiyatlarini hamda kishilar ongi va qalbiga singdirishda adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalari, oila, mahalla, nodavlat-notijorat tashkilotlari, ma'naviy madaniy va ma'rifiy muassasalarning o'rni va ahamiyatini kengroq yoritishga harakat qilingan.

Monografiya ravon, tushunarli va sodda tilda yozilgan bo'lib o'quvchida mutoala jarayonida hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Shu bois mazkur monografiya «Ommaviy madaniyat» tahdid solib turgan hozirgi murakkab globallashuv sharoitida yoshlarda milliy o'zlikni anglash va Vatan tuyg'usini shakllantirishda, ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasidagi targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishda muhim nazariy va metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

SamDU dotsenti A.Azizqulov

IQTIDORLI OLIM, FAOL JAMOATCHI VA BILIMDON HUQUQSHUNOS

So'z yuritmoqchi bo'lganimiz ushbu inson - tavalludining 70 bahorini qarshi olayotgan Samarqand davlat universiteti fakultetlararo nemis, fransuz va rus tillari kafedrasida professori, filologiya fanlari nomzodi Muso Muhammadiyevich Yo'ldoshev bizning zamondoshimiz, hamkasbimiz va hamkorimiz bo'ladilar.

Muso Yo'ldoshev 1946-yilda Ishtixon (sobiq Mitani) tumanida tavallud topgan. O'rta maktabni tugatgach yosh Muso 1963-yilda Samarqand davlat universiteti chet tillar fakulteti talabalari safidan o'rin oldi. 1968-yilda universitetni a'lo baholar bilan tugatdi. O'zining tashkilotchilik qobiliyatini ko'rsata olganligi hamda dorilfununni a'lo baholar bilan tugatganligini e'tiborga olib, chet tillar fakulteti fransuz va lotin tillari kafedrasiga ishga olib qolindi. 1971–1972-yillarda Ukrainaning Lvov davlat universitetida lotin tili bo'yicha qayta tayyorlash kursini tugatdi.

Mehnat faoliyati davomida Muso domla 1975-yilda huquqshunoslik fakultetining kechki bo'limiga o'qishga kirib, uni 1981-yilda muvaffaqiyatli tugatdi. Domla 1980-yilda sobiq SSSR Fanlar akademiyasining tilshunoslik institutiga tadqiqotchi sifatida qabul qilinadi va 1986-yilda mashhur turkolog olim, professor Ganjiev Ninel Zaynalovna rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasining sohibi bo'ldi.

Mehnat faoliyati jarayonida o'zini ko'rsata olgan Muso Yo'ldoshev dastlab chet tillar fakulteti sport ishlari bo'yicha dekan muovini, keyinchalik fakultet kasaba tashkilotining raisi etib tayinlandi. 1986-yildan 2001-yilgacha universitet kasaba uyushmasi qo'mitasi raisligi lavozimida samarali ishladi. 1996-yildan Janubiy Qozog'iston universiteti rahbariyati tomonidan huquqshunoslik fakultetiga lotin tili va Rim huquqidan ma'ruza o'qish uchun taklif qilindi. Dars o'tish jarayonida fakultet ishchi o'quv dasturini tayyorlashda uslubiy yordam berganligi va o'quv qo'llanmasi yozib berganligini e'tiborga olib, professor lavozimiga qabul qilindi va keyinchalik beg'araz ko'rsatgan ilmiy, uslubiy yordamlari evaziga professor diplomi bilan taqdirlandi.

2001-yildan boshlab o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan maktab o'qituvchilari uchun ochilgan maxsus sirtqi bo'lim dekani vazifasiga tayinlandi.

Shuningdek, Muso Muhammadiyevich viloyat miqyosidagi jamoat ishlarida ham faol qatnashib kelmoqda, Oliy Majlisga deputat saylovida okrug raisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovni o'tkazishda uchastka komissiyasi a'zosi, Mahalla fuqarolari yig'ini raisligiga o'tkazilgan saylovlarda huquqshunos maslahatchisi kabi topshiriqlarni bajarib kelmoqda.

Muso Muhammadiyevich Yo'ldoshev mehnat faoliyati davomida 120 dan ortiq ilmiy, ilmiy-uslubiy va ilmiy-ommabop maqolalar chop etdi. Shuningdek, Muso Yo'ldoshev tomonidan lotin tili fanidan chop etilgan darslik va o'quv qo'llanmalari talabalar uchun zarur o'quv adabiyotlari vazifasini o'tamoqda.

Muso Muhammadiyevich Yo'ldoshev O'zbekiston Xalq ta'limi a'lochisi va O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20-yilligi ko'krak nishonlari hamda universitetda xizmat ko'rsatgan dotsent diplomi bilan taqdirlangan. Hozirgi kunda filologiya fakultetining fakultetlararo nemis, fransuz va rus tillari kafedrasida dotsenti lavozimida mehnat qilib kelmoqda.

Muso Yo'ldoshev harakatchan, mehnatsevar, to'g'ri so'zli, boshqalarga ko'maklasha oladigan, yurt kezan, ko'p tilni biladigan, lotin tili va Rim huquqi mutaxassisi, turkiy tillar genezisining tadqiqotchisi, tillarning qiyosiy grammatikasi (Yevropa va turkiy tillar) bo'yicha respublikamizdagi taniqli mutaxassis, mohir tarjimon, adabiyotshunos va tanqidchi, shirin suhbatdosh, eng asosiysi oddiy va kamtarin inson.

Xullas, u kishining ilmiy-ma'rifiy, ta'lim sohasiga oid maqolalari, suhbatlari, tarjimalari, mulohazalari, taqrizlarini iqtidorli olim, roman va turkiy tillarning zahmatkash tadqiqotchisi, mohir tarjimon, yetuk huquqshunos, filologiya fanlari nomzodi, Janubiy Qozog'iston va Samarqand davlat universiteti professori Muso Muhammadiyevich Yo'ldoshev ilmiy ijodiy faoliyatining ko'zgusi, desak bo'ladi. Ushbu ko'zguda biz yuqorida sanab o'tgan Muso Yo'ldoshevning barcha ijobiy fazilatlarini va xislatlarini ko'rinib turibdi.

Muso Muhammadiyevich oilasi yurtimizdagi ibratli oilalardan biri hisoblanadi.

A.Nurmuhammedov, SamDU da xizmat ko'rsatgan dotsent, O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi,

A.Pardaev, SamDU professori,

A.Xasanov, SamDU katta o'qituvchisi

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:**UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiya, ismi, otasining ismi –o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail:axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Mas'ul kotib:
Musahhih:
Texnik muharrirlar:
Dizayner sahifalovchilar:

R. Sh. Toshquvatova, fals.f.n., dotsent
M.M. Ro'ziboyev
S. D. Aronbayev
X. Sh. Tashpulatov
A. I. Inatov

Muassis: Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (8 366) 239-14-07, Faks: (8 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 04.05.2016 yilda ruxsat etildi. Qog'ozo'lchami A-4. Nashriyot hisobtabog'i 10,00.
Buyurtma raqami 23. Adadi 500 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitethiyoboni, 15.
SamDUBosmoxonasida chopetildi.